

O_ ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI

A K A D E M I Y A

HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASI
FAOLIYATI PSIXOLOGIYASI

*O_zbekiston Respublikasi IIV tomonidan
Vazirlik oliy ta'lim muassasalari uchun
darslik sifatida ruxsat etilgan*

O_zbekiston Respublikasi IIV
Akademiyasi boshlig_i
Sh.T. Ikramovning umumiy tahririda

Toshkent – 2015

T a q r i z c h i l a r :

O‘zbekiston Respublikasi IIV Huquqbuzarliklarning oldini olish bosh boshqarmasi boshlig_ning o‘rinbosari podpolkovnik **I.S. Jaxongirov**;

yuridik fanlar nomzodi, dotsent

I.A.Sottiyev;

psixologiya fanlari doktori, professor

E.G., G.,oziyev

H-98 **Huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyati psixologiyasi:**
Darslik / Y.A.Farfiyev, M. Z.Ziyodullayev, J.S.Muxtorov,
B.F.Alimov va boshq.; Sh.T. Ikramovning umumiy tahririda. – T.:
O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2015. – 367 b.

Darslikda huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyatida amalga oshirilayotgan zamonaviy tadqiqotlar asosida psixologik bilimlarga tayangan holda turli toifadagi huquqbuzar shaxslar bilan psixologik aloqa o‘rnatish yo‘llari, huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyatining axloqiy-ma‘naviy, masalalari ko‘rib chiqiladi. Ichki ishlar organlari xodimlari xizmat faoliyatida kasbiy buzilish va uni bartaraf etish choralari, profilaktik faoliyatni amalga oshirishda fuqarolarga psixologik ta‘sir etishning alohida usullari bayon etiladi. Profilaktik ishlar subyektlarining turli xulq-atvor shakllari va ruhiy-emotsional holatlari, imo-ishora, mimika, yuz ifodasi, harakatlanish, muomala uslubini psixologik jihatdan sharhlashga doir nazariy va amaliy qoidalar bayon etiladi.

Huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyati psixologiyasini o‘rganayotgan tinglovchi va talabalar, ilmiy tadqiqotchilar hamda professor-o‘qituvchilarga, shuningdek, ichki ishlar organlarining amaliyotchi xodimlariga mo‘ljallangan.

BBK 88.4я73

SO,Z BOSHI

Hozirgi kunda mamlakatimiz mustaqilligini himoyalash, xavfsizligini ta'minlash, jinoyatchilikka qarshi kurash, adolat va qonun ustuvorligiga erishish ichki ishlar organlari xodimlarining jamiyat va davlat oldidagi muqaddas burchidir.

Shu bois, ichki ishlar organlari sohasidagi islohotlar endilikda Vatan himoyasi, mamlakat taqdiri uchun jonkuyar, fidoyi xodimlarni tarbiyalab yetishtirish vazifasini qoymoqda. Chunki bugungi murakkab sharoitda ichki ishlar organlari xodimlarining aholi oldidagi nufuzini ko'tarish, ishonchini mustahkamlash bevosita ana shu islohotlar natijasida bajarilgan ishlarning samarasiga bog'liq.

Ma'lumki, ichki ishlar organlari xodimlari o'z zimmalaridagi xizmat vazifalarini bajarish uchun berilgan vakolatlarini suiiste'mol qilmasliklari, aksincha har bir huquq va vakolat ortida xalq va davlat manfaati, Vatan oldidagi sharaflı burch va ma'suliyat turishini chuqur anglab yetishlari kerak.

Buning uchun esa, birinchi navbatda, ichki ishlar organlari xodimlari yuksak ma'naviyatli, vatanparvar, insonparvar, jismonan baquvvat, sog'lom hamda o'z kasbi va zamonaviy bilimlar majmuini puxta egallagan mutaxassis bo'lishlari kerak. Bu ichki ishlar organi har bir xodimining o'z nomini oqlashi, tom ma'noda xalq ishonchini qozonishi lozimligi va jamiyatda ma'naviyat, adolat qo'riqchilari sifatida namoyon bo'lishini anglatadi.

Huquqbuzarliklar profilaktikasini samarali amalga oshirish uchun zarur bo'lgan kasbiy bilimlardan biri shubhasiz jinoyatchilikka qarshi kurash va ularning oldini olish, jamoat tartibini saqlash va xavfsizlikni ta'minlashga xizmat qiluvchi psixologik bilimlar hisoblanadi. Har qanday huquqbuzarlikni keltirib chiqaruvchi psixologik omillarni bilish, ularni o'rganish va tahlil qilish, shuningdek turli toifadagi huquqbuzarlar bilan muomala qilishning psixologik jihatlarini o'zlashtirish va uni amalda qo'llay olish ichki ishlar organlari xodimlari, jumladan hududiy profilaktika inspektorlari faoliyatidagi muhim talablardan biri hisoblanadi.

Ichki ishlar organlari tizimida profilaktika faoliyati ko'p qirraliligi hamda o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Sababi, huquqbuzarliklar profilaktikasi bilan shug'ullanuvchi har bir profilaktika inspektori xizmat jarayonida turli toifadagi fuqarolar bilan uchrashib, ular bilan muloqotga kirishadi, bu esa, o'z navbatida, xodimdan chuqur psixologik bilimlarni, ya'ni shaxslarning ruhiy holatlari, psixologik xususiyatlari, xarakteri va temperamentlarining o'ziga xos jihatlarni yaxshi bilishni taqozo etadi.

Mazkur darslik hududiy profilaktika inspektorlariga aynan shunday bilimlarni berish va zarur ko'nikmalarni shakllantirish maqsadida ishlab chiqilgan bo'lib, Davlat ta'lim standartlari hamda huquqbuzarlik faoliyati psixologiyasi fanining o'quv dasturi asosida tayyorlandi va ushbu fanning ayrim mavzularini chuqurroq o'rganishni nazarda tutadi. Uni tayyorlashda mamlakatimizning bir qator psixolog va huquqshunos olimlari – E.G. G'oziyev, R.Z. Gaynutdinov, G.B. Shoumarov, V.M. Karimova, X. Ruxiyeva, Z.S. Zaripov, B.M. Umarov, A.I. Rasulov, S.V. Asyamov, U.D. Qodirov, R.S. Samarov, G.A. Avanesov, Q.R. Abdurasulova, M.H. Rustamboyev, N.G. Kamilova, M. Buriyeva, N.E. Muxammadiyev, A.B. Kulaxmetov, M. Usmonaliyev, Y. Karaketov, U. Tadjixanov hamda rus va xorij olimlari A.V. Dulov, A.R. Ratinov, V.V. Romanov, L.B. Filonov, N. Selivanov, M.I. Yenikeyev, V.L. Vasilyev, S.L. Rubinshteyn, YU.M. Antonyan, V.G. Glazirin, A.M. Chufarovskiy, G.P. Shixansev, S.A. Belicheva, G. Selye, A.I. Gurov, X. Xekxauzen, R. Blekborn, Pol Ekman, D. Mayers, Le Bon Gyustav, Kurt Bartol, A.M. Nazaretyan va boshqa olimlarning ilmiy ishlaridan foydalanildi.

Ushbu darslikni tayyorlashda quyidagi mualliflar: I bob – yuridik fanlar nomzodi, dotsent J.S. Muxtorov, Y.A. Farfiyev va B.F. Alimov; II bob – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Y.Y. Agzamova, Y.A. Farfiyev va B. Umirzoqov; III bob – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent B.N. Sirliyev, Y. A. Farfiyev va G.S. Qarshiyev, IV bob – yuridik fanlar nomzodi, dotsent M. Ziyodullayev, Y.A. Farfiyev va B.Y. Yesimbetova; V bob – yuridik fanlar nomzodi, dotsent J.S. Muxtorov, Y.A. Farfiyev va Sh.G. ofurov; VI bob – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent R.X. Dushanov, Y.A. Farfiyev, B.F. Alimov, D.K. Raxmanov va S. Isayev; VII bob – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent B.N. Sirliyev, Y.A. Farfiyev, D.K. Raxmanov va S. Isayev;

VIII bob – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent B.N.Sirliyev, Y.A.Farfiyev, R.N.Raxmonov va D.M.Usmonov; IX bob – Y.A.Farfiyev, N.E.Dusanov va A.Sh.Murodov; X bob – yuridik fanlar doktori, professor I.Ismoilov, yuridik fanlar nomzodi, dotsent M.Ziyodullayev va Y.A.Farfiyev; XI bob – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent B.N.Sirliyev, Y.A.Farfiyev va Q.A.Saitqulov; XII bob – yuridik fanlar nomzodi, dotsent J.M.Ziyodullayev, Y.A.Farfiyev, Sh.Ubaydullayev va I.Fozilov; XIII bob – yuridik fanlar nomzodi, dotsent D.M. Mirazov, Y. A.Farfiyev, S.B. Xo_jaqulov ishtirokida hammualliflikda tayyorlangan.

Ta'kidlash joizki, mazkur kitob mamlakatimiz, shuningdek IIV tizimidagi oliy o_qw yurtlari o_rtasida davlat tilida ilk bor yaratilgan darslik bo_lganligi bois, unda ayrim juz'iy kamchiliklarning bo_lishi tabiiy. Ushbu darslikni to_ldirish, takomillashtirish borasida bildirilgan fikr-mulohazalar. takliflarni bajonidil qabul qilamiz hamda kelgusi ishlarimizda albatta inobatga olamiz.

Sh.T. Ikramov

I bob. HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASI FAOLIYATI PSIXOLOGIYASI VA KRIMINOGEN VAZIYATNING PSIXOLOGIK TAHLILI

1-§. Huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyati psixologiyasi tushunchasi

Huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirishda xodimlar birinchi navbatda fuqarolar xavfsizligi, tinchligi, haq-huquqi va erkinliklarini ta'minlashga alohida e'tibor qaratishlari va xizmat vazifalariga mas'uliyat bilan yondashishlari talab etiladi, bu esa ulardan avvalo o'z kasbining bilimdoni, ustasi bo'lishni talab qiladi.

Xodim o'z kasbining bilimdoni bo'lishi uchun nafaqat yuridik fanlar, balki kishilarning ruhiy holati va kechinmalarini ham yaxshi bilishi kerak. Shuning uchun uning psixologiya ilmining sir-asrorlaridan xabardor bo'lishi va shu asosda qonuniy xatti-harakatlarni amalga oshirishi taqozo etiladi. Bu haqda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov: «Psixologiya fani biz uchun eng zarur sohalardan biri. Psixologiyani o'rganish – hayotni, insonni o'rganish degani. Kerak bo'lsa, rahbarlik qilmoqchi ekansiz, yetakchi bo'lib, odamlarga ko'rsatma bermoqchi ekansiz, oldin ularning psixologiyasini har tomonlama o'rganish kerak»¹, – degan edi. Ushbu fikr huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyati psixologiyasi fanining metodologik asoslaridan birini tashkil qiladi.

Ma'lumki, O'zbekistonda davlat mustaqilligi sharoitida boshqaruv idoralari tizimida bir qator islohotlar amalga oshirildi. Jumladan, militsiya tayanch punktlarining tashkil etilishi joylarda huquqni muhofaza qilish organlari bilan jamoatchilikning o'zaro hamkorligini ta'minlashga imkon yaratdi. Aynan militsiya tayanch punktlarining profilaktika inspektorlari hamda jamoatchilik vakillarining hamkorligi xulqi buzuvchi va jinoyat yo'lga kirgan shaxslar o'rtasida yakka tartibdagi tarbiyaviy ishlarni yo'lga qo'yishga qulaylik yaratdi.

Shu bilan birga, ichki ishlar organlarining kuch va vositalarini hududiy jihatdan uchastkalarga birlashtirilishi jamoat tartibi hamda jamoat xavfsizligini ta'minlashga imkon berdi. Eng muhimi, kuch va vositalarning bunday taqsimlanishi ijtimoiy turmush jarayonidagi o'zgarishlar oqibatida ro'y berishi mumkin bo'lgan salbiy holatlarni oldindan bilish va zudlik bilan zarur chora-tadbirlar qo'llashga zamin yaratadi.

¹ Qarang: *Karimov I. A.* Инсон, унинг ҳуқуқ ва эркинликлари – олий кадрларнинг вазифалари ва мас'улияти. Т. 14. – Т., 2006. – Б. 121–122.

Ayni vaqtda, ichki ishlar organlari xodimlarining aholi hamda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari bilan yaqin hamkorligi yanada mustahkamlanib, ularning safarbarligi va sodir etilayotgan jinoyatlarga qarshi tezkor kurash olib borish imkoniyatlari oshib bormoqda. Bu hozirgi kunda dolzarb muammolardan biridir. Ayniqsa, kriminogen vaziyatni chuqur o'rganish, uni tahlil qilish va kelgusi profilaktik ishlarni ulardan kelib chiqqan holda rejalashtirish maqsadga muvofiqdir.

Bunda, birinchi navbatda, profilaktika xizmatlari tomonidan kriminogen vaziyatni o'rganish maqsadida tashkil etiladigan tadbirlarni rejalashtirish, kriminogen vaziyat haqida axborot olish va profilaktika inspektorlariga yetkazish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ichki ishlar idoralari xodimlarining kasb bayrami kunidagi tabrigida: «Militsiya uchastka inspektorlari bo'limlari negizida profilaktika inspektorlari instituti va har bir mahalлада tayanch punktlari tashkil etilgani huquqbuzarliklarning oldini olish, jinoyat sodir etishga olib keladigan sabab va holatlarni aniqlash va bartaraf etish borasidagi ishlarni tubdan qayta ko'rib chiqish va kuchaytirish imkonini berdi, mamlakatimizda jinoiy vaziyatni sezilarli darajada sog'lomlashtirishni ta'minladi»¹ deb profilaktika xizmatining ahamiyatini e'tirof etadi.

Huquqbuzarliklar profilaktikasi — huquq-tartibotni saqlash hamda mustahkamlash, huquqbuzarliklarni aniqlash, ularga barham berish, shuningdek huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, bartaraf etish maqsadida qo'llaniladigan huquqbuzarliklar umumiy, maxsus, yakka tartibdagi va viktimologik profilaktikasining huquqiy, ijtimoiy, tashkiliy va boshqa chora-tadbirlari tizimidir².

Huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyati psixologiyasi fani ushbu faoliyat psixologiyasining predmeti bo'lib, huquqbuzarliklarning oldini olish jarayonida turli toifadagi fuqarolar bilan psixologik muloqot o'rnatish va huquqiy normalar orqali ta'sir etish usullarini o'rganishdan, maqsadi huquqbuzarliklarning oldini olish va jamoat tartibini saqlashda tinglovchilarda psixologik bilimlardan foydalana olish ko'nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat. Uning asosiy vazifasi ichki ishlar organlari faoliyatida psixoprofilaktik ishlarning o'ziga xos psixologik xususiyatlari haqida tasavvurlar hosil qilish hamda profilaktika xizmati xodimlarining kasbiy

¹ Каримов И.А. Ўзбекистон Республикаси ички ишлар идоралари ходимларига байрам табриги // Халқ сўзи. – 2007. – 25 окт.

² Ўзбекистон Республикасининг «Хукуқбузарликлар профилактикаси тўғрисида»ги 2014 йил 10 апрель қонуни 3-моддаси // Ўзбекистон Республикасининг қонун ҳужжатлари тўплами. 2014. – №20. – 221-м.

sifati va mahoratini shakllantirishning psixologik shart-sharoitlari bilan tanishtirish hisoblanadi.

Huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyati psixologiyasi huquq doirasidagi munosabatlar, insonlarning ruhiy-psixologik faoliyatini huquqiy boshqarish mexanizmlari va qonuniyatlarini o'rganuvchi fandır. Bunda huquqbuzarlik sodir etuvchi shaxslar, huquqbuzarlikka moyillar, voyaga yetmaganlar, ilgari sudlanganlar, nosog'lom oilalar, nosog'lom turmush tarzini olib boruvchi fuqarolar, jabrlanuvchilar, jabrlanuvchi bo'lishga moyillar bilan o'tkaziladigan profilaktik suhbatlar va ularga ta'sir etish jarayonining psixologik asoslarini o'rganish maqsad qilib qo'yilgan.

Huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyati psixologiyasining maqsadi – ichki ishlar organlari xodimlari faoliyatining taraqqiyot qonuniyatlari, turli huquqbuzarlikka moyil va huquqbuzar toifadagi shaxslar bilan o'zaro munosabatlar jarayonida psixologik bilimlardan foydalana olish ko'nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat.

Shu ma'noda, huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyati psixologiyasining metodologik asosini O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari, hukumat qonunlari, IIVning buyruq va ko'rsatmalari hamda yetakchi huquqshunos, faylasuf-olimlarning psixologiya faniga oid g'oya va nazariyalari tashkil etadi.

Huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyati psixologiyasi *predmetini* quyidagilar tashkil etadi:

– ichki ishlar organlari xodimlari psixikasini har tomonlama o'rganishdan hosil bo'lgan bilimlar;

– huquqbuzarlar va huquqbuzarlikka moyil bo'lganlar, guvohlar va huquqbuzarlikdan jabrlanganlar va jabrlanuvchi bo'lishga moyil shaxslarning ongi, ruhiyati, onglilik va ongsizlik holatidan hosil bo'lgan xulosalar;

– huquqbuzar va jinoyatchi shaxsining tuzilishi, uning faoliyati va faolligini o'rganish orqali olingan nazariy va amaliy xulosalar.

Profilaktika xizmati xodimlarining kasbiy-psixologik va pedagogik tayyorgarligiga oid asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

– kasbiy-psixologik na pedagogik tayyorgarlikning kasb mahorati va madaniyatini shakllantirishdagi ahamiyatini zamonaviy bilim va tajribalar negizida asoslash;

– jamiyatdagi ma'naviy-ruhiy muhitning inson psixologiyasiga ta'siri oqibatlarini tahlil etish;

– profilaktika xizmati xodimlari faoliyatida shaxs va omma psixologiyasidan foydalanishning ahamiyatini yoritish;

– psixologiya, pedagogika fanlari asosiy tushunchalarining ta'rifi hamda mazmun-mohiyatini o'rgatish;

– boʻlgusi profilaktika xizmati xodimlarining psixologik bilimlar tizimiga ega boʻlishini taʼminlash, alohida shaxslar psixik faoliyatining qonuniyatlaridan kelib chiqqan holda guruhlar va jamoalarni muayyan ijtimoiy-psixologik jarayonda shakllantirish;

– kasbiy masalalarni hal qilish samarasini oshirishda olingan psixologik bilimlarni qoʻllay bilish koʻnikmalarini rivojlantirish;

– profilaktika xizmati xodimlari uchun zarur boʻlgan kasbiy sifatlarni shakllantirish.

Huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyatining ham oʻzobyekti mavjud, ular quyidagilardan iborat:

– ichki ishlar organlari xodimlarining psixologiyasi;

– huquqbuzar va jinoyatchilar, huquqbuzarlikka moyil shaxslar, huquqbuzarlik va jinoyatlardan jabrlanuvchi boʻlishga moyillar, voyaga yetmaganlar, ilgari sudlanganlar, nosogʻlom oilalar, nosogʻlom turmush tarzini olib boruvchi fuqarolarning psixologiyasi;

– shaxsning tuzilishi;

– shaxsning faoliyati;

– shaxsning faolligi va uning shakllari.

Profilaktika xizmati xodimlari kasbiy-psixologik va pedagogik tayyorgarlik jarayonida avvalo quyidagi bilimlarga ega boʻlishlari zarur:

– oʻzruhiyati, qolaversa, boshqalarning ruhiy holati;

– kasbiy-psixologik va pedagogik tayyorgarlik qonuniyatlari;

– shaxslarning individual-psixologik xususiyatlari;

– turli toifadagi fuqarolar bilan psixologik aloqa oʻrnatish va oʻzaro munosabatlarni toʻgʻri tashkil etish metodlari;

– huquqbuzar shaxs boʻlib shakllanishga taʼsir qiluvchi psixologik sabab va shart-sharoitlar;

– profilaktika xizmati xodimlarining maʼnaviy qiyofasi va axloqiy fazilatlarini belgilovchi nazariy va amaliy bilimlarga ega boʻladilar.

Huquqbuzarliklar profilaktikasi davlat tomonidan olib boriladigan ijtimoiy siyosatning muhim tarkibiy qismi boʻlib, oʻz mazmun va mohiyatiga ega. Bu faoliyat yoʻnalishi davlat va jamiyatda oʻziga xos maxsus chora sifatida eʼtirof etilgan.

Shulardan kelib chiqib, huquqbuzarliklar profilaktikasi doimiy ravishda alohida yondashuvni talab etadi. Chunki ijtimoiy hayotda yuzaga keluvchi har bir oʻzgarish huquqbuzarlik va jinoyatchilik bilan uzviy bogʻliqdir. Demak, huquqbuzarliklar profilaktikasini tashkil etishda eng ilgʻor usullarni qoʻllash, sodir etilayotgan huquqbuzarliklar va jinoyatlarning asosiy omillarini aniqlash, huquqbuzarlik va jinoyatlarni sodir etayotgan va un-

dan jabrlanayotgan shaxslarning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish va shundan kelib chiqib, huquqbuzarliklar profilaktikasining to'g'ri yo'nalishi ta'minlash lozim.

Ta'kidlash joizki, ichki ishlar organlari huquqbuzarliklar profilaktikasi boshqa huquq-tartibot organlari qatori asosan, maxsus profilaktika ishlarini tashkil etadi va olib boradi. Bu esa kriminogen holatlarni o'z vaqtida aniqlash, ularni keltirib chiqaruvchi sabab va sharoitlarni hisobga olish hamda ularni bartaraf qilish borasidagi ishlarni yo'lga qo'yish, jinoyat sodir etishga moyil shaxslar bilan yakka tartibda ish olib borish kabi jarayonlarda namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, muntazam ravishda jinoyatchilikka oid axborotni jamlash, tahlil qilish va hokimiyat organlari hamda jamoatchilikni bu haqda xabardor etish ham ichki ishlar organlarining vazifasiga kiradi.

Ichki ishlar organlari xodimlarining profilaktik faoliyati quyidagi bir qator o'ziga xos psixologik xususiyatlar bilan tavsiflanadi:

- huquqiy reglamentatsiya;
- faoliyatning turli xil ko'rinishlari va uning ijodiy xarakteri;
- tegishli shaxslarning qarama-qarshiligi;
- hokimiyat vakolatiga egaligi;
- xizmat vazifasiga yuqori mas'uliyat bilan yondashish;
- fuqarolar bilan munosabatlarni yaxshilashda jamoat tashkilotlari va institutlarining vakillari hamda mahalla faollari bilan doimiy aloqalarni tashkil etish majburiy ahamiyat kasb etadi.

Profilaktika faoliyati asosan fuqarolar, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari vakillari, mansabdor shaxslar bilan faol kommunikativ munosabatlarga kirishish orqali olib borilib, bu o'z navbatida, ichki ishlar organlari xodimlarining kommunikativ va pedagogik qobiliyatini rivojlantirishni hamda fuqarolar bilan munosabatda ularning huquqlarini ta'minlashni qonun, qonun osti aktlariga rioya etgan holda tashkil etishni talab etadi.

Profilaktika inspektorining psixogrammasi mutaxassislar tomonidan tahlil qilinganda, xodimning samarali faoliyat olib borishi uchun quyidagi psixologik sifatlar bo'lishi talab etiladi:

- kasbiy kuzatuvchanlik;
- ziddiyatli holatlarda o'zini boshqara olish qobiliyati;
- o'z atrofida odamlarni jamlay olish va ularning ishonchiga kira olish qobiliyati;
- inson hayotiga e'tiborli bo'lishi va uni kuzata olishi;
- o'z nuqtai nazarini himoya qila olish;
- voqea-hodisalar obrazini fikran qayta tiklash;
- qarama-qarshi ma'lumotlardan xulosa chiqara olish uquvi;

- insonning tashqi koʻrinishi va xatti-harakatlarini esda saqlab qolish;
- begona insonlar bilan tezda psixologik aloqa oʻrnatish qobiliyati¹.

Tadqiqotlarning koʻrsatishicha, ichki ishlar organlari xodimlarining profilaktik faoliyatini samarali olib borishiga toʻsqinlik qiladigan koʻrsatkichlar mavjud: individualizm, shaxslararo munosabatlar va ijtimoiy oʻzaro harakatlar tizimini buzuvchi ijtimoiy begonalashish; peshqadamlikka (liderlikka) intilishning kuchliligi va qatʼiyatliligi; faoliyat maqsadiga erishish motivlarining past darajasi; irodaviy jarayonlar va irodaviy intilishlarning yetarli darajada emasligi; psixologik ogʻishlarning mavjudligi va boshqalar.

Profilaktik faoliyat bilan shugʻullanadigan ichki ishlar organlari xodimlarining asosiy vazifasi jamoat tartibini saqlash, jinoyat sodir etilishi sabablari va shart-sharoitlarini aniqlash va oʻz hududida ularni bartaraf etish hisoblanadi. Profilaktika inspektorlari har bir fuqaroning huquqlarini himoya qiladi, tashkilot, korxonalarni noqonuniy harakatlardan saqlaydi, uning barcha xatti-harakatlari qonun doirasida amalga oshiriladi.

Profilaktika xizmatida faoliyat olib borayotgan ichki ishlar organi xodimi professiogrammasida uning shaxsiy sifatlari, koʻnikma va malakalarini, namoyon etuvchi faoliyat koʻrinishlari mavjud, bular:

- ijtimoiy faoliyat;
- konstruktiv faoliyat;
- tashkiliy faoliyat;
- tasdiqlovchi faoliyat;
- kommunikativ faoliyat;
- qidiruv faoliyati.

Ijtimoiy faoliyat bu – profilaktika inspektori davlat tomonidan qabul qilingan qonunlarni toʻgʻri va chuqur anglagan holda oʻziga biriktirilgan hududda huquqbuzarliklarning oldini olish borasida huquqiy targʻibot va tashviqot ishlarini tashkillashtirish, shaxslarni tarbiyalash boʻyicha shart-sharoitlarni yaratish, tarbiyasi qiyin shaxslarning oʻziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda ularga pedagogik taʼsir etish, biror sohaga, mehnatga jalb qilish orqali ijtimoiy xulq-atvor, axloq normalariga rioya etish hissini oshirish, jamiyatga foydasi tegadigan inson qilib tarbiyalashga harakat qilishdir. Profilaktika inspektorlarining maslahatlari, sidqidildan koʻrsatgan yordami inson hayotiga zarur tarbiyaviy taʼsir etadi.

Profilaktik faoliyat bilan shugʻullamayotgan har bir xodimning hayotda murakkab vaziyatga yoki holatga tushib qolgan fuqarolarga yordam

¹ Основные виды деятельности и психологическая пригодность к службе в системе органов внутренних дел: Справ, пособие. / Под ред. Бовина Б.Г., Мягких Н.И., Сафронова А.Д. – М., 1997. – С. 85.

berishi uning faoliyatining muhim tomonlaridan bo'lib hisoblanadi. Bunday yordamga, odatda, yolg'iz va qarovsiz yoshi ulug' qariyalar, oilada alkolga ruju qo'ygan ota-onalar, nosog'lom va noto'liq oilada tarbiya ko'rayotgan voyaga yetmaganlar va jinoiy jazoni o'tab kelgan ilgari sudlanganlar hisoblanadi.

Bunday toifadagi har bir shaxsga o'z hayot yo'lini topishga ko'mak berish, ya'ni ishga joylashish, surunkali alkogol iste'mol qiladigan shaxslarni majburiy davolash markazlarida davolash ishlarini tashkillashtirish, mahalla yig'ilishlarida kam ta'minlangan oilalar va nosog'lom turmush tarzini olib borayotgan oilalarga mahalla fuqarolari orqali pedagogik ta'sir etish va boshqalar profilaktika inspektorlari faoliyatining mazmunini tashkil etadi. Bunday insonlar taqdiri haqida qayg'urish profilaktik faoliyatning *konstruktiv* ko'inishi hisoblanadi.

Tashkiliy faoliyat xodimning o'z kasbiy faoliyati jarayonida turli vazifalarni amalga oshirish uchun maqbul sharoitlarni ta'minlovchi bosh omildir. Sodir etilgan voqea, hodisalarga oid turli taxminlarni ilgari surish ishchi rejalarni tuzish hamda amalga oshirish chog'ida yuzaga keladigan irodaviy xatti-harakatlardan iborat. U muayyan kasbiy masalalarni hal etish uchun o'zini va vaziyatga aloqador mansabdor shaxslarni safarbar qilish kabi omillarda namoyon bo'ladi.

Profilaktika inspektori ko'proq tashabbus ko'rsatishi, kimga qanday yordam ko'rsatishni belgilashi, kimga qanday muomalada bo'lishni va boshqa tashkiliy harakatlarni amalga oshirishni bilishi kerak. Bundan tashqari, xodimning ariza va shikoyatlarni faqat qayd etish bilan cheklanmay, balki fuqarolarning muammolarini bevosita ijobiy hal qilishda faoliyatini tashkillashtira olishi talab etiladi.

Dalillash faoliyati sodir etilgan jinoiy ish bo'yicha olingan barcha ma'lumotlarni qonunda ko'zda tutilgan tarzda, maxsus shaklda bayon (qaror, bayonnoma, hukm va hokazo tarzda) etishni bildiradi.

Kommunikativ faoliyat aloqaga kirishish va fuqarolar bilan psixologik aloqa o'rnatishdir. Shu bilan birga, profilaktika inspektorining kommunikativ faoliyati o'z hududidagi aholi bilan doimiy ravishda aloqada bo'lish, aholisi gavjum hududlardagi fuqarolarning kayfiyatini o'rnatish va ularga do'stona munosabatni namoyon etishdan iborat.

Profilaktika inspektorining o'ziga biriktirilgan hududda fuqarolar bilan ishonchli aloqalar o'rnatish olishi uning asosiy faoliyat turlaridan biri hisoblanadi. Bu oson kechadigan jarayon emas, chunki hududda turli toifadagi fuqarolar bo'lib, ba'zilar do'stona munosabatda bo'lsa, ayrimlari agressiv, talabchan, tez xafa bo'ladigan va boshqa xususiyatlarga egadirlar. Shu

munosabat bilan, profilaktika inspektori faqatgina psixologik aloqa o'rnatish bilan cheklanib qolmay, balki ular orasida hurmat qozonishga, ishonch hissini egallashga va obro'-e'tiborga ega bo'lishga harakat qilishi lozim. Yana bir e'tiborli jihati profilaktika inspektori o'z hududida fuqarolar bilan turli vaziyatlarda, masalan, oilada janjallar bo'lganida, ko'chada va boshqa joylarda uchrashadi. Bunday vaziyatlarda xodim to'g'ri va qonuniy harakat qilishi uchun fuqarolarning turmush tarzini, oilaviy sharoitini, fe'l-atvorini yaxshi bilishi kerak.

Qidiruv faoliyati. Huquqbuzar shaxslar odatda, o'zlarining jinoiy xatti-harakatlarini yashiradilar, yolg'on ma'lumotlar beradilar, vaziyatni murakkablashtirishga harakat qiladilar. Bunday hollarda profilaktika inspektori haqiqatni yuzaga chiqarish va qonun ustuvorligini ta'minlashda aniq choralar ko'rib, mantiqiy fikrlash va qiyosiy tahlil orqali ishning mohiyatiga yetib boradi va adolatni qaror toptirishga erishadi.

Chunki, ichki ishlar organlari xodimi davlat vakolat bergan boshqaruv organi xodimi hisoblanadi, xalqning adolatlari va odil himoyachisi hisoblanadi. U har yerda o'zining xulq-atvori bilan ibrat bo'lishi, o'zining ma'naviy va ma'rifiy yetukligi, yuksak siyosiy ongi, madaniyati, yurish-turishi, kiyinishi, muomalasi, axloq-odobi bilan yosh avlod qalbida o'ziga nisbatan havas uyg'otishga intilishi kerak¹. Kasbiy ish faoliyatida yuqori ko'rsatkichlarga erishishi va har tomonlama obro'-e'tiborga ega bo'lishi uning qay darajada samarali faoliyat olib borishiga bog'liq.

Obro'-e'tibor murakkab ijtimoiy-psixologik jarayonlar bilan bog'liq bilimdonlik, kasbiy qobiliyat va tajriba, xizmat vazifalarini bajarishda faoliyatni tashkillashtirishda ifodalanadi.

Xodimning ish uslubi, faoliyati, shaxsiy hayot tarzi ko'pgina omillarga: asab tizimi, xarakteri, yo'nalganligi, qiziqishlari, ehtiyojlari va boshqalarga bog'liq.

Huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyati xodimlardan qonunchilikka rioya etish; kasbiy yo'nalganlik; qaror qabul qilish uquvi; o'z kasbiy mahoratini doimo takomillashtirib borish kabi bir qator talablarga rioya etishni talab etadi.

Shuning uchun ham huquqbuzarliklar va jinoyatlar profilaktikasini to'g'ri tashkil etish hamda unga yo'l qo'ymaslik borasida profilaktik ishlarni tashkil etishda quyidagi bosqichlar orqali zarur tadbirlar amalga oshiriladi:

– huquqbuzarliklarni keltirib chiqaruvchi sabab va omillarini tahlil qilish;

¹ Ўзбекистон Республикаси ички ишлар идоралари ходимларининг касб маданияти ҳақида қўлланма. – Т., 2011. – Б. 4.

- profilaktik tadbirlarni tashkil etish va amalga oshirishni rejalashtirish;
- profilaktik faoliyat olib borishda ishtirok etuvchi shaxslarning ishlarini muvofiqlashtirish;
- rejalashtirilgan, maqsad qilib qo'yilgan vazifalarni amalga oshirish va olingan natijalarni psixologik tahlil qilish.

Profilaktika faoliyatini umumiy, yaxlit tizimda tashkil etish, tabiiyki, jamoatchilik fikri va aholining tashabbuskorligini e'tibordan chetda qoldirmaslikni taqozo etadi.

Shu sababli, profilaktik ishlarni olib borishda quyidagi jihatlarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir:

- turli huquqbuzarliklar va salbiy xatti-harakatlarni yuzaga keltiruvchi omillarni hisobga olish;
- shaxsning ma'naviy shakllanishida muhim o'rin tutuvchi ijtimoiy hayot tarzi va muhitning (oilasi, maktab, ish joyi, dam olish joylari va h.k.) o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olish;
- jinoiy xatti-harakatlar va kriminogen vaziyatlarga nisbatan turli ijtimoiy tuzilmalar faoliyatini profilaktik tadbirlarga jalb etish;
- turli soha vakillarining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib tarbiyaviy chora-tadbirlar belgilash.

Profilaktika inspektorining tarbiyaviy ta'sir etishi bir qator omillarga bog'liq: tashqi qiyofasi; tashabbuskorlik; obro'-e'tiborga egaligi; demokratiya; eshitish qobiliyati; vaziyatni haqqoniy baholash va qabul qilish; mas'uliyat.

Profilaktika xizmati xodimlarining ish usullarini takomillashtirish uchun ular psixologik bilimlar majmuini, kasbiy kuzatish texnikasini yaxshi egallagan bo'lishlari lozim. Xodimlarning kasbiy kuzatish texnikasini egallashi shaxsning hayotiy tajribasi, odatlari, ruhiy holati, hissiy barqarorligi, o'z harakatlarini nazorat qila olishi, madaniyat darajasi, xarakter sifatlarini bilishga xizmat qiladi.

Huquqbuzarlik profilaktikasini amalga oshirishda profilaktika xizmati xodimlari kundalik faoliyati davomida doimo fuqarolar bilan munosabatga kirishadilar, ularning ariza va shikoyatlarini ko'rib chiqadilar, ziddiyatli vaziyatlarni bartaraf etadilar, tarbiyaviy ta'sir ko'rsatadilar.

Biriktirilgan hududda istiqomat qiladigan barcha fuqarolar profilaktik faoliyatning subyektlari hisoblanadilar. Ular tarkibini oddiy fuqarolar, voyaga yetmaganlar, o'z xulq-atvori va faoliyatini o'zgartirishga, tibbiy, ijtimoiy, pedagogik yordamga muhtoj bo'lgan fuqarolar tashkil etadi. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda profilaktika inspektori faoliyatining ba'zi yo'nalishlariga to'xtalib o'tamiz.

O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 14-maydagi «Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida»gi qonuni asosida bugun profilaktika inspektorlarining faoliyatini umumiy, maxsus va yakka tartibdagi hamda viktimologik profilaktika turidagi chora-tadbirlarga ajratish mumkin.

Umumiy profilaktika – huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshiruvchi hamda unda ishtirok etuvchi organlar va muassasalarning huquqbuzarliklarning oldini olish, ularning sodir etilishi sabablari va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, bartaraf etishni nazarda tutadi.

Unda quyidagi asosiy chora-tadbirlar amalga oshirilishi mumkin:

- aholi o'rtasidagi huquqiy targ'ibot;
- huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, bartaraf etish hamda bu to'g'rida taqdimnomalar kiritish.

Maxsus profilaktika – huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organlar va muassasalarning ayrim turdagi huquqbuzarliklar profilaktikasiga, bu turdagi huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablari va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni bartaraf etish, ayrim toifadagi shaxslarni aniqlash va ularga profilaktik ta'sir ko'rsatishga qaratilgan maxsus tadbirlar ishlab chiqish hamda amalga oshirishga doir huquqbuzarliklarning maxsus profilaktikasi faoliyati.

Huquqbuzarliklarning maxsus profilaktikasini amalga oshirishga quyidagilar asos bo'ladi:

- ayrim turdagi huquqbuzarliklarning, shaxslar toifalarining ko'payishi;
- jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga, shaxs, jamiyat va davlat manfaatlariga tajovuz qiluvchi xatarlar va tahdidlarning yuzaga kelishi.

Maxsus profilaktikaning ko'pincha alohida buyruq, ko'rsatma va keli-shilgan rejalar asosida o'tkazilishi va asosan ilgari sudlangan, surunkali ichkilikbozlik va giyohvandlikka muhtalo bo'lganlar, voyaga yetmagan huquqbuzarlarga yo'naltirilganligi o'ziga xosligini belgilaydi.

Yakka tartibdagi profilaktika – huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organlar va muassasalarning g'ayriijtimoiy xulq-atvorli, huquqbuzarliklar sodir etishga moyil bo'lgan, huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarni aniqlash, ularning hisobini yuritish va ularga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishga doir huquqbuzarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasi faoliyati. Huquqbuzarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasi shaxsning, u yashaydigan ijtimoiy muhitning o'ziga xos xususiyatlari, ijtimoiy-maishiy sharoitlari va turmush tarzi, uning g'ayriijtimoiy xulq-atvori, huquqbuzarlik sodir etishga moyilligi, shuningdek sodir etilgan huquqbuzarlikning ijtimoiy xavflilik darajasini tavsiflovchi boshqa omillar hisobga olingan holda belgilanadi.

Huquqbuzarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasini amalga oshirish uchun shaxsning g_ayriijtimoiy xulq-atvori, uning huquqbuzarlik sodir etishga moyilligi yoxud u huquqbuzarlik sodir etganidan dalolat beruvchi ishonchli ma'lumotlarning mavjudligi asos bo_ladi.

Huquqbuzarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasi chora-tadbirlari quyidagilardan iborat:

- profilaktik suhbat o_tkazish;
- rasmiy ogohlantirish;
- huquqbuzarlikning sodir etilishi sabablari va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlar haqida xabardor qilish;
- ijtimoiy rehabilitatsiya qilish va ijtimoiy moslashtirish;
- profilaktik hisobga olish;
- majburiy davolanishga yuborish;
- ma'muriy nazorat.

Yakka tartibdagi profilaktik chora-tadbirlarni qo_llashda profilaktika inspektori maishiy turmush sohasida huquqbuzarlik sodir etgan shaxslar bilan tegishli tarbiyaviy profilaktik ishlarni amalga oshirib, ular bilan bevosita suhbatlashadi. Bu jarayonda ularning MFYning yarashtirish komissiyalari bilan hamkorlikda ishlashi va nizolarni bartaraf etish choralari ko_riishi muhim ahamiyat kasb etadi. Maishiy turmush sohasida huquqbuzarlik sodir etgan shaxsning o_zigaxos xususiyatini, psixologiyasini o_rganish eng asosiy vazifalardan biridir. Ushbu toifadagi shaxslarda ko_pircha, hasadgo_ylik, ko_rolmaslik, qasd va o_ch olish xislatlari namoyon bo_ladi. Shulardan kelib chiqib, ularga tarbiyaviy ta'sir etish va salbiy psixologik xislatlarini yo_qotish choralari ko_rinish zarur.

Yakka tartibdagi profilaktik ishlarni amalga oshirishning quyidagi elementlari mavjud:

- shaxslarni o_rganish va ma'lumotlarni tekshirish hamda ularni operativ-profilaktik hisobga qo_yish;
- maishiy turmush sohasidagi qonunga xilof xatti-harakatlarni o_rganib, shaxslarga ta'sir etish;
- hisobga olingan shaxslarni doimiy ravishda yashash sharoiti va fe'l-atvorini kuzatib borish;
- maishiy sohada nizoli vaziyatlar paydo bo_lishiga omil bo_luvchi ijtimoiy muhitni sog_lomlashtirish va uning xuquqbuzarlikka olib kelishini oldini olish;
- jabrlanuvchilarga profilaktik (viktimologik samaraga erishish uchun sun'iy ziddiyatli vaziyatlarni yuzaga keltiruvchilar orasida) ta'sir etish;

– yakka tartibdagi profilaktik tadbirlar natijalarini vaqti-vaqti bilan tekshirish va ularni psixologik tahlil qilish.

Viktimologik profilaktika – huquqbuzarliklar profilaktika-sini bevosita amalga oshiruvchi organ va muassasaning muayyan shaxsning huquqbuzarlikdan jabrlanuvchiga aylanishi xavfini kamaytirishga qaratilgan profilaktik chora-tadbirlarini qo'llashga doir faoliyatidir.

Huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasi chora-tadbirlari quyidagilardan iborat:

– huquqbuzarliklardan jabrlanganlarga nisbatan shaxsning individual va ijtimoiy-psixologik xususiyatlari hisobga olingan holda profilaktika tadbirlarini o'tkazish;

– aholiga, shu jumladan huquqbuzarlikdan jabrlanganlarga nizolarni hal etish usullarini o'rgatish;

– huquqbuzarlikdan jabrlanganlarni aniqlash va himoya qilish chora-tadbirlarini ko'rish;

– huquqbuzarlikdan jabrlanganlarga kasbiy huquqiy, ijtimoiy, psixologik, tibbiy, pedagogik va boshqa turda yordam ko'rsatadigan reabilitatsiya markazlari tashkil etish;

– huquqbuzarlikdan jabrlanganning jismoniy va psixologik xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan maxsus keng ko'lamli chora-tadbirlar ishlab chiqish va amalga oshirish; uni qonunda nazarda tutilgan o'zini himoya qilish usullari va vositalari to'g'risida xabardor qilish;

– g'ayriijtimoiy xulq-atvor nisbatan tez-tez kuzatiladigan yoki huquqbuzarliklar tez-tez sodir bo'lib turadigan joylarni (hududlarni) muntazam ravishda nazorat qilish;

– hujum qilingan taqdirda zaruriy mudofaa va oxirgi zarurat haqidagi ma'lumotlarni keng tarqatish yo'li bilan aholiga huquqiy ta'lim va tarbiya berish;

– g'ayriijtimoiy xulq-atvor, tayyorlanayotgan yoki sodir etilgan huquqbuzarliklar to'g'risida axborot olish maqsadida huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organ yoki muassasa huzurida ishonch, tezkor aloqa telefonlarini, qutqaruv xizmatlarini tashkil etish;

– profilaktika dasturlari va tadbirlari loyihalarining ommaviy muhokamalarini tashkil etish, ularni amalga oshirish jarayonida muammolar va kamchiliklarni aniqlash hamda bartaraf etish maqsadida jahon Internet axborot tarmog'ida veb-saytlar, bloglar, chatlar tashkil qilish;

– huquqbuzarliklar profilaktikasining zamonaviy usullari to'g'risida elektron adabiyotlarni tarqatish.

Huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyati psixologiyasida xodimlarning qaysi yo__nalishlarda profilaktik ishlarni olib borishi va bu jarayonda qanday toifadagi shaxslar bilan muloqotda bo__lishi alohida o__rin egallaydi.

Huquqbuzarliklar profilaktikasida ichki ishlar organlari aniq va mas'uliyatli vazifalarni bajarishlari bilan ajralib turadilar va bunda ularda o__zigaxos subyekt sifatida turli yo__nalishlarda profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshiradilar.

Demak, huquqbuzarliklar profilaktikasini tashkil etishda psixologik qonuniyatlarni inobatga olish zarur, bunga ba'zi yoshdagi kasb egalari va ayrim toifadagi shaxslarga xos bo__lgan qonuniyatlar kiradi. Xususan, o__smirlarda abstrakt fikrlashning tezlik bilan rivojlanishi hamma shaxslarga emas, faqat o__smirlarga xos bo__lgan juz'iy qonuniyatdir. Psixologik qonuniyatlarni jiddiy o__ylab tashkil qilingan hamda rejali ravishda olib boriladigan tekshirishlar orqali aniqlash mumkin. Qanchalik murakkab bo__lishidan qat'i nazar, ko__pgina psixologik tekshirishlar mutaxassis uchun tushunarli va ularni muvaffaqiyatli ravishda amalga oshirish mumkin.

2-§. Kriminogen vaziyat tushunchasi va uning ijtimoiy psixologik tavsifi

Shaxsning ma'naviy shakllanishi jarayonida muhitdagi salbiy ma'naviy xususiyatlar, uni jinoyatga yetaklovchi omil bo__lib xizmat qiladi va muayyan hayotiy vaziyat hisoblanadi. Muayyan hayotiy vaziyat shaxsning qarashlari, xohishlari va odatlari bilan bir vaqtda unga ta'sir qiluvchi omillar yig__indisidir. Hayotiy vaziyatlarni «kriminogen va kriminogen bo__lmagan vaziyatlar»ga ajratish mumkin.

Kriminogen vaziyat – bu mazmun bo__yicha jinoiy niyatning, jinoyat sodir qilish maqsadining shakllanishiga ta'sir qiluvchi jinoiy natijaga erishish uchun qulay hisoblangan, ya'ni jinoyat sodir etishga ko__maklashuvchi vaziyatdir. Shuni qayd etish joizki, har qanday kriminogen vaziyat o__zholicha mustaqil holda shaxsni jinoyat sodir etishga olib kelmaydi.

Jinoyat sodir etish vaqtidagi kriminogen vaziyat shaxsning muhit bilan aloqasining alohida darajasi hisoblanadi. Bu aloqada salbiy xususiyatga ega bo__lgan shaxsdagi jinoyat sodir etishga moyillik kriminogen vaziyat ta'sirida muayyan xatti-harakatga aylanadi. Aniq hayotiy vaziyatning shaxs muayyan jinoyat sodir etishiga ta'siri quyidagi tavsifga ega¹:

Jinoyatlar birdan yuzaga kelgan kriminogen vaziyatlar tufayli emas, balki insonning muayyan barqaror shaxsiy xulqini buzilgan va dunyoqarashi sababli sodir etiladi.

^{1 1} Qarang: *Зарипов З.С., Исмаилов И.* Криминология. – Т., 1996. – Б. 155–156.

Ammo, o_z navbatida, kriminogen vaziyatning o_{zi} jinoyat sodir etishga moyil bo_{lgan} shaxslarga g_{ayri}huquqiy qilmishni sodir etishiga shart-sharoit, imkoniyat yaratib beradi. Masalan, favqulodda holatlar – suv toshqini, yong_{in}, zilzila va boshqalar sodir bo_{lganda} o_{g_{rilik}}sodir etishga moyil shaxslar bu holatda o_{zini} yo_{qtib} qo_{ygan} va vahimaga tushib, mol-mulkini qarovsiz qoldirgan fuqarolarning buyumlari, pullari va boshqa boyliklarini o_{zini}ki qilish maqsadida, talon-toroj qilishga intiladi va ko_p hollarda amalga oshiradi.

Farg_{ona} voqealaridan keyin O_{zbekistonda} vujudga kelgan vaziyat shu hududda ancha vaqtgacha kriminogen vaziyatning keskinlashishiga olib keldi. Chunki o_{sha} davrdagi ayrim siyosatchi kuchlar, chirib borayotgan tuzumning tarafdorlari, gegemonlikni saqlab qolish va O_{zbekistonning} mustaqilligiga raxna solishni maqsad qilganlar eng avvalo aholi zich joylashgan hudud, Farg_{ona} vodiysi viloyatlarida vaziyatni izdan chiqarishga harakat qildilar, shu zaminda ko_p yillardan buyon qadrdon bo_{lib} yashab kelgan xalqlar o_{rtasida} kelishmovchiliklarni keltirib chiqarishga urindilar va ma^lum maⁿoda bunga erishdilar ham. Bu maqsadga intilgan kuchlar asosan aholi zich joylashgan va iqtisodiy qiyin ahvolda bo_{lgan} hududni tanlashgan. Farg_{ona} vodiysi aholisi iqtisodiy qiyinchiliklari haqida Prezidentimiz Islom Karimov haqli ta^kidlaganlar: «Hozirgi kunda ko_{pgina} odamlar Farg_{ona} voqealarining sabablarini turlicha izohlashmoqda. Lekin, shu narsa ayonki, barcha voqealarning ildizi – Farg_{ona} vodiysida yashayotgan aholining og_{ir} ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli bilan bog_{liq} desam, o_ylaymanki, ko_{pchilik} bu fikrga qo_{shiladi}»¹.

Inson o_{zi} uchun muayyan qiymatga ega bo_{lgan} narsa, hodisa sababligina faol harakat qiladi. Qadriyatlar tizimi individual bo_{lib}, u insonning ruhiy faolligini belgilab beradi: bir kishi uchun hayotiy muhim bo_{lgan} narsa, boshqa shaxs uchun unchalik muhim bo_{lm}asligi mumkin.

Jinoyatchining xulqi ham qadriyatlar asosida yo_{nalgan}. Ammo jinoyatchining qadriyatlari buzilgan, ular ijtimoiy qadriyatlarning umum e^tirof etgan tizimiga mos kelmaydi.

Ba^zi odamlar o_ylab o_{timay} notanish insonni o_{lim} xavfidan qutqaradilar, boshqalar esa o_ylab o_{timay} pichoqni qarindoshiga sanchadilar – hammasi u yoki bu odamlar uchun hayotning qaysi tomonlari muhim ekanligiga bog_{liq}. Ijtimoiy jihatdan ijobiy qadriyatlar tizimi tug_{ma} emas, u jamiyatdagi tarbiya jarayonida shakllanadi.

Jinoyatchining ijtimoiy-ijobiy qadriyatlarga salbiy munosabati doimo jamiyatdagi tarbiya nuqsonlarining natijasidir.

¹Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида. – Т., 2011. – Б. 32-33.

Ijtimoiylashgan shaxsning eng asosiy ehtiyoji ijtimoiy-ijobiy qadriyat-larni amalga oshirish ehtiyojidir. Ashaddiy jinoyatchida bunday ehtiyoj-ning yo_qligi uning asosiy xususiyatidir.

Kriminogen vaziyatga ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy vaziyatlar bilan bir qatorda hududdagi ilgari sudlangan shaxslarning soni va sodir etilgan jinoyatlarning miqdori ham omil sifatida ta‘sir etadi. Shu qonuniyatdan kelib chiqib, har bir hududni ilgari sudlangan shaxslarning toifalari bo_yicha tadqiq qilish, ular bilan yakka tartibda tarbiyaviy-profilaktik ish-larni tashkil etish va amalga oshirish kriminogen vaziyatni barqarorlash-tirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O_zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining –Huquqbuzarliklar profilaktikasini ta‘minlash, profilaktika (katta) inspektorlari va militsiya tayanch punktlari faoliyati samaradorligini oshirish to_g_isida”gi 2014-yil 1-sentabrdagi 131-sonli buyrug_i asosida profilaktika inspektori quyidagi ishlarni tashkil etadi va amalga oshiradi:

– ilgari sudlangan shaxslarni profilaktik hisobga olish va ularga nisba-tan tarbiyaviy-profilaktik ishlarni tashkil etish;

– aholi bilan ilgari sudlangan shaxslar tomonidan huquqbuzarlik sodir etilishining oldini olishga qaratilgan umumiy, yakka tartibdagi, maxsus, viktimologik profilaktikani tashkil etish;

– ilgari sudlanganlar o_rtasida huquqbuzarliklarning oldini olish bo_yicha keng jamoatchilik, ichki ishlar organlarining sohaviy xizmatlari xodimlarining hamkorlikdagi ishlarini tashkil etish;

– ilgari sudlangan shaxslarni ijtimoiy reabilitatsiya qilish va ijtimoiy moslashtirishni tashkil etish.

Kriminogen vaziyatga ta‘sir qiluvchi psixologik omillar, ularni profi-laktika xizmati faoliyatida hisobga olish. Ta‘kidlash joizki, kriminogen vaziyatlar shaxsni turli salbiy-ijtimoiy xatti-harakatlarni sodir etishga un-daydi, unda muayyan jinoiy tajovuzning motivini shakllantiradi, uning xarakteri, maqsadini belgilaydi va jinoyat sodir etishda subyektiv omilning muayyan jinoiy xatti-harakatda namoyon bo_lishiga ko_maklashuvchi sha-roit rolini bajaradi. Kriminogen vaziyatlar ayniqsa, turli xil qarashlarga ega bo_lgan shaxslarga turlicha ta‘sir qiladi. Ya‘ni, jamiyatga zid qarashga ega bo_lgan shaxslarning jinoiy xatti-harakatlar sodir etishiga yordamlashadi, har tomonlama barkamol, ijobiy xususiyatga ega bo_lgan shaxslar esa bun-day vaziyatlarda umuminsoniy va huquqiy normalarga muvofiq harakat qiladilar.

Profilaktika xizmatlari tomonidan kriminogen vaziyatni umumiy tahlil qilish faoliyatining mohiyatini quyidagilarda ko_rish mumkin: kriminogen

vaziyat, uni tahlil etish; kriminogen vaziyatni tashkil etuvchi omillar; kriminogen axborotni o'rganish; huquq-tartibot holatini aks ettiruvchi axborotni o'rganish va ularning maqsadi; huquqbuzarliklarni tahlil qilish; huquqbuzarliklar dinamikasini tahlil qilish; huquqbuzar shaxsini tahlil qilish va hokazo.

Kriminogen vaziyatni o'rganishda quyidagilarga e'tibor qaratish zarur:

- hududni tavsiflovchi ma'lumotlar (maydoni va uning o'ziga xosligi);
- hududda istiqomat qiluvchi aholini tavsiflovchi ma'lumotlar (qariyalar, yetuk yoshdagilar va voyaga yetmaganlar soni);
- hududning ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini tavsiflovchi ma'lumotlar (ish bilan ta'minlanganlik, ishlab chiqarish, korxonalar, tashkilotlarning mavjudligi);
- huquqbuzarliklarni tavsiflovchi ma'lumotlar;
- huquqbuzarlik sodir etgan va unga moyil shaxslarni tavsiflovchi ma'lumotlar;
- hududdagi jamoat tartibini saqlash va xavfsizlikni ta'minlash, huquqbuzarliklarning oldini olish faoliyati subyektlarini tavsiflovchi ma'lumotlar.

Yuqorida sanab o'tilgan holatlar bo'yicha ma'lumot to'plash, ularni tahlil etish va ular asosida tegishli profilaktik chora-tadbirlar ishlab chiqish hamda uni amalga oshirish taqozo etiladi.

Profilaktika faoliyati bilan shugullanuvchi xodimlar o'zlariga birlashtirilgan hududdagi kriminogen vaziyatni aniqlashda quyidagi ma'lumotlardan foydalanadilar:

- mahalliy davlat hokimiyati organlaridan aholining soni va ishsizlar haqidagi ma'lumotlar;
- fuqarolarning o'zini o'ziboshqarish organlaridan aholining ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli, kam ta'minlangan, janjalkash va noqobil oilalar haqidagi, shuningdek, voyaga yetmaganlar borasidagi ma'lumotlar;
- mahalla posbonlari jamoat tuzilmalaridan pasport tizimi qoidalarini buzayotgan hamda uyidan uzoq muddatga chiqib ketgan fuqarolar, shuningdek giyohvandlikka moyillar, diniy-ekstremistik oqimga a'zo bo'lganlar haqidagi ma'lumotlar;
- diniy-ma'rifat va ma'naviy-axloqiy, tarbiyaviy masalalar bo'yicha maslahatchilardan hududdagi ayollarning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli, ular orasidagi ishsizlik, diniy-ekstremistik oqimlarga a'zo bo'lganlar, shuningdek jinoyat sodir etishga moyillar, giyohvandlar va farzandlari tarbiyasi bilan shugullanmaydiganlar, fohisha, qo'shmachi, axloqan buzuvchi ayollar haqidagi ma'lumotlar.

Ichki ishlar organlari profilaktika xizmatlarining kriminogen vaziyatni o'rganish, tahlil qilish va baholash bilan bog'liq faoliyatini takomillashti-

rish butun faoliyat davomida rejali asosda olib boriladigan tadbirlar majmuidan iborat bo__lib, aytish mumkinki, u ichki ishlar organlari faoliyatining barcha yo__nalishlari takomillashuviga chambarchas bog__liqdir. Bu takomillashuv hamkorlikdagi faoliyatga ham taalluqli bo__lib, bunda hamkorlikni to__g__ri yo__lga qo__ya oladigan, kasbiy mahoratga ega bo__lgan xodimlar va rahbarlarning roli kattadir.

Savol va topshiriqlar

1. Huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirishda xodimlardan qanday psixologik bilimlarga ega bo__lish talab qilinadi?

2. Profilaktika inspektorlarining huquqbuzar shaxslar bilan muloqot qilish jarayoni haqida nimalarni bilasiz va u qanday o__ziga xos xususiyatlarga ega?

3. Profilaktika inspektorlarining psixologiyasi huquqbuzarliklar profilaktikasida qanday ahamiyat kasb etadi?

4. Profilaktika xizmati xodimlarining kasbiy yo__nalishiga psixologik tavsif bering.

5. Profilaktika inspektorlarining kasbiy faoliyatida hissiy-irodaviy sifatlar qanday ahamiyatga ega?

II bob. PROFILAKTIKA XIZMATI XODIMI SHAXSINING PSIXOLOGIK TAVSIFI VA KASBIY MAHORATINI SHAKLLANTIRISH

1-§. Profilaktika xizmati xodimi shaxsiga psixologik tavsif

Profilaktika inspektorlari o'zlariga biriktirilgan ma'muriy hududda jamoat tartibini saqlash, O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning huquqlari, qonuniy manfaatlari, mol-mulki turli xil jinoiy tajovuzlardan himoya qilish hamda xavfsizligini ta'minlash, shuningdek, huquqbuzarliklar profilaktikasi bilan bog'liq faoliyatni amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning ichki ishlar idoralari xodimlariga yo'llagan bayram tabrigida: «Profilaktika inspektorlarining malakasi va professional mahoratini oshirish g'oyat muhim vazifalardan biridir. Yuksak professionalizm, xushmuomalalik, odamlar orasiga kirib borish, yoshlar qalbiga yo'l topa bilish, oila va maktab o'rtasida mustahkam aloqa o'rnatish – har bir profilaktika inspektorining asosiy xususiyatlari bo'lmog'i lozim»¹ degan dasturiy vazifalarning o'zi ham profilaktika inspektorlariga davlati miqyosida e'tibor qaratilayotganini bildiradi va bu xodimlar zimmasiga katta mas'uliyatni yuklaydi.

Shu munosabat bilan, bunday sharaflı vazifalarni bajarishi uchun oliy ma'lumotli, tashkilotchilik va tashabbuskorlik xususiyatlariga ega bo'lgan, jismonan sog'lom, ma'naviy jihatdan yetuk bo'lgan malakali mutaxassislar profilaktika inspektori lavozimiga tayinlanadilar.

Profilaktika inspektori shaxsining psixologiyasini o'rganishdan oldin «shaxs» tushunchasiga psixologik tavsif berish lozim:

«Shaxs» tushunchasi keng va ko'p qirrali. Shaxsni u yoki bu yo'nalishda bir qator fanlar: falsafa, tarix, pedagogika, sotsiologiya, tibbiyot va psixologiya o'rganadi. Psixologiya fani boshqa fanlardan farqli o'larsim, shaxsning ichki dunyosini, boshqacha aytganda, uning ruhiy jarayonlarini, hissiy-irodaviy holatlarini, individual psixologik xususiyatlarini tadqiq qiladi.

Psixologiya fanida shaxs muammosini o'rganish bo'yicha turli nazariyalar mavjud bo'lib, ularga biogenetik, sotsiogenetik, psixogenetik, kognitivistik, psixoanalitik, bixevioristik kabi qarashlar, yondashuvlar kiradi.

¹ Qarang: Ўзбекистон Республикаси ички ишлар идоралари ходимларига байрам табриги // Постда. – 2007. – 25 окт.

Shaxs psixologiyasining rivojlanishi muammosini o'rganishga Rossiyalik taniqli olimlar L. S. Vygotskiy, S. L. Rubinshteyn, P. P. Blonskiy, B. G. Ananyev, A. N. Leontyev, A. G. Kovalev, L.I.Bojovichlar o'zlarining hisslarini qo'shganlar.

Quyida psixologlarning ayrim fikrlariga qisqacha to'xtalib o'tamiz.

A. G. Kovalevning fikricha, shaxs – ijtimoiy munosabatlarning ham obykti, ham subykti. A. N. Leontyevning tavsifiga ko'ra, shaxs faoliyat subyektidir. K. K. Platonov jamiyatda o'z vazifasini anglovchi, ishga layoqatli, yaroqli individni shaxs deb ataydi. Bu muammo mohiyatini chuqurroq ochishga harakat qilgan S. L. Rubinshteynning ta'rificha, shaxs tashqi ta'sirlar yo'nalishini o'zgartiruvchi, ichki shart-sharoitlar mahsulidir.

A. V. Petrovskiyning quyidagi ta'rifini shaxsning psixologik ta'rif sifatida qabul qilish mumkin: «O'z mehnati tufayli hayvonot olamidanda ajralib chiqqan, jamiyatda rivojlanuvchi va odamlar bilan til yordamida munosabatga kirishuvchi odam shaxsga voqelikni beruvchi hamda faol o'zgartiruvchi subyektga aylanadi». Ko'rinib turibdiki, psixolog olimlar shaxsni tushunishga turli tomonlardan yondashib, unga har xil ta'rif berishgan.

Muayyan fikrlarni jamlagan holda shaxsga quyidagicha ta'rif berish mumkin. «*Shaxs o'z menligini anglagan, o'z g'alar bilan o'zaro munosabatlarga kirisha oladigan tabiat va jamiyatga faol ta'sir o'tkaza oladigan har qanday individ*».

Yuqorida bayon qilingan nazariyalar va psixolog olimlarning fikrlaridan kelib chiqib, psixologiyada «shaxs» masalasini tushunish bo'yicha quyidagi xulosalarga kelish mumkin.

1) jamiyatning a'zosi hisoblangan va ong egasi bo'lgan har bir individ shaxsdir;

2) shaxs hamma vaqt muayyan, faqat o'ziga xos murakkab individual sifatlar va xususiyatlar egasidir. Bu sifatlar va xususiyatlar shaxs xulqida, boshqa shaxslar bilan munosabatlarida, irodasi va xulq-avtorida, xislatlarida, qobiliyatlari, mayllari va qiziqishlarida ifodalanadi;

3) odam shaxs bo'lib tug'ilmaydi, balki u ijtimoiy taraqqiyot jarayonida shaxs sifatida shakllanadi.

4) shaxs psixologiyasini aniq tarixiy sharoitlardan, u mansub bo'lgan jamiyatdan, jamiyatda egallagan mavqeidan kelib chiqqan holda o'rganish mumkin.

Ushbu xulosalarni profilaktika inspektori shaxsiga nisbatan qo'llanilganda shaxs muammosini o'rganishning ikki tendensiyasi (intilish, g'oya, fikr, mayl, tamoyil ma'nolarini anglatadi) birligini kuzatish mumkin.

Birinchi tendensiya, profilaktika inspektorini jamiyatda mavjud shaxs sifatida tan olib, uning shaxsiy individual psixologik xususiyatlarini o'rgan-

nish, ya'ni uni psixologik jihatdan tavsiflash, tasniflashdir. Buni profilaktika inspektorining yuridik mehnati psixologiyasi nuqtai nazaridan talqin qilish mumkin. Ya'ni yuridik mehnat huquqni qo'llash faoliyatining psixologik qonuniyatlarini o'rganadi va huquqshunoslikka oid mutaxassisliklar professiogrammalarni, huquqiy usul va mahoratni, mutaxassislik ko'nikmalari va malakalarini, kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yishni, huquqni muhofaza qilish faoliyati shakllari va boshqaruvini, mutaxassislik yo'nalishini, mutaxassislikka tanlovni, xodimlar shaxsini shakllantirish va ixtisoslikka oid tarbiyalashni, mutaxassislik deformatsiyasi (buzilishi) va uning oldini olish, ish joyi, ish vaqtini to'g'ri tashkil etishni va boshqa masalalar bo'yicha ularning psixologik asosini ishlab chiqish bilan shug'ullanadi.

Ikkinchi tendensiya, profilaktika inspektorlari faoliyatining obykti va predmetini tashkil etuvchi shaxslar psixologiyasini har tomonlama o'rganish. Bu tendensiya g'ayriijtimoiy xulq-atvorli shaxs, huquqbuzarlik sodir etishga moyil bo'lgan shaxs, huquqbuzarlik sodir etgan shaxs, jinoyatchi, huquqbuzarlikdan jabrlanuvchi, guvoh va hokazolarning ichki ruhiy holatlarini tadqiq qilish ishlarini o'z ichiga oladi. Bu tendensiyaning yechimi profilaktika inspektori zimmasiga yanada murakkabroq vazifalarni yuklaydi¹.

Bu ikki tendensiya profilaktika inspektorlari faoliyatida shaxs muammosini psixologik jihatdan chuqur o'rganishni taqozo etadi.

Psixolog olimlar shaxsning psixologik tuzilishini quyidagicha talqin qiladilar. Masalan, atoqli rus psixologi S. L. Rubinshteyn-ning fikriga ko'ra, shaxs psixologiyasi quyidagi tuzilishga ega:

- 1) yo'nalganlik, u ehtiyojlar, qiziqishlar, ideallar, e'tiqodlar, faoliyat va xulqning ustuvor motivlari hamda dunyoqarashlarda ifodalanadi;
- 2) bilimlar, ko'nikmalar, malakalar hayot va faoliyat jarayonida egallanadi;
- 3) individual tipologik xususiyatlar temperament, irodada aks etadi.

K. K. Platonov ta'limotiga ko'ra, shaxs psixologiyasining tuzilishi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Yo'ndaganlik kichik tizimi (ost tuzilishi) shaxsning axloqiy qiyofasi va munosabatlarini birlashtiradi. Undan harakatchanlik, barqarorlik, jadallik, ko'lam (hajm) darajalarini farqlash lozim.

Ijtimoiy tajriba kichik tizimi (ost tuzilishi) ta'lim vositasida, shaxsiy tajribada egallangan bilimlar, ko'nikmalar va odatlarni qamrab oladi.

Psixologik aks ettirish shakllari kichik tizimi (ost tuzilishi) ijtimoiy turmush jarayonida shakllanuvchi bilish jarayonlarining individual xususiyatlarini o'z ichiga oladi.

¹ Qarang: Васильев В. Л. Юридическая психология. — СПб., 1999. — С. 198.

Biologik shartlangan kichik tizimi (ost tuzilishi) miyaning morfologik va fiziologik xususiyatlariga muayyan darajada bog_ liq bo_ lgan patologik o_ zgarishlarni, shaxsning yosh, jins xususiyatlarini va uning tipologik xosiyatlarini birlashtiradi.

A. G. Kovalev talqiniga ko_ ra, shaxs psixologiyasi quyidagi tuzilishga ega:

– *yo_ nalganlik* voqelikka nisbatan inson munosabatini aniqlaydi, unga o_ za_ ta‘sir etuvchi har xil g_ oyaviy va amaliy yo_ nalishlar, qiziqishlar, ehtiyojlar kiradi. Ustuvor yo_ nalganlik shaxsning barcha psixik faoliyatini belgilaydi.

– *imkoniyatlar* shaxsning faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshishini ta‘minlovchi tizim. O_ za_ ta‘sir etuvchi va o_ za_ bog_ liq bo_ lgan turlicha qobiliyatlarni qamrab oladi;

– *iroda* ijtimoiy muhitda shaxsning xulq-atvorini aniqlaydi. Odamning ruhiy hayoti shakli va mazmuni unda namoyon bo_ ladi. Iroda tizimida irodaviy va ma‘naviy sifatlar ajratiladi;

– *mashqlar tizimi* hayotiy faoliyat, harakat va xulq-atvorni tuzatish (korreksiyalash), o_ zini o_ zinazorat qilish, boshqarishni ta‘minlaydi.

Psixolog olimlarning yuqorida bayon qilgan fikrlarini metodologik asos qilgan holda, profilaktika inspektorlari shaxsning psixologik tuzilishini quyidagilardan iborat deb hisoblash mumkin:

1) kasbiy yo_ nalganlik xodimning ehtiyojlari, qiziqishlari, e‘tiqodlari, faoliyati va xulqining ustuvor motivlari hamda dunyoqarashida ifodalanadi;

2) kasbiy bilim, ko_ nikma va malakalar xodimning hayotiy faoliyati jarayonida egallanadi;

3) individual tipologik xususiyatlar xodimning temperamenti, irodasi va qobiliyatida aks etadi;

4) mashqlar tizimi hayot, faoliyat, harakat va xulq-atvorni tuzatish (korreksiyalash), o_ zini o_ zi nazorat qilish, o_ zini o_ zi boshqarishni ta‘minlaydi.

Profilaktika inspektorlarining shaxsiy sifat, fazilatlari umuman, bilish faoliyati boshqa kasb egalarnikiga qaraganda o_ zining chuqurligi, keng qamrovliligi, tezkorligi, tizimliliigi, aniq maqsadga qaratilganligi, mantiqiyliigi, maxsusligi bilan farq qiladi. Ushbu bilish jarayonlarining psixologik xususiyatlariga batafsil to_ xtalibo_ tishga harakat qilamiz.

Diqqat va uning profilaktika inspektorlari faoliyatida tutgan o_ rni. Diqqat kishi faoliyatning barcha turlari, eng avvalo, mehnat va o_ quv faoliyati samaradorligining muhim va zarur shartidir. Bilish jarayonlari kechishining eng muhim xususiyati uning tanlanganligi, yo_ naltirilganligidan iboratdir. Tevarak-atrofdagi ko_ plab ta‘sirlar orasidan kishi hamisha nima-

nidir idrok etadi, nimanidir faraz qiladi, nima haqidadir fikr yuritadi, o_ylaydi. Ongning bu xossasi diqqat kabi xususiyat bilan o_zaro bog_liq.

Diqqat – individning hissiy, aqliy yoki harakatlantiruvchi faolligi darajasining oshirilishini taqozo etadigan tarzda ongning yo_naltilganligi va bir narsaga qaratilganligidir.

E'tiborni ma'lum obyektga qaratish uchun irodaviy kuch-g_ayrat sarflash zarurati yuzaga kelganda, qiyinchiliklar paydo bo_lganda, bilishga oid qiziqish susayganda va shuningdek, to_siqar mavjud bo_lganda diqqat aniq-ravshan namoyon bo_ladi.

Hosil bo_lish xususiyati va amal qilish usullariga ko_ra diqqatning uch asosiy turi mavjud:

- ixtiyorsiz diqqat;
- ixtiyoriy diqqat;
- ixtiyoriy diqqatdan keyingi diqqat.

Ixtiyorsiz diqqat kishining niyatlari va maqsadlaridan mustasno tarzda hosil bo_ladi va qo_llab-quvvatlanadi. Ixtiyorsiz diqqatning paydo bo_lishi jismoniy, psixofiziologik va psixik omillar bilan belgilanadi. Individning ehtiyojlariga mos keladigan, uning uchun ahamiyatga ega bo_lgan qo_zg_a_tuvchilar ixtiyorsiz diqqatni qo_zg_aydi. Ixtiyorsiz diqqatda bevosita qiziqishning roli benihoya kattadir. Nimaiki qiziqarli, maroqli, hissiyotga boy, zavqli bolsa, diqqatning uzoq vaqt mobaynida to_planib turishini taqozo etadi. Ixtiyorsiz diqqat shaxsning umumiy yo_naliganligiga ham bog_liqdir.

Ixtiyoriy diqqat ongli ravishda boshqariladigan va tartibga solinadigan diqqat-e'tibordir. Ixtiyoriy diqqat ixtiyorsiz diqqat zamirida hosil bo_ladi. Ixtiyoriy diqqat, agar kishi o_z oldiga ma'lum bir vazifa qo_ygan va harakat dasturini ongli tarzda ishlab chiqqan bolsa, yuz beradi. Profilaktika inspektorlari o_z xizmat faoliyatlarini samarli olib borishlarida diqqatning ushbu turidan unumli foydalanadilar. Sababi, xar bir obyekt va subyektg, turli shikoyat va arizalarga yuzaki qarab emas, balki sinchkovlik, diqqatlik bilan munosabat bildirishlari talab etiladi.

Ixtiyoriy diqqatdan keyingi diqqat maqsadga yo_naltilgan faoliyatda shaxs uchun diqqatning ixtiyoriy to_planganligidagi kabi, faqat uning mazmuni va jarayonining qiziqarli hamda ahamiyatli bo_lishi natijasida qiziqib, kirishib ketish xususiyatida namoyon bo_ladi. Diqqatning jamlanishi, jalb qilinishi ixtiyoriy diqqatdan keyingi diqqatda unumli va sermahsul hisoblanadi. Ixtiyoriy diqqatdan keyingi diqqat sharoitiga o_tish uchun ish jarayonini faollashtirish talab etiladi. Ish jarayonini xotira qonuniyatlarini yaxshi bilgan holda, uning yordamidan foydalanib amalga oshirish talab etiladi. Bular mantiqan tushunish va qiziqish uyg_otish qonuniyatlari

hisoblanadi¹. Shu bilan birga, profilaktika inspektoriga avval sodir etilgan hodisa yoki o'z hududidagi obyekt, shaxslar haqidagi biror-bir ma'lumot zarur bo'lsa, diqqat qayta tiklash funksiyasi, ya'ni ixtiyoriydan keyingi diqqat turiga murojaat etadi. Sababi, xodim ilgari bo'lgan holat yoki shaxs haqidagi ma'lumotlarga yana bir karra diqqatini jalb etadi. Bunda unga bevosita xotira, tafakkur, xayol, idrok va boshqa psixik jarayonlar ishtirok etadi.

Profilaktika inspektorining *kasbiy diqqati* yaxshi shakllangan ixtiyoriy diqqatning anglanganligi va keragicha boshqarish imkoniyatining mavjudligi bilan ajralib turuvchi va nima, qachon, qayerda hamda nimaga diqqatni qaratish kerakligini belgilab beruvchi jarayon hisoblanadi. Kasbiy diqqatning yaxshi rivojlanganligi uning maqsadli va mohirona yo'naltirilganligi bilan belgilanadi. Diqqatni bir joyga jamlash va uni to'g'ri yo'naltrishda quyidagi omillarni hisobga olish zarur:

- ish jarayoniga xos va mos sharoitni yaratish, ya'ni ish joyini sarajomlash, yorug'likka qulay joylashib olish;
- muayyan vazifani bajarish uchun psixologik tayyorgarlik ko'rish;
- aqliy tayyorgarlik, zarur adabiyotlardan foydalanish, tajriba orttirish, aqliy faoliyat yuritish uchun qulay vaqtlarni hisobga olish (tongi soat 5 dan 11 gacha, kunduzgi soat 16 dan kechki 20–24 gacha aqliy faoliyat unumdorligi yuqoriligini kuzatish mumkin).

Profilaktika inspektorining kasbiy faoliyatida diqqatning asosiy xususiyatlari (*taqsimlanishi, tarqoqligi, barqarorligi, tez o'rin almashishi*) ham o'ziga xos ahamiyat kasb etishi, ya'ni sodir bo'lgan voqea-hodisalarning zarur tomonlarini o'rganish va aniqlik kiritishda, jinoyatchi shaxsning psixik holatini kuzatishda qo'l kelishini anglab yetish lozim. Odatda diqqatning hajmi 7–12 ta obyektни to'liq qamraydi, barqarorligi 10–12 daqiqa to'liq saqlanadi, bir soniya ichida diqqatni 3–4 marotaba ko'chirish mumkin.

Shunday ekan, profilaktika inspektori o'z xizmat faoliyatida kasbiy diqqatni yuzaga keltirish uchun quyidagi usullardan foydalanishi zarur:

- obyektни kuzatish jarayonida jinoyatchining o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olish va jinoyatchi o'rnida o'zini tasavvur qilib ko'rish;
- obyektни kuzatish jarayonida diqqatni to'g'ri taqsimlash va tez ko'chira bilish ko'rikmasini shakllantirish usullaridan foydalanish;
- davomli mashq qilish yordamida diqqat markazida 2–7 tadan 8–15 tagacha obyektни ushlab turish;
- diqqatni bir obyektдан ikkinchisiga ko'chirishda har bir soniyadan unumli foydalanish;

¹ Qarang: Военная психология / Под ред. А.Г.Малакова. – М., 1999. – С. 82.

- diqqat doirasining torayishini hisobga olish, yaʼni axborot qanchalik muhim boʻlmasin, bir obyektga bogʻlanib qolmaslik;
- umumiy kuzatuv obyektida, sharoitni oʻrganish maqsadida, diqqatni teng taqsimlash orqali obyektни qismlarga boʻlib kuzatish.

Diqqatni kuchaytirish usullari:

- javobgarlik hissini sezish, faoliyat samaradorligini belgilovchi ahamiyatli tomonlarni hisobga olish;
- muayyan xatti-harakatlarni amalga oshirishda irodaviy kuchga tayanish;
- obyektни «eʼtibor bilan kuzat», «yaxshilab qara», «yana bir bor tekshir» kabi diqqatni kuchaytiruvchi buyruqlar berish;
- salbiy hissiyotlarni kuzatish jarayoniga aralashtirmaslik;
- kuzatuvchanlik faoliyatini susaytiruvchi omillarini inobatga olmaslik.

Profilaktika inspektorlari tomonidan diqqatni bir joyga jamlash muhim ahamiyatga ega. Shu sababli, diqqatni bir obyekt yoki subyektga jamlash prinsiplariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- diqqatni muayyan holatga yoʻnaltirish;
- ahamiyatsiz maʼlumotlarni miyada saqlamaslik;
- keraksiz fikrlarga chalgʻimaslik.

Diqqat jarayoni, oʻz navbatida, kuzatuvchanlik faoliyati bilan uygʻun shakllanadi. Kuzatish profilaktika inspektorlarining kasbiy faoliyatida oʻziga xos ahamiyat kasb etadi. U oʻz hududida oʻzoʻzini oʻzi boshqarish organlari faollari bilan har bir oila, taʼlim muassasasi, ishlab chiqarish va savdo-sotiq tarmoqlari, koʻngil ochar maskanlar, internet klublari faoliyatini, fuqarolarning aloqalari, shaxsiy xislatlarini oʻrganishda, umuman kriminogen vaziyatni toʻgʻri tasavvur etish va oʻrganishda, tegishli maʼlumotlarni toʻplashda namoyon boʻladi va shakllanib boradi.

Kuzatish deganda, maʼlum bir maqsadli rejani amalga oshirish uchun narsa va hodisani ongda ataylab idrok etish tushuniladi.

Kasbiy kuzatish esa profilaktika inspektorlarining xizmat vazifalarini amalga oshirishida makon va maskan haqida, profilaktik hisobga olingan va shubha uygʻotuvchi shaxslarni, muhim voqea va hodisalarni maqsadga muvofiq tarzda idrok etish jarayonidir.

Kasbiy kuzatuvchanlik profilaktika inspektorlarining shaxsiy xususiyati emas, balki tabiiy xususiyatiga aylanib, faoliyatning barcha turlarida namoyon boʻlishida, kuzatuvchanligining oliy darajaga chiqqanida namoyon boʻladi¹. Kasbiy kuzatuvchanlik samaradorligi esa albatta, psixologik mexanizmlar, qonuniyatlar va omillar bilan belgilanadi.

¹ Qarang: Асямов С. В., Пулатов Ю. С. Ички ишлар идоралари ходимларининг касбий-психологик тренинги. – Т., 2002. – Б.39.

Shu nuqtai nazardan kasbiy kuzatuvchanlik faoliyatini shakllantirishda xodimdan kasbiy diqqat, idrok xususiyatlari va operativ xotira jarayonlarini rivojlantirish talab etiladi.

Profilaktika inspektorlari profilaktik chora-tadbirlar sub'yektiga nisbatan kuzatuv ishlarini olib borishda quyidagi psixologik omillarni hisobga olishi kerak:

– o'zi profilaktik ta'sir o'tkazmoqchi bo'lgan shaxsning xulq-atvoriga xos bo'lgan xususiyatlar (masalan, huquqbuzarlikka xos xususiyatlari, yo'nalishi, tajribasi, nimalarga qiziqishi, moyilligi va boshqalar);

– zarur bo'lganda maxsus texnik vositalar va eslab qolish orqali kuzatilayotgan obyektning xatti-harakatlarini to'liq esda saqlashi, kerak bo'lsa, aniq qayd etishi;

– qayd etilgan faktlarni kuzatilayotgan obyekt to'g'risida olingan avvalgi ma'lumotlar bilan qiyoslashi va xulosalar chiqarishi.

Profilaktika inspektorlari kasbiy kuzatuvchanlikni rivojlantirishda quyidagilarni e'tiborga olishi zarur:

– kuzatuvdan oldin o'rganilayotgan shaxs, narsa yoki hodisa haqida to'liq tasavurga ega bo'lish;

– vazifani aniq maqsad asosida belgilab olish (xayolan bo'lsa-da) va kuzatuv rejasi hamda tartibini tuzish;

– kuzatilayotgan va o'rganilayotgan shaxsning o'ziga xos xislatlarini inobatga olish hamda kuchli va zaif tomonlarini izlab topish;

– hududdagi maxsus va diqqatni tortadigan, kriminogen jihatdan og'ir maskanlarni o'rganish, psixologik tahlil qilish va butun jarayonni kuzatishni esdan chiqarmaslik;

– bir martalik kuzatishga ishonmaslik, subyekt va obyektlarni turli nuqtai nazar va turli vaziyatlarda tekshirish;

– kuzatish davomida har bir elementga nisbatan «Nega?», «Nima uchun?» kabi savollar qo'yish, o'z fikr va xulosalari asosida taxmin qilish;

– kuzatuvdan olingan natijalarni huquqbuzar bilan yoki hududdan olingan obyekt haqidagi ma'lumotlarni boshqa manbaalardan olingan xabarlar bilan qiyoslash;

– kuzatish natijalarini aniq ifodalash va tegishli shaklda qayd etish;

– profilaktika inspektorlari faoliyati doirasida turli mutaxassislarni jalb etish, olingan natijalarni solishtirish va hamkasblar bilan muhokama qilish.

Kasbiy kuzatuvchanlikni rivojlantirishning muhim omili tegishli psixologik qonuniyatlarga asoslangan kasbiy kuzatish texnikasini egallash sanaladi.

Sezgi va uning profilaktika inspektori faoliyatida tutgan o'rni. Sezgi oddiy psixik jarayon bo'lib, u moddiy olamdagi narsa va hodisalarning

ayrim xususiyatlari aksidan, shuningdek, moddiy qo_zg_atuvchilar tegishli retseptorlarga bevosita ta'sir etganda, organizmda hosil bo_ladigan ichki holatlardan tarkib topadi. Materiya bizning sezgi irodalarimizga ta'sir etib sezgi hosil qiladi. Sezgi a'zolari axborotni qabul qilib oladi, saralaydi, jamlaydi va miyaga yetkazib beradi.

Sezgi a'zolari tashqi olamning kishi ongiga kirib keladigan yagona yo_lidir. Sezgilarning mohiyatiga ko_ra obyektiv olamning subyektiv siymosi hisoblanadi. Lekin sezgilarning hosil bo_lishi uchun organizm moddiy qo_zg_atuvchining tegishli ta'siriga berilishi kifoya qilmaydi, balki organizmning o_zi ham qandaydir ish bajarishi darkor.

Kishining hayoti va faoliyatida sezgilarning roli juda katta. Chunki, ular bizning olam va o_zimiz haqimizdagi bilimlar manbai hisoblanadi. Inson tevarak-atrofdagi sodir bo_layotgan voqea-hodisalar haqida hamisha axborot olib turishi kerak.

Shu ma'noda, sezgilarning ma'lum bir qo_zg_atuvchining muayyan retseptorga ta'siri natijasida hosil bo_lgani uchun ham sezgilarning tasnifi ularni hosil qiladigan qo_zg_atuvchilarning va ana shu qo_zg_atuvchilarga ta'sir qiladigan retseptorlarning xususiyatlariga asoslanadi.

Sezgilarning Arastu tomonidan alohida ajratib ko_rsatilgan turlari mavjud:

- ko_rish;
- eshitish;
- hid bilish;
- badanga tegish orqali sezish;
- ta'm bilish.

Sezgilarning ma'lum bir qo_zg_atuvchining muayyan retseptorga ta'siri natijasida hosil bo_lgani uchun ham sezgilarning tasnifi ularni hosil qiladigan qo_zg_atuvchilarning va ana shu qo_zg_atuvchilarga ta'sir qiladigan retseptorlarning xususiyatlariga asoslanadi.

Aks etish xususiyatiga va retseptorlarning joylashgan o_rniga qarab sezgilarning odatda, uch guruhga ajratiladi:

1) tashqi muhitdagi narsa va hodisalarning xususiyatlarini aks ettiradigan hamda tananing yuzasida retseptorlari bo_lgan ekstroseptiv sezgilarning;

2) tananing ichki a'zolari va to_qimalarida joylashgan hamda ichki a'zolarining holatini aks ettiradigan retseptorlarga ega bo_lgan interoseptiv sezgilarning;

3) retseptorlari mushaklar va paylarda o_mashgan proprioseptiv sezgilarning; ular gavdaning harakati va holati haqida axborot berib turadi.

Ekstrotseptivlarni ikki guruhga: aloqa bog_ laydigan kontakt va distant retseptorlarga ajratiladi. Aloqa bog_ laydigan retseptorlar ularga ta'sir qiladigan obyektlar bilan bevosita aloqa o_ matgan, bog_ lagan paytda qo_ zg_ aydi; badanga tegish orqali sezish, ta'm bilish retseptorlari shular jumlasidandir. Distant retseptorlar uzoqdagi obyektidan keladigan qo_ z_ g_ atishdan ta'sirlanadi; distant ritseptorlarga ko_ ish, eshitish, hid bilish retseptorlari kiradi.

Adaptatsiya yoxud moslashuv – sezgi organlari sezgirligining qo_ z_ g_ atuvchi ta'siri ostida o_ zgarishi demakdir.

Bu hodisaning uch xil turini alohida ko_ satish mumkin:

1. Qo_ zg_ atuvchining uzoq muddat davomida ta'sir etishi jarayonida sezgining tamomila yo_ qdib qolishiga o_ xshaydi. Doimiy qo_ zg_ atuvchilar ta'sir qilgan taqdirda sezgi yo_ qdib qolish xususiyatiga ega. Masalan, terining ustiga qo_ yilgan yengilgina yuk tezda sezilmaydigan bo_ lib qoladi. Hid bilish sezgilari atrof-muhitga yoqimsiz hid yoyilganidan keyin ko_ p o_ tmay batamom yo_ qdib qolishi ham oddiy bir hodisa.

2. Adaptatsiya – kuchli qo_ zg_ atuvchining ta'siri ostida sezgining zaiflashib qolishi. Masalan: sovuq qo_ zg_ atuvchi hosil qiladigan sezgining jadalligi qo_ lni sovuq suvga solganda susayadi. Biz yarim qorong_ u xonadan ravshan yoritilgan joyga chiqqanimizda oldiniga ko_ zlarimiz qamashadi va tevarak-atrofdagi biron-bir narsaning farqiga yeta olmay qolamiz, bir muncha vaqt o_ tgandan keyin esa ko_ ish analizatorlarining sezuvchanligi keskin susayib, biz odatdagidek ko_ ra boshlaymiz.

3. Kuchsiz qo_ zg_ atuvchining ta'siri ostida sezgirlikning ortishi ham adaptatsiya deb ataladi.

Profilaktika inspektori faoliyatida ham sezgining o_ mi beqiyosdir. Kasbiy sezgirlik his qilish jarayonlarini mashq qildirish orqali rivojlantiriladi. Bu xususiyat faoliyat davomida shakllanib boradi. Masalan, profilaktika inspektori o_ z faoliyati jarayonida shaxsning ilgari sudlanganligini, uning o_ zini tutishi va harakatlari orqali aniqlab olish qobiliyati shakllanishi va hokazo.

Idrok va uning profilaktika inspektorlari faoliyatida tutgan o_ rni. Idrok sezgiga nisbatan murakkab va mazmundor psixik jarayon hisoblanganligi sababli, barcha ruhiy holatlar, hodisalar, xususiyatlar, xossalar va inson ongining yaxlit mazmuni, egallangan bilimlar, tajribalar, ko_ nikmalar bir davrning o_ zida namoyon bo_ ladi, aks ettirishda ishtirok etadi.

Narsa yoki hodisalarning sezgi a'zolariga bevosita ta'siri jarayonida kishi ongida uning aks etishi *idrok* deb ataladi.

Idrok etish jarayonida alohida holdagi sezgilarning tartibga solinishi hamda narsa va voqea-hodisalarning yaxlit obrazlarga birlashuvi yuz beradi.

Qo'zg'atuvchining alohida xususiyatlari aks etadigan sezgilardan farqli o'laroq, idrok narsalarni uning hamma xususiyatlari bilan birgalikda aks ettiradi. Bunda idrok alohida sezgilar yig'indisi tarzida emas, balki hissiy bilishning o'zigaxos xususiyatlari bilan sifat jihatidan yuqori bosqichi kabi tasavvur qilinadi.

Profilaktika inspektorlari faoliyatida idrok kasbiy faoliyat uchun muhim ahamiyat kasb etadigan hodisa, holat, obyektlardan kerakli narsalarni ajratib olib, yaxlit holda ongida aks ettirish, oddiy shaxs ko'ra olmaydigan holatlardagi narsalarni tez va oson ilg'ash jarayonidir. Yaxshi rivojlanmagan kasbiy idrok xodimda illyuzion (noto'g'ri) idrok qilish xususiyatini shakllantiradi.

Shu nuqtai nazardan, idrok profilaktika inspektorlarining kasbiy faoliyatida muayyan o'zigaxos xususiyatlarni namoyon etadi. Ya'ni, ichki ishlar organlari xodimi aniq ma'lumot olish uchun voyaga yetmagan, giyohvand, muqaddam sudlangan, guvoh, jabrlanuvchi, gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchini kuzatayotganda o'rganilayotgan obyekt to'g'risida turli ko'inishlarda olingan tasavvur va tushunchalarni yaxlit holatda idrok qiladi. Profilaktika inspektori voqelikni to'g'ri idrok etishlari uchun idrok qilish prinsiplariga rioya qilishi zarur.

Idrok qilish prinsiplari quyidagilar:

- bilish zarur bo'lgan holat yuzasidan miyada aniq aqliy zanjir tuzish;
- sezgi a'zolarining imkoniyatlaridan to'liq foydalanish;
- o'rganilayotgan obyektga nisbatan qiziqish uyg'otish.

Idrok qilish prinsiplari asosida xodim turli nuqtai nazarlarni masofadan, vaziyatdan, holatning yoritilish darajasi, sharoitdan kelib chiqib, obyektidan olgan taassurotlarni tahlil qiladi.

Xotira va uning profilaktika inspektori faoliyatida tutgan o'rni. Odam ko'rgan, his qilgan va eshitgan narsalarining juda oz miqdorinigina eslab qoladi. Psixikaning eng muhim xususiyati shundan iboratki, individ tashqi taassurotlardan o'zining keyingi xatti-harakatlarida doimo foydalanadi. Individual tajriba orta borishi hisobiga xulq-atvor sekin-asta murakkablashadi. Agar tashqi dunyoning miya qobig'ida hosil bo'ladigan obrazlari tez yo'qolib ketaversa, tajribaning shakllanishi mumkin bo'lmay qolar edi. Bu obrazlar bir-biri bilan o'zaro turli xil aloqalar vositasida mustahkamlanib, saqlanib qoladi hamda hayot va faoliyat talablariga muvofiq yana qayta namoyon bo'ladi.

Individning o'z tajribasini esda olib qolishi, esda saqlashi va keyinchalik uni yana esga tushirishi hamda unutishiga xotira deyiladi.

Xotirada esda olib qolish, esda saqlash, esga tushirish va unutish kabi asosiy jarayonlar alohida ajratib ko'rsatiladi. Bu jarayonlarning har biri

alohida mustaqil psixik xususiyat hisoblanmaydi. Ular faoliyat davomida shakllanadi va o_{sha} faoliyat bilan belgilanadi.

Xotira mexanizmlarini o_{rganish}ning psixologik darajasi xronologik jihatdan boshqalaridan ustunroq bo_{lib}, fanda turli yo_{nalish}lar va nazariyalarning ilgari surilganligi bilan ma'lumdir. Bu nazariyalarni ular xotira jarayonlarining shakllantirilishida sub'yektning faolligi qanday rol o_{ynash}iga va bunday faollikning mohiyatiga qanday yondashuviga bog_{liq} holda tasniflash va baholash mumkin.

Xotiraning esda olib qolish va qayta esga tushirish jarayonlari sodir bo_{ladigan} faoliyatning xususiyatlariga bog_{liqligi} xotiraning har xil turlarini ajratish uchun umumiy asos bo_{lib} xizmat qiladi. Bunda xotiraning ayrim turlari uch asosiy mezonga muvofiq bo_{linad}:

1) faoliyatda ko_{proq} sezilib turadigan psixik faollikning xususiyatiga qarab xotira harakat, his-hayajon, obrazli va so_z-mantiqli turlarga bo_{linadi};

2) xotira faoliyatning maqsadi, xususiyatiga ko_{ra} ixtiyorsiz va ixtiyoriy turlarga bo_{linadi};

3) materialni qancha vaqt esda olib qolish va esda saqlash muddatiga ko_{ra} (uning faoliyatdagi roli va tutgan o_{rniga} bog_{liq} ravishda) xotira qisqa muddatli, uzoq muddatli va operativ turlarga bo_{linadi}.

Profilaktika inspektori faoliyatida «*kasbiy xotira – xodimning ilgari idrok etib amalga oshirgan, boshidan kechirgan, tezkor xizmat faoliyatiga aloqador va uni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur bo_{lgan} ma'lumotlarni eslab qolish, esda saqlash va keyinchalik yana xotirada qayta tiklash xususiyatlarini ifodalovchi xislat*»¹.

Profilaktika inspektorlari faoliyatini tashkil etishda xotiraning muvaffaqiyatga eltuvchi asosiy jarayonlarini bilish talab etiladi. Xotirada axborotni eslab qolish, keyin esga tushirish jarayoni subyekt faoliyatida katta ahamiyat kasb etadi va bu axborotdan qanday maqsadda foydalanishga bog_{liq}

Huquqbuzarlik sodir etilganda guvoh, jabrlanuvchi, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki huquqbuzarlik sodir etuvchi ayni vaziyatda qaysi bir holat ularga ahamiyatli bo_{lsa} (ijobiy yoki salbiy ta'sir), o_{sha} holatni eslashi mumkin. Xodim huquqbuzar, guvoh, jabrlanuvchi, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki huquqbuzarlik sodir etuvchiga xos alohida xususiyatlarni hisobga olishi, shaxsning ko_{ta}inki (optimistik) yoki tushkun (pessimistik) kayfiyatiga qarab bir xil vaziyatni turli shaxslar turlicha talqinda (yaxshi va yomon taassurotlar asosida) eslab qolishi mumkinligini

¹Qarang: *Столяренко А. М. Психологическая подготовка сотрудников ОВД. – М., 1997. – С.20.*

inobatga olishi zarur. Sodir etilgan huquqbuzarlik tafsilotlarini guvoh, jabrlanuvchi, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki huquqbuzarlik sodir etuvchi turlicha talqin qilishi, eslab qolishi va yodga olishi kuzatilgan.

Xotiraning idrok qilinishi ongda saqlanish muddatiga qarab qisqa va uzoq muddatli bo__lib, ularning ishlash mexanizmi ham turlicha bo__ladi. Har qanday voqea-hodisa, avvalo, *birlamchi qisqa muddatli xotira blokiga* tushadi. Ishlatilish ahamiyatiga qarab uzoq *muddatli xotira blokiga* o__tishi mumkin.

Inson faqat iroda kuchi yordamidagina aynan kerakli manbalarni eslay oladi. «*Fikrlar harakati – uzoq muddatli xotira blokidan tezkor xotira blokiga o__tishni ta‘minlovchi ip*»¹ deydi A.N.Luk. Bu jarayon unchalik oson kechmaydi. Me‘yorida faoliyat yuritadigan miya individning butun hayotiy tajribasini saqlab qoladi. Uning murakkab tomoni ma‘lumotlarni erkin eslash mumkin emasligidadir. Xotiraning faqat ma‘lum sharoitga aloqador qismigina zarurat tug__ilganida tiklanishi, ya‘ni yodga tushishi mumkin. Inson xotirasidagi doimiy ishlatilmaydigan, eslab yangilanmaydigan axborot tez yoddan chiqadi. Gohida doimiy harakatdagi axborot ham, agar ayni vaqtda muhim deb hisoblanmasa, esdan chiqishi mumkin.

Profilaktika inspektorining *kasbiy xotirasini* maqsadli rivojlantirish quyidagi yo__nalishlarda mashqlar bajarishni taqozo etadi:

– unga biriktirilgan ma‘muriy hududni doimiy ravishda profilaktik ko__zdan kechirish, ma‘muriy hududdagi binolar, obyektlar va qurilmalar (*zarur hollarda, aholi yashash xonadonlari, kirish yo__laklari, tomlari va yerto__lari, bo__shyotgan va shu kabi binolar*) holatini ko__rib o__rganishi;

– profilaktik hisobda turganlar, ilgari sudlanganlar, ma‘muriy nazoratda turuvchi ilgari sudlanganlar, bedarak yo__qolganlar, jinoyat sodir etib qidiruvda bo__lganlarni, «Xavfli guruh»ga kiruvchi va axloq-odob doirasidagi huquqbuzarliklar sodir etuvchilarni, huquqbuzarlik sodir etishga moyil bo__lgan shaxslarni, g__ayriijtimoiy xulq-atvordagi, huquqbuzarlikdan jabrlanuvchilarning tashqi qiyofasi, belgilari va xatti-harakatlaridagi o__ziga xosliklarni eslab qolish va tanib olish;

– huquqbuzarlikka moyil bo__lgan shaxslarning yuz qiyofasi, tashqi ko__inishi, alohida o__ziga xos belgilari va noodatiy hamda tabiiy xatti-harakatlaridagi o__ziga xosliklarni eslab qolishi, uni taniy olish va zarur bo__lganda xotirada tiklash;

– xizmat vazifalarini samarali bajarishda ma‘muriy hudud va aholisi-ning turmush tarzi va o__ziga xos xususiyatlari haqidagi axborotni eslab qolish va xotirada saqlash;

¹ Qarang: Лук А. Н. Память и кибернетика. – М., 1999. – С. 80.

– qidiruvda bo‘lgan shaxslar, avtomashinalarning davlat raqami va belgilarini eslab qolish va tanib olish;

– profilaktik hisobda bo‘lgan turli toifadagi shaxslarning har birini imkon qadar xotirada saqlash, ularning alohida belgilari hamda psixologik portretini eslab qolish va tanib qolish;

– jinoyat sodir bo‘lgan obyektlarda o‘g‘irlangan buyumlar va ularning belgilarini xotirada saqlab qolish va esga tushirish;

– joy chizmalari, harakatlanish yo‘nalishlarini eslab qolish va xotirada saqlash.

Profilaktika inspektorlarining kasbga oid muhim ma‘lumotlarni eslab qolish, esda saqlash, esga tushirishlarida bir qator psixologik usullardan foydalanishlari kasbiy xotirani rivojlantirishga yordam beradi.

Ma‘lumotni esda saqlash prinsiplari:

1) maqsadni to‘g‘ri tanlash;

2) axborotni saqlash uchun (hissiy, obrazli, eshitish, ko‘rish orqali) turli bog‘liqliklarni belgilab olish.

Profilaktik hisobda turuvchi shaxslar, guvoh, jabrlanuvchi, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki huquqbuzarlik sodir etgan, muqaddam sudlanganlarning ko‘rsatmalarini baholashda ular xotirasining rivojlanganlik darajasini o‘rganish lozim. Xotira butun umr davomida rivojlanib, takomillashadi. Unga asab tizimi, tarbiya va o‘qish jarayonlari ta‘sir qiladi¹.

Axborot inson faoliyatiga qanchalik aloqador bo‘lsa, shunchalik mustahkam eslab qolinadi. Xotirani rivojlantirish uchun biron bilimni, qonuniyatni shunchaki yodlash emas, balki uni amaliy faoliyatda iloji boricha kengroq qo‘llash muhimdir.

Axborot qanchalik chuqur anglansa, u xotirada shuncha yaxshi saqlanib qoladi. Ushbu qonuniyatdan foydalanish eslab qolish jarayonini fikrlash jarayoniga yanada eng ko‘proq darajada yaqinlashtirishni bildiradi. Anglangan holda eslab qolish obyektlarning eng muhim jihatlari va munosabatlarini ifodalovchi mantiqiy aloqalarga asoslanadi.

Qiziqish uyg‘otuvchi yoki manfaat keltiruvchi axborot oson eslab qolinadi. O‘zlashtirayotgan narsamizni bizni qiziqtirayotgan, biz uchun manfaat keltiradigan narsalar bilan bog‘lash – samarali eslab qolishning asosiy shartlaridan biridir. Samarali eslab qolishda muayyan axborotni idrok etishga tayyorgarlik va yaxshi eslab qolish maqsadini qo‘yish katta ahamiyatga ega. Bular eslab qolish jarayoniga katta ta‘sir ko‘rsatishi bilan birga, uning natijalarini oldindan ko‘rish imkonini beradi va xotirada tiklashni osonlashtiradi.

¹ Qarang: Васильев В. Л. Юридическая психология. – М., 2005. – С. 77.

Bir vaqtning o_zida yuzaga keladigan tasavvurlar eslash jarayonida bir-birini yodga tushiradi. Xotiraning ushbu qonuniyatidan foydalanish uchun eslab qolish va esga tushirish jarayonida tabiiy assotsiatsiyalardan foydalanish, shuningdek, ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy faoliyatida xotiraning ishini yengillashtiruvchi sun'iy assotsiativ aloqalar o_rnatishni o_rnatish zarur.

Xotirani shakllantirish usullari:

– bilishga bo_lgan qiziqishlar doirasini, xotirada saqlash maqsadlarini shakllantirish;

– mantiqiy eslash usullarini o_rnatish;

– javobgarlik hissini kuchaytirish: bilim olish, o_rnatish, qunt qilish, o_zini tarbiyalashga e'tibor berish;

– o_tilgan mashg_ulotlardagi materiallarni tizimli ravishda qayta takrorlash, xotirani mustahkamlovchi mashqlarni bajarish.

Shu ma'noda profilaktika inspektorlari faoliyatida kasbiy xotira – tezkor, uzoq muddatli, so_zmantiqli shaklda, raqam, son, ism, familiya, qiyofalarni tez tanib eslab qolish, qayta tiklash (keyinchalik farqlay olish)da namoyon bo_ladi¹.

Tafakkur va uning profilaktika inspektori faoliyatida tutgan o_mi. Tafakkur atrof-muhitdagi voqealikni nutq yordamida bevosita, umumlashgan holda aks ettiruvchi psixik jarayon, sotsial sababiy bog_lanishlarni anglashga, yangilik yaratish va bashorat qilishga yo_natirilgan aqliy faoliyatdir². Insonning bilish faoliyati voqealikni, narsa va hodisalarni sezish va idrok qilishdan boshlanadi, so_ngra asta-sekin tafakkurga, fikr yuritishni aqliy yo_l bilan aks ettirishga o_tadi.

Tafakkur jarayonida inson hissiy bilish qobig_idan tashqari chiqib, sezgi va idrokda bevosita aniqlash imkoniyati bo_lmagan murakkab holatlarni anglay boshlaydi. Insonning bilish faoliyatida sezgi, idrok, tasavvur obrazlari bilan tafakkur uzluksiz bir-birini boyitib turadi.

Tafakkurning boshqa psixik jarayonlardan ajralgan holda rivojlanishi mutlaqo mumkin emas. Shuning uchun shaxsning tafakkuri rivojlanishi bilan birga nutq faoliyati ham o_sadi. Bu esa shaxsda o_z fikrini to_gri, aniq ifodalash malakasini hosil qiladi, nutqining tuzilishini takomillashtiradi va lug_atboyiligini oshiradi.

Profilaktika inspektori faoliyatida tafakkur kasbiy masalalarni yechish holati va hodisalarning mohiyatini tez anglash, turli-tuman axborotlar ichidan zarurini ajratib olish, ular o_tasidagi farq va tafovutni oson aniqlash,

¹ Qarang: *Арифходжаева И. Х.* Ички ишлар идоралари ходимлари психологияси. – Т., 2008. – Б.134.

² Qarang: *Фозиев Э.* Тафаккур психологияси. – Т., 1990, – Б.15.

ko_pchilik ilg_ay olmaydigan mayda narsalarni ko_ish bilan ularni turli harakat, shakllarda obrazlashtirish, jonlantirishda namoyon bo_ladi

Profilaktika inspektori oldida turgan vazifalarni hal etishi uchun uning kasbiy tafakkurini rivojlashtirish katta ahamiyatga ega. Idrok va tasavvurda aks etadigan narsa tafakkurda taqqoslanadi, tahlil qilinadi va umumlashtiriladi.

Tafakkur, xususiyatiga ko_ra, shaxs faoliyatida vujudga kelgan muammo va masalalarni hal qilishga yordam beradi, muammoning yechimini topish bilan bir qatorda, muammoli vaziyatga aloqador narsa va hodisalarning noaniq xususiyatlari, munosabatlariga ham aniqlik kiritadi. Tafakkur yuritishdan ko_zlangan asosiy maqsad muayyan vaziyatdagi turli munosabatlar, holatlar yuzasidan avval alohida, so_ngra umumlashtirilgan holda olingan manbalarni o_zaro solishtirish orqali masalaga oydinlik kiritish usullarini ongda shakllantirishdir¹.

Kasbiy tafakkur nafaqat harakatga keltirish zarur bo_lgan aqliy imkoniyat, balki inson omilini faollashtirish qurolidir². Shu nuqtai nazardan, ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy tafakkuri deganda, o_z xizmat vazifalarini bajarishida muhim ahamiyat kasb etadigan voqea, hodisa va holatlardagi umumiylikni ko_ra olish, analiz va sintez qilish, taqqoslash, asoslash va taxminiy xulosalar chiqarish jarayoni tushuniladi.

Kasbiy rivojlangan tafakkur xodimning muhim xislati bo_lib, narsalar, odamlar va ularning xatti-harakatlaridagi muhim jihatlarini bilish, ular o_rtasidagi qonuniyatli aloqalarni topish qobiliyatida namoyon bo_ladi. Profilaktika inspektorining tafakkuri murakkab profilaktik xizmat vazifalarini bajarish, amaliy muammolarni hal etishning yangi yo_llarini topish qobiliyati.

Kasbiy tafakkurni faollashtirishning asosiy usullari quyidagilardan iborat³.

Kasbiy vazifani tushunish usuli. Dastlab umumiy vazifani oddiy vazifalarga bo_lish zarur. Ishning tafsilotlari, ikir-chikirlariga e_tibor berish, hech narsani nazardan qochirmaslik, vazifani bajarishning bir necha variantlariga ega bo_lishga harakat qilish kerak.

Masalaning yechimini topish usuli. Avvalo, izlanishning dastlabki nuqtasi ajratib olinadi, bunda izlash chegaralari aniqlanadi va tartibga

¹ Qarang: *Рубинштейн С.Л.* О мышлении и путях его исследования. – М., 1999. – С. 14.

² Qarang: *Столяренко А.М.* Психологическая подготовка сотрудников ОВД. – М., 1997. – С. 21.

³ Qarang: *Асямов С.В., Пулатов Ю.С.* Ички ишлар идоралари ходимларининг касбий-психологик тренинги. –Т., 2002. – Б.44.

solinadi. Izlash yo_nalishlari tanlanadi, uyg_unlashtiriladi va qayta ko_rib chiqiladi.

Tekshirilayotgan hodisaning manzarasini fikran shakllantirish usuli. Xodimdan umumiy manzara va undagi elementlarning obrazli ishlovini amalga oshirish hamda shu asosda tekshirilayotgan hodisaning qolipi (sxemasi)ni shakllantirish talab etiladi (bu tezkor fikrlash yoki taxminlar (tasmollar) shaklida amalga oshirilishi mumkin). Hodisaning elementlari o_rtasidagi aloqalarni ko_rib chiqish va ishlash, ularni bir butun ko_rinishga birlashtirish hamda asosiy bo_g_imi topish zarur.

Tafakkurni yo_naltirish usuli tadqiq etilayotgan vaziyatda ruhiy yo_nalish olish (masalan, huquqbuzarliklar sodir etuvchi, profilaktik hisobda turuvchi shaxsning xatti-harakatlari, motivlarini tushunishga harakat qilish), shuningdek psixologik tahlil o_tkazish va uning asosida vaziyatning bundan keyingi rivojlanishini bashorat qilishdan iborat. Ba'zi murakkab vaziyatlarda refleksiya usulidan, ya'ni raqib nuqtai nazaridan mulohaza qilishdan foydalaniladi.

Tafakkur jarayonida nazoratni kuchaytirish usuli. Xodim o_zini nazorat qilishning so_zda ifodalangan formulalaridan («Men buni qanday qilib bajara oldim?», «Nima uchun men bunday xulosaga keldim?» va hokazo) foydalangan holda tekshirib turishi zarur. O_z xulosalari va baholarida subyektivlikka yo_l qo_ymaslikka, shaxsiy moyillik va xusumatni yo_q qilishga harakat qilishi kerak.

Tafakkurni shakllantirish usullari:

1) mustaqil fikr yuritish, javobgarlik hissini anglash kabi shaxsiy xususiyatlarni rivojlantirish;

2) kasbiy masalalarni hal qilishda talab etiladigan bilim, ko_nikma va tajribani egallashga harakat qilish;

3) bir-biriga qarama-qarshi, chigal fikrlarni yechish, qiyin, mavhum vaziyatlarda yechim topish mashqlarini mukammallashtirish;

4) mantiqiy fikrlash, tafakkur operatsiyalari mohiyatini anglash, masalani yechishdagi g_ayritabiiy usullar bilan tanishish;

5) aqliy imkoniyatlarni takomillashtirish.

Xayol va uning profilaktika inspektorlari faoliyatida tutgan o_rni. Xayol yoki fantaziya tafakkur kabi yuksak bilish jarayonlari qatoriga kirib, har bir kishida o_ziga xos tarzda namoyon bo_adi. Mehnatning tayyor natijasini xayolga keltirmay turib, ishga kirishib bo_lmaydi. Fantaziya yordamida kutilayotgan natijani tasavvur qilish inson mehnatining hayvonlar instinktiv faoliyatidan tub farqidir. Istalgan mehnat jarayoni zarur tarzda xayolni o_zichiga qamrab oladi. Xayol badiiy, konstruktorlik, ilmiy-

adabiy, musiqaviy va, umuman, ijodiy faoliyatning zarur tomoni sifatida namoyon bo_ladi.

Xayol – inson ijodiy faoliyatining zarur elementi bo_lib, mehnatning oxirgi va oraliq mahsulotlarida o_zifodasini topadi, shuningdek, muammoli vaziyat, noaniq holatlarda xulq-atvorning namoyon bo_lishini ta‘minlaydi. Shu bilan birga, xayol jadal faoliyatni yo_naltiruvchi emas, balki uning o_zmini almashtiruvchi timsollar hosil qilish vositasi sifatida yuzaga keladi.

Xayol tafakkur bilan chambarchas bog_langan. Xayol ham tafakkur singari kelajakni oldindan ko_rish imkonini beradi. Tafakkur singari xayol shaxslarning ehtiyojlariga asoslanadi. Ehtiyojlarni qondirishning real jarayonidan oldin ularni qondirishning soxta, xayoliy jarayoni sodir bo_ladi, ya‘ni bu ehtiyojlarning qondirilishi mumkin bo_lgan vaziyatni jonli, yorqin tasavvur qilish mumkin.

Fantaziya hayotda gavdalanmaydigan obrazlarni yaratadi, amalga oshmaydigan va ko_pincha amalga oshirib bo_lmaydigan ish-harakat dasturlarini belgilaydi. Xayolning bunday shakli *passiv xayol* deyiladi. Kishi passiv xayolni oldindan o_zylab yuzaga keltirishi mumkin. Ataylab yuzaga keltirilgan, iroda bilan bog_lliq bo_lmagan, lekin hayotda gavdalantirishga qaratilgan xayolning mana shunday obrazlari *shirin xayol* deb ataladi. Qandaydir quvonchli, yoqimli, qiziqarli narsalar haqida shirin xayol surish hamma odamlarga xos. Mana shunday shirin xayollarda fantaziya bilan ehtiyoj o_zrtasidagi aloqa yengil namoyon bo_ladi. Ammo insonning kundalik hayoti mobaynida shirin xayol kechirish hollari ko_proq bo_lsa, bu shaxsning passivligidan dalolat beruvchi nuqson hisoblanadi. Agar kishi passiv bo_lsa, u kelajakda yaxshi hayot kechirish uchun kurashmasa, uning hozirgi hayoti esa qiyin, ko_ngilsiz bo_lsa, bunday holda u o_zining ehtiyojlari to_lla qondiriladigan, istagan narsasini qo_llga kirita oladigan, hozirgi paytda umid qila olmaydigan biror mansabni egallaydigan soxta hayotni ko_p xayol qiladi.

Agar passiv xayolni oldindan o_zylab va o_zylamasdan qilingan turlarga bo_lish mumkin bo_lsa, *aktiv xayolni* ijodiy va qayta tiklovchi xayol turlariga bo_lish mumkin bo_ladi. Voqea-hodisani o_zmazmun-mohiyatiga suyangan holda obrazlar tizimini yaratuvchi xayol *qayta tiklovchi xayol* deb ataladi.

Profilaktika inspektori xayolning psixologik xususiyatlaridan o_zxizmat faoliyatida unumli foydalanishi mumkin. Bu avvalo kun davomida amalga oshiriladigan faoliyatni rejalashtirish, bashorat qilish, vaqtni to_gri taqsimlash va boshqalar. Biroq, agarda xodim “passiy xayol” ga berilib ketsa, bu bevosita uning irodaviy fazilatlariga salbiy ta‘sir ko_rsatadi. Sababi, xodim faqat shirin xayollar og_ushida qolib ketadi.

2-§. Profilaktika xizmati xodimlari faoliyati samaradorligini oshirishda hissiy-irodaviy va shaxsiy fazilatlarining o,rni

Profilaktika inspektorlari kasbiy faoliyati jarayonida turli voqea-hodisalarga nisbatan muayyan munosabat bildirib, hissiyotlarini u yoki bu tarzda namoyon etadilar. Xodim psixologiyasida namoyon bo_ladigan bunday ruhiy holatlar voqealikda sodir etilgan hodisalar ta'siri natijasidir. Bu esa, o_z navbatida, xodimning o_ziga xos individual psixologik xususiyatlarini bildiradi va u haqidagi birlamchi tasavvurlarni anglashga yordam beradi.

Jahon psixologiyasida «hissiyot» bilan «emotsiya» atamaları bir xil ma'noda ishlatiladi. Lekin ularni aynan bir xil holat deb tushunish noto_g_ridir. Odatda, tashqi alomatlari yaqqol namoyon bo_ladigan his-tuyg_ularni ichki kechinmalarda ifodalanishidan iborat psixik jarayon yuzaga kelishining aniq shaklini emotsiya deb atash maqsadga muvofiqdir. Masalan, ranglarning o_zgarishi, yuzlarning tabassumi, lablarning titrashi, ko_z_arning yarqirashi, kulgi, yig_i, g_amginlik, ikkilanish, sarosima va boshqalar emotsiyaning ifodasidir. Lekin vatanparvarlik, javobgarlik, mas'uliyat, vijdon, mehr-oqibat, sevgi-muhabbat singari yuksak xislatlarni emotsiya tarkibiga kiritish g_ayritabiiy hisoblanadi. Ularning eng muhim farqi shundaki, biri (hissiyot) ijtimoiy, ikkinchisi (emotsiya) individual, xususiy ahamiyat kasb etadi.

Shu ma'noda hissiyot shaxs hayotiy faoliyatining muhim jabhasi bo_lib inson emotsional holatining rang-barangligi, ko_pqirraliligini bildiradi. Hissiy ton (tus) – (yunoncha «tonos» – zo_riqish, urg_u berish ma'nosini bildiradi), emotsiyalar (lotincha «emovere» – qo_zg_atish, hayajonlash demak), affektlar (lotincha «affectus» – ruhiy hayajon, shijoat, ehtiros ma'nosini anglatadi), stress (inglizcha «stress» – zo_riqish degani), frustratsiya (*frustration* – rejalarning barbod bo_lishi, maqsadga erisha olmaslik) va kayfiyat kabi tushunchalar shular jumlasidandir.

Kishi idrok etish, xotirlash, xayol surish va fikrlash jarayonlarida faqat voqealikni bilib qolmay, balki hayotdagi u yoki bu narsalarga qaysidir ma'noda munosabat bildiradi, ularga nisbatan u yoki bu tarzda hissiyotlar paydo bo_ladi

Hissiyot – kishining hayotida yuz berayotgan voqealarga yoki nima bilan mashg_ul bo_layotganiga nisbatan o_ziga turli shaklda bildiradigan ichki munosabati.

Ehtiyojlarning qondirilishi yoki qondirilmasligi kishida turli xil o_ziga xos kechinmalarni: emotsiya, affekt (hissiy portlash), kayfiyat, kuchli hayajonlanish (stress) holatlarini va his-tuyg_ularni hosil qiladi.

Hissiyot aksariyat hollarda ruhiy jarayonning o_ziga xos ko_{rin}ishi sifatida faqat emotsional shaklda vujudga keladi. Shu o_{rin}da hissiyot o_zicha emas, balki bilishga intilayotgan, uni egallayotgan shaxsda ma'lum munosabatni namoyon qiluvchi narsalar, hodisalar va harakatlarning alohida xossasi, xususiyati ma'nosida gavdalanadi. Shuni alohida ta'kidlash o_{rin}liki, ko_{rin}ish, eshitish, hidlash, kinestetik (harakat) sezgi hamda idrokka taalluqli hissiyot muhim ahamiyatga ega. Masalan, ma'muriy hududdagi xonadonlar, jamoaning munosabatlari, xonalar, ish joyi, transport vositalarining rangi va boshqalar taassurotidan vujudga kelgan yoqimli yoki yoqimsiz hissiyot mehnat samaradorligiga, xizmatchilarning kayfiyatiga sezilarli ta'sir o_{tk}azadi. Xotirjamlik, yoqimli musiqa, shaxslararo iliq munosabatlar, muomala, ahillik muvaffaqiyat kafolati, ijtimoiy taraqqiyot omili hisoblanadi.

Emotsiya. Emotsional jarayonlar, holatlar yoki, qisqacha aytganda, emotsiya hissiy kechinmalarning o_ziga xos shakllaridan biri. Emotsiya u yoki bu hissiyotning inson tomonidan bevosita kechirilishi (kechishi) jarayonidan iborat. Masalan, shaxs tomonidan musiqani sevish emotsiyani vujudga keltirmaydi, balki buning uchun musiqani eshitish, ijrochi mahoratiga tasanno aytish, undan hayajonlanish yoki asar ijrosi yoqmasa, g_{az}abli hissiy kechinma hosil bo_lishi ijobiy yoxud salbiy emotsiya deyiladi. Qo_{rq}inch, dahshat hissiy kechinma sifatida obyektlarga shaxsning munosabatini aks ettirib, turlicha shaklda namoyon bo_lishi mumkin: odam dahshatdan qochadi, qo_{rq}uvdan serrayib qoladi, o_zini idora qila olmay har tomonga uradi, hatto, xavf-xatarga ham o_zini tashlashi mumkin.

Ba'zi holatlarda emotsiya ta'sirchanligi bilan ajralib turadi. U xatti-harakatga, fikr-mulohaza bildirishga turtki beradigan kuch bo_lib, shijoatni oshirib yuboradi va bu holat *stenik* hislar deb ataladi. Boshqa bir holatda emotsiya (*astenik deb atalmish emosiyalar*) faollikning sustligi yoki loqaydligi bilan ajralib turadi, his-tuyg_ularning boshdan kechirilishi kishini bo_{sh}ashtirib yuboradi.

His-tuyg_ular, hissiyot (emotsiya), kayfiyat, kuchli hayajonlanish tarzida boshdan kechirilishi chog_{id}a ma'lum darajada seziladigan tashqi belgilarga ham ega bo_ladi. Masalan, yuzlarning ifodali (mimika), qo_l va gavdaning ma'noli harakatlari, yuz-ifodalar, ohang, ko_z qorachiqklarining kengayishi yoki torayishi kabilar shular jumlasiga kiradi. Bu ifodali harakatlar ba'zan shaxsga o_ziga o_zi hisob bermagan tarzda yuz bersa, boshqa bir holatda ongning nazorati ostida sodir bo_ladi¹.

¹ Qarang: *Фозиев Э. Умумий психология.* –Т., 2002. – Б.188–190.

Affekt (hissiy portlash) – kishini tez chulgʻab oladigan va shiddat bilan oʻtadigan jarayon. U ongning anchagina oʻzgariganligi, xatti-harakatlarni nazorat qilishning buzilganligi, odamning oʻzini oʻzi idrok qila olmasligi, shuningdek, shaxsning hayoti va faoliyati oʻzgarib qolganligi bilan ajralib turadi. Affekt holatida birdaniga katta kuch sarf qilinishi sababli ham u qisqa muddatli boʻladi. Agar oddiy hissiyot faqat ruhiy hayajonlanishni ifoda etsa, affekt boʻlondir.

Hissiy portlash roʻy berganda kishi oʻzini nazorat qila olmay qoladi, qilayotgan ishining oqibatini oʻylamaydi va aql-hushini yoʻqotib qoʻyadi. Tormozlanish miya qobigʻini egallab, kishining tajribasi, uning madaniy va maʼnaviy asoslarda mustahkamlangan muvaqqat bogʻlanishlarning tarkib topgan tizimini ishlatmay qoʻyadi. Masalan, jinoyatchilik olamida kuchli ruhiy hayajonlanish holatida qasddan odam oʻldirish (JK 98-m.) yoki kuchli ruhiy hayajonlanish holatida qasddan badanga ogʻir yoki oʻrtacha ogʻir shikast yetkazishda (JK 106-m.) affektiv holatlarni kuzatish mumkin. Hissiy portlashdan keyin holdan toyish, majolsizlik, barcha narsalarga befarq munosabatda boʻlish, harakatsizlik, baʼzan esa mudroq bosish boshlanadi. Shu sababli, profilaktika inspektorlari xizmat faoliyati mobaynida fuqarolar bilan profilaktik ishlarni amalga oshirish jarayonida shaxsning hissiy holatiga katta eʼtibor berish maqsadga muvofiqdir. Sababi, inson affektiv holatga tushganida qilayotgan xatti-harakatlarini nazorat eta olmaydi, bu esa profilaktika inspektorining hayoti uchun xavfli koʻinishni olishi ham mumkin.

Kayfiyat. Shaxsning xatti-harakatlari va ayrim ruhiy jarayonlariga muayyan vaqt davomida tus berib turuvchi emotsional holat kayfiyat deb ataladi. Shaxsning hayoti va faoliyati davomida shodlik, hazilkashlik, umidsizlik, jurʼatsizlik, zerikish, qaygʻurish singari his-tuygʻular ruhiy holatining umumiy tizimiga aylanadi. Ushbu vaziyat baʼzi emotsional taassurotlarning vujudga kelishiga qulay zamin hoziraydi, boshqasi uchun esa qiyinchilik tugʻdiradi. Inson xafa, maʼyus hissiy holat hukmronligida boʻlsa, tengdoshlarining hazili, keksalarning pand-nasihatlari, maslahatlariga, quvnoq kayfiyat chogʻidagiga nisbatan, boshqacharoq munosabat bildiradi. Shuning uchun ishlab chiqarish va xalq taʼlimi tizimi jamoalarida, rasmiy doiralarda ishchanlik, oʻzaro yordam, hamkorlik, hamdardlik, iliq ruhiy muhit yaratish, samimiy muomalani shakllantirish ham jismoniy, ham aqliy mehnat samaradorligini oshirishning kafolatidir.

Stress, psixologik taʼrifiga koʻra, affektiv holatga yaqin turadigan, lekin davomiyligiga koʻra kayfiyatga yaqin boʻlgan his-tuygʻular boshdan kechirilishining alohida shakli boʻlib, kuchli hayajonlanish (stress) holati

(inglizcha «*stress*»– tazyiq koʻrsatish, zoʻriqish degan soʻzdan olingan)dan yoxud hissiy zoʻriqishdan iboratdir. Hissiy zoʻriqish xavf-xatar tugʻilgan, kishi xafa boʻlgan, uyalgan, tahlika ostida qolgan va shunga oʻxshash vaziyatlarda roʻy beradi. Psixologiya faniga «*stress*» tushunchasini olib kirgan olim kanadalik fiziolog G. Selye hisoblanadi. Uning talqini boʻyicha «*stress* – inson organizmiga qoʻyilgan ortiqcha talabdir»¹.

Stress holatida shaxsning xatti-harakatlari keskin tarzda oʻzgaradi, qoʻzgʻalishning umumiy reaksiyasi paydo boʻladi, harakatlari tartibsiz ravishda amalga oshiriladi. Stressning kuchayishi esa teskari reaksiyaga olib keladi, natijada sustlik, zaiflik, faoliyatsizlik ustuvorlik qila boshlaydi. Stress holatida fiziologik oʻzgarishlar tashqi tomondan qariyb koʻzga tashlanmasligi mumkin, biroq muammoni yechishdagi qiyinchilik, diqqatni taqsimlashdagi sarosimalikni stressning tashqi ifodasi deb taxmin qilish mumkin. Shaxs stress holatida telefon raqamini adashtiradi, vaqtni chamalashda yanglishadi, ong faoliyati yengil buziladi, idrok koʻlami torayadi va boshqa holatlar kuzatiladi.

Profilaktika inspektorlari xizmat faoliyati mobaynida stress holatiga ham tushishlari mumkin. Bunday hollarda, odatda, xodim oʻzining hissiy holatini boshqara olmaslik, muomalasida qoʻpollik, vaziyatni toʻgʻri baholay olmasligi, mantiqiy toʻgʻri qaror qabul qila olmaslik, diqqatni toʻgʻri taqsimlay olmasligi va shu kabi salbiy koʻinishdagi ruhiy jarayonlar yuzaga kelishi mumkin. Shu sababli har bir profilaktika inspektori oʻzida turli koʻinishdagi noxushliklar, stress va asabiy holatni yuzaga keltiruvchi omillarga qarshi oʻzida yetarli psixologik bilimlar, irodaviy fazilatlarini shakllantirishi lozim.

Frustratsiya kishi maqsadga erishish yoʻlida bartaraf etib boʻlmaydi deb hisoblangan yoki shunday deb idrok etiladigan toʻsqinliklarga, gʻovlarga duch kelgan hollarda yuz beradi.

Frustratsiyaning yuz berishi shaxsning xulq-atvorida va oʻzini anglashida turli xil oʻzgarishlarga olib keladi. Frustratsiya holati shaxs oʻzini yoʻqtib qoʻyishi, yaʼni jabrlanuvchi jinoyatchiga qarshilik koʻrsata olmaganida, jinoyatchi koʻzlagan maqsadiga erisha olmaganida, kutilmaganida turli toʻsiqqa duch kelganida namoyon boʻladi².

Iroda kishining oldiga qoʻygan maqsadlariga erishishida qiyinchiliklarni yengib oʻtishga qaratilgan faoliyati, xulq-atvorini ongli ravishda tashkil qilishi va oʻz-oʻzini boshqarishidir. Iroda shaxs faolligining alohida

¹ Qarang: Селье Г. Стресс и дистресс. – М., 1999. – С. 25.

² Qarang: Левитов Н. Д. Фрустрация – один из видов психических состояний // Вопросы психологии. – 2000. – № 6. – С. 120.

shakli, uning xulq-atvorini tashkil etishning u tomonidan qo'yilgan maqsad bilan belgilanadigan alohida turidir. Shu ma'noda iroda to'siqlarni yengib o'tishga qaratilgan aqliy, maqsadga yo'naltirilgan psixik faollik bo'lib, maqsadga intilishda sodir bo'ladi va instinktlar manbaida shakllanadi¹.

Iroda tabiat qonunlarini egallab oladigan va shu tariqa uni o'z ehtiyojlariga ko'ra o'zgartirish imkoniyatiga ega bo'ladigan kishining mehnat faoliyatida paydo bo'ladi

Iroda o'zaro bog'liq ikki vazifaning bajarilishini ta'minlaydi. Birinchisi – undovchi, ikkinchisi – taqiqlovchi vazifalar.

Undovchi vazifasi kishining faolligi bilan ta'minlanadi. Taqiqlovchi vazifasi faollikning yoqimsiz ko'inishlarini jilovlashda namoyon bo'ladi

Kishining harakatga undovchi mayllari ma'lum bir yo'lga solingan tizimni – oziq-ovqatga, kiyim-kechakka, issiq va sovuqdan himoyalaniish ehtiyojidan tortib, ma'naviy, estetik va intellektual his-tuyg'ularni boshidan kechirishgacha bo'lgan yuksak niyatlarga borib taqaladigan motivlar iyerarxiyasini tashkil etadi.

Irodaning undovchi va taqiqlovchi funksiyalari bir butun holdagina shaxsning maqsadga erishish yo'lidagi qiyinchiliklarni bartaraf etishini ta'minlaydi.

Profilaktika inspektorlarida irodaviy fazilatlarni shakllantirish faoliyat samaradorligini ta'minlovchi psixologik omillardan sanaladi. Xodimlar o'z kasbiy vazifalarini benuqson bajarishlarini qiyinlashtiradigan, ba'zan xizmat faoliyatida maqsadga erishishga xalaqit beradigan turli to'siqlarga duch keladilar. Bunday vaziyatlarda ular ushbu qiyinchiliklar va to'siqlarni yengishga undovchi irodaviy fazilatlarini namoyon qilishlari muhimdir. Irodaviy ko'nikmalarni rivojlantirish uchun mashg'ulotlar jarayoniga qo'yilgan vazifani bajarishga to'siqlik qiluvchi muayyan elementlar, to'siqlarni kiritish katta yordam beradi.

Irodani mustaqil tarbiyalash usullari quyidagi shartlarni o'z ichiga oladi:

1) irodani tarbiyalashni nisbatan arziyas qiyinchiliklarni bartaraf etishdan boshlash;

2) qiyinchiliklarni va to'siqlarni bartaraf etish ma'lum maqsadga erishish uchun amalga oshirilishini tushunish;

3) qabul qilingan qaror bajarilishi kerakligi;

4) maqsadga erishish bosqichlariga oldindan ko'zi yetishi juda muhimdir.

¹ Qarang: Васильев В.Л. Юридическая психология. – М., 2005. – С. 68.

Irodani tarbiyalashni arziyas qiyinchiliklarni bartaraf etishni odat qilishdan boshlash kerak. Dastlab unchalik katta bo'lmagan qiyinchilikni, vaqt o'tishi bilan kattaroq qiyinchiliklarni muntazam ravishda yenga borib, kishi o'zining irodasini mashq qildiradi va chiniqtiradi.

Profilaktika inspektorlarining kasbiy faoliyatida hissiy-irodaviy holatlarning o'ziga beqiyosdir. Chunki xodimning murakkab vaziyatlarda qulay ruhiy holatni saqlash qobiliyati faoliyat samaradorligini ta'minlovchi omillardan biri sanaladi.

Xodimning hissiy-irodaviy turg'unligi quyidagilarda namoyon bo'ladi:

– ekstremal vaziyatlarda harakat samaradorligini pasaytiruvchi, adashishlarni yuzaga keltiruvchi psixologik reaksiyalarning yo'qiligi;

– psixologik jihatdan murakkab sharoitlarda kasbiy vazifalarni bexato bajarish;

– kasbiy ziyraklikni saqlash, tavakkal, xavf-xatar, kutilmagan vaziyatlarga nisbatan ehtiyotkorlik bilan oqilona yondashish.

Shu nuqtai nazardan profilaktika inspektori faoliyatining samaradorligi ko'p jihatdan o'z xatti-harakatlarini boshqara olishi, o'z his-tuygularini nazorat qila olishiga bog'liq. Shuningdek, xodimlarning o'zlarini irodaviy boshqara olishi, murakkab vaziyatlarda tezkor, oqilona qarorlar qabul qilishi kasbiy qobiliyati bilan belgilanadi. Ya'ni xodim o'zini irodaviy boshqarish orqali salbiy hissiyotlarni yo'q qilishi, o'zida ishonch hissini uyg'otishi, diqqatini bir joyga jamlashi va butun kuchini qo'yilgan vazifani bajarishga safarbar etishi uning asosiy sifatlaridan sanaladi.

Profilaktika inspektori o'zining psixologik holati va xatti-harakatlarini boshqara olmasligi uning irodasi sustligi, ijtimoiy-psixologik sharoitlarga moslashish qobiliyatining pastligidan dalolat beradi va bu aksariyat hollarda salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin.

Shu bois profilaktika inspektorining hissiy-irodaviy o'zini o'zi boshqarish yo'llari va usullarini egallashi bugungi kunda dolzarb vazifalardan biridir. Xizmat faoliyatida kuchli irodaga ega bo'lgan, o'z hissiyotlarini boshqara oladigan, huquqbuzarliklarning oldini olish va unga qarshi kurashish, fuqarolar xavfsizligini ta'minlashda o'zining jismoniy hamda aqliy imkoniyatlaridan oqilona foydalana oladigan profilaktika inspektori ko'proq muvaffaqiyatga erishadi.

Shu ma'noda hissiy-irodaviy boshqarishning asosiy maqsadi ham profilaktika inspektorining o'z ichki imkoniyatlaridan yuqori darajada foydalanishiga, ijodiy salohiyatining ochilishiga, kasbiy xislatlari va qobiliyatlari namoyon bo'lishiga yordam beradigan alohida psixologik xususiyatlarni shakllantirishdan iborat.

Irodasi kuchli bo'lgan profilaktika inspektori odatda hissiyotlarga berilmaydi, ularni doimo nazorat qila oladi. Bunday xodimlar maqsadga erishi yo'lida uchraydigan barcha qiyinchiliklarni bartaraf eta oladi, Ayni chog'da qat'iyat, mardlik, jasurlik, chidamlilik, sabr-toqat kabi irodaviy fazilatlarni namoyon qiladi.

Qat'iyat irodaning muhim ko'inishi bo'lib, mustaqil ravishda mas'uliyatli qaror qabul qilish hamda uni faoliyatda soz-siz amalga oshirish qobiliyati va malakasi bilan bog'liq. Qat'iyatli xodimda boshlang'ich motivlar kurashi zudlik bilan bir qarorga kelish, topshiriqni muqarrar bajarish bilan tugallanadi. Qat'iyatning ko'inishi hamisha bir lahzali emas. O'z vaqtida ishning ko'zini bilib, sharoit va holatlarni hisobga olgan holda qabul qilinadigan qaror irodaning kuchiga bog'liq.

Irodaning yana bir muhim ko'inishi bu intizomdir. Intizom inson xarakterining maxsus shakli sifatida irodaviy xususiyatlarda namoyon bo'ladi hamda jamiyatda qabul qilingan qonun-qoidalarga amal qilish hisoblanadi.

Profilaktika inspektorining o'zini tutishi, yurish-turishi va axloqiy xislatlariga qarab uning faoliyatiga baho beriladi. Bu baho xalq tomonidan beriladi, shuning uchun ham profilaktika inspektorining o'rnatilgan qonunchilik va amaldagi huquqiy normalarga amal qilishi ahamiyatga ega.

Irodasiz shaxs sodir bo'lgan noxush vaziyatdagi, kayfiyati, histuygulariga suyanib ish tutadi, ularga qarshi chiqa olmaydi. Irodasi sust kishilar qiyinchiliklar oldida ojizlik qiladilar, qat'iyat, sabot-matonat ko'rsatmaydilar, ularda xulq-atvor va faoliyatning ancha yuksak, ma'naviy jihatdan oqlangan motivlari shakllanmagan bo'ladi. Ular bir daqiqalik maylni yenga olmaydilar. Irodaning bunday jarayoni insonda yalqovlik sifatida aks etadi.

Psixologiya fanining ijtimoiy tarixiy taraqqiyoti davomida shaxsning o'ziga xos sifatleri, ya'ni temperament, xarakter va qobiliyatga nisbatan bildirilgan mulohazalar, uning moddiy asosi to'g'risidagi talqinlar xilma-xil bo'lib, shaxsning psixologik xususiyatlarini o'ziga xos tarzda tushuntirish uchun xizmat qilib kelgan.

Temperament lotincha «*temperamentum*» sozidan olingan bo'lib, «aralashma» degan ma'noni anglatadi. Temperament to'g'risidagi dastlabki ta'limotni yunon olimi Gippokrat (mil.avv. 460–356) yaratgan bo'lib, uning tipologiyasi hozirgi davrgacha qo'llanib kelmoqda.

Psixikaning individual jihatdan o'ziga xos, tabiiy shartlashgan dinamik ko'inishlari majmui kishining temperamenti deyiladi.

Gippokratning to'rt xil moddalar (suyuqliklar) aralashmasi, ya'ni «*temperament*» tushunchasi va uning tipologiyasi (sangvinik, xolerik,

flegmatik, melanxolik) ramziy maʼnoda hozirgi zamon psixologiyasida ham qoʻllanilmoqda. Organizmda suyuqliklarning aralashuvi (u qonning koʻpligi bilan xarakterlanadi) *sangvinik* temperament (lotincha «sangvis» – «qon» soʻzidan olingan); limfa koʻp boʻlganda *flegmatik* temperament (yunoncha «flegma» – shilimshiq parda degani); sariq oʻtning koʻpayganligini *xolerik* temperament (yunoncha «xola» – «oʻt» soʻzidan olingan); qora oʻt koʻp boʻlganda *melanxolik* temperament (yunoncha «melayna hole» – «qora oʻt») deb ataladi.

Kishining temperamenti qanaqaligi haqida tasavvur odatda shu shaxsga xos boʻlgan ayrim psixologik xususiyatlar asosida vujudga keladi.

Psixik faollikka ega boʻlgan, atrofdagi hodisalarga tez munosabat bildiruvchi, taassurotlarini tez-tez oʻzgartirishga intiluvchi, koʻngilsizliklarni nisbatan yengil oʻtkazib yuboruvchi, jonli, harakatchan kishi *sangvinik* deyiladi.

Yuragi keng, barqaror intilish va kayfiyatga, doimiy va chuqur his-tuygʻuga ega, harakatlari va nutqi bir maromida boʻlgan, ruhiy holatini tashqi tomonda ifoda etadigan kishi *flegmatik* deb ataladi.

Juda gʻayratli, ishga ehtiros bilan berilish qobiliyatiga ega boʻlgan, tez, qizgʻin emotsional «portlash» va kayfiyatning keskin oʻzgarishlariga moyil, ildam harakatlar qiladigan kishi *xolerik* deb ataladi.

Taʼsirchan, chuqur kechinmali, gap koʻtara olmaydigan, atrofdagi voqealarga uncha eʼtibor bermaydigan, oʻzini nazorat qila oladigan va sekin ovoz chiqaradigan kishilar *melanxoliklar* deb ataladi.

Profilaktika inspektorlari ham inson sifatida ushbu tiplardan biriga xos boʻlishi tabiiydir. Lekin ular faoliyati mobaynida, yaʼni huquqbuzarliklarning oldini olish, fuqarolar bilan psixologik munosabatga kirish, ularga taʼsir oʻtkazish jarayonida har bir shaxsning oʻziga xos fazilatlari, uning temperamentiga xos boʻlgan xususiyatlarni inobatga olishlari tavsiya etiladi.

Temperament turlarining tasnifi (I.P. Pavlov taʼlimotiga koʻra):

- 1) kuchli, ehtirosli, behalovat – xolerik;
- 2) kuchli, bosiq, epchil – sangvinik;
- 3) kuchli, bosiq, sust – flegmatik;
- 4) kuchsiz – melanxolik

Temperament turlarining tizimli tavsifi¹

Ichki xususiyat	Xolerik	Sangvinik	Flegmatik	Melanxolik
<i>xulqi</i>	beqaror	barqaror	oʻta barqaror	juda beqaror

¹ Қаранг: Шекин Г. В. Визуальная психодиагностика и её методы. – М., 1991.

<i>hissiyoti</i>	kuchli, qisqa muddatli	yuzaki, qisqa muddatli	kuchsiz	chuqur va uzoq muddatli
<i>kayfiyati</i>	turg_un emas, yaxshi	turg_un, ko_tarinki ruhda	turg_un, doimo xursand va qayg_usiz	turg_un emas, pesimistik ruhda
<i>nutqi</i>	baland, keskin, bir xil emas	baland, jonli, bir xil sur'atda	ohista, bir ohangda	juda sekin
<i>sabri</i>	sust	boshqariladi	juda kuchli	besabr
<i>moslashish qobiliyati</i>	oson	juda oson	sekinlik bilan	juda qiyin
<i>muomalasi</i>	yuqori	o_rtacha	past	juda past
<i>o_zini tutishi</i>	tajovuzkor	do_stona	bosiq	qiyinchilikdan qochadi
<i>tanqidga munosabati</i>	asabiy	bosiq	befarq	qabul qilmaydi
<i>faoliyatga munosabati</i>	qiziqqon, berilib ishlaydi	jonli, ko_pgapirib ishlaydi	betinim ishlaydi	vaziyatga qarab turlicha, reaktiv
<i>yangilikka munosabati</i>	ijobiy	befarq	salbiy	manfaatli
<i>xavfga munosabati</i>	jangovar, tavakkalchi	yaxshi tayyorgarlikdan so_ngtavakkalsiz	sovuqqon, o_zidan chiqishi qiyin	xavotirli, o_zini yo_qotib qo_yadi
<i>maqsadga intilish</i>	kuchli, bor imkoniyatini ishga soladi	tez yetishish, to_siqlarni aylanib o_tish	qat'iyat bilan, shoshmasdan	to_siqlardan qochish orqali tez yoki sust
<i>imkoniyatni baholashi</i>	juda ortiqcha	birmuncha	real baho	hisoblay olmaydi
<i>ta'sirga berilish</i>	past	biroz mavjud	kuchsiz	juda kuchli

Xarakter – shaxsning faoliyat va muomalada tarkib topadigan va namoyon bo_ladigan barqaror individual xususiyati bo_lib, individ uchun tipik xulq-atvor usullarini yuzaga keltiradi.

Shaxs ba'zida o_z xarakteridan afsuslanadi, lekin boshqacha harakatni amalga oshirishning uddasidan chiqolmaydi. Xorijiy psixologlarning tasdiqlashicha, ayrim insonlar faoliyatida muvaffaqiyatsizlikka uchrashidan xavfsirab, o_z yutuqlarini qadrlaydilar va yuqori baholaydilar. Muvaffaqiyatsizlik ular uchun fojea emas, shuning uchun «tavakkalchilik»ka qo_lurishda davom etaveradilar. Boshqa toifadagi odamlar muvaffaqiyatsizlikdan cho_chiydilar, o_ta ehtiyotkor bo_ladilar, qiyinchilikdan qo_rqib, yengil ishga qo_lurishni lozim topadilar. Fanda shaxsning munosabatlarini aks ettiruvchi xarakterni quyidagi to_rtizimga ajratish qabul qilingan:

1. Jamoaga (guruhga) va ba'zi bir insonlarga nisbatan munosabatni ifodalovchi xususiyatlar: yaxshilik, mehribonlik, talabchanlik, takabburlik va boshqalar.

2. Mehnatga munosabatni mujassamlashtiruvchi xususiyatlar: mehnatsevarlik, dangasalik, vijdonlilik, mas'uliyatlilik, mas'uliyatsizlik kabilar.

3. Narsalarga munosabatni aks ettiruvchi xususiyatlar: ozodalik, ifloslik, ayash, ayamaslik va hokazo.

4. Shaxsning o'ziga nisbatan munosabatini ifodalovchi xislatlar: izzatnafslilik, shuhratparastlik, mag'urlik, takabburlik, dimog'dorlik, kamtarinlik, samimiylik va boshqalar.

Qobiliyat shaxs faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish sharti hisoblanib, zarur bilim, ko'nikma va malakalarni egallashning o'zida yuzaga chiqadigan farqlarda namoyon bo'ladigan individual-psixologik xususiyatdir.

Qobiliyat individual-psixologik xususiyat bo'lib, bir odamning boshqa bir odamdan farq qiladigan belgilari sifatida ta'riflanadi.

Qobiliyat umumiy va maxsus turga bo'linadi.

Shaxsning umumiy qobiliyati yoki umumiy fazilati muayyan psixologik ko'inishlarga ega bo'lib, psixologlar allaqachon ularni tadqiq qilishga kirishgan. Shaxsning aniq faoliyat sharoitida qobiliyat sifatida namoyon bo'ladigan umumiy fazilatlari jumlasiga odamlarning uch tipdan bittasiga mansubligini ko'rsatadigan individual-psixologik fazilat kiradi.

Iste'dod, uning tuzilishi va paydo bo'lishi. Qobiliyat davomiyligining yuksak bosqichi iste'dod deb ataladi. Psixologik adabiyotlarda unga turlicha ta'rif berilishiga qaramay, uning asosiy belgilari ta'kidlab o'tiladi. Chunonchi, shaxsga qandaydir murakkab mehnat faoliyatini samarali, mustaqil va original tarzda bajarish imkonini beradigan qobiliyatlar majmuasi *iste'dod* deyiladi.

Profilaktika inspektorlari faoliyatida qobiliyat asosiy o'inni egallaydi. Chunki har bir xodimning mehnatga loyiq yoki loyiq emasligi ham uning qobiliyatini aniqlashdan boshlanadi. Ichki ishlar organlari xodimlarining individual-psixologik xususiyatlari, ya'ni temperamenti, xarakteri, maxsus va umumiy qobiliyatlari jinoyatchilikning oldini olish va jinoyatchilarni qayta tarbiyalashda juda muhim hisoblanadi.

3-§. Profilaktika inspektori shaxsining axloqiy-psixologik va kasbiy sifatleri

Profilaktika inspektori lavozimiga shahar-tuman ichki ishlar organlarining taqdimnomasiga asosan oliy ma'lumotli, tashkilotchilik va tashab-

buskorlik xususiyatlariga ega bo'lgan, jismonan sog'lom, ma'naviy jihatdan yetuk, rahbarlik va tashabbuskorlik qobiliyatiga ega bo'lgan xodimlar tayinlanadi. Profilaktika katta inspektori lavozimiga tayinlashda xodimning profilaktika inspektori lavozimida kamida uch yil ishlagan bo'lishi talab etiladi.

Profilaktika inspektori ma'muriy hududni profilaktik ko'zdan kechirish va kriminogen vaziyatni tahlil qilish; jamoat tartibini saqlash va fuqarolar xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklarning umumiy, maxsus, yakka tartibdagi va viktimologik profilaktikasini tashkil etish va amalga oshirish; fuqarolarni qabul qilish, ularning ariza va shikoyatlarini ko'rib chiqish va hal etish, ma'muriy huquqbuzarliklarni aniqlash va ular to'g'risidagi ishlarni yuritish hamda hal qilish; pasport-viza va nazorat-litsenziyalash qoidalariga rioya etilishini ta'minlash; faoliyati taqiqlangan tashkilotlar, diniy-ekstremistik guruhlar va shu kabi faoliyatga aloqador bo'lgan shaxslarni aniqlash, sodir etilgan jinoyatlarni aniqlash va fosh etish choralarini ko'rish, jinoyat sodir etib sud va tergov organlaridan yashirinib yurgan, bedarak yo'qolgan shaxslar, axloq tuzatish ishlari tariqasidagi jazodan bo'yin tovlab yurgan mahkumlarni qidirib topish, shaxsi noaniq murdalarning shaxsini aniqlash, ozodlikdan mahrum etish bilan bog'liq bo'lmagan jazolarga (*muayyan huquqdan mahrum etilgan, shartli va axloq tuzatish ishlariga*) hukm qilingan shaxslarga nisbatan profilaktik-nazorat ishlarini amalga oshirish; olib qochilgan, o'g'irlangan (*va shu kabi*) transport vositalarining qidiruvini tashkil etishda O'zbekiston Respublikasi IIVning me'yoriy hujjatlari talablari asosida xizmat olib borish; huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirishda ichki ishlar organlari sohaviy xizmatlari, davlat organlari va muassasalari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat-notijorat tashkilotlari hamda fuqarolar bilan hamkorlikni ta'minlash; huquqbuzarlikdan jabrlangan shaxslarga yordam ko'rsatish ishlarida ishtirok etish; favqulodda hodisalar oqibatlarini bartaraf etishda ishtirok etish; MTP faoliyatini tashkil etish va boshqarish; faoliyat natijalari bo'yicha hisobotlar tayyorlash va HOO xizmatiga taqdim etish; aholi bilan hisobot uchrashuvlarini tashkil etish va o'tkazish; profilaktika katta inspektorlariga profilaktika inspektorlarining ish faoliyati ustidan umumiy rahbarlik qilish va nazoratni ta'minlash; MTPda profilaktika inspektorlari, xizmatga jalb etilgan sohaviy xizmat xodimlari va jamoatchilik vakillari bilan yo'riqnoma o'tkazish; profilaktika inspektorlari faoliyatini tahlil qilish; profilaktika inspektorlari faoliyati natijalari bo'yicha hisobotlarni umumlashtirish va ichki ishlar organi HOO xizmatiga taqdim etish; MTP tarkibidagi subyektlar o'rtasida hamkorlikni tashkil etish va faoliyatini muvofiqlashtirish kabi vazifalarni bajarish yuklatilgan.

Ushbu vazifalarni bajarishda profilaktika inspektori kasbiy faoliyatining bir nechta xususiyatlari mavjud boʻlib, bu xususiyatlar xodimlarning ruhiy jihatdan tayyorgarligiga salmoqli taʼsir koʻrsatadi. Xodimlar faoliyatining asosiy xususiyatlaridan biri – xodimlar faoliyatining huquqiy jihatdan tartibga solinganligi. Xodimlarning faoliyati huquqiy normalar (Prezident farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, qonun hujjatlari, IIVning normativ hujjatlari, buyruqlari va shu kabilar) bilan qatʼiy tartibga solinganligidir. Profilaktika inspektorlari kasbiy faoliyatining normativ hujjatlar, yoʻriqnomalar va buyruqlar asosida belgilab berilishi mehnatni samarali tashkil etish, faoliyatni erkin amalga oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Shuningdek, xodimlar faoliyatining qonun hujjatlari bilan qatʼiy belgilanganligi, ularning xatti-harakatini tartibga soladi. Xodimning oʻz xizmat vazifalarini bajarmasligi yoki bajarishdan bosh tortishi yoxud unga sovuqqonlik bilan qarashi uning u yoki bu qonunni buzishi hisoblanadi va u Oʻzbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 280 va 302-moddalari bilan jinoiy javobgarlikka tortiladi¹. Bularning hammasi pirovard natijada xodimga oʻz qarorlari va harakatlari uchun katta masʼuliyat yuklaydi.

Profilaktika inspektori kasbiy faoliyatining asosiy psixologik xususiyatlari va tarkibiy elementlarini koʻrib chiqish ham uning faoliyati qanchalik murakkab va serqirraligidan dalolat beradi. Kasbiy faoliyat xodimga turli xil talablar qoʻyadi, ular orasida eng muhimlaridan biri — *shaxsda kasbiy muhim xislatlarning rivojlanganlik darajasi boʻlib*, ular quyidagilardan iborat:

- xodim shaxsiga xos xislatlarning kasbiy-psixologik yoʻnalganligi;
- xodimning psixologik tayyorgarligi;
- rivojlangan irodaviy xislatlar;
- noodatiy vaziyatlarda oʻzini tuta bilish, jasurlik, mardlik, oqilona tavakkalga moyillik;
- yaxshi rivojlangan kommunikativlik;
- turli toifadagi shaxslar bilan tezda aloqaga kirishish, ishonchli munosabatlar oʻrnatish va sir saqlay olish;
- turli tezkor xizmat vazifalarini bajarishda odamlarga psixologik taʼsir koʻrsata olish qobiliyati;
- rolga, boshqa qiyofaga kira olish;
- rivojlangan, kasbiy jihatdan muhim bilish xislatlari: kuzatuvchanlik va diqqatlilik, rivojlangan xotira, ijodiy tasavvur;

¹ Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодекси. – Т., 2011.

– rivojlangan mantiqiy tafakkur, murakkab aqliy ishga moyillik, farosat, rivojlangan intuitsiya;

– ziyraklik, murakkab vaziyatdan chiqib keta olish.

Ushbu xislatlar insonga avvaldan xos emas. Ularni shakllantirish va rivojlantirish davomli va qiyin jarayon bo'lib u ichki ishlar organlari xodimining kasbiy shakllanishi uchun zarur va shartdir.

Ushbu xislatlarning xodim shaxsida bo'lmashligi yoki yetarli rivojlanmaganligi uning o'z funksional vazifalarini to'g'ri va aniq bajarishiga xalaqit beradi, shaxsning o'z kasbiga moslasha olmasligi va kasbiy buzilishiga olib keladi. Shu bois ham xodimlarda ushbu xislatlarni shakllantirishga xizmat qiladigan kasbiy-psixologik tayyorgarlik katta ahamiyat kasb etadi.

Profilaktika inspektorining kasbiy qobiliyati va kasbiy mahorati. Profilaktika inspektorlarining kasbiy qobiliyati va mahoratini takomillashtirishning yetakchi omillaridan biri xodimlarni psixologik jihatdan tayyorlashdir.

Bundan ko'zlangan *maqsad* ularda xizmat faoliyatining har qanday noodatiy sharoitlarida kasbiy jihatdan to'g'ri aniq, yuqori ishchanlik fazilatini shakllantirishdan iborat. Kasbiy mahorat va faoliyat samaradorligini oshirishda shaxsiy xislatlarga alohida talablar qo'yiladi. Ushbu faoliyat xodimlarda hissiy-irodaviy barqarorlikni rivojlantirish, zo'riqishni vujudga keltiruvchi omillar ta'siriga qarshi psixologik tayyorgarlikni shakllantirishni talab etadi. Kasbiy mahorat va faoliyat samaradorligini oshirishda asosiy omillar quyidagilardan iborat:

– profilaktika inspektorlari shaxsi uchun tipik bo'lgan konstruktiv, kommunikativ, bilish, tashkilotchilik, guvohlik, dalillash va tarbiyaviy faoliyat tizimini yaratish;

– operativ faoliyatga xos har qanday murakkab va xavfli vazifalarni yuqori samara bilan bajarishga yordam beruvchi uquv va ko'nikmalarni shakllantirish.

Xodimlarning psixologik tayyorgarligi ularning faoliyat tizimi va kasb mahoratining kompleks tarkibiy qismidir. U xodimning shakllangan va rivojlangan psixologik xususiyatlari majmui bo'lib, tergov, operativ xizmat va profilaktik faoliyatning o'ziga xos muhim psixologik xususiyatlariga javob beradi, ularni amalga oshirishning zarur shart-sharoitlari hisoblanadi. U to'rtguruhga kiruvchi tarkibiy qismlardan iborat:

– *xodimning psixologik jihatdan kasbiy faoliyatga yo'naltirilganligi va his-tuyg'ulari* (o'z faoliyati mobaynida vaziyatning psixologik jihatlarini va kishilarni tushunishga intilishi, qiziqishlari va ularni tushuna olishi);

– *xodimning kasbiy mahorat va taktik faoliyat samaradorligini oshirishga oid psixologik tayyorgarligi*. Ushbu tayyorgarlik kasbiy mahorat samaradorligini oshirish, kasbiy faoliyat tizimida psixologik sharoitlarni tushunish va ularni yarata olish, kasbiy (nutqli va nutqsiz) harakatlarni amalga oshirishning psixologik vositalaridan mahorat bilan foydalanish, profilaktik taʼsir etishning samarali kechishini taʼminlovchi psixologik usullarning butun kompleksini mohirlik bilan qoʻllay olishda namoyon boʻladi;

– *xodimning rivojlangan kasbiy kuzatuvchanligi va xotirasi* (kasbiy kuzatish samaradorligini oshirish uchun psixologik asoslangan usul va qoidalarni qoʻllash mahoratini oʻz ichiga oladi) rivojlangan kasbiy diqqatlilik, sezgi va tasavvur organlarining mashq orqali rivojlanganligi, hal etilishi kerak boʻlgan vazifalar uchun muhim boʻlgan maʼlumotlarni tez, toʻliq va aniq esda olib qolish, xotirada yaxshi saqlash va toʻgʻri bayon etish koʻnikmalarini hosil qilish;

– *psixologik barqarorlik* (xodimning huquqbuzar va profilaktik hisobda turuvchi shaxslar bilan profilaktik tadbirlarni amalga oshirishida xizmat faoliyatining psixologik jihatdan murakkab, hissiy jihatdan tarang, xavfli va masʼuliyatli vaziyatlarda ham xotirjam va ishonch bilan harakat qilish qobiliyatida namoyon boʻladi).

Xodimning kasb mahoratini oshirishda uning psixologik bilimlarga egaligi muhim ahamiyatga ega. Ilmiy dalillar va mavjud ijobiy tajriba professional taʼlim tizimiga psixologik tayyorgarlikni maqsadga yoʻnalgan tarzda oshirib borishning maxsus vazifalari, shakl va usullarini kiritish zarurligini koʻrsatmoqda. Bugungi kunda kasbiy mahorat – ichki ishlar organlarining faoliyat samaradorligini oshiruvchi muhim omilardan biridir.

Shu maʼnoda profilaktika inspektorining kasbiy mahorati, ularning xizmat vazifalarini muvaffaqiyatli va samarali bajarishi uchun zarur boʻlgan xislatlarni shakllantirish, rivojlantirish va faollashtirish boʻyicha maxsus tashkil etilgan maqsadga muvofiq taʼsir koʻrsatish jarayonidir.

Profilaktika inspektorining kasbiy faoliyati samaradorligini oshirish va qobiliyat hamda mahoratini rivojlantirishda u maʼlum bir malaka yoʻnalishiga ega boʻlmogʻi ilozim.

Xodimning kasbiy mahorati mazmuniga quyidagilarni kiritish mumkin:

– huquqbuzarlikka qarshi kurashish va fuqarolar havfsizligini taʼminlashga psixologik jihatdan tayyor boʻlish, kasbiy koʻnikma va malakani shakllantirish;

– kasbiy jihatdan muhim boʻlgan bilish xislatlarini shakllantirish va rivojlantirish;

- turli toifadagi fuqarolar bilan psixologik aloqa o_rnatish ko_nikmalarini takomillashtirish va rivojlantirish;
- profilaktik faoliyatining turli vaziyatlarida rolga kirishish ko_nikmalarini shakllantirish;
- fuqarolar bilan muloqotga kirishish chog_ida murakkab, nizoli vaziyatlarda ta'sir etishning psixologik usullarini qo_llash mahoratini puxta egallash;
- xizmat faoliyatining og_ir vaziyatlarida o_zini tuta bilish, psixologik barqarorlikni shakllantirish;
- shaxsning ijobiy hissiy-irodaviy xislatlarini rivojlantirish, xodimlarga o_zini tutish va boshqarish usullarini o_rnatish;
- irodaviy faollik va irodaviy harakat ko_nikmalarini hosil qilish hamda shakllantirish;
- ishdagi ruhiy zo_riqishlarga tayyor turish.

Huquqbuzarliklar profilaktikasiga oid kasbiy mahoratni shakllantirish ushbu faoliyatning muhim jihatlaridan biridir. Bu o_rinda eng asosiysi, xodimning kasbiy yo_nalanganligini shakllantirish, unda kasbiy faoliyatga nisbatan barqaror kasbiy qiziqishni rivojlantirish hisoblanadi. Bu, shuningdek xodimda har qanday qonunbuzarliklarga murosasiz bo_lish, huquqiy normalarni so_zsiz bajarishdan iborat barqaror odat, doimo haqiqatga intilish, adolat va qonuniylik hissini shakllantirishni taqozo etadi.

Kasbiy jihatdan muhim bo_lgan bilish xislatlarini shakllantirish va rivojlantirish profilaktika xizmati xodimlari faoliyatining samaradorligini ta'minlaydi. Ularga kasbiy ziyraklik, idrok, kuzatuvchanlik, xotira, tafakkur va tasavvur kiradi. Ushbu xislatlarni rivojlantirishga qaratilgan maxsus mashqlar xodimlarning kasbiy jihatdan muhim ma'lumotlarni esda olib qolish, esda saqlash va qayta esga tushirish samaradorligini oshiradi, mantiqiy fikrlash va ijodiy tasavvurlarini rivojlantiradi.

Turli toifadagi fuqarolar bilan psixologik aloqa o_rnatish uquv mahorati hamda ko_nikmalarini takomillashtirish va rivojlantirish. Profilaktika inspektorlari turli toifadagi fuqarolar (huquqbuzarlikdan jabrlanuvchilar, guvohlar, ayblanuvchi yoki gumon qilinuvchilar, profilaktik hisobda turganlar, ma'muriy nazoratga olinganlar, muqaddam sudlanganlar, voyaga yetmagan huquqbuzarlar, g_ayriy - ijtimoiy hulq-atvordagi shaxslar va hokazo) bilan doimiy muloqotda bo_ladilar. Olinadigan operativ muhim axborotning sifati xodimlarning ular bilan muomala qilish, psixologik aloqa o_rnatish, ishonchli munosabatga kirishish qobiliyatiga bog_liq. Bu esa, o_z navbatida, butun faoliyat samaradorligiga ta'sir ko_rsatadi. Psixologik tayyorgarlik davomida profilaktika inspektorlari psixologik aloqa o_rnatish usullari va yo_llari tizimini egallashlari kerak. Ularda notanish

kishilar bilan tezda aloqa o_rnatish va ularni o_ziga moyil qilish, odamlarning fikrini eshita olish, muloqot jarayonida psixologik to_siqarni yenga olish mahorati shakllangan bo_lishi darkor. Psixologik tayyorgarlik xodimlarning psixologik aloqa o_rnatish jarayonini yengillashtirishga imkon beruvchi muayyan qoidalarni o_zlashtirishlarini taqozo etadi.

Profilaktika inspektorlari xizmat faoliyatining turli vaziyatlarida rolga kirish ko_nikmalarini shakllantirish. Profilaktika inspektorlari kasbiy mahoratini tashkil qiluvchi muhim tarkibiy qismlardan biri huquqbuzarliklarni aniqlash yoki ularning profilaktikasi uchun zarur axborotga ega bo_lish maqsadida rolga kirish ko_nikmalaridir. Shuning uchun xodimlar psixologik tayyorgarlik davomida o_zlarining xodim ekanliklarini, haqiqiy xislatlari va holatlarini, muloqotga kirishishdan ko_zlagan maqsadlarini niqoblay olish mahoratini egallashlari kerak.

Fuqarolar bilan muloqotga kirishishning murakkab, nizoli vaziyatlarida ta'sir etishning psixologik usullarini qo_llash mahoratini takomillashtirish. Fuqarolar bilan muomala qilish jarayonida yuzaga keladigan nizoli vaziyatlar profilaktika inspektorlari faoliyatida odatiy holdir. Shu bois ularda nizoli vaziyatni bartaraf etish mahoratini shakllantirish, ularga nizolarni hal qilish usullarini o_rnatish juda muhim. Profilaktika inspektorlari faoliyatining samaradorligi ko_p jihatdan insonlarga psixologik ta'sir ko_rsatisning ishontirish, majburlash, rag_batlantirish singari muayyan usullaridan mohirlik bilan foydalanishlariga bog_liq. Xodimda nizoli vaziyatda o_zini tutish, turli taktik usullarni qo_llash hamda nizoli vaziyatdan operativ maqsadda foydalanish ko_nikmalari shakllangan bo_lishi lozim.

Profilaktika inspektorlari xizmat faoliyatining og_ir vaziyatlarida o_zini tuta olish, psixologik barqarorlikni shakllantirish. Profilaktika inspektorlari kundalik amaliy ishlarida kasb vazifalarini bajarish sifatiga ta'sir etishi mumkin bo_lgan ko_plab noqulay psixologik holatlarga duch keladilar. Psixologik barqarorlik xodimlarning salbiy holatlar ta'siriga berilmaslik qobiliyatida namoyon bo_ladigan psixologik tayyorgarlikning muhim ko_rsatkichlaridan biri sifatida qaraladi. Bu o_rinda xizmat vazifalarini bajarish chog_ida mazkur qiyinchiliklarga oldindan ko_zi yetish qobiliyatini shakllantirish muhim. Psixologik barqarorlikning shakllanganligi xodimlarga eng qiyin psixologik sharoitda ham o_z vazifalarini kamchiliksiz bajarishlariga yordam beradi. Bunga mashqlar va amaliy mashg_uloqlar jarayonida og_irvaziyatlarni modellashtirish yo_l bilan erishish mumkin.

Profilaktika inspektorlarining ijobiy hissiy-irodaviy xislatlarini rivojlantirish, o_zini tutish va boshqarish usullarini o_rnatish. Profilaktika

inspektorlarining psixologik barqarorlik va og'ir vaziyatlarda o'zini tuta bilish qobiliyati ularda mas'uliyat, muvaffaqiyatsizlikka chidash, tavakkalga moyillik va barqarorlik, o'zini boshqara olish, sobitlik kabi muayyan hissiy-irodaviy xislatlarni shakllantirishni taqozo etadi. O'z xatti-harakatlari va his-tuygularini nazorat qilish va boshqara olishlari shart. Ular mashg'ulot va mashqlar jarayonida o'zlarini boshqarish, asabiy zo'riqishni yo'qotish, ichki imkoniyatlarni qo'yilgan vazifani bajarishga safarbar qilish usullarini egallashlari kerak.

Irodaviy faollik va irodaviy harakat ko'nikmalarini shakllantirish. Profilaktika inspektorlari, ta'kidlaganimizdek, amaliy faoliyatda ishni sifatli bajarishni murakkablashtiradigan, ba'zan esa qo'yilgan maqsadga erishishga to'sqinlik qiladigan turli xil qiyinchiliklar va to'siqlarga duch keladilar. Bunday vaziyatlarda ular ushbu qiyinchilik va to'siqlarni yengishga undovchi irodaviy faollikni namoyish etishlariga to'g'ri keladi. Irodaviy harakat ko'nikmalarini rivojlantirishga mashg'ulotlar jarayonida qo'yilgan vazifani bajarishga xalaqit beruvchi muayyan elementlar, to'siqlar kiritish yordam beradi. Bunday mashqlar jarayonida to'plangan irodaviy faollik tajribasi shaxsning, irodaviy xislatlarini rivojlantirishga ta'sir etadi.

Ishdagi ruhiy zo'riqishlarga tayyorlik. Ichki ishlar organlari profilaktika inspektorlarining faoliyatiga xos xususiyatlardan biri shundaki, ta'sir etuvchi omillar ko'pincha stress holatini keltirib chiqaradi, asab tizimiga haddan tashqari og'irlik tushadi. Bu, o'z navbatida, ular amalga oshiradigan faoliyat samaradorligiga katta ta'sir ko'rsatadi. Shu bois xodimlar ushbu jarayonlar kechishining asosiy qonuniyatlari hamda qisqa vaqt ichida ish qobiliyatini tiklash va ortiqcha asabiy zo'riqishni bartaraf etishga yordam beradigan usullar (psixologik boshqaruv mashqlarini bajarish usullari) bilan tanish bo'lishlari lozim.

Turli kasblarning psixologik tuzilishida bilish faoliyati har xil mazmunga ega bo'lishi mumkin. Bu bilish faoliyatining o'ziga xosligini belgilab beruvchi maqsad, obyekt, sharoit va usullarga bog'liq. Ichki ishlar organlari faoliyatdagi bilish jarayoni ham o'ziga xos jihatlari bilan ajralib turadi.

*Birinchi*dan, ularning faoliyatida bilish yagona maqsad emas, balki boshqa turdagi faoliyatni ta'minlash vositasidir.

*Ikkinchi*dan, huquqbuzarlikni surishtirish faoliyati huquqbuzarlik sodir etilganidan so'ng boshlanadi. Demak, bilish faoliyatining ushbu turida bevosita bilishning o'zi unchalik katta o'ringa ega emas. Dalillarning asosiy ko'pchiligi bilvosita, ya'ni boshqa shaxslar (jabrlanuvchilar, guvohlar)ning ko'rsatuvlari orqali olinishi ma'lum.

Uchinchidan, maqsad sodir etilgan jinoyiy hodisaning fikriy modelini yaratish boʻlsa-da, bilish hozirga ham, kelajakka ham qaratilgan boʻladi.

Toʻrtinchidan, axborotning juda katta oqimi maʼlumotlarni tanlashni taqozo etadi, yaʼni muayyan jinoyatga bevosita aloqador maʼlumotlarni ajratib olishni talab etadi.

Beshinchidan, axborotning kelib tushishiga juda katta oʻzgaruvchanlik xos. Huquqbuzarlikka oid xabarlar doimiy ravishda oʻzgarib va toʻldirilib turiladi. Koʻpincha axborotni qayta olib boʻlmaydi yoki u mavjud maʼlumotlarga zid keladi, bu esa ushbu axborotni qatʼiy tarzda qayd etishni taqozo etadi.

Bularning hammasi xodimlarda kasbiy jihatdan muhim boʻlgan va bilishning samaradorligini taʼminlaydigan xislatlarni rivojlantirish zaruratini keltirib chiqaradi. Bilish xislatlarini shakllantirish va rivojlantirishda maxsus trening katta ahamiyatga ega.

4-§. Profilaktika xizmati xodimlarining ish uslublari va usullarini tizimlashtirishning psixologik jihatlari

Profilaktika xizmati xodimlari ichki ishlar organlarining barcha sohaviy xizmatlari bilan oʻzaro hamkorlikda oʻz xizmatlarini tashkil etadilar. Ushbu hamkorlik doirasida ham albatta psixologik bilimlarga boʻlgan talab kun sayin ortib bormoqda. Ularning muvaffaqiyatini *quyidagi kasbga xos xususiyatlar belgilab beradi*:

– aqliy va diqqatga oid xususiyatlar (tezkor qaror qabul qilish, turli axborot va holatlarni esda saqlash, taqqoslash, tahlil qilish);

– kommunikativlik (kirishimlilik, fuqarolar bilan munosabatlarni toʻgʻri oʻrnatish va hokazo);

– jismoniy baquvvatlik (jismoniy zoʻriqishlarga chidamlilikni oshiruvchi omil);

– bilish xususiyatlari (yangi bilim va tajribalarni egallashga intilish darajasi);

– tashkiliy xususiyatlar (oʻz ish faoliyati va fuqarolarning xatti-harakatini nazorat qilish);

– ruhiy barqarorlik (turli ruhiy zoʻriqish, stress holatlariga chidamlilik, hissiy turgʻunlik).

Ichki ishlar organlari, taʼkidlanganidek, davlatning huquqni muhofaza qilish organlari bilan oʻzaro hamkorlikda oʻz tarkibiga kiruvchi turli xizmat sohalari, boʻlim va boshqarmalar bilan hamjihatlikda vakolatlari doirasiga kiruvchi boshqa vazifalarni ham bajaradilar.

Umuman, huquqbuzarliklarning oldini olishda zarur huquqiy asoslar ushbu faoliyat yo_nalishining umumiy jihatlarini muvofiqlashtirib boradi. Shu bois umumiy-huquqiy muvofiqlashtirishni tashkil etish maqsadida, zarur huquqiy asoslarni ishlab chiqish yo_lga qo_yiladi. Bu jinoyatchilikning oldini olishda kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirishni ta'minlaydi.

Ish uslubi, faoliyati, shaxsiy hayot kechirish tarzi ko_pgina omillarga: asab sistemasining ko_inishiga, uning xarakteriga, yo_nalganligiga, qiziqishlariga, ehtiyojlariga va boshqalarga bog_liq

Profilaktika inspektorining ish uslubiga quyidagi talablar qo_yiladi:

- qonunchilikka rioya etish;
- kasbiy yo_nalganlik;
- qaror qabul qilish uquvi;
- doimo o_zkasbiy mahoratini takomillashtirib borish;

Jinoyatchilikning oldini olish hamda unga qarshi kurashni tashkil etish o_ziga xos va maqsad sari yo_naltirilgan, bajarilishi lozim bo_lgan vazifalarni ifodalovchi bir butun tizimdan iboratdir.

Shuning uchun ham jinoyatlarning oldini olish va unga yo_l qo_yimaslik borasida olib boriladigan profilaktik ishlarni tashkil etishda quyidagi bosqichlar orqali zarur tadbirlar amalga oshiriladi:

– huquqbuzarlikni keltirib chiqaruvchi sabab hamda omillarni ko_rsatuvchi ma'lumotlarni tahlil qilish;

– profilaktik tadbirlarni tashkil etish va amalga oshirishni rejalashtirish;

– profilaktik faoliyat olib borishda ishtirok etuvchi shaxslarning ishlarini muvofiqlashtirish;

– rejalashtirilgan, maqsad qilib qo_yilgan vazifalarni amalga oshirish va olingan natijalarni psixologik tahlil qilish.

Profilaktika faoliyatini umumiy, yaxlit tizimda tashkil etish, tabiiyki, jamoatchilik fikri va aholining tashabbuskorligini e'tibordan chetda qoldirmaslikni taqozo etadi.

Shu sababli, profilaktik ishlarni olib borishda quyidagi jihatlariga e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir:

– profilaktik faoliyatni olib borishda turli huquqbuzarliklar va salbiy xatti-harakatlarni yuzaga keltiruvchi omillarni hisobga olish;

– shaxsning ma'naviy shakllanishida muhim o_in tutuvchi ijtimoiy hayot tarzi va muhitning (oila, maktab, ish joyi, dam olish joylari va hokazo) o_ziga xos xususiyatlarini inobatga olish;

– jinoiy xatti-harakatlar va kriminogen vaziyatlarga nisbatan turli ijtimoiy tuzilmalar faoliyatini profilaktik tadbirlarga jalb etish;

– turli soha vakillarining o_ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda tarbiyaviy chora-tadbirlarning belgilanishi.

Profilaktika inspektorining fuqarolarga tarbiyaviy ta'sir etishi uning bir qator sifatlariga bog_liq bo_ladi:

- tashqi qiyofasi;
- tashabbuskorlikligi;
- obro_e'tiborga egaligi;
- demokratikligi;
- eshitish qobiliyati;
- faoliyatni haqqoniy baholashi va qabul qilishi;
- mas'uliyati.

Profilaktika inspektori aholi bilan hamkorlikda faoliyat olib borishi uchun muloqotning quyidagi xususiyatlariga e'tibor berishi lozim:

– suxbatdoshiga tushunarli bo_lganso_zva birikmalarni tanlash, uning fikrlarini diqqat bilan tafakkur qilish;

– huquqbuzar bilan muloqot davrida aniq, qisqa va xushmuomalalik bilan suhbat olib borish;

– suxbatdoshni tinglash mexanizmini ishlab chiqish;

– suxbatdosh tomonidan berilayotgan axborotga qiziqish bilan munosabat bildirish. Agar xodimga berilayotgan axborot tushunarsiz bo_lsa, u holda aytilgan fikrlarni va ba'zi jummalarni takrorlash xushmuomalalik bilan so_raladi;

– suhbat davomida salbiy ta'sir etuvchi omillarga e'tibor qaratmaslik (qo_ng_iroqlar, begonalarni yo_lakda yurishi va boshqalar);

– suxbatdoshning mimika, jestlar va reaksiyalariga e'tibor berish, suxbatdosh fikrlarini tugatgan bo_lsa, olingan ma'lumotlar umumlashtiriladi, tahlil qilinadi, aniq dalillar oydinlashtiriladi, zarur bo_lganda dalillar bilan hujumga o_tiladi;

– xodimga qo_yiladigan asosiy talablardan yana biri uning eshitish qobiliyatini shakllantirish hisoblanadi.

Kasbiy-psixologik tayyorgarlikni amaliyotga tatbiq etishda har bir profilaktika xizmati xodimi quyidagi bilimlarni *rivojlantirishi* shart:

– profilaktika xizmati xodimlari faoliyatida uchraydigan turli psixologik muhit sharoitida xizmat olib borish ko_nikmasidan foydalanish;

– profilaktika xizmati faoliyatining turli xususiyatlariga moslashish samaradorligini oshiradigan hissiy-irodaviy xislatlarga ega bo_lish;

– huquqbuzarlik holatlarini tahlil qilishda ularni keltirib chiqaruvchi psixologik sabab va oqibatlarni to_g_r talqin qilish;

– xizmat vazifalarini bajarish vaqtida shakllangan kasbiy xotira, tafakkur hamda kommunikativ xususiyatlarni namoyon qilish;

– profilaktika xizmati faoliyatida kasbiy masalalarni hal qilishda shaxslarga xos xususiyatlarni inobatga oladigan yondashuvni tashkil etish;

– profilaktika xizmati faoliyatida uchraydigan qaltis, xavfli hamda kutilmagan vaziyatlarda ruhiy barqarorlikni saqlash va to'g'ri qaror qabul qilish;

– jamiyatda o'rnatilgan qonun-qoidalariga bo'ysunmaydigan shaxslarga tarbiyaviy ta'sir o'tkazish;

– profilaktika xizmati xodimlari jamoasida o'zaro sog'lom munosabatlarni shakllantirish;

– individ, shaxs, jamoa psixologiyasi asoslarini o'rganish;

– shaxsga xos va ijtimoiy-psixologik omillarning kasbiy faoliyatdagi ahamiyati va vazifasini o'rganish.

Profilaktika xizmati xodimlari faoliyatining o'ziga xosligi: Profilaktika xizmati xodimlari kasbiy faoliyatida turli kamchilik va muammolar ham uchrab turadi. Bunday holat xodimning turli shaxslar bilan bevosita va bilvosita muloqot jarayonida namoyon bo'ladigan individual psixologik xususiyatlariga ham bog'liq va bu profilaktika xizmati xodimlarining kasbiy faoliyatida zarur bo'ladigan malaka va ko'nikmalarni shakllantirish dardkorligini ko'rsatadi. Har qanday profilaktika xizmati xodimi jamoat xavfsizligi va osoyishtaligini ta'minlashga psixologik va jismoniy jihatdan tayyor bo'lishi lozim.

Profilaktika xizmati xodimi O'zbekiston Prezidentining asarlari va ma'ruzalarida mujassam bo'lgan shaxsiy xususiyatlarga ega, fidoyi, Vatani va xalqiga sadoqatli bo'lishi, yurtdoshlari, safdoshlari qilayotgan ish uchun yuqori darajada javobgarlik hissini anglashi kerak. U bilimlarini chuqurlashtirish yo'lida doimiy izlanishi, o'rganishi, imkoniyatini ko'ldan bermay, o'z ustida tinimsiz ishlashi, xalq osoyishtaligi yo'lida xizmat burchini a'lo darajada ado etishi, fuqarolarning huquqlarini himoya qilishni o'zining sharaflil burchi deb bilishi lozim.

Profilaktika xizmati xodimi faoliyatining psixologik xususiyatlari. Profilaktika xizmati faoliyati o'zida qonun normalari bilan qat'iy cheklangan, kuchli zo'rliqish, sabr-matnat, diyonat, bilimni, ishga nisbatan kuchli mas'uliyat hissini namoyon qiluvchi xususiyatlarni talab etadi.

Profilaktika xizmati xodimining faoliyati serqirra va murakkab bo'lib, bir qator (ba'zan salbiy ta'sir etuvchi) xususiyatlari bilan boshqa kasblardan farq qiladi.

Birinchiidan, profilaktika xizmati xodimining yechilishi lozim bo'lgan kasbiy masalalari turli-tumanligi bilan ajralib turadi. Har qanday yangi

(profilaktik) ish xodim uchun yangi kashfiyot singari namoyon bo_ladi. Ishga yondashuv borasida bir xillik qancha kam bo_lsa, ish shunchalik samarali yakunlanadi.

Ikkinchidan, profilaktika xizmati xodimining faoliyati turli-tumanligi, qiyinligiga qaramay, qonun bilan qat'iy tartibga solingan.

Bunday faoliyat har qaysi xodimdan muayyan psixologik xulq-atvor xususiyatlarini talab qilib, shaxs psixikasida o_z izini qoldirishi shubhasiz.

Har qaysi xodim o_z faoliyatini rejalashtirish jarayonida kelgusi harakatlarini xayolan qonunchilik normalari doirasida ko_rib chiqadi. O_zini shu faoliyatga tayyorlay olmagan xodimning kelajakda yutuqlarga erishi-shi qiyin kechadi.

Har qaysi profilaktika xizmati xodimining individual ish tajribasi bir-biridan farq qilsa-da, ular birgalikdagi faoliyatda umumiy ruhiy holatlarga (umumiy qiziqish, hamfikrlik, an'analar, yakdil munosabatlarga) asoslanadilar.

Ular faoliyatining *psixologik jihatlar* kelajakda ichki ishlar idoralari profilaktika xizmati xodimlari sifatida xizmat vazifalarini samarali bajarish uchun zarur psixologik qonuniyatlar, kategoriyalar va tushunchalarni o_rganish hamda ularni bevosita faoliyat yuritishda, shaxslararo munosabatlarga kirishish jarayonida qo_llay olishlarida namoyon bo_ladi. Shu bilan birga, xodimlarga bu jihatlar o_z ruhiyatini o_rganish, kundalik xizmatda uchrashi mumkin bo_lgan stress omillarini bartaraf etish, jinoiy holat to_g_risida axborot to_plashda vaziyatni o_rganish jarayonida shaxsiy xususiyatlarni inobatga olish, fuqarolarga nisbatan to_g_ri yondashuvni tashkil etish usullarini o_rnatadi.

Amaliyotda faoliyat samaradorligi, olingan bilim va tajribalar darajasi bilan belgilanadi. Faoliyatning unumdorligini ta'minlovchi xususiyatlarni shaxsda mavjud bir qator psixik jarayonlarni o_rganish orqali shakllantirish mumkin.

Profilaktika xizmati xodimlarining axloqiy, irodaviy, hissiy va intellektual (aqliy) xususiyatlari ular faoliyatining samaradorligini oshirishda bevosita ahamiyatga ega shaxsga xos xislatlar hisoblanadi. *Xodimning shaxsiy xislatlari* ichida ruhiy barqarorlik, hissiy turg_unlik, aqliy ilg_orlik, irodalilik, kirishimlilik xususiyatlari yetakchilik qiladi.

Profilaktika xizmati xodimining hissiy xususiyatlari - o_z kuchi va mahoratiga ishonish, jinoyatchilikka qarshi kurash jarayonida uchrashi mumkin bo_lgan obyektiv va subyektiv to_sq_larni yengish uchun o_z hissiyotlarini boshqara olish, ijtimoiy tenglik va qonun g_alaba qozonganida qoniqishni his qilish kabilarda namoyon bo_ladi.

Shu o__inda K.K.Platonovning quyidagi so__zlaini eslash o__inli deb hisoblaymiz: «Agar inson o__zi uchungina mehnat kilsa, mashhur olim, buyuk donishmand, a'lo darajadagi shoir bo__lishi mumkin, ammo hech qachon komil va buyuk inson bo__la dmaydi».

Profilaktika xizmatida xizmatchi faoliyatini olib borishga qo__yiladigan talablar. Profilaktika xizmatida xizmat burchini bajarishga kirishgan shaxslar uchun siyosiy bilimlarning ahamiyati katta bo__lib, ular faoliyatining samarali bo__lishida asosiy vazifani bajaradi. *Xodimning siyosiy qarashlari deganda* quyidagilar nazarda tutiladi:

Davlat siyosatiga *ishonch*. U xodimning o__matilgan prinsiplarga sodiqligi, ularni aholi o__rtasida keng targ__ib qilishi va amalda qo__llash jarayonidagi talabchanligida ko__rinadi. Talabchanlik xususiyati xodimning shaxsiy namuna bo__lish orqali atrofdagilarga ta'sir ko__rsatish, ularni maqsad sari yo__llay olish qobiliyatida ko__rinadi.

Prinsipiallik qoidalariga sadoqat, iroda xususiyatlarida namoyon bo__ladi. *Bular:* qat'iyat, mas'uliyat hissining, ko__zlangan maqsadga erishishda fidoyilik ko__rsatkichining yuqoriligi.

Vatanga sodiqlik, o__z yurtini sevish, har qanday sharoitda burchini bajarishga tayyorlik, butun imkoniyati va kuchini Vatan himoyasiga sarflash degani.

Vatan oldidagi burch axloq me'yori hisoblanib, jamiyat uchun kamtarona halol mehnat qilish, xizmat burchiga sodiq bo__lish, topshirilgan vazifa uchun mas'uliyatni his etishni talab qiladi.

Mas'uliyat o__z harakatlari uchun javob berish bilan cheklanmaydi, balki umumiy ishlarga jamoatchilik bilan birgalikda javob berishga tayyorlik hissi bilan bog__liq «*Mas'uliyat xislatini shakllantirish - bevosita fuqarolik hissini tarbiyalash bilan bog__liq jarayon. Fuqarolikni anglash, birinchidan — javobgarlik, ikkinchidan esa burch. Burch — inson ruhiy olamining eng yuksak cho__qqisi bo__lib, o__z idealiga xizmat qilish bilan belgilanadi*». Jamoa oldidagi burchni anglash muhim xislat bo__lib, shaxslararo munosabatda jamoatchilik hissining yuqori bo__lishini talab etadi.

Mafkuraviy ishonch asosida belgilangan qonun, nizomlarga to__g__ri munosabat rahbarlar buyrug__i va ichki tartibga rioya qilish asosida xulq me'yorlarini shakllantirish orqali namoyon bo__ladi. Xodim har qanday sharoitda vaziyat talabi asosida xulqini boshqara olish qobiliyatini rivojlantirishi zarur.

Ichki ishlar organlarining profilaktik xizmati faoliyati keng ma'nodagi umumiy tushuncha bo__lib, ular amalga oshiradigan barcha chora-tadbirlar

birinchi galda jinoyat sodir bo'lishini ta'minlashga qaratilgan. Sodir etilgan jinoyat va huquqbuzarliklarni o'z vaqtida ochish, aybdorlarni tegishli jazoga tortilishini ta'minlash hamda turli ko'inishdagi huquqbuzarliklar bilan profilaktik ishlarni olib borish ushbu faoliyat yo'nalishini belgilab beradi.

Shuning uchun ham huquqbuzarliklarning oldini olishda ichki ishlar organlarining faoliyatini umumiy tushuncha deb bilgan holda, tor ma'noda alohida tashkil etilgan profilaktika xizmati, uning tarkibiga kiruvchi bo'lim va bo'limlarning aniq faoliyat yo'nalishlari, shuningdek, boshqa xizmat sohalarning profilaktika ishlari va, qolaversa, har bir xodim tomonidan mustaqil ravishda profilaktika ishlarini tashkil etilishini ham tushunmoq darkor. Zero, profilaktika ishlarini olib borishda ichki ishlar organlarining mas'uliyati juda ham yuqoridir.

Savol va topshiriqlar

1. Shaxs tushunchasiga ta'rif bering.
2. Shaxs psixologiyasi qanday xususiyatlarga ega?
3. Profilaktika inspektori shaxsining psixologik tuzilishi haqida nimalarni bilasiz?
4. Profilaktika inspektori kasbiy kuzatuvchanligini rivojlantirishda nimalarga e'tiborga olishi zarur?
5. Profilaktika inspektori faoliyatida sezgi, idrok, xotira va tafakkurning ahamiyatini aytib bering.
6. Profilaktika inspektorlarining irodaviy fazilatlarini shakllantirishda qanday psixologik omillar ta'siri mavjud?
7. Profilaktika inspektori qanday axloqiy-psixologik va kasbiy sifatlarga ega bo'lishi lozim?

III bob. PROFILAKTIKA INSPEKTORLARI MULOQOTINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

1-§. Profilaktika inspektori faoliyatida muloqot tushunchasi va uning psixologik o,ziga xosligi

Muloqotni muammo sifatida nafaqat ijtimoiy gumanitar fanlar, balki yuridik fanlarda ichki ishlar organlari profilaktika xizmati faoliyati va kriminologiya kabi fanlar tizimida ham o_rganiladi. Bu predmetlar o_zlari-ning nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda o_rganansa, psixologiya esa o_zining predmeti nuqtai nazaridan kelib chiqib o_rganadi hamda muloqot jarayonida shaxslararo munosabat psixologiyasiga e'tibor beriladi.

Shu bilan birga, muloqot muammosini ahloqshunoslik, nafosatshunoslik, madaniyatshunoslik kabi fanlarini ham o_z ichiga oladi. Chunki insonda madaniyat, axloqiy fazilatlar to_liq shakllanmasa, zarur bo_lgan natijalarga erisha olishi qiyin bo_ladi. Prezidentimiz «Yuksak huquqiy madaniyat – demokratik jamiyat poydevori va huquqiy tizimning yetuklik ko_satkichidir¹» deb madaniyatga ulkan baho berganlar.

Profilaktika inspektorining kasbiy muloqot jarayonlari etnopsixologik xususiyatlarga bog_liq xolda shakllanib boradi. O_zbek xalqining tarixiy shakllangan an'analari, muayyan urf-odatlar, ma'lum udumlari, shaxslararo munosabati, muloqot maromi va fikrlash xususiyati boshqa xalqlar-nikidan sezilarli darajada tafovutlanadi.

O_zbekiston Respublikasi Prezidenti ichki ishlar organlari xodimlari-ning kasb bayrami kunidagi tabrik nutqida «Ayni paytda militsiya xodim-larining aholi hamda fuqarolarning o_zini o_zi boshqarish idoralari bilan yaqin hamkorligi yanada mustahkamlandi, ularning safarbarligi va sodir etilayotgan jinoyatlarga qarshi tezkor kurash olib borish imkoniyatlari oshib bormokda¹» degan edi. Bu, o_z navbatida har bir xodimning fao-liyati davomida va aholi bilan muloqot qilish jarayonida xushmuomalali bo_lishga undaydi.

Profilaktika inspektorlari o_zlaining kasbiy faoliyati davomida shaxs-lar va jamoatchilik bilan munosabatda mavjud vaziyat va sharoitni his qilgan holda ish ko_ishlari muhim. Muloqot jarayonida kishilarning etnopsixologik xususiyatlarini o_rganib, inobatga olish, muloqot vositalari-dan to_g_rifoydalanish, shaxslar bilan o_zaro aloqada psixologik to_siq-larni bartaraf etish, kasbiy muloqot turlarini unumli qo_llay olish ularning kasbiy mahoratini oshirishda yordam beradi.

¹ Каримов И.А. Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаш-тириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси.–Т., 2010. – Б. 27.

Xalqimizning milliy xarakteri fazilatlarining o_ziga xos xususiyatlari majmuasidan iborat. Milliy xarakter o_z ichiga irodaviy sifatlarni (mustaqillik, chidamlilik, prinsipiiallik, o_zini o_zi tuta bilish, bardoshlilik, qat'iylik, matonatlilik singari) va axloqiy xislatlarni (madaniyatlilik, xushmuomalalik, poklik, intizomlilik, samimiylik, haqqoniylik, insonparvarlik va boshqalarni) qamrab oladi.

Muomala o_ta murakkab jarayon bo_lib, u odamlarning o_zaro iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, ijtimoiy-ma'naviy munosabatlari, aloqalarining yig_indisidan tashkil topadi. Muomalada barcha madaniyat turlarining botiniy va zohiriy xususiyatlari mujassamlashgan bo_ladi. Shu sababli uni tarixiy vorisiylik va zamonaviylik talablari darajasida shakllantirish ichki ishlar organlari xodimlarida ichki va tashqi madaniyatning uyg_unligini, mushtarakligini ta'minlaydi. Jumladan profilaktika inspektorlarining fuqarolar bilan bo_ladigan muomala madaniyati bu – ularning shaxslar, oilalar, mehnat jamoalari, ijtimoiy guruhlar, har xil jamoat va davlat tashkilotlari, muassasalari, xorijiy davlat fuqarolari bilan bo_ladigan hamda qonun, farmon, nizom va buyruqlardagi axloqiy va huquqiy normalar, prinsiplar bilan tartibga solingan axloqiy-estetik, huquqiy munosabatlar tizimi.

Insonlar o_z faoliyati davomida, tabiiyki, boshqa odamlar bilan muloqotda bo_ladilar. Ushbu jarayonda axborot almashadilar, bir-birlariga ta'sir ko_satadilar, ta'lim beradilar, tajriba almashadilar. Bu jarayon shaxslararo o_zaromunosabatlarda *muloqot*, *muomala* deb yuritiladi.

Muloqot har qanday faoliyatning muhim jihati hisoblanib, u orqali insonning mohiyati namoyon bo_ladi, ya'ni o_zaro tushunishga, ishni bajarish chog_ida uyg_unlikka erishiladi, yoki aksincha, nizolar va axloqiy ziddiyatlar, ishdagi kelishmovchiliklar yuzaga keladi.

Muloqot - ikki yoki undan ortiq odamlarning o_zaro bir-biriga ta'sir etishi. Odamlar o_tasida axborot almashish, o_zaro ta'sirning yagona yo lini ishlab chiqish, o_zgalarni idrok qilish va tushunib baholash xarakteriga ega.

Muloqot yoki kommunikatsiya – odamlarning o_zaro hamkorligi shakllaridan biri. Muloqot odamlarning voqelikni aks ettirishi natijasini ifodalovchi xabarlar almashish jarayoni bo_lib, ular ijtimoiy borliqning ajralmas qismi hamda ularning individual va ijtimoiy ongi shakllanishi va amal qilishi vositasidir. Odamlarning birgalikdagi faoliyati jarayonida maqsadli hamkorlikni tashkil etish, tajriba almashish, mehnat va turmush ko_nikmalarini olish, ma'naviy ehtiyojlarni namoyon etish va qondirish muloqot yordamida yuz beradi.

Muloqot yoki muomala yangi axborot almashinuvi jarayoni hamdir, bu haqda Bernard Shou quyidagilarni qayd etadi: «Agar menda bitta olma

va sizda ham shuncha olma bo__lib, o__zaro almashsak, sizda ham, menda ham bittadan olma qoladi, agar har birimizda shaxsiy fikr bo__lsa va o__zaro almashsak, unda har birimizda ikkitadan g__oya bo__ladi»¹. Ushbu ta'kiddan ham muloqot davomida o__zaro fikr almashinuv munosabatlari yuzaga kelishini ko__rish mumkin.

Profilaktika inspektorlari xizmat vazifalarini bajarishda fuqarolar bilan muloqotga kirishadilar. Ular faoliyatining samaradorligi odamlar bilan muloqotga kirishish, psixologik aloqa o__matish qobiliyatlariga bog__liq. Ushbu xususiyatlar ichki ishlar organlari xodimlari kasb mahoratining muhim tarkibiy qismidir.

Muloqot ijtimoiy psixologik hodisa bo__lib, odamlar o__rtasida birgalikdagi faoliyat ehtiyojlaridan kelib chiqadigan bog__lanishlar rivojlanishining ko__pqrirali jarayonidir. Kishilar o__zaro munosabatga kirishar ekan, aloqaning eng muhim vositalaridan biri sifatida tilga murojaat qiladilar. Muloqotning yana bir muhim tomoni shundaki, munosabatga kirishuvchilar muomala jarayonida faqat so__zlar bilan emas, balki xatti-harakatlar bilan ham axborot ayirboshlaydilar. Muloqot jarayoni shaxslarning qiziqishlari, dunyoqarashi, muomala madaniyatiga ham bog__liq. Chunki shaxslardagi o__zaro muloqot bu – tabiiy ehtiyojdir.

Muloqot orqali shaxslarning birgalikda aloqa qilish metodikasi ketma-ket bo__lgan olti bosqichdan iborat:

I bosqich – o__zaro bir-birini tushunish;

II bosqich – umumiy yoki mos keladigan qiziqishlarni topish;

III bosqich – muloqot uchun taklif etiladigan sifat va qabul qilinadigan prinsiplar;

IV bosqich – muloqot uchun xavfli bo__lgan sifatlarni aniqlash;

V bosqich – individual ta'sir etish va suhbatdoshga moslashish;

VI bosqich – umumiy qoidalarni yaratish va o__zaro harakat qilish.

Bosqichlar ketma-ketligiga rioya qilish to__g__ri ta'sir etishni tashkillashtirishda muhim ahamiyatga egadir.

Bosqichlar aloqa qilish jarayonida amalga oshirilayotgan faoliyatning ketma-ketligini kuzatish dasturi sifatida namoyon bo__lishi, o__zaro ta'sir yo__llarini nazorat etishi mumkin².

Kasbiy muomala ichki ishlar organlari xodimi faoliyatida muhim o__rin egallaydi. Shuning uchun ham muomalaning har biri turi faoliyat jarayonida ishtirok etadi. Xodim muomala qonuniyatlariga suyangan holda

¹Qarang: *Коган М.С.* Мир общения. – М., 1990. – С. 149–150.

²Qarang: *Филонов Л.Б.* Тренинги делового общения сотрудников органов внутренних дел с различными категориями граждан. – М., 1992. – С. 5–6.

kishilar bilan munosabatga kirishadi. Muloqot jarayonida xodimning barcha kasbiy sifatlari (xotira, diqqat, idrok, sezgi, tafakkur, xayol) ishtirok etadi. Bu jarayonlar xodimni mantiqiy fikrlashiga, voqeani oʻtmishdagi vaziyat bilan bogʻlashiga, oʻzaro solishtirish va qiyoslash, obyekt va sharoitni mukammal tarzda idrok etishiga yordam beradi.

Muloqot psixologik jihatdan bir-bir bilan bogʻliq boʻlgan odamlar oʻrtasida u yoki bu vositalar orqali maqsadga muvofiq, bevosita yoki bilvosita aloqa oʻrnatish va saqlab turish jarayonidir¹.

Muloqotning profilaktika inspektorlari faoliyatida quyidagi turlari mavjud:

- 1) bevosita;
- 2) bilvosita;
- 3) rolli;
- 4) mazmunli;
- 5) rasmiy;
- 6) norasmiy.

Bevosita muloqot «yuzma-yuz» suhbat boʻlib, uning har bir ishtirokchisi idrok qiladi, aloqa qiladi va hamma mavjud vositalarni keng qoʻllaydi.

Bilvosita muloqot ham aloqa vositasi boʻlib, unda shaxslar, aloqa vositalari va mexanizmlar ishtirok etadi (masalan, telegraf, telefon orqali gaplashish).

Muloqotning baʼzi turlari ijtimoiy rollar orqali amalga oshirilib, rolli muloqot deyiladi. Bunday holatda odamlar muayyan ijtimoiy rollarni bajaruvi kishilar tarzida muloqotga kirishadilar. Masalan, tergovchi va jabrlanuvi oʻrtasidagi muloqot rollidir.

Individning boshqa shaxsga oʻz holati, kayfiyati, xohishini mimika, harakat, imo-ishora orqali bildirishi mazmunli muloqot deb ataladi.

Rasmiy muloqot yuridik kuchga ega boʻlib, davlat va jamiyat manfaatini koʻzlagan hamda qayd etiladigan muloqot turi (masalan, tergov jarayonidagi soʻroq qilish)dir.

Shaxslararo oʻzaro muloqot jarayonida oʻzini qiziqtirgan u yoki bu maʼlumotga ega boʻlish norasmiy muloqot hisoblanadi.

Muloqotga kirishishda faqat soʻzlar emas, balki harakatlar, imo-ishoralar ham muhim ahamiyatga ega. Shaxslar oʻzaro muloqotga kirishar ekan, ushbu muloqot oʻzida uch muhim jihatni qamrab oladi;

- 1) kommunikativ (axborot berish);

¹ Qarang: *Асямов С. В., Пулатов Ю. С. Ички ишлар идоралари ходимларининг касбий-психологик тренинги. – Т., 2002, – Б. 47.*

2) interaktiv (o_zaro birgalikda harakat qilish);

3) perseptiv (o_zaro birgalikda idrok qilish).

Muloqot jarayonida axborotni boshqa kishiga yo_llayotgan shaxs *kommunikator*, uni qabul qilayotgan kishi *retsepiyent* deb nomlanadi.

Muloqotda nutq muhim rol o_ynaydi, uning ravonligi, so_zlarning yaxshi va o_z joyida to_g_ri ishlatilishi muvaffaqiyat garovidir. Nutq eshittirilishi yo ovoz chiqarmasdan aytilishi, yozib qo_yilishi yoki kar-soqov kishilar uchun biror-bir mohiyatga ega bo_lgan imo-ishoralar bilan almashtirilishi mumkin. Muloqotda ma'lumot beruvchi va qabul qiluvchi o_rtasida o_zaro hamkorlik yuzaga keladi. Nutq shaxsning tashqi ko_rinishi, kiyinishi, mimikasi, tez yoki sekin gapirishi, ovozi, salmoqlab yoki vazmin gapirishiga bog_liq bo_ladi.

Shaxs ma'lumotni ikkinchi bir shaxsga nutq bilan birga xatti-harakat, mimikalar orqali, shuningdek, yozma yoki ko_igazmali usulda berishi mumkin. Muloqot davomidagi emotsional holat muloqotga kirishayotgan shaxsning xatti-harakatiga salbiy ta'sir qiladi.

Muloqotning uzoq davom etishi ziddiyatli vaziyatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Har qanday muloqotdan biror-bir maqsad ko_zda tutiladi. Muloqotga kirishgan har bir shaxs uning yakunidan turlicha, ya'ni ijobiy yoki salbiy xulosa chiqarishi mumkin.

Muloqot aniq ijtimoiy munosabatlar orqali belgilanadi. U ijtimoiy axloq normalari asosida tartibga solinadi. Individ hayotida muloqotning bajaradigan vazifalari turlicha, shu bois muloqotning quyidagi psixologik vazifalarini ajratib ko_rsatish mumkin:

- informatsion;
- regulyativ;
- xabar;
- nazorat;
- tarbiya.

Muloqotning informatsion vazifasi axborotni qabul qilish va uni tarqatishdir. Regulyativ vazifasi muloqotni tartibga solish va boshqalar bilan to_g_ri munosabatni tashkil qilishdan iborat.

Xabar vazifasi ko_magida biz muhim ahamiyatga ega voqealar, hodisalar haqidagi xabarlarni qabul qilamiz.

Nazorat vazifasi ko_magida axborotni qabul qilish va tarqatish jarayoni nazorat qilinadi.

Muloqot orqali shaxsni shakllantirish jarayoni uni tarbiyalash vazifasi bo_lb, nihoyatda muhim omil hisoblanadi.

Muloqotning xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- muloqotning bevosita maqsadga yo_naltirilganligi;
- huquqiy va nazariy jihatdan ravonligi;
- maxsus muloqot obyektining mavjudligi;
- muloqot jarayonidagi psixik to_siqar;
- suhbatdoshining saviyasiga qarab maxsus termin, jargonlarini tushuna olish.

Shu o_rinda K.S.Stanislavskiyning «muloqot jarayonida, avvalambor, insonning ko_ngli, yuragi, ichki dunyosini qidirasiz», degan so_zlarni eslash joiz. Ammo kishining ichki dunyosini bilish qiyin. Shu bois shaxsning faqat tashqi ko_rinishi, xulq-atvori, o_zini tutishi, gap-so_zi yoki muomalasiga qarabgina xulosa chiqarish mumkin.

Profilaktika xizmati xodimlarining fuqarolar bilan o_zaro munosabatining psixologik tavsifi quyidagilarda namoyon bo_ladi:

- ma‘muriy huquqbuzarlik sodir etganligi uchun profilaktik hisobda turgan shaxslar bilan faoliyat olib borish;

- profilaktik hisobga olingan shaxslar bilan yakka tartibda profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirishda shaxsning yoshi, ruhiy holati, ijtimoiy ahvoli, mutaxassisligi, ehtiyojlari, qiziqishlari, qobiliyati va shaxsiy xususiyatlarini aniqlash;

- fuqarolar va mansabdor shaxslardan jamoat tartibiga rioya qilishlari, tartibbuzarliklarga yo_l qo_ymasligi, g_ayriijtimoiy va jamiyatda yurish-turish qoidalariga zid qilmishlarni to_xtatishni talab etish, ma‘muriy huquqbuzarlik sodir etilgan taqdirda amaldagi qonunlar asosida ma‘muriy huquqbuzarlik to_g_risida bayonnomalar tuzish;

- huquqbuzarga nisbatan hujjat rasmiylashtirilayotganda, shaxs jinoyat sodir etganlikda gumon qilinganda yoki pasport tizimi qoidalariga rioya qilinishi tekshirilayotganda yoxud shaxs shubha uyg_otgan taqdirda ma‘muriy hududda ulardan fuqarolik pasporti yoki shaxsini tasdiqlovchi boshqa hujjatlarini taqdim etishni talab qilish va tekshirish;

- ish va yashash joyi noaniq bo_lgan shaxslarni «Ish va yashash joyi noaniq shaxslarni reabilitatsiya etish markazi»ga, 3 yoshdan 18 yoshgacha bo_lgan voyaga yetmaganlarning shaxsini aniqlash, hayoti, sog_lig_ini muhofaza qilish yoki ular tomonidan takroran huquqbuzarliklar sodir etilishining oldini olish maqsadida «Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko_rsatish markazi»ga joylashtirish, adashib qolgan, tashlab ketilgan yoki ota-ona qaramog_idan mahrum etilgan 3 yoshgacha bo_lgan bolalarni sog_liqni saqlash muassasalariga topshirish;

- ma‘muriy hududda joylashgan korxonalar, tashkilot va muassasalarning mas‘ul mansabdor shaxslari, ularning qo_l ostidagi xodimlar, turar-

joylarda fuqarolarni pasport-viza qoidalariga rioya etishini talab qilish va tekshirish;

– ma‘muriy hududda joylashgan nazorat-litsenziyalash obyektlari mas‘ul mansabdor shaxslarining va qonun hujjatlari asosida o‘qotar qurolga ega bo‘lgan fuqarolarning nazorat-litsenziyalash qoidalariga rioya etishlarini talab qilish va tekshirish;

– ma‘muriy hududda vijdon erkinligini amalga oshirishga to‘sqinlik qiluvchi, terrorchilik va ekstremistik g‘oyalarni targ‘ib qiluvchi, ruqsatsiz diniy ta‘lim beruvchi, missionerlik bilan, shuningdek, boshqa taqiqlangan faoliyat bilan shug‘ullanuvchi tashkilotlar hamda diniy-ekstremistik guruhlariga aloqador bo‘lgan shaxslarni aniqlash;

– jinoyat sodir etishda gumon qilingan shaxsni jinoyat ustida yoki bevosita jinoyat sodir etilgandan so‘ng ushlansa; guvohlar yoki jabrlanuvchilar ushbu shaxs jinoyat sodir etgan deb to‘g‘ridan to‘g‘ri ko‘rsatuv bersalar; gumon qilinayotgan shaxsdan jinoyatga aloqador bo‘lgan daliliy ashyolar topilsa yoki jinoyatning izlari yaqqol mavjud bo‘lganda, surishtiruv olib borish;

– jinoyat sodir etib sud va tergov organlaridan yashirinib yurgan, bedarak yo‘qolgan shaxslar, axloq tuzatish ishlari tariqasida jazodan bo‘yin tovlab yurgan mahkumlarni qidirib topish, shaxsi noaniq murdalarning shaxsini aniqlash;

– ozodlikdan mahrum etish bilan bog‘liq bo‘lmagan jazolarga (muayyan huquqdan mahrum etilgan, shartli va axloq tuzatish ishlariga) hukm qilingan shaxslarga nisbatan profilaktik-nazorat ishlarini amalga oshirish;

– giyohvandlik vositalari yoki shifokor tayinlamagan holda psixotrop moddalarni iste‘mol qiluvchi, bu kabi vositalarni saqlovchi, tayyorlovchi, qayta ishlovchi va sotuvchi, tarkibida narkotik moddalar yoki psixotrop moddalar bo‘lgan o‘simliklarni yetishtiruvchi, noqonuniy sotib oluvchi, saqlovchi, tashuvchi, iste‘mol qilish uchun bangixona saqlovchi va shu maqsad uchun xonalarni taqdim etuvchi shaxslarni aniqlash;

– fuqarolar tomonidan saqlanayotgan o‘qotar qurollar, va o‘qdorilarni tekshirish;

– voyaga yetmaganlarga va ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo‘lgan oiladagi ota-onalarga nisbatan voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish;

– jazoni ijro etish muassasalaridan bo‘shatilgan shaxslar ustidan ichki ishlar organlarining ma‘muriy nazorati ta‘siri ostidagi muqaddam sudlangan shaxslar bilan ish olib borish;

– odam savdosi va axloq-odob doirasida huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarni aniqlash.

Xodim kommunikativligining alohida jihati shundaki, u xodimdan zarur hollarda boshqa qiyofaga kirishni talab etadi. Ushbu zarurat uning o'z faoliyati sohasi doirasidagi barcha shaxslar bilan psixologik aloqaga kirishishi muhimligidan kelib chiqadi.

2-§. Profilaktika inspektori tomonidan “profilaktik hisob toifasidagi” shaxslar bilan muloqot qilishning psixologik tavsifi

Profilaktika inspektori o'z xizmat burchini muloqot orqali bajaradi va ushbu muloqot qonun asosida tartibga solinadi. Ichki ishlar organlari faoliyatida nafaqat «til», yuqorida aytib o'tganimizdek, imo-ishora, eng asosiysi, suhbat davomida shaxsning yuzidagi o'zgaishlar ham muhim hisoblanadi.

Ichki ishlar organlari xodimlarining muloqoti quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- 1) bevosita kasbiy vazifani bajarishga yo'naltirilganligi;
- 2) huquqiy jihatdan tartibga solinganligi;
- 3) maxsus obyektning mavjudligi;
- 4) psixologik to'siqlarning mavjudligi;
- 5) jinoyatchilarning maxsus tili hisoblanmish tatiurovkalar va jargonlarni bilish va hokazo.

Har qanday muloqot doimo obyekt bilan subyektning bir-biriga moslashish jarayonini qamrab oladi.

Og'zaki nutq - sozlashuv va adabiy uslublarda ifodalanadi.

Sozlashuv uslubi deb, kishilarning kundalik hayotda sheva va lahjalarda muloqot qilish usuliga aytiladi. Sozlashuv uslubida nutq madaniyatining qoida va normalari qat'iy qo'llanilmaydi. Hozirgi kunda mamlakatimiz aholisi Toshkent, Farg'ona, Namangan, Andijon, Qarshi, Surxondaryo, Buxoro, Samarqand shevasi kabi ko'plab shevalarda sozlashadilar.

Adabiy uslub deb, adabiy til normalariga qat'iy amal qilishga asoslangan uslubga aytiladi. Adabiy uslubda sozlashganda, ma'ruza o'qilganda, rasmiy uchrashuvlar o'tkazganda til qoidalariga to'la rioya etiladi.

Og'zaki nutq, yozma nutqqa qaraganda keng qamrovli bo'lib, quyidagi xususiyatlarga ega:

- 1) og'zaki nutqda shevachilikning ta'siri kuchli bo'ladi;
- 2) og'zaki nutqda yozma nutqdagi kabi o'yab ish tutish imkoni kam bo'ladi;
- 3) og'zaki nutqning o'ziga xos grammatik tuzilishi, qurilish tartibi mavjud;
- 4) og'zaki nutqda talaffuz, ohang, imo-ishora vositalari muhim rol o'ynaydi;

5) og_zaki nutqning yuzaga chiqishi so_zlovchining kayfiyatiga, nutq so_zlanayotgan vaziyatga, so_zlovchi nutqiy a‘zolarining normal va sog_lomligiga bog_lik;

6) og_zaki nutq normalarining barcha xususiyatlarini payqash, yozib olish, o_igatish va o_iganish ancha qiyinchilik bilan kechadi;

7) og_zaki nutq bir butun hodisa (matn) sifatida cheksiz va sonanoqsiz shaxsiy (individual) faoliyat bo_lib, uning ko_pgina qirralari turli sharoitlarda o_zicha kechadi va payqamagan holda beiz yo_qdib ketadi;

8) kishi so_zlaganda, o_z nutqiga yozgandagi kabi yetarli e‘tibor beravermaydi.

Nutq va tafakkur o_zaro chambarchas bog_liq jarayonlardir, chunki boshqalarning gap-so_zlarini eshitgach, ularning ma‘nosiga qarab fikrlash zarurati yuzaga keladi, fikrimizni esa nutq orqali bayon etamiz.

Og_zaki nutq orqali hissiyotlarimiz (hissiy kechinmalarimiz) so_zlar bilan bayon qilingan tasvirlarda, ohangda, qofiyada, savollarda, so_zlar orasidagi sukutda, ayniqsa intonatsiyada yaqqol namoyon bo_ladi.

Masalan, biron kishining ismi tilga olinganda shu kishiga nisbatan turli hissiyotlar, munosabatlar qo_xg_adi: shaxs o_zidagi mehr-muhabbat, g_azab, qo_rquv, nafrat, kibr kabi psixik holatlarni yuzidagi mimikalarida atayin (psixik jarayon, temperament turiga qarab) yoki beixtiyor ifodalaydi.

Insonning qiyofasidagi fiziologik o_zgarishlarga qarab unda ustunlik qilayotgan fikr, his-tuyg_ular, munosabatlar haqida, ayollarda esa kosmetika, kiyim-kechak, poyafzalga qarab, shaxs to_g_risida ma‘lum bir fikrga kelish mumkin.

Ma‘lumki, shaxsni profilaktik hisobga olish uchun muayyan asoslar bo_lishi lozim va ushbu asoslar bo_lgan taqdirda, profilaktika inspektori o_n kun (jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan shaxslarga nisbatan ular yashash joyiga yetib kelgan kundan e‘tiboran uch kun) ichida shaxsni profilaktik hisobga qo_yish to_g_risidagi qaror chiqaradi va ushbu qarorni tuman, shahar ichki ishlar bo_limining, boshqarmasining boshlig_i tomonidan tasdiqlatadi. Tasdiqlangan qarorni profilaktik hisobga olingan shaxsga uch kun (u yashash joyida bo_lmagan hollarda esa, uning turgan joyi aniqlangan paytdan e‘tiboran uch kun) ichida e‘lon qilib huquq va majburiyatlari bilan tanishtirib imzo qo_ydiradi va shu kundan boshlab shaxs profilaktik hisobga olingan deb hisoblanib shaxs bir yil davomida profilaktik hisobda turadi¹.

¹ Qarang: *Исмаилов И.* Профилактика инспекторларининг профилактик ҳисобда турган шахслар билан ишлашда фуқаролар йиғини билан ҳамкорлиги // Республика илмий-амалий конференцияси материаллари (2014 йил 31 май). – Т., 2014. – Б. 23-24.

Bugungi kunda ichki ishlar organlari tomonidan profilaktik hisobga olishdan ko_zlangan asosiy maqsad aynan amaldagi qonunlar asosida huquqbuzarliklar profilaktikasining yakka tartibdagi, ya'ni individual tarzda amalga oshirish orqali g_ayriijtimoiy xulq-atvorli, huquqbuzarliklar sodir etishga moyil bo_lgan va huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarda ijtimoiy ijobiy xulq-atvorni shakllantirish, ularni individual xususiyatlari (bilimi, qobiliyati, qiziqishlari, ehtiyojlari)dan kelib chiqqan holda to_g_ri yo_nalish berish, kasb egallashlariga yordam berish, foydali mehnatga, sport bilan shug_ullanishga qiziqtirish singari ijobiy yo_lga boshqarishdan iboratdir. Shu sababli har bir profilaktika inspektori ushbu toifadagi shaxslar bilan psixologik aloqa o_matib muloqot olib borganda yetarli psixologik bilimlarga ega bo_lishi lozim. Profilaktika inspektorlari tomonidan *huquqbuzarlik sodir etgan quyidagi shaxslarga nisbatan* profilaktik hisob yuritiladi va ular bilan bo_ladigan muloqotda psixologik omillar hisobga olinadi:

1. Konstitutsiyaviy tuzumga qarshi hamda boshqaruvning belgilangan tartibiga tajovuz qilish bilan bog_liq huquqbuzarlik sodir etgan shaxslar.

Bunda huquqbuzarlik sodir etgan, ya'ni chet el davlati yoki chet el tashkilotiga, ularning vakillariga davlat sirlarini yetkazgan yoxud boshqacha yordam ko_rsatish yo_li bilan O_zbekiston Respublikasiga qarshi dushmanlik faoliyati olib borishda ayblangan, davlatga xoinlik qilgan, ya'ni O_zbekiston Respublikasining suvereniteti, hududiy daxlsizligi, xavfsizligi, mudofaa salohiyati, iqtisodiyotiga zarar yetkazgan, g_ayriqonuniy jamoat birlashmalari va diniy tashkilotlar, oqimlar, sektalar faoliyatida qatnashgan, nolegal diniy faoliyat bilan shug_ullangan hamda bolalar va o_smirlarning maxsus yig_ilishlarini o_tkazishga tayyorgarlik ko_ish jinoyati va huquqbuzarligini sodir etgan shaxs tushuniladi.

Bundan tashqari, ruxsat etilmagan yig_ilishlar, mitinglar, ko_cha yurishlarida faol qatnashgan shaxslarni ham kiritish mumkin. Profilaktika inspektori ushbu toifadagi shaxslarga nisbatan o_z xizmat faoliyati mobaynida quyidagi profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshiradi.

Konstitutsiyaviy tuzumga qarshi hamda boshqaruvning belgilangan tartibiga tajovuz qilish bilan bog_liq huquqbuzarlik sodir etgan shaxslar bilan profilaktik suhbat mobaynida profilaktika inspektori shaxsning bilim saviyasi, individual-psixologik, hissiy-irodaviy va boshqa muhim psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda faoliyatini tashkil etadi. Sodir etgan huquqbuzarligi uchun rasmiy ogohlantirish va huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablari va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlar to_g_ri-sida xabardor qilishda hamda sodir etgan huquqbuzarligi uchun profilaktik

hisob ishi yuritishda uning qiziqishini, moyilligini o'rganish uchun muloqotga kirishadi. Shu bilan birga, shaxsning jamiyatga, davlatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy sohadagi islohotlarga nisbatan munosabati hamda dunyoqarashini ham inobatga olishi lozim.

2. Tinchlikka va fuqarolarning xavfsizligiga qarshi jinoyat sodir etganlar.

Urushni targ'ib qilish, ya'ni bir mamlakatni ikkinchi mamlakatga nisbatan qo'zg'atish uchun turli shakldagi qarashlar, g'oyalar yoki chaqiriqlar tarqatish, bosqinchilik urushini rejalashtirish yoki unga tayyorgarlik ko'rish, shuningdek, shu harakatlarni amalga oshirishga qaratilgan fitnada qatnashish, tinch aholini majburiy ishlarga jalb etish, shaharlar va aholi yashash joylarini behuda vayron qilish, genotsid, ya'ni milliy, etnik, irqiy yoki diniy mansubligiga qarab, bir guruh shaxsning jismonan to'la yoki qisman qirilib ketishiga olib keladigan turmush sharoitini qasddan yaratish bunday shaxslarni jismonan to'layoki qisman qirib yuborish, shuningdek, terrorizm, xalqaro munosabatlarni murakkablashtirish, davlatning suverenitetini, hududiy yaxlitligini buzish, xavfsizligiga putur yetkazish, urush va qurolli mojarolar chiqarish, ijtimoiy-siyosiy vaziyatni beqarorlashtirish, aholini qo'rqitish terrorchilik harakatlarini tayyorlash va sodir etish, terrorchilik tashkilotlariga yoxud terrorchilik faoliyatiga ko'maklashish yoki bunday faoliyatda ishtirok etish yoki boshqa xizmat ko'rsatishga qaratilgan hamda milliy, irqiy, diniy adovatni targ'ib qiluvchi materiallarni tarqatish jinoyati va huquqbuzarligini sodir etgan shaxslar tushuniladi.

Tinchlik va fuqarolarning xavfsizligiga qarshi jinoyat sodir etgan shaxslar bilan profilaktik suhbat mobaynida profilaktika inspektori shaxsning o'ziga xos xususiyatlari, chunonchi, xarakter, temperament, xissiyirodaviy, axloqiy, aqliy, estetik xususiyatlari, uning turmush tarzi va ijtimoiy-maishiy yashash sharoitlari, hayotga bo'lgan munosabati, ta'sirchanligi va boshqa psixologik xislatlariga katta e'tibor bergan holda muloqotni rejalashtiradi va amalga oshiradi.

3. Shaxsning hayoti va sog'ligiga qarshi huquqbuzarlik sodir etganlar.

Qasddan odam o'ldirish, kuchli ruhiy hayajonlanish holatida qasddan odam o'ldirish, jabrlanuvchi tomonidan sodir etilgan g'ayriqonuniy zo'rlik yoki og'ir haqorat, shuningdek boshqa g'ayriqonuniy harakatlar tufayli to'satdan yuz bergan kuchli ruhiy hayajonlanish holatida qasddan odam o'ldirish, o'z chaqalog'ini qasddan o'ldirish hamda qasddan badanga og'ir shikast yetkazish, qasddan badanga o'rtacha og'ir shikast yetkazish jinoyatlarini sodir etgan shaxslar tushuniladi.

Profilaktika inspektori shaxsning hayoti va sog'ligiga qarshi huquq-

buzarlik sodir etgan shaxslar bilan profilaktik suhbat yoki rasmiy ogohlantirishidan qat'i nazar, uning hissiy holatini, ruhiy sog'lomligini, dunyoqarashining sog'lomligi, sodir etgan xatti-harakatidan vijdon azobining yuzaga kelgani yoki kelmaganligi, oila a'zolari va yaqin tanishlari bilan o'zaro kechadigan munosabatlari, shaxsga oid individual -psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda muloqotga kirishadi. Muloqot mobaynida profilaktik hisobda turuvchi shaxsning ruhiy holatini o'rganib, unga ta'sir etish choralarini ishlab chiqadi va shaxsga profilaktik ta'sir etadi.

4. Shaxsning ozodligi, sha'ni va qadr-qimmatiga qarshi jinoyat sodir etganlar.

Odam savdosi, ya'ni odamni olish-sotish yoxud odamni undan foydalanish maqsadida yollash, tashish, topshirish, yashirish yoki qabul qilish faoliyati bilan shug'ullangan, ayolni erga tegishga yoki nikohda yashashni davom ettirishga majbur qilish yoxud ayolning erkiga xilof ravishda u bilan nikohda bo'lish uchun o'g'irlash, shuningdek, ayolning erga tegishiga to'sqinlik qilish, fuqaroni zo'rlik ishlatib g'ayriqonuniy ravishda ozodlikdan mahrum qilish, tuhmat qilish, ya'ni bila turib boshqa shaxsni sharmanda qiladigan uydirmalar tarqatish, haqorat qilish, ya'ni shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini beodoblik bilan qasddan tahqirlash, nashr qilish yoki boshqacha usulda ko'paytirilgan matnda yoxud ommaviy axborot vositalari orqali haqorat qilish huquqbuzarligi va jinoyatini sodir etgan shaxslar tushuniladi.

Profilaktika inspektori shaxsning ozodligi, sha'ni va qadr-qimmatiga qarshi jinoyat sodir etgan shaxslar bilan profilaktik suhbat o'tkazish jarayonida, avvalo shaxsning ma'naviy qarashlari, axloqiy-estetik tarbiyalanganligi, uning qiziqishilari, ehtiyoji, nimalarga nisbatan moyilligining kuchliligi, ruhiy va jinsiy sog'lomlik darajasi, xarakteridagi tajovuzkorlik, vahshiylik va boshqa xususiyatlarini chuqur psixologik tahlil qilgan holda hamda shaxsni sinchkovlik bilan o'rganib uning fe'l-atvoriga qarab muloqotga kirishadi. Muloqot jarayoni xushmuomalalik, nozik, ochiq ko'ngillik, samimiylilik, rostgo'ylik, oddiylik bilan tashkil etilishi lozim. Sababi, avvalo profilaktika inspektori mazkur toifadagi shaxs bilan psixologik aloqa o'rnatish lozim bo'ladi.

5. O'zgarar mulkini talon-toroj qilish huquqbuzarliklarini sodir etganlar.

Bosqinchilik, ya'ni o'zgarar mulkini talon-toroj qilish maqsadida hujum qilish, hayot yoki sog'liq uchun xavfli bo'lgan zo'rlik ishlatib yoxud shunday zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitib sodir etgan jinoyati uchun sudlangan va tovlamachilik, mulkka shikast yetkazish yoki o'zgarar mulkini noqonuniy egallash, talonchilik, ya'ni o'zgarar mulkini ochiqdan-

ochiq talon-toraj qilish va aybdorga ishonib topshirilgan yoki uning ixtiyorida bo'lgan o'zganing mulkini o'zlashtirish yoki rastrata qilish yo'li bilan talon-toraj qilish yoki firibgarlik, ya'ni aldash yoki ishonchni suiiste'mol qilish yo'li bilan o'zganing mulkini egallash yoki mulkchilik shaklidan qat'i nazar, korxonalar, muassasa, tashkilotlarning mol-mulkini o'g'irlash, o'zlashtirish, rastrata qilish, mansab lavozimini suiiste'mol qilish yoki firibgarlik yo'li bilan o'z miqdorda talon-toraj qilish huquqbuzarligi yoki jinoyatini sodir etgan shaxslar tushuniladi.

Ushbu toifadagi huquqbuzar shaxslar odatda, o'zlarining jinoiy xatti-harakatlarini yashiradilar, yolg'on ma'lumot beradilar, vaziyatni murakkablashtirishning oldini olishga harakat qiladilar. Ular odatda o'zlarini doimiy ravishda, tajovuzkor, hujumkorona kayfiyatga moslashtiradilar. Bunday vaziyatda profilaktika inspektori haqiqatni yuzaga chiqarish va qonun ustuvorligini ta'minlashda aniq, keskin chora ko'rib, yolg'on fikrlarni fosh etgan holda, ta'sirlarga berilmay mantiqiy fikrlashi, maxsus qobiliyatidan kelib chiqqan holda muloqotga kirishishi va ularga psixologik ta'sir o'tkazishi lozim.

6. Jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga qarshi huquqbuzarlik sodir etganlar.

Jinoiy uyushma tashkil etish, ya'ni jinoiy uyushma yoxud uning bo'limlarini tuzish yoki unga rahbarlik qilish, shuningdek, ularning mavjud bo'lishi va ishlab turishini ta'minlashga qaratilgan faoliyat va uyushgan qurolli guruh tuzish, shuningdek unga rahbarlik qilish yoki ommaviy tartibsizliklar uyushtirish, shaxsga nisbatan zo'rlilik ishlatish, qirg'in solish, o'tqo'yish, mulkka shikast yetkazish yoki uni nobud qilish, hokimiyat vakiliga qarshilik ko'rsatish orqali ommaviy tartibsizliklar tashkil qilish, shuningdek, ommaviy tartibsizliklarda faol qatnashish yoki jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga tahdid soladigan materiallarni tayyorlash yoki tarqatish diniy ekstremizm, separatizm va aqidaparastlik g'oyalari bilan yo'g'rilgan qirg'in solishga yoki fuqarolarni zo'rlilik bilan ko'chirib yuborishga da'vat etadigan yoxud aholi orasida vahima chiqarishga qaratilgan materiallarni tayyorlash yoki ularni tarqatish yoki kontrabanda, ya'ni bojxona nazoratini chetlab yoki bojxona nazoratidan yashirib yoxud bojxona hujjatlari yoki vositalariga o'xshatib yasalgan hujjatlardan aldash yo'li bilan foydalanib, deklaratsiyasiz yoki boshqa nomga yozilgan deklaratsiyadan foydalanib, kuchli ta'sir qiluvchi zaharli, zaharlovchi, radioaktiv, portlovchi moddalar, portlatish qurilmalari, qurol-yarog, o'qotar qurol yoki o'qadorilarni, shuningdek giyovandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni yoki diniy ekstremizm, separatizm va aqidaparastlikni targ'ib qiluvchi materiallarni tarqatish va o'qotar qurol, o'qadorilar, portlovchi moddalar,

portlatish qurilmalarini o'g'rilikyoki firibgarlik yo'li bilan qonunga xilof ravishda egallash tegishli ruxsatnomasiz o'qotar qurol, shuningdek o'qadorilar, portlovchi moddalar yoki portlatish qurilmalari tayyorlash, olish, olib yurish, saqlash, olib o'tish yoki jo'natish, portlovchi moddalarni saqlash, jo'natish, ulardan foydalanish bilan bog'liq jinoyalarni sodir etgan shaxslar tushuniladi.

Bundan tashqari, mayda bezorilik va fuqarolar o'rtasida diniy-ekstremizm g'oyalarini da'vat etadigan shaxslarni ham kiritish mumkin.

Profilaktika inspektori jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga qarshi huquqbuzarlik sodir etgan shaxslar bilan profilaktik suhbat o'tkazish jarayonida shaxs ongiga psixo-pedagogik ta'sir etishi tavsiya etiladi, mavjud salbiy xususiyatlarini (jamiyatga qarshi fikr va maqsadlar, salbiy odat va motivlar hamda boshqalar) yo'qotish, bartaraf etish, irodaviy sifatlarini oshirish, shu bilan bir vaqtda qonunga itoatkorlik, huquqiy qarash, g'oyalar, ishonch, adolat orzusi kabi xislatlarini inobatga olgan holda muloqotga kirishadi.

7. Transport harakati va undan foydalanish xavfsizligiga qarshi huquqbuzarlik sodir etganlar.

Mast holda yoki narkotik moddalarni iste'mol qilgan, turli xildagi transport vositasini boshqarib badanga o'rtacha og'ir yoki og'ir shikast yetkazilishiga yoxud odam o'lishiga sabab bo'lgan jinoyatni sodir etganlar yoki transport vositasini olib qochgan shaxslar tushuniladi.

Profilaktika inspektori ushbu toifadagi shaxslar bilan profilaktik suhbat o'tkazish jarayonida uning ichkilikbozlik va giyohvandlikka bo'lgan qiziqishi, ularga ruju qo'yganligi, shaxs ma'naviyatida jamiyat uchun xavfli illatlar hosil bo'lishi, giyohvandlar ruhiyatida yolg'onchilik, odamovilik kabi xususiyatlar shakllanishi mumkinligini inobatga olgan xolda muloqotga kirishadi. Bunday toifadagi profilaktik suhbatlar odatda tinch, samimiy bo'lib, shaxsning profilaktika inspektoriga tobeligi ruhida yuzaga keladi, biroq unutmazlik kerakki, giyohvandlikka chalingan va spirtli ichimliklarni suiiste'mol qiluvchi shaxsning ruhiyatida o'zigaxos psixologik holat shakllangan bo'ladi. Bu haqida mazkur darslikning 8-bobida to'liqroq ma'lumot berib o'tilgan.

8. Voyaga yetmaganlar nazoratsizligi va ularning huquqbuzarliklar sodir etishi.

Voyaga yetmagan bolalarni tarbiyalash va ularga ta'lim berish borasidagi majburiyatlarni bajarmagan va farzand tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi ota-onalar hamda voyaga yetmagan bolalarning ma'muriy huquqbuzarlik sodir etishga jalb etgan shaxslar tushuniladi.

Ushbu toifadagi shaxslarga nisbatan O'zbekiston Respublikasining "VOYAGA yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi 2010 yil 29 sentabr qonuniga asosan javobgarlik nazarda tutilgan.

Profilaktika inspektori voyaga yetmaganlar bilan muloqotga kirishishda avvalo o'zining psixologik o'ziga xosligi, oilaviy sharoiti, ta'lim muassasasidagi davomati va o'zlashtirish ko'rsatkichi hamda sinf jamoasi bilan munosabati, bo'sh vaqtini qanday va kimlar bilan o'tkazishini o'rganadilar. Shundan so'nguning qiziqishlari, xulqidagi o'ziga xoslik, ta'sirlanishi, salbiy mayllarning paydo bo'lish motivlari, dunyoqarashi, hissiy-irodaviy, xarakteridagi fazilatlariga qarab psixologik aloqa o'rnatiladi hamda muloqotga kirishadi. Ushbu toifadagi voyaga yetmaganlar bilan profilaktik ishlarni tashkil etish va uning psixologik o'ziga xos xususiyatlari haqida mazkur darslikning 10-bobida to'liqroq ma'lumot berib o'tilgan.

9. Odam savdosi va axloq-odob doirasida huquqbuzarlik sodir etgan mansabdor shaxslar.

Odam savdosi va axloq-odob doirasida huquqbuzarlik sodir etganlar, bila turib boshqa shaxsni OIV/OITS kasalligini yuqtirish xavfi ostida qoldirgan yoki unga OIV /OITS kasalligini yuqtirgan yoki zo'rlik ishlatib, qo'rqitib yoki jabrlanuvchining o'zligidan foydalanib jinsiy aloqa qilgan, jinsiy ehtiyojni zo'rlik ishlatib g'ayriijtimoiy usulda qondirgan yoki besoqolbozlik jinoyatini sodir etgan, ayolni jinsiy aloqa qilishga majbur etgan yoki voyaga yetmagan shaxsni g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarga jalb qilgan, fohishaxona saqlagan yoki qo'shmachilik qilgan hamda pornografik mahsulotni tayyorlagan hamda namoyish etish huquqbuzarligini sodir etgan shaxslar tushuniladi.

Profilaktika inspektori ushbu toifadagi shaxslar bilan muloqotga kirishishda quydagilarni hisobga olishi lozim. Oilaviy yetishmovchilik, ma'naviy qashshoqlik jinoiy faoliyat bilan shug'ullanishga shart-sharoit yaratuvchi omillardan hisoblanadi. Iste'mol sohasidagi taqchilik buyurtma qotilliklar, terrorchilik harakatlari, firibgarlik, odam savdosi, poraxo'rlik, korrupsiya, narkobiznesning tarqalishiga sharoit yaratadi.

Shu bois, profilaktika inspektori ushbu toifadagi shaxslar bilan ularning g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarining asl mohiyatini anglagan holda muloqotga kirishadi. Huquqbuzarlar o'zlarini oqlaydigan motivlar, bahonalar tizimini axtaradilar va jinoiy maqsadlariga erishishlariga xalal beruvchi qadriyatlarni rad etadilar. O'z harakatlarini oqlash maqsadida javobgarlikdan bo'yin tovlash, o'zini ruhiy jihatdan himoyalash aksariyat jinoyatchilarga xos bo'lgan psixologik xususiyat bo'lib xodim buni yaxshi bilishi shart.

10. Oilaga, yoshlarga va axloqqa qarshi jinoyat sodir etganlar.

Voyaga yetmagan yoki mehnatga layoqatsiz shaxslarni moddiy ta'minlashdan bo'yin tovlagan va ota-onani moddiy ta'minlashdan bosh tortgan hamda farzandlikka olish sirini oshkor qilgan hamda o'z mansabidan foydalanib, tamagirlik yoki boshqa past niyatlarda qasddan bolani almashtirib qo'ygan, inson a'zolari yoki to'qimalarini ajratib olishda ishtirok etgan shaxslar tushuniladi.

Profilaktika inspektori oilaga, yoshlarga va axloqqa qarshi jinoyat sodir etgan shaxslarni profilaktik hisobga olish jarayonida quydagilarni inobatga olishi lozim: shaxsning jinoyat qilishga moyil bo'lgan yoshlar orasida «g'oyaviy-mafkuraviy ish» olib borishni, ya'ni jinoyatchilar dunyosidagi erkinlik, chiroyli hayot, har xil qo'shiqlar, tatuirovkalarni targ'ib qilishini, ularni narkotik moddalar iste'mol qilishga, spirtli ichimliklar ichish va buzuc ayollar bilan munosabatda bo'lishga, qo'rqitish, ig'vo qilish, qimor o'yinlariga jalb qilish xususiyatlarini inobatga olgan holda muloqotga kirishadi. Muloqot jarayonida shaxsning tarbiyalash jarayonidagi o'zgarishlar va psixologik ta'sir etishga asosiy e'tibor qaratiladi.

11. Fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi huquqbuzarlik sodir etganlar.

Fuqarolarning jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy yoki ijtimoiy mavqeiga qarab, ularning huquqlarini bevosita yoki bilvosita cheklagan shaxslar deganida ularning turar joyi daxlsizligini, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risidagi qonun hujjatlarini va saylov yoki referendum tashkil qilish, ularni o'tkazish to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzgan, bila turib yolg'on, shaxsni sharmanda qiluvchi uydirmalarni tarqatgan, shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini qasddan kamsitish kabi huquqbuzarlik va jinoyat sodir etgan shaxslar tushuniladi.

Profilaktika inspektori ushbu toifadagi shaxslar bilan faoliyatini tashkil etishda ularning maqsadlari, qarashlari, odatlari, istaklari, dunyoqarashi va hukumatimiz tomonidan olib borilayotgan ijtimoiy-siyosiy islohotlarga bo'lgan munosabati va boshqalarga e'tibor qaratishi lozim. Ular, odatda, radikal g'ayriijtimoiy harakatlarga moyil bo'ladilar. Bunday toifadagi shaxslarning ruhiyatida ko'pincha nevrozlar, ichkilik tufayli buzilishlar, aqliy yetishmovchiliklarga xos bo'lgan belgilar kuzatiladi. Ular doimo fuqarolarning hayoti va sog'lig'iga tajovuz qilishga, mulkni ishdan chiqarish va buzishga moyildirlar. Profilaktika inspektoriga ushbu psixologik o'ziga xos xususiyatlarni inobatga olgan holda muloqotga kirishish tavsiya etiladi.

12. Xo'jdik faoliyati sohasida huquqbuzarlik sodir etganlar.

Xavfsizlik talablariga javob bermaydigan tovarlarni ishlab chiqarish, yoxud ularni o'tkazish yoki xizmat ko'rsatish qoidalarini buzgan va

iste'molchilarning hayoti yoki sog'lig'i xavfsizligi talablariga javob bermaydigan tovarlar, etil spirti, alkogol va tamaki mahsulotini qonunga xilof ravishda muomalaga kiritgan hamda savdo yoki vositachilik faoliyati bilan qonunga xilof ravishda litsenziyasiz shug'ullangan yoki sifatsiz mahsulotlarni olish, sotish jinoyati va xuquqbuzarligini sodir etadigan shaxslar tushuniladi.

Profilaktika inspektori ushbu toifadagi shaxslarni profilaktik hisobga olish, rasmiy ogohlantirish va profilaktik suhbat o'tkazish jarayonida quyidagilarni alohida e'tiborga olishi lozim. Ijtimoiy-iqtisodiy, oilaviy-maishiy, madaniy va ijtimoiy mehnat hamda bozor iqtisodiyoti jarayonida xo'jalik yo'nalishidagi moliyaviy va mulkiy nizolarni keltirib chiqaruvchi shart-sharoitlarni, iqtisodiy, ijtimoiy ziddiyatlarni aniqlashi lozim. Ular xo'jaliksohasida jinoyat sodir etuvchi, xizmat vazifasini suiiste'mol qiluvchi, mulkni yashirincha talon-toroj qilish bilan bog'liq tajovuzkor va firibgar shaxslar bilan muloqotga kirishadilar. Bunday shaxslarning psixologiyasida yolg'on gapirishga moyillik ko'proq kuzatiladi, shuning uchun ham profilaktika inspektori yetarli psixologik bilimga ega bo'lishi lozim. Shaxsning yolg'on yoki to'g'ri gapirayotganini haqidagi psixologik bilimlar mazkur darslikning 4-bobida batafsilroq yoritilgan.

13. Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilish bo'yicha huquqbuzarlik sodir etganlar.

Taqiqlangan ekinlarni, ya'ni ko'kor yoki moyli ko'kor, kannabis o'simligi yoxud tarkibida giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bo'lgan ekinlarni qonunga xilof ravishda ekan va yetishtirgan yoki giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni qonunga xilof ravishda egallagan va ularni o'tkazish maqsadini ko'zlab tayyorlash, olish, saqlash va boshqa harakatlarni sodir etgan yoki shaxsning aql-idrokiga ta'sir etuvchi boshqa moddalarni har qanday shaklda iste'mol qilishga jalb, etgan yovvoyi nashani yo'q qilib yuborish choralarini ko'magan huquqbuzarlikni sodir etgan shaxslar tushuniladi.

Profilaktika inspektori ushbu toifadagi shaxslar bilan profilaktik suhbat o'tkazish jarayonida bir qancha omillarga e'tibor qaratishlari lozim. Ma'lumki giyohvandlikka ruju qo'ygan shaxs ma'naviyatida jamiyat uchun xavfli illatlar shakllanadi. Eng avvalo, shaxs bu qonunbuzarlik uchun javobgarlikdan qochish maqsadida asta-sekin xufiya faoliyat yuritishga o'tadi, bu esa uning xavfliligini yanada oshiradi. Chunki giyohvandlarning jamiyat va davlat organlari nazoratida bo'lmasligi, ularning og'ir jinoyatlar sodir etishiga olib keladi. Shu bilan birga, bu bosqichda giyohvandlar ruhiyatida yolg'onchilik, odamovilik kabi illatlar shakllanadi.

Umuman, ichkilikbozlik va giyohvandlikka qarshi kurashga psixologik tavsif berishda ijtimoiy turmush va ijtimoiy munosabatlarning o'ziga xos jihatlari, shaxsning ma'naviy-axloqiy qarashlarini, hissiy-irodaviy xususiyatlarini, atrofidagi shaxslar bilan munosabatini, ruhiy va tibbiy sog'ligiga e'tibor berish katta ahamiyat kasb etadi. Alkogolizm, giyohvandlik va zaharvandlik haqidagi bilimlar mazkur darslikning 8-bobida batafsilroq keltirib o'tilgan.

3-§. Profilaktika inspektorining fuqarolar bilan psixologik aloqa o'rnatishi va ularga ta'sir etish usullari

Psixologik aloqa muloqot turlarining amalda keng tatbiq qilinishi bo'lib, ushbu jarayon insonning holatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Xohlagan axborotni muloqot jarayonida to'liq berish, uning to'g'riqabul qilinganligi haqidagi signal, qoniqish holatini vujudga keltiradi va muloqot jarayonini faollashtiradi.

Har bir muloqotda bir necha maqsad ko'zda tutilishi mumkin. Masalan, tergovchi shaxsning voqealarga aloqadorligi qay darajada ekanligidan kelib chiqqan holda dalillarni yana bir marotaba tekshirib ko'rishi, o'zidagi mavjud dalillarni boyitish maqsadini nazarda tutishi mumkin. Muloqot doimo inson tabiati bilan bog'liq. Masalan, shaxs janjalkash bo'lishi mumkin, janjal ziddiyatlar natijasida yuzaga keladi. Bunda shaxsning ziddiyatni keltirib chiqaradigan holatlarini o'rganish taqozo etiladi.

Profilaktika inspektori fuqarolar bilan muloqot qilishi uchun chuqur bilim va quyidagi ijtimoiy-psixologik fazilatlarga ega bo'lishi kerak:

- notanish shaxslar bilan tezda muloqotga kirishish, ularga ma'qul bo'lish;
- boshqa shaxslarning gapini eshitish qobiliyatiga ega bo'lish;
- odamlarga psixologik ta'sir ko'rsata bilish;
- muloqot jarayonida psixologik to'siqlarni bartaraf etish va hokazo.

Profilaktika inspektorlarining kommunikativ faoliyati maxsus jihatlarga ega bo'lib, u bir qator psixologik xususiyatlarni: masalan, ichki muloqotning o'ziga xos tomonlarini va uning qiyinligini ko'rsatadi.

Ushbu muloqotning muhim xususiyati uning kasbiy yo'nalganligidir. Zero, xodimlar jinoyat sodir etgan shaxslarni, guvohlar va jabrlanuvchilarni aniqlash maqsadida boshqa shaxslar bilan muloqotda bo'ladilar. Xodimlar haqiqatni ochishga harakat qilsalar, jinoyatchilar, aksincha, jinoyatni yashirishga, yolg'on ma'lumot berishga, jinoiy javobgarlikdan qutulishga intiladilar.

Profilaktika inspektori qonunlar doirasida harakat qiladi, ya'ni jinoyatchining unga nisbatan bo'lgan salbiy munosabatiga qaramasdan muloqot qilishga majbur.

Shuningdek, muloqot jarayonida obyektning o'ziga xos tomonlarini hisobga olish lozim. Aytish joizki, ko'pchilik hollarda jinoyatga moyil shaxslar jamiyatdagi axloq qoidalaridan chetga chiqadilar, odob, vijdon amriga bo'ysunmaydilar. Natijada, muloqot jarayonida har xil psixologik sun'iy to'siqlar paydo bo'ladi.

Muloqot jarayonida quyidagi psixologik to'siqlar vujudga kelishi mumkin:

- 1) motivatsion to'siqlar;
- 2) aqliy to'siqlar (intellektual);
- 3) emotsional to'siqlar;
- 4) tarbiyaviy jarayondagi to'siqlar.

Motivatsion to'siqlar shaxsning muloqotga kirishishdan bosh tortishi, muomalani to'g'ri, aniq olib borilishini xohlamasligida namoyon bo'ladi.

Aqliy to'siqlar shaxsning xodimga nisbatan bilim doirasining kengligi, hayotiy tajribasining ko'pligi, mantiqiy fikrlashining chuqurligi va huquqiy savodxonligi yuqori bo'lgan taqdirda vujudga keladi.

Emotsional to'siqlar muloqotga kirishuvchilarning psixologik va emotsional-irodaviy holatlari (tajovuzkorlik, qo'rquv, asabiylashish, xotirlanish va boshqalar) dan kelib chiqadi.

Tarbiyaviy jarayonlardagi to'siqlarga ichki ishlar organlari xodimlari tarbiyasi qiyin o'smirlar, nosog'lom oilalar va ilgari sudlangan shaxslar bilan profilaktik chora-tadbirlar olib borayotgan vaqtda uchraydi.

Psixologik aloqa o'rnatish muloqotning kerakli yo'nalishda rivojlanishi va belgilangan maqsadga erishishni ta'minlovchi sharoitlarni yaratishga qaratilgan, maqsadga yo'naltirilgan, rejalashtirilgan faoliyatdir.

Profilaktika inspektori o'z vazifalarini bajarish davomida fuqarolar bilan o'rnatadigan ruhiy aloqasi faoliyatining muhim ko'rsatkichi bo'lib, kishilarning kundalik hayotida o'rnatadigan ruhiy aloqalaridan katta farq qiladi. Psixologik aloqaning profilaktika inspektorlarining bir qator normativ hujjatlarida belgilangan ko'rsatmalardan asosiy farqi shundaki, xodimlarning ruhiy aloqaga muvaffaqiyatli kirishishi pirovardida muhim axborot olish va fuqarolarning qarshilik ko'rsatish xatti-harakatlarini – yordam berishga, befarqlikdan – hamkorlikka o'zgartirish bilan chambarchas bog'liq.

Psixologik aloqa o'rnatishning bir necha bosqichlari mavjud:

- bo'lajak muloqotni bashorat qila olish;
- muloqotni osonlashtiruvchi tashqi omillarga asoslanish;

- tashqi kommunikativ sifatlarni namoyon qilish;
- umumiy va neytral qiziqish doiralarini aniqlash;
- muomalada nutqning ravonligi va og_ishlarni bartaraf qila olish;
- individual xususiyatlar asosida ta'sir o_tkazish.

Bo_lajak muloqotni bashorat qilish. Psixologik aloqa o_matish ning samarali bo_lishida dastlabki rejalarning mavjudligi maqsadga muvofikdir. Buning uchun muloqotga kirishuvchi shaxs to_g_risida birlamchi ma'lumotlarga ega bo_lish zarur.

Muloqotni osonlashtiruvchi tashqi omillar yaratish. Muloqot jara-yonida suhbatdoshni chalg_itadigan, unga xalaqit beradigan, ta'sir qiladigan omillarni yo_qotish, o_zaro ishonch muhitini yaratish zarur.

Tashqi kommunikativ sifatlarni namoyon qilish. Nutq madaniyati, mimika, tashqi ko_rinish psixologik aloqa o_matishda ijobiy natija beradi. Masalan, suhbat yurituvchining o_zini tutishiga qarab suhbatdoshda muayyan emotsional holat yuzaga keladi. Muloqot boshidanoq suhbatdosh bilan hamfikir bo_lishga harakat qilish kerak.

Umumiy va barqaror qiziqishlar doirasini aniqlash. Muloqot boshida shaxs bilan umumiy til topishga harakat qilish darkor, umumiy qiziqishlarning borligi emotsional turg_un holatga olib keladi. Bu o_zo_zidan suhbatdoshni samimiy bo_lishga undaydi, psixologik iqlimni mo_tadillashtirib, mavqeni tenglashtiradi.

Muomaladagi og_ishlarni bartaraf etish. psixologik aloqa o_matishning majburiy omili hisoblanadi. Muloqotga begona shaxsning aralashishi, xonada begonalarning borligi muloqotning shakllanishiga xalal beradi, hissiy zo_riqishlarni keltirib chiqaradi.

Individual (alohida) ta'sir etish. Psixologik aloqa o_matishning yakuniy bosqichi - xodimning suhbatdoshga alohida ta'sir ko_ratishi. Bu ta'sirdan ko_zlanadigan asosiy maqsad undan kerakli, ishonchli ma'lumotlar olishdir.

Profilaktika inspektorlari faoliyatida kerakli bo_lgan ma'lumotlarni o_rganish davomida ko_proq ong ostida namoyon bo_luvchi psixik jihatlarga ta'sir o_tkaziladi. Chunki ayblanuvchi (guvoh, jabrlanuvchi, gumon qilingan) shaxs ongli ravishda ma'lumot berishdan bosh tortsa, uni ong osti doirasida yig_ilgan ma'lumotlarni berishga undash mumkin. Buni ikkita asosiy yo_l bilan amalga oshiriladi:

- nutq orqali kerakli faktlar to_g_risida ma'lumot berish;
- jismoniy va ekspressiv harakatlar orqali ma'lumot berish.

Ushbu ikki yo_lni ishga solish uchun quyidagi usullardan foydalanish lozim:

1) aniq predmetlarni ko'rsatish orqali subyektning xotirasida kerakli obrazlarni jonlantirish va bevosita gapirtirish (plakatlar, e'lonlar, muzey eksponatlari orqali);

2) suhbat davomida aralash mavzularni qo'llash (to'g'ridanto'g'ri savollar emas, balki «chetdagi» savollar bilan mavzuni yoritish);

3) aniq savollarni o'rta qo'yish (bu savollar mavzuga tegishli bo'lib, subyektga yaxshi tanish hamda psixologik jihatdan tasdiqlangan va ishonarli bo'lishi lozim);

4) suhbatga «tortish» paytida subyektning aniq psixologik holatini shakllantirish darkor (emotsional o'zgarishlar - qizarib ketish, ko'z yoshlari - muloqotning davomiyligiga xalaqit berishi mumkin). Berilayotgan savollar xatti-harakatlarning normal psixik holatiga ta'sir ko'rsatadi;

5) jinoiy faoliyatga taalluqli bo'lgan predmetlarni ko'rsatish (bu jarayonda subyektning psixik holatiga nazar tashlash lozim);

6) favqulodda, qisqa muddatli, o'ta psixologik vaziyatlarni yuzaga keltirish (subyektning bu vaziyatlarga munosabatini aniqlab olish) lozim;

7) suhbat jarayonida tabiiy hayotiy holatni yaratish va subyektning u holatga ko'nikishini ta'minlash (sharoit qancha oddiy bo'lsa, subyekt sharoitga shuncha tez ko'nikadi va suhbat o'z samarasini beradi).

Shunday qilib, kasbiy muloqot – xodimning muayyan qobiliyatlarini rivojlantirishni talab etuvchi murakkab, lekin tegishli kommunikativ tay-yorgarlik bo'lganida oson boshqariladigan, xodim faoliyatining samaradorligini oshiradigan jarayon.

Muloqotning samarali bo'lishida shaxsning shakllangan sifatlari, fazilatlarining ahamiyati juda katta. Jumladan, shaxsda ijobiy fazilatlar yaxshi shakllangan bo'lsa (xushmuomalalik, kamtarlik, insoniylik, to'g'riso'zlik, vijdonlilik kabilar), muloqot jarayoni ham yaxshi o'tadi. Chunki shaxslar bir-birini to'g'ritushunishlari, muloqot samarali bo'lishi uchun samimiy bo'lishlari lozim.

Fuqarolar tomonidan berilgan ma'lumotlarning psixologik tahlili. Profilaktika inspektorlari o'z faoliyati mobaynida fuqarolardan, ya'ni davo qiluvchi, guvoh, jabrlanuvchi, xuquqbuzar voyaga yetmagan, muqaddam sudlangan, nosog'lom oilalar va boshqalardan olayotgan ma'lumotlari katta ahamiyat kasb etadi. Olinayotgan har qanday ma'lumotga ta'sir qiladigan omillar sinchkovlik bilan tahlil qilishni talab etadi. Shu sababli quyidagilarni aniqlash lozim:

– shaxsning axborotni idrok etishiga ta'sir etuvchi obyektiv va subyektiv omillar (kuzatish sharoiti, ob-havo holati, kunlik shart-sharoit, yoritilganlik darajasi va boshqalar);

– shaxsning axborotni idrok etish imkoniyatlari va sezgi aʼzolari bilan bogʻliqligi. Shaxsning voqea-hodisani idrok etish joyi, obyektlar orasidagi masofa, yoʻnalishi, koʻrish burchagi, oʻtirganlik, turish, yurish yoki yugurganlik holatlari va boshqa vaziyatlarning taʼsir etishi. Sezgi aʼzolarining chegarasi, koʻrish oʻtkirliги, koʻzoynakning borliги yoki yoʻqotilganligi, eshitish apparati, quyosh nurini qaytaruvchi koʻzoynak, sezgi aʼzolarining patologiyasi bilan bogʻliqligi;

– axborotni idrok etish shaxsning individual-psixologik xususiyatlariga bogʻliqligi. Axborotni idrok etishda shaxsning hayotiy tajribasi, jinsi, yoshi, aqliy rivojlanish darajasi, egallagan kasbi, millati va individual-tipologik xususiyatlarining umumiy qonuniyatlariga bogʻliq. Odatda erkaklar joyni, yoʻlni, voqealarni yaxshi esda saqlasalar, ayollar esa vaziyatni, insonlarni, ularning kiyimlarini, ruhiy holatlarini xotirada yaxshi saqlab qoladilar;

– shaxsning axborotni idrok etishi ijtimoiy-psixologik omillar bilan bogʻliqligi. Voqea ishtirokchilarining simpatiya va antipatiya holatlari ularning shikoyat, ariza va takliflarida kuchli namoyon boʻladi;

– axborotni idrok etish shaxsning psixik holati bilan bogʻliqligi. Axborotni idrok etishda shaxsning psixik holati, yaʼni hayajon, qoʻrquv, dahshat, parishonlik oʻz taʼsirini koʻrsatadi. Kriminal voqealar odatiy voqealarga nisbatan his-hayajonli boʻlganligi sababli, jabrlanuvchi va guvohlar tomonidan esda yaxshi saqlanib qoladi, lekin shakllar, ranglar, oʻlchamlar notoʻgʻri idrok etiladi.

Profilaktika inspektori aholi bilan hamkorlikda faoliyat olib borishi uchun muloqotning quyidagi qonuniyatlari va mexanizmlariga eʼtibor berishi lozim:

– suhbatdoshiga fikrini sodda, aniq va qisqa ifodalashi, uning fikrlarini diqqat bilan tahlil qilishi kerak;

– huquqbuzar bilan muloqot davrida aniq, qisqa va xushmuomalalik bilan suhbat olib borish;

– suhbatdoshni tinglash mexanizmini ishlab chiqish;

– suhbatdosh tomonidan berilayotgan maʼlumotga qiziqish bilan munosabat bildirish. Agar xodimga berilayotgan maʼlumot tushunarsiz boʻlsa, u holda xushmuomalalik bilan aytilgan fikrlar va baʼzi jummalarni takrorlashni soʻrash;

– suhbat davomida salbiy taʼsir etuvchi omillarga eʼtibor bermaslik (qoʻngʻiroqlar, begonalarni yoʻlakda yurishi va boshqalar);

– suhbatdoshning mimika, jestlar va reaksiyalariga eʼtibor berish, suhbatdosh fikrlarini tugatgan boʻlsa, olingan maʼlumotlarni umumlashti-

rish, tahlil qilish, aniq dalillarni oydinlashtirish, zarur bo'lganda dalillar bilan hujumga o'tish;

– xodimga qo'yiladigan asosiy talablardan biri bu uning eshitish qobiliyatini shakllantirish hisoblanadi.

Amaliyotda kuzatilishicha, ayrim tajribasiz xodimlar fuqarolar bilan muloqotga kirishishlarida ayrim qiyinchiliklarga duch keladilar. Ularda tajriba birdaniga paydo bo'lmaydi, balki asta-sekinlik bilan namoyon bo'ladi. Chunonchi, xodim har kuni turli toifadagi fuqarolar bilan qandaydir huquqbuzarlik, fuqarolarning jamiyat manfaatlariga qarshi harakatlari, maishiy-turmush sohadagi nizoli holatlar yuzasidan suhbatlashishi natijasida odatda fe'l-atvorida salbiy kayfiyat kuzatiladi va muloqot jarayonini amalga oshirishga to'siqlik qiladi.

Profilaktika inspektorining xizmat faoliyatini muloqotsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Shu sababli fuqarolar bilan bo'ladigan muloqot jarayonida kasbiy mahoratga ega bo'lishlari lozim. Chunonchi:

- o'zida psixologik chidamlilik, bardoshlilikni hosil qilish;
- salbiy hissiyotlarni bartaraf etish va oldini olishga o'rganish;
- ruhiy zo'riqishni bartaraf etish;
- muloqotning psixologik-pedagogik madaniyatini shakllantirish.

Profilaktika inspektori fuqarolar bilan munosabatga kirishda ularning yoshi, jinsi, ijtimoiy mansubligi, sog'lig'i, millati, ichki ishlar organlariga umumiy munosabati va muloqot olib boriladigan shart-sharoitni inobatga olishi lozim. Shuni unutmaslik kerakki, xodimning har bir so'z-iborasi, muomalasidagi tovush ohangi, o'zini tutish uslubi (manerasi), fe'l-atvori, tashqi ko'rinishi fuqaroning butun diqqat-e'tiborida bo'ladi. Shu sababli xodim muloqotni boshqarishi uchun suhbat yuridik jihatdan yuqori saviyada, psixologik jihatdan nozik didli, xayrixohlik, qonuniylik, adolatlilik, jonkuyarlik bilan amalga oshirilishi kerak. Muloqot mobaynida xodim fuqarolarni o'zaro tushunishidagi to'siqlikni bartaraf etish, suhbat davomida xatolarga yo'l qo'ymaslik, o'zini nazorat qila bilish, ba'zida o'ziga tanqidiy nazar bilan qarash, muomalaning qonuniyatlari va mexanizmlariga amal qilish, ijtimoiy ziddiyatlarni shaxsiy nizoga aylantirmaslik, fuqarolar bilan jiddiy munosabatda bo'lish, ularning xarakteridagi shaxsiy kamchilik va nuqsonlariga sabr-toqatli, psixologik va pedagogik ta'sir eta olish usullarini egallagan bo'lishlari lozim.

Amaliyotdan ma'lumki, xodimning fuqarolar bilan bo'ladigan munosabati jarayonida qandaydir sirni yashirishi va yolg'ongapirayotgani sezilib turadi. Fuqaro o'zining jinoiy xatti-harakatlariga tayyorgarlik ko'rar ekan, atrofdagilarni o'ziga og'dirish va ishonchini qozonishda asl jinoiy maqsadini yashirishga urinadi.

Profilaktika inspektorining psixologik bilimlardan unumli foydalani-shi shaxs hulq-atvoridagi nosamimiy va yashirin holatlarni aniqlashda, shuningdek, jinoyatini ochishda yaxshi samara beradi.

Muloqotning muvaffaqiyatli bo_lishida shaxsning mavjud sifatlari, fazilatlarining ahamiyati juda katta. Jumladan, shaxsda ijobiy fazilatlar shakl-langan bo_lsa (xushmuomalalik, kamtarlik, insonparvarlik, to_g_ri so_zlilik, vijdonlilik kabilar) muloqot yaxshi o_tadi.

Profilaktika inspektorining jinoyat va huquqbuzarlik sodir qilgan shaxslar, guvohlar va jabrlanuvchilarni aniqlash, turli shaxslar bilan mulo-qotga kirishish maqsadida muloqot jarayonining psixologik jihatlarini o_r-ganishi xizmat faoliyatida qo_l keladi. Xodim haqiqatni ochishga qancha-lik harakat qilsa, huquqbuzar va jinoyatchilar, aksincha, sodir etgan jinoya-tini yashirishga urinadilar, yolg_on ma'lumot berishga harakat qilib, mulo-qot jarayoni har qanday bahona bilan javobgarlikdan qutulishga intiladilar.

Muloqot har qanday faoliyatning zarur muhim jihatidir. Aynan mulo-qot jarayonida va faqat u orqali insonning mohiyati namoyon bo_ladi, bir-birini tushunishga intiladi, ishni bajarish chog_ida uyg_unlikka erishiladi, u yoki bu holatlarda o_zaro xatti-harakatlarini bashorat qilish qobiliyati shakllanadi yoki aksincha, nizolar va axloqiy ziddiyatlar, ishda kelishmov-chiliklar yuzaga keladi, muloqotda sherigining xatti-harakatiga oldindan ko_ziyetmaydi, qobiliyatsizligi namoyon bo_ladi.

Shu unutmazlik kerakki, profilaktika inspektori davlat boshqaruv or-gani xodimi, uning adolatli va odil himoyachisi hisoblanadi. U qo_pollik va dag_allikka xuddi shunday munosabatda bo_lishga haqli emas va tar-biyasizga tarbiyasizlarcha munosabatda bo_lishi mumkin emas. U har yer-da o_zining hulq-atvori bilan ibrat bo_lishi, o_zining ma'naviy va ma'rifiy yetukligi, yuksak siyosiy ongi, madaniyati, yurish turishi, kiyinishi, muo-malasi, axloq-odobi bilan yosh avlod qalbida o_zlarga nisbatan havas uyg_otishga intilishi kerakl.

Ma'lumki, suhbat jarayonida odamlarning biri gapiradi, ikkinchisi tinglaydi, eshitadi. Muloqotning samaradorligi ana shu ikki qirraning qan-chalik o_zaro mosligi, bir – birini to_kirishiga bog_liq. Noto_g_ritasavvur-lardan biri shuki, odamni muomala yoki muloqotga o_rnatganda, uni faqat gapirishga, mantiqiy asoslangan so_zlardan foydalanib, ta'sirchan gapirish-ga o_rnatishadi. Uning ikkinchi tomoni – tinglash qobiliyatiga esa deyarli e'tibor berilmaydi. Mashhur amerikalik notiq, psixolog Deyl Karnegi «Yaxshi suhbatdosh – yaxshi gapirishni biladigan emas, balki yaxshi ting-lashni biladigan suhbatdoshdir» deganda, aynan shu qobiliyatlarning in-sonlarda rivojlangan bo_lishini nazarda tutgan edi.

Mutaxassislarning aniqlashicha, ishlayotgan odamlar vaqtining 45% tinglash jarayoniga ketar ekan, odamlar bilan doimiy muloqotda bo_ladiganlarning 35 – 40% oylik maoshi odamlarni «tinglaganlari» uchun berilar ekan. Bundan shunday xulosa kelib chiqadi, kommunikatsiyaning eng qiyin sohalaridan hisoblangan tinglash qobiliyati odamga ko_proq foyda keltirar ekan.

Shuning uchun bo_lsa kerak, nemis faylasufi A. Shopengauer «Odamlarni o_zingiz to_g_ingizda yaxshi fikrga ega bo_lishlarini xohlasangiz, ularni tinglang» deb yozgan. Darhaqiqat, agar siz kuyunib gapirsangizu, suhbatdoshingiz sizni tinglamasa, boshqa narsa bilan ovora bo_laversa, undan ranjiysiz, hatto u bilan aloqani ham uzasiz. O_qituvchi gapirayotgan paytda uni tinglamaslik odobsizlikning keng tarqalgan ko_inishi deb baholanadi.

Biz ko_pircha, yaxshi so_zlovchi bo_la olamiz-u, yaxshi tinglovchi bo_la olmaymiz. Psixologlarning fikricha, asosiy xalaqit beruvchi narsa – bu bizning o_z fikr-o_ylarimiz va xohishlarimiz og_ushida bo_lib qolishimizdir. Shuning uchun ham ba‘zan rasman sherigimizni tinglayotganday bo_lamiz, lekin aslida hayolimiz boshqa yerda bo_ladi. Tinglashning ham xuddi gapirishga o_xshash texnikasi, usullari mavjud. Ularning turi ham ko_p, lekin asosan, kundalik hayotda uning ikki usulini qo_llaymiz: so_zma-so_z qaytarish va boshqacha talqin etish. Birinchisi, suhbatdosh so_zlaining bir qismini yoki yaxlitligicha qaytarish orqali, sherikni qo_llab-quvvatlash. Ikkinchi usul esa – sherigimiz so_zlarini tinglab, undagi asosiy g_oyani muxtasar, o_zimizning talqinimizda ifoda etish. Har ikkala usul ham suhbatdosh uchun muhim, chunki u sizning tinglayotganingizni, hatto, undagi fikrlari qarshi emasligingizni bildiradi. Bunday tashqari, biz yaxshi tinglayotgan bo_lib, «Yo_g-e?», «Nahotki?», «Qara-ya?», «Yasha!» luqmalari bilan ham suhbatdoshimizni gapirishga, o_z fikrlarini yana oydinlashtirishga chorlab turamiz.

Demak, aslida bizda gapirayotgan shaxs yetakchi, u suhbatning mutlaq xokimi, degan tasavvur unchalik to_g_ri emas. Yaxshi tinglashda ham shunday kuch borki, u suhbatdoshni sizga juda yaqinlashtiradi, ishonchni tug_diradi. Chunki muloqot jarayonidagi eng qimmatli narsa – axborotning o_zi. Tinglayotgan odam ma‘nili, mazmunli dialogdan faqat yaxshi, foydali ma‘lumot oladi. Gapirgan shaxs esa aksincha, o_zidagi bor ma‘lumotni berib, gapirmaydigan suhbatdoshdan «teskari aloqani» olib ulgurmay, «ba‘zida» hech narsasiz qolishi ham mumkin. Shuning uchun muloqotga o_rnatishning muhim yo_nalishlaridan biri – odamlarni faol tinglashga, bunda barcha paralingvistik va noverbal omillardan o_rinli foydalanishga o_rnatishdir.

Professional tinglash texnikasiga quyidagilar kiradi:

– *Aktiv holat.* Bu - agar kreslo yoki divan kabi mebel bo'lsa, unga bema'lol yastanib yoki yotib olmaslik, suhbatdoshning yuzidan tashqari joylariga qaramaslik, mimika, bosh chayqash kabi harakatlar bilan uning har bir so'ziga qiziqayotganingizni bildirishni nazarda tutadi;

– *Suhbatdoshga samimiy qiziqish bildirish.* Bu nafaqat suhbatdoshni o'ziga jalb qilib, balki keyin navbat kelganda o'zining har bir so'ziga uni ham ko'ndirishning samarali yo'lidir.

– *O'ydan jimlik.* Bu suhbatdosh gapirayotgan paytda yuzda mas'uliyat bilan tinglayotganday tasavvur qoldirish orqali o'zingizning suhbatdan manfaatdorligingizni bildirish yo'li.

Agar biz suhbatdoshimizni yaxshi, diqqat bilan tinglasak, bu bilan biz unda o'z-o'ziga hurmatni ham tarbiyalaymiz. Demak, tinglash jarayoni ko'pchilik tasavvur qilgani kabi unchalik passiv jarayon emas ekan. Uning muloqotning samarali bo'lishidagi ahamiyati nihoyatda katta. Chunki tinglash qobiliyati gapiruvchini ilhomlantiradi, ruhlantiradi, unda yangi fikrlar, g'oyalarning shakllanishiga sharoit yaratadi. Shuning uchun ma'ruzachi professorning har bir chiqishi va ma'ruzasi talabalar tomonidan diqqat bilan tinglansa, bu pedagogik muloqotdan har ikki tomon ham teng yutadi.

Muloqot qiluvchining so'zlashuv jarayonida haqqoniy yoki yasama psixik holatlarni namoyon etishi muloqot jarayonini osonlashtiradi. Shaxsning ruhiy jarayonlari kayfiyati, xohishi, mimika, imo-ishoralari muloqot jarayonida katta ahamiyatga ega. Ular berayotgan axborotga qarab muloqot yurituvchining voqea-hodisaga nisbatan haqqoniy yoki yasama munosabatini aniqlash mumkin. Ularni ko'ra bilish, baholay olish vaziyat taqozo etadigan sifatlaridan unumli foydalana olish muhim. Suhbatdoshga qanday yondashish mumkin?

Buning uchun, birinchidan, muloqotga kirishishdan oldidan tayyorgarlikdan o'tish, suhbatdoshning dunyoqarashi, temperament xususiyatlari, aqliy faoliyati, muloqotning qay turiga layoqati, Ayni shu paytdagi kayfiyati, qaysi usulda muloqot samaradorligini oshirish mumkinligini baholay olish qobiliyati alohida ahamiyatga ega vosita hisoblanadi.

Ikkinchidan, suhbatdoshning fikrini qiziqtirayotgan masalaga yo'llash yoki yo'naltirish usullarini qo'llash, ulardan unumli foydalanish, muloqotga qiziqish uyg'otish zarur.

Manera - kishining o'zini tutishi bo'lib, unga qarab shaxsning tarbiyasi, jamiyatdagi o'rnini, o'ziga qanday baho berishi, atrofdagilarga munosabatini aniqlash mumkin.

Aloqaning o'zaro ta'siri va kommunikativ tomoni uning perseptiv jihatini namoyon qiladi. Bunda muloqot ishtirokchilarining bir-birini idrok

etilishi tushuniladi. O_zaro muloqotga kirishganda suhbatdoshni bilish va o_zaro tushunish darajasining mosligi, moslashuv jarayoni, kirishimlilik xususiyatining mavjudligi muhim. Muloqot jarayonida shaxslar bir-birlarining ichki dunyosini tasavvur qilib ko_radilar, his-tuyg_ulari, xulq-atvori, o_ziga nisbatan munosabatini bilishga harakat qiladilar.

Muloqot jarayoni muvaffaqiyatining shartlari sifatida o_zaro ta'sir, suhbat, muloqot paytida shaxsning birinchi shaxs to_g_risida oladigan axboroti, savol berganda, suhbat chog_ida suhbatdoshning maqsadi, o_zini tutishi va harakatlari majmuidan xulosa chiqarib, berilayotgan axborotning mazmun-mohiyatini o_zgartirib berish ham muhim rol o_ynaydi.

Muloqot jarayonida hissiy so_zlashuv ham o_z o_mi bor. Masalan, muloqot vaqtida dovdorab qolish, hayratlanish, xursand bo_lib ketish, qo_r qish yoki asabiylashish shular jumlasiga kiradi. Ko_p hollarda muloqotning majburiy turlari uchraydi. Profilaktika inspektorining gumon qilina-yotganlar bilan suhbat chog_ida ularni qidirilayotgan faktlarni yoritishga undashi bunga misol bo_laoladi.

Muloqot jarayonida psixologik aloqa o_rnatish bosqichida profilaktika inspektori muloqotining o_ziga xosligi shundaki, u o_z xizmat vazifalarini bajarishda guvoh, gumon qilinuvchilarni aniqlash maqsadida, ya'ni sabab va oqibat tipidagi tizimda ish olib boradi.

Bunday murakkab muloqot jarayonida turli ichki ziddiyatlar yuzaga keladi. Ayrim hollarda, umumiy vazifa va maqsadlar o_z qiymatini yo_qo-tib, antagonizm, ya'ni o_zaro dushmanlik holati yuzaga keladi. O_zaro tushunmovchilik to_sig_ini yo_qotish uchun muloqotga kirishuvchilar bir-birlarining hayotiy tajribasi, jamiyatda tutgan o_rni, dunyoqarashi va qiziqishlari, ruhiyatini tushunishga harakat qilishlari lozim.

Muloqotning uzoq davom etishida ziddiyatli holatlar ko_p uchraydi. Har qanday muloqot ma'lum maqsadga yo_naltirilgan bo_ladi. Muloqotga kirishgan har bir shaxs muloqotning yakuniy holatiga qarab turli xulosalar chiqarishi mumkin. Profilaktika inspektorlarida muloqotga kirishish jinoyat sodir bo_lgan vaqtdan boshlanadi.

Har bir muloqotdan bir nechta maqsad ko_zlanadi:

- faktlarni va shaxsning bu faktlarga munosabatini aniqlash;
- tarbiyaviy maqsad, ya'ni qonun ustuvorligini ta'minlash;
- ziddiyatli holatlarda muloqot o_rnatish, bunda ikkala tomonning fikri bir joydan chiqmasligi natijasida muloqot, yuzaki, rasmiy bo_lib qolishining oldini olish.

Profilaktika inspektori faoliyatida muloqot jarayoni qanday mazmun-mohiyatga ega. O_zga inson bilan ilk bor tanishida qo_llaniladigan kerakli so_zlarni tanlab olish katta ahamiyatga ega. Profilaktika inspektori faoliya-

tida shaxslarni to'g'ridan to'g'rimuloqotga chaqirish psixologik noqulaylik holatini keltirib chiqaradi va birinchi taassurot omilining susayishi va salbiy bo'lishiga olib keladi.

Demak, tanishish uchun ishlatiladigan dastlabki sozlarqanchalik tabiiy va tushunarli bo'lsa, muloqot shunchalik tez o'tatiladi va oson rivojlanadi. Buning uchun xodim sof ko'ngil, o'ta sezgir bo'lishi lozim. Qiziqtirayotgan shaxs bilan psixologik aloqa o'tatishda birinchi navbatda xodim, avval o'zi haqida ijobiy taassurot qoldirishi lozim. Bunda:

- uning tashqi qiyofasi;
- ekspressiv reaksiyalari (mimikasi, harakatlari, yurish-turishi va hokazo);
- ovoz ohangi, nutqi yuqori darajada bo'lishi lozim.

O'zaro yoqtirish jihatlari ijobiy munosabatlar orqali vujudga keladi. Shuning uchun, xodim psixologik aloqani o'tatish va rivojlantirish paytida obyekt tomonidan o'ziga tegishli yoqish hissiyatini uyg'otishi lozim.

Xodimlarning fuqarolar bilan muomala madaniyati. Xodimlar xizmat jarayonida va xizmatdan tashqari paytda sozlashish odobiga, muomala madaniyatiga alohida e'tibor qaratishlari lozim. Har bir sozni o'z o'rnida qo'llash, fuqarolar bilan xushmuomalada bo'lish insonning mavqeiini yuksaltiradi, uning jamoadagi va jamiyatdagi o'rnini hamda obro'sini belgilab beradi.

Xodim fuqarolar bilan samimiy munosabatda bo'lishi, ularning murojaatini diqqat bilan eshitishi, vakolati doirasida ko'rib chiqishi va masalasi-ni hal qilishga intilishi zarur. Shu bilan birga Fuqarolar tomonidan sodir etilgan huquqbuzarliklarning qonunga zidligini tushuntirishi hamda zarur hollarda qonunda belgilangan chorani qo'llashi lozim.

Ichki ishlar idoralari xodimlari el-yurt osoyishtaligi posboni sifatida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar bilan muloqotga kirishishda qaddi-qomatini tik tutgan holda, ochiq chehra bilan ularning bergan savollariga aniq va lo'nda javob berishga intiladi. Ularni qabul qilganda tarjimon taklif etadi.

Xodim kasb madaniyati talablaridan kelib chiqqan holda fuqarolar bilan suhbatlashishidan oldin o'zini tanishtirishi, xizmat guvohnomasini ko'rsatish talab etilgan hollarda o'sha zahoti talabi qondirilishi darkor. Suhbat davomida xodim tamaki mahsulotlarini chekishi, biror narsani iste'mol qilishi yoki ularga nisbatan hurmatsizlik deb qabul qilinishi mumkin bo'lgan boshqa nojo'ya xatti-harakatlarni sodir etmaydi.

Xodim ichki ishlar bo'limiga olib kelingan, ushlangan va qamoqqa olinganlarning qonuniy huquq va manfaatlarini, shaxsiyatini poymol qilmaydi. O'z navbatida, ularga tibbiy va huquqiy yordam beradi, ularning

ushlanganliklari haqida yaqin qarindoshlari yoki ish joyiga o_{matilgan} tartibda xabar beradi.

Ichki ishlar organlari xodimlari gumon qilinuvchi shaxslar, ayblanuvchi yoki sudlanuvchilar bilan muloqotga kirishayotganda doimo hushyorlikni yo_{qotmasdan}, o_{zini og_{ir}}; vazmin tutib, har qanday kutilmagan harakatga qarshi tayyor turishi lozim.

Huquqbuzar taqdim etgan hujjatlarni ehtiyotkorlik bilan ko_{zdan} kechiradi, ularga nisbatan hurmatsiz munosabatda bo_{lmaydi}. Hujjatlarni tekshirayotganda uning ichida ishga taalluqliligi bo_{lmagan} buyumlar (pul, yozuvli qog_{oz} parchasi, tashrif qog_{ozi} va hokazo) bo_{lsa}, ularni egasiga qaytaradi. Huquqbuzarga nisbatan nojo_{ya} xatti-harakatlar qilmaydi.

Ichki ishlar organlari xodimi aholi bilan aloqani mustahkamlab, takomillashtirib boradi. Ichki ishlar organlari xodimi degan yuksak nomni yodda saqlagan holda, xizmat vazifasiga doir ish yurituvi davomida hamda insoniylik burchini bajarish vaqtida fuqarolardan turli ko_{inishdagi} hadya va sovg_{alami} olmaydi va xizmat aytmaydi.

Spirтли ichimlik ichgan, giyohvandlik vositasi yoki psixotrop moddalar iste_{mol} qilgan shaxslar bilan muloqotga kirishganda, ular o_{zlarini to_{g_{ri}}} tutsalar ham shaxsiy xavfsizlikni ta_{min}lagan holda ehtiyotkor bo_{lishi} xamda tegishli qonuniy choralar ko_{rilishini} ta_{min}lashi zarur.

Xodim jamoat transportida va boshqa jamoat joylarda yo_{lovchilar} bilan xushmuomalada bo_{lib}, keksalarga, ayollarga joy berishi, yoshlarni yoshi kattalarga joy berishga undashi, jamoat transporti yoki bekatda huquqbuzarlik sodir etilsa, darhol uni bartaraf etish uchun zarur choralar ko_{rishi}, jabrlanuvchiga yordam berishi hamda jamoat tartibi saqlanishini ta_{min}lashni xizmat va fuqarolik burchi deb hisoblashi shart.

So_{nggi} yillarda olib borilgan psixologik tadqiqotlarda muloqotga kirishuvchi shaxslar o_{rtasidagi} oraliqning kommunikativ ahamiyati va muloqot samaradorligi sheriklar joylashuviga bog_{liqligi} masalasiga e_{tibor} berilmoqda. Muloqotga kirishuvchilar o_{rtasidagi} masofalarning to_{rt} turi farqlanadi:

- intim (0–0,5 m);
- shaxsiy (0,5–1,5 m);
- ijtimoiy (1,5–3 m);
- ommaviy (3 metrdan ortiq).

Xodim masofani o_{zgartirish} orqali gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, guvohga qo_{shimcha} ta_{sir} ko_{rsatishga} erishishi mumkin, chunki bu bilan sheriklar o_{rtasidagi} munosabatlar xususiyati o_{zgaradi}¹.

¹Qarang: *Асямов С.В. Пулатов Ю.С. Ички ишлар идоралари ходимларининг касбий-психологик тренинги. – Т., 2002. – Б. 76.*

Profilaktika inspektorining nutq odobi qoidalari. Profilaktika inspektorining nutqi, og_zaki yoki yozma bo_lishidan qat'i nazar, quyidagi qoidalarga mos kelishi kerak:

birinchidan, nutq mazmunli bo_lishi, notiqning fikr yuritayotgan mavzuni har tomonlama chuqur bilishidan darak berib turishi;

ikkinchidan, adabiy va grammatik jihatdan to_g_rj har qanday shevachilikdan xoli bo_lishi;

uchinchidan, aniq, ravshan, qisqa va tushunarli ifodalanishi;

to_rtinchidan, mantiqiy izchil, sof, keraksiz so_z va iboralardan holi bo_lishi;

beshinchidan, ifodali, ta'sirchan, yorqin, tinglovchida qiziqish uyg_otadigan bo_lishi;

oltinchidan, aniq, sodda, go_zal bo_lgan holda nutq mavzuiga mos tushishi;

yettinchidan, suhbatdoshining ruhiy-ma'naviy holati, yoshi, kasbi-kori, jinsini hamda mavjud vaziyatni, davlat tomonidan yuritilayotgan ichki va tashqi siyosatni inobatga olishi kerak.

Yozma nutq - ilmiy, rasmiy, publitsistik va qisman badiiy uslublar orqali ifodalanadi.

Yozma nutq ichki ishlar organlari xodimlari faoliyatining tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Oddiy bildirgi yozishdan murakkab jinoiy ishlarni olib borishgacha bajariladigan ishlarni yozma nutqsiz tasavvur etish qiyin. Donolar, odatda, «yozuvingni ko_rsat, men sening kimligingni aytib bera-man» deyдилar. Demak, yozuv odamning fe'lini ko_rsatuvchi belgilardan biri ekan. Shuning uchun ham ichki ishlar organlarining profilaktika xodimlari, eng avvalo, yozma nutq turlari va qoidalarini puxta egallagan bo_lishlari lozim.

Ilmiy uslub. Ilmiy uslub deb, jamiyat taraqqiyoti talablaridan kelib chiqqan holda fikrlarni o_zbek tilining barcha morfologik va sintaksik qoidalari asosida, ilmiy-hujjat shaklida, ilmiy-texnikaviy, ilmiy-ommaviy, o_qw-ilmiy, publitsistik tarzda ifoda etishga aytiladi.

Ilmiy uslub o_zining quyidagi xususiyatlari bilan yozma nutqning boshqa shakllaridan farq qiladi:

- 1) bayon qilinayotgan axborotning obyektivligi, aniqligi;
- 2) bayon qilinayotgan fikrning qisqa va lo_ndaligi;
- 3) mantiqiy izchillikning kuchliligi;
- 4) ma'lumotlarga boyligi;
- 5) adabiy til qoidalariga qat'iy rioya etilishi, shevachilikning yo_qligi;
- 6) fikrni bayon etishda ko_gazmali qurollar, ya'ni har xil chizma, rasm va jadvallarning ishlatilishi.

Ilmiy uslub asosan maqola, monografiya, ilmiy ma'ruza, ilmiy axborot, risola shaklidagi asarlarda qo'llaniladi.

Rasmiy uslub. Bu uslub hozirgi kunda ma'muriy va yuridik ishlarda keng qo'llaniladigan yozma nutq shakllariga kiradi. Barcha qonunlarning matnlari, farmonlar, buyruq va qo'llanmalar, yo'riqnomalar, ijozatnomalar, bildirgilar, bayonnomalar, tushuntirish xatlari, dalolatnomalar, shartnomalar, sudlardagi chiqishlar, xullas, ichki ishlar organlarida olib boriladigan va yuritiladigan barcha hujjatlar rasmiy uslubda yoziladi.

Rasmiy uslub qoidalari quyidagilardan iborat:

- 1) so'z tartibi grammatika qoidalariga to'liq asoslangan bo'lishi kerak;
- 2) fikr sodda, aniq va qisqa ifodalanishi kerak;
- 3) fikr kasbga doir terminlar asosida bayon qilinishi zarur;
- 4) jargonlar, og'zaki so'zlashuv uslubiga xos so'zlar ishlatilmasligi kerak;
- 5) eskirgan so'zlar va iboralarni iloji boricha ishlatmaslik yoki o'ziga qarab ishlatish lozim.

Rasmiy uslubda yozilgan hujjatlar ichki ishlar organlari xodimlarining, qolaversa, butun vazirlikning madaniyatlilik darajasini, professional yetukligini, zamon, xalq bilan hamnafas ekanligini ifodalovchi ko'rsatkich hisoblanadi.

Muloqot maqsadidan kelib chiqqan holda u har xil tugashi, ya'ni keskin, agressiv holatda yoki muloqotni qayta davom ettirish yoxud butunlay muloqotga qaytmaslik ham mumkin.

Odamlar bir-biri bilan muomalaga kirishar ekan, ularning asosiy ko'zlagan maqsadlaridan biri – o'zaro bir-biriga ta'sir ko'rsatish, ya'ni fikr – g'oyalariga ko'ndirish, harakatga chorlash, ustanovkalarni o'zgartirish va yaxshi taassurot qoldirishdir. Psixologik ta'sir – bu turli vositalar yordamida insonlarning fikrlari, hissiyotlari va xatti-harakatlariga ta'sir ko'rsata olishdir.

Muloqot jarayonidagi e'tiborli holat shundaki, suhbatdoshlar bir-birlariga ta'sir ko'rsatmoqchi bo'lganda, dastavval nima deyish, qanday so'zlar vositasida ta'sir etishni o'ylar ekan. Aslida esa, o'ziga so'zlar va ular atrofidagi harakatlar bunda muhim rol o'ynaydi. Masalan, mashhur amerikalik olim Megrabyan formulasiga ko'ra, birinchi marta ko'rishib turgan suhbatdoshlardagi taassurotlarning ijobiy bo'lishiga gapirgan gaplari 7%, paralingvistik omillar 38%, va noverbal harakatlar 58% gacha ta'sir qilarkan. Keyinchalik bu munosabat o'zgarishi mumkin albatta, lekin xalq ichida yurgan bir maqol to'g'ri «Ust-boshga qarab kutib olishadi, aqliga qarab kuzatishadi».

Kommunikativ ta'sir etish usullari bu – muloqot, shuningdek, individlarning bir-biriga kommunikativ ta'sirining muayyan usullarini ham o'z ichiga oladi. *Ta'sir etish usullarining* quyidagi turlari farqlanadi:

Yuqumlilik – ta'sir ko'rsatishning kishilar ommasini muayyan tarzda, ayniqsa ommaviy tartibsizliklar, diniy jazavalar, ommaviy psixozlar bilan bog'liq ravishda integratsiya qiluvchi maxsus usuli.

Umumiy tarzda yuqumlilikni individning ongsiz, ixtiyorsiz ravishda muayyan ruhiy holatlarga tushishga moyilligi sifatida ta'riflash mumkin. U muayyan hissiy holatning bировga o'tkazilishida namoyon bo'ladi.

Yuqumlilikning psixologik mexanizmlarini inobatga olish ichki ishlar organlari xodimlari uchun ommaviy tartibsizliklar oqibatlarini bartaraf etish, ommaviy madaniy-tomoshabop va sport tadbirlarini o'tkazish davrida jamoat tartibini ta'minlashda muhimdir.

Ishontirish – isbotsiz tasdiqlanadigan yoki inkor etiladigan xabarlarni tanqidiy qarashsiz qabul qilishga qaratilgan kommunikativ ta'sir ko'rsatish usuli. Ushbu psixologik hodisa haqidagi bilimlar rivojining hozirgi bosqichida «ishontirish mantiqiy isbotsiz shakllangan ishonchga tayanadi va individidan individga, jamoadan shaxsga beriladi yoki aksincha, aniqroq aytganda, avtomatik tarqaladi», degan qoidaga asoslanadi. Inson ishontirish ta'siriga ixtiyorsiz tushib, o'zi anglamagan holda harakat qila boshlaydi. Ichki ishlar organlari xodimlari ta'sir etishning ushbu usulidan juda ehtiyot bo'lib foydalanishlari kerak, ba'zan (masalan, tergov harakatlarini o'tkazish chog'ida) undan foydalanish qonun bilan taqiqlanadi.

Kimnidir nimagadir ishontirish – ishontirilayotgan shaxs mantiqiy mulohazalar va xulosa chiqarishlar natijasida muayyan nuqtai nazarga qo'shiladigan va uni himoya qilishga yoki unga muvofiq harakat qilishga tayyor bo'ladigan holatga erishishni bildiradi.

Ishontirish profilaktika inspektorlarining fuqarolarga ko'rsatadigan asosiy ta'sir usuli bo'lishi kerak. Undan foydalanishning samarali quyidagilarga bog'liq

- ta'sir ko'rsatuvchi shaxsning shaxsiy ishonchi;
- uning tayyorgarligi va bilimi;
- xabar berilayotgan faktlar, hodisalar, harakatlarning to'g'rligi, aniqligi va ishonchliligi;
- foydalanilayotgan faktlarning xarakterli, tipik bo'lishi;
- odamlarni o'ziga nisbatan moyil qilish, ularning ishonchini qozonish;
- ta'sir ko'rsatuvchi shaxsning talabchanligi, uning vazminligi va odobi.

E'tiqod mavjud qarashlar, mayllar, nuqtai nazarlar, munosabat va baholarni o'zgartirish maqsadida u yoki bu qoida, qarash, qilmishning

to_g_riligin yoki ularga yo_lqo_yib bo_lmasligini muloqot, tushuntirish va isbotlash orqali odamlarning ongi, his-tuyg_ulari va irodasiga ta'sir ko_rsatish bo_lib kommunikativ ta'sir ko_rsatishning eng universal usulidir. E'tiqod mexanizmi inson aqliy faoliyatini jadallashtirishga, uning maqsadga erishish yo_llari va vositalarini ongli ravishda tanlashiga asoslangan.

Taqlid qilish ongli yoki ongsiz ravishda namunadan nusxa olishdir. U guruh, jamoani tashkil etuvchi odamlarning xatti-harakatiga xos bir xil usullarni ishlab chiqish imkonini beradi.

Muloqot jarayonida psixologik-pedagogik ta'sir etish prinsiplari:

– ta'sir etish shaxsning aniq o_ziga xos sifatlarini hisobga olgan holda amalga oshirilishi kerak.

– psixologik ta'sir etish uchun inson psixikasining umumiy qonuniyatlarini va rivojlanish darajasini bilish lozim;

– ta'sir etish jarayoni, uning elementlari, oqibatlarini oldindan rejalashtirish va bashorat qilish taqozo etiladi;

– shaxs tomonidan uning ijobiy ta'sirlanishini rag_batlantirib borishi kerak;

– ta'sir etish inson huquqlarini poymol etmasligi kerak;

– shaxsga ta'sir etish rejalashtirilganida barcha xatti-harakatlari tizimi aniqlanishi va hisobga olinishi darkor;

– ta'sir etish jarayonida tashqi ta'sir etuvchi omillarni hisobga olish zarur;

– ta'sir etish shaxsning hissiy holatini hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

Muloqot jarayonida ishtirokchilar bir-birini o_zaro tushunishi kerak. Bunda muloqotga kirishgan tomonning sizni qanday qabul qilayotgani katta ahamiyatga ega.

Shaxslararo idrok etish qonuniyatlari, effektlarni inobatga olish ichki ishlar organlari xodimlari faoliyatida, ayniqsa, shohidlar, guvohlar, jabrlanuvchilarning ko_rsatuvlarini, shuningdek, o_zidroklarini baholash chog_ida katta ahamiyat kasb etadi.

Shaxslararo idrok effektlaridan biri – boshqa shaxs haqidagi umumiy tasavvurning uning shaxsiga xos xislatlarni idrok etish va baholash ta'sirida namoyon bo_ladigan «*Oreol effekti*»dir. Agar umumiy tasavvur yaxshi bo_lsa, uning ijobiy xislatlari ortiqcha baholanadi, salbiy xislatlari esa sezilmaydi yoki aksincha. Ushbu effekt ta'sirida, masalan, ichki ishlar organi xodimi «ashaddiy» huquqbuzarning tuzalish tomon tashlagan dastlabki qadamlarini ko_rishi mumkin va, tabiiyki, uni bu ishda qo_llab-quvvatlay boshlaydi.

«*Izchillik effekti*» ma'lumotlar ziddiyatli bo'lgan taqdirda inson qiyofasi va u to'g'ridagi tasavvurni shakllantirishga birinchi navbatda kelib tushgan ma'lumotlar ko'proq ta'sir ko'rsatishida namoyon bo'ladi. Agar bu tanish odamga daxldor bo'lsa, aksincha, ya'ni kamroq ta'sir ko'rsatadi.

«*Stereotiplashtirish effekti*» idrok etilayotgan kishini muayyan ijtimoiy guruhga xos xislatlarini unga ham xos deb baholashda namoyon bo'ladi. Har bir kishida muayyan ijtimoiy stereotiplar – o'qituvchi, harbiy, jinoyatchi kabi guruhlarning stereotiplari mavjud. Muayyan guruh vakiliga duch kelganda, biz oldindan ushbu guruh kishilariga xos muayyan xislatlarni unga ham xos deb qabul qilamiz. Ko'pincha, bunday stereotipdan xalos bo'lish juda qiyin kechadi.

Ijtimoiy idrok etish effektlari *ijtimoiy mayl* (ustanovka) bilan chambarchas bog'liq bo'lib, uning paydo bo'lishiga olib keladi. Ijtimoiy mayl o'zi insonning boshqa odamni idrok etishga ichidan tayyor bo'lishi sifatida ta'riflanishi mumkin. Notanish kishi haqida taassurotning shakllanishida maylning ahamiyati ayniqsa, katta. Fanda A.A. Bodalevning ijtimoiy maylning ahamiyatini ochib bergan tadqiqotlari yaxshi ma'lum.

Tadqiqotlardan birida ikki guruh odamlarga ayni bir kishining surati ko'rsatilgan. Ammo suratni ko'rsatishdan avval birinchi guruhga suratdagi kishining ashaddiy jinoyatchi, ikkinchi guruhga esa qahramon ekanligi aytilgan. Shundan so'ng har bir guruhga fotosuratdagi kishini so'z bilan tasvirlab berish taklif etilgan. Birinchi guruh uni quyidagicha tavsiflagan: chuqur ko'z dari yashirin yovuzligidan, bo'rtib chiqqan engagi jinoyatda «oxirigacha borishga» qaror qilganligidan darak beradi va hokazo. Ikkinchi guruhda aynan o'sha chuqur joylashgan ko'z lartafakkurning teranligidan, turtib chiqqan engak esa qiyinchiliklarni yengishdagi iroda kuchidan darak beradi, deb baholangan. Ichki ishlar organlari xodimlari o'z faoliyatida shaxslararo idrok etish xususiyatlarini inobatga olishlari, ijtimoiy idrok effektlarining salbiy ta'sirlarini yo'q qilishga, o'zida va tergov qilina-yotgan voqeaga daxldor shaxslarda ijtimoiy maylning paydo bo'lishiga yo'l qo'ymasliklari juda muhim. Masalan, tergovchi tanib oluvchini tanib olishga tayyorlash chog'ida «Hozir sizni tunagan jinoyatchini tanib olishingiz kerak» kabi iboralardan qochishi lozim. Bunday iboralar jinoyat-chida idrok etishga mayllikni yuzaga keltiradi, agar tanib olinayotgan shaxsning qiyofasi «jinoyatchi» stereotipiga mos kelmasa, bu tanib olish natijalarining noto'g'richiqishiga olib kelishi mumkin. Bunday hollarda «Hozir siz ko'rsatilgan shaxslar orasida sizning pul solingan hamyoningizni tortib olgan odamni tanib olishingiz kerak» kabi neytral iboralardan foydalanish kerak. Bu maylning salbiy ta'siri imkoniyatini kamaytiradi.

Ichki ishlar organlari tomonidan umumiy profilaktika ishlarini tashkil etilishiga ham alohida e'tibor qaratilgan. Ushbu faoliyat yo'nalishini

amalga oshirishda jamoatchilik, ommaviy axborot vositalari bilan o'zaro hamkorlik yo'lga qo'yilgan. Aynan shu hamkorlikni tashkil etish huquq-buzarliklarning oldini olish xizmati va profilaktika inspektorlari vakolatlari doirasiga kiradi. Profilaktika inspektori o'z faoliyatini tashkil etishda mahalla faollariga tayanadi.

Muloqot avvalo profilaktika inspektorining faoliyatida yetakchi o'rinini egallaydi. Muloqotning verbal va noverbal vosita turlari, jihatlari, ijtimoiy idrokning omillari shaxslararo munosabatlarda hamma vaqt ishtirok etadi. Keltirib o'tilgan fikrlarni inobatga olgan holda quyidagicha xulosa chiqarish mumkin:

Ichki ishlar organlari xodimlari xar xil shaxslar bilan yaxshi muloqot qilishlari uchun ularning individual psixologik xususiyatlarini bilishlari lozim.

Muloqot vositalarini to'g'ri qo'llash ichki ishlar idoralari xodimlari faoliyati samaradorligini yanada oshiradi.

Aholi bilan muloqot chog'idatabiiyki, ular faoliyatining samaradorligi odamlar bilan muloqotga kirishish, psixologik aloqa o'rnatish qobiliyatiga bog'liq Kommunikativ xususiyatlar ichki ishlar organlari xodimlari kasb mahoratining muhim tarkibiy qismidir. Prezidentimiz te'kidlaganidek: «ma'lumki, o'zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o'rtasidagi ruhiy-ma'naviy bog'liqlik til orqali namoyon bo'ladi. Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili – bu millatning ruhi» deb o'zbek tiliga yuksak ta'rif berganlar.

Shu sababli, ichki ishlar organlarida o'z xizmat burchlarini fidokorona bajarayotgan barchi xodimlar avvalo o'ziga ona tili, kasbiy muloqotning o'ziga xos tomonlarini doimo takomillashtirib borishlari shart.

Savol va topshiriqlar

1. Kasbiy muomala profilaktika inspektori faoliyatida qanday ahamiyatga ega?
2. Muloqot turlarini sanab bering.
3. Muloqotning psixologik vazifalari nimalardan iborat?
4. Muloqot jarayonida qanday psixologik to'siqlar vujudga kelishi mumkin?
5. Psixologik aloqa o'rnatish haqida sozlab bering.
6. Profilaktika inspektori profilaktik hisobda turgan shaxslar bilan muloqotga kirishganda qanday psixologik bilimlardan foydalanadi?

IV bob. PROFAYLING XIZMATI – INSON XULQ-ATVORI VA XATTI-HARAKATINI PSIXOLOGIK BAHOLASH USULI

1-§. Profayling metodi tushunchasi va mohiyati

Psixologiya fani ijtimoiy fanlar tizimida nisbatan navqiron, lekin juda tez rivojlanib borayotgan istiqbolli fanlardan biridir. Bu fanning rivojlanishiga avvalo ijtimoiy hayot va amaliyotning oʻsib borayotgan ehtiyojlari, yaʼni jamiyatda boʻlayotgan ijtimoiy hodisalarning sotsial-psixologik jihatdan oʻrganib, tushuntirib berish zarurati turtki boʻlmoqda. Profayling metodi hozirgi kunda psixologiya sohasining yangi rivojlanib kelayotgan qiziqarli hamda amaliy ahamiyatga ega boʻlgan tarmogʻidan biridir. Uni muammo sifatida nafaqat ijtimoiy psixologiya fani, shuningdek falsafa, pedagogika, mantiq, huquqiy va etika fanlari tizimida ham oʻrganiladi.

Profilaktika inspektorlari xizmat faoliyati davomidagi munosabatlar tizimi etnopsixologik xususiyatlarga bogʻliq xolda shakllanib boradi. Oʻzbek xalqining tarixiy shakllangan anʼanalari, muayyan urf-odatlar, maʼlum udumlari, shaxslararo munosabati, muloqot maromi va fikrlash xususiyati boshqa xalqlarnikidan sezilarli darajada farq qiladi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti ichki ishlar organlari xodimlarining kasb bayrami munosabati bilan yoʻllagan tabrigida «Ayni paytda militsiya xodimlarining aholi hamda fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish idoralari bilan yaqin hamkorligi yanada mustahkamlandi, ularning safarbarligi va sodir etilayotgan jinoyatlarga qarshi tezkor kurash olib borish imkoniyatlari oshib bormoqda» degan edi¹. Bu, oʻz navbatida, har bir xodimning faoliyati davomida va aholi bilan muloqot qilish jarayonida xushmuomalali boʻlishga undaydi.

Ichki ishlar organlari xodimlari profayling xizmatini oʻz faoliyatiga tatbiq etishda oʻzbek xalqining milliy xarakteri, fazilatlarining oʻziga xos xususiyatlarini inobatga olishi lozim. Milliy xarakter oʻz ichiga irodaviy sifatlarni (mustaqillik, chidamlilik, prinsipiiallik, oʻzini tuta bilish, bardoshlilik, qatʼiylik, matonatlilik singari) va axloqiy xislatlarni (madaniyatlilik, xushmuomalalik, poklik, intizomlilik, samimiylik, haqqoniylik, insonparvarlik va boshqalarni) qamrab oladi.

Profayling metodi har bir profilaktika inspektori faoliyatida muhim oʻrin egallaydi. Shuning uchun ham ushbu metodning psixologik qonuniyatlari va mexanizmlari faoliyat jarayonida ishtirok etadi. Bu metod

¹ Каримов И.А. Ўзбекистон Республикаси ички ишлар идоралари ходимларига байрам табриги // Халқ сўзи. – 2014. – 25 окт.

yordamida xodim psixologiya qonuniyatlariga tayangan holda shaxslararo munosabatga kirishadi. Profayling jarayonida xodimning har qaysi bilish sifatlari (xotira, diqqat, idrok, sezgi, tafakkur, xayol) ishtirok etadi. Bu jarayonlar xodimning mantiqiy fikrlashiga, holatni oʻtmishdagi vaziyat bilan bogʻlashiga, oʻzaro solishtirish va qiyoslash malakasi, obykti va sharoitini mukammal tarzda idrok etishiga yordam beradi.

«Profayling» inglizcha «profile» – profil, qiyofa maʼnosini anglatadi.

Profayling – bu shaxsning noverbal xatti-harakatlari va oʻziga xos xususiyatlarini baholash orqali uning harakatlarini haqqoniy baholash, bashorat qilish metodikasi hisoblanadi.

Agar profayling metodini fuqarolar bilan suhbatlashish, ularning ruhiy holatini kuzatish sifatida taʼriflanadigan boʻlsa, bu metod ikki bir-birini toʻldiruvchi metoddan, yaʼni ruhiy kuzatish metodi va soʻrov (suhbat) metodidan tashkil topgan boʻlib, *shaxs psixodiagnostikasining turi* hisoblanadi. Bu usuldan ichki ishlar organlari faoliyatining koʻplab yoʻnalishlarida, jumladan aholi koʻp toʻplanadigan jamoat joylarida, qoʻriqlanadigan oʻta muhim obʼyektlarda, jamoat transportining amaldagi barcha turlarida xavfsizlikni taʼminlashda foydalanish katta ahamiyat kasb etadi.

Profayling yoki *profayl metodi* – shaxslarni psixologik baholash, kuzatish, ularning xulqidagi oʻzgarishlarni tashqi ifoda va xatti-harakatlar asosida tahlil qilish kabi bir necha psixologik usullardan foydalangan holda oldindan bashorat qilish imkonini beradigan shaxs profilini yaratish usulidir.

Hozirgi kunda shaxslarning profilini yaratish asosida koʻplab zoʻravonlik, koʻp takrorlanadigan qotillik jinoyatlarini ochishda keng foydalaniladi.

Psixolog olimlar P. Ekman, V. Frizen, M. Sukerman va B.De Paulolar profayl metodi asoschilari hisoblanadi.

Profayling usuli profilaktika inspektorlariga fuqarolar bilan muloqotga kirishgan shaxs haqida maʼlumot olish, xavfni oldindan bashorat qilish imkoniyatini beradi.

Shuningdek, profayling usulini profilaktika inspektorlari faoliyatida joriy etilishi kasbiy kuzatuvchanlik, atrof-muhitni tahlil qilish, kishilarning xulqi, shubha uygʻotuvchi alomatlarini aniqlash, xizmat vaqtida fuqarolar bilan yuzaga keladigan muammolarni hal qilishda samarali hisoblanadi.

Profayling bilan shugʻullanuvchi shaxslarni odatda *profaylerlar* deb yuritiladi. Profaylarning oʻrganish obykti sifatida quyidagilarni eʼtirof etish mumkin:

- mimika;
- jestlar;

- xatti-harakatlarning o_ziga xos xususiyatlari;
- nutqning psixolingvistik qonuniyatlari;
- verbal muloqotning paralingvistik alomatlari va boshqalar.

Har qanday axborot faqat belgilar, aniqrog_i, belgilar tizimi orqali beriladi. Kommunikativ jarayonda foydalaniladigan bir qancha belgilar tizimi mavjud bo_lib, ularga mos tarzda muloqot jarayonida foydalaniladigan vositalarni tasniflash mumkin. Nutqli (*belgilar tizimi sifatida nutqdan foydalaniladi*) va nutqsiz (*turli nutqsiz belgilar tizimidan foydalaniladi*) muloqot vositalari farqlanadi.

Muloqotning verbal va noverbal vositalarining tavsifi. Muloqotning psixologik vositalari ikkiga: *verbal (nutq orqali)* va *noverbal (nutqsiz)* shakllarga bo_linadi va quyidagilarni o_zichiga qamrab oladi:

- og_zaki nutq;
- imo-ishora;
- yozma nutq;
- mimika;
- pantomimika.

Nutqiy muloqot – eng universal aloqa vositasi hisoblanadi. Zero, nutq orqali axborotning mazmuni deyarli to_liq beriladi. Verbal muloqot orqali shaxs o_zining fikr-mulohazalarini bemalol bayon eta oladi.

Profilaktika inspektori faoliyatida muloqotning nutqiy vositalaridan foydalanish o_ta muhim o_rin tutadi. Xodim xizmat faoliyatining samaradorligi ko_p jihatdan bevosita muloqot jarayonida yoki turli xil hujjatlarni tuzishda o_z fikrlarini to_g_ri ifodalash, ularni to_g_ri bayon etishiga bog_liq. Nutq muloqotning universal vositasi bo_lsa-da, u faqat faoliyat tizimiga aloqador bo_lgan sharoitdagina ahamiyatga ega bo_ladi, faoliyatga daxldorlik esa muloqotning boshqa – nutqsiz vositalarini qo_llash bilan to_ldiriladi.

Ushbu vositalarning birinchi guruhiga imo-ishora va mimika kiradi. *Mimika* – yuzning muloqot paytidagi dinamik ifodasi. *Jest (imo-ishora)* – jamiyatda ishlab chiqilgan va ruhiy holatni ifodalaydigan harakat. Ularga qarab, biz insonning biror-bir voqeaga, shaxsga, narsaga munosabati haqida xulosa qilamiz. Imo-ishora odamning istaklari, uning ahvolidan darak berishi mumkin.

Imo-ishoralalar ijtimoiy shakllangan harakatlar bo_lib, shaxsning psixik holatini ko_rsatadi. Ular asosida insonni u yoki bu hodisa, shaxs, predmetga bo_lgan munosabatini aniqlash mumkin. Insonning imo-ishoralari asosida uning holatini tushunib olish mumkin.

Inson gavdasining mimika, imo-ishora, intonatsiyalar vositasida uning psixik holatini, ayniqsa, his-tuyg_ularini ifodalovchi harakatlarga *pantomimika* deyiladi.

Muloqotning nutqsiz vositasiga kiruvchi boshqa guruhini vokallash-tirish tizimi, ya'ni ovoz sifati, uning diapazoni, ohangi va boshqalar tashkil etadi. Ushbu qo'shimchalarning barchasi axborotning ahamiyatini oshiradi va o'ziga xos nutqqa «qo'shimcha» vazifasini bajaradi.

Profayling konsepsiyasi aynan insonlarning profil ko'rinishi va ular xulq-atvorining tuzilishiga qaratilgan va uni o'rganishga yo'naltirilgan tadqiqot sohasidir. Profayling metodining metodologik asosi bo'lib, aynan insonlarning noodatiy harakatlari, tashqi ko'rinishidagi ba'zi belgilari, o'zlarini tutishlari, gapirish ohangi, sur'ati va boshqa xabar beruvchi a'zolarining o'ziga xos xislatlari hisoblanadi. Masalan, biror-bir qo'p'rovchilik harakatlarini amalga oshirmoqchi bo'lgan terrorchi shaxsni aniqlashda profayling metodining afzalliklari shundan iboratki, u orqali terrorchining yuz profili, umumiy va xususiy xarakterlari, hujjatlari, olib o'tayotgan buyumlarini o'rganish hamda tahlil qilish orqali shaxsni xavfli yoki xavf tug'dimaydigan inson sifatida baholash mumkin.

Profayling iborasi ilk bor 1980 yillarda Amerika Qo'shma Shtatlarida ishlatila boshlandi. Ushbu sohada ish olib borgan mutaxassislardan birinchilar qatori Djon Duglas, Robert Resslerlar hisoblanadi. Ular boshchiligida aynan 1984 yil Federal qidiruv byurosi (FBI) Akademiyasi qoshida tajovuzkorlik jinoyatlarini o'rganish markazi tashkil etilgan. Ushbu markazda asosan o'rta va og'ir jinoyatlarni tahlil qilish, ularni o'rganish, jinoyatchilarni psixologik portretini yaratish bo'yicha ilk izlanishlar olib borilgan. Profaylerlarning xizmatlari yordamida bir qancha og'ir hamda vahshiyona qotilliklar fosh etilgan. Unda asosan jinoyatchining xulq-atvorini o'rganish, psixologik portretini yaratish, o'ziga xos psixologik xususiyatlarini tahlil qilish, jinoyat sodir etish motivlarini o'rganish hamda kelgusidagi harakatlarini bashorat qilish orqali bu yutuqlarga erishdilar.

Profayling yo'nalishi bu insonlarning tashqi qiyofasiga, xulq-atvoriga qarab tahliliy bashorat qilishning kompleksli metodi hamdir. Bu metod XX asrning 70-yillarida Isroil aviakompaniyalarining xavfsizligini ta'minlash maqsadida havo transporti polisiyasi tomonidan tavsiya etilgan usul bo'lib, bugungi kunga qadar keng tarqalgan va o'z samarasiga ega. Yevropaning bir qancha davlatlarida bu metod keng qo'llanilib kelmoqda.

Sobiq ittifoqning maxsus xizmat xodimlari tomonidan ham profayling metodiga murojaat etish hollari kuzatilgan. Unda asosan, xodimlarning tayyorgarlik masalalariga ijodiy yondashishga erishilgan. Eng asosiy talab sifatida odamlar orasida yurganda ajralib qolmaslik, begona joyga tez moslashib keta olish, hududning o'ziga xos etnopsixologik xususiyatlarini tahlil qilish, o'zidagi aqliy hamda hissiy fazilatlarining joyning xususiyatidan kelib chiqqan holda moslashtirish o'rgatilgan.

Profaylingga asosiy e'tibor Rossiyada 2004-yil codir etilgan terrorchilik harakatidan keyin ayniqsa kuchaytirildi. Rossiya Federatsiyasi transport federal xizmati boshlig_ining tavsiyasiga binoan aviatsiya xavfsizlik xizmatiga profayling bo_yicha mutaxassislardan iborat guruh yuborildi. Bugungi kunda profayling xizmati Rossiya Federatsiyasining Pulkovo, Sheremetyevo, Domodedovo kabi aeroportlarida keng qo'llanilmoqda. Bu texnologiya AQSH, Finlyandiya, Fransiya, Buyuk Britaniya kabi Yevropaning bir qancha yirik davlatlari, shuningdek, Isroil davlatining transport xavfsizligi xizmatlarida xavfsizlikni ta'minlash maqsadida keng qo'llaniladi.

Bugungi kunda Rossiya Federatsiyasi politsiyasi tomonidan xodimlarni poligraf (yolg_on detektori) va profayling texnikasi bo_yicha o_qitish keng yo_lga qo_yilgan. Jumladan, Moskva shahrida joylashgan «Yolg_omi tadqiq etish xalqaro Akademiyasi»ning maxsus profayling maktabida amerikalik psixolog Pol Ekmaning yuz mushaklarini o_rganish uchun (emotsional kodirovka) FACS(Facial Action Condng System) va Em Facs atlas dasturi bo_yicha ta'lim beriladi. Bundan tashqari, Rostov na-Donu shahridagi Rostov aloqa yo_lari Davlat universitetida psixologik profayling laboratoriyasi joriy etilgan bo_lib, laboratoriya maxsus video va audio apparatura hamda poligraf moslamalari bilan jihozlangan.

Profaylerlar voqea joyini fotolavha orqali o_rganish, ekspertiza xulosalari va boshqa jinoyatlarga oid ma'lumotlar bilan ishlash, shuningdek, jinoyiy qilmish tafsilotlarini tahlil qilibgina qolmay, jinoyatchining harakatlanish tartibini o_rganish va psixologik portretini tuzish malakasiga ega bo_ladilar.

Hozir kunga kelib profayling metodi psixologiyaning O_zbekistonda endi o_rganilayotgan tarmog_i hisoblanadi. Bu sohada ilmiy izlanish olib borish talab etiladi. Ichki ishlar tizimida gumon qilinuvchi, guvoh, jabrlanuvchi va boshqa toifadagi shaxslar bilan so_roq olib borishda – tergovchi uchun, shubha uyg_otuvchi shaxslarni aniqlash, transportda xavfsizlikni ta'minlash, fuqarolar bilan psixologik aloqa o_rnatishda-profilaktika inspektorlari, jinoyat sodir etilgan joyni tahlil qilishda ekspert kriminalistlar, shubhali haydovchilarni aniqlashda yo_l harakati xavfsizligi xizmati xodimlari, mahkumlarni qayta tarbiyalash, ularga psixologik ta'sir o_tkazishda jazoni ijro etish muassasalari xodimlari va boshqa xizmat xodimlari uchun profayling metodi juda ham zarurdir.

2-§. Profayling xizmatining ichki ishlar organlari tizimida joriy etilishi va ahamiyati

Profayling metodi yuqorida ta'kidlaganimizdek, juda navqiron va zamonga qarab doimo moslashib, rivojlanib boradigan amaliy usullardan

biri hisoblanadi. Ushbu metodning amaliy ustunligi shundaki, bunda, avvalo profilaktika inspektorlari bevosita psixologik tayyorgarlik bosqichida insonning noverbal muloqot vositalari haqidagi bilimlarga ega bo_lish zarur. Har qanday muloqot doimo obyekt bilan subyektning bir-birga moslashish jarayonini qamrab oladi.

Inson xulqi va uning xatti-harakatlarini oldindan bashorat etish uchun alohida qobiliyatga ega bo_lish yoki ko_{pl}ab kitoblar o_qish shart emas, buning uchun inson, uning xatti-harakatlarini o_{rganish}ga qiziqish bo_{lsa} bo_ldi.

Profilaktika inspektorlari faoliyatida profayling usulidan foydalanishni o_{rganish}dan asosiy *maqsad* – bu turli toifadagi fuqarolar bilan profilaktik ishlarni tashkil etishda ularning o_{ziga} xos xususiyatlarini verbal va noverbal muloqot vositalaridan foydalangan holda aniqlash va unga qarab psixologik ta‘sir etish mexanizmini ishlab chiqishdan iborat. *Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi bilim va malakalarni egallash vazifasi belgilanadi:*

- vizual (ko_{rish} va kuzatish asosida) psixologik tashxis yordamida shaxslarning xatti-harakatlarini baholash texnologiyasi;

- huquqbuzarlik sodir etishga moyil shaxslarga ruhiy ta‘siri eta olish tajribasi;

- qaltis, kutilmagan vaziyatlarda hissiy xususiyatlarini boshqarish;

- jamoat joylarida shaxslarga ruhiy ta‘sir o_{tkazish} borasidagi tajribalarni takomillashtirish;

- jamiyatga zid qarashlari mavjud hamda huquqbuzarlik sodir etishga moyil bo_{lgan} shaxslarni og_{zaki} (so_{zda} ifodalangan) surati (portreti) va xulqidagi alohida belgilari asosida tanib olish;

- profilaktik hisob yuritilgan shaxslar bilan ishlash jarayonida ularni o_{rganish} va ular haqida atroflicha to_{liq} bilimga ega bo_lish;

- jamoat joylarida yoki ommaviy tadbirlar o_{tkaziladigan} joylardagi shubha uyg_{otuvchi} shaxslarning xatti-harakatlarini o_{rganish};

- jamiyatga zid hamda huquqbuzarlik harakatlarini sodir etishga moyil shaxslarning xatti-harakatlarini nazorat qilish;

- xizmat vazifalarini amalga oshirish jarayonida operativ ahamiyatga ega ma‘lumotlarni olish va ulardan samarali foydalanish borasida malaka va tajribalarni shakllantirish.

Yuqorida keltirilgan vazifalarni amalga oshirish uchun profilaktika inspektorlari *quyidagi yo_{nalishdagi} bilimlarga ega bo_lishlari zarur:*

- etnopsixologiya;

- klinik psixologiya;

– jamiyat uchun xavfli, jinoiy harakatlarga moyil shaxslarga xos ruhiy omillarga oid bilimlar;

– profilaktika faoliyati uchun ahamiyatga molik kasbiy muloqot asoslari;

– shaxslarning ruhiy xususiyatlari bilan uning tashqi namoyon bo‘luvchi (imo-ishora, jest, tana harakatlari, nutq (verbal va noverbal vositalari) jihatlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘ra olish;

– fuqarolar, ilgari sudlangan, voyaga yetmagan, giyohvand va ichki-likbozlikka ruju qo‘ygan, bezori, firibgar, janjalkash va boshqa toifadagi huquqbuzarlar tariqasida profilaktik ishlar olib borilayotgan shaxslar bilan muloqotni to‘g‘ri shakllantirish;

– profilaktika inspektori o‘zining kuch va imkoniyatlarini to‘g‘ri taqsimlash maqsadida, hissiy zo‘riqishlarni yengish va ularni boshqarish usullarini egallash;

– fuqarolar bilan psixologik aloqa o‘rnatish, ularni vizual baholash va ruhiy ta‘sir o‘tkazish, kutilmagan xavf va qaltis vaziyatlarda o‘z xatti-harakatlarini nazorat qilish.

Yuqorida keltirilgan fikrlardan ko‘rinib turibdiki, profilaktika xizmatlari faoliyatida profayling metodining *asosiy maqsadi* profilaktik hisobda turuvchi va huquqbuzarlik sodir etishga moyil fuqarolarning xatti-harakatlarida mavjud nomuvofiqlikning paydo bo‘lishini sabablarini aniq belgilashdir. Bunga shaxsning muayyan obyektga qonunga zid xatti-harakatni sodir etishga tayyorgarlik ko‘rishi va uni amalga oshirishga aloqadorligi ham sabab bo‘lishi mumkin. Har qanday vaziyatda ham yuqorida qayd etilgan holatlar shubhali shaxsni ko‘zdan kechirish va hujjatlarni tekshirish jarayonini puxtaroq o‘tkazilishi uchun asos bo‘ladi.

Profayling metodi quyidagi xususiyatlarga ega:

1. Profayling metodining xususiyatlaridan biri sifatida profilaktik hisobdagi shaxslar xatti-harakatini kuzatish, ularga savollar berish, ekspress psixodiagnostika qilish, ularning xatti-harakatlaridagi normadan og‘ishlarni qayd etish hamda ularni o‘rganishga qaratilgan boshqa harakatlar kiritiladi.

2. Profaylingning mantiqiy sxemasida g‘ayriqonuniy aralashish harakatlarini tayyorlash chog‘ida xavf tug‘dirishi mumkin bo‘lgan shaxslarning harakatlari modelini tuzish; bunday harakatlarni tayyorlash belgilarini aniqlash; xavf tug‘dirishi mumkin bo‘lgan tiplar (profilar) – bunday harakatlarning ehtimol tutilgan ijrochilari tasnifini yaratish; kuzatuv hududidagi har bir shaxsning maqomini rejalashtirilayotgan g‘ayriqonuniy aralashuv harakatiga aloqador bo‘lish mumkinligi nuqtai nazaridan aniqlash; har bir shaxsni muayyan tipga (yoki profilga) kiritish, ya‘ni profillash.

3. Profayling metodini amalga oshirish uchun vizual psixodiagnostika, diagnostik ekspress-suhbat, neyrolingvistik dasturlash metodlari, tergov faoliyati sohasida ko_p yillik tajribani egallagan yuqori darajadagi tayyorgarlikka ega mutaxassislar jalb etiladi.

Agar profayling sohasida xorij tajribasini o_rganadigan bo_sak, uni bevosita quyidagi yo_nalishlarga qarab ajratish mumkin:

- kriminal profayling – asosan Yevropa va AQSHda keng tatbiq etilgan;
- transportdagi profayling – asosan Isroil va Rossiyada keng tatbiq etilgan.

Kriminil profayling odatda, jinoiy xatti-harakatlarni sodir etgan shaxslarning xulq-atvorini o_rganishga qaratilgan yo_nalishdir. Uning metodologik asosini psixologiyaning «bixevioristik» nazariyasiga (inson xulq-atvorini o_ranish) tayanadi. Unda inson harakatlarini yuzaga keltiruvchi motivlar bevosita tahlil qilinadi. Buyuk Britaniya, Avstriya, Germaniya va boshqa Yevropa mamlakatlari politsiya tizimida faoliyat olib borayotgan psixolog mutaxassislar odatda qotillik jinoyatlarini fosh etishda tajribali xodimlarga bu boradi amaliy ko_mak berib boradilar. Ular kriminal profayling usulini shaxsning xulqidagi noodatiy harakatlarni qay uslubda amalga oshirgani, hududning geografik joylashuvining o_ziga xos xususiyatlarini, voqea joyida jinoyat sodir etgan shaxs tomonidan qanday izlar qolganini psixologik tahlil qiladilar. Shu bilan birga, jabrlanuvchining turmush tarzi, hayoti davomida erishgan yutuq va muvaffaqiyatsizliklari, shaxslararo munosabatlari, faoliyatining yo_nalishi hamda undan qoniqish hissi, ruhiy sog_lomligi, nizoli vaziyatlarda o_zini tutib turishi, o_ziga xos psixologik fazilatlari, hayotga qarashlari va intilishlari, oiladagi va yaqinlari, do_stlari, dushmanlari orasidagi o_zaro munosabatlari, jamiyatda qabul qilingan norma va me_yorlarga bo_lgan munosabati va shaxs haqidagi boshqa axborot manbalarini chuqur psixologik tahlil qiladilar va jinoyatni fosh etishga ko_mak beradigan izlanishlar olib boradilar. Ushbu yo_nalishdan olingan natijalarga tayangan holda jinoyatchi shaxsning psixologik portretini yaratishga harakat qiladilar.

Mamlakatimiz va xorijda nashrdan chiqqan adabiyotlarda ko_p marotaba terrorchining psixologik portretini tuzishga, insonning terrorchilik faoliyati yo_liga kirishi bosqichlarini aniqlashga, bu faoliyatga yollanuvchilar sifatida jalb etiladigan shaxslar doirasini aniqlashga urinishlar bo_lgan. Ushbu murakkab yaxlitlik o_rganilgach, terrorchi psixologiyasidagi hamma narsa tushunarli bo_ladi va unga qarshi kurash muammosi ishonchli ilmiy asosga ega bo_ladi, deb hisoblangan. Biroq aynan shu narsa eng murakkab, haligacha hal qilib bo_lmaydigan vazifa bo_lib chiqdi.

Shunga qaramay, bu hol terrorchining psixologiyasini bilish terrorchilik faoliyatiga aloqador shaxslarni noverbal diagnostika qilish uchun asos bo'la olmasligini bildirmaydi: birinchidan, amaliyotda terrorchilik harakatlari, mantiqan, «bir martalik, sarflanadigan material»ga tenglashtiriladigan ijrochilar amalga oshiradilar. Bunday ijrochilarni tanlashda ko'pircha keyinchalik ruhiy ishlov beriladigan oddiy yollardan foydalaniladi; ikkinchidan, terrorchi, garchi kuchli motivlashtirilgan bo'lsa-da, oddiy o'lim keltiruvchi mashina emas, balki o'ziga xos hissiy sohasiga ega tirik insondir. Fosh bo'lishdan qo'rqish ham, rejalashtirilgan harakati natijasini tasavvur qilishdan tuyadigan shodlik ham uni terrorchilik harakatini sodir etishga tayyorlanayotgan chog'idagi hissiy holati bildirib qo'yishi, bu bilan esa psixologik zo'riqish holatidagi odamni noverbal diagnostika qilish uchun «noverbal kalit» berishi mumkin.

Profilaktika faoliyatida profayling xizmatining joriy etilishi, huquqbuzarliklarning oldini olish va fuqarolar xavfsizligini ta'minlash, profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirish, terrorizmga qarshi kurashish holatini ijobiy tomonga o'zgarishiga sezilarli hissa qo'shishi mumkin. Bu yo'nalishda turli xil amaliy tadbirlar qanchalik ko'proq tashkil etilsa, nazariy yondashuv va ularning amaliy qo'llash yo'nalishlari keng qamrab olinsa, transportdagi umumiy xavfsizlik darajasi o'sishining ta'minlanishiga erishiladi. Bu bilan yangi huquqbuzarlik harakatlari sodir etilish xavfini kamaytirib, biz muayyan holatga ta'sir ko'rsatamiz.

Transportdagi profayling – asosan Isroil davlatida juda yaxshi rivojlangan bo'lib, 1965 – 1990-yillar orasida Isroil davlatida aeroportlarning xavfsizligiga katta e'tibor qaratildi. Sababi, bir necha terrorchilik xurujlari, samolyotlarni o'g'irlash, yo'lovchilarni garovga olish va shu kabi salbiy holatlar yuzaga kelgani uchun bu xizmat kuchaytirib borildi. Masalan, 1968-yilda Isroil havo kuchlariga tegishli «Boing» samolyoti Jazoirga o'g'irlab ketilgan, 1972-yili yapon terrorchilik guruhi a'zosi Kazo Okamoto Ben-Gurion aeroportida yo'lovchi va xizmatchilarni avtomatdan o'qqa tutgan, so'ng o'z joniga qasd qilgan. 1985-yili Rim va Vena shaharlarida Isroil samolyotlariga bir vaqtda terroristik hujum qilingan. Hozirgi kunga kelib Isroil davlati transport xavfsizligi bo'yicha dunyo miqyosida yetakchilik qilib kelmoqda. Biroq ta'kidlash joizki, xavfsizlikning bu darajada yuqori saviyada tashkil etilishida juda katta mehnat, ilmiy izlanishlar yotibdi. Agar Isroil davlati transportdagi profayling tizimini tahlil qiladigan bo'lsak, u murakkab, ammo ancha tizimli ekanligining guvohi bo'lamiz.

Profilaktika inspektori xizmat faoliyati mobaynida profayling usulidan qanday foydalanishi mumkin?

Avvalo ushbu sohaga aloqador bo'lgan zarur amaliy psixologiyaga taalluqli bilimlarga ega bo'lishi lozim. Bu insonlarning tashqi ko'rinishi va xulq-atvori, kiyinishi, o'zini tutishi, buyumlarining o'ziga xosligi va boshqalarga e'tiborini qaratishi lozim. Bu kasbiy kuzatuv orqali amalga oshiriladi. Ma'lumki, biror-bir huquqbuzarlikni amalga oshirmoqchi bo'lgan shaxs o'zining psixologik holatini to'liq nazorat qila olmaydi, uning organizmida, fiziologik va tashqi ko'rinishida o'zgarishlar yuzaga keladi, vaziyatga affektiv yondashuv, yolg'on va nosamimiy harakatlar, asabiylashish kuzatiladi. Aniqroq aytganda, uning psixologik holati profilaktika inspektori bilan ro'baro' kelganda nosamimiylik va namoyishkorona harakatlar, suitsidal alomatlarini namoyon qiladi.

Profilaktik inspektori ommaviy tadbirlarga jalb etilganida shubha uyg'otuvchi shaxslarni aniqlashda yo'lovchilar xatti-harakatlarining dinamik o'zgarishini aniqlashga qaratilgan psixologik kuzatuvlar asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Masalan, xodim yo'lovchilar bilan to'g'ridan-to'g'ri psixologik aloqaga kirishgan yoki yuk va buyumlarini ko'zdan kechirganida odatda, ularning fe'l-atvorida o'zgarishlar kuzatiladi (asabiylashish, zo'riqlash, qo'rquv, bezovtalanish, hayajonlanish), bu yaqqol namoyon bo'ladigan alomatdir.

Profilaktika inspektorining profayling metodini o'rganishiga qo'yiladigan talablar:

– vizual psixologik diagnostika asosida shaxsni baholash texnologiyasini egallash;

– huquqbuzarlarning psixologik ta'siriga qarshi ta'sir choralarini qo'llash texnikasini egallash;

– favqulodda vaziyatlarda hissiy holatlarni boshqarish qobiliyatini shakllantira olish;

– ommaning psixologik ta'siriga qarshi ta'sir ko'rsata olish qobiliyatini shakllantirish;

– xizmat faoliyatida turli shaxslar bilan psixologik aloqa o'rnatish usullari va texnikasiga ega bo'lish;

– xulq tipologiyasi va og'zaki portret bo'yicha huquqbuzar va qidiruvda bo'lgan jinoyatchilarni aniqlash ko'nikmasini hosil qilish;

– terroristik va ekstremistik yo'nalishdagi xatarning oldini olish vazifalarini bajarishda tezkor muhim ma'lumotlarni olish malakasini qo'llash qobiliyatiga ega bo'lish.

Profayling usullari qo'llaniladigan holatlar. Shaxslar orasidagi muloqotda berilayotgan ma'lumotning ishonchliligini baholash. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, har bir shaxs so'zlashish davomida olinayotgan

ma'lumotga ishongisi keladi, lekin har kim ham, uni aldayotganlarida payqagisi kelmaydi. Ehtiroslar dunyosida yashashni xohlamaydiganlarga profayling usulini bilishlari, rahbar-ishchi, surishtiruvchi-gumon qilinuvchi yoki boshqa xohlaganlar bilan aloqada uzatilayotgan ma'lumotni obyektiv baholash imkonini beradi.

Profilaktika inspektori tomonidan narkotik moddalarni iste'mol qilinganligining belgilari amaliy ko'mak berishi mumkin. Bunday iste'molning bilvosita belgilari universal emas, ammo har holda giyohvand shaxsni ko'chada omma orasidan topishda yordam beradi. Agar faqat tashqi aloqatlarga qaraladigan bo'lsa, ular katta tajribaga ega giyohvandlarga to'g'ri kelmaydi:

- yorug'lik qay darajada bo'lishidan qat'i nazar, qorachiqlarning notabiiy torayishi (–o'g'ir" narkotiklar – heroin, kokain iste'mol qilinganida) yoki kengayishi (–yengil" narkotiklar iste'molida);

- parishonlik bilan qarash;

- isqirt ko'inish, sochlarning quruqligi; qo'l panjasining shishganligi; ko'pincha tishlarning qoraygan, uvalangan, –singan" (to'nkachalar ko'inishida)ligi;

- gavdaning bukikligi;

- nutqning tushunarsiz, –eho'ziq"ligi;

- og'izdan alkogol hidi kelmagan holda beso'naqay va sekin harakatlanish;

- ma'murlarga (hokimiyat vakillariga) uchrashishdan qochishga urinish;

- ob-havo va vaziyat qanday bo'lishidan qat'i nazar, doimo uzun yengli kiyim kiyish (ojiz diagnostik belgi).

Muloqot olib borish. Muloqot – bu doimo o'yin. Suhbatdoshning qiziquvchanligini va emotsional holatini baholash, uning o'z aytganida turish, aniq ma'lumotlardan qachon foydalanish zarurligi to'g'risida aniq tushuncha beradi, bunday vaziyatdan foydalanib, aniq harakatni amalga oshirishni qo'ldanchiqarish mumkin emas.

Odamlar to'planadigan joylarda (aeroport, savdo markazlari, tungi klublar va hokazo) niyatni o'zgarishini aniqlash. Agar do'kon yoki tungi klublarda janjal chiqqanida, qo'ymasdan urushga kirgan xodim, yaxshi xodim hisoblanmaydi. Malakali profilaktika inspektori olomon orasidan niyati buzuqlarni aniqlashni va mojaroning asosiy manbaini bartaraf etishni bilishi lozim.

Jinoyatchini psixologik profilini tuzish. Bu usul barcha profayling yo'nalishining bosh mezoni hisoblanadi. Uning vazifasi, profilaktika

inspektori tomonidan ma'muriy hududdagi huquqbuzar shaxs yoki profilaktik hisobdagi shaxslarning profili to'g'risida aniq tushunchaga ega bo'lish hisoblanadi, bu esa profilaktik ishlarning samarasini oshirishga xizmat qiladi.

Profilaktika inspektori doimiy ravishda profilaktik suhbatga taklif etilgan fuqaroni noverbal kuzatish orqali idrok etib boradi.

Kirish qoidalari. Insonlar odatda bir narsa haqida gapirib, butunlay boshqa narsa haqida o'ylaydilar, shu bois ularning haqiqiy ahvolini (holatini) tushunish juda muhim.

Axborotning atigi 7% so'zlar (verbal ravishda), 30% ovoz ohangi (tovush kuchi, intonatsiya) va 60% dan ortig'i boshqa noverbal kanallar (qarashlar, imo-ishoralar, mimika, jest va boshqalar) orqali beriladi.

Suhbatlashayotgan shaxsni profilaktika inspektori tomonidan to'g'ri tushunish uchun aytilayotgan fikrni so'zlar, nutq, pantomimika va muloqot «kuzatuvchilari» bilan chambarchas bog'liq ravishda baholab, o'z idrokimizni muayyan tugallikkacha yetkazish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Insonlar o'z qalbidagi his-tuygularini odatda:

– konvensial tarzda (muayyan muloqot muhitida standart sifatida qabul qilingan usul orqali);

– dabdurustdan (beixtiyor) ifodalaydilar.

Suhbatdosh berilayotgan xabarga o'z munosabatini bildirib qo'ymaslikka intilayotganida hammasi oddiy konvensial noverbal belgilar bilan cheklanishi mumkin. Bu belgilar ba'zan haqiqiy, ammo ko'pincha, chalg'ituvchi bo'ladi.

Profilaktik suhbat davomida odamlar aksariyat hollarida o'z so'zlarini chamalaydilar va mimikalarini nazorat qiladilar, biroq inson bir vaqtning o'zida ichida tug'ilayotgan barcha reaksiyalarning ko'pi bilan 2–3 tasini nazorat qila oladi. Bunday «axborotning chiqib ketishi» tufayli, tegishli bilim va tajriba yordamida shaxsning yashirishni afzal bilgan his-tuygulari va intilishlarini aniqlash imkoni mavjud bo'ladi. Kishilarda beixtiyor yuzaga keladigan reaksiyalar nihoyatda individual bo'lib, suhbatdoshni juda yaxshi bilgan taqdirdagina uqib olish mumkin. Bu jihatni tushunmaslik boshqa birovni bilishda muqarrar o'zini o'zi aldashga olib kelishi mumkin.

Shaxsiy ekspressiyani baholaganda nafaqat tug'ma farqlar, balki an'analar, tarbiya, muhit va umumiy hayotiy madaniyatning ta'siri ham inobatga olinadi.

Erkaklarning his-tuygulariga qaraganda ayollarniki aniqroq namoyon bo'lgani bois, ularni aniqlash osonroq kechadi, ammo har doim ham emas.

Biror insonning qalbidagi yuzaga kelayotgan kechinmalar uning qiyofasida va harakatlarida muayyan tarzda ko'rinadi. Profilaktika inspektori bunday

jihatlarga alohida, ya'ni malakali tarzda yondashishi maqsadga muvofiqdir. Buning qanday yuz berish jarayonini batafsilroq ko'rib chiqamiz.

Yuz mimikasi (ifodasi). Inson his qilayotgan tuygular ta'sirida yuzdagi turli qismlarning muvofiqlashgan qisqarish va bo'shashishlari yuzaga keladi. Ular inson boshdan kechirayotgan hissiyotlarni juda yaxshi aks ettiruvchi yuz ifodalarini belgilab beradi. Yuz mushaklarining holatini boshqarishni o'rganish qiyin bo'lmaganligi sababli, hissiyotlarning yuzdagi ifodasini ko'p hollarda niqoblashga va hatto o'xshatishga harakat qiladilar.

Inson his-tuygularining samimiyligidan hissiyotlarning yuzdagi ifodasidagi simmetriya dalolat beradi, ayni vaqtda soxtalik qancha kuchli bo'lsa, yuzning o'ng va chap qismlari mimikalari shuncha ko'p farq qiladi.

Hatto oson anglashiladigan mimika ham ba'zan juda qisqa vaqt (soniyaning ulushi mobaynida) davom etadi va ko'pincha sezilmay qoladi; uni ilg'ay olish uchun ancha katta tajriba yoki maxsus mashqlar kerak bo'ladi. Bunda ijobiy hissiyotlar (shodlik, huzurlanish) salbiy hissiyotlar (g'am, uyat, nafrat kabilar)ga qaraganda osonroq bilib olinadi.

Inson lablari hissiy jihatdan ayniqsa ifodali bo'lib, ularni uqib olish aslo qiyin emas (masalan, og'iz mimikasining kuchliligi yoki lablarni tishlash xavotirdan dalolat beradi, bir tomonga qiyshaygan og'iz esa ishonmaslik yoki birovning ustidan kulishni bildiradi).

Yuzdagi tabassum odatda do'stona munosabatni yoki ma'qullashga ehtiyojni bildiradi. Erkaklar uchun tabassum – u har qanday vaziyatda ham o'zini boshqarib turganligini ko'rsatish uchun yaxshi imkoniyat. Ayol kishining tabassumi ancha haqqoniy bo'lib, ko'pincha uning haqiqiy kayfiyatiga mos keladi. Tabassumlar hamma joyda turli motivlarni aks ettirgani bois, ularni standart tarzda talqin etishga ortiqcha ishonmagan ma'qul:

– haddan tashqari ko'p jilmayish – ma'qullanish ehtiyojidan darak beradi;

- qiyshiq tabassum – nazorat qilinayotgan asabiylik belgisi;
- qoshlar ko'ta'nilgan holatdagi tabassum – bo'ssunishga tayyorlik;
- qoshlar tushirilgan holatdagi tabassum – ustunlikni ko'rsatadi;
- pastki qovoqlar ko'ta'nilmagan holatdagi tabassum – nosamimiylik;
- ko'zlamini katta-katta ochib qilingan tabassum – tahdid.

His etilayotgan tuygularidan darak beruvchi yuzdagi tipik ifodalar quyidagicha:

– *shodlik*: lablar qiyshaygan va burchaklari orqaga tortilgan, ko'zlar atrofida mayda ajinlar hosil bo'lgan;

– *qiziqish*: qoshlar biroz ko'ta'nilgan yoki tushirilgan, ayni vaqtda ko'z qovoqlari biroz kengaygan yoki toraygan;

– *baxt*: lablarning tashqi burchaklari biroz ko__tailgan va odatda orqaga tortilgan, bunda ko__zlarxotirjam;

– *nafrat*: qosh biroz ko__tarilgan, yuz cho__zilgan, bosh ko__tarilgan, go__yoki inson kimgadir yuqoridan qarayapti; go__yo suhbatdoshidan nari ketyapti;

– *qo__rquv*: qoshlar biroz ko__tailgan, ammo to__g__rishaklga ega, ularning ichki burchaklari surilgan va peshona orqali yotiq ajinlar o__tgan, ko__zlar kengaygan, pastki qovoqlar taranglashgan, yuqoridagilari esa biroz ko__tailgan, og__iz ochiq turishi mumkin, burchaklari esa orqaga tortilgan bo__lib, lablarni tishlar ustidan tortadi va to__g__rilaydi (aynan oxirgi alomat his-tuyg__ularning jadalligidan dalolat beradi); agar qoshlarning yuqorida keltirilgan holatigina mavjud bo__lsa, bu – nazorat qilinayotgan qo__rquv;

– *g__azab*: peshona mushaklari ichkariga va pastga tortilgan bo__lib, ko__zlarning tahdid soluvchi yoki xo__mraygan ifodasini tashkil qiladi, burun kataklari kengaygan va devorlari ko__tailgan, lablar yo zich yopishgan, yo orqaga tortilib to__g__riburchak shakliga kirgan va zich birlashgan tishlar ko__satilgan, yuz ko__pincha qizargan;

– *uyat*: bosh osilgan, yuz burilgan (o__girilgan), nigohlar olib qochilgan, ko__zlar pastga qaragan yoki bir tomondan boshqa tomonga «yuguradi», ko__z qovoqlari biroz yumilgan, ba‘zan esa birlashgan; yuz ancha qizargan, puls (tomir urishi) tezlashgan, nafas olish notekis;

– *g__am*: qoshlar birlashgan, ko__zlar xira, lablarning tashqi burchaklari ba‘zan biroz osilgan.

Turli emotsiyalarda yuz ifodalarini bilish nafaqat boshqalarni tushunish, balki o__z ish imitatsiyalarini (odatda ko__zgu oldida) puxta o__zlashtirish uchun ham foydalidir.

Nigoh va ko‘zlar. Insonning ko__zlarini uning ichki kechinmalaridan aniq dalolat beradi, tajribali «o__yinchilar» bejizga ko__zlarini to__q rangli ko__zoynak ortida yashirmaydilar.

Insonlarni odatda quyidagilar fosh etadi:

– ko__zlarning odatdagi ifodasida yuz bergan o__zgarishlar – muayyan hissiyotning yuzaga kelishi;

– ko__zlarning beixtiyor harakatlari (sezilarli «yugurik ko__zlar»)

– xavotir, uyalish, aldash, qo__rquv, nevrasteniya (nevroz guruhiga kiruvchi psixologik buzilish);

– yaltirovchi nigoh – jonsaraklik, qo__zg__alish

– qotib qolgan nigoh – nihoyatda ojizlik;

– qorachiqlarning kengayishi – qiziqishni sezish hamda axborot, muloqot, fotosurat, hamsuhbat, ovqat, musiqa va boshqa tashqi omillardan huzurlanish, nimanidir qabul qilish, ayni vaqtda kuchli azob; ba‘zi dorilar va narkotiklar (marixuana, kokain) iste‘mol qilish;

– qorachiqlarning torayishi – g_ ijinish, jahl chiqishi, nafrat va boshqa shu kabi salbiy emotsiyalarning chulg_ab olishi, biror narsani qabul qilmaslik; muayyan narkotiklar (morfin, heroin) ta‘siri;

– qorachiqlarning tartibsiz harakati – mastlik belgisi (bunday harakatlardan qancha ko_p bo_lsa, odam shuncha mast bo_ladi);

– ko_zning kuchli pirpirashi – qo_zg_alish aldov.

Insonlar har doim o_zlari aniq zavq oladigan yoki yaqin munosabatda bo_lgan odamlarga qarashni afzal biladilar; bunda ayollar erkaklarga qaraganda ko_proq noverbal qiziqish namoyish etadilar.

Muloqot jarayonida profilaktika inspektori ko_pincha gapirayotganda emas, balki suhbatdoshni tinglayotganida ko_ziga qarashi tavsiya etiladi, holbuki ishontirishga urinish bo_layotganida ba‘zan so_zlab turib suhbatdoshning ko_zlariga tik qarash usuli ham qo_llaniladi.

Siz bilan muloqot qilayotgan davrning 1/3 qismidan kamroq vaqt mobaynida ko_zingizga qarayotgan subyekt yolg_on so_zlaydi yoki nimanidir yashirishga urinadi; ko_zingizga yashirmay tik qarab turgan odam esa yo sizga qattiq qiziqadi (qorachiqlar kengaygan), yo oshkora dushmanlik namoyon etadi (qorachiqlar toraygan), yo ustunlik qilishga intiladi.

Ko_zlar kontaktlarining tasnifi (ko_z qarashlarining turlari) quyidagicha tahlil qilinadi:

– hissiz nigoh – diqqat jamlangan o_y;

– nigohni atrofdagi narsalar va shiftga ko_chirish – suhbatga qiziqishning yo_qdishi, suhbatdosh monologining haddan tashqari uzunligi;

– ko_zlarga barqaror va sinchkov qarash (qorachiqlar toraygan) – dushmanlik va ustunlikning yorqin ifodasi;

– ko_zlarga barqaror va sinchkov qarash (qorachiqlar kengaygan) – jinsiy qiziqish belgisi;

– nigohni olib qochish va pastga qarash – uyalish, aldash;

– yondan qarash – ishonchsizlik;

– ko_zlar goh olib qochiladi, goh orqaga qaytariladi – rozilikning yo_qligi, ishonchsizlik.

Holat va uning tafsilotlari. Inson tanasining turgun holati ham uning ichki kayfiyatidan ko_plab ma‘lumotlar beradi. Bunda ko_p takrorlanadigan holat shaxsning barqaror xususiyatlaridan dalolat beradi.

Hissiyotlar o_zganida, insonlar odatda gavdasiga qaraganda yuzini yaxshiroq nazorat qilganliklari bois, ko_p hollarda individning haqiqiy xavotiridan mimikasi emas, balki gavda holati xabar beradi.

Tana holatlari insonning ruhiy holatiga quyidagicha bog_liq bo_lishi mumkin:

- qo_llar orqada, bosh baland ko_tirilgan, engak oldinga chiqqan – o_ziga ishonch va boshqalardan ustunlik hissi;
- gavda oldinga chiqqan, ikki qo_lbelda – o_zkuchiga ishonch va faol harakatlarga tayyorlik, tajovuzkorlik, so_zlashganda jizzakilik, o_z qarashlarini oxirigacha himoya qilishga intilish;
- qo_llar bilan stolga tiralib turish – suhbatdosh bilan aloqaning noto_liqligi hissi;
- qo_llar tirsaklaridan bukilgan holda bosh orqasiga qo_yilgan – boshqalardan ustunlikni anglash;
- qo_llaming bosh barmoqlarini belbog_ortiga yoki cho_ntaklarga qo_yish – tajovuzkorlik va o_ziga nisbatan namoyishkorona ishonch;
- qo_llaming bosh barmoqlarini cho_ntaklardan chiqarib turish – ustunlik belgisi;
- qo_loyoqlarni chalishtirish – skeptik (ishonchsiz) himoya ustanovkasi;
- chalishtirilmagan qo_loyoqlar va tugmasi qadalmagan pidjak – ishonch ustanovkasi;
- boshni yonga egish – qiziqish uyg_onishi;
- boshni pastga bukish – salbiy munosabat;
- boshni biroz orqaga tashlash – tajovuzkorlik belgisi;
- stul chetida o_tirish – ketishga yoki yuzaga kelgan vaziyatda harakatlanishga, yo jamlangan qo_zg_alishni bostirish, yoxud o_ziga e'tiborni tortish va suhbatga qo_shilishga (istalgan paytda sakrab turishga) tayyorlik;
- qo_llami ko_krak oldida, oyoqlarni bir-birining ustida chalishtirish – suhbatdan «chetlashish»;
- kresloda o_tirgan holda oyoqni uning tirsak qo_ygichiga tashlab olish – atrofdagilarni mensimaslik, suhbatga qiziqishning yo_qolishi;
- o_tirgan odam oyoqlari (boldirlari)ning chalishtirilishi – ma'qullanmaydigan munosabatni tiyib turish, qo_rquv yoki hayajon, o_zini nazorat qilishga urinish, salbiy himoya holati;
- chiqish eshigi tomon yo_naltirilgan oyoqlarning (o_tirgan yoki turgan) holati – suhbatni aniq to_xtish va ketish istagi;
- holatni tez-tez o_zgartirib turish, stulda qimirlab o_tirish, behalovatlik – ichki xavotir, zo_riqish;
- o_iindan turish – biror qarorga kelganlik, suhbat jonga tekkani, nimadir hayratlantirgani yoki lol qoldirgani haqidagi signal;
- qo_lbarmoqlarining chalishtirilishi – hafsalasi pir bo_lish va salbiy munosabatni yashirishni istash (bunda qo_llar qancha yuqori joylashgan bolsa, salbiy holat shuncha kuchli bo_ladi);

– qo_l panjalari barmoqlar uchlari orqali birlashtirilgan, ammo kaftlar bir-biriga tegmaydi – ustunlik, o_{ziga} va o_z so_zlarga nisbatan ishonch belgisi;

– tirsaklar stolga tayangan, panjalar esa og_{iz}ro_{parasida} joylashgan – haqiqiy niyatlarni yashirish, suhbatdosh bilan “mushuk-sichqon” o_{ynash};

– boshni kaft bilan ushlab turish – zerikish;

– mushtga tugilgan barmoqlar lunj ostida joylashgan, ammo bosh uchun tayanch emas – qiziqish belgisi;

– bosh barmoq engakka tirgak bo_{lgan} – qandaydir tanqidiy baho belgisi;

– o_{zkrujkasini} ikki qo_{llab} ushlab – niqoblangan asabiylik;

– sigareta tutunini yuqoriga chiqarish – yashirin yoki shubhali fikrlar bilan salbiy kayfiyat.

Imo-ishora va tana harakatlari. «Imo-ishora – tananing emas, balki qalbning harakati». U insonning istagi va shu paytda nimani his qilayotganidan, kimdir uchun odatiy bo_{lgan} imo-ishora esa uning xarakteriga xos jihatdan dalolat beradi.

Tashqaridan qaraganda bir xil ko_{ingan} imo-ishoralar turli odamlarda mutlaqo o_{xshamaydigan} ma‘nolarni bildirishi mumkin, ammo bir xil jihatlari ham mavjud:

– faol imo-ishoralar – ijobiy his-tuyg_{ularning} ko_{puchraydigan} tarkibiy qismi bo_{lib}, boshqalar inoqlik va qiziqishning ifodasi sifatida tushunadilar;

– haddan tashqari ko_p imo-ishoralar – xavotir yoki o_{ziga} nisbatan ishonchsizlik belgisi.

Individning fikr va emotsiyalarini aniqlashda faqat g_{ayriixtiyoriy} imo-ishoralarni ta‘kidlash lozim:

– ochiq kaftlarni namoyish qilish – ochiqlik ko_{rsatkichi};

– mushtlarni tugish – ichki qo_{zgalish} tajovuzkorlik (barmoqlar qancha kuchli siqilsa, emotsiya shuncha kuchli bo_{ladi});

– gapirayotganda og_{izni} qo_l bilan (yoki qo_{ldagi} qadah bilan) to_{shish} – hayrat, aytilayotgan gapning to_{g_riligiga} aniq ishonmaslik, yolg_{on}, ishonchli xabar, kasb odatiga ko_{ra} lablarga qarab uqib olishlarining oldini olish;

– qo_l bilan burunga tegish yoki uni asta qashish – aytilayotgan xabarga (o_{ziga} ham, sherigiga ham) aniq ishonmaslik, yolg_{on}, bahs jarayonida yangi qarshi dalilni izlash;

– barmoq bilan ko_z qovoqlarini artish – yolg_{on} belgisi, ammo ba‘zan – suhbatdoshi tomonidan bildirilayotgan gumon va yolg_{omi} sezish;

- boshning turli qismlari (peshana, yonoqlar, ensa, quloq...)ni silash va qashish – tashvishlanish, uyalish, ishonchsizlik;
- engakni silash – qaror qabul qilish payti;
- qo'llaming behalovatligi (nimanidir yulib yig'ish, avtoruchkani burash, kiyim-bosh qismlariga tegish) – ehtiyotkorlik, asabiylik, uyalish;
- kaftni chimchilash – tajovuzga tayyorlik;
- tirnoqlarni tishlash – ichki xavotir;
- qo'llaming tana eni bo'yab turli harakatlari (soatni to'g'rilash, zaponka (ilmatugma)ga tegish, manjeta (qadama yeng)dagi tugmalarni o'yinash) – niqoblanayotgan asabiylik;
- kiyimdagi qillarni tozalash – ma'qullamaslik ishorasi;
- xalal berayotgani aniq ko'rinib turgan bo'yinbog'ni bo'yindan tortish – inson aldayotganini birovlar bilib qolganini gumon qiladi, g'azablanganda havo yetishmasligi;
- ko'zoynak shishalarini artish yoxud ravoqlarini og'izga solish – o'yash uchun tanaffus, kutib turishni iltimos qilish;
- ko'zoynaklarni yechib, stol ustiga tashlash – haddan tashqari keskin suhbat, qiyin va noxush mavzu;
- sigaretani o'chiish yoki bir chetga qo'yish – eng katta zo'riqish davri;
- sigareta kulini haddan tashqari ko'purib tushirish – og'irichki holat, asabiylik;
- boshni tez egish yoki yon tomonga burish – biror nima deyish istagi;
- go'yoki «xalal berayotgan» sochlarni doimiy ravishda peshonadan chetga olish – xavotir;
- nimagadir suyanish yoki tayanishga aniq intilish – paytning murakkabligi va noxushligini his etish, yuzaga kelgan vaziyatdan chiqib ketish yo'lini bilmaslik (har qanday tayanch o'ziga bo'lgan ishonchni oshiradi).

Ovoz intonatsiyalari. Ovoz atrofdagilarga insonning shu paytdagi holati (kechinmalari, faktlarga munosabati, o'zini qanday his qilayotgani, ko'p hollarda temperamenti va fe'liga xos jihatlar) haqida xabar beradi.

Shaxs (obyekt)ning ovoqidagi ohang uning emotsiyalarini aniqlashga imkon beradi (g'azab va g'ammi – osonroq, rashk va asabiylikni – qiyinroq).

Xavotir yoki asabiy zo'riqish holatida suhbatdoshning ovoz tembri ham biroz o'zgaradi. Bu holat xorijiy davlatlar tajribalarida foydalanib kelinayotgan «yolg'on detektor»ning aloqasiz (ya'ni suhbatdosh uchun butunlay sezilarsiz) namunalarida munosib qo'llanilmoqda.

Profilaktika inspektori xabarni tahlil qilayotganda ovozning kuchiga ham, balandligiga ham e'tibor qaratishi tavsiya etiladi:

- ko'rinib turgan baland ohang – zavq-shavq, shodlik, ishonchsizlik;

– ovoz kuchi, ohangi (toni) va keng diapazondagi balandligi – g__azab va qo__quv;

– haddan tashqari baland, «teshib yuborgudek» ovoz – xavotir;

– yumshoq va past tovush, har bir jumlaning oxirida intonasiyaning pasayishi – g__am, charchoq;

– tovushni kuchaytirish – zo__riqish, aldov.

Noverbal tovushlar ancha ko__p axborot beradi:

– hushtak (badiiy emasligi aniq) – ishonchsizlik yoki xavfsirash;

– vaziyatga nomuvofiq xaxolab kulish – zo__riqish;

– ovozdagi kutilmagan spazmlar – zo__riqish;

– doimiy yo__tal – yolg__ochilik (kazzoblik), o__ziga nisbatan ishonchsizlik, xavotir.

Leksika xususiyatlari. Insonning so__zlashuviga bog__liq nutqini tahlil qilish uning ichki psixoemotsional holatida hammadan ko__ra ko__proq axborot berishi mumkin: nutqda mantiqiy urg__ularning qo__yilishi, so__zlarning qanchalik tez talaffuz qilinishi, iboralarning (jumlalarining) tuzilishi, normalardan qaysi og__ishlarga yo__l qo__yilganligi (ishonchsizlik yoki so__zlarni noto__g__ri tanlash, jumlalarining so__z o__rtasida uzilib qolishi, so__zlarning o__zgarishi, parazit so__zlarning paydo bo__lishi, to__xtamlarning yo__qolishi), bunda:

– tez sozlangan nutq – aniq hayajon yoki nimadandir tashvishlanish, kimnidir qattiq ishontirish yoki ko__ndirish istagi, shaxsiy qiyinchiliklar haqidagi gaplar (suhbat);

– sur‘ati sekinlashgan nutq – takabburlik, charchoq, bosim ostidagi holat, g__am-anduh;

– uzuq-yuluq nutq – ishonchsizlik;

– alohida «silliq» nutq paydo bo__lishi – jumbishga kelganlik;

– nutqning lo__nda va qat‘iyiligi – aniq ishonch;

– duduqlanish – zo__riqish yoki aldov;

– so__zlarni tanlashda qat‘iyatsizlik – o__ziga nisbatan ishonchsizlik yoki nima bilandir qo__qqisdan hayratga solish niyati;

– nutqdagi kamchiliklarning paydo bo__lishi (so__zlarni takrorlash yoki buzib talaffuz qilish, jumlarni o__rtasidan uzib qo__yish) – shubhasiz hayajon, ammo ba‘zan aldash istagi bo__lishi ham mumkin;

– nutqda to__xtamlarni ishlatmaslik – zo__riqish;

– haddan tashqari uzun to__xtamlar – qiziqmaslik yoki norozilik;

– nutqda parazit so__zlar bilan to__ldiriladigan to__xtamlar paydo bo__lishi («xo__sh»..., «aytmoqchi»..., «e»...) – fikrni ifodalashdagi qat‘iyatsizlik va qiyinchilik, vaziyatdan chiqish yo__lini izlash;

– odatdagidan tezroq aytiladigan tuturiqsiz so__zlar yig__indisining ko__payishi – hissiy qo__zg__alish, zo__riqish;

– doimo boshqalarning gapini bo_lish– zo_riqish.

Yuqorida keltirib o_tilgan shaxs psixologiyasining o_ziga xos belgilari insonni har qanday holatda ham fosh etishi mumkin. Shu sababli har bir profilaktika inspektori o_z xizmat faoliyati mobaynida bevosita shaxslarning yuqorida keltirilgan ixtiyoriy va ixtiyorsiz xatti-harakatlarini kuzatib borishlari, o_zlari uchun zarur bo_lgan axborotni olishda yetarli psixologik bilimlarga ega bo_lishlari kerak. Buning uchun esa uning doimiy ravishda o_z ustida ishlash, kasbiy mahoratini oshirib borish, kasbiy kuzatuvchanlik hamda mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishi tavsiya etiladi.

3-§. Yolg_on nazariyasi, uning kelib chiqish sabablari va shakllari

Jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olish, ochish va surishtiruv, profilaktik suhbat olib borish chog_ida turli xil xarakter va xulqli insonlar bilan to_qrashish va ishlash profilaktika inspektori faoliyatining alohida xususiyatidir. Bunda nafaqat shaxs psixologiyasining ahamiyati, balki shaxsning alohida psixologik tomonlari va xususan, yolg_on va yolg_on ko_satmalarning psixologik mexanizmi haqida xodimning tor tushunchasi muhim amaliy ahamiyatga ega.

Yolg_on– noto_g_rigap, aldov, nohaqlik. Huquqni muhofaza qiluvchi organlari xodimlarida guvoh, jabrlanuvchi, gumon qilinuvchilar tomonidan beriladigan yolg_on axborot tufayli turli qiyinchiliklar yuzaga keladi. Yolg_on, aldov qarama-qarshi manfaatlar, axloqiy va ijtimoiy normalar to_q nashgan paytda yuzaga keladi. Yolg_on – adovatlardan biridir, bu bilan profilaktika inspektorlari xizmat vazifalarini bajarish chog_ida juda ko_p hollarda to_qrashishlariga to_g_rikeladi.

Yolg_onchilik muammolarini o_rganuvchi psixologlar, haqiqatni aytishdan ko_ra yolg_on gapirish qiyinligini ta_kidlaydilar. Yolg_on doimo shaxsning o_zini tutishidagi ozgina o_zgarishi orqali namoyon bo_ladi. Uni aniqlash esa – san‘atdir, uni alohida bilimlarni egallash, mohirona qo_llash, va albatta, katta hayotiy tajriba orqali o_zlashtiriladi. Profilaktika inspektori faoliyatida muvaffaqiyatga erishishda psixologik tashhis orqali shaxsning o_zini nosamimiy tutishi va uning yolg_onini aniqlashni bilishi muhim omil hisoblanadi.

Yolg_on tabiati, namoyon bo_lish shakli va maqsadiga ko_ra farqlanadi, adolatni tiklash uchun kurashish quroli sifatida kim qo_llasa, uni ta‘qib qiladi. Har qanday yolg_on xavfli: uning katta va kichik, ochiq va yashirin, sodda va ayyoronaligi ahamiyatsiz. U kimdan chiqishidan qat‘i nazar, aniqlanmagan yolg_on alohida xavf tug_diradi. Jinoyat jarayonida

haqiqatni aniqlashda, to'g'ri qaror qabul qilishda, u adolatga jiddiy putur yetkazishi mumkin.

Aldash – haqiqiy fakt o'ziga yolg'unchi tasavvuridagi holatni qo'yish va haqiqatni aldoqchiga ma'qul bo'lgan uydirma bilan almashtirish. Yolg'on zanjirsimon xarakterga ega: bir yolg'on ikkinchisini tug'diradi va u bilan bog'langan bir qator faktlarni mutanosiblashtirishni talab etadi.

Aldashga urinadigan odamlar o'z xulqini, jumladan ovozining sadosini nazorat qilishga harakat qiladilar, ammo shu paytda buni qay darajada uddalaganliklarini aniq bila olmaydilar, chunki o'z ovozining sadosini to'liq nazorat qilish ancha qiyin ish. Hayajon, jumladan fosh bo'lishdan qo'rqish tufayli kelib chiqadigan hayajonga ko'proq darajada xos bo'lgan hamda yolg'on axborot berish vaqtida ovoz va nutqda ko'rinadigan quyidagi belgilar farqlanadi:

- ovozda titroq paydo bo'lishi;
- vaqti-vaqti bilan ovozni tozalash; yo'talib qo'yish;
- og'iz qurishi hamda yutinish va lablarni yalash ehtiyoji tufayli gap o'rtasida jumlar uzilishi;
- nutq ohangi (intonatsiya)dagi ixtiyorsiz o'zgarishlar;
- nutq sur'atidagi o'zgarish (masalan, jummalarni o'ylab ko'rish zarurligi tufayli uning pasayishi);
- ovoz tembrining o'zgarishi.

Ovozda hissiyotlar ko'rinishining ko'proq o'rganilgan belgisi ohang kuchayishidir. Ranjigan odamlarda ovoz pardasi ko'tarilib boradi. Ular g'azablangan yoki qo'rqqan hollarda buni yanada ko'proq ko'rish mumkin. G'am-anduh yoki qayg'u-hasrat vaqtida ovoz pardasining pasayishidan dalolat beradigan tadqiqotlar mavjud. Va nihoyat, hayajon, xafagarchilik, nafrat va jirkanish vaqtida ovoz pardasining balandligi o'zgarish-o'zgar-masligi noma'lum. Ovoz pardasining ko'tarilishi yolg'on dan dalolat beradigan ishonchli belgi emas; u qo'rquv yoki g'azab va, ehtimol, hayajon belgisidir. Ammo ovoz va undagi o'zgarishlarga qarab aldashda rohatlanish bor-yo'qligini aniqlash qiyin.

Ovozda hissiy o'zgarishlarni yashirish oson emas. Agar asosan, yolg'on gapirish paytidagi hissiyotlar haqida gapiriladigan bo'lsa, axborotning oshkor bo'lish ehtimoli ancha katta. Agar yolg'on gapirishdan maqsad qo'rquv yoki g'azabni yashirish bo'lsa, ovoz balandroq pardada va qattiqroq chiqadi, nutq esa, ehtimol, tezlashadi.

Ma'lumki, inson reaksiyasi *ixtiyoriy* va *ixtiyorsiz* turlarga bo'linadi. Ixtiyorsiz reaksiya boshqarilmaydi va quyidagilarda namoyon bo'ladi: yuzning oqarib ketishi, qizarishi, qo'lning qaltirashi, tez-tez nafas olish, terlab

ketish, ovozning o_zgarishi, harakat yo_nalishining buzilishi, duduqlanish va boshqalar.

Shuningdek, beixtiyor reaksiyalar ham mavjud va bunday reaksiyalarni nazorat qilish juda qiyin (*zero, ularni turli usullar bilan yashirishga urinishadi*) biroq ma'lumot olishda ancha ahamiyatli hisoblanadi. Ba'zi reaksiyalar «yolg_on detektori» kabi tashxis apparatlarida aniqlanadi.

Bunday reaksiyalar quyidagicha ko_rinishda bo_ladi:

- yuzning qizarishi – uyat, g_oʻazab;
- oqarib ketish – qo_rquv, aybdorlik hissi;
- qorachiqning kengayishi – qiziqish, qoniqish hissi, rozilik, kuchli og_oʻriq;
- qorachiqning torayishi – qoniqmaslik, rad qilinish;
- qo_l va bo_yin sohasi arteriyasida tomir pulsining kuchli urishi – (yurak urishining faollashuvi bilan bo_yinbog_oni bo_shatishga urinish) xavotir, qo_rquv, uyat, yolg_on;
- puls chastotasining pasayishi – diqqatning oshishi;
- tez-tez va yuzaki nafas olish – ichki zo_oriqish;
- burundan qisqa-qisqa nafas olish – jahl;
- nafas olishning buzilishi, tomoqning qisilishi, tupukni reflektiv yutinish – vahima, uyat, yolg_on;
- og_oʻizning qurishi (yutinish, labni yalash, tashnalik...) – qo_rquv, yolg_on;
- to_satdan tishlarni ko_satish – qahr, tajovuzkorlik;
- terlamok, ter – g_oʻazab, xijolat bo_lish, asabiylanish, yolg_on;
- titroq (qo_l, oyoq barmoqlarida, yuz mushaklarida) – ichki zo_oriqish, qo_rquv, yolg_on;
- ko_zini pirpirash – qo_zg_oʻalish, yolg_on;
- qorinning g_oʻuldirashi – qo_rquv (doim ham emas, vaziyatga qarab);
- tishlarni g_oʻjilatish – kuchli nervoz, stress, o_ylaganni amalga oshira olmaslik.

Bunday reaksiyalar ayollarga nisbatan erkaklarda aniqroq ifodalanadi va kuzatish imkoni ko_oproq bo_ladi.

Profilaktika inspektori profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirish jarayonida yolg_on ko_satuvlar berishga harakat qilayotgan shaxslarning so_zlarini ko_oproq tinglashlari kerak degan xulosa kelib chiqadi. Buning sabablari bir qancha:

- insonning aynan so_zda (verbal) ifodalangan axborotni idrok etishga ichki moyilligi;

- nutqni oldindan tayyorlab qo'yish mumkinligi;
- qaytma aloqa mavjudligi (gapirayotgan odam bayon etishning muvofiq keluvchi yo'lini tanlab, o'zini eshitadi);
- so'zlar uchun javob berishga to'g'ri keladi, chunki ularni takrorlash oson va ulardan batamom voz kechish qiyin.

Insonning yuziga ham so'zlardan kam bo'lmagan e'tibor qaratiladi. Yuz qiyofasi ovoz bilan birgalikda eshituvchiga so'zlayotgan shaxsda uning o'z so'zlari keltirib chiqaradigan hissiyotlari haqida axborot berishi, shu bois insonning yuzi ham aldashi mumkin. Ammo yuz mimikasini nazorat qilish qiyinroq. Inson yuzi miyaning hissiyotlar uchun javob beruvchi sohalari bilan bevosita bog'liq, so'zlar esa unday emas. Nimani gapirayotganimizni bilish oson, ammo yuzimiz nimani ifodalayotganini bilish ancha qiyin. So'zlar va yuzga ajratiladigan bunchalik saxiy e'tibor natijasida plastika va ovozga deyarli e'tibor qolmaydi. Shunga qaramay, suhbatdoshini yolg'on gapirayotganda gumon qiluvchi insonlar ularning ovozi va tanasiga ko'proq e'tibor berishlari to'g'ri bo'ladi. Ovoz ham, yuz singari, hissiyotlar uchun javobgar miya sohalari bilan bog'liqdir.

Inson tanasi axborot chiqadigan va boshqa aldash belgilari ko'rinadigan yaxshi manbadir. Tana harakatini nazorat qilish uncha qiyin bo'lmasa-da, ko'pchilik bunga e'tibor bermaydi, ya'ni zarurati yo'q deb hisoblaydi. Biz odamlarning yuzlariga qarash bilan haddan tashqari bandmiz va ular so'zlaganda savol beramiz.

Yolg'onni aniqlash oson emas. Muammo axborotning ko'pligida. Bular: so'zlar, to'xtamlar, ovoz jarangi (sadosi), yuz ifodasi, bosh harakati, imo-ishoralar, gavda holati, nafas olish, ter bosish, yuzdagi qizillik yoki rangparlik va hokazo. Ana shu manbalarning hammasi axborotni galma-gal va birgalikda berishi mumkin.

Yolg'on gapirayotgan shaxs bировlar ko'proq diqqat bilan kuzatadilar deb hisoblaydigan narsalarnigina yashiradi va soxtalashtiradi.

Nutqni oldindan tayyorlab qo'yish mumkin, ammo kimnidir aldashga uringan inson asosan beparvoligi (beg'amligi) tufayli nutqiy xatolarga yo'l qo'yadi. Ko'pchilik ehtiyotsizlikka yo'l qo'yib aytgan so'zlari bilan o'zini fosh qiladi. Zigmund Freyd buni tildagi yanglishuv sifatida ta'riflagan. Yanglishuv, – deb yozgan edi u, – o'ziga xos «aytishni istamagan, ammo o'zingni fosh etib qo'yadigan narsani ifodalash quroli»ga aylanadi. Agar so'zlayotgan odam bila turib yolg'on gapirayotgan bo'lsa, ma'yuslik ongli bo'lishi mumkin. U istamagan holda gapirib qo'ygach, o'zining tushkun holatini tushunishi ham, bunga e'tibor bermasligi ham mumkin. Yanglishib aytilgan gaplar bo'yicha yolg'onni aniqlashda ehtiyot bo'lish zarur, deb

hisoblaydi P. Ekman, chunki ana shu yanglishuvlarning hammasi ham yolg_ondan dalolat beravermaydi. Yanglishuv yolg_onni fosh qilayotgani yoki qilmayotganini odatda kontekstdan kelib chiqib aniqlash mumkin. Shu o_rinda boshqa bir keng tarqalgan xatoning oldini olish va yanglishib gapirmaydigan har bir kishini haqiqatgo_y deb hisoblamaslik ham zarur. Ko_plar yolg_on gapirayotganida yanglishuvga yo_l qo_ymaydi. Hozircha qandaydir yolg_onning yanglishuv bilan fosh bo_lishi, qaysilaridir bunday bo_lmasligini izohlovchi hech bir tadqiqot amalga oshirilmagan (hatto taxminlar ham bildirilmagan).

Yolg_on psixologiyasiga oid ayrim tadqiqotlarga ko_ra, ba'zilar yolg_on gapirayotganida dangal javob bermaydi, gapni aylantiradi yoki keragidan ortiq ma'lumot beradi. Boshqa tadqiqotlarning ko_rsatisicha, buning aksi ham bo_ladi: aksariyat odamlar savolga javob berishdan bo_yin tovlash va aniq javob berishdan qochish uchun haddan tashqari ayyordirlar. Bunday yolg_onchilarni sezmaslik ham mumkin. Aynan shu joyda gaplari javobdan qochish yoki gapni butunlay aylantirish bo_lgan haqiqatgo_y insonni noto_g_ri baholash xavfi (individual xususiyatlar xatosi) mavjud. Ba'zilar doimo ana shunday so_zlaydilar. Bundaylarning so_zlash uslubi shunaqa. Ammo bu yolg_onchilik alomati emas, balki ularning oddiy gapirish uslubi-dir. Masalaning murakkabligi shundaki, ko_pincha birovning aldayotganini aniq ko_rsatib turgan har qanday ko_rinishlar boshqa odamlar uchun kundalik xulqining tarkibiy qismi bo_lishi mumkin.

To_xtalish (pauza) va tutilishlar. To_xtalishlar haddan tashqari uzoq yoki qisqa bo_lishi mumkin. So_zlar oldidagi tutilishlar (duduqlanishlar), ayniqsa bu savolga javob berayotganda kelib chiqsa, har doim shubha uyg_otadi. Nutq jarayonining o_zidagi qisqa to_xtalishlar ham haddan tashqari ko_p uchrasa, shubhali tuyuladi. Nutqdagi xatolar, masalan: «hm», «xo_sh» va «e-e» singari kirish so_zlar; «men», «men», «men» ... nazarda tutyapman» singari takrorlar; «Menga j-juda yoqdi» singari ortiqcha bo_g_inlar ham yolg_on alomatlari bo_lishi mumkin. Nutqdagi to_xtalish va tutilishlarning sabablari quyidagilardan iborat:

– yolg_onchining o_z harakatlari yo_nalishini, muayyan masalani yaxshilab o_ylamagani;

– fosh bo_lishdan qattiq qo_rqqani.

Bundan tashqari, odam o_zining yolg_oni haqiqatdan qanchalik uzoqligini eshitsa, qo_lgatushishdan yanada ko_proq qo_rqa boshlaydi, natijada to_xtalish va nutqiy xatolar ko_payibboradi.

Axborotni berish-uzatish texnikasi (yo_llari) bilan bog_liq yolg_on belgilariga alohida e'tibor qaratish lozim:

– savollarga haddan tashqari tez berilayotgan javoblar o_ylashga majbur qilishi lozim;

– berilayotgan axborotga haqiqiy munosabatni niqoblash yoki buzib koʻrsatgan holda qandaydir boshqa jihatlarini nutqiy vositalar – intonatsiya, pauza va boshqalar yordamida namoyishkorona taʼkidlash (ajratib koʻrsatish).

Oxirgi belgi yolgʻon gapiruvchilar boshqa birovni chalkashtirish uchun atayin qoʻllaydigan usullar guruhiga kiradi va boshqa maʼlumotlar bilan qiyoslaganda, yolgʻon koʻrsatkichi boʻlib xizmat qilishi mumkin. Kundalik amaliyotda bu aynan usul ekanligiga ishonch hosil qilinganida, bunday holatlar haqida boshqa birovni ishontirishga urinib «oshirib yubordi» deyiladi.

Ovoz nutq toʻlqinlarining fiziologik koʻrsatkichlarini oʻlchash asosida insonning hissiy holatidan dalolat beradigan nihoyatda informativ koʻrsatkichdir. Ushbu fiziologik koʻrsatkichlarga quyidagilar kiradi: nafas olish harakatlarning xarakteri, qon oqimi bilan bogʻliq boʻlgan ovozdagi pulsatsiya; ovozdagi asosiy ohang oʻzgarishlari; ovoz apparati mushaklarining tebranishi. Biroq ovozdagi oʻzgarishlarga qarab aynan yolgʻonning ishonchli alomatlarini aniqlash mumkin deb qatʼiy taʼkidlashning amalda iloji yoʻq. Koʻpincha, biz stress taʼsirida salbiy hislar yuzaga kelganligining belgilarini koʻramiz. Shu bois ovoz xarakteristikalari (koʻrsatkichlari)dagi oʻzgarishlarni boshqa qoʻshimcha alomatlarni hisobga olgan holda talqin etish kerak.

Tajribadan maʼlum boʻlishicha, samimiy inson oʻziganisbatan shubha borligini koʻrganida koʻproq gapirishga va samimiyligini isbotlashga harakat qiladi, ayni vaqtda berilgan toʻgʻri savollarga qaytarilgan beparvo, mujmal javoblar normal xatti-harakat tushunchasiga mos kelmaydi. Bunday javoblar suhbat jarayonida yolgʻon gapirish borgan sari qiyinlashib borishi bilan bogʻliq:

- soʻzlarda qatʼiyatsizlik paydo boʻlishi;
- toʻxtovsiz gaplashish yoki koʻplab savollar berish orqali suhbatdoshni chalgʻitish;
- savollarga javob berishni istamaslik yoki javob bera olmaslik;
- savollarga javob berishdan oldin uzoq vaqt jim qolish; savollarga haddan tashqari imillab yoki chalkash javob berish;
- savolga savol bilan javob berish;
- berilayotgan savollarni ovoz chiqarib takrorlash yoki tushunarliroq qilib berishni soʻrash;
- savolning mohiyatini ishga aloqasi boʻlmagan ortiqcha maʼlumotlar bilan niqoblash.

Soʻralayotgan shaxs xatti-harakatidagi quyidagi xususiyatlar uning yolgʻon gapirayotganidan dalolat berishi mumkin:

- inson xulqining vaziyatga nomuvofiqligi;
- xayrixohlikni oshirib namoyish qilish; vaziyat taqozo etmasa ham iljayaverish;
- so_{ra}magan yordamingizni berish;
- arziyas sabablarga ko_{ra} qahr-g_{azab}ini baralla ko_{rsat}ish;
- o_zini yomon his qilayotganidan shikoyat qilish, tibbiy yordam so_{ras}h; bu hol haqiqatan ham umumiy ahvoli yomonlashganidan dalolat berishi ham, e^tiborni chalg_{it}ish usuli, suhbatni tugatish uchun bahona bo_lishi ham mumkin.

A. Piz –“o_zini yuzga olib borish” ishoralari sifatida ajratgan barcha imo-ishoralarni –“sharhlovchi”larga kiritish mumkin. Yosh bola yolg_{on} gapirgach og_zini qo_{ll}ari bilan to_{liq} yopadi. Katta yoshdagi kishi o_zini nazorat qilar ekan, bu harakatni o_{rt}asidan uzib qo_yadi, ammo qo_li allaqachon ko_{rt}atilgan bo_ladi, natijada qo_lni boshning o_zga qismiga olib borishdan boshqa yo_li qolmaydi. –“o_zini yuzga olib borish” ishoralariga quyidagilar kiradi:

- –“og_zini yopish” ishorasi – og_zini kaft, barmoqlar yoki musht bilan yopish, shuningdek og_zini to_{sg}an holda yo_{tal}ish. Bunday ishora baholash pozitsiyalari bilan bog_{liq} bo_{lg}an hollarda jiplashgan kaft yonoqlarda, ko_{rsat}kich barmoq esa ko_{pin}cha yuqoriga qaragan holda joylashadi. Agar suhbatdoshingiz siz gapirayotgan vaqtda og_zini to_{ssa}, demak u yolg_{on} gapirayotganingizni sezayotgan bo_ladi;

- –“Burunga tegish” ishorasi – burunni ohista ishqalash yoki tez tegish, odatda burunni amalda qashishdan farqli ravishda, unchalik aniq ko_{rin}maydi; burunga tegish (yengil, deyarli sezilmaydigan tarzda burun tagidagi chuqurchaga tegish yoki burun uchini ishqalash va sh.k.) – bu og_zini to_{sis}hdan ko_{ra} nozikroq ishora shaklidir;

- –“Ko_zni ishqalash” ishorasi – g_{it} yolg_{on} ishlatayotganda erkaklar ko_zlarini olib qochish va ishqalashga, ayollar esa ko_zga ohista barmoq tegizib ko_z ostidagi sohani ishqalashga moyil bo_{lad}ilar. Bu ishoraga qisilgan tishlar va soxta tabassum qo_{sh}ilishi mumkin;

- –“Yoqani ko_{rt}atish (tortish)” ishorasi – A. Piz, D. Morrisning tadqiqotlariga asoslanib, bu ishorani yuz va bo_yinning sezgir to_qimalarida yolg_{on} gapirayotganda ter chiqishi tufayli yuzga keladigan yengil qichishish bilan bog_{lay}di. Bu harakatlarga ayniqsa e^tiborli bo_ling; agar ular keskin va kuchli bajarilsa, suhbatdoshingizda yurak xuruji boshlanganidan dalolat berishi mumkin;

- sochlarni tarash, quloqni ishqalash, quloq chig_{anog}ini bukish – bunda inson yolg_{on}ni eshitmaslikka harakat qiladi (suhbatdoshingizning bu harakatlari sizning so_zlaringiz bilan kechsa, demak u sizga ishonmaydi);

- bo'yinning quloq ostidagi sohasini ko'rsatkich barmoq bilan qashish – shubha yoki gumon;
- sochni tez-tez silash.

Xulosa sifatida shuni qayd etish mumkinki, profayling metodi ko'ma-gida profilaktika inspektori o'z xizmat faoliyatlarini yanada takomillash-tirishlari mumkin. Ushbu metodning afzalligi shundaki, u qisqa fursat ichi-da shaxs haqida to'liq axborot manbaiga ega bo'lishi mumkin. Shuning har bir profilaktika inspektori o'zining hududiy etnopsixologik xususiyatlarini inobatga olishi tavsiya etiladi.

Savol va topshiriqlar

1. Profayling metodi deganda nimani tushunasiz?
2. Profilaktika inspektorining fuqarolar bilan bo'ladigan muomalasida profayling metodining ahamiyati haqida sozlab bering.
3. Profilaktika inspektori faoliyatida qo'llaniladigan profayling qanday xususiyatlarga ega?
4. Profayling sohasidagi xorijiy tajriba haqida nimalarni bilasiz?
5. Mutaxassis-profaylerlarga qo'yiladigan talablarni sanab ko'rsating.
6. Profayling usullari qanday holatlarda qo'llaniladi?
7. Yolg'on nazariyasi, uning kelib chiqish sabablari va shakllari haqida tushuntiring.
8. Inson xulq-atvori va xatti-harakatini psixologik baholashda profayling xizmatining tutgan o'rni haqida aytib bering.

V bob. JAMOAT TARTIBINI SAQLASHDA PSIXOLOGIK BILIMLARDAN FOYDALANISH

1-§. Jamoadan tashqari axloq tushunchasi va uning psixologik o'ziga xosligini belgilovchi omillar

Hozirgi vaqtda turli xil ommaviy tadbirlar aholining ijtimoiy faolligi va bo'sh vaqtini o'tkazishining keng yoyilgan shakllaridan biri hisoblanadi hamda shaxsning siyosiy hayoti, sport, madaniyat, san'at yutuqlaridan bevosita bahramand bo'lish ehtiyojini qondiradi. Demokratiya sharoitida fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini amalga oshirishlari ko'p jihatdan ularning davlat organlari, siyosiy partiya va harakatlar, shuningdek turli xil kasaba uyushmalari, sport, madaniyat, diniy va boshqa tashkilotlar tomonidan o'tkaziladigan turli xil ommaviy tadbirlarda faol ishtirok etishlari bilan bog'liq.

Shu o'rinda, avvalo ommaviy tadbirlarning turlari va ularni o'tkazish tartibiga to'xtalishdan avval, uning lug'aviy ma'nosiga alohida e'tibor qaratsak. «O'zbek tilining izohli lug'ati»da «ommaviy» so'zining mohiyatiga «ommaga, ko'pchilikka oid; ko'pchilik tomonidan yoki omma orasida bajariladigan ommaviy ish, ommaviy harakatlar», deb izoh berilgan.

Jamiyatda kishilarning turli xatti-harakatlari ommaviy tarzda amalga oshiriladi. Qadimdan inson yashash uchun kurashib kelgan. Bu jarayonda inson xohish-irodasining turli shakllari namoyon bo'lgan, ya'ni insonda ommaviy harakatlarga moyillik yuzaga kelgan.

Ularning bir qancha ijtimoiy-psixologik turlari mavjud va mish-mish gaplar, olomon, namoyishlar va boshqa shakllarda namoyon bo'ladi.

Shaxs o'zining ijtimoiy faoliyatida turli-tuman voqea-hodisalarga duch keladi, ayniqsa muomala jarayonida o'zi xohlagan va xohlamagan odamlar bilan uchrashadi va suhbatlashadi. Ular o'z dunyoqarashiga qarab, ruhiy jihatdan muayyan maqsadga ko'ra jamoalarni vujudga keltiradi.

Bunday jamoalarning xatti-harakatlari o'rnatilgan qonun va axloq qoidalariga to'g'ri kelmasa, jamiyatga zid xatti-harakatlar hisoblanadi.

Jamoadan tashqari xatti-harakat shaxsning qonun doirasidan chetga chiqishi va jamiyatda o'rnatilgan tartib-qoida hamda qonunlarni bilib-bilmasdan buzishi, jamiyatga qarshi xatti-harakatlarni sodir etishidir.

Shu sababli jamoadan tashqaridagi har qanday xatti-harakat, ya'ni ommaviy ijtimoiy tartibbuzarlik ijtimoiy qo'rquv, vahima ostidagi delikvent xulq o'zgarishlarini yuzaga keltiradi. Delikventlik – tartib, tarbiyaning izdan chiqishi, ya'ni tartibsizlik, tarbiyasizlik, konfromlilik (tashqi ta'sirlarga berilish), madaniyatsizlik kabi psixik kamchiliklarni namoyon etadi.

Inson xulq-atvorida konformlik darajasining kuchayishi oqibatida noadekvat (nomunosib) xatti-harakatlar yuzaga keladi va tashqi taʼsirlarga beriluvchanlik holatlari kuzatiladi. Natijada shaxs xatti-harakatlarining maʼlum meʼyorlardan chiqishi va jamiyatdagi mavjud qonunchilikka mos kelmaydigan koʻinishi jamiyatga zid xatti-harakatlar deb ataladi.

Kishilarning jamoadan tashqari salbiy xatti-harakatlari bilan bogʻliq jinoyatlar Oʻzbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 244, 277-moddalarida jamoat tartibi va jamoat xavfsizligiga qarshi jinoyatlar huquqiy tartibga solingan.

Ommaviy tadbirlarning ikki turi mavjud.

Ruxsat etilgan ommaviy tadbirlar – koʻngilochar, teatr-tomosha, konsert, sport, reklama dasturlari va boshqa dam olish dasturlari, umumxalq, diniy, kasbiy bayramlar hamda miting, yigʻilish, namoyishni oʻtkazish maqsadida yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan ochiq va yopiq inshootlarda, maydonlar, binolar va boshqa joylarda tegishli organ va idoralardan ruxsat olgan holda tashkil etiladigan tadbirlar;

Ruxsat etilmagan ommaviy tadbirlar – tegishli davlat organlari va idoralaridan ruxsat olmasdan tashkil qilinadigan miting, yigʻilish, namoyish va koʻcha yurishlari.

Normativ-huquqiy hujjatlarda ommaviy tadbirlarni oʻtkazish fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy faolligini ifoda etgani bois, jamoat xavfsizligini taʼminlash nuqtai nazaridan tegishli davlat hokimiyati organlari tomonidan ruxsat etilgan taqdirdagina amalga oshirilishi belgilab qoʻyilgan.

Ruxsat etilmagan ommaviy tadbirlarni oʻtkazish yoki rejalashtirish qonunchilikda nazarda tutilgan muayyan javobgarlikni yuzaga keltiradi. Ommaviy tadbirlarning eng muhim huquqiy sharti – ularning oʻtkazilishiga davlat hokimiyat organlaridan tegishli tartibda ruxsatnomaning olinishidir. Shu bois yuridik adabiyotlarda *ruxsat etilgan va ruxsat etilmagan* ommaviy tadbirlar deb, tasniflangan.

Hududiy belgilariga qarab ommaviy tadbirlar:

- tuman-shahar miqyosida;
- viloyat miqyosida;
- respublika miqyosida;
- xalqaro miqyosdagi turlarga boʻlinadi.

Ommaviy tadbirlarning asosiy turlari quyidagilardan iborat:

Miting – fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi voqea-hodisalarga, shaxslar yoki tashkilotlarning harakatlari (harakatsizligi)ga nisbatan oʻz munosabatlarini ifoda etish va ommaviy ravishda muhokama qilish maqsadidagi ommaviy yigʻini;

ko_cha harakatlari – ko_chaning qatnov yoki piyodalar yo_laklarida, chorrahalarida qandaydir masalalarga diqqatni jalb qilish maqsadida odamlar tomonidan tashkil etiladigan ommaviy harakat;

namoyish – harakat jarayonida plakatlar, e‘lonlar va boshqa ko_igazmali vositalardan foydalangan holda jamiyat siyosiy kayfiyatining odamlar guruhi tomonidan ommaviy namoyish etilishi;

yig_ilish – fuqarolar guruhi tomonidan o_zlaining kayfiyatlari, munosabatlari va qarashlarini ma‘lum joy, hudud, binolarda boshlovchi, boshqaruvchi tomonidan ularga qarshi tomonga ma‘lum qilinishi.

Yuqorida qayd etilgan tadbirlar o_tkazilayotganda jamoat tartibini saqlash va fuqarolar xavfsizligini ta‘minlash, aholining tinchligi, osoyishtaligini saqlash, fuqarolarning erkinliklari va qonuniy manfaatlarini turli tajovuzlardan himoya qilish asosan ichki ishlar organlarining zimmasidagi vazifalar hisoblanadi.

Ommaviy tadbirlarning mazmuni va yo_ndishiga qarab quyidagi turlarga bo_lish mumkin:

- ijtimoiy-siyosiy;
- ommaviy-madaniy;
- sport-tomosha;
- diniy marosimlar.

1. *Ijtimoiy-siyosiy tadbirlarga* namoyishlar, mitinglar, yurishlar, siyosiy partiyalar va jamoat tashkilotlarining qurultoylari (syezdlari), saylovlar, turli darajalardagi deputatlar, Respublika Prezidentining saylanishi kabilar kiradi.

2. Ommaviy tadbirlarning yana bir keng tarqalgan turi *madaniy-ommaviy tadbirlardir*. Ularga quyidagilar kiradi: ko_igazmalar, vernisajlar (ko_igazmani ochish marosimlari), xalq sayillari, teatrlashtirilgan tomoshalar, festivallar, yarmarkalar, konsertlar va hokazo.

3. *Sport-tomosha tadbirlari*, an‘anaga ko_ra, respublikamizda aholi ommaviy dam olishining keng yoyilgan shakllaridan biri hisoblanadi. Ular, miqyosi va muhimligi darajasiga ko_ra, xalqaro, respublika, viloyat, shahar va tuman miqyosidagi tadbirlarga bo_linadi. Odamlarning ommaviy to_planishi hamda jamoat tartibining holatiga ko_riyatadigan ta‘sir darajasi bo_yicha qo_riqlash uchun eng qiyini futbol, kurash, katta tennis kabi sport o_yinlarining o_tkazilishidir. Ushbu ommaviy tadbirlarning o_ziga xos jihati, futbol matchlarida muayyan toifadagi sport ishqibozlari, turli sport klublariga mansub ashaddiy muxlislarning bo_lishidir.

4. *Ommaviy-diniy tadbirlar*, jumladan respublikamizdagi har xil diniy bayramlar, odatda, tegishli machitlarda dindorlar va oddiy qiziquvchilar ko_plab to_plamadigan sharoitda o_tkaziladi. Hozirgi vaqtda davlat siyo-

satining dinga munosabati o_zgargani sababli yangi machitlar qurilmoqda, eskilari tiklanmoqda, dindorlarga ibodat uchun maqbul sharoitlar yaratilmoqda. Ular orasida faoliyati g_ayriijtimoiy xususiyatga ega bo_lgan va atrofdagilar uchun xavf tug_diradigan oqimlar bo_lganligini ham esdan chiqarmaslik kerak. Ushbu oqimlarga ko_pchilikka ma'lum bo_lgan «Vahhobiylar», «Akromiylar», «Hizb ut-tahrir» kabilar kiradi. Ular o_z saflariga yoshlarni tortadilar, odamlarni yo_ldan uradilar, ba'zan esa huquqbuzarlik va jinoyatlar sodir etadilar.

Ommaviy tadbir o_tkazilayotgan obyekt va uning atrofida turli xil favqulodda vaziyatlarning kelib chiqishining oldini olish maqsadida, profilaktika inspektorlari tomonidan profilaktik tadbirlar o_tkazilayotganda quyidagi psixologik bilimlarga ega bo_lishlari maqsadga muvofiq:

- jamoat tartibini saqlash va xavfsizlikni ta'minlashga jalb etilgan profilaktika inspektorlar tezkor vaziyatni doimiy ravishda *kuzatishlari* asosida shubha uyg_otuvchi va tez ekstaz (jazava, o_zini yo_qotish darajasida zavqlanish, hayajonlanish) holatiga tushib qoluvchi shaxslarni aniqlash;

- jamoat tartibining buzilishiga olib keluvchi sabab va sharoitlarni aniqlash va uni bartaraf etish bo_yicha o_z vaqtida ommaviy tadbir ishtirokchilariga psixologik ta'sir choralarni ko_ish;

- shubha uyg_otuvchi va ekstaz holatiga tushib qoluvchi shaxslarga psixologik ta'sir ko_rsata olish (xodimlar tomonidan doimiy nazoratda ekanligini his qilib turishi);

- tezkor xodimlar tomonidan ommaviy tadbir ishtirokchilariga psixologik ta'sir ko_rsatish maqsadida mish-mish gaplardan foydalanish;

- ommaviy tadbir ishtirokchilari orasidan shubha uyg_otuvchi shaxslarni olib chiqib ketishda obro_sizlantirish usulidan foydalanish.

Aytish joizki, ommaviy tadbir o_tkazilayotganda ommaviy tartibsizlik vujudga kelishining oldini olishda ichki ishlar organlari xodimlari tomonidan psixologik bilimlarga ega bo_lish, ayniqsa insonning jamoadan tashqari xatti-harakatlari psixologiyasini bilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Insonning jamoadan tashqari xatti-harakatlari doirasi keng bo_lib, biz mazkur bobda asosan faqat *mish-mish gaplar va olomon psixologiyasiga to_xtalibo_tamiz*.

Turli jamoalarni harakatga keltiruvchi omillardan bo_lmish mish-mish gaplar hamda olomon doimo huquqshunoslar, psixologlar va sotsiologlar diqqat-e'tiborida bo_lgan Jamoadan tashqari axloq psixologiyasi haqida bir qator olimlar o_z qarashlarini bayon etgan. Masalan, fransuz psixologi Le Bon Gyustavning fikriga ko_ra, «insonning ma'lum bir guruh yoki jamoa orasida o_ziga bo_lgan ishonchi, irodaviy kuchining ortishi va intellektual ongining susayishini kuzatamiz. Aksariyat hollarda olomondagi

odamda o'z xatti-harakatiga nisbatan nazoratning yo'qolganligini ko'rish mumkin»¹.

Rus olimi F. N. Plevako insonlarning jamoadan tashqari xatti-harakatlarini psixologik jihatdan tahlil etgan va umumiy xulosaga kelgan. Muallifning fikricha, olomon – katta bir devor, undagi odamlar esa ushbu devor elementlaridir. Olomon orasida bo'lish, undagi instinkt belgilaridir². Insonning jamoadan tashqari xatti-harakatlardagi zarur elementlardan biri unda liderning mavjudligidir.

Shu nuqtai nazardan «insonning jamoadan tashqari xatti-harakati» tushunchasi ijtimoiy psixologiya va yuridik psixologiyada muhim ahamiyatga ega bo'lib, inson xulq-atvorining ma'lum ma'noda huquqiy normadan chiqishi, unda impulsiv (shartsiz refleks) harakatning namoyon bo'lishi bilan izohlanadi. Bundan tashqari, inson ruhiyatida kuchli qo'zg'atish hissiy muvozanatsizlikning ortishi va idrok etish ko'lamining torayishini sezish mumkin. Jamoadan tashqari xatti-harakatda asosiy rolni, ya'ni dominantlik (ustunlik)ni olomonga rahbarlik, tashkilotchilik qilayotgan yo'lbo'shchilar bajaradi. Shuning uchun ham odamlarning jamoadan tashqari xatti-harakatlariga jinoiy-huquqiy nuqtai nazardan baho berilganda yo'lbo'shchilar jamoaning tashkilotchisi va rahbari hisoblanadi. Ular asosan mish-mishlarni tarqatishda hamda olomonni harakatga ketirishda katta rol o'ynaydi. Ijtimoiy psixologiyada shaxsning ijtimoiy munosabatlarga kirishishi, turli ijtimoiy ko'rinishlardagi xatti-harakatlarining ijtimoiy psixologik qonuniyatlari o'rganiladi. Chunki insonlarning bir-birini idrok etishi munosabatlar mexanizmini yaratadi. Shu nuqtai nazardan odamlarning jamoadan tashqaridagi xatti-harakatini tartibga solishda bevosita olomon psixologiyasini o'rganish, ya'ni inson xulq-atvorini huquqiy jihatdan tartibga solish va me'yorlash maqsadga muvofiqdir.

Chunki har bir jamiyatda jamoatchilik fikri, kayfiyati va ichki ma'naviy-ruhiy dunyoqarashi asosida ijtimoiy psixologik ko'rinishlar, hodisalar, voqealar namoyon bo'lib, bu dinamik xarakterga ega. Ya'ni olomondagi insonning xatti-harakatlariga ham biologik, ham ijtimoiy omillar dominantlik (ustunlik) qiladi. Natijada insonda tashqi hodisalar ta'siriga berilish ichki irodaviy boshqaruv va o'zini o'zi nazorat qilishning susayishini kuzatish mumkin.

Bu borada atoqli rus olimi M. I. Yenikeyevning «aksariyat jinoiy xatti-harakatlarning zamirida odamlarning ayrim ijtimoiy ko'rinishlarga bo'lgan

¹Qarang: *Ле Бон Гюстав. Психология масс и народов.* – М., 2000. – С 56.

² Qarang: *Плевако Ф.Н. Избранные речи.* – М., 1993. – С. 74.

dezadaptatsiyalashuvi (moslasha olmasligi) sabab bo‘ladi»¹, degan fikrlarida qaysidir ma‘noda haqiqat mavjud.

Shu nuqtai nazardan ichki ishlar organlari xodimlari o‘z kasbiy faoliyatida asosiy ijtimoiy-psixologik ko‘rinishlar (mish-mish gaplar, olomon)ga qarshi kurashishda olomonning ijtimoiy va etnopsixologik xususiyatlarini va geografik shart-sharoitlarini chuqur o‘rganishi hamda tahlil qilishi muhim o‘rin tutadi. Inson hayoti davomida urf-odatlar, etnik va ijtimoiy qadriyatlarga rioya etishga majbur. Bu, o‘z navbatida, uning jamoada ichki muhitni yaratishida psixologik mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi. Aksariyat hollarda insonlarning xatti-harakatlarida huquqiy normalardan chetga chiqishlarda ularning ayrim ijtimoiy munosabatlarga moslasha olmasligi bosh omillardan biri sanaladi. Chunki ijtimoiy moslashuvchanlikning yo‘qligi nafaqat ichki qadriyatlar, yo‘nalishlarning sustligida, balki undagi ijobiy ijtimoiy stereotiplar va ko‘nikmalarning shakllanmaganligida va o‘ziga o‘zi bergan bahoning pastligida namoyon bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan olomon tarkibiga kiruvchi odamlarning aksariyatida mish-mish gaplarga psixologik yuqumlilik, konformizm (tashqi ta‘sirlarga tez beriluvchanlik) holatlari ko‘proq kuzatiladi. Aytish joizki, jamiyatda bo‘layotgan ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy o‘zgarishlar bevosita insonlar ongiga o‘z ta‘sirini o‘tkazadi va bu, qaysidir ma‘noda, inson xatti-harakatlarini ma‘lum bir me‘yordan chiqishiga sabab bo‘luvchi bosh omillardan biridir. Chunki har bir inson ma‘lum bir jamoada o‘zining ichki dunyoqarashi, ehtiyoj va motivlari asosida qandaydir vazifani bajaradi.

Asosiy ijtimoiy psixologik ko‘rinishlar, ya‘ni mish-mish gaplar va olomon ichki ishlar organlari xodimlari uchun doimo operativ qiziqish uyg‘otgan va hamma vaqt mish-mish gaplar tarqatgan hamda jamoat xavfsizligi, tartibiga xavf soluvchi shaxslar hisobga olingan.

Yuqorida qayd etilganlardan kelib chiqadigan bo‘lsak, asosiy ijtimoiy-psixologik ko‘rinishlardan biri bo‘lmish mish-mish gaplar va olomon psixologiyasini o‘rganish bugungi kunda ichki ishlar organlari xodimlari faoliyatidagi muhim muammolardan biri sanaladi. Shu sababli ushbu ijtimoiy-psixologik ko‘rinishlarga batafsil to‘xtalib o‘tish maqsadga muvofiqdir.

2-§ Jamoadan tashqari xulq-atvorni yuzaga keltiruvchi ijtimoiy-psixologik hodisalar

Turli jamoalarni harakatga keltiruvchi omillardan bo‘lmish mish-mish gaplar hamda olomon psixologiyasi doimo huquqshunoslar, psixologlar va sotsiologlarning diqqat markazida bo‘lgan.

¹ Qarang: *Еникеев М. И.* Юридическая психология. – СПб., 2005. – С. 65.

Mish-mish gaplar odatda asosga ega bo'lmagan axborotdir. Ular mazmun jihatdan matbuot, radio, televideniye orqali tarqatiladigan axborotga nisbatan nihoyatda sayozdir. Ammo faqat shu asosda ularga e'tiborsiz munosabatda bo'lish mumkin, majoziy qilib aytganda, bola cho'ltirilgan tog'oradagi suvni bola bilan birga tashlab yuborishni anglatadi. Gap shundaki, mish-mish gaplar mantiqsizligiga qaramay, aholining muayyan tabaqalari ongi va xatti-harakatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ayrim hollarda, afsuski, mish-mish gaplar xatti-harakatning rasmiy axborotga qaraganda kuchliroq determinanti (omili) bo'ladi.

Shu ma'noda, mish-mish gap psixologik tuzilishiga ko'ra ijtimoiy hodisa bo'lib, o'tgan asrning 20-yillaridan boshlab maxsus o'rganib kelinmoqda. Buning sababi o'sha yillardagi siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy ahvol va aholining savodsizligi bo'lib, bundan ko'pgina shaxslar g'arazli niyatlarda foydalanishgan. Shu davrda mish-mish gaplar insonlar hayoti va taqdirida katta rol o'ynagan.

Mish-mish gaplardan kelib chiqadigan hissiy ta'sir o'tkir hissiy qoniqishni vujudga keltiradi. Hissiyotlar nazariyasidan kelib chiqadigan bo'sak, inson his qilayotgan qoniqish, lazzat mish-mishlardagi xabar (garchi yolg'on, voqelikka mos kelmaydigan, ammo rostga o'xshab ketadigan bo'lsa ham) kutilganidan ortiq axborot bergan taqdirdagina mavjud bo'ladi. Qandaydir (moddiy yoki ma'naviy) qadriyatlarga ega bo'lishga intilgan hollarda axborotning bunday o'ziga xos ko'pligi zavq, xursandchilikni yuzaga keltiradi. Masalan, amalga oshish ehtimoli juda kamdek tuyulgan azaliy orzu kutilmaganda ushalganini ta'kidlovchi mish-mish gaplarning oqibati ana shunday. Ushbu holda hissiy zavqlanish (hissiyotni junbushga keltirish)ga bo'lgan ehtiyoj qanoatlantiriladi, holbuki, albatta, mish-mish bunday maqsadga o'ziga xos tarzda, inson xabarning chin yoki chin emasligini bilmagan baxtli holatda bo'ladigan davr mobaynidagina erishadi.

Demak, mish-mish gaplarga qarshi kurash – oson ish emas, bu maqsadda turli-tuman usullardan foydalaniladi. Ammo, asosiysi – odamlarda mish-mishlarga qarshi ma'naviy-ruhiy barqarorlikni shakllantirish. Bunga esa butun mafkuraviy ishlar tizimi orqali erishiladi.

Mish-mish gaplar aslida mohiyatiga ko'ra ma'lum ma'noda tasdiqlangan yoki hech kim tomonidan tasdiqlanmagan xabar vazifasini bajaradi, shuning uchun ham ba'zi shaxslar hayotida va jamiyatda ma'lum bir ijtimoiy-psixologik muammolarni yuzaga keltiradi, natijada jamiyatni, insonlar turmush tarzini o'zgartirib yuborish xususiyatiga ega bo'ladi.

Shu nuqtai nazardan, mish-mish gaplar ijtimoiy-psixologik xususiyatga ega bo'lib, jamoatchilik ongiga salbiy ta'sir ko'rsatadi va jamiyatga zid

boʻlgan ommaviy tartibbuzarliklarni keltirib chiqaradi. Bu esa ichki ishlar organlari xodimlari faoliyatini yanada murakkablashtiradi.

Koʻp hollarda mish-mish gaplarning kelib chiqishi va tarqalishining asosiy sabablaridan biri shaxslarda kerakli maʼlumotlarning yetishmasligidir. Buning natijasida shaxslarning maʼlum muammo, voqea-hodisaga nisbatan talab, ehtiyoj va qiziqishlari qondirilmaydi. Bu esa, oʻz navbatida, xabarlarni tarqatishda ularga hissiy tus beradi, ularni boʻstirish va boyitishga olib keladi. Mish-mish gaplar maʼlum maqsad va manfaatlarga qaratilib, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy-maishiy yoʻnalishlarda namoyon boʻladi. Ular gʻaraz niyatlarda tarqatiladi. Mish-mish gaplarni tarqatuvchi shaxslarning psixologik xususiyatiga nazar tashlaydigan boʻlsak, ular hamisha xabarlarini *ishonchli manbalardan olingan* deb aytadilar va insonlarga oʻzlarini bilagʻon qilib koʻrsatishga harakat qiladilar. Bunday shaxslar insonlardagi hayajonni koʻrib, voqealarga yanada koʻproq hissiy tus berishga intiladilar.

Baʼzan mish-mish gaplarning kuchi haqiqiy axborotdan ham taʼsirli boʻlishi mumkin.

Koʻp hollarda mish-mish gaplar hududdagi operativ vaziyatga ham oʻz taʼsirini koʻrsatadi. Masalan, narx-navoning koʻtinishi, qora bozorda valutaning oshib borishi borasidagi mish-mish gaplar inson ruhiyatiga kuchli taʼsir koʻrsatadi va bu koʻpchilik hollarda odamlarning hissiy zoʻriqishiga sabab boʻladi, natijada ular xatti-harakatlarining izdan chiqishiga olib keladi. Koʻpincha mish-mish gaplarning tarqalishi va eʼtirozli holatlarning paydo boʻlishiga manfaatdor shaxslarning xatgi-harakatlari va xabarlari sabab boʻlishi mumkin.

Bunday hollarda ichki ishlar organlari xodimlari maʼlum vaqtgacha xabarning ildizini topishga qiynalishadi, pirovardida shaharda kuchaytirilgan operativ vaziyat yuzaga keladi.

Demak, mish-mish gap bir kishi boshqasiga yetkazadigan muayyan bir voqea-hodisa haqidagi ogʻzaki xabar boʻlib, baʼzi shaxslar tomonidan oʻylab topilgan boʻlishi ham mumkin.

Mish-mish gaplarni quyidagicha tavsiflash maqsadga muvofiqdir:

- 1) hodisalarni tasvirlash;
- 2) emotsional ton (tus) berish, izohlash;
- 3) mish-mish gaplarning taʼsir kuchidan foydalanish.

Mish-mish gaplar oʻz maʼno-mohiyatiga koʻra uch turga boʻlinadi:

- 1) umuman haqiqatga toʻgʻri kelmaydigan mish-mish gaplar;
- 2) maʼlum maʼnoda tasdiqlangan (haqiqat bor) mish-mish gaplar;
- 3) toʻliq maʼnoda haqiqatga ega boʻlgan mish-mish gaplar.

Umuman, mish-mish gaplar o_z xarakteriga ko_{ra} to_gri, aynan haqiqatning o_zini tashkil qilmaydi, sababi mish-mish gaplar bir shaxsdan ikkinchi shaxsga yoki bir guruhdan ikkinchi guruhga o_tishda qandaydir qo_{sh}imcha o_zgaish bo_ladi, ya'ni «mish» qo_{sh}iladi.

Odamlar orasida tarqatiladigan xilma-xil mish-mish gaplarning barchasini bir qator asoslarga ko_{ra} tasniflash mumkin.

Aks ettirilayotgan voqea *adekvatligiga ko_{ra}*, mutlaqo ishonchsiz, haqiqatga yaqin unsurlari bo_lgan ishonchsiz, haqiqatga o_xshash hamda haqiqatga o_xshamaydigan elementlari bo_lgan ishonchli mish-mish gaplarga ajratiladi.

Mish-mish gap tarqatuvchining so_zlaidan aniqlanadigan *pozisiyalarga ko_{ra}* quyidagilar ajratiladi: *istak mish-mish*, bunda xabar amalga oshmagan istak tufayli umidsizlik keltirib chiqarish va, binobarin, odamlarni tushkunlikka tushirish maqsadiga ega bo_ladi; *qo_rqituvchi mish-mish gaplar* – tashvish, qo_rquv va ishonchsizlik kayfiyati ustunlik qiladigan odamlar orasida eng samarali tur; *tajovuzkor mish-mish gaplar*, u muayyan shaxslar yoki odamlar guruhlariga nisbatan adovat (nafrat) urug_{ini} sochadi; *ajratuvchi mish-mish gaplar*, bular odamlarning o_zaro munosabatlarida nizo-janjal keltirib chiqaradi, ular o_tasida shubha, ishonchsizlik kabilarni yuzaga keltirib odatiy ijtimoiy aloqalarni buzadi¹.

Kelib chiqishiga ko_{ra} tartibsiz ravishda yuzaga keladigan yoki atayin o_{yl}ab topiladigan mish-mish gaplar bo_ladi. Oraliq turlari ham bo_lishi mumkin. Ba'zan mish-mish gaplar o_zo_zidan yuzaga keladi, ammo muayyan zaminga tushgach, axborotni o_z manfaatlaridan kelib chiqib o_zgartirishga tayyor, uning tarqalishidan ayrim shaxslar manfaatdor bo_ladi. Dastlab mish-mish gaplar ataylab tarqatilgan, ammo stixiyali ravishda amal qiluvchi ijtimoiy-psixologik mexanizmlarga tushib, ular tufayli ko_p bora kuchaygan hollar ham bo_lishi mumkin. Masalan, mamlakatimiz siyosatiga qarshi kuchlarning radioeshittirishlaridagi mavjud ba'zi mish-mish gaplarni siyosiy va axloqiy jihatdan yetuk bo_lmagan odamlar eshitib, o_z harakatlarining oqibatini o_{yl}amay uni yana tarqatgan hollarda ana shunday bo_ladi.

Odamlar ongiga *ta'sir etish kuchiga ko_{ra}* mish-mish gaplar quyidagi turlarga bo_linadi. Ijtimoiy fikrni *qo_zg_{at}uvchi*, ammo aniq ko_{rin}ib turgan g_{ay}riijtimoiy xulq sohasiga kirmaydigan mish-mish gaplar; aholining muayyan qismida *g_{ay}riijtimoiy xulqni keltirib chiqaradigan* mish-mish gaplar; odamlar o_tasidagi *ijtimoiy aloqalarni buzuvchi* va jamoat tartibini guruh

¹ Qarang: Социальная психология: Краткий очерк / Под общ. ред. Г. П. Предвечного и Ю. А. Шерковина. – М., 1995. – С. 168–190.

bo__lib buzishga (masalan, stadionlardagi tartibsizliklar, tabiiy ofat sharoiti-dagi sarosimalar va boshqalarga) aylanuvchi mish-mish gaplar mavjud.

Mish-mish gaplar jamiyatda turli ijtimoiy-psixologik muammo larni keltirib chiqaradi. Ular ta'kidlaganimizdek, ba'zan haqiqiy axborotdan ham kuchli bo__lishi, ya'ni shaxsning, jamiyat hayoti va turmush tarzini o__zgartirib yuborishi mumkin. *Masalan:*

– mish-mish gaplar ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida, ichki ishlar organlari xodimlarining faoliyatini qiyinlashtirib, jamoatchilik ongiga salbiy ta'sir ko__satadi;

– mish-mish gaplarning tarqalishi jamiyatga zid ommaviy xatti-harakatlarni keltirib chiqaradi;

– mish-mish gaplar jamiyatda, davlatda va kishilarning ongi ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-madaniy va siyosiy qarashlarida keskin vaziyatlarni yuzaga keltirishi mumkin.

Mish-mish gaplarning kelib chiqishi va tarqalishining sababi, odamlarda axborot, ma'lumotlarning yeetishmasligidir. Bu holda kishilarning ma'lum muammo, voqea-hodisaga bo__lgan vaqtinchalik talab va ehtiyojlari qondirilmaydi. Shunga ko__ra mish-mish gaplarning: umuman haqiqatga to__g__rikelmaydigan, ma'lum darajada haqiqatga to__g__rikeladigan va to__liqma'noda haqiqatga to__g__ri keladigan turlari ajratiladi.

Umuman, mish-mish gaplar o__z mazmun-mohiyatiga ko__ra, xabarlarining tarqalishida unga emotsional tus berish, bo__rttirish va boyitish natijasida sodir bo__ladi. Albatga, mish-mish gaplar ma'lum maqsad va manfaatlarga qaratilib, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-maishiy yo__ralishlarda namoyon bo__ladi. Ular ba'zan ijobiy maqsadda yoki g__arazli niyatlarda tarqatiladi.

Jamiyatda ommaviy mish-mish xabarlarining tarqalishi ijtimoiy munosabatlar tizimini izdan chiqarishi, iqtisodiy va siyosiy tanglikni vujudga keltirishi mumkin.

Mish-mish gaplar agressiv (tajovuzkor) bo__lishi mumkin. Bunday vaziyatlarda odamlar hech narsaga ishonmaydigan bo__lib qoladilar. Bunday holat ayniqsa kichik-kichik guruhlardagi odamlar orasida ko__p uchraydi.

Mish-mish gaplar o__z xususiyatiga ko__ra maxsus tashkil etiladi va birdan yuzaga kelishi mumkin.

Maxsus tashkil etilgan mish-mish gaplardan ko__zlangan maqsad yashirin motivlar, g__arazli niyatlar bilan amalga oshiriladi.

Mish-mish gaplar shaxslar ongiga quyidagicha ta'sir ko__satadi:

– shu muammo bo__yicha ongda ma'lum tasavvur paydo bo__ladi;

– aholi orasida guruh-guruh bo__lib, jamiyatdagi mavjud tartibni buzish yuzaga keladi.

Shuningdek, yer qimirlashi, tabiiy ofatlar, iqtisodiy sohadagi, terrorchilik harakatlari haqidagi mish-mish gaplar odamlar ongida qoʻrquv his-sini keltirib chiqaradi.

Mish-mish gaplarga qarshi kurashish uchun:

– ommaviy axborot vositalaridan keng foydalanish va mish- mishlar haqidagi maʼlumotlarga aniqlik kiritish hamda ularning mazmun-mohiyatini ochib berish;

– mish-mishlarning tarqalish hududini kuzatish va oʻsha hududda profilaktik ishlarni tashkil etish;

– jamoatchilikka mish-mishlar bilan bogʻliq masalalarni toʻgʻri tushuntirish va aniq axborot berish;

– mish-mishlarning oldini olish va unga qarshi kurashishda jamoatchilik kuchlaridan foydalanish lozim.

Mish-mish gaplarning oldini olishda aniq axborotga tayanish va koʻproq jamoatchilik vakillari, mahalla oqsoqollar, maktab maʼmuriyati, mahalla fuqarolar yigʻinlari va jamoa xoʻjaliklari faollari hamda boshqalarning kuchiga tayanish kerak.

3-§. Jamoat tartibini saqlash va jinoyatchilikka qarshi kurash faoliyatini amalga oshirishda psixologik bilimlarning oʻrni

Ommaviy tartibsizliklar – koʻp miqdordagi odamlar (omma) tomonidan qurol yoki qurol sifatida foydalaniladigan boshqa narsalarni ishlatib yoxud ishlatish bilan qoʻrquv shaxsga nisbatan zoʻrlilik ishlatish, qirgʻin solish, oʻt qoʻyish, mulkka shikast yetkazish yoki uni nobud qilish, hokimiyat vakiliga qarshilik koʻrsatish orqali sodir etilgan holda, jamoat joylarida belgilangan tartibni buzish va xavfsizlikka tahdid solish bilan bogʻliq boshqarib boʻlmaydigan favqulodda harakatlardir.

«Olomon» atamasi ijtimoiy psixologiyaga XIX asrning oxiri va XX asrning boshida yuz bergan ommaning norozilik chiqishlari, qudratli koʻtarilishi davrida kirib keldi.

Har qanday ommaviy tartibbuzarlik ijtimoiy qoʻrquv, vahima ostida delikvent xulq oʻzgarishlarini keltirib chiqaradi

Oʻz tabiatiga koʻra olomon harakatdagi, shuningdek, *tajovuzkor, qutqarilayotgan, manfaatparast, ekstatik* (masalan, mashhur jaz, rok muxlislarining jazavaga tushishi, diniy mutaassiblik yoki aqlga boʻysunish tufayli yuzaga keladigan olomon) turlarga boʻlinadi. Yuqorida keltirilgan tasnifning muallifi psixolog YU.A.Sherkovin taʼkidlaganidek¹, bunday ajratish shartli-

¹ Qarang: Социальная психология: Краткий очерк / Под общ. ред. Г. П. Предвечного и Ю. А. Шерковина. – М., 1995. – С. 289–290.

dir. Olomonning bir turi ayni vaqtda boshqasining jihatlariga ega bo_lishi va yangi turiga aylanishi mumkin.

Sobiq Ittifoq davrida ijtimoiy psixologlari (B.F.Porshnev, B. D. Parigin, N.F.Fedenko va boshqalar)ning ilmiy ishlarini tahlil qilish asosida olomonning bir qator psixologik xususiyatlarini ko_rsatish mumkin.

Olomonning eng muhim farqli jihati uni tashkil etuvchi odamlar tarkibining tasodifiy xususiyatidir. Bu, albatta, olomonning yuzaga kelishi ijtimoiy hodisalarning sabab-oqibatlarini doirasidan chetga chiqishini bildirmaydi. Olomonning dastlabki o_zagi oqilona mulohazalar ta'sirida shakllanishi va o_z oldiga juda aniq maqsadlar qo_yishi mumkin. Biroq o_zakning bundan keyingi rivojlanishi shiddat bilan va o_z-o_zidan yuz beradi. Olomon bungacha bir-birini mutlaqo tanimagan, umumiy tomonlariga ega bo_lmagani odamlarni o_z zichiga olib, o_z sibboradi.

Bunga ishonch hosil qilish uchun spirtli ichimlik iste'mol qilgan va bezorilik sodir etayotgan o_z smirlar olomoniga murojaat etishning o_z yetarli. Bunday olomon tarkibida uni jipslashtirish bo_yicha faol harakat qiluvchi va sekin-asta uning xatti-harakatini yo_naltiruvchi *boshlovchilar* ajralib turadi. Bular jamiyatda o_rnatilgan axloq qoidalarini tan olmaydigan, ma'naviy-axloqiy buzilgan odamlardir. O_z qadriyatlarini olomon harakatlarining yo_nalishi bilan *birday ko_ruvchi* olomon ishtirokchilari ulardan ajralib turadi. Masalan, ba'zan olomonning tajovuzkor harakatlari qaratilgan obyektidan alamzada bo_lib yurgan odamlar ham guruhiy tartibbuzarliklarga tortiladilar. Ular boshlovchi emas, balki olomonning ta'sir doirasida qolib, unda faol ishtirok etadilar. Olomon ichida unga faqat o_z «bebosh fe'lini» ko_rsatib qo_yish, o_zining shafqatsizlikdan huzur qiladigan impulslarini chiqarish imkoniyati paydo bo_lgani tufayligina olomonga qo_zshilgan *tajovuzkor* shaxslar ayniqsa, katta xavf tug_ldiradi. Eng og_{ir} jinoiy harakatlarni odatda ular sodir etadilar.

Guruhiy tartibbuzarlik ishtirokchilari orasida halol, ammo *adashganlari* ham mavjud. Ular vaziyatni xato, adolat prinsipini noto_gritushunligi tufayli olomonga kirib qoladilar. Bunday kishilarning xulqini baholashda uning obyektiv oqibatlarini va subyektiv jihatlarini farqlash zarur. Obyektiv jihatdan ular guruhiy tartibbuzarlik ishtirokchisi bo_lib qoladi, subyektiv jihatdan esa ular o_zini jamiyatga qarshi unsur deb hisoblamaydi.

Olomonga, shuningdek *tasodifiy qo_zshilib qolganlar* ham kiradi. Ular katta faollik ko_rsatmaydilar, ularni, sport sharhlovchilari aytganidek, hayajonga soluvchi tomosha kabi tartibbuzarlik o_ziga jalb qiladi. Bu tomosha go_z yo ularning bir xil va zerikarli, bema'ni tirikchiligiga qandaydir yangilik kiritadi. Guruhiy tartibbuzarliklarda umumiy kayfiyatga beriluvchan,

stixiyali hodisalar hukmiga o'zini qarshiliksiz berib yuboradigan o'ta ta'sirchan odamlar ham ishtirok etadilar. Nihoyat, olomonga tashqaridan (ichki pozitsiyasi nuqtai nazaridan) kuzatib turadigan, voqealarning borishiga aralashmaydigan oddiygina *tekin tomoshabinlar* ham kiradi. Biroq ularning hozir bo'lishi ommaviylikni oshiradi, olomon stixiyasining odamlar xatti-harakatiga ta'sirini kuchaytiradi.

Pozitiv maktab vakili Pyulyeze o'zini «Jamoat jinoyatchiligi» asarida jamoaviy jinoyat doktrinasi haqida yozadi. U olomonga qo'shib jinoyat sodir qilganlarning hammasini javobgarlikka tortish mumkinligi haqida to'xtaladi.

«Olomon yoki qo'zg'olon ko'targan xalq jinoyat sodir etganda» shaxs alohida element sifatida harakat qilmaydi, u o'zini qirg'og'dan chiqqan daryo tomchisi sifatida ko'radi, uning boshqalarga zarba berayotgan qo'llari o'z-o'zidan ongsiz shuursiz bir qurolga aylanadi.

Butun dunyoda jiddiy va yengil tabiatli odamlar, qariyalar va yoshlar, o'qimishlilar va nodon kishilarning barchasi oz yoki ko'p miqdorda eshitganlari, ko'rganlari va bilganlariga taqlid qilish instinktiga egadirlar. Ijtimoiy fikrning yo'nalishi siyosatda yoki savdoda ham hamisha shu instinkt orqali belgilanadi.

Demak, yuqorida ta'kidlanganidek, olomonning tasodifiy tarkibi uning o'ziga xos psixologik xususiyatlaridan biri bo'lib, buni guruhiiy tartibbuzarliklarga qarshi kurash choralarini amalga oshirishda inobatga olmaslik mumkin emas.

Olomonning keyingi xususiyati odamlar *xatti-harakatining bir xilligini belgilovchi* ijtimoiy-psixologik hodisalarning o'ziga xosligida namoyon bo'ladi. Jamoada, ma'lumki, bir xil xatti-harakat ongli ravishda qo'yilgan va barcha e'tirof etgan hamda ijobiy ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan qadriyatlarining umumiyligi bilan ta'minlanadi. Olomon esa asosan odamlarning bunday umumiylikni norozilik obyektiga qarshi qo'yish evaziga yaratiladi.

Olomonning keyingi xususiyati unda, shartli ravishda, *hissiy rezonans* deb atash mumkin bo'lgan o'ziga xos ijtimoiy psixologik hodisaning amal qilishidir. Guruhiiy tartibbuzarlikda ishtirok etuvchi odamlar bir-biri bilan yonma-yon yurib atrofdagilarni qo'zg'atadilar va o'zlarini ham ulardan ta'sirlanadilar. Bir kishining qo'zg'atishi, boshqasining idrok etish obyektiga aylanib, uning qo'zg'atishini yanada kuchaytiradi va bu hol ong tomonidan nazorat qilinishi qiyin bo'lgan hissiy portlashgacha borishi mumkin.

Olomon shakllanishining ilk belgilaridan guruhiiy tartibbuzarlikkacha bir qancha bosqichlar bosib o'tiladi.

Bahonaning yuzaga kelishini guruhiy tartibbuzarliklarning boshlanishi deb hisoblash mumkin. Odamlarning e'tiborini tortgan va ular noto'g'ri talqin etgan har qanday voqea yoki fakt ana shunday bahona bo'lishi mumkin. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, bahonalar nihoyatda xilma-xil bo'lishi mumkin.

Guruhiy tartibbuzarlikning yetilishidagi ikkinchi bosqich dastlabki xavotirli mish-mishlarning paydo bo'lishi bilan bog'liq. Tartibbuzarliklarning oldini olish borasidagi faoliyat ushbu bosqichda ancha qiyinlashadi. Odamlar voqeaga nisbatan muayyan qarashni o'zlashtirishga ulgurgan bo'ladilar va har qanday axborotni o'zlaning yanglishuvlari orqali qabul qiladilar. Vaziyatning yanada murakkablashuviga qarshi kurashning yo'li odamlarni qayta ishontirish, mish-mishlarning yolg'onligini dalillar bilan isbotlashdir. Bu bosqichda voqea yoki faktning manfaatlariga ko'proq ta'sir ko'rsatgan odamlarni yakka tartibda qayta ishontirish yaxshi samara beradi. Bu bosqichda omma oldida mish-mishni rad etish vaziyatni chigallashtirishi, mish-mishlarning yanada ko'proq tarqalishini keltirib chiqarishi mumkin.

Uchinchi bosqichni shartli ravishda *aqllarning achishi* deb atash mumkin. Darhol rad qilinmagan mish-mishlar tarqalishda davom etadi, katta o'zgarishlarga uchraydi va odamlarda hozircha «kar» qo'zg'atishni yuzaga keltiradi. Bu bosqich ham, avvalgi ikki bosqich ham odamlarda olomonning to'planishidan avval keladi va ularni psixologik jihatdan tayyorlaydi.

To'rtinchi bosqich olomonning shakllanishi bilan bog'liq. Dastlab to'plangan odamlar orasida o'ziga xos *sirkular reaksiya* boshlanadi, ya'ni bundan keyin bir xil xatti-harakatga ruhiy asos yaratuvchi fikr va hissiyotlarning jadal almashinuvi ro'y beradi. So'ngra aylanish jarayoni boshlanadi: hissiy qo'zg'atish kuchayadi, odamlar buning oqibatida zudlik bilan harakatga o'tishga tayyor bo'lib qoladilar. Aylanish jarayonida norozilik obyekti oydinlashadi, nafrat obrazi shakllanadi. Nihoyat, odamlarning faollashuvi boshlanadi. Bu jarayonda, masalan, olomon yetakchisi amalga oshirayotgan qo'shimcha rag'batlantirish aylanish jarayonida shakllangan obrazga qarshi qaratilgan impulslarni yuzaga keltiradi¹.

Beshinchi bosqich olomon *g'ayriijtimoiy xulqining rivojlanishi*, ya'ni guruhiy tartibbuzarliklarning o'zidir. Tartibbuzarlikni boshlovchilar ig'vosiga uchgan eng tajovuzkor shaxslar boshlab beradilar. So'ngra, taqlid asosida, olomon yomon namunaga ergashadi, beboshlikni rivojlantiradi.

¹ Qarang: Социальная психология: Краткий очерк / Под общ. ред. Г. П. Предвечного и Ю. А. Шерковина. – М., 1995. – С. 291.

Olomon g_ayriijtmoy harakatlarining oldini olish va ularga chek qo_yish uchun turli shakl va usullardan foydalaniladi. Ular uchun umumiy bo_lgan jihat olomon xulqining psixologik qonuniyatlarini chuqur bilish va aniq hisobga olish taqozo etiladi. Masalan, anonimlik hissi olomon ishtirokchilarini ongsiz harakatlarga undashidan quyidagicha foydalanishi mumkin. Olomon ancha katta bo_lganida ovoz kuchaytirgich vositasi orqali uning aniq ishtirokchilariga murojaat etish to_g_ii bo_ladi. Bu hol sog_lom fikrlovchilarni o_z harakatlarini anglashga undaydi, ularga o_zini nazorat qilishdek yo_qotgan hissiyotini qaytarishda va o_z xatti-harakati uchun mas'uliyatni his qilishida yordam beradi.

Shu nuqtai nazardan olomon, psixologik jihatdan kelib chiqishiga ko_ra, maxsus, hech qanday odamlar tomonidan tashkil etilmagan ularning xatti-harakatlari yig_inidir.

Fransuz psixolog olimi Le Bon Gyustavning fikricha, «olomon yig_ilganda millati, kasbi, tilidan qat'i nazar, ularda maqsad bitta bo_ladi va ularning ongida to_la fikrlash yo_qoladi, hatto o_lim ham ularga qo_rqinchli emasdek ko_inadi»¹.

Olomon psixologiyasini bilish ichki ishlar organlari xodimlari uchun muhim ahamiyatga ega bo_lib, ommaviy tartibsizliklar, namoyishlar, mitinglar kabi salbiy holatlarning oldini olish va jamoat tartibini saqlashda qo_lkeladi.

Olomon o_z xarakteriga ko_ra agressiv (ashaddiy) bo_lishi mumkin, ashaddiy mish-mish gaplar ommaviy tartibbuzarliklarni yuzaga keltiradi.

Olomon psixologiyasida meniki va ularniki degan fikr mavjud, ya'ni olomon vaziyatni murakkablashtiruvchi va o_ziga xos tezlashtiruvchi generatoridir.

Olomon xatti-harakatining yuzaga kelish psixologiyasi quyidagi ko_inishga ega:

1) olomonda ko_rish va eshitish orqali kuchli emotsional holat yuzaga keladi;

2) o_zining xatti-harakatlariga javob berish ular uchun oxirgi o_inga o_tadi;

3) o_zida qo_shimcha kuch va ongida o_zgarish sezadi.

Olomon, sodir bo_lgan voqea va hodisaga qarab, quyidagi turlarga bo_linadi.

1) to_satdan yuzaga kelgan olomon;

2) konvensial olomon;

3) harakatdagi olomon.

¹ Qarang: *Ле Бон Гюстав. Психология народов и масс.* – М., 2000. – С. 62.

To_sadan yuzaga kelgan olomon birdan to_pladi, voqea-hodisaning mohiyatini tushunishni xohlaydi. Ushbu turga to_y-hasham, xudoyi, janozalardagi olomon – xalq kiradi.

Konvensial olomonga ommaviy sport tadbirlari, masalan, futbol uchrashuvlariga yigilgan odamlar kiradi. Ushbu toifadagi olomonning o_ziga xosligi shundaki, ko_p hollarda ularning axloqi ma'lum qolipdan chiqib ketadi. Bu ularning baqiriqlari, qaygurishlari, quvonganlarida ko_inadi.

Harakatdagi olomonga Ukrainadagi ommaviy tartibsizlik harakatlari, Afrika davlatlarida yuz bergan siyosiy to_ntarish harakatlari misol qilish mumkin. Harakatdagi olomoni, ko_pircha, qo_zg_olonchi olomon deb atashadi, bunday olomon qo_zg_olon orqali o_z niyatini amalga oshiradi. Bunday olomon hamma yoqni buzadi, sindiradi, o_t qo_yadi, bundan uning o_zi ham vahimaga tushadi.

Mazkur huquqbuzarlarga nisbatan ichki ishlar organlarining vakolatli mansabdor shaxslari (navbatchi, profilaktika inspektori va boshqalar) ma'muriy bayonnoma tuzadilar. Bayonnomalarga o_tkazilayotgan tadbir atributlaridan bo_lgan ashyoviy dalillar, masalan, shiorlar, varaqalar, ishtirokchilarning qo_lyozma ro_yxatlari, boshqa hujjatlar, shuningdek foydalanilgan texnika vositalari qo_shib qo_yilishi mumkin.

Olomon ham o_z tarkibiga ega, masalan:

- 1) adashib qo_shilib qolgan shaxslar;
- 2) ashaddiy harakatdagi shaxslar;
- 3) olomon harakatini qo_llab-quvvatlaydigan shaxslar;
- 4) boshlovchilar (ya'ni, gij-gijlovchilar).

Gij-gijlovchilar olomonning xatti-harakatini, axloqini izdan chiqaradi va bir yo_nalishga qaratadi. Bunday shaxslar o_zlari hech qanday yo_lga yurmaydi, ishni boshlab keyin olomon orasidan qochadilar.

Olomonning xatti-harakatini qo_llab-quvvatlov shaxslarning bevosita ishtiroki bunda kam bo_ladi.

Olomon tarkibidagi eng xavfli shaxslar tajovuzkor shaxslardir, ular o_zaxloqini namoyon qiladilar.

Ba'zi hollarda ayrim shaxslar o_zlari bilmagan holda shu oqimga qo_shilib ketadilar va olomoni to_kiradilar. Ularning shunday ahvolga tushishiga sabab yolg_on xabarga uchishidir.

Olomonning shakllanish bosqichlari:

- 1) sharoitning yuzaga kelishi (sirkulatsiya);
- 2) miyadagi qaynash;
- 3) dushman obrazining shakllanishi;
- 4) olomonning faollashuvi;

5) jamiyatga qarshi harakatning avj olishi.

Sirkular, ya'ni aylanma reaksiya olomonning shakllanishiga olib keladi, bunda har xil imkoniyatlar, masalan, faktlar (dalillar), turli xabarlar yaratiladi.

Miyadagi qaynashda odamlar bir-biri bilan faqat axborot almashadi va eng asosiysi, ma'lum bir fikrda turishadi. Shuning uchun ham boshqa xabarni (yangi) eshitganda o'zlarini ma'lum ma'noda adashmagan deb hisoblaydilar.

Dushman obrazining shakllanishida olomon faqat salbiy holatlarni tasavvur qilib, o'z noroziligini bildiradi. Bularning hammasi olomonning harakatini faollashtiradi.

Bunday tasavvurdagi obyektlar ommani birlashtiradi va bir butun qiladi. Oxirgi bosqich jamiyatga qarshi xatti-harakatni yuzaga keltirish va olomon faoliyatini faollashtirishdir.

Olomon haqida G.Tard shunday deydi: «Aynan bir xil hissiyot bilan chulg'angan olomonning har bir a'zosi, birdaniga bir-birini ko'llab-quvvatlashi orqali cheksiz darajadagi shiddatli kuchga aylanib, xuddi o'zidan o'ziko'payotgandek hisni uyg'otadi»

Olomonning hissiyoti o'zgaruvchan bo'lib, g'azablanish bir onda vahimaga, quvish-vahima ostida qochishga va uning aksiga o'zgarishi mumkinligini bilib olish zarur. Olomonning keyingi harakatlari olomon ichidagi imo-ishora, ashula, tana harakatlari bilan boshqariladi. Shu o'rinda olomonning ikki turdagi ahamiyatini ta'kidlab o'tamiz.

– nutq olomonning keyingi harakatlarini nazorat qilishda ikkilamchi yoki bo'ysunuvchi vazifani bajaradi;

– muhim vazifani birlamchi signal tizimi, ya'ni baqiriq, tana harakatlari va boshqalar bajaradi.

Olomonga mantiqiy fikr ifodasidagi nutq bilan murojaat qilish befoyda, ba'zan xavfli hisoblanadi. Olomon anglangan holdagi harakat, tashviqot va maslahatlarga yurmaydi, lekin baland ovoz, aniq va tushunarli ishoralarga beriluvchan bo'ladi. Yetakchilar aynan shu usul (baland tovushda qo'shiq aytish, qiyqiriq, chapak chalish) yordamida olomni yengib bo'lmas kuchga aylantirishadi.

A.S.Rozanov o'z izlanishlarida «vahima bilan qochayotgan askar bir necha soniyada o'zgarib, g'azab bilan jangga kirishini» kuzatgan va tajribada sinab ko'rgan.

Ommaviy tartibsizliklar, mitinglar va turli namoyishlar uyushmagan bir guruhning salbiy xatti-harakatlari asosida amalga oshiriladi. Olomonga qo'shilgan shaxslar ongida taqlid qilishga kuchli moyillik, tashqi ta'sir-

larga beriluvchanlik va ijtimoiy javobgarlik hissining yo_qligini kuzatish mumkin. Shu sababli olomon ayrim g_arazli, ig_vogar shaxslar uchun obyektini yo_q qiluvchi qurolga aylanadi.

Ommaviy tartibbuzarliklarning tashkilotchilari olomon bo_lib, yig_ilgan shaxslarning salbiy xulq mexanizmlaridan ustalik bilan foydalanadilar, ulardagi tajovuzkorlik instinktlarini qo_zg_atadilar, ommaviy tartibbuzarliklar, davlatga va uning siyosatiga qarshi mish-mish gaplar uyushtirib, xalq o_tasida tajovuzkorlik holatini keltirib chiqaradilar. Vahima chiqarishda ishtirok etayotganlar ichidan yetakchilarni va to_satdan aralashib qolgan ishtirokchilarni ajratib olish – eng qiyin masala. Shuning uchun ham bunday holatlarni keltirib chiqaradigan da_vatchilar bir chetda kuzatuvchi bo_lib turishini inobatga olish alohida ahamiyat kasb etadi. Ularning asosiy quroli xalq va olomonni qo_zg_alishga undash qobiliyatidir.

Qaltis vaziyatlarda uchraydigan emotsional holatlardan biri - *vahima, sarosima, g_alayon* bo_lib, bunda ma'lum vaqt ommani boshqarib, tartibga solib bo_lmaydi. Bu o_zini butunlay yo_qotib qo_yish, javobgarlik hissini yo_qotish, vijdon amrini eshitmaslik, e'tiborsizlik darajasida namoyon bo_ladi. Ommaviy tartibbuzarlik holatlaridagi vaziyat yetakchining individual vahima va sarosimaga bo_lgan aks ta'siri (reaksiyasi) bilan bevosita bog_liq

Profilaktika inspektoridan yuzaga kelishi mumkin bo_lgan bunday voqea-hodisalarni oldindan bilib, o_z vaqtida kerakli profilaktik choralarni ko_llash talab etiladi. Ommaviy tartibsizlik paytida ommani tarqatish uchun uni kichik guruhlariga ajratish muhim. Asosiysi, ommaviy tartibbuzarlikda ishtirok etganlarning hammasi jazolanishi kerak. Ommaviy tartibbuzarliklar asosan hokimiyat kuchsizlanganda yuz beradi.

Ichki ishlar organlari faoliyatida vujudga keladigan xavfli, qaltis vaziyatlarda xizmat vazifalarini samarali amalga oshirish uchun qo_llaniladigan taktik, huquqiy, ruhiy himoya tizimi xodimning *shaxsiy xavfsizligini* ta'minlaydi.

Ushbu sohada to_plangan manbalarga tayangan holda aytish joizki, xodimning shaxsiy xavfsizligini ta'minlashda quyidagilar muhim hisoblanadi:

– qaltis, xavfli vaziyatda inson tanasida vujudga keladigan ruhiy-fiziologik o_zgarishlarni bilish;

– qaltis, xavfli vaziyatda xizmat vazifalarini bajarish, o_zini himoya qilish uchun belgilangan «xulq me'yori»ga amal qilish;

– qaltis, xavfli vaziyat oldidan va undan keyingi holatlarda o_zini ruhiy boshqarish usullarini egallash.

Qoʻrquv asosida aniq yoki ehtimol tutilgan xavf oldida ojizlik, kurashish, uni yengish oʻmiga qanday yoʻl bilan boʻlsaham undan qochish fikrini hosil qiladi.

Vahima, qoʻrquvning psixofiziologik mexanizmi bosh miya postlogining katgagina maydonida induksion tormozlanish, boshqacha aytganda anglash (ong) faolligining susayishi hisoblanadi.

Xavf - huquqbuzar xulqining oʻzgarishi, tabiiy ofat, favqulodda, holatlar yoki falokat yuz berishi oldidan ruhiy, fiziologik zararining kelib chiqishi, baxtsiz hodisa, oʻlim yuz berishini his qilishni oʻzida aks ettiruvchi stress omili hisoblanadi.

Xavfni sezganda qoʻrquv *hissi paydo boʻladi*. Qoʻrquvning uch turi mavjud:

- *stenik qoʻzgʻalish (xavotir)* - xulqning aql nazoratida boʻlishi va qoʻrquvni yengishga yoʻnalganligi;

- *astenik (sarosima)* - qisqa muddatli, qaltirash, harakatlarning mantiqsizligi;

- *stenik (vahima)* - yomon yoki umuman nazorat qilib boʻlmaydigan qoʻrquv.

Birinchi qoʻrquv holatida faoliyatni tafakkur va iroda boshqaradi. Bunda inson butun kuchini xavfni yengishga yoʻnaltiradi. Ikkinchi va uchinchi holatlarda qoʻrquv butun diqqatni qamrab oladi, bunda aqliy faoliyat torayadi, koʻrish, oʻzini oʻzibaholash jarayonlari susayadi, vaziyat toʻgʻri baholanmaydi.

Qoʻrquv insonlarning koʻrsatmalar (guvohlik) berish jarayoniga bir xil taʼsir etmaydi. Qoʻrquv asosida baʼzi faktlar boʻltiriladi, boshqalari umuman tiklanmaydi yoki toʻgʻri baholanmaydi.

Natijada noadekvat fikrlash, tafakkur va kuchli emotsional beriluvchanlik holatlari, xavfni boʻltirish, taʼsirchanlik, beriluvchanlikning ortib ketishi kuzatiladi.

Vahima, qoʻrquv guruhda va alohida (individual) tarzda yuz beradi. Individual tarzda yuz beradigan vahima, qoʻrquv, harakatlarning noadekvatligi, xato xulosa va qarorlarga kelish, soxta xavfdan qochishga kuchli harakat, xavfsizlik choralarini koʻmaslikda kuzatiladi. Ommaviy tartibbuzarlik holatlaridagi vaziyat yetakchining individual vahima va sarosimaga boʻlganaks taʼsiri (reaksiyasi) bilan bevosita bogʻliq

Vahima, sarosima va qoʻrquv *ikki asosiy turga boʻlinadi*

– qaltis vaziyatda qoʻrquv natijasida oʻlim xavfini his qilish;

– muddatli xavotirlanishdan soʻng kuchli zoʻrquv, asab tizimining boʻshashishi, diqqatning xavotir predmetiga yoʻnalganligi.

Qaltis vaziyat yuzaga kelishining psixologik jihatlari.

Ichki ishlar organlari xodimlari faoliyatida qaltis vaziyatlarda hissiyotlarni nazorat qilish va boshqarish xususiyatini rivojlantirishga katga e'tibor qaratish talab etiladi.

Xizmat faoliyati bilan bog'liq qaltis vaziyatlar:

- qurollangan jinoyatchi shaxs bilan to'qnashuv;
- jinoyatning oldini olish, uni bartaraf etish;
- ommaviy tartibbuzarliklar, guruhij jinoiy harakatlar;
- fuqarolar o'rtasidagi kelishmovchiliklar;
- uzoq muddatli zo'riqishlarning vujudga kelishi;
- qurollangan jinoyatchini tutish, ta'qib etish;
- garovdagi shaxslarni ozod qilish va boshqalar.

Qaltis, xavfli vaziyatlarda shaxsda shakllanadigan xulq-atvor va ruhiy ta'sirlar turli-tuman xususiyatga ega. Ular obyektiv va sub'yektiv omillarga bog'lik. *Obyektiv omil* - qaltis vaziyatning o'ziga xos tarafi, shaxsga yetkaziladigan ruhiy va ma'naviy zarar ko'rinishlari, ularning ta'sir kuchi bo'lsa, *sub'yektiv omil* qaltis vaziyatda shaxsda vujudga keladigan hissiy holat bilan bog'lik. Qaltis vaziyat holatida tajribada sinalgan shaxslarning 50-75% dastlabki daqiqalarda o'zini yo'qotib qo'yishi, sustkashlik, o'z xatga-harakatlariga javob bera olmaslik holatiga tushib qolishi, qolgan 25% o'zini boshqara olishi, vaziyatni to'g'ri baholashi, sharoitga muvofiq aniq va to'g'ri qaror qabul qilishi kuzatilgan.

Inson ongida qaltis vaziyat to'g'risida axborot paydo bo'lgach o'zini shu vaziyatga tayyorlay boshlaydi.

Qaltis vaziyatdan chiqish uchun mavjud kuch va imkoniyatlar chamlanadi. Bunday vaziyatlarda tajribasiz xodimda kuchli ruhiy zo'riqish aloatlari paydo bo'ladi. Bu bekorga kuch sarflash, o'zini qo'yarga joy topa olmaslik kabi xatti-harakatlarda namoyon bo'ladi.

Qaltis vaziyatda ruhiy zo'riqishlarni nazorat qilish, tuzatish (*ijobiy emotsional holatni saqlash*) usullari mavjud. Ularga qisqacha to'xtalamiz.

Muayyan vaziyatning muhim prinsiplarini ajratib olish. Vaziyatdan kelib chiqishi mumkin bo'lgan salbiy oqibatlarini tasavvur qilish, ularni qabul qilishga shay turish.

Natijani ijobiy yo'sinda hal qilish yordamida salbiy oqibatni birmuncha yengillashtirish buni kichik yutuq kabi qabul qilish imkonini beribgina qolmay, emotsional jihatdan qiyin vaziyatlarda muvaffaqiyatga erishish mumkinligiga ishonch tug'diradi.

Miyaga o'rnatilgan qolgan yomon hisslarni chiqarib tashlash. Inson ayni vaqtda ham salbiy, ham ijobiy hisni boshdan kechira olmaydi. Shu

bois hissiyotlarni muvaffaqiyatga yo_naltirish, xayolan xavfli vaziyatni kutib harakatlanish, hislarni arzimagan bo_lsa-da, kichik muvaffaqiyatga tayyorlash zarur. Muhimi, yomon hisni sezgach, vaqt va asablarni bekorga, ya_ni uni muhokama qilishga sarflamaslik, aksincha vaqtdan unumli foydalanib, kerakli natijaga erishish uchun tayyorgarlik ko_ish zarur.

Qayg_uli hissiyotdan qutulishning eng oson usuli vaziyatga teskari qarashlarni vujudga keltirish, ya_ni voqea-hodisaning ahamiyatlilik darajasini pasaytirish, diqqatni unga ortiqcha jalb qilmaslik, uni nazarga ilmaslik. Buning uchun shaxs o_zini kuch va imkoniyatlari kattaligiga ishontirishi, boshqacha aytganda o_ziga bo_lgan ishonch hissini oshirishi kerak.

Savol va topshiriqlar

1. Insonning jamoadan tashqaridagi xatti-harakatlari, ularning ko_rinishlari va xususiyatlari haqida nimalarni bilasiz?
2. Olomon psixologiyasi haqida nimani bilasiz?
3. Jamoadan tashqari xulq-atvorni yuzaga keltiruvchi qanday ijtimoiy-psixologik hodisalar mavjud?
4. Mish-mish gaplarning ichki ishlar organlari faoliyatiga qanday ta_siri mavjud?
5. Jamoat tartibini saqlashda psixologik bilimlarning o_rni haqida so_zlab bering.
6. Profilaktika inspektori xizmat faoliyatida qanday qaltis vaziyatlarni kuzatish mumkin?

VI bob. HUQUQBUZARLIK SODIR ETISHGA MOYIL SHAXSLAR VA ULARGA PSIXOLOGIK TA‘SIR ETISH USULLARI

1-§. Profilaktik hisob toifasidagi shaxslarning psixologik tavsifi

Jamiyatda tinchlik va osoyishtalikni saqlash, jamoat tartibi va xavfsizligini ta‘minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini har qanday ko‘rinishdagi tajovuzlardan himoya qilishdek yuksak maqsadlarga erishish uchun istiqloq yillarida ichki ishlar organlari tizimini chuqur isloh qilish bo‘yicha keng qo‘lamlanli, mazmun-mohiyatiga ko‘ra ulkan ishlar amalga oshirildi. Ichki ishlar organlarini inson huquq va erkinliklarini, jamoat tartibi va xavfsizligini himoya qilishning ishonchli garoviga aylantirish bu borada amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi qilib belgilandi¹. Shu jumladan, profilaktika xizmatlari tizimlaridagi islohotlar ularning faoliyatini tubdan o‘zgartirib, bugungi kunda yangicha yondashuv asosida belgilangan vazifalarni amalga oshirilishi yo‘lga qo‘yildi. Mazkur vazifalarni bajarishda profilaktika xizmatlari faoliyatini tashkil etishda muhim o‘rin tutuvchi militsiya tayanch punktlarining tashkil etilganligi katta imkoniyatlar yaratdi. Hozir militsiya tayanch punktlarida profilaktika inspektorlari ichki ishlar organlarining sohaviy xizmatlari va keng jamoatchilik bilan huquqbuzarliklar profilaktikasini tashkil etish va amalga oshirish hamda huquqbuzarlik sodir etgan shaxslar bilan yakka tartibda, ya‘ni, individual profilaktik ishlar samarali olib bormoqda. Militsiya tayanch punktlarida profilaktik hisobga turgan shaxslar bilan amalga oshiriladigan yakka tartibdagi tarbiyaviy-profilaktik ishlarni takomillashtirish huquqbuzarliklarning oldini olishda yuqori ko‘rsatgichga erishishni ta‘minlaydi.

Shaxsni profilaktik hisobga qo‘yish uchun bir qancha asoslar mavjud bo‘lgan taqdirda, asoslarning har biri bo‘yicha alohida-alohida profilaktik hisobga qo‘yish amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov 25 oktabr Ichki ishlar idoralari xodimlarining kasb bayrami kuni munosabati bilan ichki ishlar xodimlariga yo‘llagan bayram tabrigida «...profilaktika inspektorlarining malakasi va professional mahoratini oshirish g‘oyat muhim masalalardan biridir. Yuksak professionalizm, xushmuomalalik, odamlar orasiga kirib borish, yoshlar qalbiga yo‘l topa bilish, oila va maktab o‘rtasida mustahkam aloqa o‘rnatish – har bir profilaktika inspektorining asosiy xususiyatlari bo‘lmog‘i darkor» deb aniq maqsadli vazifalarni belgilab

¹ Qarang: *Каримов И.А.* Биз келажакимизни ўз қўлимиз билан қураимиз. Т.7. – Т., 1999. – Б. 403–404.

berganlar¹. Ushbu vazifalar profilaktika inspektorining aynan profilaktik hisobga olingan shaxslar bilan ishlash faoliyatida namoyon bo'ladi

Profilaktika inspektorining profilaktik hisobga olingan shaxslar bilan ishlash faoliyati aynan O'zbekiston Respublikasining «Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida»gi qonuni bilan tartibga solinadi. Ushbu qonun talablaridan kelib chiqib profilaktika inspektori: jinoiy jazoni o'tagan ilgari sudlanganlar, o'ziga nisbatan sudning jazo tayinlanmagan ayblov hukmi qonuniy kuchga kirgan, aybdorlik to'g'risidagi masala hal qilinmasdan turib o'ziga nisbatan jinoyat ishi tugatilgan yoxud rehabilitatsiya qilmaydigan asoslar bo'yicha jinoyat ishini qo'zg'atishni rad etish to'g'risidagi qaror chiqarilgan, o'ziga nisbatan qamoqqa olish bilan bog'liq bo'lmagan ehtiyot chorasi tanlangan jinoyat sodir etishda ayblanuvchilar; O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining moddalarida nazarda tutilgan ma'muriy huquqbuzarliklarni sodir etgan va ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasalaridan qaytgan shaxslarni profilaktik hisobga oladi va ular bilan yakka tartibda profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadida ularga nisbatan profilaktik hisob ishilarini yuritadi. Shular tarkibida aynan o'ziga nisbatan ma'muriy nazorat o'tatilgan hamda ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasalaridan xulq-atvori tuzalganligi sababli ushbu ta'sir chorasini qo'llashni davom ettirishga muhtoj emas deb topilib, mazkur muassasalarda bo'lishi yuzasidan sud tomonidan belgilangan muddat o'tishidan oldin chiqarilgan shaxslar profilaktik hisobga olinmaydi va profilaktik hisob yuritilmaydi. Profilaktik hisobning yuritilishi ichki ishlar organlari profilaktika inspektorlari tomonidan, voyaga yetmaganlarga va ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo'lgan oiladagi otionalarga nisbatan esa voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasi inspektorlari tomonidan olib boriladi.

Profilaktik hisob ishi yuritilgan har bir shaxs bilan yakka tartibda profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirishda shaxsning yoshi, jinsi, ruhiy holati, ijtimoiy ahvoli, ma'lumoti va mutaxassisligi, ehtiyoj va qiziqishlari, qobiliyati kabi shaxsiy xususiyatlarini e'tiborga olgan holda ularni tuzalish yo'lga kirishini ta'minlaydi va qayta huquqbuzarlik sodir etishining oldini oladi.

Bugungi kunda asosiy e'tibor huquqbuzarliklar profilaktikasiga qaratilgan ekan, uni zamonga mos ravishda amalga oshirish, samarali tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, ichki ishlar organlari nazoratidagi ilgari sudlangan, profilaktik hisobda turuvchi shaxslar bilan amalga

¹ Qarang: Ўзбекистон Республикаси ички ишлар идоралари ходимларига байрам табриги // Постда. – 2007. – 25 окт.

oshiriladigan ishlarni to'g'ri tashkil etish huquqbuzarliklar profilaktikasining bir qismi hisoblanadi.

Demak, *profilaktik hisoblar* – jinoyat sodir etishga moyil alohida toifadagi shaxslarga nisbatan yuritiladigan, ularni nazoratini olib borishga va tahlil etish hujjati hisoblanadi. Unda hisobda turuvchi shaxslarning turmush-tarzi, yaqinlari va qarindoshlari bilan munosabati, oila va jamiyatda yurish-turishi haqidagi ma'lumotlar to'plab boriladi.

Profilaktik hisoblarni yuritish esa – ichki ishlar organlarining jamoat tartibini saqlash va fuqarolar xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklarning oldini olish, jinoyatchilikka qarshi kurash ishlarini samarali tashkil etish maqsadida huquqbuzarlik sodir etishga moyil bo'lgan alohida toifadagi shaxslar bilan tarbiyaviy-profilaktik ishlarni tashkil etish maqsadida amalga oshiriladigan profilaktik ogohlantiruv va tarbiyaviy mazmundagi chora-tadbirlar yig'indisidan iborat faoliyatdir.

O'zbekiston Respublikasining "Huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida"gi qonuni asosida ichki ishlar organlarida jinoyat yoki huquqbuzarliklar sodir etgan shaxslarning tuzalishini ta'minlash va qayta huquqbuzarlik sodir etishining oldini olish maqsadida profilaktik hisob yuritiladi. Profilaktik hisob huquqbuzarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasining chora-tadbirlari sirasiga kiradi. Profilaktik hisobga olishni amalga oshirish uchun mas'ul bo'lgan shaxs shaxsni profilaktik hisobga qo'yish to'g'risida tuman, shahar ichki ishlar bo'limining, boshqarmasining boshlig'i tomonidan tasdiqlanadigan qaror chiqaradi. Mazkur qaror shaxsni profilaktik hisobga qo'yish uchun asoslar mavjudligidan dalolat beruvchi hujjatlar ushbu shaxs tomonidan olingan kundan e'tiboran o'n kun ichida chiqariladi. Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan shaxslarga nisbatan shaxsni profilaktik hisobga qo'yish to'g'risidagi qaror ular yashash joyiga yetib kelgan kundan e'tiboran uch kun ichida chiqariladi. Shaxsni profilaktik hisobga olish u profilaktik hisobga qo'yilgan paytdan e'tiboran bir yil mobaynida amalga oshiriladi.

Mazkur qonunning 35-moddasida o'ziga nisbatan profilaktik hisobga olish yuritiladigan quyidagi shaxslarning toifalari ko'rsatib o'tilgan:

ilgari sudlanganlarga ular jinoiy jazoni o'taganidan so'ng

o'ziga nisbatan sudning jazo tayinlanmagan ayblov hukmi qonuniy kuchga kirgan shaxslar;

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 84-moddasiga muvofiq aybdorlik to'g'risidagi masala hal qilinmasdan turib o'ziga nisbatan jinoyat ishi tugatilgan shaxslar;

o'ziga nisbatan qamoqqa olish bilan bog'liq bo'lmagan ehtiyot chorasi tanlangan jinoyat sodir etishda ayblanuvchilar;

O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi-ning 40, 41, 45, 47, 52, 56, 58, 61, 106, 131, 165¹, 183, 184, 184¹, 184², 184³, 187, 188, 188¹, 189, 189¹, 190, 191, 201, 202, 202¹, 240, 241-moddalarida nazarda tutilgan ma'muriy huquqbuzarliklarni sodir etganlar;

ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasalaridan qaytganlar.

Shaxsni profilaktik hisobga qo'yishga quyidagilar asos bo'ladi:

vakolatli organning yoki mansabdor shaxsning ushbu Qonun 35-moddasining oltinchi xatboshisida nazarda tutilgan ma'muriy huquqbuzarliklar bo'yicha ma'muriy jazo qo'llanilishi to'g'risidagi qarori;

vakolatli organning yoki mansabdor shaxsning jinoyat ishini tugatish to'g'risidagi yoxud reabilitatsiya qilmaydigan asoslar bo'yicha jinoyat ishini qo'zg'atishni rad etish to'g'risidagi qarori;

o'ziga nisbatan qamoqqa olish bilan bog'liq bo'lmagan ehtiyot chorasi tanlangan ayblanuvchi sifatida ishda ishtirok etishga jalb qilish to'g'risidagi tergovchining yoki prokurorning qarori;

sudning qonuniy kuchga kirgan ayblov hukmi;

shaxsning jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilinganligi to'g'risidagi ma'lumotnoma;

voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyaning qarori.

Qonunga asoslangan holda 6 ta profilaktik hisob toifalari mavjud bo'lib, ushbu toifadagi shaxslarning o'ziga xos xususiyatlari bir biridan farq qiladi va ularning psixologiyasini o'rganishni talab etadi.

Birinchi toifa – "Hqari sudlangan shaxslar"lar – ular jazoni ijro etish muassasasidan bo'shab kelganidan so'ng yoki boshqa turdagi jinoiy jazolarni o'taganidan so'ng profilaktik hisobga olinadi. Ushbu toifadagi shaxslar boshqalariga nisbatan jinoyat sodir etishga moyilligi yuqori bo'lib, tajovuzkor xarakterga egadir. Ushbu toifadagi shaxslar bilan yakka tartibdagi tarbiyaviy profilaktik ishlarni amalga oshirish jarayonida ularning qaysi turdagi jinoyat sodir etganligi, ma'muriy nazorat qonuni ta'siri ostiga tushishi va tushmasligi, sodir etgan jinoyatining og'irlik darajasini to'liq tahlil etgan holda yondashuvni talab etadi.

Ikkinchi toifa – "O'ziga nisbatan sudning jazo tayinlanmagan ayblov hukmi qonuniy kuchga kirgan shaxslar" – bu toifadagi shaxslar yuqorida ko'rsatilgan toifadagi shaxslarga nisbatan o'ziga xos xususiyati bilan qisman ajralib turadi. Bu toifaga biz Jinoyat kodeksining 72-moddasiga asosan shartli hukm etilgan shaxslarni ham kiritishimiz mumkin. Demak, jinoyat sodir etsa-da, ushbu toifadagi shaxslarda tuzalish yo'lga kirish imkoniyatlari kengroqdir va ular bilan amalga oshiriladigan tarbiyaviy

profilaktik ishlar natijasi yaxshiroq bo_ladi Albatta, sudlar ham jazo tayinlashda ularning o_ziga xos xususiyati, mahalla va oilasidagi hurmatini va boshqa tavsiflarni inobatga olgan holda jazo tayinlaydi.

Uchinchi toifa – – Θ _zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 84-moddasiga muvofiq aybdorlik to_g_risidagi masala hal qilinmasdan turib o_ziga nisbatan jinoyat ishi tugatilgan shaxslar” – Jinoyat-protsessual kodeksi ushbu moddasi 1-qismining 3-bandiga ko_ra, vafot etgan ayblanuvchi, sudlanuvchidan tashqari jinoyat ishi tugatilgan barcha shaxslar profilaktik hisobga olinadi. Ushbu toifadagi shaxslarda ham tuzalish yo_lga kirish imkoniyatlari birmuncha kengroq bo_lib, bunda ular bilan yakka tartibdagi profilaktikani amalga oshirish jarayonida to_liq inobatga olish lozim, ayniqsa ushbu toifadagi shaxslarning adashganliklari va ular ilgari sudlangan shaxs emasligini ta_kidlab, jamiyatda o_z o_rnini topa olishlariga ishontirish muhim ahamiyat kasb etadi.

To_rtirchi toifa – – Θ _ziga nisbatan qamoqqa olish bilan bog_liq bo_lmagan ehtiyot chorasi tanlangan jinoyat sodir etishda ayblanuvchilar”. Ushbu toifadagi shaxslarga tergovchi, prokuror, sud agar ayblanuvchini qamoqqa olish bilan bog_liqehtiyot chorasi qo_llash shart emas deb hisoblasa, sodir etgan jinoyatining ijtimoiy xavfi kamroqligini, shaxsini, mulkiy ahvolini va undagi ma‘lum bir ma‘nodagi ijobiy sifatlarini inobatga olib qamoqqa olish bilan bog_liq bo_lmagan ehtiyot chorasini qo_llaydi. Bu holatdan ham ko_inib turibdiki, mazkur toifadagi shaxslar bilan ham yakka tartibdagi tarbiyaviy-profilaktik ishlarni olib borishda ushbu toifadagi shaxslarning xususiyatlarini inobatga olish, ularni profilaktik hisobga olishda ishonchsizlik emas, balki ularga yaqindan yordam berish ekanligini tushuntirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Beshinchi toifa – – Θ _zbekiston Respublikasi Ma‘muriy javobgarlik to_g_risidagi kodeksining 40, 41, 45, 47, 52, 56, 58, 61, 106, 131, 165¹, 183, 184, 184¹, 184², 184³, 187, 188, 188¹, 189, 189¹, 190, 191, 201, 202, 202¹, 240, 241-moddalarida nazarda tutilgan ma‘muriy huquqbuzarliklarni sodir etganlar”. Mazkur toifadagi shaxslar jinoyat emas, balki ma‘muriy huquqbuzarlik sodir etganligini inobatga olish lozim. Jumladan, ularning kelgusida ushbu harakatlarini sodir etishi qanday oqibatlariga olib kelishini aniq tushuntirish, zarur hollarda ularni rasmiy ogohlantirish ahamiyatlidir. Bu toifadagi shaxslarga sodir etgan huquqbuzarliklarining jamiyatga zarari, shuningdek o_zi va oila a‘zolariga ma‘naviy ta‘sir etishini tushuntirib o_tish lozim.

Oltinchi toifa – – X tisoslashtirilgan o_quv-tarbiya muassasalaridan qaytganlar”dir. Bu toifadagi shaxslarning voyaga yetmaganligini inobatga

olib, ularning o'ziga xos xususiyatlarini to'liq o'rganib chiqish va zarur yakka tartibdagi tarbiyaviy- profilaktik ishlarni tashkil etish kerak. Masalan, voyaga yetmagan xarakteridagi tez ta'sirlanish, "komformizm", sarguzashtlarga qiziqishining yuqoriligi, boshqalardan o'zini yuqori qo'yish va boshqalarni hisobga olish lozim. Shulardan kelib chiqib, ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasalaridan qaytib kelganlarning shaxsiyatiga tegmaslik, ularga qattiq gapirmaslik va ular bilan iloji boricha maslahat tarzida sozlash, suhbatlashish jarayonida ota-onasi yoki ularning o'zini bosuvchi shaxslarning ishtirokini ta'minlash, ularning qiziqishlarini o'rganish, biror kasbni o'rganishida yoki o'zi qiziqqan yo'nalishdagi o'qishga kirishida yordam ko'rsatish ularda jamiyatga bo'lgan ishonchni orttiradi va tuzalish yo'liga kirish imkonini oshiradi.

Ichki ishlar organlarida profilaktik hisobga olinadigan shaxslarning toifalari O'zbekiston Respublikasi IIVning «Huquqbuzarliklar profilaktikasini ta'minlash, profilaktika (katta) inspektorlari va militsiya tayanch punktlari faoliyati samaradorligini oshirish to'g'risida»gi 2014-yil 1-sentabrdagi 131-sonli buyrug'i asosida sodir etgan huquqbuzarliklarining xususiyatlaridan kelib chiqib, 13-toifaga ajratilgan va ular bilan yakka tartibdagi profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirishda ularning o'ziga xosligini inobatga olish profilaktik ishlarning samaradorligini oshiradi.

1. *Konstitutsiyaviy tuzumga qarshi hamda boshqaruvning belgilangan tartibiga tajovuz qilish bilan bog'liq huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarning (JKning 157, 158, 159, 160, 161, 162, 163, 216, 216¹, 216², 217; MJtKning 201, 202, 202², 240, 241-moddalari) "profilaktik hisob toifasi"* (PHT-01) ular sodir etgan huquqbuzarliklarning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadi. Ushbu toifadagi shaxslar jinoyat sodir etganda sudning hukmi, JIEMning ma'lumoti, ma'muriy javobgarlikka tortilganda, vakolatli davlat organi (sud organlari)ning ma'muriy javobgarlikka tortish to'g'risidagi qarori asosida hisobga olinadi. Shuningdek, ushbu turdagi jinoyatni sodir etgan shaxslar toifasi nazoratga olinib, jamiyatda yurish-turish qoidalarini buzganlarida ularga nisbatan ma'muriy nazorat o'rnatilishi mumkin. Bu toifadagi shaxslarda davlat tuzumiga qarshi kayfiyat, qarashlar mavjud. Mazkur toifadagi shaxslarda tajovuzkorlikdan tashqari, g'ayriijtimoiy xatti-harakat, buzg'unchi g'oyalar ta'siriga tushishga moyillik bo'ladi. Boshqalarni shunga da'vat qilishga intiladi. Shu munosabat bilan, bu toifadagi shaxslarga davlatning to'g'ri, adolat yo'lidan borayotganligini misollar orqali tushuntirish, ularning qarashlari noto'g'ri ekanligini isbotlab berish muhim ahamiyat kasb etadi.

2. *Tinchlik va fuqarolarning xavfsizligiga qarshi jinoyat sodir etganlar (JKning 150, 151, 152, 153, 154, 154¹, 155, 156-moddalari) "profilaktik*

hisob tofasi” (PHT-02)dagi shaxslar ham yuqoridagi toifaga o_xshash bo_lib ko_p hollarda ularning ongi diniy-ekstremistik oqimlar tomonidan zaharlangan bo_ladi. Shu bois ular bilan yakka tartibdagi ishlarni olib borishda ehtiyotkorlik bilan yondashish lozim. Masalan, bu toifadagi shaxslarni o_zlarining qarashlaridan voz kechishga undash qiyinchilik tug_diradi. Shu sababli ularning ma‘muriy nazorat qonuni ta‘siri ostiga tushishini inobatga olgan holda majburlov choralarini o_z vaqtida va to_g_riqo_llash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu toifadagi shaxslarni profilaktik hisobga olishga sudning jinoiy javobgarlikka tortish to_g_risidagi hukmi va jazoni ijro etish muassasasidan qaytganidan so_ng JIEMning ma‘lumoti asos bo_ladi. Ushbu toifadagi shaxslar o_ta tajovuzkorligi bilan alohida ajralib turadi. Ularning bu xususiyatidan kelib chiqib, ular bilan yakka tartibdagi profilaktik ishlarni olib borishda ehtiyotkor bo_lish va o_ta kuchli psixologik bilim talab etiladi.

3. *Shaxsning hayoti va sog_ligiga qarshi huquqbuzarlik sodir etganlar (JKning 97, 98, 99, 100, 101, 102, 103, 104, 105, 106, 107, 108, 109, 110, 111-moddalari, MJtKning 52, 56-moddalari)* –profilaktik hisob toifasidagi shaxslar” (PHT-03)da g_arazgo_ylik, ko_rolmaslik, ichi qoralik, qasoskorlik, tez achchiqlanish, o_ch olish xislatlari yuqori bo_ladi va o_ta shafqatsizlik xususiyatlari yuqori shakllanganligi bilan ajralib turadi. Bu toifadagi shaxslar sudning jinoiy jazoga tortish to_g_risidagi hukmi, ma‘muriy javobgarlikka tortish to_g_risidagi qarori, yoxud vakolatli organning qamoqqa olish bilan bog_liq bo_lmagan ehtiyot chorasi qo_llash to_g_risidagi ajrimi asosida profilaktik hisobga olinadi. Mazkur toifadagi shaxslarning jinoyat sodir etgan ayrim toifalari ham ma‘muriy nazorat qonuni ta‘siriga tushadi. Ichki ishlar organlarining jamiyatda yurish-turish qoidalarini buzmaslik haqidagi ogohlantirishlariga qaramay, huquqbuzarlik sodir etgan bunday shaxslarga nisbatan zarur hollarda majburlov choralarini qo_llash lozim. Shu bilan birga, mazkur toifadagilarni ma‘naviy tarbiyalash, ularning qonun va qonun osti hujjatlariga rioya etishlari yuzasidan tushuntirish ishlarini kuchaytirish zarur.

4. *Shaxsning ozodligi, sha‘ni va qadr-qimmatiga qarshi jinoyat sodir etganlar (JKning 135, 136, 137, 138, 139, 140-moddalari)* –profilaktik hisob toifasidagi shaxslar” (PHT-04)da ma‘naviyatning buzilishi, uyatsizlik kabi xislatlarga ega bo_ladi. Shuningdek mazkur toifadagi shaxslarda soxta xushmuomalalik, birovlarini so_z bilan ta‘siriga tushuntirish, boshqalarning nozik joylarini o_rganib, ularni bu sirlarini boshqalarga aytish bilan qo_rqitish (shantaj)ga intilish yuqori bo_ladi. Ular ko_pincha odamlarni aldashga, ularning soddaligidan foydalanishga harakat qiladi. Bu toifadagilar sud-

ning hukmi, qamoqqa olish bilan bog liq bo lmagan ehtiyot chorasini qo llash to g risidagi ajrimi asosida profilaktik hisobga olinadi. Ushbu toifadagilarning ayrim turdagi jinoyatlar sodir etganlari ma muriy nazorat ta siriga tushadi va zarur hollarda ularga nisbatan ma muriy nazorat o matish orqali yakka tartibdagi profilaktik ishlarni kuchaytirish mumkin. Bundan tashqari, bu toifadagilar bilan yakka tartibdagi profilaktik ishlarni olib borish jarayonida ma naviy tarbiyasini yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish muhimdir.

5. *O zgalar mulkini talon-toroj qilish huquqbuzarliklarini sodir etganlar (JKning 164, 165, 166, 167, 168, 169-moddasi, MJtKning 61-moddasi) –profilaktik hisob toifasidagi shaxslar*” (PHT-05)ning o ziga xos xususiyatlaridan eng asosiysi, ishyoqmaslik, birovlar hisobiga kun ko nish, birovning mulkiga ko z olaytirish, tekin va oson daromad orttirish, maishatga bo lgan intilishning kuchliligi, shu bilan birga tilyog lamalik kabilardir. Bu toifadagilarni profilaktik hisobga qo yishga sudning hukmi, vakolatli organning jinoyat ishini rad etish yoxud qamoqqa olish bilan bog liq bo lmagan ehtiyot chorasini qo llash to g risidagi ajrimi, vakolatli organning (sud) ma muriy javobgarlikka tortish to g risidagi qarorlari asos bo ladi. Mazkur toifadagilar bilan yakka tartibdagi profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirish jarayonida ularni to g riturmush tarziga yo naltirish, ulardagi ishyoqmaslik kayfiyatini yo qtish, halollik, poklikka undab, birovning mulkiga ko z olaytirishning qanchalik kechirilmasligini tushuntirish, qonunlarga qat iy rioya etish va huquqbuzarlik sodir etganda kelib chiqadigan oqibatlarini faktik misollarda ko satish orqali ogohlantiruv ishlari olib borish muhim hisoblanadi.

6. *Jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga qarshi huquqbuzarlik sodir etganlar (JKning 242, 243, 244, 244¹, 244², 244³, 245, 246, 247, 248, 249, 250, 251, 251¹, 252, 253, 254, 255, 255¹, 256, 257, 257¹, 258, 259, 277, 278-moddalari, MJtKning 183, 184, 184¹, 184², 184³, 187-moddalari) –profilaktik hisob toifasidagi shaxslar*” (PHT-06) janjalkashligi, tajovuzkorligi, davlatga, qonunlarga zid xatti-harakatlari bilan ajralib turadi. Mazkur toifadagi shaxslar sudning hukmi, vakolatli davlat organlarining ma muriy javobgarlikka tortish to g risidagi qarorlari bilan profilaktik hisobga olinadi. O z navbatida, ushbu toifadagi aksariyat shaxslarning sodir etgan jinoyati ijtimoiy xavfliligi sababli, ularni ma muriy nazoratga olishni taqozo etadi. Shu bois mazkur toifadagilar bilan yakka tartibdagi profilaktik ishlarni tashkil etishda nazorat alohida o in egallaydi. Ayniqsa, ularni belgilangan tartib-qoidalarga rioya etishlarini tashkil etish, suhbatlashish jarayonida ma naviy tarbiyasini yaxshilashga e tiborni kuchaytirish, ularni ish va kasbga o rgatish choralarni ko nish lozim.

7. *Transport harakati va undan foydalanish xavfsizligiga qarshi huquqbuzarlik sodir etganlar (JKning 261, 262, 263, 266, 267, 268, 269-moddalari, MJtKning 131-moddasi)* –profilaktik hisob toifasidagi shaxslar” (PHT-07)da qonunlarni mensimaslik, manmanlik, o_zini boshqalardan ustun qo_yish, biror-bir katta lavozimda ishlovchi tanishlariga suyanishni xush ko_ish va ularning mansabini pesh qilib, boshqalarga po_pisa qilish, o_zlariga hamma narsani mumkindek tutish, shoshqaloqlik kabi xususiyatlar yuqori bo_ladi. Mazkur toifadagilar sudning hukmi, vakolatli davlat organlarining ma‘muriy javobgarlikka tortish to_g_risidagi qarorlari asosida profilaktik hisobga olinadi. Bunday shaxslar bilan yakka tartibdagi profilaktik ishlarni tashkil etishda qonunlarning barchaga baravar ekanligi, ularga qat‘iy rioya etish shartligi hamda huquqbuzarliklar oqibatida kelib chiqadigan javobgarliklar haqida tushuntirish, huquqiy tarbiyasini yaxshilashga qaratilgan ishlarni kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

8. *Voyaga yetmaganlar nazoratsizligi va huquqbuzarliklarini sodir etganlar (MJtKning 47, 188¹-moddalari)* –profilaktik hisob toifasidagi shaxslar” (PHT-08) befarqligi, ko_pincha tarbiyaning yetarli emasligi, spirtli ichimliklar va giyohvandlik vositalariga ruju qo_yganligi, faqat o_yin-kulgi va maishatga berilganligi, ko_pincha o_z manfaatini o_ylashi bilan ajralib turadi. Shu bilan birga, ularni kelajak emas, balki bugungi kun ko_proq qiziqtiradi. Mazkur toifadagi shaxslar vakolatli davlat organi (sud)ning ma‘muriy javobgarlikka tortish to_g_risidagi qarorlari asosida profilaktik hisobga olinadi. Ular bilan yakka tartibdagi profilaktik ishlarni amalga oshirishda asosan ma‘naviy tarbiyalash ishlariga e‘tibor qaratilishi muhimdir.

9. *Axloq-odob doirasida huquqbuzarlik sodir etganlar (JKning 113, 118, 119, 120, 121, 126, 127, 128, 129, 130, 131-moddalari, MJtKning 58, 188, 189, 189¹, 190, 191-moddalari)* –profilaktik hisob toifasidagi shaxslar” (PHT-09) toifasida axloqsizlik, yengil (yengil tabiatlilik) hayotga intilish, maishatbozlik kabi illatlar yuqori bo_ladi. Ushbu toifadagilar sudning hukmi va vakolatli davlat organlarining ma‘muriy javobgarlikka tortish to_g_risidagi qarorlari asosida profilaktik hisobga olinadi. Mazkur toifadagi shaxslar bilan yakka tartibidagi ishlarni tashkil etishda ham, asosan, ularning ma‘naviy tarbiyasiga e‘tibor qaratish lozim.

10. *Oilaga, yoshlarga va axloqqa qarshi jinoyat sodir etganlar (JKning 122, 123, 124, 125, 126, 127, 128, 129, 130, 131, 132, 133, 134-moddalari)* –profilaktik hisob toifasidagi shaxslar” (PHT-10)da ham yuqoridagi toifa kabi axloqsizlik kabi xislatlar bilan bir qatorda birovga qasd qilish, o_ch olish, ko_rolmaslik, g_aazgo_ylik kabi xususiyatlar yuqori bo_ladi. Bu toifadagilar sudning jinoiy javobgarlikka tortish to_g_risidagi hukmi asosida profilaktik hisobga olinadi. Mazkur toifadagi

shaxslar bilan yakka tartibidagi ishlarni tashkil etishda ularga insoniylik, qadr-qimmat bilan bog'liq ma'naviy xislatlarni tarbiyalashga alohida e'tibor qaratish, nazorat ishlarini kuchaytirish zarur hisoblanadi.

11. *Fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi huquqbuzarlik sodir etganlar (JKning 141, 142, 143, 144, 145, 146, 147, 148, 149-moddalari, MJtKning 40, 41, 45-moddalari)* –profilaktik hisob toifasidagi shaxslar” (PHT-11)ning alohida xususiyatlari, birovlarini mensimaslik, manmanlik, qonunlarni tan olmaslik, o'zini boshqalardan yuqori qo'yish hisoblanadi. Bu toifadagi shaxslar sudning jinoiy javobgarlikka tortish to'g'risidagi hukmi yoxud ma'muriy javobgarlikka tortish to'g'risidagi qarori asosida profilaktik hisobga olinadi. Bu toifadagilar bilan yakka tartibdagi tarbiyaviy ishlarda ularni qonunlarga rioya qilishiga chaqirish, qonun hujjatlarini buzgan holatlarda kelib chiqadigan oqibatlar haqida atroflicha tushuntirish lozim. Alohida ta'kidlash joizki, ushbu toifadagi shaxslarning aksariyati muqaddam biror-bir vakolatli davlat organida mansabdor shaxs sifatida faoliyat yuritgan bo'ladi. Shu sababli, bu toifadagilarning mansabidan ketganda ham ayrim manmanlik jihatlarini tashlamaganini inobatga olib, ularga ma'naviyatdan saboq berish, bu ishga keng jamoatchilik bilan hamkorlikda olib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

12. *Xo'jdik faoliyati sohasida huquqbuzarlik sodir etganlar (JKning 186, 186¹, 187, 188, 189, 190, 191, 192-moddalari, MJtKning 165¹-moddasi)* –profilaktik hisob toifasidagi shaxslar” (PHT-12)da noqonuniy yo'l bilan daromad orttirishga intilish, boylikka o'chlik, raqobatchilarini ko'lmamaslik kabi xususiyatlar mavjud bo'lib, ular asosan xo'jalik ishlarida faoliyat yuritgan shaxslar bo'ladi. Ular birovning haqidan qo'rqish hissidan yiroq bo'lib, boylikka o'chligi, har qanday yo'l bilan unga erishiga intilishi oqibatida jinoyat yoki ma'muriy huquqbuzarlik sodir etishiga olib keladi. Mazkur toifadagi shaxslar sudning hukmi va vakolatli davlat organining ma'muriy javobgarlikka tortish to'g'risidagi qarori bilan profilaktik hisobga olinadi. Bu toifadagi shaxslar bilan yakka tartibdagi profilaktik ishlarni tashkil etishda ularni insof, diyonatga chaqirish, qonunlarga rioya etish va har qanday g'ayriijtimoiy harakatlar uchun javobgarlikning muqarrarligini tushuntirish zarurdir.

13. *Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop-moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilish bo'yicha huquqbuzarlik sodir etganlar (JKning 270, 271, 272, 273, 274, 275, 276-moddalari, MJtKning 106-moddasi)* –profilaktik hisob toifasidagi shaxslar” (PHT-13) asosan, noqonuniy yo'l bilan daromad olishga intilishi bilan ajralib tursa-da, ammo ular asosan giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni o'zining daromad

orttirish manbai sifatida qaraydilar va ularni noqonuniy tayyorlash, yetishtirish, realizatsiya qilish bilan o'zlarining g'ayriijtimoiy hatti-xarakatlarini amalga oshiradilar. Mazkur toifadagilar sudning hukmi yoxud ma'muriy javobgarlikka tortish to'g'risidagi qarori bilan profilaktik hisobga olinadi. Bu toifadagi shaxslarni muntazam nazorat qilish, ularning yaqin aloqalarini kuzatuvga olish, oilaviy ahvolini o'rnatish, ishga joylashtirish yoki kasbga o'rnatish choralari ko'rish, yakka tartibdagi chora-tadbirlarni samaradorligini oshirish maqsadida bu illatning zararli oqibatlari haqida jonli misollar keltirish, zarur bo'lganda ma'muriy nazorat qonuni ta'siriga tushuvchilarni ma'muriy nazoratga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, qonunlarga qat'iy rioya etishlari borasida ularga nisbatan ogohlantiruv ishlarini kuchaytirish lozim. Bu toifadagilarda yolg'on gapirish hollari ko'pchilik va o'z yolg'onlari bilan xodimlarni chalg'itmoqchi bo'ladi. Shulardan kelib chiqib, mazkur toifadagi shaxslarning huquqiy va ma'naviy tarbiyasini yaxshilash, dunyoqarashini o'zgartirishga qaratilgan yakka tartibdagi profilaktik choralarni takomillashtirib borish lozim.

Profilaktik hisobga olingan shaxslar bilan quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

- profilaktik hisobga olingan shaxsni g'ayriijtimoiy xulq-atvorni davom ettirmaslik haqida ogohlantirish;

- profilaktik hisobga olingan shaxsni uning ish (o'qish) va yashash joyidan tekshirish, uning xulq-atvori haqida ma'lumotlar olish;

- yakka tartibdagi barcha chora-tadbirlarni belgilangan ta'sir ko'rsatish chorasidan farqlagan holda tegishli tamoyillarga qat'iy amal qilgan holda olib borish;

- jazoni ijro etish muassasasidan bo'shatilgan shaxslarning oilasiga, shuningdek jamiyatga moslashishida ko'mak berish;

- profilaktik hisobga olingan shaxsni o'qish yoki ishga joylashtirish, shuningdek vaqtincha yashash joyi bilan ta'minlash, ijtimoiy hayotga moslashishi uchun moddiy ko'mak olishida yordam ko'rsatish;

- profilaktik hisobdagi shaxslardan axloqan tuzalayotgan va o'zida ijtimoiy ijobiy xulq-atvorni shakllantira boshlaganlarini rag'batlantirish yoki aksincha g'ayriijtimoiy xulq-atvorini davom ettirgan shaxslarga nisbatan, qonunda belgilangan majburlov choralari qo'llash.

Profilaktik hisob ishi yuritilgan har bir shaxs bilan yakka tartibda profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirishda shaxsning yoshi, jinsi, ruhiy holati, ijtimoiy ahvoli, ma'lumoti va mutaxassisligi, ehtiyojlari, qiziqishlari, qobiliyati kabi shaxsiy xususiyatlarini e'tiborga olgan holda ularni tuzalish yo'lga kirishini ta'minlash va qayta huquqbuzarlik sodir etishining oldini olish.

Yuqoridagi toifadagi shaxslar quyidagi asoslarga ko__ra profilaktik hisobdan chiqariladi:

- profilaktik hisobga olishning bir yillik muddati tugaganda;
- reabilitatsiya qiluvchi asoslarga ko__ra jinoyat ishini tugatish to__g__risida tergovchi yoki prokuror tomonidan qaror qabul qilinishi yoki sudning oqlov hukmining qonuniy kuchga kirishi;
- sudning shaxsni ozodlikdan mahrum etish tarzidagi jazoga hukm qilish to__g__risidagi ayblov hukmining yoki tibbiy yo__sindagi majburlov chorasini qo__llash to__g__risidagi sud ajrimining qonuniy kuchga kirishi;
- qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini tanlash to__g__risida sud tomonidan ajrim chiqarilishi;
- shaxsning muddatidan oldin to__liq tuzalganligi to__g__risida dalolat beruvchi ma'lumotlarning mavjudligi;
- profilaktik hisobda turgan shaxs O__zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga doimiy yashash joyiga qonunda belgilangan tartibda chiqib ketgan taqdirda;
- profilaktik hisobda turgan shaxsning vafot etishi.

Ichki ishlar organlarida profilaktik hisobda turuvchi shaxslar bilan ishlashda hududiy profilaktika inspektorining fuqarolar yig__inlari bilan hamkorligini quyidagi yo__nalishlarda olib borish maqsadga muvofiq:

1. Profilaktika inspektori yarashtirish komissiyasi tarkibida faoliyat ko__rsatish orqali bevosita hamkorlik qilish jarayonida:

– profilaktik hisobda turuvchi mansub bo__lgan er-xotin, qaynona va kelin, yaqin qarindoshlar, qo__ni-qo__shnilar o__rtasidagi nizolarni bartaraf etish, buzilgan munosabatlarni tiklashga doir amaliy ishlarni amalga oshirish;

– milliy qadriyatlarimizga zid holda muntazam ravishda notinch yashayotgan, qo__ni-qo__shnichilik munosabatlari hamda mahalladagi osoyishtalikning buzilishiga sababchi bo__layotgan profilaktik hisobda turuvchi shaxslar yashayotgan oilalarni aniqlash, turli nojo__ya xatti-harakatlarning oldini olish maqsadida ularning turmush tarzi va muhitini o__rganish, ma'naviy muhitga salbiy ta'sir ko__rsatuvchi omillarga barham berish chora-tadbirlarini amalga oshirilish;

– ichki ishlar organlarining profilaktik hisobida turgan, ayniqsa ilgari sudlangan, oila va turmushda muntazam huquqbuzarliklarga yo__l qo__yuvchi, turli yot g__oyalar ta'siriga tushib qolgan shaxslar bilan yakka tartibda profilaktik chora-tadbirlar olib borish.

2. Profilaktika inspektori fuqarolar yig__inining ma'rifat va ma'naviyat masalalari bo__yicha komissiyasi tarkibida faoliyat ko__rsatish orqali bevosita hamkorlik qilish jarayonida:

– profilaktik hisobda turuvchi shaxslar oilasida, ish joyida sog‘lom ma‘naviy muhit barqarorligini ta‘minlash, ular ongida yurtga sadoqat, madaniy merosimizga hurmat tuygularini yuksaltirish;

– profilaktik hisobda turuvchi yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ularni –ommaviy madaniyat”ning salbiy illatlari ta‘siridan himoyalash;

– profilaktik hisobda turuvchi shaxslarga diniy ekstremizm, diniy aqidaparastlik va missionerlikning kelib chiqish sabablarini, ularning salbiy oqibatlarini tushuntirish.

3. Profilaktika inspektori fuqarolar yig‘inining xotin-qizlar bilan ishlash bo‘yicha komissiyasi tarkibida faoliyat ko‘rsatish orqali bevosita hamkorlik qilish jarayonida:

– profilaktik hisobda turuvchi shaxsga mansub oilalarning ajralish holatlari, notinch oilalarning yuzaga kelish sabablarini chuqur tahlil etish va ularni bartaraf etishga oid chora-tadbirlarni amalga oshirish;

– profilaktik hisobda turuvchi voyaga yetmaganlarning nazoratsizligi, qarovsizligi, ular tomonidan huquqbuzarliklar yoki boshqa g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etilishining oldini olish, ularni vujudga keltiradigan sabablar va shart-sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etish;

– profilaktik hisobda turuvchi shaxs yashaydigan oilalarda ijtimoiy-ma‘naviy muhit barqarorligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatuvchi holatlar (xotin-qizlar o‘rtasida turli jinoyatlar, o‘z joniga qasd qilish, fohishabozlik, giyohvandlik, voyaga yetmagan qizlarni erta turmushga berish kabilar) yuzaga kelishining oldini olish va ularni bartaraf etish;

– ichki ishlar organlari hisobida turuvchi xotin-qizlarga nisbatan yakka tartibdagi profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirishda ishtirok etishi.

4. Profilaktika inspektori fuqarolar yig‘inining voyaga yetmaganlar, yoshlar va sport masalalari bo‘yicha komissiyasi tarkibida faoliyat ko‘rsatish orqali bevosita hamkorlik qilish jarayonida:

– profilaktik hisobda turuvchi voyaga yetmaganlar va yoshlarning milliy ma‘naviyatimizga zid bo‘lgan salbiy illatlar hamda turli ekstremistik oqim a‘zolari ta‘siriga tushib qolishning oldini olish, ularga imkon tug‘diruvchi sabablar va shart-sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etish;

– profilaktik hisobda turuvchi voyaga yetmaganlar va yoshlar o‘rtasida nazoratsizlik, qarovsizlik, huquqbuzarlik va boshqa g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlarning, ommaviy madaniyat salbiy ta‘sirlarining oldini olish hamda bunga imkon tug‘diruvchi sabablar va sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etish;

– profilaktik hisobda turuvchi ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda boʻlgan voyaga yetmaganlar va yoshlarga yordam koʻrsatish;

– profilaktik hisobda turuvchi voyaga yetmaganlar va yoshlar oʻrtasida sogʻlom turmush tarzini keng targʻib qilish, ularni jismoniy tarbiya va sport bilan shugʻullanishga keng jalb qilish, sportning ommaviy va milliy turlarini, xalq oʻyinlarini rivojlantirish.

5. Profilaktika inspektori fuqarolar yigʻinining ekologiya va tabiatni muhofaza qilish, obodonlashtirish va koʻkalamzorlashtirish boʻyicha komissiyasi tarkibida faoliyat koʻrsatish orqali bevosita hamkorlik qilish jarayonida:

– profilaktik hisobda turgan kam taʼminlangan oilalarning uylari va xonadonlarini taʼmirlashga koʻmaklashish;

– profilaktik hisobda turgan shaxslarning ekologik madaniyatini yuksaltirish, ular oʻrtasida ekologik taʼlim va tarbiya tizimini rivojlantirish, ularning atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatda boʻlishiga doir targʻibot ishlarini olib borishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishda ishtirok etish.

6. Profilaktika inspektori fuqarolar yigʻinining diniy maʼrifat va maʼnaviy-axloqiy tarbiya masalalari boʻyichamaslahatchisi bilan:

– jamiyatda ijtimoiy-maʼnaviy muhitni sogʻlomlashtirish, huquqbuzarlik, jinoyatchilik, diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashda fuqarolar, shu jumladan profilaktik hisobda turuvchi shaxslar faolligini oshirish;

– fuqarolar, shu jumladan profilaktik hisobda turuvchi shaxslarga haqiqiy diniy qadriyatlar va radikal oqimlar haqida saboq berish, ularning bu borada hushyorligi va ogohligini oshirish;

– nosogʻlom diniy gʻoyalarni taʼsiriga tushib qolgan profilaktik hisobda turuvchi shaxslar va ularning oilalari bilan alohida ish olib borish, ularni ijtimoiy rehabilitatsiya qilish va ijtimoiy moslashtirish.

7. Profilaktika inspektori fuqarolar yigʻinining –Mahalla posboni” jamoatchilik tuzilmasi bilan:

– fuqarolar xavfsizligi va jamoat tartibini saqlashni taʼminlashda profilaktik hisobda turgan shaxslarga nisbatan tarbiyaviy-profilaktik ishlar olib borish;

– huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olish, bu borada aholi bilan turli profilaktika tadbirlari oʻtkazish;

– profilaktik hisobda turgan barcha toifadagi shaxslar bilan yakka tartibdagi va viktimologik profilaktikani, ijtimoiy rehabilitatsiya qilish va ijtimoiy moslashtirishni amalga oshirishga va boshqa organlar bilan hamkorlik qilish talab etiladi.

2-§. Profilaktika inspektorining profilaktik hisobda turadigan shaxslarga psixologik ta'sir etish usullari

Ma'lumki, jinoyat va jinoyatchilik bilan bog'liq jarayonlar nafaqat kriminologik jihatdan, balki psixologik fanlar doirasida ham o'rganiladi. Bu esa jinoyatchilik hamda u bilan bog'liq hodisalar va salbiy illatlarga qarshi kurashish nechog'lik ahamiyat kasb etishi darajasini anglatadi. Insoniyatni azaldan shaxs muammosi qiziqtirib kelgan va shu sababli jinoyatchi shaxs, uning tavsifi, vujudga kelishi, shakllanishini o'rganish dolzarb ahamiyatga ega.

Ichki ishlar organlari tomonidan huquqbuzar shaxslarni profilaktik hisobga olishdan ko'zlangan asosiy maqsad aynan amaldagi qonunlar asosida yakka tartibdagi huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish orqali g'ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etishga moyil bo'lgan va huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarda ijtimoiy ijobiy xulq-atvorni shakllantirish, ularni individual xususiyatlari (bilimi, qobiliyati, qiziqishlari, ehtiyojlari)dan kelib chiqqan holda to'g'riyo'lga yo'naltirish, kasb egalashlariga yordam berish, foydali mehnat bilan shug'ullanishlariga erishish, sportga qiziqtirish singari ijobiy ishlarga erishishdan iboratdir.

Ma'lumki, shaxsning u yoki bu xatti-harakatlarni sodir qilishdagi imkoniyatlari ijtimoiy sharoit bilan bog'liqdir. Shaxs mavjud sharoit va imkoniyatidan foydalangan holda o'z maqsadini amalga oshirishga jazm qiladi.

Psixologiya va kriminologiya fanida shaxsga oid xususiyatlar tizimi quyidagi tartibda belgilangan:

- ijtimoiy-demografik va jinoiy-huquqiy belgilari;
- ijtimoiy holatlar (ijtimoiy yashash tarzida yuzaga keluvchi o'zaro munosabatlari);
- ma'naviy xususiyatlari.

Ushbu belgilar bir-biri bilan o'zaro bog'liq va bir-birini to'ldirib turadi. Xususan, shaxsning ijtimoiy-demografik belgilari (yoshi, ma'lumoti, kasbi, yashash joyi) uning jamoatchilik hayotida tutgan o'z o'mini belgilash va ma'naviy shakllanishi bilan uzviy bog'liq holda kechadi.

Ma'naviy-ruhiy xususiyatlari esa uning shakllanishiga ta'sir etgan ijtimoiy holatlar qanday kechganligini ifodalaydi, qolaversa, shaxsning ijtimoiy hayotda tutgan o'z o'mini bilan bog'liq vazifalarni qanday bajarayotganini baholashga ham imkon yaratadi.

Huquqbuzarlik sodir etishga moyil bo'lgan shaxs – o'zining g'ayri-ijtimoiy xulq-atvori xavfliligi tufayli huquqbuzarlik sodir etish ehtimoli holatida bo'lgan jismoniy shaxsdir.

Inson xulqi murakkab va ko'p qirrali hodisa bo'lib, uni o'rganishda tizimli yondashuv va ehtimol tutilgan jarayonlar haqidagi zamonaviy tasavvurlarga ega bo'lish talab qilinadi. Har bir axloqiy hodisaning mohiyati uning shaxs xulqining umumiy tuzilishidagi o'rni bilan bog'liq. Individual rivojlanish jarayonida axloqiy tizimlar individual axloqiy strategiyaning murakkab majmuiga aylanadi va shaxsning axloqiy tipini hosil qiladi.

An'anaga ko'ra, g'ayriijtimoiy xulq sabablari ikki guruhga – ijtimoiy va biologik sabablarga ajratiladi. Biroq, axloq-odob me'yorlari (qoida)dan og'uvchi xulqning ko'plab ko'rinishlarini tahlil qilish mazkur muammoni boshqacharoq, ya'ni tizimli-integratsiyalashgan (birlashgan) holda o'rganish zarur, degan xulosaga olib keladi.


Ijtimoiylik yoki biologiklik omillariga «ruhiylik» nomli tizim hosil qiluvchi omilni kiritish hamda inson xulqining sababiy bog'lanishlari (determinatsiyasi) bilan aloqador barcha muammolar majmuini ijtimoiy-psixologik-biologik sabablar deb atash zarur. Bunda «psixologik» jihatning o'rtada joylashgani uning ham ijtimoiy, ham biologik omil uchun birlashtiruvchi funksiyaga egaligini anglatadi.

G'ayriijtimoiy xulq sabablari haqida so'z borar ekan, avvalo, muammoni tahlil qilishning asosiy prinsiplarini keltirib o'tamiz.

1. G'ayriijtimoiy xulq normadagi xulq kabi, ko'p omillidir, u bir yoki hatto bir qancha sabablarning oqibati emas. Biroq, alohida olingan individual axloqiy ko'rinishning ko'pomillar bilan bog'liqligi va ehtimolli xususiyati uni o'rganib bo'lmazligini bildirmaydi. Bu o'rinda shaxsning tipik individual-psixologik xususiyatlari va axloqiy qarashlarini aniqlash ustun ahamiyatga ega. Ijtimoiy va biologik omillar o'z-o'zicha emas, balki jinoyatchi xulqining tipini hosil qiluvchi uning shaxsiy-psixologik xislatlarida birlashgan holda g'ayriijtimoiy xulqning aniqlovchilariga aylanadi.

2. G'ayriijtimoiy xulq ijtimoiy ijobiy xulqdan yo'nalishining mazmuni bo'yicha ham, psixoregulyatsion xususiyatlari bo'yicha ham ajralib turadi. Shaxs xulqi uning ehtiyojlari, anglangan va anglanmagan mayllari tizimi, oldiga maqsad qo'yish va unga erishish xususiyatlari bilan ajralib turadi. Agar uni sxema tarzida tasvirlaydigan bo'lsak, quyidagicha ko'rinish hosil qiladi.

Aksariyat jinoyatchilarning xulqiga ijtimoiy qadriyatlarga moslasha olmaslik (dezadaptatsiya) va o'zini o'zi boshqarishdagi nuqsonlar xosdir. Individning o'zini o'zi boshqarish imkoniyatlari past darajada bo'lganida, g'ayriijtimoiy mayllari, odatlari nafaqat nazorat qilinmaydi, balki ularning o'zlarini xulqning maqsad hosil qiluvchi mexanizmlariga aylanadi.



3. G_ayriijtimoiy xulq individning o_z ijtimoiy mas'uliyatini himoya qilish (o_zini oqlash) motivatsiyasi, umum e'tirof etilgan ijtimoiy qadriyatlarining qadrsizlanishi asosida amalga oshiriladi. Inson xulqi uning ehtiyojlari va yo_nalغانlik sohasi, qabul qilgan qadriyatlar tizimi, umuminsoniy madaniyatdan bahramandlik darajasi bilan bog_liqdir. Inson hayvondan farqli ravishda qandaydir yagona xulq tizimlariga mahkum emas, u ko_p funksiyalidir. Uning xulqini aniq instinktiv (tug_ma) mayllari emas, balki ijtimoiylashuv darajasi yuzaga keltiradi.

4. G_ayriijtimoiy xulq – mojaroli xulq bo_lib, doimo jamiyatda, ijtimoiy guruhlarda, shaxs bilan ijtimoiy guruh, ayrim shaxslar o_tasida va, nihoyat, shaxsning o_zidagi ichki ziddiyatlarga asoslangan. Inson xulqidagi tashqi holatlar tizimi unda shakllangan ichki ruhiy shart-sharoitlar tizimi orqali namoyon bo_ladi. Ushbu ichki ruhiy shart-sharoitlarga quyidagilar kiradi:

- qadriyatlar tizimi;
- axloqiy yo_nalغانlik;
- xatti-harakatning umumlashgan usullari;
- o_zini o_zitartibga solishning psixodinamik xususiyatlari.

5. Inson xulqida na obyektiv, na subyektiv omillarni alohida ajratish mumkin. Ijtimoiy omillar odamlar xulqiga bevosita ichki shaxsiy, individual-psixologik hodisalar orqali ta'sir ko_satadi (va bu ba'zan «jinoiy tabiat» illuziyasini yuzaga keltiradi).

6. Shaxs qanchalik kam ijtimoiylashgan bolsa (bu, odatda, jinoyatchi shaxsning o_ziga xos xususiyatidir), biologik omillarning ustun (dominanta) bo_lish ehtimoli shuncha yuqori bo_ladi. Inson ongining rivojlanishi qanchalik cheklangan bolsa, uning xulqida iyerarxik jihatdan quyi turadigan motivatsiya darajalari shuncha katta rol o_ynaydi.

Kriminolog olim Z.S.Zaripov va I.Ismailovlar jinoiy xulq shakllanish jarayonini quyidagi toifalarga ajratishadi: a) shaxs ehtiyoji va manfaatlari buzilishi bilan bog_liq jinoiy xulq shakllanish jarayoni; b) shaxs ehtiyoji (manfaati) va imkoniyati o_rtasidagi farq (qarama-qarshilik) bilan bog_liq

jarayonlar; d) shaxs ma'naviy va huquqiy tasavvurining, qadriyatlar va ijtimoiy yo_nalishining buzilishi bilan bog_liq jarayonlar; e) qaror qabul qilish va amalga oshirishdagi nuqson va kamchiliklar bilan bog_liq jarayonlar¹.

Jinoiy xatti-harakat jarayoni quyidagi asosiy qismlarni o_z ichiga oladi: motivatsiya, qaror qabul qilish va uni amalga oshirish. Har qanday ijtimoiy ahamiyatga ega bo_lgan xatti-harakat bu shaxsdagi o_ziga xos xususiyatlar bilan tashqi muhit o_tasidagi aloqaning natijasi degan fikrga asoslangan holda muayyan jinoiy xatti-harakat jarayonini quyidagicha tasvirlasa bo_ladi:

Rus olimi G.A.Avanesov inson xatti-harakatiga salbiy ta'sir etuvchi quyidagi biologik shart-sharoitlarni ajratadi:

– jinsiy buzilish va jinoyatlar sababiga aylanadigan biologik ehtiyojlar patologiyasi;

– asab tizimining qo_zg_aluvchanligini kuchaytiradigan, noadekvat reaksiyani keltirib chiqaradigan va harakatlarni ijtimoiy nazorat qilishni qiyinlashtiradigan asab-ruhiy kasalliklar (psixopatiyalar, nevrosteniyalar, kasallik va sog_liq chegarasidagi holatlar);

– turli xil psixosomatik, allergik, zaharvandlik bilan bog_liq kasalliklarga olib keladigan va qo_shimcha jinoiy omil bo_lib xizmat qiladigan psixofiziologik zo_riqishlar².

Ruhiy anomaliya (normadan og_ish)lar esa irsiy (genetik) ildizlarga ega bo_lib, asabiy-ruhiy buzilishlar faqat noqulay muhit ta'siridagina jinoiy xulqning sababi bo_lishi mumkin.

Shunday qilib, *inson xulqi yagona bioijtimoiy omil bilan bog_liqdir. Biologik jihatdan meros sifatida olingan inson xislatlari muayyan ijtimoiy sharoitlarda uning ruhiy xislatlari rivojlanishi uchun shart-sharoit hisoblanadi.*

Insonning jinoiy qilmishida namoyon bo_ladigan shaxsiy xislatlari «huquqiy ongdagi qandaydir umumiy nuqsonlar»dan emas, balki aniq axloqiy-psixologik qusurlari (baxillik, shafqatsizlik, ijtimoiy negativizm)-dan dalolat beradi.

Rus olimi A.R.Ratinovning o_tkazgan tadqiqotida jinoyatchilar va qonunga itoatkor fuqarolar o_tasida jiddiy psixologik farqlar borligi kuzatilgan. Ya'ni shkalali tahlilda tekshiriluvchilarning qonunga itoatkor guruhi barcha asosiy qadriyatlarga ijtimoiy-ijobiy munosabatini, o_z hayoti-ning mazmunini baholashi bo_yicha jinoyatchilardan ancha ustun ekanligi

¹ Qarang: *Зарипов З.С., Исмаилов И.* Криминология: Дарслик. – Т., 1996–Б. 130.

² Qarang: *Аванесов Г. А.* Криминология и социальная профилактика. – М., 1999. – С. 226–230.

maʼlum boʻlgan jinoyatchilar bilan qonunga itoatkor shaxslar oʻrtasidagi farqlar ijtimoiy muhit, faoliyat, badiiy zavq, nikoh, sevgi, farzandlar, oila kabi qadriyatlarda yaqqol koʻrinadi¹.

Jinoyatlarning har xil (gʻarazli, zoʻravonlikka asoslangan, ehtiyotsizlik orqasida sodir etiladigan) turlariga jinoyatchilarning motivatsion sohasida boʻladigan turli buzilishlar xosdir.

Shaxsning aynan jinoiy harakatni sodir etishi ham tashqi vaziyat (obyektiv omil), ham ichki (subyektiv omil) maqsadlar bilan bogʻliq.

Huquqbuzarlik motivlari huquqbuzarning shaxsiy salbiy xislatlari – gʻaraz, kek saqlash, rashk, shuhratparastlik, yolgʻon qarashlar tizimi (burch, doʻstlik kabi xislatlarni notoʻgʻritushunish) orqali shakllanadi.

Profilaktik hisobda turgan shaxslarning ehtiyojlari asosan quyidagi xususiyatlarga ega:

– ehtiyojlarning torligi, cheklanganligi, moddiy-utilitar xarakterga ega ekanligi;

– ijtimoiy zarur ehtiyojlarning (mehnat, axloqiy xulqqa boʻlgan ehtiyojlarning) rivojlanmaganligi;

– shakli buzilgan, oʻtacha standartdan va qondirishning qonuniy imkoniyatlaridan ortiq boʻlgan ehtiyojlar;

– buzilgan ehtiyojlar.

Baʼzan salbiy xulqning muayyan shakllari shaxsning dastlabki ehtiyojlari bilan bogʻliq shart-sharoitlardan uzilgan holda yakka-yu yagona manfaatga aylanadi. Fitna, gʻiybat, tuhmat, boshqalarga koʻngilsizliklar yetkazish, janjallar – koʻpincha, shaxsning oʻzini koʻrsatish va ijtimoiy faolligini namoyon etishning buzilgan shakli sifatida yuzaga chiqadi.

Shaxsning ijtimoiy oʻzagini uning yoʻnalganligi, hayotiy munosabatlari tizimi, motivli-qadriyatlarni nazarda tutganligi bois, bu oʻzakning oʻz jinoyatchi shaxsning tipini belgilashi lozim.

Profilaktik hisobda turuvchi shaxsdagi tipik xususiyatning mezoni, avvalo, uning ijtimoiy xavflilik darajasi, gʻayriijtimoiy buzilganlik meʼyorida.

Ushbu mezonga koʻra jinoyatchilarning uch tipini ajratish mumkin:

– gʻayriijtimoiy (ashaddiy);

– noijtimoiy (unchalik ashaddiy boʻlmagan);

– ruhiy boshqaruv nuqsonlari boʻlgan jinoyatchi shaxs tipi (tasodifiy).

Ashaddiy jinoyatchilarning qadriyatlari va hayotiy yoʻnalishini mazmuniga koʻra quyidagi guruhlariga ajratiladi.

Gʻayriijtimoiy gʻarazli yoʻndishdagi jinoyatchilar. Jinoyatchilarning

¹ Qarang: Ратинов А. Р. Судебная психология для следователей. – М., 1987. – С. 59.

bu guruhi jamiyatning moddiy boyliklariga, sarflangan mehnat miqdori va sifatiga ko__ra taqsimlanishiga tajovuz qiladi. Bunday jinoyatchilarni quyidagi to__rt kichik guruhga ajratish mumkin:

a) xo__jalik sohasida jinoyat sodir etuvchi (tovarlarni soxtalashtirish, soliq to__lashdan, litsenziya olishdan bo__yin tovlash va hokazo.) jinoyatchilar;

b) xizmat vazifasini suiiste'mol qiluvchi (xizmat lavozimini suiiste'mol qilish, mijozlarni aldash, tamagirlik orqali talon-toroj qilishlar) jinoyatchilar;

d) o__g__ril__ – mulkni yashirincha talon-toroj qilish bilan bog__liq tajovuz qiluvchi shaxslar (o__g__riliklar);

e) firibgarlar (hujjatlarni qalbakilashtirish, aldab tovlamachilik qilish va hokazo.).

G__ayr__ijtimoiy maqsadda g__araz va zo__ravonlik yo__ndishidagi jinoyatchilar – g__arazli maqsadda shaxsga nisbatan zo__ravonlik qiluvchi tajovuzkor shaxslar (zo__rlik ishlatish bilan tovlamachilik, talonchilik, bosqinchilik hujumlari sodir etishi va hokazo).

Insoniylikka zid, tajovuzkor yo__ralishdagi jinoyatchilar – boshqa shaxslarning hayoti, sog__lig__i va shaxsiy qadr-qimmatiga mensimay munosabatda bo__ladigan shaxslar. Bu guruhda ham quyidagi to__tta kichik guruh mavjud:

a) bezorilar;

b) ashaddiy bezorilar;

d) haqorat va tuhmat orqali shaxsning sha'ni va qadr-qimmatiga ziyon yetkazuvchi shaxslar;

e) shaxsga qarshi tajovuzkorona zo__ravonlik harakatlari – qotillik, nomusga tegish, badanga og__ir shikast yetkazish jinoyatlarini sodir etuvchi shaxslar.

O__z navbatida, ta'kidlash joizki, yuridik psixologiyaning alohida bo__limida ehtiyotsizlik oqibatida sodir etilgan jinoyatlarning psixologik jihatlari ko__rib chiqiladi, bunda maishiy va kasbiy ehtiyotsizlik tadqiq etiladi.


Garchi ehtiyotsizlikning psixologik manbaini tavsiflashda «e'tiborsizlik», «yengiltaklik» va «beparvolik» kabi iboralar ishlatilsa-da, biroq ularning yuzaga kelish mexanizmi hamon noma'lumdur. Shu bois, ehtiyotsizlik oqibatida sodir etiladigan jinoyatlarning psixologik mexanizmini ochib berish, ehtiyotsiz xulqni subyektning ichki ruhiy olami va u asoslanadigan qadriyatlar tizimi bilan bog__lash muhimdir.

Ehtiyotsizlik oqibatida jinoyat sodir etadigan jinoyatchilar tipini to__tt

turga ajratish mumkin:

- beparvolik, harakatsizlik natijasida jinoyatga yo_l qo_yadigan shaxslar;
- o_ziga haddan tashqari ishonish natijasida jinoyat sodir etadigan shaxslar;
- kuchli ruhiy hayajon (affekt holati) natijasida va boshqa shaxslarning g_ayriqonuniy harakatlariga javoban jinoyat sodir etadigan shaxslar;
- vaziyatga moslasha olmagan boi jinoyat sodir etadigan shaxslar.

Ayni vaqtda jinoyatchining har bir tipi o_ziga xos «shaxs sxemasi» yo_nalishiga ega.



Shuningdek, jinoyatchi shaxs o_zining huquqiy ongi darajasi va jinoyat sodir etishga tayyorligi mezonlari bo_yicha ham tasniflanadi. Ushbu mezon bo_yicha quyidagi jinoiy tiplarni ajratish mumkin.

Jinoiy qilmishlarni majburan sodir etuvchi, eng zarur ehtiyojlarni qonuniy yo_llar bilan qondirib bo_lmaydigan hayotiy vaziyatlar, ijtimoiy shart-sharoitlar qurboni bo_lgan shaxs tipi. Bunda huquqbuzar o_zini majburan yo_lqo_ygan xatti-harakati uchun qoralashi, ichki ziddiyat holatida bo_lishi mumkin.

Jinoiy qilmish sodir etishni doimo qonunga itoatkor xulqqa qaraganda afzalroq biladigan shaxs tipi. Bu jinoiy ta'sir yuqqan shaxs tipi.

Hayot va faoliyatning barqaror jinoiy obrazi shakllangan jinoyatchi shaxs tipi. Jinoiy qilmishlarni sodir etish o_zo_zidan uning uchun ehtiyojga aylanadi. Bu – professional jinoyatchi tipi. Bunda jinoyatga shaxs doimo jinoiy tajovuz predmetini izlash holatida bo_ladi. Uning jinoiy xatti-harakat usullari ishlab chiqilgan, zarur qurol va vositalari ko_rishga yonida bo_ladi. Bu jinoyatchilarning ijtimoiy jihatdan eng xavfli tipi.

Impulsiv (g_ayriixiyoriy) jinoyatchilar tipi uchun ayrim hayotiy vaziyatlar birdaniga, to_satdan noqonuniy xatti-harakatga undovchi hisoblanadi. Bunday tipdagilar asabiy-ruhiy zo_riqish kuchaygan sharoitda tezda «o_zidan ketadigan», darhol tajovuzkor, g_azab, rashk o_tida yonadigan, vaziyatga bog_liq ravishda tez nafratlanadigan shaxslar.

Bu kabi jinoiy tiplar, ayniqsa, alkogol va narkotik vositalardan mast

bo'lgan hollarda o'zlarini namoyon etadilar. Ularning ijtimoiy xavfli xulqiga xos holat ularda g'ayriijtimoiy xatti-harakat ko'inishlarining shakllanganligi, ya'ni o'zini o'zina nazorat qilish darajasining pastligidir.

Shuningdek, jinoyat sodir etuvchi shaxslarning barqaror motivasion holati ularning muhim tipologik xususiyati hisoblanadi. Shu asosga ko'ra, quyidagi jinoiy tiplarni ajratish mumkin:

1) axloqqa zid qarorlari ustunlik qiladigan jinoyatchilar;

2) barcha qulay sharoitlarda odat tusga kirgan jinoiy xatti-harakat motivlari ustunlik qiladigan jinoyatchilar;

3) muayyan hodisalar, guruhdagi shaxslar, muayyan huquq orqali muhofaza etiladigan qadriyatlarga barqaror yomon munosabatda bo'lgan jinoyatchilar;

4) jinoiy xatti-harakati g'azablanish holati (disforiya), yuqori ruhiy hayajon (affektatsiya), jamiyatdan begonalashuv (autiklik), ijtimoiy begonalik hissi tufayli yuzaga keladigan jinoyatchilar.

5) o'ziga xos «majburiy» jinoyatchilar – jinoyatlarni ular go'yo chorasiz vaziyatda, subyektiv talqin etiladigan zarurat orqasida sodir etadilar;

6) gedonistik (sodda-lazzatlanish) jinoyatchilarning jinoyatlari utilitar ehtiyojlari haddan tashqari ortib ketgan sharoitda ularni qonuniy yo'l bilan qondirish mumkin bo'lmaganida yuzaga keladi;

7) barqaror g'ayriaxloqiy mayllar, ijtimoiy salbiy ehtiros va intilishlarga ega bo'lgan manyakal jinoyatchilar. Ko'p hollarda, ular alkogolizm va narkotiklarga bog'liqlikka, psixopatologik xususiyatlar va jinsiy buzuqlikka chalingan bo'ladilar.

Jinoyatchi shaxsining barcha og'ir motivatsion xususiyatlari ularning jinoiy xatti-harakatiga xos barqaror usullar, tegishli uquv va ko'nikmalari bilan bog'liq bo'ladi.

Shunday qilib, shaxsning jinoiy xatti-harakati muayyan jinoiy ahamiyatga ega bo'lgan quyidagi xususiyatlari tizimi orqali hosil bo'ladi:

a) shaxsning jinoyatga berilganlik darajasi;

b) asosan jinoiy harakatlari qaratilgan obyekt;

d) jinoiy motivlarining ustunligi;

e) jinoyat sodir etishning barqaror, yaxshi ishlangan usullari;

f) ruhiy o'zini boshqarishning umumiy nuqsonlari (anomaliyalari).

Jinoiylashuvning ushbu barcha tarkibiy qismlari, garchi kelib chiqishi turlicha bo'lsa-da, o'zaro bog'liqdir. Individning jinoiy harakatlari uchun asosiy turtki vazifasini umumijtimoiy (makromuhit) va mikromuhitdagi sharoitlar bajaradi. Mikromuhit sharoitlari orasida shaxsning jamiyatda tarbiya olayotgan dastlabki davrlarida jinoyatchilar muhiti, jinoiy submada-

niyat unga g_{oyat} katta ta'sir qiladi. Jinoyatchining jinoiy muhitga, jinoiy submadaniyatga «mosligi» ham uning muhim tipologik xususiyatlaridan biridir.

Jinoiy submadaniyat nafaqat jinoyatchilarning jinoiy jipsligi omili, balki jinoiy tajribani yangi avlodlarga berish, salbiy ijtimoiylashuv vositasi hamdir.

Yengish qiyin bo_{lgan} jinoiy submadaniyatning ijtimoiy xavfi jinoyatchilar muhitining jipsligida, jinoiy romantika muhitining yaratilishida bo_{lib}, u yoshlarning ijtimoiy beqaror qismini o_{ziga} tortadi.

Alohida toifadagi huquqbuzarlarning psixologik sifatlari

Jinoyatchilikning oldini olish va jinoyatchi shaxsiga tarbiyaviy ta'sir o_{tkazish}da bayon etilganlarga asosan ish ko_{rish} maqsadga muvofiqdir. Biroq, ta'kidlash joizki, aynan shunday holatlarda oila yoki jamoa shaxsni tarbiyalashda yuzakilik bilan yondashadi.

Ma'lumki, har bir jamiyat o_{ziga} xos betakror ijtimoiy sharoitga ega. Zotan, qadriyatlar jamiyatda amalda bo_{lgan} axloq-odob qoidalariga mos ravishda jamiyat a'zolari tomonidan qabul qilinsa, jinoyatchilarning o_{ziga} xos salbiy tomondan idrok qilinishini ko_{rish} mumkin. Aynan shu orqali jinoiy va jinoiy bo_{lmagan} holatlar o_{rtasidagi} chegarani aniq belgilash imkoni tug_{iladi}.

Eng asosiysi, shaxsning shakllanishida, yuqorida ta'kidlanganidek, ijtimoiy va biologik muvozanat mavjudligini to_{g_{ri}} anglamoq darkor. Jinoyatchi shaxsiga to_{g_{ri}} ta'rif berish jinoyatchilikka qarshi kurash nazariyasi va amaliyotida alohida o_{rin} tutadi.

Kriminologik va psixologik tasniflash jinoyatchilarning barchasiga xos bo_{lgan} ajralmas belgilari bo_{yicha} ularni guruhlarga ajratish va guruhlarni tizimlashtirish maqsadida amalga oshiriladi. Bu esa jinoyatchilikni chuqur va har tomonlama o_{rganish}, unga jinoiy-huquqiy va boshqa vositalar ta'sirini takomillashtirish, uning oldini olish chora-tadbirlarini rivojlantirishga imkon beradi. Tasniflash turli xil asoslar bo_{yicha} amalga oshirilishi mumkin.

Eng oddiy tasniflash – bu jinoyatchilarni ular sodir etgan jinoyat turlari bo_{yicha} guruhlarga ajratish hisoblanadi. Bunday tasniflashda jinoyatchilarni «qotillar», «zo_{lavonlar}», «o_{g_{ilar}}», «firibgarlar», «talonchilar», «bosqinchilar», «tovlamachilar», «poraxo_{ilar}» va boshqa shu kabilar. Bu tasniflash jinoyatchilarning o_{ziga} xos belgilari va xususiyatlari bo_{yicha} emas, balki ular sodir etgan jinoyat tavsifi bo_{yicha} amalga oshiriladi. Bir xil jinoyatni sodir qilgan barcha jinoyatchilar o_{zlarining} ijtimoiy, ma'naviy-ruhiy xususiyatlari, jinoiy xatti-harakatlarining o_{ziga} xosligi bo_{yicha} xilma-xildir. Shuning uchun ham jinoyatchilarni ular sodir qilgan jinoyat

turlari bo'yicha tasniflash ular shaxsining o'ziga xosligini ko'rsata olmaydi, bu esa, o'z vaqtida, kriminologik tasniflash vazifasiga javob bera olmaydi.

Kriminologik tasniflashda jinoyat sodir qilgan shaxslar jinsi, yoshi, ijtimoiy ahvoli, kasbi, yashash joyi, birinchi marta yoki bir necha marta, yakka holda yoki guruh tarkibida jinoyat sodir qilganligi, jinoyat sodir qilish vaqtidagi ahvoli (spirtli ichimlik yoki narkotik moddalar iste'mol qilganligi), jinoyat sodir qilgan vaqtgacha bo'lgan xulqi (ma'muriy huquqbuzarlik (axloqqa zid xatti-harakatlar sodir qilganligi) bo'yicha guruhlarga ajratiladi.

Bunday guruhlash bizning jinoyatchilik va jinoyatchilar tarkibi haqidagi tushunchamizni yanada ham chuqurlashtiradi, aholining turli ijtimoiy-demografik guruhlarda jinoyatchilik, jinoiy faoliyat shakllari, jinoyat sodir qilishga ko'maklashuvchi omillarning keng yoyilganligi hisobga olingan holda jinoyatchilikni oldini olishning dolzarb yo'nalishlarini aniqlashga yordam beradi. Shu bilan bir qatorda bunday tasniflash jinoyatchi shaxsining mazmunini, jinoiy xatti-harakatning shaxsiy determinantlarini to'liq ochib bera olmaydi.

Chunki, bir xil jinsga, yoshga, ijtimoiy ahvolga va boshqa demografik belgilarga ega bo'lgan shaxslar o'zining ahvoli, motivi, jinoiy vaziyat xarakteri bo'yicha turli xil jinoyatlarni sodir qiladilar. Ularda o'zining jinoiy xatti-harakatlariga bo'lgan munosabatlar ham turlichadir. Yakka tartibda jinoyatlarni oldini olishda jinoyatchiga taalluqli va statistik hisobga olinadigan ko'pgina belgilar o'z mohiyatini yo'qotadi.

Shuni qayd etish lozimki, jinoyatlarning oldini olish samaradorligini yanada oshirish maqsadida psixologiya va kriminologiyada toifalash umuman, faqat jinoyatchilar bo'yicha emas, balki uning alohida toifalari, xususan zo'ravon jinoyatchilar, g'arazgo'y jinoyatchilar, voyaga yetmagan jinoyatchilar, talonchilar va boshqa toifalari bo'yicha amalga oshiriladi.

Zo'ravonlik jinoyatlarini ko'pchilik hollarda madaniy bilim darajasi past bo'lgan shaxslar sodir etadi. *Zo'ravon jinoyatchi shaxs* (jismoniy kuch ishlatib jinoyat sodir etishga moyil shaxs) odatda tarbiyaning asosiy sohalari – oila, o'quv yurti, ishlab chiqarish jamoasidagi kamchilik va nuqsanlarni aks ettiruvchi past darajadagi ijtimoiylashuv bilan ajralib turadi. Ushbu shaxsning motivatsion sohasiga egotsentrizm (xudbinlik), jamiyat vakillarining bir qismi bilan barqaror nizolashuv va o'zini oqlashga bo'lgan intilishning mavjudligidir. Bu yerda, aksariyat hollarda, alkohol jinoiy maqsadni faollashtiruvchi omil hisoblanadi.

Zo'ravonlikka asoslangan jinoyatlarning sodir etilishida ijtimoiy

muhit bilan normal o_zaro aloqalarning buzilishi, kuchli nizoli vaziyat sabab bo_ladi. Ko_pincha nizoli vaziyatning «yuqishi» guruhliy bezorilik harakatlari va katta shaxslar guruhlarining ommaviy tartibsizliklarida ishtirok etish jarayonida yuz beradi. Nizolarning bunday turi beqaror psixikaga ega bo_lgan, huquqiy ongi past, umumiy madaniyat darajasi sust, oson qo_zg_{al}uvchan, olomondagi shaxslarning ta_siriga tez beriluvchan shaxslarga xosdir. Bir insonning bezorilik harakatlari boshqa shaxslar uchun emotsional signal yoki taqlid uchun namuna bo_lib xizmat qilishi mumkin.

Shu sababli zo_ravonlik jinoyatlarini sodir etuvchi shaxslarning asosiy xususiyati – qadriyatlarida insonparvarlik prinsipining shakllanmaganligi, hissiy o_zini nazorat qila olmasligi, g_{ay}riixtiyoriy tajovuzkorlikda namoyon bo_ladi. Qotillik, badanga shikast yetkazish, qiynash, nomusga tegish, bezorilik harakatlari sodir etishda aybdor shaxslar nihoyatda ijtimoiylashmaganligi, g_{ay}riijtimoiy xulqiy ko_nikmalarining shakllanganligi bilan ajralib turadilar.

Ularning xatti-harakatlariga ashaddiy xudbinlik (egotsentrizm), qo_qqisdan yuzaga keladigan istaklarni darhol qondirishga intilish va surbetlik xosdir. Ular zo_rlikni nizolarni hal etishning yagona vositasi deb biladilar. Ularga psixologik himoya vositalaridan keng miqyosda foydalanish, ya_ni o_zlarining g_{ay}riijtimoiy xatti-harakatlarini oqlash, aybni jabrlanuvchiga va tashqi holatlarga to_rnkash xosdir.

Ashaddiy zo_ravonlik jinoyatlarini sodir etuvchi shaxslar bir qator shaxsiy-tipologik, psixologik xususiyatlarga ega bo_ladilar.

Bular:

- atrofdagi shaxslarni doimo o_ziga dushman sifatida qabul qilish;
- eng kichik shaxsiy muvaffaqiyatsizlikdan haddan ortiq ta_sirlanish, ularni ijtimoiy jihatdan mos (adekvat) baholashga qobiliyatsizlik;
- jamiyatdan begonalashganlik (autiklik);
- hissiy jihatdan nihoyatda beqarorlik, patologik darajadagi jizzakilik, qasoskorlik, ruhiy betayinlik, kayfiyatning tez o_zgarishi;
- da_vogarlik darajasining nihoyatda yuqoriligi;
- ekstremal vaziyatlarga moyillik, ularni faol yuzaga keltirish;
- o_zini ko_rsatishga moyillik;
- o_ziga xos hissiy nuqsonlarni doimo yashirishga intilish va hokazo.

Ushbu toifadagi jinoyatchilarning salbiy xislatlari ijtimoiy nazorat yetarli bo_lmagan, nihoyatda salbiy mikromuhit sharoitida shakllanadi. Ushbu xulq shakllanishining muhim omillariga quyidagilar kiradi:

- bolalikdagi emotsional zo_riqish;

– oila va ijtimoiy foydali guruhlardan ajralish.

Shu nuqtai nazardan zo_ravonlikka asoslangan jinoyatlarda ko_pincha shafqatsiz tajovuzkorlik xususiyati namoyon bo_ladi, og_ir jismoniy va ruhiy shikastlar yetkaziladi. Tajovuzkor xulqning bu tipi shaxsning chuqur buzilganidan, shaxsda tajovuzkor xatti-harakatga va odamlarga zarar yetkazishga bo_lgan moyillikning shakllanganidan, shaxsning o_zini nazorat qilish qobiliyati nihoyatda past darajada ekanidan dalolat beradi.

Ushbu shaxslarning xulqiga quyidagi xususiyatlar xosdir:

– o_zini tajovuzkor intilishdan tiya olmasligi;

– nizoning qay yo_nalishda rivojlanishi va tajovuzkor harakatlarining oqibatlariga ko_ziyetishmasligi;

– nizoli vaziyatdan chiqish usullarini bilmasligi.

Zo_ravonlik jinoyatlarida esa adovatli tajovuzkorlik birinchi o_ringa chiqadi – tajovuz qilib, birovga ziyon yetkazish asosiy maqsadga aylanadi. Zo_ravonlikning davomiyligi va shafqatsizligi bu o_rinda jinoiy maqsad – jinoyat qurbonini tahqirlash, unga rashk, qasos, o_zini ko_rsatish maqsadida og_irazob berish kabilarga bog_liq bo_ladi.

Guruh bo_lib zo_ravonlik jinoyatlarini sodir etish ko_pincha guruh, guruhiy an'analar va ruhiy ta'sirlar natijasida sodir etiladi.

Zo_ravon jinoyatchining barqaror *ashaddiy toifasi* doimiy tajovuzkorlikdan iborat bo_lib, qo_pd kuch ishlatish stereotipining shakllangani bilan ajralib turadi. Uning uchun tashqi muhitda doimo bahona topiladi.

Zo_ravonlikka asoslangan jinoyat qurbonlarining g_alamiskor xulqi *viktim* xulq deb ataladi (lotincha *viktima* – qurbon). Viktim xulq – yengiltak, haddan tashqari ishonuvchan yoki axloqsiz, janjalkash, jinoyat sodir etilishi uchun bahona bo_luvchi xatti-harakatdir.

Viktimlik jinoyat qurbonining jinsi, yoshi, shaxsiy va ijtimoiy mavqei bilan bog_liqshaxsning umumiy hamda individual psixologik xususiyatlari – ishonuvchanligi, bilimsizligi, irodasining sustligi, jinoyatchiga ruhan tobeligi, ekssentrikligi, tavakkalga moyilligi, shaxsiy janjalkashligi bilan bog_liq bo_lganmaxsus turlarga bo_linishi mumkin.

Bezori zo_ravonlar toifasida jismoniy kuch ishlatib, bezorilik sodir etishga moyil, barqaror salbiy odatlari bo_lgan, jamoat tartibini muntazam buzadigan yoshlar ustunlik qiladi. Bu shaxslar axloq va madaniyatga zid tarzda vaqt o_tkazish, ruhiy kayfiyatini yuqtirish hamda g_ayriijtimoiy odamlarga taqlid qilish sharoitida jinoyat sodir etadilar.

Ularga xos umumiy ruhiy xususiyatlar – beodoblik, nihoyatda tajovuzkorlik, jizzakilik, mas'uliyatsizlik, zo_ravonlik harakatlari jazosiz qolishiga ishonish, yuqori darajada da'vogarlik, o_z harakatlarini oqlash-

dan iborat. Barcha zo_ravonlikka asoslangan bezorilik jinoyatlariga umumiy psixologik va axloqiy asos – boshqa odamlar hayoti, sog_lig_iva qadr-qimmatining qadrsizlanishi xosdir.

Jinoiy xulq-atvor, jumladan, ayollar jinoiy xulq-atvorining tipologik modellarini tuzishga qator qiziqarli tadqiqotlar bag_ishlangan bo_lib, ularda har xil shaxsiy xususiyatlar turlicha xulq-atvor motivlarining shakllanishiga olib kelishi qayd etiladi¹.

Kriminologiya va psixologiyada jinoyatchi ayollar shaxsini tipologik tavsiflashga urinishlar ilgari ham bo_lgan, ammo ayollar jinoiy xulq-atvorining professional ko_rinishlariga nisbatan bunday tadqiqotlar o_tkazilmagan.

Biz ajratgan shaxs tiplarining *birinchisi* – bu «past malakali» shaxsdir. Bular ma'naviy, ruhiy, psixologik va fiziologik jihatdan buzilgan odamlar, ijtimoiy nuqtai nazardan ma'lum darajada tubanlashgan shaxslardir. Ular, odatda, spirtli ichimliklarni suiiste'mol qiladi, jinoyatlar sodir etish bilan bir qatorda tasodifan uchragan ishlarni bajarib, kun kechiradilar, ba'zan doimiy turar joyga ega bo_lmasdan daydilik qiladilar. Bunday shaxslar asosan, o_xganing mulkini oz miqdorda takroran o_g_irlash jinoyatlarini sodir etadilar. Jumladan, ular odamlar ko_p yig_iladigan joylarda (aeroportlar, vokzallar, maktablar, bolalar bog_chalari, qariyalar uylari va hokazolarda) qarovsiz qolgan buyumlarni o_g_irlaydilar. Bunday shaxslar uchun jinoiy faoliyat asosiy tirikchilik manbai bo_lib xizmat qiladi. Bu ayollarning ko_pchiligi oilasiz, doimiy turar joyga ega emas, tamagirlik jinoyatlari uchun takroran sudlangan, daydilik uchun ushlangan, onalik huquqidan mahrum etilgan shaxslardir. Bunday shaxslarning ko_pchiligini 46-55 yoshdagilar tashkil etgan. Ularning ma'lumot darajasi o_ita.

Professional jinoyatchi ayollarning *ikkinchi* tipini biz shartli ravishda «g_araz maqsadli zo_ravon» tip deb nomladik. Bular, odatda, yosh professional jinoyatchi ayollar, alohida hollarda esa hatto voyaga yetmagan shaxslardir. Mazkur shaxs tipining yosh chegaralari 17-35 yosh. O_ziga xos xususiyatlari: jinsiy hayoti tartibsiz, ma'lumoti (to_liq o_ita) va kasbiy malakasi pastligiga qaramay, moddiy ehtiyojlari ancha baland. Ular, odatda, erkaklarning guruhlari tarkibida g_araz maqsadlarda zo_ravonlik jinoyatlarini sodir etadilar, mazkur guruhlarda ba'zan yetakchi mavqega ega bo_ladilar. Ushbu tipga mansub ayollar orasida fohishalar ko_pbo_lib, ular jinoiy faoliyatda yordamchi, dalolatchi yoki tashkilotchi vazifasini bajardi. Jinoyatchi ayollarning mazkur tipiga giyohvandlik vositalarini iste'mol qilish xosdir. Bu tipga mansub ayollar avvalgilariga qaraganda tubanlashgan, ularning xulq-atvorida shafqatsizlik va prinsipsizlik, ayniqsa, ko_proq

¹ Франк В. Человек в поисках смысла. – М., 1990. – С. 368.

namoyon bo_ladi

Navbatdagi *uchinchi* tip – odatda, bir o_zi yoki erkak bilan (kamdan-kam hollarda - ayol bilan) ishtirokchilikda jinoyat sodir etadigan yuqori darajada professional o_g_riva firibgar ayollar. Bunday shaxslar jinoyatlariga puxta tayyorgarlik ko_radilar, jabrlanuvchilarning xatti-harakatlari, jinoyat izlarini yashirish va hokazolarning mumkin bo_lgan barcha variantlari nazarda tutiladi, jinoyat sodir etish uchun qulay joy, shuningdek, jinoyat quroli va vositalari tanlab olinadi. Bunday tipdagi ayollar yoshi 27-50 yosh doirasida bo_ladilar. Yosh ayollar ko_pincha jinoyatni ishtirokchilikda sodir etadi. Bunday ayollarning oilasi ko_p hollarda buzilgan yoki faqat rasman saqlanib qolgan bo_ladi. Bunday shaxsga xos bo_lgan xususiyatlar turli favqulodda vaziyatlarga psixologik moslashuvchanlik layoqatining kattaligi, o_g_rilik va firibgarlikka ixtisoslashganlik, o_ita yoki o_ita maxsus ma'lumotga, ma'lum hayot tajribasiga egaligi bilan izohlanuvchi intellektual saviyaning nisbatan balandligi bilan izohlanadi.

Biz qayd etgan professional jinoyatchi ayollarning *to_rtinchi* tipini jinoyatchilar orasida «o_g_rilax onasi» deb atash qabul qilingan bo_lib, bu jinoyat olamida mazkur toifaga mansub ayollarning tutgan o_mini yorqin ifoda etadi. Bular fohishaxonalar va giyohvandlik vositalari iste'mol qiluvchilar uchun bangixonalarning saqlovchilari, qo_shmachilar, o_g_rilik mollar va giyohvandlik vositalarini sotib oluvchilar va sotuvchilardir.

Ayollarning jinoiy zo_ravonlik xatti-harakatlari o_zining ba'zi psixologik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ayollarning zo_ravonlikka asoslangan jinoyatchiligi hajmiga ko_ra erkaklarnikidan ancha kam. Ayollar xulqi voqelikning ayrim hodisalarini keskinroq qabul qilishi, ularga ko_proq hissiyot bilan javob berishi, shaxslararo munosabatlarning ayrim holatlariga kattaroq ahamiyat berishi bilan ajralib turadi.

Ayollar keskin, nizoli vaziyatlarda ruhiy shikastlanishga ko_proq moyil bo_ladilar, ular oiladagi kelishmovchilik va nizolarni og_iroq his qiladilar. Ular ko_proq xavotirga tushib tahdid solayotgan xavfni yuqori baholashga moyil bo_ladilar. Yuqori darajadagi hissiylik (sensitivlik), oilaviy ishlarning ko_pligi ularda yuqori darajadagi ruhiy zo_riqishning barqaror holatini hosil qiladi.

Ayollar orasida ruhiy anomaliyalar darajasi yuqoriroq. Aksariyat jinoyatchi ayollar tez ta'sirlanishlari, ijtimoiy o_zaro munosabat nuqsonlari, chiqisha olmaslik, asabiylik jihatlari bilan ajralib turadilar. Ular tajovuzkor harakatlarida ko_pincha tasodifan qo_l ostida bo_lib qolgan narsalardan foydalanadilar.

Biroq, ayollar qasddan qilinadigan og_ir jinoyatlarini odatda puxta o_ylab, niqoblashga harakat qiladilar. Shaxsga qarshi og_ir jinoyatlarni

ko__pincha xatti-harakatlari erkaklarnikiga o__xshash ayollar sodir etadilar.

Jinoyatchining shaxsiga doir kriminologik tadqiqotlarda so__nggi vaqtlarda deviant xulq-atvorga turtki beruvchi ma‘lum sabablarni tavsiflashga ko__proq urg__u berilmoqda¹. Shu bilan birga, biz mahkuma ayollar shaxsining tipologiyasi boshqacha bo__lishi, ya‘ni boshqa belgi va mezonlarga ko__ra, masalan, jinoiy-huquqiy ahamiyatga ega ijtimoiy-psixologik va jinoiy faoliyatda ishtirokchilik belgilariga, jinoiy tajovuz obyektiga ko__ra tuzilgan bo__lishi mumkin², degan fikrga to__liq qo__shilamiz.

Zo__ravonlik jinoyatlariga *jinsiy jinoyatlar* ham kiradi. Bunday jinoyatlarda ustunlik qiluvchi ruhiy xislat jinsiy tajovuzkorlik – jinoyat qurboniga jinsiy zo__dik va jismoniy zarar yetkazish, ko__phollarda hayotdan mahrum qilishdir. Bu shaxsda psixik nuqsonlar borligidan dalolat beradi.

Mazkur normadan og__ishlar jinsiy jinoyatchilikning sababi emas, balki shart-sharoiti hisoblanadi. Bunday shaxslarning aksariyati qonundan chetga chiqmaslikka harakat qiladilar.

Eng xavfli jinsiy jinoyat nomusga tegish jismoniy kuch, tahdid yoki jabrlanuvchining chorasiz ahvolidan foydalanib sodir etiladi. Bunday jinoyat uchun yuridik javobgarlik 14 yoshdan boshlanadi. Ushbu jinoyatning ijtimoiy xavfliligi ayolning jinsiy erkinligini qo__pol ravishda mensimaslik, jinoyatchi harakatlarining zo__ravonlik xususiyatiga egaligi, jabrlanuvchiga ma‘naviy va jismoniy zarar yetkazilishi, ko__p hollarda, ruhiy va jismoniy sog__lig__ining buzilishidan iborat.

Zo__ravon jinoyatchilar qadriyatli-motivatsion va ruhiy boshqaruv sohasida bir qator tipik buzilishlarga ega bo__ladilar. Hodisani ular ijtimoiy taqiqlarning ta‘sirchanligi keskin pasaygan sharoitda sodir etadilar. Har bir zo__ravonlik jinoyati asosida bir qator sabab va shart-sharoitlar, individual-biologik, ruhiy va ijtimoiy-psixologik omillar yotadi.

G__arazli jinoyatlarni sodir etishga moyil jinoyatchi shaxslar toifalari har xil bo__lib, ular qatorida o__g__rilik xo__jalik sohasida g__arazli jinoyatlarni sodir etuvchilar va xizmat vazifalarini g__arazli niyatda suiiste‘mol qiluvchilar hamda talon-torojlik jinoyatlarini sodir etuvchilarni kiritish

¹ Пахомов В.Д., Корзун И.В. Особенности профилактики женской преступности органами внутренних дел // Современная преступность: новые исследования. – М., 1993. – С. 108-109.

² Миненок М.Г. Личность расхитителя. Криминологическая характеристика и типология. – Калининград, 1980; Выневский Ю.В. Криминологическая характеристика личности вора. – Омск, 1973; Меликишвили Л.А. Роль личностного фактора в преступном поведении женщин. – Тбилиси, 1993; Зирянов В.Н. Групповая преступность женщин и ее предупреждение органами внутренних дел. – Горький, 1988; и др.

mumkin¹.

O_grilar katta jinoiy tajribaga, g_{ayri}ijtimoiy xulqqa oid shakllangan qarashlar va ko_{rik}malarga ega bo_{lad}ilar. Ularning bu xulqi barqaror jinoiy yo_{nal}ishga egaligi bilan ajralib turadi. O_grilar odatda bezori va ichkilikboz bo_{lib}, ehtiyoj va manfaatlari nihoyatda cheklangan va sodda, ijtimoiy qadriyatlardan begona bo_{lg}an shaxslardir.

O_grilarning ijtimoiy dezadaptatsiyasi (moslashuvchan emasligi) odatda oilasi, mutaxassisligi, doimiy ishi va turar joyi yo_{ql}igi, turli xil ruhiy anomaliyalari bilan chuqurlashadi. Ularning jinoiy xulqi ko_{proq} g_{ayri}ijtimoiy turmush tarzi bilan chambarchas bog_{liq}.

Jinoyatchi o_grining shaxsi odatda uning jinoyatchilar muhitiga barqaror kirishi bilan, ilk yoshidayoq oiladagi tarbiyasining nuqsonlari, asosiy ehtiyojlarining surunkali ravishda qondirilmasiligi, doimo vaziyatga tobeligi bilan buzilgandir.

O_grilar o_zlarining psixologik xususiyatlariga ko_{ra} zo_{rav}on jinoyatchilarga yaqin turadilar. Ular moddiy muhitdagi to_{siq}larni yengish tajribasiga ega bo_{lib}, talonchilik va bosqinchilik sodir etishga oson o_{ta}dlar.

O_gri – qonundan vaqtincha chekingan inson emas, balki insofsiz, odatda oilada va mikromuhitda axloqiy me_{yor}larni rad etish, muhtojlik, ijtimoiy rad etilish va ijtimoiy nazoratning past darajasi sharoitida shakllangan barqaror salbiy xislatlar tizimiga ega bo_{lg}an irodasi bo_{sh}shaxs.

Xo_{jd}ik va xizmat sohalarida g_{araz}li niyatda jinoyat sodir etuvchi jinoyatchi shaxslar toifalarini esa alohida guruhga kiritish lozim. Ularga qo_{sh}ib yozish, aldash, pul mablag_{lar}ini nohaq ravishda o_zlashtirish va shu kabilar orqali amalga oshiriladigan tor guruhiy manfaatlar xosdir. Bunda ruhiy himoyaning muayyan toifasi – g_{ayri}qonuniy nayranglarini «ish manfaati», «xizmat burchi» bilan niqoblash hosil bo_{la}di.

Talon-torojlik jinoyatlari esa ko_p hollarda mansabdor shaxslar tomonidan sodir etilib, poraxo_{dl}ik, xaridorlarni aldash, sifatsiz mahsulot ishlab chiqarish, qalbaki hujjatlar yasash, firibgarlik va boshqa jinoyatlarda namoyon bo_{la}di. Davomli talon-torojliklar talon-toroj qiluvchilarda nazorat-taftish xizmatlarini aldashning «malakali» usullari borligidan dalolat beradi. Talon-torojlik jinoyatlarini sodir etuvchi shaxslar toifasi ma_{lum} bir qismining ma_{lum}ot darajasi yuqori. Ma_{lum}ot darajasi jinoiy xatti-harakatning xususiyatida, talon-torojlik sodir qilish usullarida ma_{lum} darajada namoyon bo_{la}di. Talon-torojlikning nisbatan yuqori ma_{lum}otga ega bo_{lg}an bunday toifadagi shaxslar tomonidan sodir qilinishining murakkabligi, amalga oshirilayotgan har bir harakatni birma-bir oldindan hisob-kitob qilinishi va oldindan ko_{ra} bilish qobiliyati,

¹ Qarang: Еникеев М.И. Юридическая психология. – СПб., 2005. – С. 80.

kerakli aloqalar o_rnatish, ishtirokchilarni tanlash, ularni har biriga ajratib berilgan rolni aniq bajarilishini tashkil qilish va ta'minlash bilan bog_liqdir. Sanab o_tilgan holatlar bajarilayotgan ishning barcha nozik tomonlarini chuqur bilishga keragicha imkon beradigan yuqori darajadagi professional bilimning mavjudligi haqida guvohlik beradi¹.

O_z jinoyatlarini yashirishdek doimiy zarurat «ikki tomonlama hayot kechirishga», buzilgan moddiy ehtiyojlarni qondirish usullarini namoyishkorona «oddiy» hayot ko_rinishlari bilan niqoblashga olib keladi.

G_arazli jinoyatlar shaxsning umumiy g_arazli xususiyatga egaligi tufayli sodir etiladi. Bu esa shaxs xulqining tizim hosil qiluvchi omili hisoblanadi. G_arazli jinoyatlarning sabablarini shaxsning g_arazli maqsadlarini shakllantiradigan omillardan izlash lozim.

Savol va topshiriqlar

1. Profilaktik hisobda turuvchi shaxslarga psixologik tavsif bering.
2. «Jinoyat sodir etgan shaxs» tushunchasiga psixologik ta'rif bering.
3. «Huquqbuzarlik sodir etishga moyil bo_lgan shaxs» tushunchasiga psixologik ta'rif bering.
4. Jinoiy tiplarni psixologik jihatdan qanday turlarga ajratish mumkin?
5. Ashaddiy zo_ravonlik jinoyatlarini sodir etuvchi shaxslar qanday shaxsiy-tipologik, psixologik xususiyatlarga ega bo_ladilar?
6. Qanday xususiyatlar tajovuzkor xulqqa xos deb hisoblanadi?
7. Qanday xususiyatlar zo_ravonlar toifasidagi bezori shaxslarga xos bo_adi?
8. Ayollarning jinoiy zo_ravonlik xatti-harakatlari qanday psixologik xususiyatlarga ega?

¹ Қаранг: *Исмоилов И.* Аҳолидан қишлоқ хўжалик маҳсулотларини сотиб олишдаги талон-торожликларнинг тавсифи. – Т., 1993. – Б.21–22.

VII bob. PROFILAKTIKA INSPEKTORINING DINIY EKSTREMIZM VA TERRORIZMGA QARSHI KURASHISHDA PSIXOLOGIK BILIMLARDAN FOYDALANISHI

1-§. Diniy ekstremizm va terrorizmning vujudga kelishi sabablari va ularni oldini olish faoliyatining psixologik asoslari

Ma'lumki, terrorizm zamonamizning eng xavfli va murakkab hodisalaridan biri bo'lib, vaqt o'tgan sari tobora xavfli tus olmoqda. Shu bois, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov to'g'ri ta'kidlaganidek, bugun terrorizm «...haqida butun jahon hamjamiyati qaygumonogilozim»¹; «Amerika kontingenti va xavfsizlikka ko'maklashadigan xalqaro kuchlarning 2014-yilda Afg'onistondan olib chiqib ketilishining e'lon qilinishi va kelgusida bu qarorning amalga oshirilishi terrorchilik va ekstremistik faoliyatning kengayish xavfining kuchayishiga, mazkur ulkan mintaqada keskinlik va qarama-qarshilikning ortishiga, bu yerda doimiy beqarorlik yaratilishiga olib kelishi mumkin. Mintaqada joylashgan ayrim mamlakatlardagi ijtimoiy norozilikning kuchayishi, ekstremistik kuchlarning safiga yangi-yangi a'zolari jalb etish uchun qulay zamin tug'dirayotgan, yomonlashib borayotgan ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat mintaqaviy barqarorlik va xavfsizlikka qarshi jiddiy tahdid bo'lib qolmoqda»².

Terrorizm ijtimoiy-salbiy hodisa sifatida davlat va huquqning rivojiga o'ta salbiy ta'sir ko'rsatadi, shuningdek, mazkur jinoyat ijtimoiy va milliy guruhlar o'rtasida ba'zan butun bir avlod hayoti mobaynida bartaraf etib bo'lmaydigan ishonchsizlik va nafratni keltirib chiqaradi. Ushbu jinoyat xavfsizlikka va ijtimoiy-siyosiy barqarorlikka tahdid solib, mamlakatdagi tinch va osuda hayot tarzini izdan chiqaradi, qanchadan-qancha begunoh insonlarning bevaqt o'limiga yoki hayoti xavf ostida qolishiga, davlat va fuqarolarning mol-mulkiga hisobsiz zarar yetkazilishiga, mamlakatdagi moddiy va ma'naviy boyliklar yo'qbo'lishiga, inson huquq va erkinliklarining poymol etilishiga, mamlakatdagi yalpi notinchlikka sabab bo'ladi.

Jumladan, 1999-yil 16-fevralda Toshkent shahrida sodir etilgan terrorchilik harakatlari oqibatida 16 nafar begunoh shaxs halok bo'lgan, 130 nafar shaxs turli darajada tan jarohati olgan, 700 mln. so'mdan ortiq

¹ *Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари // Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. Т. 6. – Т., 1998. – Б. 89.*

² *Каримов И. А. Ўзбекистон Куролли Кучларининг 20 йиллиги муносабати билан Ватан ҳимоячиларига байрам табриги // Постда. — 2012.— 14 янв.*

miqdorda moddiy zarar yetkazilgan¹, 50dan ziyod ma'muriy va uy-joy binolari zararlangan². 2004-yil 29-martda Toshkent shahrida va Buxoro viloyatining Romitan tumanida, 2004-yil 30-martda Toshkent viloyati Qibray tumanida, 2004-yil 1-aprelda Buxoro viloyatining Romitan tumanida, 2004-yil 30-iyulda Toshkent shahrida sodir etilgan terrorchilik harakatlari oqibatida 38 nafar begunoh shaxs halok bo'lgan³. 2005-yil 13-mayda Andijonda sodir etilgan terrorchilik oqibatida 169 kishi halok bo'lgan, qurolli hujum davomida terrorchilar 305 dona qurol-aslahani, shu jumladan 205 ta avtomat va 100 ta to'pacha, 231 ta granata va qurollarni qo'lga kiritgan⁴, shuningdek, ular jazoni ijro etish muassasalaridan qariyb 600 nafar mahbusni chiqarib yuborgan⁵.

Mutaxassislarning fikriga ko'ra, hozir dunyoda 500ga yaqin terrorchilik tashkilotlari mavjud bo'lib, ularning 80 % islom dini niqobi ostida faoliyat yuritadi. Bunday tashkilotlarning eng yiriklari qatoriga «al-Qoida», «Musulmon birodarlar», «Hizbut-tahrir», «al-Jihod al-Islomiy», «at-Takfir va-l-Hijra» (Misr), «Hizbulloh» (Livan), «XAMAS» (Falastin), «Abu Sayyof» (Filippin), «Ozod Achex», «Lashkari jihod» (Indoneziya), «Qurolli islomiy harakat» (Jazoir) kabilarni kiritish mumkin.

Terrorizm va diniy ekstremizmning sodir etilish sabablari va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlar.

Terrorizm va uning oqibatida yuzaga kelayotgan muammolarni tadqiq etgan G'arb olimlarining xulosalari va ommaviy axborot vositalarida berilayotgan ma'lumotlar asosida terrorizmning keyingi o'n yil davomida qanchalik xavfli va dahshatli darajada sodir etilayotganligini ko'rish mumkin. O'tgan asrning 70-yillarida Yevropa mamlakatlari, va ayniqsa, Germaniya va Italiya kabi davlatlarda terrorchilik harakatlarining sodir etilishi ko'paygan.

Bu kabi holatlarda terrorchilar asosan davlatga va siyosiy arboblarning hayotiga tajovuz qilish, odamlarni garovga olish, davlat muassasalari va jamoat joylarida portlatishlarni amalga oshirish, havo va dengiz transportlariga hujum qilish hamda ularni egallab olish, tinch aholini qirish (masalan, Hindiston, Shri-Lanka kabi davlatlarda), yadro qurilmalarini egallash yoki ishdan chiqarishga intilish kabi qaltis usullarni keng qo'llanganlar.

¹ Qarang: Қодиров Р. Диний экстремизм ва терроризм билан боғлиқ жиноятларни тергов қилишнинг айрим хусусиятлари (амалий қўлланма). – Т., 2000. – Б. 9.

² Каримов И. А. Биз келажакимизни ўз қўлимиз билан қураимиз. Т.7. – Т., 1999. – Б. 335.

³ Qarang: Фойибназаров Ш. Халқаро терроризм: илдири, омиллари ва манбаи: Монография. – Т., 2009. – Б. 251–252.

⁴ Qarang: Халқ сўзи. – 2005. – 18 май.

⁵ Qarang: Халқ сўзи. – 2005. – 17 май.

XX asrning oxirlarida terrorchilar sodir etgan hujumlarining qariyb 20 % asosan AQSH fuqarolari va ularning chet davlatlarda joylashgan muassasalariga qarshi qaratilganligi bilan ajralib turadi. 1988-yil davomida terrorchilik harakatlari oqibatida 192 nafar Amerika fuqarosi halok bo'lgan va 40 nafar fuqaro jarohatlangan.

Shu bilan birga, 1985-yildan 1989-yilgacha bo'lgan davr mobaynida sobiq Ittifoqning fuqarolari va muassasalariga nisbatan 68 ta portlatish, o'qqa tutish, yoqib yuborish holatlari sodir etilib, 32 marotaba shaxslarga nisbatan tajovuz bo'lgan Natijada 10 nafar shaxs halok bo'lgan.

90-yillarda terrorchilik bilan bog'liq statistika ma'lumotlari umumiy miqdorda oshganligi kuzatilgan. 1994-yili jahon miqyosida 314 marotaba terrorchilik harakatlari sodir etilgan bo'lib, 1993-yildagi ushbu jinoyatchilik miqdoridan oshganligi kuzatilgan.

Umuman, statistika ma'lumotlarining terrorizm to'g'risida aniq xulosa chiqarishda beradigan yordami cheklangan deyish mumkin. Bu, birinchidan, terrorizmga xos bo'lgan zo'ravonlik va kuch ishlatishning statistika ma'lumotlarida ko'p hollarda hisobga olinmasligi; ikkinchidan, shuningdek statistika ma'lumotlarida jinoyat xususiyatlariga xos tarzda terrorchilik harakatlarining hisobga olinmasligi kabilar.

Shu bilan birga, terrorizmdan asosan Sharq davlatlari, shu jumladan musulmon davlatlari ko'proq aziyat chekayotganini ko'rish mumkin (ko'pchilik xalqaro terrorchilarning kelib chiqishi ham asosan shu kabi davlatlarga to'g'ri keladi), shuningdek o'ziga xos etnik tarkibdan iborat Hindiston davlati ham uzluksiz tarzda terrorizm balosidan jabrlanmoqda.

Terrorizmning Afrikaning yirik davlatlaridan biri Jazoirda ham to'xtamayotganligini ko'rish mumkin. Bu yerda 1992-yildan boshlab islomiy harbiy guruhlar hukumat bilan kurash olib bormoqdalar. 1997-yili Jazoir shahridan uzoq bo'lmagan joyda joylashgan kafeda bo'lgan portlash oqibatida 23 nafar fuqaro halok bo'lgan va 100dan ortiq fuqaro turli darajada jarohatlangan.

Ochiq va ashaddiy tarzdagi terrorchilik harakatlarining Rossiya Federatsiyasida ham sodir etilganligi hozirda tarixga aylanib qolmoqda. Zotan, 1995-1996-yillar davomida Rossiyada sodir etilgan terrorchilik holatlarini quyidagicha bayon etish mumkin: Budyonovsk va Kizilyar shaharlarida chechen janggarilari amalga oshirgan terrorchilik harakatlari, Moskvaning Kotlyarov qabristonida bo'lgan portlash oqibatida 13 nafar fuqaro halok bo'lgan va 80 nafar fuqaroga tan jarohati yetkazilgan, Dog'istonning Kaspiysk shahridagi uylardan birida bo'lgan portlash oqibatida 68 nafar fuqaroning halok bo'lgan. –Segodnya” gazetasining 1996-yil 31-dekabr

sonida keltirilgan yakuniy xulosalarda ko'rsatilishicha, o'sha yil davomida Rossiyada jami 33 marotaba terrorchilik harakatlari qayd etilgan.

Terrorizm o'ziga xos ravishda u yoki bu jamiyatda yuzaga keladigan inqirozlar oldidan va, tabiiyki, mavjud qiyinchiliklar va katta o'zgarishlar bilan o'zaro bog'liq tarzda kechadi. Jahon miqyosida bunday holatlar Rossiyada XIX asrning 60-yillaridan 1917-yil oktabridagi davlat to'ntarishigacha bo'lgan davrlarda, Germaniyada esa natsistlarning hokimiyatga kelgunlaricha bo'lgan davrlarda jonlangani tarixdan yaxshi ma'lum.

Muayyan davlatlarda terrorizmning yuzaga kelishi ushbu davlat miqyosida ro'y bergan keskin o'zgarishlar (masalan, yakkaboshchilik tizimidan demokratik jamiyatga o'tish)ning oqibati bo'lishi ham kuzatilgan. Bunda davlat hokimiyatidagi markaziy va mahalliy organlar va jamoatchilik institutlaridagi zaiflashuv, rasmiy va norasmiy ijtimoiy nazoratning yuzaga kelishi, g'oyaviy va ma'naviy yo'nalishlardagi intilishlar va jamiyatdagi ijtimoiy dunyoqarashning zo'riqishi hamda xavotirning kuchayishi kabilar ro'y beradi.

Biroq sanab o'tilgan holatlar terrorizmning taraqqiy etishiga olib keluvchi faqat ustki qatlam sifatida ko'rib chiqilishini taqozo etadi. Terrorizmning asl tomirlari nisbatan chuqurroq va ular ko'zga tashlanmaydigan hamda jamiyat va shaxsning o'ziga xos "yashirin joylarida yotadi". Ushbu ildizlarni esa faqat maxsus usullar, noan'anaviy yondashuvlar va terrogen omillarni yuzaki ko'rib chiqishdan xoli tarzda aniqlash mumkin.

Terrorizmni vulgar-materialistik yondashuv asosida tushuntirish va shu orqali uning sabablarini iqtisodiy qiyinchiliklar yoki umumiy ijtimoiy notinchliklar bilan bog'lash aslo to'g'ri bo'lmaydi. Masalan, terrorizmni sobiq Ittifoqqa yoki hozirda Rossiyaga xos bo'lgan katta hududlilik, aholining turli millatga mansubligi, millatlar va elatlarning odatlari, an'analarining turlicha ekanligi, mamlakat mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining o'ziga xosligi kabilar bilan hamda MDH davlatlari ichida hududiy jihatdan kattaligi bilan ham belgilamaslik lozim.

O'z-o'zidan davlat hududining kattaligi yoki kichikligi terrorizmning yuzaga kelishini anglatmaydi. Zotan, hududiy jihatdan juda kichik davlatlarning ham terrorizmdan xoli emasligi ko'pchilikka yaxshi ayon. Shu bilan birga, davlatning ko'p millatli tarkibi ham terrorizmning sababi bo'la olmaydi. Shuningdek, millatlarning urf-odatlari, an'analari ham bunga sabab bo'la olmaydi. Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning birdek emasligi va ularning mintaqalararo farqi faqat o'ziga xos jihatga ega va kriminogen omil sifatida tushunilmasligi lozim.

Sobiq Ittifoq tarkibida bo'lgan va hozirgi kunda mustaqil davlat sifatida e'tirof etilgan bir qator mamlakatlarda terrorizmning yuzaga

kelishi mavjud siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, ijtimoiy, davlat va jamiyat hayotidagi boshqa muhim sohalarda yillar davomida o_zaro munosabatlarni tartibga solish mexanizmi va konstitutsiyaviy muvofiqlashtirishning buzilishi oqibatidir, deb bilish ham mantiqqa to_gri kelmaydi.

Shu bilan birga, g_oyaviy-siyosiy sohaning buzilgani va bundagi mavjud ma'naviyatning yo_qotilishi va o_minga hech bir g_oya qolmaganligini ham aslo katta yo_qotish deb bilmaslik darkor. Masalan, hozirgi kunda Buyuk Britaniya yoki Ispaniyada ham nizolar mavjud va terrorizm keng tarqalganligi sir emas. G_oarb mamlakatlarida inson hayoti eng buyuk boylik deb e'tirof etilishi o_zo_zidan namoyon bo_ldi deyish to_gri emas, albatta. Shu bois, ekstremistik guruhlar aynan shunga bog_lagan holda hukumatlarga tazyiq o_tkazish uchun aynan shu inson hayotini xavfga solayotganlarini namoyish etmoqdalar.

Terrorchilik harakatlarining sodir etilishi xalq ommasi ichida katta bezovtalik tug_uldirmoqda va hokimiyatlar tizimlari buning oldini olishda va xotirjamlikni yuzaga keltirishda hatto ba'zi hollarda terrorchilarga yon bosayotganligini ko_rish mumkin. Aynan shuning uchun ham totalitar tizimga ega mamlakatlarga ommaviy terrorizm xos emas va bunga quyidagilarni ko_rsatish mumkin: bunday davlatlarda jamoatchilik va davlat organlari o_rtasidagi aloqalar juda kuchsizdir, terrorchi uchun bunday davlatlarda vahimani yuzaga keltirish qiyin kechadi va demokratik davlatlardagidek kechmaydi, ularning huquqni muhofaza qiluvchi organlari samarali faoliyat ko_rsatishi uchun zarur imkoniyatlarga egadirlar. Ya'ni, totalitar davlat o_z kuchiga ishongan holda yo_l tutadi. hatto oddiy fuqarolarning haqli talablarini bajarish kuch orqali yuz beradi.

Davlat terrorizmining sabablari to_grisida bayon etilganlarni hisobga olmagan holda boshqa turdagi terrorizmning yuzaga kelishini quyidagi sabablar bilan uzviy bog_lash mumkin:

1) ijtimoiy, shu bilan birga, milliy va diniy muammolarning hal etilmaganligi. Bunday guruhlar bilan bog_liq muammolarni darhol hal etish imkoniyati mavjud emas, zotan, buning oqibatida boshqa guruh manfaatlariga ziyon yetadi (masalan, milliy va irqiy nizolarda);

2) urush va harbiy nizolarda terrorchilik harakatlari harbiy harakatlarning bir qismi bo_lib qoladi (masalan, chechen janggarilarining o_z hududlaridan tashqarida bo_lgan Rossiya shaharlariga 1995–1996 yillardagi hujumlari);

3) yon yoki uzoq qo_lshnilaridan yuqori moddiy ta'minot va o_ziga xos madaniyatga egaligi, o_zining siyosiy, iqtisodiy va harbiy qudratini namoyish etishi yoki shu asosida o_z maqsadiga yetish uchun boshqa mamlakatlar yoki guruhlariga turli talab qo_yishga qodir davlatlar yoki

guruhlarning mavjudligi. Bu kabi davlatlarning toʻq va boy yashashi baʼzi davlatlar yoki ijtimoiy guruhlarning gʻarazgoʻyligi va koʻrmasligini yuzaga keltiradi hamda dushman sifatida qabul qilinadi hamda bunday davlatlarni yengib boʻlmasa-da, ularga qarshi turli zarbalar berib turilishi kuzatiladi. Bunda maʼnaviy qarashlar eʼtiborga olinmaydi va bunday "dushman" aynan shunday munosabatga loyiq deb topiladi;

4) maxfiy yoki yarim maxfiy jamiyatlar, jumladan ayrim diniy tashkilotlar hamda ularning "birlik", "insonni qutqarish uchun toʻgʻri taʼlimot," yoki umuman, inson hayotini yaxshilash uchun umumiy mehribonlik, adolat va inson ruhini abadiy saqlash kabi yoʻnalishda faoliyat koʻrsatilishi. Bunday uyushmalarning taʼlimotlarini davlatlar va jamoatchilik qabul qilmasa, bu holda ular oʻz maqsadlariga yetish uchun (siyosiy, gʻoyaviy, diniy, mistika, magiya kabi yoʻnalishlarda) huquqiy jihatdan tazyiq oʻtkazishga intiladilar;

5) zarur iqtisodiy va moliyaviy muammolarning hal etilmaganligi, shu jumladan, u bilan bogʻliq qonunchilik asoslarining yoʻqligi hamda mulkni taqsimlashdagi nizolar, tijoratchilar, moliya bilan shugʻullanuvchilar va shu kabi barcha ishbilarmonlarni huquqni muhofaza qilish organlarining himoya qilmasligi. Bu esa, oʻz navbatida, ushbu qatlamlar vakillarini qoʻrquvga solish va raqobatchilarni tugatish kabi yoʻnalishlarda terrorchilik harakatlarini keltirib chiqarishga sabab boʻldi. Hozir ayrim davlatlarda yuzaga kelgan uyushgan jinoyatchilik va ularning iqtisodiy terrorchilikni amalga oshirishda boʻladigan xizmatlaridan kriminal tijorat tizimlaridan foydalanishiga yoʻlochilganligini koʻrsatish mumkin.

Ushbu sanab oʻtilgan sabablar bilan bir qatorda, terrorizmni yuzaga keltiruvchi quyidagi salbiy omillarni ham koʻrsatish oʻtish lozim. Bular:

1) davlat hokimiyati, muassasalari va turli tarmoqlarining zaifligi, huquqni muhofaza qiluvchi davlat organlarining terrorchilarni topish va zararsizlantirishni taʼminlashda mahoratlarining kamligi, shu bilan bir qatorda, terrorchilik harakatlarini tayyorlovchi shaxslarni aniqlash va tutish hamda ular qayta sodir etishi mumkin boʻlgan qotilliklar va boshqa salbiy illatlarning oldini olish uchun jinoyatchilarni jazoga tortish ishlari toʻliq amalga oshirilmasligi, koʻpincha, bunday shaxslarning jazolanmay qolishi;

2) baʼzi davlatlarda terrorchilar faoliyatini qoʻllab-quvvatlash, taʼminlashni ayrim guruhlar tomonidan amalga oshirishi. Bu kabi yordam koʻrsatilmasa, milliy va diniy yoʻnalishlardagi terrorizmning hojati boʻlmas edi. Shunday qoʻllab-quvvatlashlar mavjud ekan, unda jinoyatchilarni qatʼiy jazolash tizimi (oʻlim jazosi yoki kuchaytirilgan qamoq jazolari) shu kabi

terrorchilar tarafdorlarining qarshiligiga uchraydi va yangi ekstremistik guruhlarini tuzish va mavjudlari safining kengayishiga olib keladi.

Demak, bunday vaziyatlarda o'ziga xos siyosiy yo'l tutishga to'g'ri keladi. Ya'ni, noan'anaviy siyosiy qarorlar chiqarish, o'zaro muhokama etish va shu kabi yon bosishlarning amalga oshirilishiga to'g'ri keladi, albatta, bunda terrorizmga bo'lgan ijobiy munosabatlarni susaytirish va undan ajralishni yuzaga keltirish ham bir vaqtda olib borilishi lozim, ba'zida yo'l boshchilarning asl qiyofasini ochib berish va ular asosiy shiorlarining salbiy mohiyatini ular tazyiq o'tkazayotgan omma oldida fosh etish ham katta ahamiyatga ega;

3) harbiy ishlarda kasb mahoratiga ega bo'lgan va harbiy xizmatdan chetlashtirilgan hamda o'z o'zini topa olmagan shaxslar guruhining mavjudligi. Bunday shaxslar o'zlarini kamsitilgan his etib, kechira olmaydilar va moddiy muhtoj bo'lganlari bois, terrorchilar ta'siriga tushib qoladilar. Bunday hollarni Germaniyada Birinchi jahon urushidan keyin juda ko'p shaxslarning natsistlar ta'siriga tushib qolishiga olib kelganini, AQSHda Vyetnam urushidan so'nggi holatni, sobiq sovetlar hukmronlik qilgan hududlarda "afg'onchilar" va armiyadan zaxiraga bo'shatilganlardan terrorchilik faoliyatida foydalanilganlik holatlarini ko'rsatish mumkin. Hozirgi terrorizm xavfining kuchayib borayotganini ko'pchilik tadqiqotchilar quyidagi bir qator omillar bilan bog'lamoqdalar: terrorchilik ta'siri ko'rsatiladigan obyektlarning kengayib borayotgani; terrorizmning yangi shakl, usul va yo'llari paydo bo'layotgani; fan va texnikaning eng yangi yutuqlaridan foydalanish kuchayib borayotgani; terrorchilarning jinoiy «malakasi» oshib borayotgani; xalqaro iqtisodiy va moliyaviy hamkorlikning kengayib borayotgani, davlatlararo aloqalarning xilma-xilligi; davlatlar o'rtasida chegara, bojxona va sanitariya rejimining susayib borayotgani; qurol-yarog, narkotik vositalar va psixotrop moddalar savdosi va kontrabandasining kuchayib borayotgani; yadroviy, kimyoviy va biologik materiallardan foydalanishning xavfliligi; terrorchilar qo'lida moliyaviy mablag'larning borgan sari ko'proq to'planayotgani, ularning tashkiliy tuzilishi takomillashib borayotgani; professional janggarilarning ko'payib borayotgani; terrorchilik faoliyatining xayriya va madaniy tadbirlar bilan niqoblanayotgani³.

2-§. Diniy-ekstremistik harakatlarning yoshlarga ko'rsatayotgan psixologik ta'siri

Respublikamizda e'tiqod erkinligini ta'minlash masalasida barcha shart-sharoitlar yaratib berilgan bir vaziyatda makkor va qo'poruvchi kuchlar, diniy mutaassib guruhlar o'z qabih rejalarini amalga oshirish yo'lida xalq ichida buzg'unchi g'oyalarni tarqatishga urinmoqdalar.

Amaliyotning ko'rsatishicha, ekstremistlar o'z maqsadlari uchun asosan yosh yigit va qizlarni tanlaydilar.

Chunki aynan ular Vatanimiz kelajagi, millatimizning ertangi kuni, taraqqiyotini belgilab beradi. Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganlaridek: «XXI asrda qaysi davlat qudratli, qaysi kuchli bo'ladi? Bu savolga, aholisi intellektual nuqtai nazardan barkamol, yoshlari bilimli, or-nomusli, vatanparvar bo'lib, unib-o'sayotgan davlat, deb javob qaytarish mumkin». Shu yerda aniq raqamlarga murojaat qilaylik. Ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekiston dunyodagi eng yosh davlatlardan biri bo'lib, o'rta yosh 24ni tashkil etadi. Shuningdek, 26 milliondan ortiq aholining 60 foizi (15,6 mln.) 28 yoshgacha bo'lgan o'smirlardan iborat. O'zbekistonda 1–6 yoshdagilar 3,63 mln., 7–14 yoshdagilar 5,17 mln., 14–28 yoshdagilar 6,8 mln. kishini tashkil etadi.

Shu o'rinda o'smirlar tashqi ta'sirlarga ko'proq moyil bo'lishini alohida qayd etish lozim. Muayyan hollarda hayotdagi orzu-maqsadlarga mustaqil erishish harakatlarining hamma vaqt ham amalga oshavermasligi oqibatida yoshlarda infantillik (o'zini nochor, yordamga muhtoj his qilishdek) xususiyat shakllanishi kuzatiladi. Bunday vaziyatda ularda "oliy maqsadlarga intilayotgan men kabi kishilar yoki jamoa mavjud", – degan tasavvur paydo bo'lishiga zamin yaratiladi. Shunda ular o'zlarining maqsad va intilishlarini tushunadigan kishilarni izlay boshlaydilar. Ayni paytda, jiddiy mas'uliyatdan ozod bo'lgan o'smirlar uchun shaxsiy tajribaning yetishmasligi xosdir. U soddadillik va xayolparastlik bilan yonma-yon keladi. Shu bilan birga, yoshlar nazdida atrofda kuzatilayotgan adolatsizlik natijasida yuzaga keladigan zo'riqishni yo'qotishda faqat birgina yo'l – «buyuk g'oya»ni o'zida mujassamlashtirgan yetakchi bilan hammaslak bo'lishni tanlashga moyillik yuzaga keladi. Bu yo'l o'smirlarni diniy mutaassib oqimlarning domiga tortilishiga olib kelishi mumkin.

Yana aniq dalillarga qaytamiz. Tahlillarga ko'ra, 2009-yil yanvar–sentabr oylarida diniy ekstremistik tashkilotlar tarkibida konstitutsiyaviy tuzumga qarshi jinoyat sodir etganlarning 53%ni 30 yoshgacha bo'lganlar tashkil etadi. Ushbu raqamlar ham diniy ekstremistik harakatlarning yoshlarning ruhiy xususiyatlarini inobatga olib, ularga o'zlarining g'araz maqsadlariga erishish yo'lida alohida e'tibor bilan qarayotganliklarini ko'rsatadi.

Har qanday diniy mutaassib oqim «o'lja»sining hayotiy muhim ehtiyojlarini inobatga olgan holda, o'z ta'limotini jozibador qilib ko'rsatishga harakat qiladi. Odamlarning bunday oqimlar ta'siriga tushib qolishi, shuningdek, odatdagi axborot doirasidan tashqariga chiqadigan turli shov-

shuvlarga ortiqcha e'tibori bilan ham belgilanadi. Bunday e'tiborni bugungi kunda keng tarqalayotgan g_ayritabiiy hodisa va jarayonlarning haqiqatan ham mavjudligi haqidagi axborotlar oziqlantirib turadi. Turli axborot manbalarining doimiy ta'siri ostida bo_lgan bir paytda inson g_ayriilmiy, soxta diniy g_oyalarni qabul qilishga moyil bo_lib qpladi.

Ekstremistik guruhlarining asosiy maqsadlari zo_ravonlik va aldash usullari bilan siyosiy hokimiyatga erishish bo_lib, bu yo_lda guruh yetakchilari oddiy a'zolari bemaol qurbon qilib yubormoqdalar. Mutaassib g_oyalar domiga tushib qolgan shaxslar oilasidan, jamiyatdagi o_midan, hatto hayotidan ajramoqda. Bunday shaxslarni har qanday topshiriqni hech ikkilanishsiz bajarish darajasiga olib kelish uchun esa guruh rahnamolari sinalgan uslublardan foydalanmoqdalar. Jumladan, «oz-ozdan» texnologiyasida faqat birgalikda namozga borish, dam olish kunlarini birga o_tkazish, faqat bir hafta kechqurunlari birga diniy adabiyot o_qish, jamoaning yig_inlarida qatnashish, faqat bir marta varaqa tarqatish kabi kichik iltimoslar orqali yollanayotgan shaxsni jiddiy yon bosishga majbur qilish yo_lidan boriladi.

Shuningdek, doimiy «miyani yuvish» vositasida jamoaning g_oyalarni amalga oshirish yollanayotgan kishining shaxsiy qiyinchiliklari va jamiyatdagi muammolarni hal etishning eng maqbul yo_li, degan qarash tinmay uqtirib boriladi. So_ngra «guruhiy ta'sir etish» uslubi qo_llaniladi. Bunda jamoaning barcha a'zolari yangi a'zoni turli tomondan yagona g_oyaga yo_naltirilgan fikrlar bilan «ko_mib» tashlaydi. Ayni paytda, yollanayotgan shaxsga betinim yangidan-yangi ma'lumotlar berish va o_z fikrlari bilan yolg_iz qolishiga yo_lqo_ymaslik orqali unda e'tiroz bildirish yoki bahslashishga imkon qoldirmaslikka harakat qilinadi va bir paytning o_zida unga nisbatan jamoa tomonidan faqat shirin so_zlar gapirilib, u haqda g_anxo_rlik, aksariyat hollarda moddiy yordam ham ko_rsatiladi.

Ta'kidlash joizki, kishi «o_zimni nazorat qila olaman va xohlagan vaqtimda jamoadan chetlasha olaman», – degan xayoldan uzoq bo_lishi lozim. Chunki ko_pchilik mutaassib oqimlar yangi tarafdorlarni yollashda psixologik ta'sirning yuqoridagi kabi usullarini faol qo_llaydilar va ortga qaytishga deyarli imkon qoldirmaydilar.

Diniy bilimlarni o_rganish niyatida bo_lganlar diniy-ekstremistik harakatga aralashib qolmasliklari uchun nimalarga e'tibor berishlari kerak?

Faraz qilaylik, yuqoridagi kabi holatlarda noma'lum yoki yaxshi tanish bo_lmagan shaxs murojaat qildi. Ushbu kimsa suhbat boshida islom asoslarini o_rganishga qaratilgan harakatlarga rag_bat berib, asl musulmonning burch va javobgarligi kabi mavzularda so_z yuritadi. So_ngra, bilvo-

sita savollar bilan unga taalluqli ma'lumotlar, xususan diniy va siyosiy qarashlar bilan qiziqadi.

Suhbatning oxirida esa, o'zining islomga qiziqishi behad ekani va yaqin birodarlari bilan diniy bilimlarni puxta egallayotganini aytib, «o'lj»ga ham shuni taklif etadi. Shuni ta'kidlash joizki, bunday suhbatlar bir muloqotda bo'lib o'tishi yoki bir necha uchrashuvga cho'zilishi mumkin.

Albatta, islom aqidalarini birgalikda o'rganish haqida taklif qilganlarning barchasi ham o'z oldiga kishini ekstremistik g'oyalar bilan zaharlash va noqonuniy faoliyatga jalb qilishni maqsad qilib qo'ymaydi. Biroq shaxsning qanday jamoaga jalb qilinayotgani haqida to'lama'lumotga ega bo'lishga intilish kelajakda o'zi va oilasini jiddiy ko'ngilsizliklardan saqlaydi. Masalan, «Islomga doir bilimlarni kimdan va qaysi asarlar orqali chuqur va mukammal o'rganish mumkin?» degan savolga «suhbatdosh» umumiy javob, ya'ni «Qur'oni karim va hadislardan», deyish bilan chegaralansa, undan kengroq javob olishga harakat qilish zarur. Agar suhbatdosh an'anaviy, rasmiy usullarni rad etsa yoki ularning sayozligini ta'kidlasa yohud nashr qilingan joyi ko'rsatilmagan, norasmiy adabiyotlar masalan, Taqiyuddin Nabahoniy qalamiga mansub «Islom nizomi», «Islomiy olamga qaynoq nidolar», Yusuf as-Sabotinning «Izzat va sharaf sari», Abdulqadim Zallunga tegishli «Xalifalikning tugatilishi» hamda muallifi ko'rsatilmagan «Imonga yo'l», «Shirin jon qissasi» kabi kitoblarni tilga olsa yoki nomlari zikr qilingan shaxslarning islom dunyosidagi o'mi haqida ijobiy so'zlasa, uning mutaassib g'oyalar tarafdori ekaniga ishonch hosil qilish mumkin.

Ta'kidlash joizki, hamma vaqt ham diniy mutaassib oqimlar a'zolari ilk suhbatdanoq norasmiy adabiyotlar va shaxslar haqida batafsil so'zlamaydi. Ular o'z jamoalariga jalb qilish maqsadida rasman tan olingan diniy adabiyotlar orqali saboq olishni tavsiya etishi hamda boshlang'ich ilmlarni o'rganish uchun o'z jamoasiga taklif qilishi mumkin. Bularning bari qanchalik jozibador va to'g'ri bo'lib ko'rinmasin, diniy ma'lumoti va aniq maqsadlarini bilmagan odamdan diniy bilimlarni o'rganishga harakat qilish salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Diniy bilimlarga bo'lgan ehtiyojni O'zbekiston Respublikasi qonunlari doirasida ta'minlash to'g'ri bo'ladi va buning uchun bugungi kunda respublikamizda fuqarolarning diniy bilimlarga bo'lgan ehtiyojini to'la qondira oladigan va davr talabiga javob beradigan ta'lim tizimi faoliyat ko'rsatmoqda, deyish mumkin.

3-§. Diniy-ekstremistik oqim aʼzolarining oilasi bilan profilaktika inspektorining psixologik suhbat olib borish usullari

Yoshlar va oila aʼzolarining diniy ekstremistik harakatga qoʻshilish tendensiyalari va uning belgilari.

Biror diniy ekstremistik harakat taʼsiriga tushib qolgan odamni uning belgilari, guruhning tuzilishi haqidagi maʼlumotlar orqali aniqlash mumkin. Bunday kishining tashqi alomatlarini – xulq-atvori, yurish-turishi, kiyinishi, soʻzlashuv lugʻati va qiziqishlarining oʻzgarishi, odatdan tashqari va takrorlanuvchan dalillarni koʻproq keltirishi, oilasi, doʻsti, kasbi yoki oʻqishiga qiziqishining yoʻqolishi, ovqatlanish tartibining oʻzgarishi kuzatilishi mumkin. Bu qanday oqim yoki guruh ekanini aniqlashda uning rahbari oʻzini qanday namoyon qilishi, guruh tuzilishida qatʼiy iyerarxiya (tabaqalanish) mavjudligi, undagi hukmronlik qanday taqsimlanishi va kim tomonidan boshqarilishiga alohida eʼtibor qaratish muhim. Shuningdek, ushbu guruhda yangi aʼzolarini jalb qilish uchun qanday uslublar (haqqoniylik yoki yolgʻon orqali) qoʻllanilishi, moliyaviy mablagʻlar qayerdan olinishi, qanday taqsimlanishi va qaysi maqsadlarga ishlatilishi haqida maʼlumotga ega boʻlish zarur.

Inson yaqin kishisining diniy ekstremistik harakatga qoʻshilib qolganini aniqlashda ovqatlanish, uxlash tartiblari, yaqin kishilari bilan muloqoti, umuman shaxsiy hayotidagi oʻzgarishlar qay darajada ekaniga jiddiy eʼtibor qilish va toʻgʻritahlil etish muhim hisoblanadi. Har qanday holatda mutasaddi idoralar yoki masʼul shaxslar bamaslahat harakat qilishi maqsadga muvofiqdir.

Kishi farzandi yoki biror yaqin odami diniy ekstremistik harakatga qoʻshilib qolganini bilsa nima qilishi zarur.

Farzandi yoki biror yaqin odami diniy ekstremistik harakatga qoʻshilib qolganini bilgan kishi, avvalo, oʻzini yoʻqotmasligi, tahlikaga tushmasligi, endi biror narsani oʻzgartirib boʻlmaydi, degan xayolga bormasligi zarur. Aksincha, biror oqim taʼsiriga tushib qolgan odam bilan yaxshi munosabatni saqlash, unga nisbatan ijobiy kayfiyatda boʻlish, suhbatlashganda vazmin, samimiy gaplashish kerak boʻladi.

Hech qachon toʻgʻridan toʻgʻri (hatto, hazillashib ham) uning eʼtiqodiga tajovuz qilmaslik, baholash yoki tanqid qilish uchun emas, sogʻlom fikr nuqtai nazaridan uni tushunish uchun koʻproq savollar berish zarur.

Oʻrnatdagi kelishmovchilik va qarama-qarshiliklarni oshkor etish uning oqimga yanada qattiqroq bogʻlanib qolishiga olib kelishi mumkin.

Balogʻatyoshiga yetgan va nima qilishni oʻzi biladi, deb uni qutqarish fikridan voz kechmaslik, sogʻlom fikr uni qilayotgan ishlaridan qaytaradi,

deb ishonib qolmaslik kerak. O_{zi} buni ta'kidlagan holda ham, uning hamma narsani to_{g_{ni}} hal qila olishi isbotlanmagan.

Muammolar bilan yakkalanib qolmasdan, mazkur masalani mahalla oqsoqoli, masjid imomi, huquqni muhofaza qiluvchi organlar vakillari bilan bamaslahat hal qilish zarur.

Nihoyat, oqim ta'siriga tushib qolgan kishi yana ilgarigidek bo_{lib} qoladi, deb o_{ylamaslik}, hayotiy tajribadan to_{g_{rixulosa}} chiqarish, hushyorlikni bir lahza ham yo_{qotmaslik}, uni yosh niholdek asrash kerak bo_{ladi}

Diniy-ekstremistik oqimlarga qo_{shilib} qolgan yoshlarning avf etilishi o_{zbekona} bag_{rikenglik}, insonparvarlik va adolatparvarlik nishonasi bo_{lib} yoshlarni noto_{g_{riyo_{ldan}}} qaytarish, ular o_{rtasida} diniy ekstremizm va aqidaparastlikning oldini olish, Vataniga, ota-onasi, oilasi bag_{ri}ga qaytarish, tinch hayot kechirishni niyat qilgan bu toifa shaxslarga yana bir bor imkon berish, behuda qurbon bo_{lishiga} yo_{lqo_{ymaslik}} kabi maqsadlarga qaratilgan. Aslida bunday adashgan yoshlar faqat ijrochi yoki «qo_{g_{irchoq}}» bo_{lib} panada turgan, terrorning haqiqiy ijodkorlariga qarshi kurash birinchi navbatdagi masala ekanini anglash lozim. Shu bilan birga, adashib, aldanib, bilib-bilmay bunday razil yo_{llarga} kirib qolgan yoshlarni yana hayotga qaytarish ularni to_{g_{riyo_{lga}}} chorlash, fuqarolarning omon-eson o_z oilasi quchog_{ida} yashashi jamiyatda olihimmat fazilatlarini yuzaga keltiruvchi omillardan hisoblanadi.

O_{zbekiston} Respublikasi Prezidentining 2000-yil 6-sentabrdagi «Terrorchi guruhlar tarkibiga adashib kirib qolgan O_{zbekiston} Respublikasi fuqarolarini jinoiy javobgarlikdan ozod etish to_{g_{risida}}» hamda «Amnistiya to_{g_{risida}}»gi qator farmonlariga binoan konstitutsiyaviy tuzumga qarshi jinoyat sodir etgan ko_{plab} fuqarolar jinoiy javobgarlikdan ozod etildilar.

Muqaddam diniy ekstremistik oqimlar tarkibida jinoyat sodir etib, jazo muddatini o_{tab} chiqqan yoki afv etilgan fuqarolar jamiyatda o_z o_{in}larini topib olishlari uchun hukumatimiz tomonidan qator ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan bu toifa shaxslarga joylardagi «Ijtimoiy ko_{nikma}» markazlari tomonidan eng kam ish haqining 5 barobari miqdorida moddiy yordam ko_{rsatilib}, mahalliy hokimliklar, huquqni muhofaza qiluvchi hamda fuqarolarning o_{zini} o_{zi} boshqarish organlari hamkorligida ularning pasport olish, yashash joyida ro_{yxatda} turish hamda ishga joylashishlarida ham yordam berib kelinmoqda. Profilaktika inspektorlari bu ishlarda faollik ko_{rsatmoqda}.

Shuningdek, diniy ekstremistik tashkilotlar tarkibida jinoyat sodir etib, amnistiya tufayli ozodlikka chiqqan fuqarolarni jamiyatdan ajratib qo'ymaslik, ularga yordam berish maqsadida, profilaktika inspektori boshchiligida ular bilan tegishli tushuntirish ishlari olib borilmoqda. Bu toifa fuqarolar yashash va ish joylarida ko'nikma hosil qilishlari, atrofdagilar bilan yaxshi munosabat o'rnatishlari uchun ular har tomonlama ma'naviy qo'llab-quvvatlanmoqda.

Amnistiya tufayli ozodlikka chiqqan fuqarolarni joylardagi imom-xatiblarga biriktirib qo'yib, ularning oilalaridagi ijtimoiy vaziyatni chuqur o'rganib chiqish, yashash sharoitlari bilan yaqindan tanishish, ehtiyojlarini (ishga joylashish, nafaqa pullarini vaqtida olish va h.k.) inobatga olgan holda masjid hisobidan ularga yordam ko'rsatish amaliyoti ham yo'lga qo'yilganini ta'kidlash zarur. Ularni tibbiy ko'nikdan o'tkazish, kasalmand va nogironlarni alohida e'tiborga olish hamda g'amxo'rlik ko'rsatish bo'yicha ham muayyan tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda.

Yoshlarimizni diniy mutaassib oqimlar ta'siridan himoya qilish, farzandlarimizda buzgunchi g'oyalarga qarshi immunitetni shakllantirish uchun nimalarga e'tibor qaratish zarur. Prezidentimiz Islom Karimov farzand tarbiyasining ahamiyatiga to'xtalib, «Ma'naviyat tarbiyaning eng ta'sirchan quroli ekan, undan oqilona foydalanish, bolalarimizni vatanparvarlik, rostgo'ylik, haqsevarlikka o'rgatish kerak bo'ladi», – deb ta'kidlagan edilar.

Hozirgi kunda farzandlarimiz dunyoning eng bilimli, faol, uddaburon, mard va jasur yoshlariga aylanishi, ularni fidoyilik, vatanparvarlik, tadbirkorlik, millatparvarlik, sadoqatga o'rgatish ko'p jihatdan ota-onalarga bog'liq «Qush uyasida ko'rganini qiladi». Bu borada, albatta, ota-onaga yordam berishda butun jamoatchilik – mahalla oqsoqoli, diniy ma'rifat va ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha maslahatchi, imom, profilaktika noziri, «Ma'naviyat va ma'rifat» markazi, Xotin-qizlar qo'mitasi va «Kamolot» kabi ijtimoiy tashkilotlarning joylardagi mas'ullari birgalikda faol ishlashlari kerak.

Yoshlarga ushbu ofatning salbiy jihatlari va zararli oqibatlarini kengroq tushuntirishda ijobiy ta'sir qilishning barcha vosita va uslublarini qo'llash kerak. Balandparvoz shiorlarni takrorlash o'rniga, fikrni hayotiy misollar orqali yetkazish ma'qulroq.

«Bekorhidan xudo bezor», – deydi dono xalqimiz. Yoshlarimiz turli mutaassib guruhlar ta'siriga tushib qolmasligi uchun ularning bo'sh vaqtini unumli o'tkazish, kasb - hunar, foydali mehnatga o'rgatish, turli to'garaklar faoliyatini jonlantirish, sport klublarida qulay imkoniyatlar yaratib

berish muhimdir. Profilaktika inspektori bu ishlarda tashabbuskor bo_lishi, yaqindan ko_maklashishi kerak.

Beg_amlilik loqaydlikning onasidir. Har qanday fazilat haddan oshsa, illatga: tavoze – laganbardorlik, andisha – qo_rqoqlik, ibo – mutelik, uyalish – jur'atsizlikka aylanadi. Yer buzilsa – dehqon, bola buzilsa – ota-ona uyaladi.

Yaxshi fazilat ekib, parvarish qilinmasa, yomon sifatlar unadi. Farzand ko_rib, qarovsiz qoldirilsa, u fidoyi, vatanparvar bo_lmaydi, giyohvand, jinoyatchi yoki riyokor bo_ladi

Yurtboshimizning millat va uning kelajagini o_ylab aytgan samimiy, fikrlariga diqqat qilaylik: «Davlatimiz shiddat bilan yangilanmoqda, farzandlarimiz ham ko_z o_ngimizda ulg_ayib kamol topmoqda. Biz xohlasak ham, xohlamasak ham, bu jarayon davom etaveradi. Kishini o_ylantiradigan jihati shuki, farzandlarimiz biz istagan, biz intilgan, o_z oldimizga maqsad qilib qo_ygan darajada o_zgaryaptimi? Bugun umid bilan qarayotgan nihollarimiz ertaga kutilganidek meva beradimi?»

O_ta jiddiy savol. Agar biz yoshlarimiz ongi va ruhiyatini zaharli mafkuralardan qat'iyat bilan himoya qilsak, har qanday g_arazgo_ykuchlar mamlakat mustaqilligi va uning porloq kelajagiga raxna sola olmaydi. Bu jamiyatimiz, shu yurt, shu Vatanni muqaddas deb bilgan har bir fuqaro oldida turgan asosiy vazifadir. E'tiborli tomoni shundaki, profilaktika inspektori mahalla fuqarolar yig_inlari bilan mahallada ayrim yoshlarning hulq-atvori, xatti-harakati, o_zini tutishi va boshqalar bilan munosabati ustidan nazorat olib borishi, kerak bo_lsa, ularning ota-ona, yaqinlari haqida to_liqma'lumotga ega bo_lishi kerak.

Turli terrorchilik harakatlarini sodir etish ishlariga aholining zaif qatlami bo_lgan ayollarning ham aralashib qolayotganligi tashvishlidir. Ularning bellariga portlovchi moddalar bog_lab, o_zini nobud qilayotganligi, o_zjonlariga qasd qilishlari, umuman, terrorizm yo_liga kirib qolishining asosiy sababi, ularning na diniy, na dunyoviy bilimga ega emasliklari, turli oqimlarga nisbatan sof islom dinining munosabatini bilmasliklaridir.

Ba'zi kishilar ayollarning terror yo_liga kirib qolishlarini moddiy qiyinchilik, oiladagi yetishmovchilik, ishsizlik, kam ta'minlanganlik, alamzadalik, siyosatdan norozilik kabi qator ijtimoiy holatlar bilan bog_lashga intiladilar.

Aslida ma'naviyat va ma'naviyatni yuksaltirish diniy ong radikal-lashuvining oldini olish hamda aholida diniy-mafkuraviy immunitetni hosil qilishning asosiy vositalaridan bo_lib, ekstremizm va terrorizmning oldini olishda hayotiy va ta'sirchan omillardan biri sanaladi. Ko_pchilik

mamlakatlarda mafkuraviy va ma'naviy-ma'rifiy tarbiya tizimi dunyoviy mohiyatga ega ta'lim-tarbiya muassasalarida yoshlarga din haqida ilmiy asoslangan bilimlar berish va diniy muassasalar imkoniyatlaridan diniy-ma'naviy tarbiyaning muhim o'chog'i sifatida foydalanishdek jihatlarni qamrab oladi. Ularni ro'yobga chiqarishda turli, shu jumladan, anchagina qismi xalqaro tashkilotlar maqomiga ega bo'lgan nohukumat, notijorat tashkilotlar ham faoliyat ko'rsatmoqda. Diniy-siyosiy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning so'nggi yillardagi xalqaro tajribasida dinlararo bag'rikenglik g'oyasi targ'iboti alohida o'rin tutmoqda.

Bu yo'nalishda olib borilayotgan ishlarda diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning xalqaro siyosiy-huquqiy zaminini mustahkamlash bilan birga, uning ma'naviy-ma'rifiy asoslarini kuchaytirish jahon hamjamiyati oldidagi eng dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

«Bugungi kunda, — deb yozadi Yurtboshimiz, — insoniyat qo'lida mavjud bo'lgan qurol-yarog'lar yer kurrasini bir necha bor yakson qilishga yetadi. Buni hammamiz yaxshi anglaymiz. Lekin hozirgi zamondagi eng katta xavf — insonlarning qalbi na'oningini egallash uchun uzluksiz davom etayotgan mafkuraviy kurashdir. Endilikda yadro maydonlarida emas, mafkura maydonlarida bulayotgan kurashlar ko'p narsani hal qiladi. Bu achchiq haqiqatni hech qachon unutmaslik lozim».

Shunday sharoitda mohiyatan g'ayriinsoniy, shu jumladan, diniy ekstremistik g'oyalarga qarshi tura olish uchun kishilarimizda mafkuraviy immunitetni shakllantirish markaziy masalalardan biriga aylanmoqda.

Immunitet deganda - tibbiyotda organizmning doimiy ichki muayyanligini saqlashi, o'zini turli, shu jumladan, zararli ta'sirlardan himoya qilishga bo'lgan xususiyatlari majmui tushuniladi. Immunitet kishi vujudining turli infeksiya kasalliklarga berilmaslik xususiyatini ham ifodalaydi.

Insonning tug'ma bo'lgan ana shu umumiy immunitet tizimidan farqli ravishda mafkuraviy immunitetini shakllantirib borish zarur. U har bir avlod uchun o'ziga xos xususiyatga ega bo'ladi va mafkuraviy daxlsizlikni ta'minlashga (immunitetga ega bo'lmagan chaqaloqlarning uzoq yashay olmasligini eslaylik) xizmat qiladi.

Mafkuraviy immunitet tizimining, asosiy va birinchi unsuri, bu bilimdir. Ammo bilimlar ko'p. Diniy ekstremizm va terrorizm tarafdorlari ham muayyan «bilim»larga tayanadilar va uni omma ongiga singdirishga harakat qiladilar. Demak, mafkuraviy immunitet tizimidagi bilimlar obyektiv bo'lishi, voqelikni to'g'ri na to'liq aks ettirishi, inson ma'naviyatining boyishi va jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilishi lozim. Bu, bir tomondan. Ikkinchi tomondan, bu bilimlar o'z mohiyat-e'tiboriga ko'ra,

Vatan, millat, insoniyat manfaatlari bilan uzviy bog'liq bo'lmog'i kerak. Fuqarolarimizning asl islom haqida xolis va yetarli bilimga ega bo'lishlari diniy ekstremizmga qarshi immunitetni shakllantirishning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi.

Bilimlar qanchalik xolis va chuqur bo'lsa, uning zamirida yuzaga kelgan baholar, qadriyatlar ham shuncha mustahkam bo'ladi. Bir so'z bilan aytganda, qadriyatlar tizimi mafkuraviy immunitetning imkoniyatlarini belgilab beradi va mafkuraviy infeksiyalar yo'lida mustahkam qalqon bo'lib xizmat qiladi.

Qayd etilgan mulohazalar asl islom haqida muayyan bilimlarga ega bo'lish, uning bayrog'i ostida taqdim etilayotgan g'oyalar, qarashlar va harakatlarni to'g'ri baholash, ularning mohiyatan islomiy qadriyatlarga butunlay zid ekanini anglab yetishga xizmat qiladi, degan xulosani chiqarish imkonini beradi. Bilimlar va qadriyatlar tizimi ham mafkuraviy immunitetning mohiyatini to'liq ifoda eta olmaydi.

Mafkuraviy immunitet tizimini shakllantirishda yot g'oyalar kirib kelishining oldini olish va ularni yo'qotishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuini o'z ichiga oladigan mafkuraviy profilaktikaning o'mi katta. Profilaktika inspektori bu ishda kamarbasta bo'lishi, ya'ni aholi o'rtasida umume'tirof etilgan diniy-dunyoviy qadriyatlarning insoniyat taraqqiyoti-dagi bunyodkorlik ahamiyati va diniy-ekstremistik g'oyalar singdirilgan, buzg'unchi, zararli oqim tarafdorlarining vayronkor qilmishlari xususida chuqur tushuntirish ishlarini olib borishi kerak. Umuman, ijtimoiy institutlar tomonidan xilma-xil shakllarda amalga oshiriladigan g'oyaviy-tarbiyaviy, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy ishlar majmui to'g'ri tashkil etilgan butun tarbiya tizimini qamrab oladi.

Bugungi kunda mamlakatimizda milliy istiqlol g'oyasi ruhi bilan yo'g'rilganana shunday tarbiya tizimi yaratildi. Uni doimiy takomillashtirib borish va davr da'vatlariga hozirjavobligini ta'minlash esa hammamizning asosiy vazifamiz hisoblanadi. Zero, Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, «Millat bor ekan, milliy davlat bor ekan, uning mustaqilligi va erkinligiga, an'ana va urf-odatlariga tahdid soladigan, uni o'z ta'siriga olish, uning ustidan hukmronlik qilish, uning boyliklaridan o'z manfaati yo'lida foydalanishga qaratilgan intilish va harakatlar doimiy xavf sifatida saqlanib qolishi muqarrar».

Shunday ekan, voyaga yetayotgan har bir farzandimizni kuchli mafkuraviy immunitetga ega shaxs sifatida tarbiyalash ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayotni ta'minlashimizning asosiy shartlaridan biri bo'lib qolaveradi.

4-§. Terrorizm va diniy ekstremizmning oldini olishning psixologik chora-tadbirlari

Terrorizmning oldini olish o'ziga xos murakkab vazifadir, chunki bu ijtimoiy voqealik turli ijtimoiy, siyosiy, ruhiy, iqtisodiy va boshqa bir qator sabablar orqali yuzaga keladi. Shu bois aynan shu kabi sabablar birinchi navbatda, profilaktika inspektori uchun profilaktika ta'sir choralarning obyektiga aylanishi lozim.

Zotan, buni amalga oshirish oson kechmaydi, chunki sanab o'tilgan sabablarning aksariyati davlat hokimiyatiga egalik qilish va uni egallashga qaratilganligi bilan mulkni taqsimlash, o'z - g'oyalarni" namoyish etish, jamiyatni milliy va ijtimoiy tizimini o'zgartirishga qaratilgan maqsadlarining mavjudligi bilan uzviy bog'liqligidir.

Terrorizmning oldini olishda quyidagi keng umumiy profilaktik chora-tadbirlar amalga oshirilmog'ilozim:

- jahonda va jamiyatda ro'y berayotgan va terrogen ta'sirga ega asosiy jarayonlarga ta'sir o'tkazish. Ushbu yo'nalish strategik ahamiyatga ega bo'lgani uchun va o'tkazilishi zarur bo'lgan uzoq muddatli va hatto undan ham ko'p muddatlarda bashorat qilishni yo'lga qo'yish va shu orqali terrorizmni faollashganini bilish hamda terrorni kimlar sodir etishini aniqlash;

- kelgusida va yaqin vaqtlarda sodir etilishi mumkin bo'lgan terrorchilik harakatlarini aniqlash va bartaraf etish. Bu esa terror sodir etuvchilar va terror yo'naltilgan obyektlarni, uning sabablari, sodir etish usullari va boshqa holatlarni aniqlashni talab etadi;

- davlat va jamoat arboblari qaratilgan terrorchilik harakatlari va umuman, terrorizmni sodir etishga tayyorgarlikka yo'l quymaslik, aybdorlarni ushlab va odil sudga berish, terrorchilik harakatini sodir etgan nafaqat ijrochilarni, balki tashkilotchilar va terrorchilikni ruhlantirgan shaxslarni ham, garchand bunday jarayon g'oyatda murakkab bo'lsa ham, topish va jazoga tortish;

- terrorizm bilan bog'liq bo'lgan - garovga olish, genotsid, qo'pro'vchilik, dastlabki tergov va sud ishlarini yuritayotgan shaxsga suiqasd qilish kabi holatlarning oldini olish, yo'l quymaslik va bartaraf etishni ta'minlash. Bunday kurash bobida xalqaro tashkilotlar yordamiga tayanish va har bir davlat ishtirokini muvofiqlashtirib borish maqsadga muvofiqdir.

–Biz O'zbekiston jamoatchiligi, Markaziy Osiyo mintaqasi ana shu nuqtai nazardan qaraganda, xalqaro jinoyatchi uyushmalar uchun –shirin luqma" ekanligini yaxshi tushunamiz. Bu mintaqa jahon kommunika-

tsiyalari tutashgan joy bo'lib, undan narkotik moddalar bilan savdo qiluvchi korchalonlar foydalanmasligiga hech kim kafolat bera olmaydi", deb yozadi Islom Karimov ¹.

O'zbekiston Respublikasining "Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida"gi 2000-yil 15-dekabr qonunining 10-moddasida O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining terrorizmga qarshi kurash sohasidagi vakolatlari berilgan. Ushbu Qonunga binoan ular quyidagilarni amalga oshiradilar:

- terrorchilik faoliyatini oldini olish, uni aniqlash unga chek qo'yish hamda uning oqibatlarini minimallashtirish yo'libil bilan amalga oshiradi;

- alohida muhim kategoriyalangan va boshqa obyektlarning qo'riqlanishini va xavfsizligini ta'minlaydi;

- davlat hokimiyati va boshqaruvning tegishli organlariga terrorchilik faoliyatiga aloqador shaxslar, guruhlar va tashkilotlar to'g'risida axborot taqdim etadi.

Qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshiradi.

Ichki ishlar organlari xodimlari va boshqa davlat organlari tomonidan terrorchilik faoliyatini oldini olish fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari hamda jamoat birlashmalari, shuningdek korxonalar, muassasa, tashkilotlar tomonidan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy va boshqa profilaktik choralar majmuini o'tkazish orqali amalga oshiriladi.

Ayniqsa, profilaktika inspektorlari o'ziga tegishli bo'lgan hududlarining xavfsizligini ta'minlash maqsadida, barcha obyektlarni nazorat qilishlari, har bir xonadonning fuqarolik pasport rejimini o'tkazish, joylarda, xususan, aholi kam yashaydigan (tog'li hamda cho'l zonalarini)larda nazoratni kuchaytirishlari lozim. Davlat hokimiyatlari, idoralar, tashkilotlar, muassasalar hududlarini har qadamda hushyorlik bilan qo'riqlash ishini samarali tashkil etish, har bir kutilmagan holatga ichki ishlar organi xodimi shay bo'lishi kerak. Terrorchilar guruhi taktikasini mohiyatini o'rganish va ularga qarshi kurashishni shu asosda tashkil etish lozim.

Terrorizm jinoyatlarining profilaktikasini mazmuni bo'yicha quyidagi yo'nalishlarda belgilab olish mumkin:

- terrorizmning targ'ib qilinishini oldini olish;

- terrorchilik guruhlari va tashkilotlarini tuzish holatlari aniqlanganda, ular faoliyatiga uzil-kesil chek qo'yish;

- terrorchilik faoliyatiga daxldor shaxslarni O'zbekiston Respublikasiga kirishi hamda ularni ushbu hududda faoliyat ko'rsatishiga yo'l qo'ymaslik;

¹ Qarang: *Karimov I.A. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари.* – Т., 1997. – Б.96.

- tayyorlanayotgan yoki sodir etilgan terrorchilik harakatlariga oid ma'lumotlar va faktlarni aniqlash, bartaraf etish choralari ko'rish;

- jamoat tartibi va fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash ularning hushyorligiga, tevarakda ro'y berayotgan voqealarga faol munosabatiga bog'liq ekanini odamlarning ongiga yetkazish¹.

Terrorizm va diniy ekstremizmni targ'ib qilinishining oldini olishda quyidagi psixologik-profilaktik chora-tadbirlar amalga oshiriladi:

– xalqaro munosabatlarni murakkablashtirish, davlatning suverenitetini, hududiy yaxlitligini buzish, xavfsizligiga putur yetkazish, urush va qurolli mojarolar chiqarish, ijtimoiy-siyosiy vaziyatni beqarorlashtirish, aholini qo'rqitishni maqsad qilib olgan har qanday ko'inishdagi targ'ibot-tashviqot ishlariga chek qo'yish;

– jamiyatda xufiyona faoliyat ko'rsatayotgan, terrorchilikni targ'ib qiluvchi va unga tayyorgarlik ko'rsatayotgan kishilarni aniqlash bo'yicha tezkor-qidiruv ishlarini o'tkazish²;

– mahalliy ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinayotgan axborotlar bilan muntazam ravishda tanishib, ularni tahlil qilib borish;

– terroristik g'oyalarning targ'ib qilinishiga yo'l qo'ymaslik hamda bu boradagi huquqbuzarliklarni aniqlash;

- terrorchilik g'oyalari tarqatish bilan shug'ullanuvchi shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish;

– terrorchilik g'oyalarni targ'ib va tashviq qilish uchun mo'ljallangan audio-video kassetalarni, shuningdek DVD, VCD, SD, MR3 disklarini sotish shahobchalarini doimiy nazoratga olish;

– milliy, irqiy, etnik yoki diniy adovatni targ'ib qiluvchi materiallarni tayyorlash, saqlash yoki tarqatishning oldini olish;

– diniy mazmundagi materiallarni qonunga xilof ravishda tayyorlash, saqlash, olib kirish yoki tarqatishning oldini olish;

– diniy tashkilotlar to'g'risidagi qonun hujjatlari buzilishining oldini olish;

– diniy ta'limotdan saboq berish tartibini buzish hollariga chek qo'yish;

– diniy ekstremizmning mohiyati, ekstremistik tashkilotlar va oqimlarning haqiqiy maqsadlari va qiyofalarini keng jamoatchilikka ko'rsatib berish;

¹ Qarang: *Исмаилов И. Терроризмга қарши кураш / Қонун ҳимоясида.*– 2004.– №7. –Б. 30.

²O'sha joyda.

– diniy ekstremizm taʼsiriga tushish xavfi boʻlgan aholi qatlami oʻrtasida doimiy ravishda tarbiyaviy, ogohlantirish-tushuntirish ishlarini tashkil etish;

– chet elga chiqish va Oʻzbekistonga kirish bilan bogʻliq jarayonlarni tartibga solish va nazorat qilishni takomillashtirish va hokazo¹.

Terrorchilik guruhlari va tashkilotlarini tuzish hamda ularning faoliyat koʻrsatishiga chek qoʻyish borasida quyidagi profilaktik chora-tadbirlar amalga oshiriladi:

– hududda noqonuniy faoliyat koʻrsatayotgan machitlar, diniy taʼlim beruvchi hujralarni va shaxslarni aniqlash;

– terrorizm jinoyatini sodir etib muqaddam sudlangan shaxslar bilan ularning qayta jinoyat sodir etishlarini oldini olish maqsadida yakka tartibdagi tarbiyaviy profilaktik suhbatlar oʻtkazish, ularning oilaviy ahvoli va aloqalari toʻgʻrisida maʼlumotlar yigʻish;

– uzoq muddatdan buyon oʻz uyida yashamayotgan, chet el mamlakatlariiga tijorat va boshqa maqsadlarni koʻzlab chiqib ketgan, yana qaytib kelgan shaxslar va xorijiy davlatlarga chiqib fohishalik bilan shugʻullanligi uchun deportatsiya qilingan ayollar va xorijda jinoyat sodir etgan shaxslar hamda jinoyat qilgani uchun yoki qidiruvda boʻlgan, shuningdek bedarak yoʻqolgan shaxslar haqida maʼlumotlar toʻplash;

– profilaktik roʻyxatda turgan, yordamga muhtoj shaxslarni aniqlash va ularga fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish organlari orqali amaliy yordam koʻrsatish;

– hududdagi muhim obyektlarning (hokimiyat idoralari, HMQO, shifoxonalar, banklar, taʼlim muassasalari, bogʻchalar kabilarning) xavfsizligini taʼminlash choralari koʻrish².

Tayyorlanayotgan yoki sodir etilgan terrorchilik harakatlariga oid maʼlumotlar va faktlarni aniqlash, bartaraf etish choralari koʻrish borasida quyidagi psixologik-profilaktik chora-tadbirlar amalga oshiriladi:

– terrorchilik guruhlariga aloqador holatlar, shaxslar va tashkilotlar toʻgʻrisida ichki ishlar organlarining tegishli xizmatlariga va huquqni muhofaza qiluvchi boshqa organlarga oʻz vaqtida xabar berish;

– Oʻzbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 155-moddasidagi ~~terrorizmni~~ tayyorlashda ishtirok etgan shaxs, agar u hokimiyat organlariga oʻz vaqtida xabar berish yoki boshqa usul bilan ogʻir oqibatlar yuzaga kelishining hamda terrorchilar maqsadlari amalga oshirilishining

¹ Qarang: *Исмаилов И., Мамадалиев У. Диний экстремизм ва у билан боғлиқ жиноятларнинг олдини олиш муаммолари // Ахборот. – Т., – №4.– 2003. –Б. 53.*

² Qarang: *Исмаилов И. Терроризмга қарши кураш / Қонун ҳимоясида.– 2004.– №7. – Б. 30-31.*

oldini olishga faol ko__maklashgan bo__lsa, basharti bu shaxsning harakatlari jinoiyatning boshqa tarkibi bo__lmasa, jinoiy javobgarlikdan ozod etiladi” mazmunidagi to__tinchi qismining hamda 244²-moddasining –Basharti shaxs taqiqlangan tashkilotlar mavjudligi to__g__risida o__z ixtiyori bilan xabar qilgan va jinoiyatni ochishga yordam bergan bo__lsa, u ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan jinoiyati uchun javobgarlikdan ozod qilinadi” mazmunidagi uchinchi qismning mohiyatini keng jamoatchilikka yetkazish;

– qo__lostida mavjud bo__lgan ishonchli shaxslarning imkoniyatlaridan foydalangan holda tayyorlanayotgan yoki sodir etilgan terrorchilik harakatlariga oid ma‘lumotlarga ega bo__lish choralarini ko__rish.

Terrorizm jinoiyatini oldini olish faoliyatini umumiy, yakka tartibdagi va maxsus profilaktik chora-tadbirlar shaklida amalga oshirish mumkin:

Umumiy tartibda terrorizmni oldini olish deganda – ijtimoiy hayotning turli sohalaridagi uning sabab va sharoitlari, boshqa determinantlarini aniqlash va ularni bartaraf qilish, ta‘sirini yo__qtish, kuchsizlantirish bo__yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish.

Bu borada profilaktika inspektori tomonidan quyidagi profilaktik tadbirlar o__tkaziladi:

– oliy o__quv yurtlari, kollejlari, litseylar, mehnat jamoalarida, mahallalarda uchrashuvlar, suhbatlar uyushtirish va diniy ekstremizmning ijtimoiy xavfi haqida ma‘ruzalar o__qish;

– radio, televideniye, matbuot hamda OAVning boshqa turlarida diniy ekstremizmning ijtimoiy xavfi haqida maqolalar, eshittirishlar va ko__rsatuvlar uyushtirish;

– fuqarolarning o__zini o__zi boshqarish organlari, jamoat tashkilotlari hamda boshqa davlat organlari bilan hamkorlikda diniy-ekstremistik oqimlarning maqsadi va diniy ekstremizmning mohiyatini ochib beruvchi ko__r-gazmali qurollar va plakatlar tayyorlab, aholi ko__p to__planadigan joylarni jihozlash va hokazolar.

Yakka tartibda terrorizmni oldini olish deganda, muayyan shaxs tomonidan terrorizm jinoiyatini sodir qilinishini oldini olishdan iborat, bunda shaxsda jamiyatga zid yo__nalishning mavjudligi, g__ayriijtimoiy hayot tarzi, salbiy xususiyatlari, xulqi va odatlari oqibatida jinoiyat sodir etishga moyil bo__lgan shaxslarni aniqlash va ular tomonidan jinoiy xatti-harakatlar sodir qilinishiga yo__l qo__ymaslik maqsadida ularga nisbatan tarbiyaviy va boshqa turdagi ta‘sir ko__rsatuvchi chora-tadbirlarni amalga oshirish.

Bu borada quyidagi profilaktik tadbirlar o__tkaziladi:

– diniy ekstremistik oqimlar ta‘siriga tushib qolganlar bilan yakka tartibdagi profilaktik suhbatlar olib borish;

– diniy ekstremistik oqimlar taʼsiriga tushib qolganlarga ekstremizmning, qolaversa dinning mazmun va mohiyatini tushuntirish;

– diniy ekstremistik oqimlar taʼsiriga tushib qolganlarni toʻgʻri yoʻlga solish uchun hurmat va obroʻga ega boʻlgan, mahalla faollarini jalb etish va hokazolar.

Maxsus tartibda terrorizmni oldini olish deganda, terrorizm jinoyatining sabab va sharoitlarini, ular bilan bogʻliq boʻlgan boshqa determinantlarini aniqlash va ularni bartaraf qilish, taʼsirini yoʻqtirish, kuchsizlantirish boʻyicha hamda terroristik guruhlariga mansub shaxslarga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish.

Bu borada quyidagi profilaktik tadbirlar amalga oshiriladi:

– diniy ekstremistik va terroristik gʻoyalarni tarqatuvchilar haqida axborotlar toʻplash, tahlil qilish va kerakli xulosalarga kelish;

– diniy taʼlimotdan noqonuniy tarzda saboq berayotganlarni aniqlash;

– terrorizmni moliyalashtirish manbalarini aniqlash va hokazolar.

Terrorizm va diniy ekstremizmning oldini olish borasida yuqorida keltirib oʻtilgan yoʻnalishlardagi faoliyat imkon qadar qonun hujjatlarini tahlil qilgan va nazariy qoidalarga asoslangan holda talqin etildi. Oʻziga xos xususiyatlari keltirilgan holda yoritilgan mazkur yoʻnalishlar terrorizm jinoyatining oldini olish borasida chora-tadbirlarning samarasini oshirishga xizmat qiladi.

Savol va topshiriqlar

1. Zamonaviy terrorizmning qanday oʻziga xos psixologik belgilari mavjud?

2. Profilaktika inspektorining terrorizm va diniy-ekstremizmga qarshi kurash faoliyatida psixologik bilimlarning ahamiyati haqida soʻzlab bering.

3. Terrorizm va diniy-ekstremizmga qarshi kurash yoʻnalishida yoshlar ongida gʻoyaviy immunitetni shakllantirish deganda nimani tushunasiz?

4. Terroristik va diniy ekstremistik faoliyat bilan shugʻullanishga undovchi qanday ijtimoiy-psixologik omillar mavjud?

5. Terrorchi shaxs psixologiyasi haqida nimalarni bilasiz?.

6. Turli toifadagi terrorchilar va diniy ekstremistik oqimlarga psixologik tavsif bering.

7. Mamlakatimizda terrorizmni oldini olishning qanday chora-tadbirlari ishlab chiqilgan?

VIII bob. ICHKILIKBOZLIK VA GIYOHVANDLIKNI OLDINI OLISH FAOLIYATINING PSIXOLOGIK TAVSIFI

1§. Ichkilikbozlik, giyohvandlik va zaharvandlikning inson ruhiyati va xulq-atvorining kriminallasuviga taʼsiri

Oʻzbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan ijtimoiy siyosatning mohiyati jamiyat aʼzolarining osoyishtaligini taʼminlash va erkin kamol toptirishga qaratilgandir. Shuningdek, har bir fuqaroning maʼnaviy dunyoqarashini yangi davr talablari asosida shakllantirish hamda shaxs maʼnaviyatida yuzaga kelishi mumkin boʻlgan turli illatlarga yoʻl qoʻymaslikni taʼminlash ham davlat siyosatida alohida eʼtiborga olingan.

Shaxs maʼnaviyati va ruhiyatiga salbiy taʼsir etuvchi ichkilikbozlik, giyohvandlik va zaharvandlik kabi illatlar hamda ularni keltirib chiqaruvchi sabab va shart-sharoitlarni yoʻqotishga davlatning alohida eʼtibor qaratayotganligi esa ushbu muammoning naqadar dolzarbligidan dalolat beradi. Taʼkidlash joizki, giyohvandlikning yuzaga kelishi va uning oqibatlarini jamiyatga jiddiy xavf tugʻdiradi.

Profilaktika inspektorlari ichkilikbozlik, giyohvandlik va zaharvandlik bilan bogʻliq holatlar hamda jinoiy qilmishlarga amaliyotda duch keladilar. Shu bois ular bu illatlarga oid tushunchalarga ega boʻlishi xamda bu illatlarga chalinganlarga psixologik jihatdan yondashishni bilishi zarur. Biz quyida ichkilikbozlik tushunchasiga batafsil toʻxtalib oʻtishga harakat qilamiz.

Alkogol mahsuloti bu – konyak spirti yoki tozalangan etil spirtidan, vino materiallari va (yoki) tarkibida spirt boʻlgan oziq-ovqat mahsulotidan foydalangan holda ishlab chiqarilgan, hajmidagi etil spirtining ulushi bir yarim foizdan ortiq boʻlgan oziq-ovqat mahsuloti¹. Alkogol suvga juda oʻch boʻlib, organizmga borib oshqozonga tushganda oʻzi borib yetgan toʻqima va hujayralarning suvini tortib oladi. Tarkibidagi suvi tortib olingan toʻqimalar zichlashib, hajmi kichrayadi. Alkogolning hatto juda suyultirilgan eritmalari ham shilliq pardalarni burishtirib qoʻyadi. Kuchliroq eritmalari yuzaga joylashgan hujayralarni halok qiladi. Etil spirti markaziy asab tizimi faoliyatini susaytiradi. Mashhur psixofiziolog olimlar I.P.Pavlov va I.M.Sechenovlarning fikricha, alkogol va narkotik moddalar markaziy asab tizimining fiziologik turgʻunligini pasaytiradi, binobarin, ularda tormoz-

¹ Qarang: Ўзбекистон Республикасининг «Алкоголь ва тамаки маҳсулотларининг тарқатилиши ҳамда истеъмол қилинишини чеклаш тўғрисида»ги 2011 йил 5 октябрь қонуни / Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. 2011.– №40.– 413-м.

lanish boshlanadi va bu hol avval bosh miya po_stlog_iga, keyin boshqa organ va sistemalarga o_tadi¹.

Alkogolga qaramlik – alkogol mahsulotiga patologik ruju qo_yish, alkogoldan surunkali zaharlanishning psixosomatik (ruhiy va jismoniy) hamda ijtimoiy oqibatlar bilan tavsiflanadigan surunkali kuchayib boruvchi kasallik (surunkali alkogolizm)²;

Surunkali spirtli ichimliklarga ruju qo_yish deganda shaxsning spirtli ichimliklar (aroq, konyak, vino va boshqalar)ga mukkasidan ketishi, ichmasdan turolmasligi va unga fiziologik bog_lanishini tushunamiz. Shuni esda tutish kerakki, surunkali ichkilikbozlik kasallik, biroq u ixtiyoriy kechib, odamning sog_ligini izdan chiqaruvchi jinoyat sodir etishga moyillikni keltirib chiqaruvchi kasallikdir.

Giyohvandlik - yunoncha *–narkotikos*” so_zidan olingan bo_lib, ma‘nosi bir lahza bo_lsa-da hayot tashvishlaridan, muammolaridan yiroqlashish yoki fiziologik rohatlanish xohishidir degan ma‘noni bildiradi.

Giyohvandlik vositalari – iste‘mol qilish natijasida insonning markaziy asab tizimini qo_zg_atuvchi, organizmda o_rganishni (tobelikni) vujudga keltiruvchi, kelib chiqishi tabiiy yoki sintetik vositalar (*O_zbekiston Respublikasida ko_p uchraydigan giyohvandlik vositalar turlariga nasha, heroin, ko_knor, opiy va boshqalar kiradi*).

Giyohvand (narkoman) - giyohvandlik vositalariga ruhiy-jismoniy qaramlik kasalligiga chalingan shaxs.

Giyohvandlikka chalingan shaxslarda bo_ladigan salbiy o_zgarishlar asosan narkotik moddalar (nasha, qoradori, heroin, ko_knori, opium, fenomin va boshqalar)ni iste‘mol etib ko_rganidan so_ng, bu moddalarni iste‘mol etmasidan tura olmaslik, unga ruju qo_yish, ya‘ni fiziologik va psixologik bog_lanish tushuniladi. Giyohvandlik vositalarining har bir turi muayyan texnologiya asosida ishlab chiqilsa-da, o_z ta‘sir doirasiga ko_ra, birinchi navbatda inson ruhiyatiga ta‘sir etadi va ular quyidagicha tayyorlanadi:

– *prekursorlar*, ya‘ni O_zbekiston Respublikasida qo_llanishi nazoratga olingan va giyohvandlik vositalari hamda psixotrop moddalarning tayyorlanishida qo_llaniladigan modda;

– *giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarga o_xshash moddalar* – kelib chiqishiga ko_ia, sun‘iy yoki tabiiy bo_lgan, kimyoviy tarkibiga

¹ Qarang: *Қодирова А.А. Ичкиликбозлик – зурриёт душмани.* – Т.1979

² Qarang: Ўзбекистон Республикасининг «Алкоголь ва тамаки маҳсулотларининг тарқатилиши ҳамда истеъмол қилинишини чеклаш тўғрисида»ги 2011 йил 5 октябрь қонуни / Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. 2011.–№40.– 413-м.

ko__ra, giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarga xos bo__lgan ruhiyatga ta‘sir etuvchi moddalar;

– *qorishmalar* – bir necha turdagi hamda turli fizik holatdagi giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning aralashmasi;

– *trankvilizatorlar* – shaxsda ruhiy qo__zg__alishbo__lganda, uni tinchlantirish maqsadida beriladigan preparatlar. Ushbu moddalarni haddan ziyod, ko__p miqdorda va birdaniga iste‘mol qilish salbiy oqibatlariga olib keladi.

Zaharvandlik (toksikomaniya) - psixotrop moddalarga, shuningdek dorilik xususiyatiga ega bo__lmagan, kelib chiqishi sintetik yoki tabiiy, giyohvandlik vositalarga o__xshash ruhiyatga faol ta‘sir etuvchi moddalarga ruhiy-jismoniy qaramlik bilan bog__liq kasallik.

Zaharvandlik uzoq davrlardan beri mavjud bo__lib, insonning o__tkir hidli zaharli moddalarni hidlash orqali kayf qilishi va mast bo__lishini tushunish mumkin. Ushbu kasallik ham ijtimoiy xavfli hodisa bo__lib, unga chalingan shaxs mastlik holatida jinoyat sodir etishga moyil bo__ladi. Eng xavflisi uning yoshlar va voyaga yetmaganlarning tarbiyasiga salbiy ta‘sir ko__rsatishidir. Zaharvandlikka chalingan shaxslar organizmining funksiyasi, zaharvand moddalar (benzin, kerosin va boshqa o__tkir hidli ximikatlarga) moslashadi va usiz yashay olmaydi. Zaharvandlikka o__rganishning ham sabablari yuqoridagilarga o__xshash bo__lib, qiziqish, kayf qilish yoki biror salbiy holatni unutish maqsadida bo__ladi.

Psixotrop moddalar ham aynan shaxs ruhiyatiga ta‘sir etuvchi tabiiy yoki sun‘iy moddalar jumlasidandir. Bu kabi moddalarning iste‘mol qilinishi va u bilan muomalada bo__lish O__zbekiston Respublikasida alohida nazoratga olingan.

Psixologlarning fikricha, shaxslarni narkotik moddalarni iste‘mol qilishining asosiy sabablaridan biri, bu ularning psixikasida o__zgarishni yuzaga kelishini o__zlan xohlashi va bir xil turmush tarzidan vaqtincha bo__lsa ham voz kechishni istaganidandir. Bundan tashqari narkotik moddalarni shaxslarning iste‘mol qilishini olimlar va narkologlar tomonidan ilmiy asoslangan bir qancha sabablari ham mavjud, bular:

– giyohvandlarning bugungi kun bilan yashashi, sovuqqonlik oqibatida pessimistik dunyoqarashga egaligi, o__z hayoti va turmush tarzidan qoniqmasligi oqibati;

– giyohvandlarning oilasida o__ziga xos muammo borligi va bu muammoni hal qilishga o__zlarida xohish va istakning yo__qligi;

– giyohvandlarda shaxsiy ijtimoiy-psixologik salbiy omillarning mavjudligi;

- o_zimkoniyatlarini to_g_ri baholay olmasliklari;
- ruhiy va jismoniy jihatdan irodasining bo_shligi;
- narkotik moddalarni iste‘mol qilish natijasida qanday oqibatlar kelib chiqishini oldindan bashorat qila olmasliklari va hokazo.

Bunday obyektiv va subyektiv sabablarni sanashni davom etkazishimiz mumkin, lekin inson, shaxs uning faoliyati bu monosistema emas, uning hatti-harakatida bitta aniq narsani, giyohvand bo_lishga sabab qilib ko_rsata olmaymiz. Agar shunday sabab bo_lsa, o_sha sababni ro_kach qilib ko_rsata olsak, u holda narkotik moddalarni iste‘mol qilishga chek qo_ya olgan bo_laredik.

Shaxslar tomonidan narkotik moddalarni iste‘mol qilishning natijalari va ularni psixikasiga ta‘sirini quyidagi hollarda ko_rish mumkin:

- bo_shashish hollarining ko_payib ketishi, jahlning sababsiz chiqishi;
- xotira va diqqatda sustkashlikning yuzaga kelishi;
- ijtimoiy muhitga befarqlik;
- uyqusizlik;
- haddan tashqari quvvatsizlik;
- ovqatlanishda me‘yorni bilmaslik natijasida ochko_zlik hollarining yuzaga kelishi yoki umuman ishtahaning yo_qdishi.

Bunday sabablar ro_yxatini ko_paytirish mumkin, lekin bir marotaba narkotik moddani iste‘mol qilib ko_rgan shaxslarni barchasini giyohvandlik botqog_iga botib qoladi degan fikrdan yiroqmiz. Shuningdek, narkotik moddalarni iste‘mol qilgan shaxslarning irodasi sust, jismonan bo_sh, ruhiy turg_unligi yo_q bo_lsa, narkotik moddalarni iste‘mol qilishga moyilligi bo_lgan shaxslarni psixologik jihatdan aniqlashdan oldin giyohvand bo_lishiga taxminan ikki yo_lmavjud ekan:

Birinchisi, shaxslarning qiziqib chekib ko_rishi orqali;

Ikkinchisi, narkotik moddalarni o_zlari xohlamagan holda boshqa shaxslar tomonidan majburlash orqali iste‘mol qilib ko_rishlari (iste‘mol qilishga majbur etish). Shaxsni narkotik moddalarni iste‘mol qilishga qiziqib qolishining sabablarini shifokorlar, fiziologlar, psixologlar aniqlashgan va bugungi kunda quyidagicha talqin qilishadi. Psixologlarning fikricha, shaxs narkotik moddalarni iste‘mol qilganda uning ta‘sir kuchi shaxsning yoshi, organizmining baquvvatligi va asab tizimiga ham bog_liq har xil ravishda bo_lar ekan. Narkotik moddalarni iste‘mol qilishga majburlash deganda narkotikning psixologik, fiziologik, biologik jihatdan shaxslarga qanday ta‘sir etishini tushunmog_imiz kerak. Aslida shaxslarni narkotik moddalarni iste‘mol qilishga majbur etuvchilar moddiy jihatdan ta‘minlangan shaxslarni izlashda ularning mablag_lari diqqat nazarida bo_ladi

Nazariy jihatdan qaraganda, giyohvandlikning jinoyatchilikni keltirib chiqarish bilan bog'liq quyidagi uchta shaklini ko'rish mumkin.

*Birinchi*dan, giyohvandlar obyektiv va subyektiv jihatdan jinoyat sodir etishga moyildirlar. Giyohvandlik vositalari bilan muomala qilish qonun asosida cheklangan. Demak, ularni g'ayriqonuniy yo'l bilan olish, sotish, saqlash kabilar jinoyat tarkibini tashkil etadi.

Shu bilan birga, giyohvandlarda ijtimoiy, ruhiy va ma'naviy xususiyatlarning o'ziga xosligini e'tiborga olish lozim. Ularning shaxsiyatidagi bu kabi illatlar har qanday vaziyatda ham jinoiy faoliyatni amalga oshirishga sabab bo'ladi.

*Ikkinchi*dan, giyohvandlik vositalariga bo'lgan intilish, ya'ni, tayyorlash, saqlash, sotib olish, sotish, sotishga vositachilik qilish, o'zlashtirish va iste'mol qilish kabilar shaxsni turli jinoiy faoliyatlarni sodir etishga undaydi.

*Uchinchi*dan, aynan giyohvandlarning o'zari ham viktim holatga tushib qoladilar va boshqa turdagi jinoyatlar qurboniga aylanadilar. «Giyohvandlik» tushunchasi ilmiy adabiyotlarda turlicha talqin etilgan bo'lsa-da, mazmunan aynan giyohvandlik vositalarini iste'mol qiluvchi giyohvand, «bangi» va umuman, giyohvandlik vositalari bilan jinoiy ravishda shug'ullanish, «narkomaniya»ni bildiradi.

Giyohvandlikning mavjudligi jamiyat hayotiga, insonlar ruhiyatiga, shu bilan birga, har bir shaxs psixologiyasiga jiddiy xavf soladi. Bu xavfni esa quyidagicha ifodalash mumkin.

*Birinchi*dan, giyohvandlik bedavo dard, jismoniy va ruhiy qaramlikni yuzaga keltiradi. Hozirgi kun tibbiyoti ham faqat ikki-uch oy vaqt mobaynida bangilikka duchor bo'lgan shaxsni vaqtinchalik «xumor»dan saqlashi mumkin. Agar shaxsning irodasi zaif bo'lsa, xastalik umuman davolanmasligi kuzatilmoqda.

*Ikkinchi*dan, shaxs mustaqil faoliyat ko'rsata olmaydi va unga kimdir muntazam ravishda yordam ko'rsatishi lozim. Ya'ni, giyohvandning mehnat qilish qobiliyati yo'qoladi va nogironlik yuzaga keladi. Oila sharoitida yashash tarzi o'zgaradi va ijtimoiy foydali vazifalarni bajara olmaydi.

*Uchinchi*dan, muntazam giyohvandlik vositalarini iste'mol qilish oqibatida shaxsning ruhiyati umuman izdan chiqadi: o'z xatti-harakatlari oqibatini idrok qila olmaydi hamda kundalik tashvishi faqat giyohvandlik vositalarni topish va iste'mol qilish bilan bog'lanib qoladi. Giyohvandlik vositalarining g'oyatda qimmatligi va bunga moddiy qaramlik tufayli u turli jinoiy qilmishlarni sodir etadi.

*To'rtinchi*dan, giyohvandlikka muhtal bo'lgan ota-onalardan majruh farzandlar tug'iladi. Eng xavflisi, bunday g'odaklarning giyohvandlik vositalariga bog'lanib qoladilar.

Beshinchidan, giyohvandlik bilan shug_ullanuvchi kimsalarning yuzaga kelishidir. Ularning o_zlari bangilik yo_liga kirmagan bo_lsalar-da, o_zgalarni shu yo_lga kirishga boshlaydilar. Ularning maqsadi faqat narkotik vositalarni sotish uchun «bozor ochish» bo_lib, o_zgalar kulfati hisobiga boylik to_playdilar. Bu esa g_oyat xavfli bo_lib va oqibatda jamiyat shaxs manfaatlariga jiddiy zarar yetadi.

Oltinchidan, giyohvandlikka muhtalo bo_lgan shaxs boshqalarni ham shu yo_lga chorlaydi. Kuzatuvlarimizdan ma'lum bo_ldiki, har bir banga bir yil davomida o_tacha 7-8 nafar shaxsni giyohvandlik yo_lga olib kiradi.

Ta'kidlash joizki, hozirgi kunda giyohvandlik vositalari va ularning iste'mol qilinishida yuzaga kelayotgan ba'zi usul va vositalar giyohvandlik bilan bog_liq bedavo OITS xastaligining ko_payishiga olib kelmoqda. Bu xastalikning giyohvand, bangilar o_tasida tarqalishi achinarli hol. Demak, uzviy bog_liqlikda bo_lgan giyohvandlik va OITS xastaliklarining oldini olish umumiy vazifalar jumlasiga kiradi.

2-§. Ichkilikbozlik, giyohvandlik va zaharvandlikning oldini olish faoliyatida psixologik bilimlarning ahamiyati

Mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq mamlakatimizda huquqiy demokratik davlat qurish masalasiga alohida e'tibor berildi. Asosiy qonunimizda shaxsning huquq va erkinliklari oliy qadriyat deb belgilab qo_yildi. Respublikamizda davlat tuzilishi va siyosiy hayoti insonparvarlik prinsipi bilan yo_g_rilgan. Unga asosan insonning hayoti, daxlsizligi, erkinligi oliy qadriyat hisoblanadi¹.

Mamlakatimizda ustuvor yo_nalishlardan hisoblanadigan inson huquqlarini himoya qilish, ularni turli tajovuzlardan himoya qilish kabi vazifalarni bajarishda ichki ishlar organlari faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Inson ulg_ayib katta bo_lar ekan, u oila quradi, farzand ko_radi, munosib kasb tanlaydi. Insonning o_zligini, hayot yo_lining to_g_ritanlagani, eng asosiysi, ana shu hayot yo_lining ustuni negizi bo_lgan oilasining mustahkamligini ta'minlaganidan dalolat beradi.

Shu bois, mahallalarda faoliyat yuritadigan profilaktika inspektorlarining ham asosiy vazifalaridan biri, oilalardagi huquqbuzarliklarning oldini olish, ularning sabab va sharoitlarini o_z vaqtida aniqlab, bartaraf etishdan iborat. Ushbu jarayonda profilaktika inspektorlarning mahalla faollari, yarashtirish komissiyalari, diniy-ma'rifat va ma'naviy-axloqiy

¹ Qarang: *Каримов И.А. Ўзбекистон янги ланишнинг ўзига хос йўли.* – Т., 1992. – Б. 18.

tarbiya masalalari bo'yicha maslahatchilar bilan hamkorlikda ishlashlari, mavjud kuch va vositalardan unumli foydalanishlari ahamiyatlidir. Ayniqsa, umumijtimoiy omillar hisoblangan ishsizlik, giyohvandlik, surunkali ichkilikbozliklarni bartaraf etish choralarini ko'rish va amalga oshirish bugungi kundagi dolzarb vazifalardan biridir.

Ijtimoiy hayotimizga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi surunkali ichkilikbozlik, giyohvandlik va zaharvandlik kabi salbiy illatlarning oldini olish maqsadida O'zbekiston Respublikasining «*Surunkali alkogolizm, giyohvandlik yoki zaharvandlikka muhtalolangan bemorlarni majburiy davolash to'g'risida*»gi 1992 yil 9 dekabrda hamda O'zbekiston Respublikasining «*Alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishi hamda iste'mol qilinishini cheklash to'g'risida*»gi 2011 yil 5 oktabrdagi qonunlarning qabul qilinishi jamiyatda alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishi hamda iste'mol qilinishini cheklash sohasidagi munosabatlarni tartibga soladi.

«Hlat» so'zi kasallik, xastalik, jismoniy va ruhiy kamchilik, nuqson» degan ma'noni anglatadi. Shunga ko'ra, umuminsoniy axloqqa zid illatlar deb umuminsoniy odob-axloq prinsiplari va normalari doirasiga sigmaydigan, unga xilof ravishda sodir etiladigan yaramas xatti-harakatlarga aytiladi.

Quyidagi sabablarga ko'ra shaxs surunkali ichkilikbozlikka beriladi:

1. *Ijtimoiy-psixologik omillar:*

- a) an'analar;
- b) boshqa shaxslarning ta'siriga tushish.

2. *Shaxsiy omillar:*

- a) kayf qilish uchun;
- b) yomon emotsional holat va kechinmalarni yo'qotish uchun;
- d) bekorchilik sababli yoki o'z ruhiy holatini yaxshilash maqsadida.

3. *Patologik omillar:*

- a) dori sifatida ichish;
- b) organizmning biologik ehtiyojini qondirish uchun;
- d) hayot mazmuni yo'q' deb qasddan ichish.

Shaxs spirtli ichimlik iste'mol etishning uchta darajasi mavjud, ular shaxsning xatti-harakatlarini belgilaydi.

yengil darajadagi mastlik;

o'rtacha darajadagi mastlik (asab faoliyatida tormozlanish vujudga keladi va u buziladi);

og'ir darajadagi mastlik (markaziy vegetativ tomirlar ishdan chiqadi, falaj bo'ladi).

Ma'lumki, spirtli ichimlik iste'mol qilish odamning asabiga ta'sir ko'rsatib, ruhiy ko'tailish va tormozlanish jarayonini o'zgartirib yuboradi.

Spirтли ichimlik iste'mol qilish har qanday jinoyatning sodir etilishiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi kriminogen omil bo'lib, bir tomondan mastlik inson ruhiyatiga ta'sir ko'rsatishi oqibatida shaxsning asabiylashish jarayonlarini kuchaytiradi, ikkinchi tomondan shaxsning o'z xulq-atvorini nazorat qilishini susaytiradi.

Spirтли ichimlikka ruju qo'ygan shaxsning ijtimoiy xavfli tomoni shundaki, bu vaqtda shaxsning ruhiyatida stressli holatlar yuqori bo'lib, uning o'zini boshqara olmasligi va jahldor bo'lib qolishi oqibatida qotillik jinoyatlarini o'tavahshiylik bilan sodir etadi.

Ichkilikbozlik bilan bog'liq jinoyatlarning ko'pincha murakkab motivatsiya bilan, shafqatsizlik va g'arazli maqsadlarda sodir etilishi nizo va ziddiyatlarga sabab bo'libgina qolmasdan uning oqibatida zo'ravonlik jinoyatlarining sodir etilishi bilan bog'liq salbiy holatlar hozirgi kunda ortib bormoqda.

Narkotik moddalarni iste'mol etish usullari turlicha, masalan chekish, ichish yoki igna orqali (inyeksiya) tomiriga yuborish, burun orqali hidlash va hokazo. Giyohvandlikka muhtalo bo'lgan shaxslarni davolash *birinchidan*, katta mablag'ni talab etsa, *ikkinchidan* qiyin davolanadi, *uchinchidan*, shaxsning irodasi bilan bog'liqligidir. Narkotik moddalarni iste'mol qiluvchi shaxs ishlash qobiliyatini yo'qotadi, oila qurolmaydi, oila qursa ham farzandlari nogiron tug'iladi, ijtimoiy jihatdan foydali ishlarni bajarolmaydi. Shaxsning psixikasida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'ladi: (shaxs o'z harakatlarini anglash qobiliyatini yo'qotadi, pul topib narkotik moddalarni sotib olishga ehtiyoji ortadi) va natijada u jinoyat sodir etadi, ayrim hollarda qotillikka qo'luradi. Har bir giyohvand boshqa shaxslarni bu ishga jalb qilishga o'z hissasini qo'shadi. Bu illatga qarshi kurash olib borish uchun birinchi navbatda narkotik moddalarni iste'mol qilish motivlarini aniqlab olish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Taassufki, narkotik moddalarni iste'mol qiluvchilarning deyarli 80 foizini voyaga yetmagan yoshlar tashkil qiladi.

Narkotik moddalarni muntazam ravishda iste'mol qiluvchi shaxslarning kasalligini uch bosqichga bo'lishimiz mumkin:

1-bosqich – moslashish (bu bosqichda organizmning reaktiv holati o'zgaradi, psixik bog'lanish paydo bo'ladi);

2-bosqich – fizik bog'lanish paydo bo'ladi;

3-bosqich – organizm butunlay ishdan chiqadi.

Surunkali ichkilikbozlik, giyohvandlik va zaharvandlikka olib keluvchi shaxsiy omillardan tashqari *ijtimoiy omillar* ham mavjud. Bularga *birinchidan*, mamlakatimizda erkin bozor munosabatlariga o'tilishi, ish o'rinlariga bo'lgan raqobatning kuchayishi natijasida aholi ko'pchilik

qismining ishsizligi darajasining oshib ketish, *ikkinchidan*, narkobiznes orqali daromad orttirishga moslashgan uyushgan jinoiy guruhlarning bu holdan foydalanishga intilishi, ya'ni bekor qolgan aholini giyohvandlikka o'rgatish, buning orqasida o'zining giyohvandlik vositalarini o'tkazish va katta daromad orttirishga intilishidir, chunki ular giyohvandlikka qancha ko'p odamlar muhtalot bo'lsa, shuncha ko'p foyda oladilar.

Giyohvandlik, surunkali ichkilikbozlik va zaharvandlikni oldini olish faoliyatini tashkil etishda mavjud shaxsiy va ijtimoiy omillarni inobatga olgan holda profilaktik usullarni qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi.

Aholi ayniqsa, yoshlar orasida giyohvandlik vositalarini iste'mol qilish holatining o'sishi nafaqat aholi sog'lig'iga salbiy ta'sir ko'rsatadi, balki katta miqdorda ijtimoiy va iqtisodiy yo'qotishlarga ham sabab bo'ladi.

Tadqiqotlarga ko'ra, maktab yoshidagi shaxslar giyohvandlik vositalarini qiziqish oqibatida iste'mol qilib ko'radi. *14–16 yoshlilar* tomonidan giyohvandlik vositalarini iste'mol qilishning birdan-bir sababi uning do'stlari davrasidan ajralib qolishni xohlamasligi hisoblanadi. Mazkur omil ko'rsatkichi *17–18 yoshlilar* orasida *2 marotaba* ahamiyatini yo'qotsa, *20–30 yoshlilar* orasida bu holat kuzatilmaydi. Ular tomonidan giyohvandlik vositalari lazzatlanish, hordiq chiqarish maqsadlarida iste'mol qilinadi. O'tkazilgan tadqiqotlarda xavf-xatar guruhiga kiruvchi yoshlar qatorida qizlar ham borligi bayon qilingan.

Ma'lumki, o'smir yoshdagi shaxslarda ota-onalari yoki boshqa katta yoshdagilardan mustaqil bo'lish, ba'zan og'ir oqibatlarga olib kelishi mumkin bo'lgan xatti-harakatlarni sodir etishga intilish kabi xulq-atvor mavjud bo'ladi. Ko'pincha, bunday sharoitda o'zini nochor ahvolda his qilgan yoshlar uchun giyohvandlik vositalari, tamaki yoki alkogol mahsulotlari vaziyatdan chiqishda muhim vositalardan biri sifatida xizmat qiladi. Bunda u o'zini xuddi katta bo'lib qolganidek his etadi.

Ta'kidlash joizki, voyaga yetmaganlar tomonidan giyohvandlik yoki zaharvandlik moddalari yoki spirtli ichimlik iste'mol qilinishi, ularning jismoniy va ruhiy sog'lig'ining yomonlashuviga, ma'naviy va axloqiy sifatlarining tanazzulga yuz tutishiga olib keladi.

Voyaga yetmaganlarning spirtli ichimlik iste'mol qilishi jamiyatda o'rnatilgan axloq-odob normalari va qonunlarga befarqlik, ya'ni hurmatsizlikni shakllantiribgina qolmay, balki ularning jamiyatga zid *g'ayri-ijtimoiy salbiy* xatti-harakatlar sodir etishiga olib keladi.

Avvalambor, giyohvandlik vositalari yoshlar uchun yanada oson yetishish mumkin bo'lgan narsaga aylangani xavotirga solmoqda, bunday holat davlatning milliy xavfsizligi uchun o'ta xavflidir. Giyohvandlikni butun

dunyoda tarqalishining miqyosi va tezlik darajasi shunchalik kuchliki, ular yoshlarning jismoniy va axloqiy salomatligi va yosh avlod katta qismining kelajagiga, jamiyatimizning ijtimoiy barqarorligiga putur yetkazmoqda.

Surunkali ichkilikbozlik, giyohvandlik va zaharvandlik shaxslarning psixikasiga juda katta salbiy taʼsir koʻrsatadi. U insondagi mehnat qilish qobiliyatini yoʻqotadi, sogʻligiga putur yetkazadi va eng yomoni uni jamiyatga zid xatti-harakatlarni sodir etishga undaydi, ayrim hollarda esa jinoyatlar sodir etilishiga olib keladi. Qotilligi uchun jazoga hukm qilingan (500 nafar) shaxslarni oʻrganish quyidagilarni koʻrsatdi. Ularning taxminan yarmi spirtli ichimliklarni yoshligidan isteʼmol qila boshlaganlar. Alkogol tajovuzkorlikning namoyon boʻlishini bir necha baravar kuchaytirgan va ogʻirlashtirgan¹.

Surunkali ichkilikbozlik, giyohvandlik va zaharvandlik nima degan savolga bu xavfli kasallik boʻlib, xatarli ijtimoiy-psixologik hodisa deb koʻrsatish mumkin.

3-§. Profilaktika inspektorlarining ichkilikbozlik va giyohvandlik hamda zaharvandlikning oldini olishda psixologik bilimlardan foydalanishi

Maʼlumki, jamiyat hayotida yuz berayotgan oʻzgarishlar ichki ishlar organlarini ham isloh qilishni taqozo etadi. Shu bois, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2004 yil iyul oyida «Oʻzbekiston Respublikasi ichki ishlar idoralari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida»ni Farmoni qabul qilindi.

Ushbu Farmon ichki ishlar organlarida tubdan oʻzgartirish, xizmatni qaytadan tashkil qilish, ayniqsa ichki ishlar organlariga axloqiy-maʼnaviy jihatdan pok, oʻz kasbiy burchiga sadoqatli, jasur, jinoyatchilikning har qanday koʻinishlariga nisbatan murosasiz, jismonan sogʻlom va baquvvat, irodali, imonli, halol, pok, adolatli, oʻz kasbini puxta egallagan «Oʻzbekiston Respublikasi ichki ishlar idoralari xodimining qasamyodi»ga sodiq boʻlgan insonlarni qabul qilish, ularni shu ruhda tarbiyalash vazifasini yukladi. Yuksak maʼnaviy–axloqiy fazilatlariga ega boʻlgan barkamol inson–ichki ishlar idoralari xodimlarini shakllantirish davr talabiga aylandi².

Profilaktika inspektorlari surunkali ichkilikbozlik, giyohvandlik va zaharvandlikka qarshi kurashish hamda sogʻlom hayot tarzi qoidalarini

¹ Qarang: Душанов Р. Х. Жиноятчи шахс психологияси: Ўқув қўлланма. – Т., 2011. – Б. 72.

² Qarang: Мухаммадиев Н.Э. Ички ишлар идоралари ходимларининг касб этикаси ва эстетик маданияти: Дарслик. – Т., 2014. – Б. 300.

tashviqot-targ'ibot qilish borasida hamkorlikda keng ko'lamda ishlar olib borishi va turli nizolar vaqtida o'zida o'zini boshqarish ko'nikmalarini shakllantirishi lozim bo'ladi

Hozirda O'zbekistonda «Narkotiklarni suiiste'mol qilinishiga va 2011-2015-yillarda ular bilan qonunga xilof ravishda muomala qilinishiga qarshi kurashning kompleks choralari Dasturi» amal qilmoqda. Mazkur dastur, ayniqsa yoshlar orasida o'zining ijobiy natijalarini bermoqda.

Aholi, ayniqsa, yoshlar orasida giyohvandlik vositalari va alkogol mahsulotlarini iste'mol qilinishini oldini olish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish lozim:

birinchidan, oilada tarbiyalanayotgan voyaga yetmaganlarni milliy qadriyatlarimiz va urf-odatlarimiz ruhida tarbiyalash;

ikkinchidan, farzand tarbiyasi bilan shug'ullanmaydigan ota-onalar va ularning o'zini bosuvchi shaxslar bilan yakka tartibdagi tarbiyaviy ta'sirga ega bo'lgan profilaktik ishlarni kuchaytish;

uchinchidan, nosog'lom turmush tarzida hayot kechiruvchi oilalar, tarbiyasi og'ir o'smirlar bilan mahallada, ichki ishlar bo'limlarida doimiy ravishda tarbiyaviy, ma'naviy-huquqiy ishlarni olib borish, ular tomonidan sodir etilishi mumkin bo'lgan huquqbuzarliklarni oldini olish va muntazam nazorat qilib borish;

to'rtinchidan, nosog'lom oilada tarbiyalanayotgan voyaga yetmaganlarga moddiy-ma'naviy va ruhiy jixatdan yordam ko'rsatish;

beshinchidan, profilaktik ro'yxatga olingan, tarbiyasi og'ir voyaga yetmaganlar bilan tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan ishlarni amalga oshirishda ta'lim muassasalarining rolini oshirish;

oltinchidan, voyaga yetmaganlarni g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarga jalb qiluvchi shaxslar va guruhlarni aniqlash, ular bilan operativ profilaktik ishlar olib borish;

yettinchidan, farzandlar tarbiyasi ota-ona yoki ularning o'zini bosuvchi shaxslarning mas'uliyatini oshirish maqsadida, ularning bu sohada qonun va boshqa normativ hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarmaganligi uchun javobgarligini kuchaytirish hamda uni ta'minlash mexanizmini ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biridir.

Zero, Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek, «Sog'lom avlodni tarbiyalash barchaning, butun jamiyatning, shu yurtda yashaydigan har bir insonning asosiy ishi, insoniy burchidir»¹.

¹ Qarang: *Каримов И.А. Соғлом авлодни тарбияси барчамизнинг муқаддас инсоний бурчимиз // Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт пировард мақсадимиз* Т.8. – Т., 2000. – Б. 428.

Профилактика инспекторларини тайёрлашда унинг касбий таййоргарлиги, касбий маданиятига алоҳида е‘тибор қаратиш лозим. Касбий маданиятнинг уқори даражаси, реал ҳайотда касб бо_йича учрайдиган муаммоларни тезкорлик билан ҳал қилишда, я‘ни шахснинг ривожланган касбий онги ва фикрлашда намойон бо_лади. F.Иsayevанинг фикрича, касбий маданият деғанда, малякали гуруҳ а‘золари томонидан махsus касбий муаммоларни ҳал етиш усул ва чораларини еғаллашнинг ма‘лум бир даражаси тушунилди. Бизнинг фикримизча еса, касбий маданият деғанда касб доирасидаги яғона, тизимли билимларни еғаллаши, мутаxassis сифатидаги умумий маданият даражаси, касб еғаси сифатидаги о_йлаш услуби тушунилди¹.

Ағар жамиятдаги асл қадриятлар, халқнинг асллар давомида rioya қилиб келайотган урф-одатлари ва амалдаги қонунчиликка итоат етилмаса, «жамият маданиятсиз, ма‘навий-ахлоқий қадриятларсиз яшай олмайдди. Уларни писанд қилмаган жамият пировард-натияда таназзулга yuz tutadi»² ҳамда ахлоқсизлар жамиятига айланиб қолади. Бунда профилактика инспекторлари фуқароларнинг о_зини о_зи бoшқариш органлари оила, мактаб, маҳалла билан доимий о_заро ҳамкорликда ишлашлари лозим.

Оиладаги муҳитни yaxshilash, оилавий тарбияга е‘тиборни кучайтириш, аyniqsa болаларни уриш ва қо_ритиш асосида тарбиялаш усullарини жамиятдан сиқиб чиқариш керак. Қо_рquv одамни тарбия қилмайдди, аксинча, бир қанча ахлоқсизликларни келтириб чиқаради. Оилада о_заро ишонч, ҳурмат ва руҳини шакллантириш керак, chunki бу руҳ ахлоқсизликларнинг илдизига болта уради, жамиятнинг ривожланшига, фарзандларимизнинг оқил бо_либ yetishlariga замин yaratib беради.

Профилактика инспектори гийохвандлик, surunkali ichkilikbozlik va zaharvandlik illatlariga muhtalo bo_lgan bemorlarni aniqlashda quyidagi ishlarni amalga oshiradi:

- jamoat joylarda bir necha marta spirtli ichimliklar iste‘mol etgan va ma‘muriy javobgarlikka tortilgan shaxslarni aniqlash;
- giyohvandlik, zaharvandlik moddalarini iste‘mol etib, jamiyatda va oilada turli ko_inishdagi huquqbuzarliklar sodir etganlarni aniqlash;
- ixtiyoriy davolanishdan bosh tortgan bemorlarni aniqlash.

Турли jinoyatlarning oldini olishda bevosita profilaktika inspektor-

¹ Qarang: *Бородавка, Л. Т. Проблемы формирования коммуникативной культуры курсантов, слушателей и студентов: теоретический аспект: научно-практическое пособие.* – Белгород, – 2009. – С. 56.

² Qarang: *Каримов И.А. Соғлом авлодни тарбияси барчамизнинг муқаддас инсоний бурчимиз. //Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт пировард мақсадимиз.* Т.8. – Т., 2000 – Б. 428.

larining burchlari va vazifalari kattadir. Hududda xizmat ko'rsatadigan profilaktika inspektori yuqoridagi illatlar va uning salbiy oqibatlarini oldini olishda umumiy va yakka tartibdagi profilaktika ishlarini olib borishi va uning sifatiga katta e'tibor qaratishi lozim.

Eng achinarlisi, shaxs ma'naviyati tiklab bo'lmaz darajada buziladi. Giyohvandlik jamiyat hayotiga to'g'ridan-to'g'ri xavf soladi va kriminogen vaziyatlarning yuzaga kelishini kuchaytiradi.

Surunkali ichkilikbozlik, giyohvandlik va zaharvandlikning oldini olishda *umumiy profilaktika* ham alohida o'rin egallaydi. Bu jarayonda aholi o'rtasida ushbu xavfli illatlarning salbiy oqibatlari haqidagi uchrashuvlar o'tkazish, ma'ruzalar o'qish bilan birga keng *targ'ibot-tashviqot* ishlarini tashkil etish samaralidir. Umumiy profilaktikada - fuqarolar bilan targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borishi, uning salbiy oqibatlarini tasvirlovchi lavhalar, plakatlar, kinofilmlar namoyish etish, ommaviy axborot vositalarida chiqishlar orqali profilaktik chora-tadbirlarni olib borishi mumkin. Umumiy profilaktika, o'z navbatida profilaktika inspektorlarining bu illatlarning oldini olish maqsadida mahallada istiqomat qiluvchi barcha fuqarolarga bir xil chora-tadbirlarni qo'llash va ularga kerakli darajadagi ta'sirini o'tkazishda qo'll keladi.

Shuningdek, profilaktika inspektorlari, ushbu illatga yo'liqqan shaxslarni normal turmush tarziga qaytarish choralarini ko'rish bilan birga, spirtli ichimliklar va giyohvandlik vositalarini noqonuniy savdosi bilan shugullanuvchi shaxslarga nisbatan ta'sir choralarini qo'llash orqali ham amalga oshiradi. Profilaktika inspektori giyohvand-moddalarni yoki shifokor tayinlamagan holda psixotrop-moddalarni iste'mol qiluvchi, bu kabi vositalarni tayyorlovchi, qayta ishlovchi, tarkibida giyohvand saqlovchi o'simliklarni yetishtiruvchi, noqonuniy sotib oluvchi, saqlovchi, tashuvchi, iste'mol qilish uchun bangixona tashkil etuvchi shaxslar haqida ma'lumotlarni aniqlaydi.

Profilaktika inspektori yakka tartibdagi profilaktika ishlarini olib borishda giyohvandlik vositalarni iste'mol qiluvchi shaxslar bilan ularning quyidagi belgilarini bilishlari kerak:

Fiziologik belgilari:

- terining oqarishi;
- ko'z qorachig'ining torayishi yoki kengayishi, ko'zning qizarishi yoki xiralashishi;
- nutqning buzilishi, ya'ni sekin gapirish va nutqdagi chalkashliklar;
- ozib ketish, ishtahaning yo'qolishi yoki me'yoridan ko'p ovqatlanish;
- surunkali yo'tal;
- harakat koordinatsiyalarining yomonlashuvi.

Xulq-atvoridagi belgilari:

- sababsiz tez jahli chiqishi, bo‘shanglik;
- ishlash qobiliyatining faollashuvi;
- diqqat va xotiraning pasayishi, narsalarga qiziqishning yo‘qolishi;
- tushunarsiz sabablarga ko‘ra maktabga bormaslik, uydan ketib qolish;
- ma‘lum narsalarga nisbatan fikrni jamlashda qiyinchilik;
- uyqusizlik;
- kayfiyatning tez-tez o‘zgarib turishi va bildirilgan tanqidlarni noto‘g‘ri qabul qilish;
- charchoqni juda tez his qilishi;
- o‘ziga yaqin odamlar bilan munosabatga kirishishdan qochish;
- maktabdagi davomatning pasayib ketishi;
- doimiy ravishda pul so‘rashi;
- uydagi qimmatbaho kitoblar, kiyim-kechak, audio va video texnikalarni yashirin ravishda sotish;
- tez-tez telefonlar bo‘lishi;
- yolg‘on va uydirma gaplarni so‘zlashi;
- hozirjavoblikdan qochish, bo‘lmagan narsalarni gapirishga moyillik;
- asosiy vaqtni asotsial guruhdagi odamlar bilan o‘tkazish.

Oshkora belgilari:

- tanadagi ninaning belgilari, kesiklar va ko‘karishlar;
- pul va qog‘oz buyumlarining trubka shaklidagi holati;
- plastik kartalarning yon qismidagi oq dog‘larning mavjudligi;
- kichik qoshiqlarning tashqi tomonida qora dog‘larning mavjudligi;
- kapsulalar, kichik butilkachalar va temir bankalar, uyqu yoki tinchlantiruvchi dorilarning mavjudligi.

Giyohvandlik, surunkali ichkilikbozlik va zaharvandlikning maxsus profilaktikasida birinchi navbatda ushbu modda va vositalarga muhtalo bo‘lgan shaxslarni aniqlash va ularni nazoratga olib maxsus tartibdagi profilaktik ishlarni tashkil etishi lozim.

Profilaktika inspektori o‘ziga biriktirilgan ma‘muriy hududda IIV va hududiy ichki ishlar organining normativ-huquqiy hujjatlari asosida –“Qoradori”, –“Tozalash-Antiterror” va boshqa maxsus va tezkor tadbirlar doirasida bu turdagi huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshiradi.

Sog‘liqni saqlash idoralari tomonidan toifalarga ajratilgan holda shahar (tuman) ichki ishlar organi HOO xizmatiga taqdim etilgan ro‘yxat asosida alkogolni suiiste‘mol qiluvchi yoki giyohvandlik vositalarini, psixotrop-

moddalarni va aql-iroda faoliyatiga taʼsir etuvchi boshqa moddalarni isteʼmol qiluvchi shaxslar oʻrtasida huquqbuzarliklarning maxsus profilaktikasi chora-tadbirlari manzilli, har bir shaxsning ijtimoiy xavflilik holatini, u sodir etgan huquqbuzarlik turini hisobga olgan holda samarali amalga oshiriladi.

Giyohvandlik, surunkali ichkilikbozlik va zaharvandlikning viktimologik profilaktikasida birinchi navbatda ushbu modda va vositalarga muhtal boʻlgan shaxslarni aniqlash va ularni nazoratga olgan holda **viktimologik profilaktika** ishlarini tashkil etish lozim.

Huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasi chora tadbirlarini umumiy va yakka tartibda amalga oshiradi.

Profilaktika inspektori surunkali ichkilikbozlik, giyohvandlik va zaharvandlikdan jabrlanuvchilar hamda shu kabi huquqbuzarliklar sodir etishga moyil boʻlgan, uni sodir etgan shaxslarga nisbatan ijtimoiy reabilitatsiya qilish va ijtimoiy moslashtirish chora-tadbirlarida ishtirok etadi.

Profilaktika (katta) inspektori surunkali ichkilikbozlik, giyohvandlik va zaharvandlikdan jabrlanganlarni, bunday huquqbuzarliklar sodir etishga moyil boʻlgan, uni sodir etgan shaxslarni ijtimoiy reabilitatsiya qilish va moslashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishda ularga nisbatan pedagogik, psixologik, tibbiy, ijtimoiy (*ish, oʻqish, yashash joyi bilan taʼminlanishi, oilasi va yashash joyidagi mahalla ahli bilan kirishib ketishi kabilarda*), huquqiy yordam koʻrsatish haqida profilaktika ishida ishtirok etuvchi boshqa tegishli organ va muassasalarga takliflar kiritadi.

Tabiiyki, mazkur ijtimoiy illatlarga qarshi kurashda davlat tomonidan amalga oshiriladigan profilaktika choralarining ahamiyatini kamaytirmaslik kerak. Bular jumlasiga, avvalambor, surunkali ichkilikbozlik, giyohvandlik, va zaharvandlikning viktimologik profilaktikasida ushbu illatlarning tarqalishiga mafkuraviy qarshilik koʻrsatish, jamoatchilik fikrini shakllantirish, bilan birgalikda ushbu illatlarga chalingan shaxslarning shaxsiy xususiyatlarini, nima uchun aynan ular giyohvandlik, surunkali ichkilikbozlik va zaharvandlikka moyil ekanligini aniqlash kabi tadbirlar kiradi.

Bunday kasalliklarga chalingan shaxslarni tiplarga ajratib oʻrganish yaxshi natija beradi. Jinoiy tiplar, ayniqsa, alkogol, narkotik moddalar, zaharvandlik vositalaridan mast hollarda oʻzlarini namoyon etadilar. Ularning ijtimoiy xavfli xulqiga xos holat ularda gʻayriijtimoiy xatti-harakat koʻrinishlarining shakllanganligi, yaʼni oʻzini oʻzi nazorat qilish darajasining pastligidir¹.

Giyohvandlik, surunkali ichkilikbozlik va zaharvandlikning viktimologik profilaktikasini amalga oshirishda profilaktika inspektori ularning

¹ Душанов Р. Х. Жиноятчи шахс психологияси: Ўқув қўлланма. – Т., 2011. – Б. 72.

tiplarini o'rganib, ushbu illatlar qurboni bo'lishining oldini olish ishlarini avvalo oiladan boshlashi kerak. Bunda, ya'ni giyohvandlik, surunkali ichkilikbozlik va zaharvandlikning viktimologik profilaktikasini amalga oshirishda profilaktika inspektoriga "Oila-maktab-mahalla hamkorligi" konsepsiyasi yaqindan yordam beradi. Profilaktika inspektori giyohvandlik, surunkali ichkilikbozlik va zaharvandlikka moyil shaxslarning oilalarini, ushbu oilalar a'zolarining moyillik darajasini o'rganib chiqib, oldini olish chora-tadbirlarini ishlab chiqadi va uni maktab, mahalla bilan hamkorlikda amalga oshiradi. Profilaktika inspektori ma'muriy hududda maxsus va viktimologik tadbirlarni tashkil etish jarayonida boshqa xizmatlar bilan hamkorlikdagi ishlarni tashkil etadi. Shuningdek u fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, yarashtirish komissiyalari, mahalla posbonlari jamoat tuzilmalari, diniy-ma'rifat va axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha maslahatchilar, "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati, ta'lim muassasalari, fuqarolar bilan hududdagi turli salbiy illatlar, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar, voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasini, shuningdek jinoyatlarning oldini olish ishlarida hamkorlik o'rnatadi.

Profilaktika inspektori qonunda berilgan vakolatlar doirasida g'ayri-ijtimoiy xulq-atvorga ega, ichkilikbozlikka ruju qo'ygan, giyohvand yoki zaharvand shaxslarni aniqlash, profilaktik ta'sir ko'rsatish orqali ularning xulq-atvorini, axloqini tuzatish, fuqarolarni ogohlikka chaqirish, xavfsizligini ta'minlash, undan jabrlangan shaxslarni ijtimoiy rehabilitatsiya qilish va ijtimoiy moslashtirilishida ko'maklashish maqsadida keng jamoatchilik, shu jumladan fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlik qilishi muhimdir.

Fuqarolik jamiyati institutlari bilan quyidagi vazifalarni amalga oshirishda hamkorlik qilinadi:

- shaxsning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilinishini ta'minlash;

- jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish, qonuniylikni mustahkamlash;

- ichkilikbozlikka ruju qo'ygan, giyohvandlik yoki zaharvandlik sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, o'rganish, bartaraf etish chora-tadbirlarini ko'rish;

- ichkilikbozlik, giyohvandlik yoki zaharvandlikdan jabrlanuvchilarni, huquqbuzarliklar sodir etishga moyil bo'lgan, uni sodir etgan, shu jumladan ilgari sudlangan va ozodlikdan mahrum etish joylaridan bo'shatilgan shaxslarni ijtimoiy rehabilitatsiya qilish va ijtimoiy moslashtirish;

- jismoniy shaxslarning huquqbuzarlikdan jabrlanuvchiga aylanishi xavfini kamaytirish va boshqalar.

Profilaktika inspektori ichkilikbozlik, giyohvandlik va zaharvandlikka ruju qo_ygan shaxslar bilan tanishuv va profilaktik suhbatda psixologik bilimlarni qo_llashning o_ziga xos xususiyatlari mavjud bo_lib, ularni doimiy ravishda shakllantirib borish zarur bo_ladi.

Profilaktika inspektori surunkali alkogolizm, giyohvandlik yoki zaharvandlikka chalingan shaxslar bilan ishlash paytida shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya qilishi, o_z hayoti va sog_ligiga mas'ul ekanligini unutmasligi, xavfsizlik choralarini ta'minlab qo_yishi lozim, sababi ushbu shaxslar ayniqsa, giyohvand shaxslarning tajovuzkor bo_lishini hech qachon esdan chiqarmasligi kerak. Giyohvand shaxslarga umuman ishonmaslik, ular narkotik modda uchun hamma narsaga tayyorligini unutmaslik lozim. Profilaktika inspektori aktyorlik qobiliyatini rivojlantirish kerak bo_ladi. Ular bilan ish olib borishda profilaktika inspektori pedagogik-psixologik bilimlar bilan birga odam anatomiyasi, inson tanasining fiziologik jihatlari, umumiy biologiya, ximiya fanlaridan bilimlarini mustahkamlashi zarur.

Ichkilikboz, giyohvand va zaharvand shaxslar bilan ishlashda profilaktika inspektori ularning munosabat doiralariga alohida e'tibor berishi, ularni o_z vaqtida davolanib kelishiga sharoit yaratishi, sog_lom turmush tarziga qaytarish kerak. Ularning ishonchiga kirishda profilaktika inspektori o_zining odilligini isbotlashi, qonun oldida hammaning tengligini amalda ko_rsatisi lozim.

Profilaktika inspektori, O_zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov aytganlaridek, jamoat tartibini ta'minlash, odamlarning hushyorligi va yon-atrofdagi ro_yberayotgan voqealarga ongli munosabatini oshirish uchun o_z ishlarini faollashtirishi, «O_z uyimizni o_zimiz asraylik» degan da'vatni amalda joriy etishishiga ko_maklashishi kerak.

Ma'lumki, giyohvand asosan, giyohvandlik vositalarini iste'mol qilish va ularning g_ayriqonuniy muomalasi bilan bog_liq jinoyatlarni, shuningdek, bunday vositalarni sotib olish uchun mulkka qarshi jinoyatlarni sodir etadi. Olib borilgan maxsus tadqiqotlar natijasi giyohvandlarning ko_pchiligi 30 yoshga to_lmaganini, ularning giyohvandlik vositalarini asosan 15-25 yoshidan boshlab iste'mol qila boshlashganini ko_rsatdi.

Profilaktika inspektori sog_liqni saqlash muassasalari xodimlari bilan hamkorlikda alkogolizm, giyohvandlik, zaharvandlikka, chalingan shaxslarni aniqlash, ularni hisobga olish, shuningdek, ijtimoiy reabilitatsiya qilish va ijtimoiy moslashtirishni amalga oshirish bilan bir qatorda ma'muriy hududda maxsus va viktimologik tadbirlarni amalga oshiradi va boshqa xizmatlar bilan hamkorlikdagi ishlarni yuqori saviyada tashkil etadilar. Xususan, ma'muriy hududdagi ta'limni boshqarish organlari va ta'lim

muassasalaridan huquqbuzarlik faktlari, voyaga yetmagan shaxsning g_ayriijtimoiy xatti-harakat va huquqbuzarliklar sodir etishga jalb etilganligi, huquqbuzarlik sodir etishga moyil bo_lgan bunday shaxslar haqidagi ma'lumotlarni talab qilib oladi.

Profilaktika (katta) inspektori ro_yxatga olingan, shuningdek rasmiy ogohlantirilgan surunkali alkogolizm, giyohvandlik yoki zaharvandlikka chalingan shaxslarni uning yaqin qarindoshlarining arizasi yoki fuqarolar yig_inini murojaati hamda ushbu kasallikka chalinganlik haqida tibbiy xulosaga asosan O_zbekiston Respublikasining 1992 yil 9 dekabrda gi –Surunkali alkogolizm, giyohvandlik yoki zaharvandlikka muftalo bo_lgan bemorlarni majburiy davolash to_g_risida”gi qonunda va boshqa qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hujjatlarni rasmiylashtiradi va to_plangan hujjatlarni shaxsni *majburiy davolashga yuborish* masalasini hal qilish uchun sudga taqdim etadi.

Surunkali ichkilikbozlik, giyohvandlik va zaharvandlikka muftalo bo_lgan shaxslarni majburiy davolashga yuborish bo_yicha profilaktika inspektorining tibbiy muassasalar bilan o_zaro hamkorligini tashkillashtirish bo_yicha quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

- bu kasalliklarga duchor bo_lgan bemorlar boshqa fuqarolarning huquqlariga xavf solganda majburiy davolash muassasasiga olib kelinishi;
- aniqlangan bemorlar bilan profilaktik suhbatlar o_tkazilishi;
- bemorning oila a_zolari, qarindoshlari bilan tushuntirish ishlari olib borish;
- ichkilikbozlik, giyohvandlik va zaharvandlikning salbiy oqibatlari haqida fuqarolar o_rtasida targ_ibot-tashviqot, umumiy profilaktika ishlarini olib borish.

Savol va topshiriqlar

1. Alkogolizm, giyohvandlik va zaharvandlik bilan bog_liq jinoyatlarning turlari va o_ziga xos psixologik jihatlarini bayon eting.
2. Alkogolizm, giyohvandlik va zaharvandlik bilan bog_liq jinoyatlarning umumiy kriminologik tavsifini bering.
3. Alkogolizm, giyohvandlik va zaharvandlik bilan bog_liq jinoyatlarni sodir etuvchi jinoyatchilar shaxsini tavsiflang.
4. Alkogolizm, giyohvandlik va zaharvandlikka chalingan shaxsga xos psixologik jihatlarini tavsiflang va giyohvand shaxsining boshqa shaxslardan farqini ko_rsating.
5. Alkogolizm, giyohvandlik va zaharvandlik bilan bog_liq jinoyatlarning sabablarini sanab o_ting va tavsiflang.

6. Alkogolizm, giyohvandlik va zaharvandlik bilan bog_{liq} jinoyatchilikning umumiy holatiga ta'sir etuvchi salbiy omillarni sanab o_{ting}.

7. Alkogolizm, giyohvandlik va zaharvandlik bilan bog_{liq} jinoyatchilikning oldini olishda ishlar organlarining profilaktik faoliyatining qaysi turlari ko_{proq} samara beradi?

8. Alkogolizm, giyohvandlik va zaharvandlik bilan bog_{liq} jinoyatchilikning kelib chiqishi psixologik omillarini sanab o_{ting}?

9. Alkogolizm, giyohvandlik va zaharvandlik bilan kasallangan shaxslarni sog_{bm} turmush tarziga qaytarishda profilaktika inspektori birinchi navbatda kimlar bilan hamkorlik qilishi lozim?

10. Alkogolizm, giyohvandlik va zaharvandlik bilan kasallangan shaxslarni sog_{bm} turmush tarziga qaytarishda profilaktika inspektori qanday psixologik omillarga tayanadi?

IX bob. NOTINCH OILALAR BILAN PROFILAKTIK FAOLIYAT OLIB BORISHNING PSIXOLOGIK JIHLARI

1-§. Notinch oilalarda sodir etiladigan jinoyatlarning oldini olishda psixologik bilimlarning ahamiyati

Shaxsning ma'naviy shakllanishida oilaning ahamiyati shundaki, inson shaxsining poydevori aynan oilada quriladi. Inson o'zini o'rnatgan dunyo haqidagi dastlabki bilimni, yaxshi va yomon, axloq normalari haqidagi ilk tasavvurni, tarbiyaviy saboqni aynan oiladan oladi. Ma'lumki, ma'naviy sog'lom oila tinchlik va osoyishtalik bo'ladi. Agar oilada muhit yomon bo'lsa, doimiy ravishda notinchlik yoki nizoli vaziyatlar yuzaga kelishi mumkin.

Bunday oilalarda ota-ona bilan farzandlar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarning yaxshi emasligi ko'p hollarda nizo va janjallarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Buning natijasida shaxsda agressiv xulq-atvor shakllanishi mumkin. Bu oiladagi salbiy muhit ta'siridir. Shunday vaziyatlarda bunday shaxslarning individual-psixologik xususiyatlarini o'rganish, ular tarbiyasiga umumiy va yakka tartibda yondashish orqali oilada vujudga kelgan nizoli holatlarning yechimini topish kerak bo'ladi.

Psixologlarning fikricha, oilaning farzandlar tarbiyasidagi o'rni muhim ahamiyat kasb etadi. Bu muammoga bag'ishlangan ilmiy izlanishlarda asosan, oilaviy nizolar, qadriyatlar va urf-odatlar doirasida o'rganilgan. Bu borada olib borilgan ilmiy izlanishlarda er-xotin o'rtasidagi mojarollar, ularning kelib chiqish sabab va shart sharoitlari, klassifikatsiyasi, motivlari, ijtimoiy-psixologik xususiyatlari, bunday holatning shaxsning psixik holatiga ta'siri etish masalalari atroflicha tadqiq qilinmagan. Shunday omillar mavjudki, oilalardagi nizolarning tabiati va psixologik jihatlari jiddiy o'rganishni taqozo etadi. Tashvishlanarli tomoni shundaki, oila-turmush doirasida 23,8 foiz holatda shaxsga qarshi jinoyatlar sodir etilgan.

2014-yil davomida oila-turmush doirasida sodir etilgan jami jinoyatlarning 13,7 foizini qotillik, 18,3 foizi qasddan og'irlikda shikast yetkazish, 17,8 foizi qasddan badanga o'rnatilgan shikast yetkazish, 49,8 foizi qasddan og'ir tan jarohati yetkazish jinoyati tashkil etgan. Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, ushbu nizolarni sodir etilishini o'z vaqtida va ularni oldini olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Oilaviy nizolar muammosining o'rganilishi jarayonida asosan er-xotin (ota-ona) o'rtasidagi munosabatlarni nazarda tutish maqsadga muvofiq sanaladi. Chunki, oila muhiti muvozanatini er-xotin saqlab turadi. Mazkur

sohada sodir etilgan jinoyatlar tahlili shuni ko'rsatadiki, oilaviy nizolarning asosiy qismi er-xotin o'rtasidagi nizolarni tashkil etadi.

Jinoyat ishlari bo'yicha sud arxivida mavjud bo'lgan jinoyat ishi yigirma jildi materiallari o'rganilganda, shaxsning hayotiga qarshi jinoyatlarning 55,8 foizi qasddan odam o'ldirish; 18,6 foizini esa qasddan odam o'ldirishga suiqasd qilish jinoyatlari tashkil etgan. Mazkur qasddan odam o'ldirish jinoyatlarining 36,7 foizi badanga og'ir shikast yetkazish, 11,6 foizi qasddan badanga o'rtacha og'ir shikast yetkazish, 12,9 foizi qiynash, 17,8 foizi o'ldirish yoki zo'rluk ishlatish bilan qo'rqitish, 12,4 foizi o'zini o'zi o'ldirish darajasiga yetkazish, 8,6 foiz nomusga tegish bilan bog'liq holda sodir etilgan.

Achinarli tomoni shundaki, jinoyat sodir etgan bilan jinoyat qurboni o'rtasidagi arzimagan kichik bahonalar nizoga sabab bo'lgan. Psixologik nuqtai nazardan qaraganda, ushbu nizoli holatlar kelib chiqishining oldini olish uchun oilada a'zolari o'rtasidagi munosabatlar jarayonida ular bir-birini yaxshi tushunishi, sabrli va mulohazali bo'lishi, nostandart vaziyatlarda insonning qalbi va ko'nglini ko'taruvchi so'z va fikrlarni ifoda etish fazilatiga ega bo'lishi, sodir etilishi mumkin bo'lgan har qanday nizoning oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta'kidlash joizki, oila-turmush doirasidagi nizo va janjallar, ba'zan og'ir va o'ta og'ir jinoyatlar sodir etilishiga olib keladi. Zero, «Hech kim onadan jinoyatchi bo'lib tug'ilmaydi. Jinoyatchilik nomaqbul ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-axloqiy muhitdagina ildiz otishi mumkin»¹. Ushbu omillar oilada notinchlik muhitining shakllanishiga xizmat qiladi.

Notinch oila deganda, oilada ijobiy psixologik muhitning yo'qiligi, tez-tez kelishmovchiliklar, va nizoli (er-xotin, qaynona-kelin, aka-uka, opa-singil va boshqalar o'rtasida) bo'lib turishi tushunish lozim.

Notinch oilalardagi nizo va janjallarning sabab va sharoitlarini aniqlash, oilada shaxslarning individual-psixologik xususiyatlarini chuqur o'rganish orqali ularga ta'sir qilish usullarini talab etadi.

Mazkur muammoga bag'ishlangan ilmiy izlanishlar asosan har bir millatning mentaliteti, oilaviy qadriyatlar, urf-odatlar va marosimlar doirasida turli tadqiqotlarning predmeti bo'lib kelgan. Zero, oilada tarbiyalanayotgan farzandlarning qay darajada voyaga yetishi oiladagi ijtimoiy munosabatlarning xarakteriga bog'liq. Bu o'z navbatida, oiladagi shaxslar o'rtasida ijobiy yoki salbiy munosabatlar, nizolar hamda ularning oqibatlari to'g'risidagi tasavvurlarning shakllanishiga zamin bo'ladi.

¹ Qarang: *Каримов И.А.* Бунёдкорлик йўлидан. Т.4. –Т., 1996. – Б. 147.

Psixologik nuqtai nazardan qaraganda, o_sib-ulg_ayadigan farzandga birinchi hayotiy tarbiya, yaxshi hulq-atvor va fazilatlar, yuksak darajadagi ma'naviy va ma'rifiy bilimlar oilada beriladi. Agar notinch oilada tarbiyalanayotgan bola, yuqorida sanab o_tilgan barcha ijobiy fazilatlardan bahramand bo_ladi. Aksincha, unda agressiv hulq-atvor va salbiy fazilatlar namoyon bo_ladi. Zero, oila bolaga muayyan g_oyaviy-siyosiy qarashlar asoslarini singdiradi. Bola oilada axloq normalarini bilib oladi va ularni o_zlashtiradi, undagi dastlabki ko_nikmalar va hulq-atvor namunalari oilada shakllanadi hamda bolaning xarakterini, tabiati va dunyoqarashini belgilaydigan ma'naviy mezon va qarashlar, yaxshilik va ezgulik, olijanoblik va mehr-oqibat, or-nomus va andisha kabi muqaddas tushunchalarning poydevori oila sharoitida qaror topishi tabiiydir¹.

Notinch oiladagi nosog_lom ijtimoiy muhit nafaqat oilada tarbiyalanayotgan farzandlarning, balki oila a'zolarining axloqqa zid xatti-harakatlar sodir etishiga va ular o_tasidagi ijtimoiy munosabatlar jarayoniga ta'sir etadi. Statistik ma'lumotlarga qaraganda, qonunbuzarlik sodir qilgan voyaga yetmaganlarning 42-45 foizi ota-onasi ichkilikbozlikka berilgan, oilada muntazam ravishda janjal va nizolar kelib chiqadigan nosog_lom oilada yashaydi².

Shuningdek, bu sohada o_tkazilgan ayrim tadqiqotlarda qayd etilishi-cha, «Ota-onalar tomonidan zulm ko_rsatilgan bolalar va o_smirlar» dasturi asosida ishlayotgan bir guruh amerikalik psixiatrlar tomonidan 76 nafar zolim ota-onalar shaxsi o_rganilib chiqilganda ularning faqat 7 foizi ruhiy sog_lom bo_lib qolganlari, ya'ni 25 foizi ichkilikbozlar, 68 foizi esa jamiyatga zid turmush tarzi yurituvchi shaxslar ekanligi aniqlangan³. Hayot tajribasi va kuzatishlar shuni ko_rsatadiki, oiladagi nafaqat g_ayriijtimoiy salbiy oqibatlarning, balki har qanday jinoyatlarning sodir etilishida oiladagi muhitning ta'siri bo_ladi. Ayniqsa, ota-onaning salbiy ma'naviy axloqi oila muhiti va farzandlar tarbiyasiga ta'sir ko_rsatadi. Oiladagi bunday nosog_lom muhit jinoiy hatti-harakatlar sodir etilishini taqozo etadi. Masalan, fuqaro N. 2009-yil 9-sentabr kuni o_zining uyida o_g_liA. bilan o_zaro janjallashib, o_g_lining gap qaytarib, «menga aql o_rgatmang» deb ko_kragidan itarib, uning jahlini chiqarganida o_g_lini qo_rqitib qo_yish maqsadida, oshxona pichog_ini olib uning ko_krak qismiga urib

¹ Qarang: *Каримов И.А.* Юксак маънавият – енгилмас куч. –Т., 2008. – Б. 52.

² Qarang: *Исмаилов И.* Вояга етмаганлар жиноятчилигига қарши кураш чоралари ҳақида // Мустақил Ўзбекистон: фалсафа ва ҳуқуқ фанларининг долзарб муаммолари. –Т., 1994. – Б. 275.

³ Qarang: *Клевцова Н.А.* Убийства детей, совершаемые семье // Российский следователь. – №13. – 2009. – С. 16-17.

hayot uchun xavfli bo'lgan og'irtan jarohati yetkazgan¹. Bunday vaziyatda ota yoki ona farzandini baland ohangda gapirgani va kattaga nisbatan nosamimiy munosabatda bo'lgani uchun eng avvalo tanbeh emas, balki uni uyaltirishi kerak bo'ladi. Chunki, ba'zi hollarda o'smir yoshidagi voyaga yetmaganlarda jahlning tez chiqishi, o'zini idora qila olmaslik yoki boshqa salbiy odatlar kuzatiladi.

Bunday hollarda shaxsning xulq-atvoriga psixologik jihatdan ta'sir ko'rsatish orqali unda mavjud bo'lgan yoki sodir etishi mumkin bo'lgan huquqbuzarlikni oldini olish mumkin.

Bir qator psixologlarning ta'kidlashicha, oiladagi muhit, ota-ona va ota-ona bilan bola o'rtasidagi munosabat, oilaviy hamjihatlik yoki aksincha, kelisha olmaslik, opa-singillar, aka-ukalar bilan yaqinlik darajasi, farzandi tomonidan qilingan noto'g'ri yanglish xatti-harakatlarga nisbatan ota-onaning reaksiyasi – oilada shakllanishi mumkin bo'lgan ijobiy muhit yoki agressiv xatti-harakatlarning omillari hisoblanadi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, AQSHda har yili uch mingdan besh ming nafariga bolalar o'z ota-onalarining ularga nisbatan shafqatsiz munosabatlarining qurboni bo'lmoqda. Shu bilan bir qatorda, 16 foiz bolalar o'z aka-opalari tomonidan jismoniy jazo usuli: savalash, kaltaklash bilan jazolanmoqda. Aniqlanishicha, AQSHda o'gay ota-onalar bir yilda 400 marotaba jinoyat sodir etadilar. Ularning o'z farzandlari o'limiga sabab bo'layotgani achinarli holdir².

Mashhur psixolog Gettingning ta'kidlashicha, to'liq oilalarda ham, noto'liq oilalarda ham sog'lom yoki nosog'lom oilaviy muhit mavjud bo'ladi. Doimiy janjal, nizo, kelishmovchiliklar oilada notinchlikni vujudga keltiruvchi asosiy omildir. Notinch oila muhitida er-xotin o'rtasidagi ziddiyatli vaziyatlar ko'p hollarda og'ir oqibatlarni kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Shunday nizoli vaziyatlarda er-xotin, qaynona-kelin yoki oilaning boshqa a'zolariga nisbatan psixologik ta'sir etish nizoni ijobiy tomondan hal etilishini ta'minlashga xizmat qilishi mumkin.

Shaxsga psixologik ta'sir etishning haqiqatdan ham juda katta ijobiy jihatlari mavjud. Masalan er-xotin o'rtasida nizo yoki kelishmovchilik kelib chiqqanida, nizolashayotgan shaxsga xushmuomala bilan munosabatda bo'lish yoxud bitta gapdan qolish prinsipiga amal qilinsa, har qanday nizoning oldini olish mumkin va bu eng yaxshi psixologik usul hisoblanadi.

¹ Qarang: Jinoyat ishlari bo'yicha Mirzo Ulug'bek tumani sudi arxivi 1/851-09-sonli jinoyat ishi.

² Qarang: *Сирлиев Б.Н., Исмаилова Н., Хакимова И.М. Стресс ва агрессия: Ўқув-услугий қўлланма. – Т., 2014. – Б. 50.*

Notinch oilalarda sodir etiladigan jinoyatlarning oldini olishda profilaktika inspektori oila a'zosiga psixologik ta'sir etish uchun ahamiyat quyidagilarga berish kerak: *birinchidan*, shaxsning ruhiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatish orqali undagi g'ayriijtimoiy xulq-atvor va tasavvurni ijobiy tomonga o'zgartirish; *ikkinchidan*, oila a'zolari o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni o'rnatish orqali buzilgan munosabatlarni tiklash, *uchinchidan*, er-xotin o'rtasida (birga yashovchilar o'rtasida) zo'ravonlik mavjud bo'lsa, uni aniqlash va ularga psixologik ta'sir etish; *to'rtinchidan*, oilada nosog'lom muhitni shakllantiruvchi va uni oziqlantiruvchi omillarni aniqlash; *beshinchidan*, axloqqa zid munosabatlar oiladagi nizo va janjallarni kelib chiqishga xizmat qiladi buni aniqlash; *oltinchidan* oila a'zolarining spirtli ichimlik, giyohvandlik vositalari yoki tamaki mahsulotlarini iste'mol qilishining oldini olish yoki cheklash, *yettinchidan*, oila a'zolari o'rtasida uzoq davom etgan adovatning sabablarini aniqlash va ularga psixologik ijobiy ta'sir ko'rsatish.

Notinch oilalarda sodir etiladigan nizolarning oldini olish, uni ushbu nizolarni sodir etuvchi janjalkash shaxslarga ta'sir etish uchun avvalo, ularning psixologiyasini bilish lozim. Inson psixologiyasini bilish, har qanday yosh davrida ham optimal ravishda ishga yaroqlilikni, hayotiy vaziyatlarga psixologik jihatdan yondashish, yangicha fikrlash va tafakkur qilish, ro'y berayotgan jarayonlarni ob'yektiv va to'g'ri idrok qilish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi¹. Ko'pchilik psixolog-olimlarning ta'kidlashicha, insoning shaxsi hamisha xushmuomala va samimiy bo'lishi har qanday nizoli muhitdagi muammolarni ijobiy hal etilishida muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, oilada farzand tarbiyalash jarayonida muomala madaniyati ko'nikmalarini singdirishga jiddiy e'tibor berish kerak.

Oilada shaxsga muomala ko'nikmalarini o'rnatish va unga ushbu fazilatni singdirish shaxsni yuksak ma'naviyat egasi bo'lib shakllanishiga xizmat qiladi. Bu o'z navbatida, shaxslar o'rtasidagi munosabatlar jarayonida o'zaro hurmat tuygularining shakllanishida muhimdir.

Oila mustahkamligi birinchi navbatda oila muhitiga bog'liq. Oila muhiti asosini uning yadrosi bo'lmish er-xotin munosabatlari tashkil etadi². Oilada er-xotin o'rtasidagi munosabatlar bola tarbiyasida muhim o'rinni egallaydi. Shu bois, bolaning kamolotga yetishishida ota-onaning bu ishga mas'ul ekanligi xalqaro va milliy qonunchiligimizda ham belgilab qo'yilgan.

¹ Qarang: Усмонова А.А, Норбоев А.Н, Юридик психология: Ўқув қўлланма. – Т., 2007. – Б. 3.

² Qarang: Буриева М. Оила ва унинг вазифалари. – Т., 1998. – Б. 7-8.

Xususan, Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiyaning muqaddimasida: «bolaning shaxsi, sog'lom va har tomonlama uyg'unlashgan holda kamoloti uchun u oila g'amxo'rligida, baxt, mehr-muhabbat va ongni tushunish vaziyatida o'sishi zarurligi»¹, e'tirof etilgan. Bu borada Prezidentimiz Islom Karimov aytganlaridek: «bolalarimizning qalbida go'zallik va ezgulikka intilishni kuchaytirish va shu asosda jamiyatimizning madaniy saviyasini oshirish biz uchun ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi»².

Oiladagi nosog'lom ijtimoiy-ruhiy muhit nafaqat oilada tarbiyalanayotgan farzandlarning, balki oila a'zolarining ahloqqa zid hatti-harakatlar sodir etishiga va ular o'rtasida vujudga keladigan ijtimoiy munosabatlar jarayoniga ta'sir etadi. Statistik ma'lumotlarga qaraganda, qonunbuzarlik sodir qilgan voyaga yetmaganlarning 42-45 foizi ota-onasi ichkilikbozlikka berilgan, oilada muntazam ravishda janjal va nizolar kelib chiqadigan nosog'lom oilada yashaydi³. Shunday oilalarda yashovchi ichkilikka ruju qo'ygan shaxslar bilan yakka tartibda profilaktika suhbatlari o'tkazib, ularga nisbatan ishontirish, va kerak bo'lsa rag'batlantirish ta'sir choralari qo'llash lozim.

Takidlash joizki, er-xotin, oilaning boshqa a'zolari o'rtasidagi sog'lom ma'naviy muhit, ahillik, xushmuomalalik, xursandchilik bolaning bexavotir, sog'lom tug'ilishi garovidir.

Ba'zan oilada uchraydigan er-xotin, qaynona-kelin va boshqalar o'rtasidagi bir-biriga nisbatan xurmatsizlik, o'zaro nizo, urush-janjallar, homilador ayolni avaylab-asrash o'ziga og'ir mehnat qilishga majburlash, ho'rlash, xatto unga qo'l ko'tarish bolaning kasalmand, nogiron, jizzaki bo'lib tug'ilishiga sabab bo'ladi. Ota-onadagi eng yaxshi xususiyatlar ham, yomon xususiyatlar ham irsiy yo'l bilan bolaga o'tishi haqidagi fakt tibbiyot tomonidan isbotlangan.

Psixologik nuqtai nazardan qaraganda, notinch oiladagi muhit nosog'lom bo'ladi. Bu holat esa oilada nizoli vaziyatlarni keltirib chiqaradi. Tahlillarga ko'ra 42 foiz jinoyat sodir etgan shaxslarning oilasida nosog'lom muhit hukmron bo'lgan, 27 foiz oiladagi shaxslar o'rtasida adovat hukm surgan va faqat 14 foiz holatda bu turdagi jinoyatlar tasodifiy sodir

¹ Qarang: Бола ҳуқуқлари тўғрисидаги конвенция ва унинг Факультатив протоколлари / Ўзбекча нашр учун масъул муҳаррир А.Х. Саидов. – Т., 2009. – Б. 12.

² Qarang: Каримов И.А. Ватанимизнинг босқичма-босқич ва барқарор ривожланишини таъминлаш – бизнинг олий мақсадимиз. Т.17. – Т., 2009. – Б. 55.

³ Qarang: Исмаилов И. Вояга етмаганлар жиноятчилигига қарши кураш чоралари ҳақида // Мустақил Ўзбекистон: фалсафа ва ҳуқуқ фанларининг долзарб муаммолари. – Т., 1994. –Б. 275.

etilgan. Ushbu oilalardagi notinchlik oqbatida yuzaga kelgan nizo yoki adovatning jinoiy yo_l bilan hal etilishi oilada jinoyatlar sodir etilishiga olib kelgan. Demak oiladagi nizo va janjallar kundalik oila-tushmush jarayonida odatiy holga aylangan.

Psixiatr M.I.Buyanov oiladagi notinchlikni, undagi tarbiya muhiti bilan bog_lab, bolaga haddan ziyod g_anxo_lik, loqaydlik, beparvolikni «muammoli oila» toifasining mavjud ijtimoiy-psixologik muammosi sifatida e'tirof etadi¹. Masalan, ota-ona bolaga nisbatan talabchan, qattiq e'tiborli bo_lsa-yu, oiladagi boshqa shaxslar esa unga nisbatan boshqacha, munosabatda ya'ni e'tiborsiz bo_lsa bunday holat bolaning tarbiyasiga salbiy ta'sir ko_rsatishi mumkin. Ayniqsa, o_smirning shaxsini shakllanishida salbiy oilaviy sharoitlar muhim rol o_ynaydi masalan, ichkilikboz ota-ona, ularning axloqsiz xulqi sezilarli darajada ta'sir ko_rsatadi². Bunday oilalarda mavjud salbiy xulq-atvor u yerdagi shaxslarning ruhiyatiga ta'sir etish bilan birga shaxsda ma'naviy-salbiy odatlarning shakllanishida «muhim omil» bo_lib xizmat qiladi. Salbiy axloqiy xususiyatlar shaxsni jinoyat sodir etishiga ko_maklashuvchi va unga shart-sharoit yaratuvchi asosiy omil hisoblanadi.

Notinch oilalarda jinoyatlarning kelib chiqish sabablari quyidagi kriminogen nizoli holatlarda aks etadi:

- a) uzoq davom etgan va kuchli nizoning jinoyatchi shaxs tashabbusi bilan hal etilishida;
- b) jabrlanuvchining nizo keltirib chiqaruvchi hatti-harakati natijasida;
- d) jinoyatchi va jabrlanuvchining axloqsiz hayot tarzi oqibatida;
- e) jabrlanuvchining huquqqa xilof qilmishi natijasida to_satdan vujudga kelgan stress holati oqibatida;
- f) jinoyatchi shaxsning ichki shaxsiy nizosini hal etish jarayonida.

Ma'lumki, inson butun hayoti davomida o_zini o_rab turgan ijtimoiy muhit ta'sirida bo_ladi. Shu bois uning shakllanishi jarayonida turli omillar unga ijobiy yoki salbiy ta'sir qilib, inson shaxsida ijobiy yoki salbiy xususiyatlar vujudga kelishi va rivojlanishiga ta'sir ko_rsatadi.

Notinch oilada yashovchi quyidagi toifadagi shaxslarga nisbatan psixologik ta'sir etish lozim:

- a) axloqqa zid bo_lgan xatti-harakatlar sodir etuvchi;
- b) ma'naviyati past yoki dunyoqarashi tor bo_lganlar;
- d) huquqbuzarlik sodir etishga moyillar;

¹ Qarang: *Буянов М.И.* Ребенок из неблагополучной семьи. Записки дет. психиатра: Кн. для учителей и родителей. – М., 1988. – С. 6-11.

²Qarang: *Усмонова А.А., Норбоев А.Н.* Юридик психология: Ўқув қўлланма. – Т., 2006. – Б. 45.

e) doimiy ravishda nizoli holatni keltirib chiqaruvchi janjalkashlar;

f) milliy qadriyat va anʼanalarga hurmatsizlik bilan munosabatda boʻluvchilar va hokazo.

Aytish joizki, koʻpincha notinch oilalarda koʻpincha yuzaga keladigan oilaviy ajrimlar bolalar tarbiyasida kamchiliklarni, shaxslararo oʻzaro munosabatlar zamirida turli xil nizo va mojarolarni keltirib chiqaradi. Holbuki, qachonki oilada osoyishtalik va bir-birini tushunish, er-xotin va bolalar oʻrtasida tenglik va oʻzaro bir-birini hurmat qilish hukmron boʻlsa, buni tabiatning durdonasi deyish mumkin¹. Koʻpchilik hollarda notinch oilalarda sodir etiladigan jinoyatlarning kelib chiqishida shaxsning bolalikda mehr-muruvvatdan mahrum qilinishi uning ruhiyatida bezovtalik, qoʻrqinch, nafrat kabi hissiyotlarni shakllantiradi. Bu hissiyotlar ongsiz ravishda qayd etib boriladi va murosasiz xulq-atvorning, jumladan, uning eng ashaddiy koʻrinishi oilada zoʻravonlikning shakllanishiga olib keladi².

Latviyalik olim I.E. Klotniyek oʻzining «Oiladagi psixologiya» kitobida, oiladagi nosogʻlom muhit oqibatida yuzaga keladigan nizolar orasidan, bolaning koʻzoʻngida va uning ishtirokida roʻy beradigan nizolar xususida oʻz fikr va mulohazalarini bildirgan. Uning fikricha: «Oilaviy janjallar, nizolar salbiy emotsional reaksiyalarni keltirib chiqaradi va oiladagi psixologik muhitni buzadi»³. Nafaqat oilada sodir etiladigan nizo yoki janjal, balki oila aʼzolarining barcha xatti-harakatlari shaxsga psixologik taʼsir etish orqali oiladagi muhitning buzilishini taqozo etadi.

Bu borada Al-Farobiy oʻz munosabatini bildirib shunday deydi: «Odamlarga nisbatan ularni birlashtiruvchi boshlangʻich asosiy kuch insoniylikdir. Shuning uchun ham, odamlar insoniyat turkumiga kirganliklari tufayli oʻzaro inoq tinchlikda yashamoqlari lozim»⁴. Axloqiy maʼnaviy-tarbiyaning maqsadi shaxsda axloqiy fazilatlarini hosil qilish va uni rivojlantirish, uni yaxshi hulq atvoriga oʻrgatish hamda ijobiy xatti-harakatlar, koʻnikma va odatlarni vujudga keltirishdan iborat.

Taniqli oʻzbek pedagogi Abdulla Avloniy taʼkidlaganidek, «Tarbiya bizlar uchun yo hayot - yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir»⁵. Shunday ekan, oilada maʼnaviy-ruhiy muhitni sogʻlomlashtirishning eng asosiy yoʻnalishlaridan biri bu tarbiyadir. Shu

¹ Qarang: Горниченко И.И., Хакимов Ш.Ш., Закирходжаев Ш.А., Откровенно о сокровенном. – Т., 1991. – С. 57.

² Qarang: Антонян Ю.М. Причины преступного поведения. – М., 1992. – С. 114.

³ Qarang: Клотниекс И.Э. Психология в семье. – М., 1991. – С 30-31.

⁴ Qarang: Абу Наср Фаробий. Фозил одамлар шахри. –Т., 1993. – Б. 187.

⁵ Qarang: Авлоний А. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. – Т., 1992. – Б. 14.

bois, ota-ona tomonidan oilada tarbiyalanayotgan farzandlarni yoshligidan boshlab ma'naviy-axloqiy sifatlarga alohida ahamiyat berishi kerak. Bu esa, o'z navbatida, oila a'zolarining o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarga ijobiy ta'sirini ko'rsatib, shaxsda jamiyatga nisbatan g'ayriijtimoiy hulq-atvor va munosabatlar shakllanishining oldini oladi.

2-§. Oila-turmush doirasida jinoyat sodir etgan shaxslarning psixologik tavsifi

Har qanday jinoiy qilmish jinoyatchi shaxsning psixologik xususiyatlaridan kelib chiqadi. Uni yuzaga keltiruvchi sabab va sharoitlar jinoyatchi shaxsining xulq-atvori, jinoyat sodir etilgan paytdagi xatti-harakatlari, motivi kabi bir qator omillar bilan izohlanadi.

Oila-turmush munosabatlari doirasida jinoyat sodir etuvchi shaxslar to'g'risida so'z yuritganda, avvalo uning psixologik jihatlariga e'tibor berish lozim. Shaxsni o'rganish davomida uning atrof- muhit bilan bog'liq ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy hayot tarzi oila-turmush sharoitida jinoyat sodir etishda katta rol o'ynaydi. Ijtimoiy shart-sharoitlar jinoiy qilmishda o'z aksini topadi va shaxsning xatti-harakatlari orqali namoyon bo'ladi.

Oila-turmush sharoitida jinoyat sodir etgan shaxs oddiy insondan qaysi tomonlari bilan farq qiladi va qanday xususiyatlarga ega?

Huquqbuzar shaxsning psixologik jihatlarini o'rganish davomida quyidagilar namoyon bo'ladi:

- yuqori darajada notinchligi;
- o'ziga ishonmasligi;
- jahli tez chiquvchi va tez xulosa qiluvchi;
- tajovuzkorlikka moyilligi ;
- ma'naviy-axloqiy tarbiyaning yetarli emasligi;
- huquqiy bilim saviyasining pastligi;
- kichik guruhlardan uzoqlashgan (oila, maktab, ishchi jamoa va boshq.).

Oila-turmush sharoitida jinoyat sodir etgan shaxslar ko'p hollarda, oiladagi nizo oqibatida qasddan odam o'ldirish, qasddan badanga og'ir shikast yetkazish, qasddan badanga o'rta og'ir shikast yetkazish, qasddan badanga yengil shikast yetkazish, qiynash, o'ldirish yoki zo'rlash bilan qo'rqitish, nomusga tegish, jinsiy ehtiyojini zo'rlash bilan zo'rlash usulda qondirish, ayolni jinsiy aloqa qilishga majbur qilish, haqorat qilish, bezorilik va boshqa jinoiy xatti-harakatlarni sodir etadi.

Ushbu jinoyatlarning sodir etilishida shaxsda mavjud bo'lgan ijtimoiy-ruhiy buzilishning belgilari quyidagicha bo'lishi mumkin:

- aybdorning kuchli ruhiy hayajonlanish holatida bo‘lganligi;
- xulq-atvorida ruhiy buzilishlarning mavjudligi;
- tartibsiz turmush tarzi kechirishga odatlanganligi va oila a‘zolari bilan ko‘pincha qo‘pol munosabatda bo‘lganligi;
- o‘z xatti-harakatlarini boshqara olmaganligi, shiddatliliigi, o‘z harakatining oqibatini o‘ylamaganligi;
- ruhiy hayajonlanish yoki tushkunlik kayfiyatida bo‘lganligi va hokazo.

Jinoyatchi shaxslarning jinoyat sodir etish motivlarini o‘rganish ko‘p holatlarni aniqlash va o‘rganishga imkon beradi. Motiv – bu, avvalambor, o‘ta jiddiy ruhiy tushunchalardan biri bo‘lib, uning yordamida inson qilmishlarining ichki tabiati, ularning mazmun-mohiyati ochib beriladi. Shuning uchun jinoiy xulqning motivini aniqlash vaqtida kriminologlar huquq fanlari predmetining o‘ziga xos tomonlarini inobatga olib, *psixologiya* fani sohasida tarkib topgan tasavvurlarga tayanishlari lozim.

Ta‘kidlash joizki, oila-turmush munosabatlari doirasidagi jinoyatlarni oldini olishga qaratilgan samarali profilaktik chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirishda avvalo jinoyat sodir etuvchi shaxslarning psixologik xususiyatlariga e‘tibor qaratadi.

Psixologiya fanida huquqbuzar shaxsning ijtimoiy-ruhiy holatlarini o‘rganish bilan bog‘liq muammolar ham tadqiq etiladi. Xususan, oila turmush munosabatlari doirasida jinoyat sodir etgan shaxslarning ijtimoiy-xavfli, g‘ayr-qonuniy xatti-harakatlarini tadqiq etish uchun birinchi navbatda, uning psixologik xususiyatlarini o‘rganish orqali qilmish sodir etgan paytdagi holatiga baho berish mumkin. Huquqbuzar shaxsi haqidagi psixologik bilimlar bilan bog‘liq masalalar psixologiyaning dolzarb bilan bog‘liq muammolaridan biri hisoblanadi.

Oila-turmush sharoitida jinoyat sodir etgan shaxslarning ma‘naviy-ruhiy xususiyatlari, xulq-atvori, ongi va idroki, o‘zini tutishi kabi belgilarini o‘rganish orqali jinoyatning kelib chiqishidagi nizo yoki kelishmovchilikning jinoyat sodir etish bilan yakunlanganligi kabi holatlarni ko‘rish mumkin. Masalan uchun, fuqaro A. uyida spirtli ichimlik iste‘mol qilib, mast xolda xotinini fuqaro B.ga «nima sababdan ko‘chada yuribsan, uyda o‘tising bo‘lmaydi-mi?» deb uning shaxsiyatiga tegadigan so‘zlarni aytib u bilan o‘zaro tortishishi natijasida B.ning qattiq predmet bilan urib unga tan jarohati yetkazgan. Sud-tibbiy ekspertizasi xulosasiga ko‘ra fuqaro B.ni olgan tan jarohati sog‘liqning buzilishiga sababchi bo‘lgan yengil tan jarohati ekanligi ko‘rsatilgan¹.

¹ Qarang: Jinoyat ishlari bo‘yicha Namangan shahar sudi arxivi 1/917-sonli jinoyat ishi.

Oilada jinoyat sodir etuvchi jinoyatchi shaxs ko'pincha o'zining faol harakati yoki ruhiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi gaplari bilan oilada nizo chiqaradi. Shu boisdan, ushbu toifadagi shaxslar bilan yakka tartibdagi tarbiyaviy ta'sir choralarini olib borish kerak.

Yakka tartibdagi profilaktika – fuqarolarni tarbiyalash tizimining elementlaridan biri bo'lib, inson g'ayriijtimoiy xulqning eng oxirgi darajasigacha yetishiga, ya'ni jinoyat qonuni bilan taqiqlangan qilmishlarni sodir etishga yo'lqoymaslikdan iborat cheklangan vazifani hal qiladi.

Yakka tartibdagi profilaktik faoliyatni tashkil etishning maqsadi, jinoyat va huquqbuzarliklar sodir etishga moyil shaxslarni aniqlash, ularni o'rganish, ta'sir etish, ularning xulq-atvorini ijobiy tomonga o'zgartirish hamda ularga salbiy ta'sir etuvchi shart-sharoitlarni bartaraf etishga yo'naltirilgan faoliyatdir.

Shaxsga nisbatan yakka tartibdagi profilaktikani qo'llash uchun shaxsning g'ayriijtimoiy xulq-atvoridan, uning huquqbuzarlik sodir etishga moyilligidan yoxud u huquqbuzarlik sodir etganligidan dalolat beruvchi ishonchli ma'lumotlarning mavjudligi asos bo'ladi. Ushbu toifadagi shaxslarga qilmishlarining oqibatini tushunib yetishishlariga psixologik jihatdan ta'sir ko'rsatish muhim ahamiyat kasb etadi.

Oila-turmush munosabatlari doirasida jinoyat sodir etgan huquqbuzar shaxslar psixologiyasini o'rganish uning boshqa odamlarga nisbatan xatti-harakatlari, qilmishlari, dunyoqarashi va boshqa shaxslar bilan o'zaro munosabatlari jarayonida yaqqol namoyon bo'ladi. Insonning ichki dunyosi, ayniqsa uning ma'naviy va axloqiy xususiyatlari haqida qancha to'liq ma'lumotga ega bo'lsak, ular tomonidan sodir etilishi mumkin bo'lgan huquqbuzarliklarning, shu jumladan jinoyatlarning oldini olish borasida shunga samarali chora-tadbirlarni amalga oshirish imkoni vujudga keladi. Bundan tashqari, ushbu shaxslarning psixologik xususiyatlarini chuqur o'rganish orqali kerakli psixologik bilimlarga ega bo'lish mumkin.

Jinoyatchi shaxsining tuzilishini tadqiq qilish nafaqat uni tashkil qiluvchi belgilarning turli xilligini, balki ularning xususiyatlarini, jinoiy xatti-harakatlarning kelib chiqishida tutgan o'rnini, ularning o'zaro aloqasi va uzviy bog'liqligini ko'rsatadi.

Psixologiyada jinoyatchi shaxsini o'rganish – bu jinoyat sodir qilgan shaxsni ta'riflovchi ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan xususiyatlar, xislatlar, belgilar, aloqalar, munosabatlar va boshqa xususiyatlar bilan birgalikda ijtimoiy xavfli xatti-harakatga ta'sir qiluvchi bir qancha tizimchalardan tashkil topgan tizim sifatida ko'riladi. Har bir tizimcha jinoyatchi shaxsiga taalluqli bo'lgan nisbatan bir xil xususiyatlar, xislatlar, belgilar va munosabatlarning bir qismini o'z ichiga oladi.

Oila turmush munosabatlari doirasida jinoyat sodir etgan jinoyatchi shaxslarning individual psixologik xususiyatlarini oʻrganish asosida kelgusida ushbu toifadagi shaxslar tomonidan oilada jinoyat sodir etmasligini oldini olish borasida profilaktik chora-tadbirlarni ishlab chiqishga xizmat qilishi mumkin.

Oila turmush munosabatlari doirasida jinoyat sodir etuvchi jinoyatchi shaxslarning tuzilishi quyidagilarda namoyon boʻladi:

- ijtimoiy-demografik belgilari;
- kasbiy taalluqliligi, aqliy yetuklik (kamolot) darajasi;
- madaniy bilim darajasi;
- bilimi, mahorati, qobiliyati;
- shaxsning maʼnaviy xislatlari;
- qadriyat yoʻnalishi va intilishi;
- ehtiyoji va motivatsiyasi;
- shaxsning ruhiy jarayoni (kechinmalari), xususiyatlari va ahvoli;
- biofiziologik va boshqa belgilariga ajratib oʻrganish maqsadga muvofiqdir.

Jinoyat sodir etgan shaxslarning demografik va ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini shunday yoʻnalishda oʻrganish orqali statistika maʼlumotlari tizimini yaratish hamda ularni muntazam ravishda tahlil qilib borish natijalariga asoslangan holdagina ushbu toifaga kiruvchi jinoyatlarning sabab va sharoitlarini aniqlash, ularni bartaraf etish uchun samarali profilaktik chora-tadbirlarni ishlab chiqishga imkon beradi.

Tadqiqotlar va tergov-sud amaliyoti shuni koʻrsatadiki, oilada jinoyat sodir etuvchi shaxslarning asosiy qismini ilgari sudlangan, ishsiz, surunkali ravishda spirtli ichimlik isteʼmol qilish va giyohvandlikka ruju qoʻygan, maʼlumot darajasi yuqori boʻlmagan shaxslar tashkil etadi. Ayniqsa, past maʼlumot darajasi qasddan zoʻravonlik jinoyatlarini sodir etgan shaxslarda. Maishiy turmush sohasida sodir etiladigan jinoyatlar bilan bogʻliq muammolar boʻyicha tadqiqotlar olib borgan Rossiyalik olim E.F.Pobegayloning fikricha, oiladagi nizolar oqibatida jinoyatlar asosan foydali mehnat bilan shugʻullanmaydiganlar, daydilar, spirtli ichimliklarga ruju qoʻyganlar, giyohvandlar, jinoiy oʻtmishga ega shaxslar, fohishalar va qoʻshmachilar toifasidagi shaxslar tomonidan sodir etilmoqda¹. Hayotda aynan shu toifadagi shaxslarda jinoyat sodir etishga moyillik koʻproq kuzatiladi. Ular tomonidan sodir etilgan jinoyatlar tarkibida qotillik va ogʻir tan jarohatlarini yetkazish 50 foizni tashkil etadi².

¹ Qarang: *Побегайло Э.Ф. Тенденции современной преступности и совершенствование уголовно-правовой борьбы с нею.* – М., 1990. – С. 9.

²Qarang: *Криминология.* – Т., 2007. – Б. 294.

Jinoyatlarni sodir etuvchilarning ma'lum bir qismini o'zaro oilaviy rishtalari bog'langan shaxslar, ya'ni er-xotin, ota-bola, aka-uka, opa-singillar tashkil etib, ular tomonidan jinoyatlar bir-birlariga nisbatan sodir etilgan.

Shaxsdagi bilim darajasining pastligi, ongning rivojlanmaganligi, sodir etilayotgan xatti-harakatning oqibatini anglab eta olmaslik, o'zini idora qila olmaslik, ya'ni g'ayriijtimoiy xatti-harakatlardir. Bu o'zini tiya olmaslik kabi salbiy xususiyatlarning rivojlanishiga olib keladi. Oqibatda bunday odamlar o'zlarining g'arazli maqsadlarini amalga oshirishda shaxsga qarshi jinoyatlarni, ya'ni qotillik, badanga og'ir shikast yetkazish, qiynash kabi inson hayoti va sog'lig'iga qarshi tajovuzlarni o'yamasdan, osongina sodir etadilar¹. Bunday toifadagi shaxslarda rahm-shafqatning yo'qligi natijasida vahshiylik bilan insonga, shaxsning hayoti va sog'lig'i uchun xavfli jinoyatlarni sodir etadilar. Achinarlisi shundaki, bunday sovuqqonlik bilan qasddan odam o'ldirish jinoyatlarini sodir etish holatlari bugungi kunda ham amaliyotda uchramoqda.

Jinoyat sodir etuvchi shaxsni o'rganish davomida birinchi navbatda, uning ichki dunyosi, ehtiyojlari, moyilliklari, hissiy-irodaviy doirasi, qobiliyatlari, intellektual va individual xususiyatlari (tafakkur, qabul qilish, xotira va boshqa bilish jarayonlari)ga ham e'tibor berish lozim. Modomiki, jinoyat sodir etgan shaxs haqida yuqorida ko'rsatilgan xususiyatlar atroflicha o'rganilmasa, tadqiq etilayotgan jinoyatlarning oldini olish borasida profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirishning samarasi past bo'lishi tabiiy.

Oilada jinoyat sodir etuvchining shaxsi jinoyatchi bo'lmagan odamning shaxsidan ijtimoiy-xavflilik darajasi bilan farq qiladi. Ijtimoiy xavflilikning mazmuni yoki xususiyati shaxs jinoiy xulq-atvorining yetakchi sababiy yo'nalishiga bog'liq bo'ladi. Ushbu jinoyatchi shaxslarning ichki dunyosi (ruhiyati)ga kirish orqali ularning fe'l-atvori, ijtimoiy psixologik xususiyatlari, xarakteri va tabiatini o'rganish ularning jinoyat sodir etishining motivi yoki sababini aniqlash imkonini beradi.

Oilada jinoyat sodir etuvchi shaxslarda rahm-shafqatning yo'qligi yoki ularning tajovuzkorligi o'z yaqiniga nisbatan zo'ravonlik ko'rsatishi natijasida ularni jabrlanuvchi bo'lishiga sababchi bo'lishadi. Bunday toifadagi shaxslar, zo'ravon – zo'rlik, jabr-zulm qiluvchi, jabrlovchi, zulmkor shaxslardir. Ma'lumki, ushbu toifadagi shaxslar asosan kriminogen

¹ Qarang: *Исмаилов И. Жиноятчиликда уюшганлик: назария ва амалиёт муаммолари.* – Т., 2005. – Б. 78.

xususiyatga ega bo'ladilar¹. Oiladagi jinoyatlar qanday shakl va usulda sodir etilmasin, kriminogen xususiyatlar jinoyat sodir etgan shaxsda tasodifiy hodisa sifatida emas, balki ijtimoiy, ijtimoiy-ruhiy xususiyatlar asosida uzoq muddat mobaynida shakllangan². Umuman, oilada jinoyat sodir etadigan shaxslar odatda, serjahl, jizzaki va asabga teguvchi sozlam ko'p takrorlaydigan bo'lishadi.

Oila-turmush doirasida jinoyat sodir etuvchi shaxslarning ma'naviy-ruhiy xulq-atvori tajovuzkorlik xususiyatiga ega ekanligi bir qator tabiiy va ijtimoiy fanlarda atroflicha o'rganilgan. Zikr etilgan psixologik xususiyatlarni bir xilda o'zida mujassamlashtirgan shaxs o'z individualligi jihatidan betakrordir³. Shaxsning ichki mayli (rashk, qasos, alam, oilada erkak yoki ayolning bir-biriga ustunlik da'vosi va boshqalar) oiladagi jinoyat zo'ravonlikning yoki jinoyat xatti-harakatlarni sodir etishiga yo'l qo'yadi. Bu obyektiv omillar shaxsda bevosita salbiy ma'naviy xususiyatlarni shakllantirmasa-da, lekin buning uchun qulay sharoit bo'lib hisoblanadi va tajovuzkorlikning shakllanishiga olib keladi. Tajovuzkorlik deganda, o'z muammolarini hal etish uchun zo'ravonlik vositalaridan foydalanishni afzal ko'rish⁴, nizolarni tajovuz yo'li bilan hal etish orqali jinoyat sodir etish tushuniladi.

Aytish joizki, jabrlanuvchining salbiy xulq-atvori jinoyatchi shaxsining ruhiyatida zo'ravonlikni sodir etishiga turtki bo'lgan bo'lishi mumkin. Chunki, jabrlanuvchidagi salbiy xulq-atvor ko'p hollarda uning turli jinoyat yoki tajovuzlardan aziyat chekishiga olib keladi.

Oilada jinoyat sodir etgan jinoyatchi shaxslarning ko'pchiligini erkaklar tashkil etishi jinslarning ruhiy-fiziologik xususiyatlari va ularning jamiyatda o'ynagan roli, ayollar xarakterining yumshoqligi, chidamliligi va sabr-bardoshliligi, hayotdan mahrum qilish yoki badanga shikast yetkazish bilan bog'liq g'araz niyatni amalga oshirish uchun ayollarning jismoniy imkoniyatlari cheklanganligi hamda salbiy odat-ko'nikmalari bilan izohlanadi⁵. Qaysidir ma'noda bunday holat an'anaviy tarbiya oqibati bo'lib, erkaklarning agressiv xulq-atvori muammolarni hal qilishning yagona va samarali vositasi sifatida namoyon bo'ladi⁶.

¹ Qarang: *Антонян Ю.М.* Причины преступного поведения. – М., 1992. – С. 208.

² Qarang: *Усмоналиев М., Каракетов Й.* Криминология. – Т., 2001. – Б. 170.

³ Qarang: *Умумий психология.* – Т., 1992. – Б. 210.

⁴ Qarang: *Антонян Ю.М.* Психология убийства. – М., 1997. – С. 17-18.

⁵ Qarang: *Криминология / Н.Ф.Кузнецова, Г.М.Миньковский* тахрири остида. – М., 1994. – С. 245. *Усмоналиев М., Каракетов Ю.* Криминология. – Т., 2001. – Б. 98.

⁶ Qarang: *Асьянов Ш.М. ва бошқ.* Ўзбекистонда хотин-қизлар ҳуқуқларини таъ-

Kriminologik adabiyotlarda ta'kidlanganidek, jami sodir etilgan jinoyatlarning 12-15 foizi, ijtimoiy xavfi yuqori bo'lgan, shaxs hayoti va sog'lig'iga qarshi qaratilgan jinoyatlar, xususan, qotillikning 3-4 foizi, qasddan badanga shikast yetkazish jinoyatlarining 2-3 foizi ayollar hissasiga to'g'ri keladi. Biroq maishiy jinoyatlar tarkibida odam o'ldirish jinoyatini sodir etgan ayollar qariyb ikki barobar ko'pdir¹.

Oilada shaxsning hayoti va sog'lig'iga qarshi sodir etilgan jinoyatlarning asosiy qismini erkak jinsidagi jinoyatchi shaxslar sodir etishadi. Mazkur jinoyatchi shaxslarning mastligi oqibatida o'ta og'ir turdagi qotillik jinoyatlari sodir etilgan. Masalan, 2007-yilning 5-may kuni taxminan soat 23:00larda Mirobod tumani Qo'yliq-2 dahasi 10-uy 11-xonadonda 1954-yilda tug'ilgan fuqaro K. mast holda o'g'li G. bilan o'zaro o'rtalarida kelib chiqqan nizo oqibatida o'zining g'azali niyati bilan qasddan odam o'ldirish maqsadida xo'jalik omboridan boltani olib jismoniy kuch ishlatish orqali o'g'li G.ning bosh qismiga qattiq zarb bilan urib o'ldirgan². Bunday holat ko'pincha shaxsga nisbatan rahmsiz munosabatda bo'lishda namoyon bo'ladi

Oilat-turmush munosabatlari doirasida jinoyat sodir etgan shaxslarni yoshi bo'yicha guruhlariga ajratish qaysi yoshdagi aholi toifasida jinoiy faollik yuqori, qaysi yoshdagi guruhda jinoiy faollik sust ekanligini aniqlashga imkon beradi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, jinoiy faollik eng yuqori bo'lgan yoshlar guruhi 25-29 yosh, undan keyin 18-24 yosh, 31-40 yosh va eng oxiri 40 yoshdan kattalarni tashkil etadi. Jinoiy faollik eng past bo'lgan guruh bu 50 yoshdan yuqori bo'lgan aholi qismidir³. Oilat-turmush sohasida yuzaga keladigan jinoyatlarda kriminogen faollik asosan 18-30 va 31-40 yoshli shaxslarning harakatlarida kuzatilishi, ushbu yoshdagilar ijtimoiy mavqeining o'ziga xosligi bilan e'tiborga loyiqligi, shuningdek aynan shu davrda oilada ziddiyat va nizolarning kuchayishi ro'y berishi haqida ham kriminologik adabiyotlarda ma'lumotlar mavjud⁴.

Oiladagi nizolar oqibatida ayollar tomonidan jinoyat sodir etilishi

минлашнинг ташкилий-ҳуқуқий асосларини такомиллаштириш. –Т., 2008. – Б. 60.

¹ Qarang: Криминология: Дарслик / проф.З.С.Зариповнинг умумий таҳрири остида. – Т., 2007. – Б. 400.; Криминология: Учебник. – Алматы. 2006. – С. 251-252; Алауханов Е.О. Криминология: Учебник. Алматы. 2008. – С. 213-214.

² Qarang: Жиноят ишлари бўйича Мirobod туман суди архиви. № 1-527-сонли жиноят иши. 2007.

³ Qarang: Зарипов З.С., Исмаилов И. Криминология: Дарслик. – Т., 1996. – Б. 403.

⁴ Qarang: Криминология: Дарслик // Проф.З.С.Зариповнинг умумий таҳрири остида. – Т., 2007. – Б. 400.

asosan rashk, qasd va muhabbat mojarolari kabi vaziyatlar bilan uzviy bog'liq ekanligi kuzatilmoqda. Tabiiyki, ayollar shaxsiga xos bo'lgan tezda jahl chiqish yoki har bir holatni ko'ngiga yaqin olish ham vaziyatning murakkablashuviga olib keladi. Tan jarohati yetkazishga ta'sir etuvchi yana bir omil sifatida ayollarning o'z xatti-harakatlari oqibatini anglamasliklari va kelgusida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan murakkabliklarni to'g'ri baholay olmasliklari kabi xislatlar e'tirof etiladi. Ya'ni, ayollardagi kuchli ehtiros juda ko'p jinoiy vaziyatlarning chigallashuviga olib keladi.

Jinoyatchi shaxslar haqidagi ma'lumotlarni o'rganish natijasida oiladagi jinoyatlarni sodir etgan shaxslarning yoshiga oid ma'lumotlar ham olindi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, oilada jinoyat sodir etgan jinoyatchi shaxslarning 10,1 foizini 18-25 yoshdagilar, 38,6 foizini 25-35, yoshdagilar, 26,8 foizini 35-45, 15,5 foizini 45-55 yoshdagilar hamda 9,2 foizini 55 yoshdan yuqori bo'lganlar tashkil etadi. Ushbu ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, oilada jinoyat sodir etgan shaxslarning 64,4 foizi 25-45 yoshdagilarni tashkil etadi. Ushbu holatni ayni inson shu yoshga to'lganida oilada bir qator ob'yektiv va subyektiv omillarning, xususan oila a'zolarining ko'payishi, ularni moddiy jihatdan ta'minlash, ta'lim-tarbiya berish, uy-joy bilan bog'liq muammolarning vujudga kelishi hamda ularni hal etishda yuzaga keladigan to'siq va qiyinchiliklar bilan bog'liq deyish mumkin.

3-§. Profilaktika inspektorining oila-turmush sohasidagi jinoyatlarni oldini olishda jamoat tashkilotlari bilan o'zaro hamkorligining psixologik jihatlari

Oilada sodir etiladigan huquqbuzarliklarning oldini olish sub'yektlari tizimida profilaktika inspektorlari alohida o'rin egallaydi. Profilaktika inspektorlarining jamoat tuzilmalari bilan oila-turmush sohasidagi huquqbuzarliklarni oldini olish, aniqlash, umumiy va yakka tartibda profilaktika ishlarini tashkil etishda ular bilan hamkorlikni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, profilaktika inspektorlari notinch oilalarni aniqlash, ularda sodir etiladigan huquqbuzarliklarning oldini olish, hisobga qo'yish, tegishli jazo choralari qo'llash hamda ular bilan yakka tartibda tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishda jamoat tuzilmalari bilan hamkorlikda faoliyat olib boradi. Xususan, militsiya tayanch punktlarida profilaktika inspektori bilan bir binoda faoliyat ko'rsatishi belgilab berilgan quyidagi jamoat tuzilmalari mavjud:

- 1) fuqarolarning o_zini o_zi boshqarish organlari;
- 2) diniy ma'rifat va ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha maslahatchilar;
- 3) mahalla jamoat posboni.

Profilaktika inspektori jamoat tuzilmalari bilan o_zaro hamkorlikda: notinch oilalarni aniqlab, oila a'zolari o_itasida buzilgan munosabatlarni tiklash, oila-turmush munosabatlari doirasida huquqbuzarlik sodir etuvchi shaxslarning xulq-atvorini jamoatchilik ishtirokida muhokama qilish; farzand tarbiyasi bilan shug_ullanmaydigan ota-onalarni aniqlash, ular bilan tarbiyaviy profilaktik suhbatlar olib borish; oilaviy janjalkashlarni aniqlash va ular bilan profilaktik ishlarni tashkil etish; ilgari sudlangan shaxslarning faoliyatini nazorat qilish; sodir etilgan jinoyat va huquqbuzarliklarning sabab va sharoitlarini aniqlash hamda ularni bartaraf qilishga doir qator tadbirlarni amalga oshiradi.

Profilaktika inspektorining jamoat tuzilmalari bilan hamkorligining samarali tashkil etilishi: *birinchidan*, bu jarayonda ishtirok etuvchi subyektlarning vakolatlari amaldagi qonunlarda qay aniq belgilanganiga; *ikkinchidan*, ularning bu yo_nalishdagi faoliyati uchun huquqiy asos qay darajada ishlab chiqilganiga; *uchinchidan*, ular o_rtasidagi hamkorlikni tashkil etishning huquqiy mexanizmi qanchalik tuzilganligi; *to_rtinchidan*, ushbu hamkorlikni tashkil etuvchi kadrlarning tayyorgarlik darajasiga bog_liq.

Endi ushbu hamkorlikning psixologik jihatlarini yoritishga harakat qilamiz.

Ta'kidlash joizki, huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olishda jamoat tuzilmalarining o_mi muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, hozirgi kunda oila-turmush munosabatlari doirasida sodir etiladigan huquqbuzarliklarning oldini olishda fuqarolarning o_zini o_zi boshqarish organlarining o_mi beqiyos. Xususan, ular oilada sodir etiladigan huquqbuzarlik va jinoyatlarning oldini olish bo'yicha: o_z hududlarida yashovchi notinch va janjalkash oilalarni aniqlash, undagi ijtimoiy ruhiy muhitni sog_lomlashtirish; ular tomonidan jinoyat sodir etilishining oldini olish; notinch oilalarda yashovchi salbiy xulq-atvorga ega bo_lgan shaxslarda jamiyatga nisbatan ijobiy dunyoqarashni shakllantirish va ular tomonidan huquqbuzarliklar sodir etilishining oldini olishni ta'minlash bilan bog_liq va boshqa masalalarni ko_rib chiqish huquqiga ega.

Fuqarolarning o_zini o_zi boshqarish organlari huzurida tashkil etilgan yarashtirish komissiyasi oilalardagi notinchliklarga barham berish, er-xotin, qaynona-kelin va oilaning boshqa a'zolari o_itasida buzilgan munosabatlarni hal etishda salmoqli o_rinegalladi.

Masalan yarashtirish komissiyasida 29 yoshli fuqaro A. turmush

o_{rtog} i 26 yoshli fuqaro B. bilan muhokama etilgan. Yarashdirish komissiyasi a'zolari tomonidan ularning 2 yoshli farzandi borligi, agar xotinni boshqa oila qurganda farzandi boshqani ota deyishiga qanday chidashi mumkinligi, hamma oilada ham o_{ziga} yarasha bir-birini tushunmaslik hollari bo_{lib} turishi, eng asosiysi, hayotda er-xotin bir-birining mayda, xato va kamchiliklarini kechirishi kerakligi ta'kidlangan. Shunda, fuqaro A. qilgan xatosini anglab, oilasining buzilishiga yo_l qo_{ymasligi} va xotini bilan yarashib olishini bayon qilgan.

Mazkur nizoli vaziyatda yarashdirish komissiyalari tomonidan fuqaro A.ga nisbatan psixologik ta'sir etilganligi muammoni ijobiy tomonga hal etilishiga sabab bo_{ldi}.

Bugungi kunda yarashdirish komissiyalari faoliyatining profilaktika inspektorlari bilan chambarchas ish olib borishi o_z samarasini bermoqda. Ushbu hamkorlik natijasida oiladagi nizolarni hal qilish, mojarolarni ko_{rib} chiqish, ajralishlar, nizoli vaziyatlar, janjalli holatlarni ko_{rib} chiqib, ularni muhokama qilish natijasida oilaviy notinchliklarga barham berilmoqda. Ayniqsa, fuqarolarning o_{zini} o_{zi} boshqarish organlari huzuridagi yarashdirish komissiyalari tomonidan ichki ishlar organlarining profilaktik ro_yxatiga olingan janjalkash oilalardagi notinchliklar muhokama etilib, oilalardagi ma'naviy-ruhiy muhitni sog_{lom} bo_{lishiga} erishib kelinmoqda.

Yarashdirish komissiyasining oiladagi nizolarni ko_{rib} chiqish faoliyati samaradorligini oshirish maqsadida:

birinchidan, oilaviy janjallar oqibatida yuzaga kelgan er-xotin, aka-uka, opa-singil, ota-ona va farzand, qaynona va kelin, qo_{ni}-qo_{sh}mlar o_{rtasi}-dagi buzilgan munosabatlarni qayta tiklash choralari ko_{rishda} ularni sinchkovlik bilan muhokama etish;

ikkinchidan, notinch oilalarda aniqlangan nizo va janjallar bo_yicha huquqbuzar shaxslarga chora ko_{rishdan} ko_{ra} ularning ruhiyatiga psixologik ijobiy ta'sir etish usullariga ko_{proq} e'tibor qaratish;

uchinchidan, oilaviy janjallar sabablarini aniqlash va ularni bartaraf etish bo_yicha zarur choralarni amalga oshirishda boy hayotiy tajribaga ega bo_{lgan} kishilar tajribasidan foydalanish va bu ishga nufuzli keksa avlod vakillarini jalb etish;

to_{rtin}chidan, oilada milliy qadriyatlarimizga zid, axloq-odob qoidalariga to_gri kelmaydigan nojo_{ya} xatti-harakatlarga yo_l qo_{yayotgan} shaxslarni aniqlash va ularga nisbatan tegishli ta'sirchan jazo choralari (jamoat ta'siri, omma oldida muhokama qilish)ni ishlab chiqish;

beshinchidan, ichki ishlar organlarining hisobida turgan, shuningdek ilgari sudlangan, oila va turmushda muntazam ravishda huquqbuzarliklarga yo_l qo_{yadigan} shaxslar bilan profilaktik ishlarni olib borishda ishtirok etish, zarur

hollarda ularning xulq-atvori va turmush tarzini majlislarda muhokama qilish;
oltinchidan, muntazam xotini (eri), farzandlari va ota-onasi bilan janjal qilib, notinch yashayotgan hamda oila-turmush doirasida huquqbuzarlik sodir etishga moyil shaxslarni aniqlash;

yettinchidan, oilalarda sodir etiladigan huquqbuzarliklarning asosiy sabablarini aniqlash, unda ma'naviy muhit barqarorligi va oilaning sog'lomligi jamiyat mustahkamligi hamda mamlakat barqarorligi bilan uzviy bog'liqligini fuqarolarga tushuntirish va yig'ilishlarda muhokama etib borish.

Oilada er-xotin o'rtasida nizo kelib chiqqanda uni bartaraf etish yo'llari.

Profilaktika inspektori oilada er-xotin o'rtasida nizo kelib chiqqanda mahalla fuqarolar yig'ini raisi, diniy ma'rifat va ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha maslahatchi, mahalla jamoat posboni, xotin-qizlar qo'mitasi raisi bilan birgalikda quyidagi ishlarni amalga oshiradi:

– oilada er-xotin o'rtasidagi mavjud muammolar hamda muhitni o'rganib, nizoni yuzaga keltirgan psixologik omillarni aniqlaydi;

– ushbu huquqbuzarlik oldin ham er-xotin o'rtasida sodir etilgan yoki etilmaganini, ular o'rtasida oldindan adovat yoki ziddiyat mavjud yoki mavjud emasligini o'rganib chiqadi va munosabatlarni psixologik tahlil qiladi;

– oiladagi shaxslarning turmush tarzi, muhitga ta'sir etuvchi salbiy manbalarni aniqlab, ularni bartaraf etish choralarini ko'radi va zarur psixoprofilaktik ishlarni amalga oshiradi;

– oiladagi nizo, kelishmovchilik va janjalning kelib chiqish sabab va sharoitlarini aniqlab, ularni psixologik jihatdan o'rganib, bartaraf etish choratadbirlarini belgilaydi;

– ushbu janjallar oilaning barbod bo'lishiga olib kelishi, oilani asrash, uning mustahkamligini ta'minlashda er-xotinning o'zaro bahamjihat, bamaslahat ish ko'rishi, mavjud muammolarning yechimini birgalikda topishga harakat qilishini oila a'zolarining psixologik mosligi hamda fazilatlarini inobatga olgan holda tushuntirish ishlarini amalga oshiradi;

– er-xotin o'rtasidagi janjallarning farzandlar tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatishi, ya'ni ularning ta'lim olishida bir qator muammolarni keltirib chiqarishi mumkinligi, buning natijasida farzandlarning ota-onaga nisbatan munosabatining keskin o'zgarishi, natijada bolaning o'z oilasida bezish hollarini yuzaga kelib ehtimoli haqida tushuntirish ishlarini olib boradi;

– er-xotin o'rtasida rashk yoki xiyonatning mavjud yoki mavjud emasligi, ular o'rtasida ishonch, samimiy va axloqiy pok munosabatlarni aniqlaydi;

– oila hayotiga er yoki xotining otasi yoki onasining aralashuvi, ularning ta'siri, tarbiyaviy hamda oila mustahkamligini saqlashga bo'lgan

holatlarini o_{rganadi};

– ayolga nisbatan befarqlik, uni tushunmaslik, unga salbiy munosabatda bo_{lish}, xo_{rlash}, kamsitish, haqorat va tuhmat qilish, ruhiy tazyiq o_{tkazish} kabi holatlarni aniqlab, ularni bartaraf etish choralari ko_{radi};

– erkakning xotiniga nisbatan zo_{rlak} ishlatishi, jabr-zulm qilish hollari mavjud bo_{lsa}, ularni aniqlab, tushuntirish ishlari olib boriladi hamda ularni bartaraf etish choralari ko_{radi};

– oila a_{zolari} o_{rtasidagi} buzilgan ijtimoiy munosabatlarni qayta tiklash, ularni murosaga keltirish, o_{zaro} ishonch, mehr-muhabbat, oilaviy rishtalarni mustahkamlash choralarni amalga oshiradi;

– er va xotin o_{rtasida} mavjud muammolar, huquqbuzarlikning kelib chiqishiga olib kelgan holatlar haqida ular bilan yakka tartibda tarbiyaviy ahamiyatga molik suhbatlar o_{tkazadi}, shuningdek yana shunday huquqbuzarlikka yo_{l qo_{yadigan} bo_{lsa}}, amaldagi qonunlar asosida tegishli choralar ko_{rilishi} haqida ogohlantiradi.

Oilada qaynona-kelin o_{rtasida} nizo kelib chiqqanda, uni bartaraf etish yo_{llari}.

Profilaktika inspektori oilada qaynona va kelin o_{rtasida} nizo kelib chiqqanda mahalla fuqarolar yig_{ini} raisi, diniy-ma_{rifat} va ma_{naviy}-axloqiy tarbiya masalalari bo_{yicha} maslahatchi, mahalla jamoat posboni, xotin-qizlar qo_{mitasi} raisi bilan birgalikda quyidagi ishlarni amalga oshiradi:

– huquqbuzarlik sodir etilgan xonadonga borib, nizoni joyida bartaraf etish choralari ko_{radi};

– oiladagi mavjud muammo va kamchiliklar, muhit, qaynona-kelin hamda oila a_{zolarining} kelimga nisbatan munosabatini psixologik tahlil qiladi va o_{rganadi};

– oldin ham qaynona-kelin o_{rtasida} nizo bo_{lgan} yoki bo_{lmagan}ligi, ular o_{rtasida} adovat va ziddiyatning bor yoki yo_{qligini} aniqlaydi, agar oilada shunday nizo va janjallar yana sodir etiladigan bo_{lsa}, oila barbod bo_{lishi}, farzandlar qarovsiz va nazoratsiz qolib ketishi mumkinligini tushuntiradi;

– janjalning kelib chiqish sabab va sharoitlarini aniqlaydi va qaynona-kelin o_{rtasida} buzilgan munosabatlarni qayta tiklash, salbiy holatlarni bartaraf etishga doir psixologik chora-tadbirlar ko_{radi};

– oilada kelimga nisbatan eri va oila a_{zolarining} munosabatini o_{rganadi};

– kelinning ota-onasi, qarindosh-urug_{laming} oilaviy hayotga aralashuvi kabi holatlarni tahlil qiladi va o_{rganadi};

– oilaning boshqa a_{zolari} tomonidan kelimga nisbatan psixologik tazyiq

yoki zo_ravonliklar o_tkazilgani yoki yo_qligini aniqlaydi;

– kelinga haddan tashqari ko_p topshiriqlar berish, qo_lidan kelmaydigan yoki jismoniy, ruhiy imkoniyati yetishmaydigan ishlarni buyurish holatlari bor-yo_qligini o_rganadi;

– agar qaynonaning kelinga nisbatan zo_dlik ishlatishi, jabr-zulm qilishi hollarida, mahalla faollari ko_magida uni bartaraf etish choralari ko_radi, kerak bo_sa yakka tartibda profilaktik suhbat o_tkazadi;

– takroran shunday holatlar sodir etilsa, unda ichki ishlar organlarining profilaktik hisobga olinishi mumkinligi haqida ogohlantiradi.

Profilaktika (katta) inspektori notinch oilalar bilan ishlashda fuqarolar yig_ini bilan hamkorlikda quyidagi ishlarni amalga oshiradi:

– oilalardagi muammolarni milliy va ma'naviy qadriyatlar, urf-odatlar va an'analardan kelib chiqqan holda hal qiladi, ularning huquqiy madaniyati va ijtimoiy faolligini oshirib, ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlaydi;

– fuqarolar yig_ini kengashi va fuqarolar yig_ini raisi profilaktika inspektori bilan hamkorlikda ijtimoiy xavfli ahvolda bo_lgan oilalar bilan ishlash komissiyalari faoliyatining asosiy yo_nalishlarini belgilaydi;

– oilalardagi ma'naviy-ruhiy muhitni sog_lomlashtirish chora-tadbirlarini ko_radi;

– o_zaro hamkorlikda notinch oilalarni o_z vaqtida aniqlab, oilada oila a'zolari o_rtasida buzilgan munosabatlarni tiklaydi, huquqbuzarlik sodir etgan shaxslar xulq-atvorini jamoatchilik ishtirokida muhokama qiladi;

– farzand tarbiyasi bilan shug_ullamaydigan ota-onalarni aniqlab, ular bilan tarbiyaviy-profilaktik suhbatlar olib borishda psixologik bilimlardan unumli foydalanadi;

– voyaga yetmaganlarning nazoratsiz qolishini oldini olishga doir jamoatchilik ishlarini tashkil etadi, ota-onasining qaramog_siz qolgan bolalarni tegishli davlat muassasalariga joylashtirish, oilaviy janjalkashlarni aniqlaydi va ular bilan profilaktik ishlarni tashkil etadi;

– ilgari sudlangan shaxslarning turmush tarzini nazorat qilib, ularning huquqbuzarlik yoki jinoyat sodir etishining oldini oladi, targ_ibot-tashviqot ishlari olib boradi;

– oilaviy janjallar oqibatida yuzaga kelgan er-xotin, aka-uka, opa-singil, ota-ona va farzand, qaynona va kelin, qo_ni-qo_shnilar o_rtasida buzilgan munosabatlarni tiklashda ularga psixologik ta'sir o_tkazgan holda aniq choralar ko_radi;

– oilaviy janjallar kelib chiqish sabablarini aniqlab, ularni psixologik tahlil qiladi, munosabatlarni o_rganadi va yuzaga kelgan salbiy holatlarni bartaraf etadi;

– oilada milliy qadriyatlarimizga zid bo_lgan axloq-odob doirasida

nojo_ ya xatti-harakatlarga yo_l qo_yayotgan shaxslarni, (ayniqsa, ayollarni) aniqlab va ularga nisbatan tegishli choralar ko_ishda fuqarolar yig_inlariga ko_maklashadi;

– ichki ishlar organlari hisobida turgan, ayniqsa ilgari sudlangan, oilada va turmushda muntazam ravishda huquqbuzarliklar sodir etuvchi shaxslar bilan profilaktik ishlar olib boradi. Zarur hollarda ularning xulq-atvori va turmush tarzini majlislarida muhokama qiladi;

– ma‘muriy hududda yashovchi oilalarga milliy qadriyatlarimiz va an‘analarimiz asosida to_y va boshqa marosimlarni o_tkazishda tegishli tavsiyalar beradi;

– aholining ijtimoiy nochor qatlamlarini qo_llab-quvvatlashda mahalla fuqarolar yig_ini raislariga ko_maklashadi, markazlashtirilgan tarzda ajratiladigan davlat mablag_laridan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda maqsadli va samarali foydalanilishini ta‘minlaydi;

– kam ta‘minlangan oilalar, yetim bolalar, ota-onasining qaramog_idan mahrum bo_lgan bolalarning maishiy sharoitlarini yaxshilash to_g_risida tegishli davlat organlariga takliflar kiritadi.

Profilaktika (katta) inspektori o_zining ko_pqirrali faoliyati davomida doimo psixologik bilimlarga tayanadi. Shu sababli, notinch oilalarni aniqlash va ular bilan tarbiyaviy-profilaktik ishlarni amalga oshirish jaryonida ularning psixologik o_ziga xosligini, avvalo oiladagi ijtimoiy-ruhiy muhitni, oilaning urf-odatlarini, qadriyatlarini, udumlarini, oila a‘zolarining psixologik xususiyatlari bilan yaqindan tanishishi lozim.

Savol va topshiriqlar

1. Notinch oilalarda nizo va kelishmovchiliklarni keltirib chiqaruvchi qanday omillarni bilasiz?

2. Oilada nosog_bm ijtimoiy-ruhiy muhitning shakllanishiga nimalar sabab bo_ladi?

3. Notinch oilalarda jinoyatlarning kelib chiqishida kriminogen holatlarining qanday o_rni bor?

4. Oilada shaxsning salbiy shakllanishini ta‘minlovchi axloqqa zid qanday omillar mavjud?

5. Oila-turmush doirasida jinoyat sodir etgan shaxslarning psixologik tavsifini aytib bering.

6. Oila-turmush doirasida jinoyat sodir etgan shaxslarning psixologik tuzilishini aytib bering.

7. Profilaktika inspektorining oila-turmush sohasidagi jinoyatlarning oldini olishda jamoat tashkilotlari bilan o_zaro hamkorligining qanday psixologik jihatlarni bilasiz?

X bob. VOYAGA YETMAGANLAR HUQUQBUZARLIKLARI PROFILAKTIKASI FAOLIYATINING PSIXOLOGIK ASOSLARI

1-§. Voyaga yetmaganlar nazoratsizligi va huquqbuzarliklari profilaktikasi psixologiyasining huquqiy asoslari

Voyaga yetmaganlar o_{tasida} nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning oldini olishni samarali tashkil etish bugungi kunda bolalarning huquq va erkinliklarini huquqiy himoya qilish, ular o_{tasida} nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi bilan shug_{ullanuvchi} subyektlar faoliyatini huquqiy ta_{min}lashda psixologik omillarni alohida e_{tib}orga olishni taqozo etmoqda. Chunki, voyaga yetmaganlar o_{tasida} nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasi psixologiyasi bolaning nafaqat biofiziologik, shu bilan birga, uning ehtiyoji, qiziqishi, u ishtirokchi bo_{lgan} va kuzatayotgan ijtimoiy-ruhiy munosabatlar, shuningdek bola hamda u o_{sib} ulg_{ayayotgan} muhitning kuzatuvga, maslahatga, huquqiy, ijtimoiy, psixologik-pedagogik, tibbiy va boshqa turdagi yordamga muhtojligi bilan bog_{liq}dir.

Voyaga yetmaganlar o_{tasida} nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasi psixologiyasiga oid qoidalar bola huquqlari to_{g_{risidagi}} xalqaro normativ-huquqiy hujjatlarda va O_{zbekiston} Respublikasining bir qator qonunlari hamda qonunosti hujjatlarida o_{zaksini} topgan.

Voyaga yetmaganlar o_{rtasida} nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasi psixologiyasiga oid qoidalarni Bola huquqlari to_{g_{risidagi}} Konvensiya (1989-yil 20-noyabr), Voyaga yetmaganlar ishlari bo_{yicha} odil sudlovni amalga oshirish Pekin qoidalari (1985), BMTning Ozodlikdan mahrum etilgan voyaga yetmagan bolalarni himoya qilishga doir qoidalar (1986-yil 21-may), BMTning Voyaga yetmaganlar o_{rtasida} huquqbuzarliklarning oldini olish bo_{yicha} dasturiy prinsiplar («Ar-Riyod» dasturiy prinsiplari, 1990-yil 1-dekabr), Bola huquqlari to_{g_{risidagi}} Konvensiyaga Qurolli mojarolarga ishtirok etuvchi bolalar to_{g_{risidagi}} fakultativ Protokol (2000-yil 25-may), Bolalar savdosi, bola prostitutsiyasi va bola pornografiyasiga qarshi bola huquqlari bo_{yicha} Konvensiyaga qo_{shimcha} Protokol (2000-yil 25-may), Jinoyat qurboni va guvohi bo_{lgan} bolalar bilan bog_{liq} ishlar bo_{yicha} odil sudlovning rahbariy prinsiplari (2005-yil 22-iyul) va boshqa bir qator xalqaro hujjatlarda uchratish mumkin.

Yuqorida sanab o_{tilgan} xalqaro normativ-huquqiy hujjatlarning voyaga yetmaganlar o_{tasida} nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasi psixologiyasiga oid bo_{lgan} ayrim normalarini ko_{rib} chiqamiz.

Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasi, Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya¹, ayniqsa BMTning «Ar-Riyod» dasturiy prinsiplari deb nom olgan 1990-yil 1-dekabrda Voyaga yetmaganlar orasida jinoyatchilikning oldini olish bo'yicha dasturiy prinsiplar normalarida bevosita har bir davlat va jamiyat o'z qonunlarida bolalarning yoshi bilan bog'liq fiziologik, ijtimoiy-ruhiy holatini hisobga olishini belgilovchi qoidalarni o'zida mujassamlashtirgan bo'lishi hamda o'z faoliyatida ularga rioya etilishini ta'minlashi belgilangan. Ushbu normalarda belgilangan quyida ko'rsatilgan qoidalar voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasiga oid milliy qonunlar va qonun osti hujjatlari normalariga singdirilishi, shuningdek ularni hayotda qo'llash jarayonida esa to'liq rioya etilishi talab qilinadi.

Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasining 25-moddasiga ko'ra, onalik va bolalik alohida g'amxo'rlik va yordam huquqini beradi, Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiyaning 2-pritsipiga binoan, har bir bola oilasini, davlat va jamiyatni uning voyaga yetmaganlik holati talabidan kelib chiqqan holda himoya qilish huquqiga ega.

Qonuniy, ijtimoiy foydali faoliyatda ishtirok etish mobaynida jamiyat va hayotga nisbatan insonparvarlik qarashlarini shakllantirib borish asosida yoshlar jinoiy faoliyatga yo'l qo'ymaslik prinsiplari ruhida tarbiya topishi mumkin (BMTning Voyaga yetmagan o'rtasida huquqbuzarliklarning oldini olish (Ar-Riyod) dasturiy prinsiplari, 1-m.)

Davlat jinoyat sodir etishda ayblanayotgan har bir bolaning yoshini va jamiyatga moslashishga va jamoat hayotida faol ishtirok etish xohishini hisobga olib, u bilan muomala qilishda bola qadr-qimmatini va ahamiyatini bilishi, rivojlantirishga yordam berishini tan olishi zarur.

Mazkur dasturiy prinsiplarga ko'ra voyaga yetmagan insonlar jamiyatda faol rol o'ynashi va uning to'laqonli ishtirokchisi bo'lishi lozim hamda ularga nisbatan jamiyat hayotiga tayyorlash yoxud nazorat qilish obyekti sifatidagina qaralmasligi lozim.

Barcha bolalarning o'z qarashlarini erkin bayon qilish huquqiga muvofiq ularga taalluqli barcha masalalar bo'yicha bolalarga ularga oid barcha muhokamalarda yo shaxsan o'zi yoki o'z vakili orqali tinglanish imkoniyati berilishi kerak. Bolaning fikrlari uning yoshi va aqliga muvofiq darajada ahamiyatga ega bo'lishi kerak (Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya, 12-m).

Ar-Riyod dasturiy prinsiplarini milliy huquq tizimiga muvofiq amalga oshirishda erta bolalik davridanoq yoshlar farovonligini ta'minlash

¹ O'zbekiston Respublikasi mazkur konvensiyaga Oliy Majlisning 1992 yil 9 dekabrda 575-XII-sonli qarori bilan qo'shilgan.

jinoyatlarning oldini olishga qaratilgan har qanday dasturning diqqat markazida turishi lozim (BMTning Voyaga yetmagan o_{rt}asida huquqbuzarliklarning oldini olish (Ar-Riyod) dasturiy prinsiplari, 1-m.).

Bolalarni ushlashga oid bo_{lg}an normalar, bolalar uchun ko_{pch}ilik hollarda eng ma'quli ularni ota-onalaridan ajratmaslik hisoblanadi degan prinsipga asoslanadi (Bola huquqlari to_gg_{is}idagi konvensiya, 9-m.).

Voyaga yetmagan bolalar o_{rt}asida jinoyatchilikning oldini olish borasidagi siyosatni amalga oshirishning shuningdek muntazam ravishda o_{rgan}ish va choralar ishlab chiqishning zarurligi va muhimligini tan olish lozim (BMTning Voyaga yetmagan o_{rt}asida huquqbuzarliklarning oldini olish (Ar-Riyod) dasturiy prinsiplari, 1-m.).

Bolani o_zining rivojlanishiga jiddiy ziyon yetkazmaydigan yoki boshqalarga zarari tegmaydigan xulqi uchun jazolashdan hamda kriminalizatsiyadan ehtiyot bo_lishi kerak.

Bunday siyosat va choralarda quyidagilar ko_zda tutilishi zarur:

a) imkoniyatlarni, xususan, ta'lim olish sohasida, yoshlarning ehtiyojlarini qanoatlantirish va barcha o_{sm}irlar, ayniqsa, tahdid ostida yoxud ijtimoiy xavfli holatda bo_{lg}an va alohida g_{am}xo_rlik hamda himoyaga muhtoj yoshlar shaxsini rivojlantirishni ta'min etadigan qo_{ll}ab-quvvatlash tizimini yaratish imkoniyatlarini ta'minlash (BMTning Voyaga yetmagan o_{rt}asida huquqbuzarliklarning oldini olish (Ar-Riyod) dasturiy prinsiplari, 1-m.);

b) yoshlar o_{rt}asida jinoyatchilikning oldini olish bo_yicha maxsus nazariyalar va mazkur masalaga oid, huquqbuzarliklarni sodir etish zaruriyati va imkoniyatlarini kamaytirish yoki bunga sabab bo_{lad}igan shart-sharoitlarni cheklashga yo_naltirilgan qonunlar, jarayonlar, muassasalar, vositalar va xizmatlar tizimlaridan foydalanishga asoslangan alohida yondashuvlar.

Zarur bo_{lg}anda, davlat voyaga yetmagan huquqbuzar ishini inson huquqlari va huquqiy kafolatlariga yaxlit va to_{li}q rioya etilishi sharti bilan rasmiy sud jarayoniga murojaat qilmasdan ko_{ri}b chiqishi zarur. Muqobil usullarga jamoatchilik yoki boshqa xizmatlarga jalb etish kiradi (Bola huquqlari to_gg_{is}idagi konvensiyaning 40(3) (b)-bandi. Voyaga yetmaganlar ishlari bo_yicha odil sudlovni amalga oshirish Pekin qoidalari, 11-qoida);

d) rasmiy organlarning avvalo voyaga yetmagan bolalar umumiy manfaatlarini hisobga olgan holda hamda xolis va adolatli yondashuv asosida amalga oshiriladigan aralashuvi (BMTning Voyaga yetmagan o_{rt}asida huquqbuzarliklarning oldini olish (Ar-Riyod) dasturiy prinsiplari, 1-m.).

Huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari bilan bolalar o_{rt}asida muloqot shunday amalga oshirilishi lozimki, bunda bolaning huquqiy maqomi hurmat qilinishi, unga hech qanday zarar yetkazilmasligi va uning

farovonligi uchun g_{amxo}rlik ko_{rsatilishi} zarur (Voyaga yetmaganlar ishlari bo_{yicha} odil sudlovni amalga oshirish Pekin qoidalarini, 11-qoida).

Voyaga yetmaganlarga qo_{llaniladigan} jarayonlar, shu jumladan sud muhokamasi ham bola huquqlarini va xavfsizligini himoya qilishi hamda uning yoshini va tuzalish (to_{g_{ni}} yo_{lga} kirish)ga xohishini hisobga olishi zarur (Fuqarolik va siyosiy huquqlar to_{g_{isidagi}} Xalqaro pakt 14(4)-m, Ozodlikdan mahrum etilgan voyaga yetmaganlar huquqlarini himoya qilish bo_{yicha} BMT qoidalarining 1-paragrafi);

e) barcha o_{smirlarning} farovonligi, rivojlanishi, huquq va manfaatlarini ta'minlash (BMTning Voyaga yetmagan o_{rtasida} huquqbuzarliklarning oldini olish (Ar-Riyod) dasturiy prinsiplari, 1-m.);

f) o_{smirlarning} umumiy qoida va qadriyatlarga mos kelmaydigan qiliqlari va xulqi aksariyat hollarda o_{shish} va ulg_{ayish} jarayoni bilan bog_{liq} ekanini va qoidaga ko_{ra}, ulg_{aygan} sari ko_{pchilik} kishilarning xulq-atvori o_{zo_{zidan}} o_{zgarib} borishini hisobga olish;

g) o_{smirga} nisbatan «buzg_{unchi}», «huquqbuzar» yoki «boshlovchi huquqbuzar» kabi ta'riflarning ishlatilishi, ekspertlardan aksariyatining fikricha, ko_p hollarda ularda barqaror ravishda nojo_{ya} yurish-turish tarzi rivojlanishi uchun ko_{maklashishining} mohiyatiga tushunib yetish (BMTning Voyaga yetmagan o_{rtasida} huquqbuzarliklarning oldini olish (Ar-Riyod) dasturiy prinsiplari, 1-m.).

Bolalarning hissiy, ma'naviy va aqliy jihatdan kamolga yetmaganligini hisobga olgan holda ularning jinoiy javobgarlik yoshi juda erta bo_{lmasligi} kerak (Voyaga yetmaganlar ishlari bo_{yicha} odil sudlovni amalga oshirish Pekin qoidalarining 4-qoidasi).

Davlatlar bolalarni ozodlikdan mahrum qilishning eng kichik yoshini ko_{rsatadigan} qonunlar o_{rnatishi} zarur (Ozodlikdan mahrum etilgan voyaga yetmaganlar huquqlarini himoya qilish bo_{yicha} BMT qoidalarining 11(a)-qoidasi).

Bola huquqlari haqidagi konvensiyada, agar milliy qonun bo_{yicha} voyaga yetish erta vujudga kelmasa, 18 yoshdan kichik bo_{lgan} har bir inson bola deb belgilangan (Bola huquqlari to_{g_{isidagi}} konvensiya, 1-m). Ayniqsa, hali hech qanday muassasalar tashkil etilmagan joylarda voyaga yetmagan bolalar o_{rtasida} jinoyatchilikning oldini olish uchun jamoa xizmatlari va dasturlarini ishlab chiqish zarur. Rasmiy ijtimoiy nazorat muassasalaridan ilojisiz hollardagina foydalanish kerak (BMTning Voyaga yetmagan o_{rtasida} huquqbuzarliklarning oldini olish (Ar-Riyod) dasturiy prinsiplari, 1-m.).

Qayd etish joizki, mustaqillik yillarida O_{zbekiston} sud-huquq tizimida amalga oshirilgan islohotlar jarayonida bosqichma-bosqich bola huquq-

lariga oid qabul qilingan qonunlar va qonunosti hujjatlariga yuqorida tahlil qilingan xalqaro huquq normalaridagi asosiy qoidalar hamda g_oyalar to_liq singdirilgan hamda ularning hayotda keng qo_llanilayotganligi bir qator xalqaro konferensiya materiallarida va adabiyotlarda asosli tahlil qilib berilgan¹.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, o_zbek xalqining avlodan-avlodga o_tib kelayotgan qadriyatlariga, davlatchiligi rivojining tarixiy tajribasiga tayangan hamda hozirgi va kelajak avlodlar oldidagi yuksak mas'uliyatini anglagan holda jamiyatda inson, ayniqsa, ona va bola huquqlarini ta'minlashga oid qoidalar milliy qonunchiligimizga kiritildi va amaliyotga joriy etilmoqda. Ona va bola huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini xalqaro standartlarda ko_zda tutilgan qoidalardan ham yuqori darajada milliy qonunchiligimizga singdirilganligi va hayotga tatbiq etilayotganligi bugungi kunda xalqaro ekspertlar tomonidan tan olinmoqda va e'tirof etilmoqda².

Milliy huquq tizimidagi voyaga yetmaganlar o_rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasi psixologiyasini belgilab beruvchi normativ-huquqiy hujjatlarni mazmun va xususiyatiga ko_ra quyidagicha tasniflash mumkin:

– voyaga yetmaganlarning huquq va erkinliklarini ta'minlash yo_nalishlarini belgilab beruvchi normativ-huquqiy hujjatlar;

– voyaga yetmaganlar huquq va erkinliklarini himoya qilish, nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasi hamda ular tomonidan sodir etilgan ma'muriy va jinoiy ishlarni ko_rib chiqish tartibini belgilab beruvchi normativ-huquqiy hujjatlar;

– voyaga yetmaganlar o_rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning oldini olish bilan shug_ullanuvchi subyektlarning faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar.

Voyaga yetmaganlarning huquq va erkinliklarini ta'minlash yo_nalishlarini belgilab beruvchi normativ-huquqiy hujjatlarga O_zbekiston Respub-

¹ Qarang: Болалиқдан улғайиш сари: ижтимоий ҳимоя, ижтимоий иш, ижтимоий интеграция. Халқаро форум материаллари. – Т., 2009; Ўзбекистонда болаларни ижтимоий ҳимоя қилиш тизимини бошқаришни замонавий талабларга мувофиқ такомиллаштириш: ютуқлар ва ривожланиш истиқболлари: Халқаро форум материаллари. – Т., 2011; Духовно-нравственные основы общества в системе социальной поддержки детства и семьи: Халқаро форум материаллари. – Т., 2012.; Болалар ва ёшларни ижтимоий қўллаб-қувватлаш – фаровон ва тараққий этиб боровчи жамият асоси: Халқаро форум материаллари. – Т., 2013.; Исмаилов И., Зиёдуллаев М., Исраилова Н., Азимова Ф. Вояга етмаганлар назоратсизлиги ва ҳуқуқбузарликларининг олдини олиш: Ўқув-амалий қўлланма. – Т., 2011.– Б. 14-48.

² Qarang: Ўзбекистонда она ва бола соғлиғини ҳимоя қилишнинг «Соғлом она – соғлом бола» миллий модели: Халқаро симпозиум материаллари.– Т., 2011.

likasining Konstitutsiyasi, shuningdek «O_zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to_g_risida»gi va «Bola huquqlarining kafolatlari to_g_riisida»gi qonunlarini kiritish mumkin.

O_zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 45-moddasida voyaga yetmaganlarning huquqlari davlat himoyasida ekanligi, 64-moddasida ota-onalar o_z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majbur ekanliklari, davlat va jamiyat yetim bolalarni va ota-onalarining vasiyligidan mahrum bo_lgan bolalarni boqish, tarbiyalash va o_qitishni ta'minlashi, bolalarga bag_ishlangan xayriya faoliyatlarini rag_batlantirishi mustahkamlab qo_yilgan. Bundan tashqari, Konstitutsiyaning 65-moddasida farzandlar ota-onalarning nasl-nasabidan va fuqarolik holatidan qat'i nazar, qonun oldida tengligi, onalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinishi mustahkamlangan.

O_zbekiston Respublikasining «O_zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to_g_riisida»gi 1991-yil 20-noyabr qonuni yoshlarni huquqiy muhofaza qilish va ularning huquqlarini ta'minlash, voyaga yetmagan huquqbuzarlarning huquqlarini muhofaza qilish, iste'dodli yoshlarni qo_llab-quvvatlash, yoshlar tadbirkorligini qo_llab-quvvatlash hamda yoshlarni ijtimoiy jihatdan himoya qilish borasidagi dastlabki huquqiy asoslardan biridir.

Qonunda O_zbekiston Respublikasining yoshlarga oid siyosatining maqsadi va qoidalari, ushbu sohadagi vakolatlari, yoshlarga oid davlat siyosatining huquqiy asoslari va subyektlari, yoshlarning huquqlari, yoshlarni huquqiy va ijtimoiy muhofaza qilish, iste'dodli yoshlarni qo_llab-quvvatlash masalalari, O_zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish tartibi, jumladan uning tashkiliy va iqtisodiy asoslari belgilab berilgan. Mustaqillikning dastlabki yilidayoq yoshlar, shu jumladan voyaga yetmaganlarga oid siyosat haqida alohida qonunning qabul qilinganligi, albatta, O_zbekiston inson, xususan bola huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilishda xalqaro huquq normalari talablariga asoslanayotganligini ko_rsatadi.

O_zbekiston Respublikasining «Bola huquqlarining kafolatlari to_g_riisida»gi 2008-yil 7-yanvar qonunida bola huquqlarini himoya qilish bo_yicha davlat siyosatining asosiy yo_nalishlari, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining bola huquqlarini ta'minlash bo_yicha vakolatlari, bu borada fuqarolarning o_zini o_zi boshqarish organlari va nodavlat notijorat tashkilotlarining ishtiroki, bola huquqlarining asosiy kafolatlari, ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar huquqlarining qo_shimcha kafolatlari va ushbu sohaga doir boshqa ijtimoiy munosabatlar huquqiy tartibga solingan.

Ushbu qonun voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning oldini olishda nafaqat ijtimoiy profilaktikani, balki maxsus profilaktikani amalga oshirishda ham huquqiy asos sifatida xizmat qiladi. Chunonchi, mazkur qonunning 3-moddasida yuzaga kelgan holatlar sababli og'ir turmush sharoitida qolgan, davlat va jamiyat tomonidan alohida himoya qilishga hamda qo'llab-quvvatlashga muhtoj bolalar ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar sifatida e'tirof etilib, ular qatoriga doimiy ravishda profilaktik ishlar olib borish talab etiladigan ixtisoslashtirilgan bolalar muassasalarida tarbiyalanayotgan bolalar; muayyan yashash joyiga ega bo'lmagan bolalar; jinoiy javobgarlikka tortilgan va jazoni ijro etish muassasalarida turgan bolalar ham kiritilgan.

Ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasining «Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida»gi alohida qonuni qabul qilinganligi, shuningdek unda Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiyaning asosiy qoidalarining to'liq mustahkamlanganligi yana bir bor O'zbekistonda bola huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarining davlat himoyasida ekanligini ko'rsatadi. Masalan, qonunda: ijtimoiy xavfli qilmishlar sodir etgan, lekin jinoiy javobgarlikka tortish mumkin bo'lgan yoshga to'lmagan yoxud ruhiy kasallik bilan bog'liq bo'lmagan holda rivojlanishda o'z yoshiga nisbatan ancha orqada qolishi oqibatida sodir etgan qilmishining ahamiyatini to'la ravishda anglab yetishga qodir bo'lmaganligi;

- aybliligi to'g'risidagi masala hal qilinmay turib jinoiy javobgarlikdan ozod qilingan, materiallar voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyaga ko'rib chiqish uchun topshirilganligi;

- ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasalariga joylashtirish tariqasidagi majburlov chorasi qo'llanilgan holda jinoiy jazodan ozod qilinganligi;

- yakka tartibdagi profilaktika ishi olib borilayotganligiga qaramay huquqbuzarliklar yoki boshqa g'ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir qilishni davom ettirayotganligi sababli sudning ajrimiga asosan ixtisoslashtirilgan bolalar muassasalariga va u joyda tarbiyalanayotgan bolalar ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar toifasiga kiritilgan.

Qonuning ushbu qoidasi bunday toifadagi bolalar bilan ishlovchi, shu jumladan voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshiruvchi har bir subyekt ular bilan olib boriladigan har qanday tarbiyaviy, huquqiy, tibbiy, shuningdek profilaktik chora-tadbirlarda, *birinchidan*, ular ijtimoiy himoyaga muhtojligini, *ikkinchidan*, ularning fiziologik, ijtimoiy-psixologik holatini to'liq anglashini va hisobga olishini talab qiladi.

Voyaga yetmaganlar huquq va erkinliklarini himoya qilish, ular o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasini hamda ular

tomonidan sodir etilgan ma'muriy va jinoiy ishlarni ko'rib chiqish tartibini belgilab beruvchi *normativ-huquqiy hujjatlarga* O'zbekiston Respublikasining Jinoyat, Jinoyat-protsessual, Jinoyat-ijroiya va Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodekslarini kiritish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 2-moddasida *birinchidan*, shaxsni, uning huquq va erkinliklarini, jamiyat va davlat manfaatlarini, mulkni, tabiiy muhitni, tinchlikni, inson xavfsizligini jinoiy tajovuzlardan muhofaza etish, *ikkinchidan*, jinoyatlarning oldini olish, *uchinchidan*, fuqarolarni Respublika Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya etish ruhida tarbiyalash uning asosiy vazifalari qilib belgilangan.

Jinoyat kodeksining ayrim moddalarida jinoyatning aynan voyaga yetmagan shaxsga nisbatan sodir etilgani og'irlashtiruvchi holat sifatida ko'rsatilgan bo'lsa (JK 110-moddasi 2-qismining «a» bandi, 113-moddasi 3-qismining «b» bandi, 137-moddasi 2-qismining «a» bandi, 245-moddasi 2-qismining «a» bandi), muayyan moddalarda esa voyaga yetmaganlarning huquqlarini buzganlik uchun alohida javobgarlik belgilab berilgan (122-modda – voyaga yetmagan yoki mehnatga layoqatsiz shaxslarni moddiy ta'minlashdan bo'yin tovlash, 127-modda – voyaga yetmagan shaxsni g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarga jalb qilish).

Jinoyat kodeksining Maxsus qismi normalari bilan jinoyat deb ko'rsatilgan qilmish uchun jazoning belgilanganligi to'g'ridan-to'g'ri shaxslarni, shu jumladan voyaga yetmaganlarni bunday jinoiy qilmishlarni sodir etishdan ushlab turadi. Tadqiqotlar va jinoyatchilikka qarshi kurash amaliyoti shuni ko'rsatmoqdaki, jamiyatda jinoyat uchun jazoning muqarrarligini ta'minlash qanchalik yuqori darajada bo'lsa, jinoyat kodeksi normalarining jinoyatlarning oldini olish bo'yicha samarasi ham shuncha yuqori bo'ladi.

Ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida «Voyaga yetmaganlar javobgarligining xususiyatlari» deb nomlangan alohida (oltinchi) bo'lim mavjud bo'lib, unda voyaga yetmaganlarga nisbatan qo'llaniladigan jazolar tizimi (81–85-moddalar) va ularni tayinlash (86-modda), javobgarlikdan va jazodan ozod qilish tartibi (87–90-moddalar) belgilab berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi normalari: *birinchidan*, jinoyat ishlarini yuritishning jinoyat-protsessual qonunlarda belgilangan tartibda qonuniylikni mustahkamlashga; *ikkinchidan*, jinoyatlarning oldini olishga; *uchinchidan*, shaxs, davlat va jamiyat manfaatlarini himoya etishga asos bo'lib xizmat qiladi. Xususan, jinoyat-protsessual qonun hujjatlarining vazifalari jinoyatlarni tez va to'la ochishdan, jinoyat sodir etgan har bir shaxsga adolatli jazo berilishi hamda aybi bo'lmagan

hech bir shaxs javobgarlikka tortilmasligi va hukm qilinmasligi uchun aybdorlarni fosh etishdan hamda qonunning to'g'ri tatbiq etilishini ta'minlashdan iboratdir.

Jinoyat-protsessual kodeksida voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlarni yuritish tartibi (121, 253, 547–564-moddalar) aniq belgilab berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksida voyaga yetmaganlarga nisbatan belgilangan majburlov choralari, tayinlangan jazo choralari ijro etish tartibi va uning o'ziga xos xususiyatlari belgilab berilgan bo'lib, ushbu Kodeks *birinchidan*, voyaga yetmaganlar tomonidan qayta jinoyat sodir etilishining oldini olish, *ikkinchidan*, tarbiya koloniyalarida saqlanayotgan voyaga yetmagan mahkumlarning huquqlarini va erkinliklarini himoya qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Jinoyat-ijroiya kodeksida voyaga yetmaganlarning tarbiya koloniyalarida jazoni o'tash tartibi, shartlari, tarbiya koloniyalarida qo'llaniladigan qo'shimcha rag'batlantirish va intizomiy jazo choralari, voyaga yetmaganni hibsxonaga kiritib qo'yish tariqasidagi intizomiy jazo chorasini qo'llash xususiyatlari, mahkumlarni tarbiya koloniyalarida qoldirish, mahkumlarni tarbiya koloniyalaridan jazoni ijro etish koloniyalariga o'tkazish masalalari (124–129-moddalar) va voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan majburlov choralari qo'llash tartibi (195–197-moddalar) belgilab berilgan.

O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 7-moddasi «Ma'muriy huquqbuzarliklarning oldini olish» deb nomlanib unda: *birinchidan*, davlat organlari ma'muriy huquqbuzarliklarning oldini olish, ularning sodir etilishiga olib keluvchi sabablar va sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etishga, fuqarolarni ongli, intizomli bo'lish, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya qilish ruhida tarbiyalashga yo'naltirilgan tadbirlar ishlab chiqadilar va ularni amalga oshiradilar; *ikkinchidan*, mahalliy davlat hokimiyati organlari O'zbekiston Konstitutsiyasiga, Qoraqalpog'iston Respublikasi hududida esa Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq qonuniylik, huquq-tartibot va fuqarolar xavfsizligini ta'min eta borib, o'z hududlariga barcha davlat organlari va jamoat birlashmalarining ma'muriy huquqbuzarliklarning oldini olish borasidagi ishlarini muvofiqlashtirib turadilar, ichki ishlar organlari, voyaga yetmaganlar ishlari bilan shug'ullanuvchi komissiyalar hamda ularga hisobdor ma'muriy huquqbuzarlik bilan kurash olib boruvchi boshqa organlar faoliyatiga rahbarlik qiladilar.

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksda voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan ma'muriy huquqbuzarliklar uchun javobgarlik

masalalari, ushbu turdagi ishlarni yuritish tartibi, ularni yurituvchi subyektlarning vakolatlari, shuningdek voyaga yetmaganlarga nisbatan sodir etilgan alohida turdagi huquqbuzarliklar uchun javobgarlik masalalari belgilab berilgan.

Shunisi e'tiborliki, Kodeksda voyaga yetmaganlar tomonidan jinoyat sodir etilishini yengillashtiruvchi, ularga nisbatan sodir etilgan jinoyatlar esa og'irlashtiruvchi holat sifatida belgilangan.

Bundan tashqari, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksda bevosita voyaga yetmaganlarning huquqlarini himoya qilishga qaratilgan alohida normalar ham mavjud bo'lib, bularga: bolalarni tarbiyalash va ularga ta'lim berish borasidagi majburiyatlarni bajarmaslik (47-m.); ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar to'g'risidagi ma'lumotlarni vasiylik va homiylik organiga xabar qilmaslik (47¹-m.); voyaga yetmagan shaxsni g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarga jalb qilish (188-m.); voyaga yetmagan shaxsni ma'muriy huquqbuzarlik sodir etishga jalb qilish (188¹-m.); voyaga yetmaganlarni garovga olish to'g'risidagi yozma majburiyatni bajarmaslik (207-m.) kabilarni kiritish mumkin.

Voyaga yetmaganlar orqasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning oldini olish bilan shug'ullanuvchi subyektlarning faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarga O'zbekiston Respublikasining «Voyaga yetmaganlar orqasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida»gi, «Prokuratura to'g'risida»gi, «Ta'lim to'g'risida»gi, «Vasiylik va homiylik to'g'risida»gi va boshqa qonunlar, ularning ijrosini ta'minlash, shuningdek voyaga yetmaganlar nazoratsizligi va huquqbuzarliklarining profilaktikasini amalga oshiruvchi organ va muassasalarni isloh etishga doir O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, shuningdek, ular ijrosini ta'minlashga oid idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarni kiritish mumkin.

O'zbekiston Respublikasining «Voyaga yetmaganlar orqasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida»gi 2010-yil 29-sentabr qonunida umumiy qoidalar, jumladan voyaga yetmaganlar orqasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasiga doir faoliyatning asosiy vazifalari va prinsiplari, ushbu faoliyatni axborot bilan ta'minlash, voyaga yetmaganlar orqasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasida ota-ona yoki ota-ona o'zini bosuvchi shaxslarning ishtiroki; voyaga yetmaganlar orqasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasini amalga oshiruvchi organlar hamda muassasalar va ularning vakolatlari; voyaga yetmaganlar orasida yakka tartibdagi profilaktika ishini tash-

kil etish masalalari; voyaga yetmaganni ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazi va ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasasiga joylashtirish tartiblari; voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasini amalga oshiruvchi organlar hamda muassasalarning moliyaviy va moddiy-texnika ta'minoti huquqiy tartibga solingan¹.

Mazkur qonunning qabul qilinishi, *birinchidan*, voyaga yetmaganlar nazoratsizligi va huquqbuzarliklarining profilaktikasi sohasidagi huquqiy bo'shliqni bartaraf etishga, *ikkinchidan*, ushbu sohadagi munosabatlarni tartibga soluvchi qonun osti me'yoriy hujjatlari o'rtasidagi ziddiyatlar va noaniqliklarni, *uchinchidan*, faoliyat olib boruvchi subyektlar vakolatlaridagi noaniqlik va qaytarilishlarni bartaraf etishga, *to'rtinchidan*, subyektlar, shu jumladan ichki ishlar organlarining bu sohadagi faoliyatini liberallashtirish va demokratlashtirishni yanada chuqurlashtirishga, muvofiqlashtirish va hamkorlikni yanada kengaytirishga, *beshinchidan*, voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasini xalqaro huquq talablari asosida, shuningdek bolaning ehtiyoji, fiziologik va ijtimoiy-ruhiy holatini to'liq inobatga olgan holda amalga oshirishni ta'minlashga xizmat qildi.

Shuni alohida qayd etish joizki, qonunda ta'limni boshqarish organlari o'z vakolatlari doirasida voyaga yetmaganlarga o'z hayot yo'lini va kasb-hunar tanlashida ularning qobiliyati, qiziqishi, moyilligi hamda sog'ligining holatiga muvofiq psixologik yordam ko'rsatishi, shuningdek rivojlani-shida yoki xulq-atvorida nuqsoni bo'lgan voyaga yetmaganlarni aniqlashi, ularni kompleks tekshiruvdan o'tkazadigan hamda ularning kelgusidagi ta'minoti, tarbiyasi va ta'limi shakllarini belgilash bo'yicha tavsiyalar tayyorlaydigan psixologik-tibbiy-pedagogik komissiyalar tuzishi, umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari hamda boshqa ta'lim muassasalari o'z vakolatlari doirasida rivojlanishida yoki xulq-atvorida nuqsoni yoxud o'qishida muammolari bo'lgan voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-psixologik hamda pedagogik yordam ko'rsatishi ham belgilab qo'yilgan.

Ushbu Qonun bilan yakka tartibdagi profilaktika ishi olib boriladigan voyaga yetmagan shaxslar toifalarining, ular bilan yakka tartibda ish olib borish asoslari, tartibi aniq belgilab berilganligi, shuningdek voyaga yetmaganni ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markaziga, ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasasiga joylashtirishning sud tartibining joriy etilganligi ham ushbu sohada bola huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarining xalqaro huquq talablari asosida himoya qilinishini ta'minlaydi.

¹ Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. – Т., 2010. – № 39. – 341-м.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi 1997-yil 29-avgust qonuni har kimning bilim olishdan iborat konstitusiyaviy huquqini ta'minlash asosida fuqarolarga ta'lim, tarbiya berish, kasb-hunar o'rgatishning huquqiy asoslarini belgilaydi. Mazkur qonun fuqarolarning, shu jumladan bolalarning ta'lim olish sohasidagi huquqlarini ta'minlash jarayonida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladigan asosiy normativ-huquqiy hujjatlardan biridir.

Ushbu qonunda belgilanganidek, maktabgacha ta'lim bola shaxsini sog'lom va yetuk, maktabda o'qishga tayyorlangan tarzda shakllantirishga xizmat qiladi, umumiy o'rta ta'limning boshlang'ich bosqichi umumiy o'rta ta'lim olish uchun zarur bo'lgan savodxonlik, bilim va ko'nikma asoslarini shakllantirish, umumiy o'rta ta'lim voyaga yetmaganlarga bilimlarning zarur hajmini berib, mustaqil fikrlash, tashkilotchilik qobiliyati va amaliy tajriba ko'nikmalarini rivojlantirishi, dastlabki tarzda kasbga yo'naltirishi va ta'limning navbatdagi bosqichini tanlashga yordam berish maqsadini ko'zlaydi.

O'rta maxsus ta'lim o'quvchilarning intellektual qobiliyatlarini jadal o'stirishni, ularning chuqur, tabaqalashtirilgan va kasb-hunarga yo'naltirilgan bilim olishlarini, kasb-hunarga moyilligi, mahorat va malakasini chuqur rivojlantirishni, oliy ta'lim esa yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashni ta'minlaydi.

Shuni ta'kidlash kerakki, ta'limning barcha bosqichlarida o'qitish jarayoni boshqalarning huquq va erkinliklarini hurmat qiluvchi, Konstitutsiya va qonunlarga amal qiladigan yuksak ma'naviyatli shaxsni tarbiyalash bilan uzviy bog'liqdir. «Ta'lim to'g'risida»gi qonunda tegishli ma'lumotli, kasb tayyorgarligi bor yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo'lgan shaxslar pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqiga ega ekanligi ko'rsatilgan. Shu sababli, ta'limning barcha shakllarida tarbiya jarayoni umumiy tartibdagi huquqbuzarliklar profilaktikasi hisoblanadi.

Bundan tashqari, ushbu qonunda maxsus profilaktik ishlarni olib borish talab etiladigan alohida toifadagi bolalarning ta'lim olish huquqini ta'minlash jarayonida yuzaga keluvchi ijtimoiy munosabatlarni (yetim bolalarni va ota-onalarining yoki boshqa qonuniy vakillarining vasiyligisiz qolgan bolalarni, ijtimoiy yordamga muhtoj bo'lgan bolalarni o'qitishni) tartibga solishga bevosita xizmat qiluvchi normalar ham mavjud.

Mazkur qonunda jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan, shuningdek uzoq vaqt davolanishga muhtoj bo'lgan bolalar va o'smirlarni o'qitish, ularni tarbiyalash hamda davolash uchun ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari tashkil etilishi, voyaga yetmaganlarni ushbu ta'lim muassasalariga yuborish va ulardan chiqarish ota-onalarining yoki boshqa

qonuniy vakillarining roziligi bilan psixologik-tibbiy-pedagogik komissiyaning xulosasiga binoan amalga oshirilishi mustahkamlangan.

Qonunda voyaga yetmaganlarning ota-onalari yoki qonuniy vakillarining majburiyatlari belgilab berilgani bolaning qonuniy huquq va erkinliklarini himoya qiladi, ularning tarbiyasi uchun mas'uliyatni oshiradi, voyaga yetmaganlarning maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasbiy ta'lim olishlarini, bolalar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasini ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasining yangi tahriridagi "Vasiylik va homiylik to'g'risida"gi 2014-yil 2-yanvarda e'lon qilingan qonuni: o'n to'rt yoshga to'lmagan yetim bolalarni va ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarga ta'minot, tarbiya va ta'lim berish, ularning mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida vasiylik; o'n to'rt yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan yetim bolalarni va ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarga ta'minot, tarbiya va ta'lim berish, ularning mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida homiylik belgilashni ta'minlovchi, shuningdek ushbu jarayonlar bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soluvchi normalarni o'zida mujassam etgan.

Ushbu qonunda bola huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari ta'minlash, xususan voyaga yetmaganlar nazoratsizligi va huquqbuzarliklari profilaktikasi sohasida bolalarning ijtimoiy va psixologik moslashuvi, maslahat yordami, huquqiy, ijtimoiy, psixologik-pedagogik, tibbiy yordam ko'rsatilishiga alohida e'tibor qaratilgan. Masalan, vasiylik yoki homiylik belgilanishiga muhtoj bo'lgan shaxslarni qabul qilgan oila joylashgan yerdagi vasiylik va homiylik organlari vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxslarning ijtimoiy va psixologik moslashuvini ta'minlash maqsadida ushbu oilani kuzatib borishni amalga oshirishi, bu jarayon qonun hujjatlarida nazarda tutilgan maslahat yordami, huquqiy, ijtimoiy, psixologik-pedagogik, tibbiy yordam ko'rsatilishini ko'zda tutishi hamda u bepul amalga oshirilishi mustahkamlab qo'yilgan.

Qonunning yuqoridagi talablarini ta'minlash uchun unda O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi, sog'liqni saqlash, mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirliklariga ijtimoiy ishlar sohasida vasiylik yoki homiylik belgilanishiga muhtoj bo'lgan shaxslarning maslahat yordami, ijtimoiy-huquqiy, psixologik-pedagogik, tibbiy jihatdan kompleks qo'llab-quvvatlashni ta'minlovchi mutaxassislar tayyorlash, shuningdek oila va bolalarni qo'llab-quvvatlash muassasalari tarmoqlarini, xizmatlarini, vasiylik yoki homiylik belgilanishiga muhtoj bo'lgan shaxslarga hamda

ularning oilalariga maslahat yordami, huquqiy, ijtimoiy, psixologik-pedagogik, tibbiy yordam va xizmatlar ko'rsatish markazlarini rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlarini ko'rish vakolatlari berilgan.

Bundan tashqari, mazkur qonunda tuman, shahar xalq ta'limi muassasalari faoliyatini metodik ta'minlash va tashkil etish bo'limlari, tibbiyot birlashmalari, bandlikka ko'maklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish markazlariga vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxslarga tegishincha maslahat yordami, huquqiy, ijtimoiy, psixologik-pedagogik va tibbiy yordam ko'rsatish borasida huquqni muhofaza qiluvchi organlar, ta'lim muassasalari, sog'liqni saqlash muassasalari, mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari bilan hamkorlik qilishi ham mustahkamlab qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi qonunining 2-moddasida qonun ustuvorligini ta'minlash, qonuniylikni mustahkamlash, fuqarolarning huquq hamda erkinliklarini, jamiyat va davlatning qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini, O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy tuzumini himoya qilish, huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktika qilish prokuratura organlarining asosiy vazifasi sifatida ko'rsatilgan.

Mazkur vazifalarni amalga oshirish uchun qonunda prokuratura organlari faoliyatining asosiy yo'nalishlari, prokuratura organlarini tashkil etish va ular faoliyatining asosiy prinsiplari, prokuror talablari bajarilishining majburiyligi, fuqarolarning ariza va shikoyatlarini hamda yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish, jinoyatchilikka qarshi kurash borasidagi faoliyatni muvofiqlashtirish, davlat hokimiyati va boshqaruv organlari majlislarida prokurorning ishtirok etishi masalalari, prokurorning vakolatlari aniq belgilab berilgan.

Shuni ta'kidlash joizki, prokuratura organlari tizimida voyaga yetmaganlar huquq va erkinliklarini ta'minlash, bola huquqlari, voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktika qilishga doir qonunlarning ijrosini nazorat qilish bo'yicha maxsus tuzilmalar faoliyati yo'lga qo'yilgan. Ushbu tuzilmalar davlat organlari va muassasalari, fuqarolik jamiyati institutlari, shuningdek fuqarolardan o'z faoliyatlarini, xususan bolalar bilan ishlash, ularning huquq va erkinliklarini, qonuniy manfaatlarini himoya qilishda, shuningdek ular o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirishda amaldagi qonun talablariga rioya qilishi ustidan prokuror nazoratini amalga oshiradi hamda bu sohadagi barcha subyektlar faoliyatini muvofiqlashtiradi.

Bugungi kunda O'zbekistonda 100dan ortiq qonun va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar bola huquqlarini amalga oshirish bilan bog'liq

masalalarni tartibga solmoqda¹. Ushbu qonun va normativ-huquqiy hujjatlar qoidalarini hayotda qo'llash bola huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini ta'minlash, shu jumladan voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasida bolalar fiziologik, ijtimoiy-psixologik holatini to'liq inobatga olishga oid xalqaro huquqning qoidalariga rioya etishni ta'minlaydi.

Xulosa o'rnida shuni qayd etish joizki, bugungi kunda bola huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini ta'minlash, xususan voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasida samarali natijalarga erishish ushbu sohada faoliyat olib boruvchi subyektlar, ayniqsa ichki ishlar organlari profilaktika xizmati xodimlaridan:

- voyaga yetmaganlar nazoratsizligi va huquqbuzarliklarining ijtimoiy-psixologik, qolaversa fiziologik omillarni, ularni aniqlash va zararsizlantirish, bartaraf etish usullarini;

- umumiy, maxsus, yakka tartibdagi va viktimologik profilaktika obyekti bo'lgan voyaga yetmaganlar toifalariga xos bo'lgan psixologik va fiziologik xususiyatlarni hamda ular bilan muloqot qilishga qo'yiladigan huquqiy, pedagogik, psixologik va boshqa talablarni;

- voyaga yetmaganlar nazoratsizligi va huquqbuzarliklarining ijtimoiy-psixologik, fiziologik omillarini zararsizlantirish hamda bartaraf choratadbirlarini, ularni amalga oshirish usullarini;

- rivojlangan chet davlatlarning voyaga yetmaganlar nazoratsizligi va huquqbuzarliklari profilaktikasi psixologiyasiga oid ilg'or tajribalari haqida va ularni amaliyotda qo'llash bo'yicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlarini talab qiladi.

2-§. Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning psixologik omillari

O'smirlik inson shaxsining kamol topishida alohida o'rin egallaydi. U inson kamolotining muhim bosqichi hisoblanadi. O'smirlik davrida g'oyat katta ahamiyatga ega bo'lgan psixologik o'zgarishlar ro'y beradi, bolaning muayyan ijtimoiy turmush sharoitida keyingi kamol topishi uchun zarur ta'lim-tarbiya ta'sirida barqaror, mustahkam iz qoldiruvchi ijobiy xislatlar namoyon bo'ladi. Tadrijiy ravishda izchil vujudga kelayotgan psixik o'zgarishlar, shakllanayotgan fazilatlar va shaxsning o'sishi, avvalo,

¹ Саидов А.Х. Основные направления совершенствования государственной политики Республики Узбекистан в сфере социальной защиты ребенка // Болалар ва ёшларни ижтимоий қўллаб-қувватлаш – фаровон ва тараққий этиб борувчи жамият асоси: Халқаро форум материаллари. – Т., 2013.– Б.14-19.

mazkur yoshdagi ogil-qizlar faoliyatlarining xususiyatiga bevosita bogliqdir. Osmirning boshqa yosh davrlaridan farqlanadigan oziga xos xususiyatlari mavjud bolib, ular his-tuygu va irodaviy sifatlarda oz ifodasini topadi. Osmir kichik maktab yoshidagi oquvchidan farqli ravishda hayotida ilk bor shaxs sifatida ilmiy bilishda faol ishtirok eta boshlaydi, birinchi galda faqat narsa va hodisalarning ayrim alomatlarini emas, balki ularning umumiy va obyektiv qonuniyatlarini anglab yetish, tushunish imkoniyatiga ega boladi.

Ozbekiston Prezidenti Islom Karimov ta'kidlaganidek, «...har qaysi ota-ona, ustoz va murabbiy har bir bola timsolida avvalo shaxsni korishi zarur. Ana shu oddiy talabdan kelib chiqqan holda, farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bolgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish – ta'lim-tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bolishi lozim, deb qabul qilishimiz kerak. Bu esa ta'lim va tarbiya ishini uygun holda olib borishni talab etadi»¹.

Osmir kamolotga erishgan sayin psixik dunyosida yangi fazilatlar va sifatlar paydo bola boshlaydi, ruhiyatida keskin qayta qurish sodir boladi. Ozgarishlar uning oldiga yangi talablar qoyadi, bu esa, oz navbatida, koproq huquq va erk berilishini, eng avvalo mustaqil qarorga kelish va oz xulq-atvorini maqbul deb hisoblab amalga oshirishini taqozo qiladi. Psixik takomillashish, kamolotga intilish, nisbiy barqarorlik davrining eng muhim xususiyatlari hisoblanadi.

Ijtimoiy psixologiyada osmirlarga nisbatan –Farbiyasi qiyin” jumlasini ishlatiladi, asosan tarbiyasi qiyin osmirlar deganda, kop hollarda voyaga yetmaganlarni profilaktika inspektorlari tomonidan hisobga olingan yoki olinmagan, giyohvandlik vositalari va spirtli ichimlik iste'mol qilishga qiziqishi, ogrilik va bezorilikka moyil oquvchilar nazarda tutiladi.

Hozirgi osmirlar otmishdoshlariga nisbatan jismoniy, aqliy va siyosiy-ijtimoiy jihatdan birmuncha ustunlikka ega. Ularda jinsiy yetilish, ijtimoiylashuv jarayoni, psixik osish oldinroq namoyon bolmoqda. Shu sababli bizda ogil va qizlarni 10-11 dan 14-15 yoshgacha osmirlik yoshida deb hisoblanadi².

Yoshlik – inson shaxsi shakllanadigan davr. Ushbu bosqichda shaxs nihoyatda ozgaruvchan, ya'ni atrof-muhitdagi salbiy ta'sirlarga juda beriluvchan boladi. Yoshlarda ozini nazorat qilish hissiyoti yetarli darajada rivojlanmaganligi, bunday hodisalar natijasida yuzaga keladigan –ijtimoiy turgunlik” tufayli jamiyatga moslashuv nuqsonlari gayriijtimoiy qilmishlar koinishida nisbatan oson namoyon boladi, ba'zan esa barqaror xulq-

¹ *Каримов И. А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т., 2008. – Б.61.*

atvor sifatida mustahkamlanadi, vaqt o'tgan sari tuzalishi qiyin bo'lib boradi.

Voyaga yetmaganlarning shaxs sifatida shakllanish davri ana shunday bir murakkab o'ziga xoslikni yuzaga keltiradi. Shu sababli o'smirlarning xulq-atvoridagi yuzaga kelishi mumkin xususiyatlar quyidagi omillar bilan izohlanadi:

- biologik omillar;
- psixologik omillar;
- ijtimoiy omillar.

O'smirlilik insonning balog'atga yetish davri bo'lib, o'ziga xos xususiyati bilan kamolotning boshqa pog'onalaridan keskin farqlanadi. O'smirda ro'y beradigan biologik o'zgarishlar natijasida uning psixik dunyosida tub burilish nuqtasi vujudga keladi. Qizlar va o'g'il bolalar 11 (12) –15 yoshda balog'at davriga kiradilar. Kamolotning mazkur pallasida jismoniy o'sish va jinsiy yetilish amalga oshadi.

Biologik omillarga esa quyidagilar taalluqli:

- jinsiy yetilishning boshlanishi;
- fiziologik-anatomik o'sishning rivojlanishi;
- qonda yangi gormonlarni paydo bo'lishi va x.z.

O'smirda jinsiy yetilishning boshlanishi, shuningdek, u bilan bog'liq ravishda barcha a'zolarining gurkirab rivojlanishi, hujayra va organizm boshqa sistemalarining qaytadan tuzila boshlashi. Bu vaqtda — ya'ni o'smirlilik yoshida bolalarning xulq-atvoriga xos bo'lgan alohida xususiyatlarni faqat jinsiy yetilishning boshlanishi bilan izohlash noto'g'ri bo'ladi. Bunday tushuntirish yuzaki tushuntirish va hatto ko'pincha o'zgarish sabablarini buzib ko'rsatish hisoblanadi. To'g'ri, jinsiy yetilish o'smirning bu yoshdagi xulq-atvoriga asosiy biologik omil sifatida ta'sir o'tkazadi. Mazkur yosh davrida jinsiy bezlar faoliyati kuchayadi. Balog'atga yetishning birlamchi va ikkilamchi alomatlari o'sa boshlaydi: o'g'il bolalarda ovoz o'zgaradi, yo'g'onlashadi, mo'ylov va soqol paydo bo'ladi, qizlarda esa ko'krak bezlari rivojlanadi va boshqalar. Natijada boshqa jinsga qiziqish ortadi, orzu, xohish, nozik tuyg'u, sog'inch, iztirob kabi kechinmalar paydo bo'ladi.

O'smir organizmidagi psixofiziologik o'zgarishlar depressivlik darajasining ortishiga sabab bo'lib, ularda kayfiyat tushkunligi, g'amginlik, qayg'uga tushish hamda norozilik hislarining paydo bo'lishiga asos bo'lib xizmat qilganligi kuzatiladi. Bunday xislatlar o'smirlarda ijtimoiy muhit bilan deformatsiyalanish va dezadaptasiyalanish holatini keltirib chiqarib, bolalar va o'smirlarda jinoyatchilik xulqining kelib chiqishi uchun xizmat qilishi mumkin. Lekin bu bevosita emas, balki bilvosita ta'sirdir.

Ayrim psixologlar biogenetik o₂shning biologik omillariga, ya'ni jinsiy yetilishga alohida ahamiyat beradilar. Ularning fikricha, o₂smirning psixik jihatdan inqirozga yetaklovchi, hayajonga soluvchi subyektiv ichki kechinmalari o₂g₂il va qizlarni tanholik psixologiyasiga tortar ekan. O₂smir uchun xarakterli norozilik, qo₂pollik, qaysarlik, shafqatsizlik, tajanglik, ginaxonlik, tajovuzkorlik kabi illatlar jinsiy yetilishning mahsuli yangi tuyg₂ular, mayllar, kechinmalar o₂smir xatti-harakatida hukmron bo₂lib, uning xulq-atvorini boshqaradi deb tushuntirilmoqda. O₂smirlikning psixologik qiyofasi, holati, imkoniyati yagona sof biologik omilga bog₂liq emasligi hammaga ayondir.

O₂smirlar jinsiy yetilish sirlarining 17 foizini ota-onadan, 9 foizini o₂qituvchilardan, 4 foizini maktab shifokoridan va qolgan yashirin jihatlari, holatlari to₂g₂risidagi ma'lumotlarni ko₂cha-ko₂ydan, o₂toqlari va dugonalaridan eshitib bilib oladi. Kutilmagan holatlar va ma'lumotlar ularning xatti-harakatini chigallashtiradi, yakkalik olamiga berilish boshlanadi, fe'l-atvorda ayrim illatlar paydo bo₂ladi. Goho o₂smirlar orasida axloqan tubanlashuv hollari ro₂yberishi mumkin. Ularni bunday qiliqlardan nopok guruh va to₂dalardan xalos etish maqsadga muvofiqdir.

Bolaning bo₂y₂i 11–12 yoshida 6–7 sm, hatto 10 sm gacha o₂sishi mumkin. Biroq bu bosqichda qizlar o₂g₂il bolalarga qaraganda tezroq o₂sadilar. O₂smir 13–14 yoshga to₂lganda har ikkala jins o₂rtasida bo₂yning o₂sishi qariyb baravarlashadi. O₂n besh yoshga qadam qo₂yganda esa o₂g₂il bolalar qizlarni ortda qoldirib ketadilar. Shundan keyin umrining oxirigacha o₂sishda o₂g₂il bolalar ustunlik qiladilar.

O₂smirlik davrida bo₂y bilan tana nomutanosib ravishda o₂sadi, natijada bolalar oriq, nimjon va uzun bo₂yli bo₂lib ko₂inadilar.

Qonda yangi gormonlar paydo bo₂lishi hamda ularning markaziy asab tizimiga ta'sir qilishi bilan kuchli darajada jismoniy rivojlanish bilan bog₂liq bo₂lgan jinsiy yetilishning boshlanishi bolalarning faolligini, jismoniy va psixik imkoniyatlarini oshiradi hamda bolada o₂zini kattalardek his etish, mustaqil bo₂lish tuyg₂ularini his qilish uchun qulay shart-sharoitlarni vujudga keltiradi. Biroq, psixik rivojlanishning bu bosqichida ham bola hali mustaqil harakat qilishga to₂la tayyor bo₂lmaydi. Bunda yosh bilan bog₂liq bo₂lgan asosiy ziddiyatlarning biri — o₂z mustaqilligini ortiq darajada sezish bilan o₂smirning psixik imkoniyatlari o₂rtasidagi ziddiyat vujudga keladi. Bu ziddiyatning hal etilishi bolaning bundan keyingi psixik rivojlanishiga olib keladi.

Psixologik omillar: O₂smirlik yoshida psixologik jihatdan eng muhim xislat – voyaga yetish yoki kattalik hissining paydo bo₂lishi alohida

ahamiyatga ega. Kattalik hissi ijtimoiy-axloqiy sohada, aqliy faoliyatda, qiziqishda, munosabatda, ko'ngil ochish jarayonida, xulq-atvorning tashqi shakllarida o'z ifodasini topadi. O'smir o'z kuchi va quvvati, chidamliligi ortayotganini, bilim saviyasi kengayayotganini anglay boshlaydi. Bularning barchasi unda kattalik hissini rivojlantiradi. Unda g'ashga tegadigan rahbarlikdan, o'qinsiz homiylikdan, ortiqcha nazoratdan, zeriktiradigan g'amxo'rlikdan xoli bo'lish istagi vujudga keladi. Mazkur jarayon o'z navbatida, kattalar bilan munosabat va muloqotda noxush kechinmalarni paydo qiladi. Sinf jamoasi va oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlarni o'zgartirishgina kattalar bilan o'smirlar orasidagi –anglashilmovchilik g'ovi"ni yo'qotadi.

Kattalarga nisbatan agressiv munosabatning paydo bo'lishi, negativizm singari noxush xulq-atvor alomatlari o'z-o'zidan kelib chiqadigan bevosita jinsiy yetilish tufayli paydo bo'ladigan belgilar bo'lmay, balki ular o'smir yashaydigan ijtimoiy shart-sharoitlar vositasi orqali: uning tengdoshlari, jamoasidagi mavqei tufayli, uning katta yoshli kishilar bilan o'zaro munosabatlari tufayli va shunga o'xshash sabablar tufayli paydo bo'ladigan xarakter belgilaridir. Mana shu ijtimoiy sharoitlarni o'zgartirish yo'li bilan o'smirlarning xulq-atvoriga bema'lol ta'sir ko'rsatish mumkin.

Bular bola psixologiyasiga ham katta ta'sir o'tkazadi hamda uning ruhiyatida keskin o'zgarishlarni kuzatish mumkin. Masalan, o'smirlik yoshiga o'tayotgan vaqtda bolalarning xulq-atvorida keskin ko'payib ketadigan salbiy alomatlar:

- so'zga kirmaslik;
- o'jarlik;
- tajanglik;
- o'z kamchiliklarini tan olmaslik;
- urishqoqlik;
- o'zini kattalardek his qilish;
- mustaqil bo'lishga intilish;
- o'z ta'sirini o'tkazishga intilish va x.z.

O'smirlik yoshiga o'tayotgan vaqtda bolalarning xulq-atvorida keskin ko'payib ketadigan bu salbiy alomatlar profilaktika inspektori uchun bu yoshdagi bolalar bilan ishlashni qiyinlashtirib yuboradi. Shu sababli har bir xodim o'quvchining har bir tashqi reaksiyasi ortida uning o'z psixologik sababi borligini tushunib olishi kerak. Agar bolaning xulq-atvoriga faqat axloqiy baho berish bilan kifoya qilinadigan bo'lsa, u holda uning psixologik sababini ilg'amay qolish mumkin. O'smirlarning «madaniyatsiz», «axmoqona», «zararli», «tushunib bo'lmaydigan» deb nom olgan va shunday deb baholanadigan barcha xatti-harakatlari bir qarashda shunday deb

o_{yl}ansa-da, aslida buni psixologik sabablar bilan izohlash kerak. Bu sabablar *shaxs qaror topishining* mazkur bosqichi uchun xos bo_{lg}an xususiyatlardan kelib chiqadi. Shu bilan birga, o_{smir}dagi deviant axloqning quyidagi muomala belgilari namoyon bo_lishi mumkin:

- his- hayajonli portlashlar;
- kattalar bilan janjallar;
- kattalarning qoidalari yoki iltimoslarini mensimaslik yoki bajarishni rad etish;
- boshqa odamlarni jo_rrttaga bezor qilish;
- o_z xatolarida boshqa birovlarini ayblash;
- jizzakilikning eng keskin darajasi;
- badjahllik, darg_{az}ablik, qasoskorlik, kek saqlash;
- haqoratlar va uyatsiz so_zlarni tez-tez ishlatish.

Ma'lumki, har bir shaxsning munosabatlari uning *konkret ishlarida* paydo bo_ladi, anglab yetiladi, mustahkamlanadi va qayd etiladi. Binobarin, mustaqillikni shakllantirmoq uchun mustaqil ishlarni amalga oshirmoq kerak. Lekin, ikkinchi tomondan, aqalli bir marta mustaqil ish bajarish uchun tevarak-atrofdagi bevosita aloqa qilib turilgan ijtimoiy muhitdan nisbatan holi bo_lish, ya'ni shaxsan o_zini o_zi idora qilishning muayyan mexanizmlariga ega bo_lmoq kerak. O_{smir} o_zini har tomondan o_{rab} olgan halqa ichida turgandek his qiladi. Vazifa ana shu halqani uzib chiqishdan iborat bo_lib qoladi.

Bu o_rinda asosiy qiyinchilik yetuk kishilarga yaxshi tanish bo_{lg}an ammo o_{smir}larda yetishmay turgan fazilatlarining egallab olinishidir. O_{smir}ning o_z kuchiga ichki bir ishonchning mavjud emasligi, o_z oldida turgan vazifani izzat-nafsiga xalal yetmaydigan tarzda aniq tasavvur eta olmaslik — shunday alomatlardandir. Bu belgilar ayni mana shu yoshda kishini mustaqil harakat qilishga qodir bo_lishga, ba'zi hollarda tevarak-atrofdagi kishilarga qarshi borib, o_zining haq ekanligini qattiq turib himoya qilishga, boshqa bir hollarda esa vazminlik bilan tentaklarcha o_{jar}lik qilmasdan, atrofdagi kishilar talabini qabul qilishga da'vat etadi.

Bu yoshda o_{smir}lar o_zlarini katta kishidek his qilishga intilishi tabiiy bir hol va bu o_{smir}ning to_{la}qonli psixik rivojlanishi uchun zarur bo_{lg}an hayotiy bir xislat ekanligini bilgan profilaktika inspektori, pedagog shu bilan bog_{liq} salbiy ishlarning psixologik tabiatini to_gri tushunmog_i va bolalarning o_zlarini katta tutishlariga to_{sq}inlik qilmasligi, aksincha, ularning bunday xatti-harakatlarini ijobiy izga solish uchun intilmog_i kerak. Bunday vaqtda pedagog o_{smir}ning namuna sifatida birovga taqlid qilish xususiyatidan ularga ta'sir ko_{rs}atuvchi bir vosita sifatida foyda-

lanmog_i kerak. Buning uchun o_smirlarning ilg_or kishilar bilan uchra-shuvini tashkil etish, o_qilgan kitoblar yuzasidan disputlar o_kazish, ko_uil-gan film va spektakllarga doir bahs-munozaralar uyushtirib turish lozim va hokazo.

O_smirdagi mustaqillikka bo_lgan intilish uning atrofdagi kishilarning shaxsiy ta'sirlariga bolaning ortiq darajada aloqador ekanligi bilan zimdan bog_liq bo_ladi. Bu shu bilan izohlanadiki, o_zini kattalardek his qilish tuyg_usi bolaning shaxsan o_ziga bo_lgan munosabatini muayyan darajada o_zgartiradi va har qanday ichki munosabat singari bu ham tashqi munosabatlarning ta'siri ostida, mazkur shaxsga nisbatan boshqa odamlarning munosabatlari tashkil topadi. Shuning uchun o_smir o_zi haqida atrofdagi kishilar qanday fikrga kelishi to_g_risida ko_p o_ylaydi hamda buning uchun qulay muhit yaratish yo_llarini faollik bilan qidiradi. Bu shunday muhit bo_lmog_i kerakki, undagi munosabatlar endi o_smirning katta kishi, mustaqil odam bo_lib qolganligini yaqqol ko_rsatib turishini istaydi.

Ijtimoiy omillar ko_p jihatdan o_smirlar hulq-atvoridagi og_ishlarning yuzaga kelishidagi asosiy ta'sir etuvchi omillar bo_lib hisoblanadi. Ham biologik, ham psixologik, ham ijtimoiy omillar ta'siri ostida o_smir ruhiyatida keskin o_zgarishlarni kuzatish mumkin. Buning natijasida muqobil bo_lgan o_smir hulq-atvorida tarbiyasi qiyinlik, hatto huquqbuzarlikka moyillik alomatlarini paydo bo_la boshlaydi.

Ijtimoiy omillar. Bolaning kamol topishida va qanday shaxs bo_lib yetishishida oila, maktab va mahallaning o_rni beqiyosdir. Ulardagi vaziyat shart-sharoit, ijtimoiy-psixologik muhit bola shaxsidagi sifatlarni belgilab beradi. Oila, maktab va mahallalardagi nosog_lom muhit, munosabatlar nosog_lomligi, tarbiyaviy ta'sir darajasining pasayishi bolada salbiy illatlarni, shu jumladan jinoyatchilik xulqini keltirib chiqaradi. Bola istiqomat qilayotgan va faoliyat yuritayotgan ijtimoiy tuzumning xususiyatlari, olib borilayotgan ijtimoiy tadbirlar, jamiyatdagi iqtisodiy va siyosiy beqarorlik va boshqalar ham bolalar va o_smirlarda g_ayriqonuniy xulq-atvorning kelib chiqishiga ta'sir ko_rsatadi.

Ijtimoiy omillar sarasiga quyidagi ta'sir etuvchi fenomenlarni sanab o_tish mumkin:

- oilaviy muhitning ta'siri;
- ta'lim maskanlarining ta'siri;
- maktabdan tashqaridagi muhitning ta'siri;
- global jarayonlarning ta'siri.

Ma'lumki, oilaviy tarbiya bola hayotida muhim o_rin tutadi. Oilaning bolalarga tarbiyaviy ta'sir doirasi ijtimoiy ta'sir doirasi singari o_ta kengdir.

Oila bolalarni Vatanga muhabbat, ota-ona va atrofdagilarga sadoqat, mehnat va xalq boyliklariga ongli munosabat, nuqsonlarga murosasizlik, yuksak axloqiy va ma'naviy sifatlarni shakllantirishda, turmushga, ijtimoiy faoliyatga nisbatan psixologik va amaliy jihatdan tayyorlashda katta imkoniyatlarga egadir. Biroq, keyingi yillarda oilada farzandlarimizni tarbiyalashda, ularni kamol toptirishda bir qator muammolar, kamchiliklarga duch kelinmoqda. Tabiiyki, ushbu muammolar bolalar va o'smirlar xulq-atvoriga, shaxs sifatida shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Oiladagi nosog'lom psixologik muhit va oilaviy tarbiyadagi yo'l qo'yilayotgan kamchiliklar hamda ta'lim jarayonida kuzatilayotgan kamchiliklar, bolalar va o'smirlar yashayotgan mahallalar hayoti, ularning psixologik muhiti voyaga yetmaganlarda xulq og'ishining kelib chiqishiga o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi.

Ota-onalarning oilada farzandlari bilan qilayotgan muomala va munosabatlari ko'rinishlari bolalar va o'smirlarda xulq og'ishining kelib chiqishiga sabab bo'layotganligi kuzatildi. Oiladagi nosog'lom muhit, ota-onalarning tez-tez janjallashib turishlari, o'zaro oilaviy nizolar va ota-onalar xulqidagi salbiy illatlar ham bolalar va o'smirlarda jinoyatchilik xulqining kelib chiqishiga ta'sir ko'rsatadi.

Ma'lumki, oiladagi nizolar bolalar va o'smirlarni oiladan bezdiradi. Ota-onaga va oilaning boshqa a'zolariga nisbatan ishonch hissining yo'qolishiga olib keladi. O'zaro ishonchning yo'qolishi esa ota-onaning tarbiyaviy ta'sirchanlik darajasini tushirib yuboradi. Ota-onaning tarbiyaviy ta'sir darajasi pasayishi o'z navbatida o'smirda o'zi xohlagan xatti-harakatlarni amalga oshirishga yo'l ochib beradi. Natijada tarbiyaviy ta'sirsiz, nazoratsiz qolgan o'smir asta-sekinlik bilan jinoyatchilik ko'chasiga kirib boradi.

Oilaviy munosabatlardagi nosog'lomlik bolalar va o'smirlarning shaxs sifatida shakllanishiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi va ular xulq-atvorida salbiy o'zgarishlarni keltirib chiqaradi. Demak aytish mumkinki, tarbiyasi og'ir o'smirlar va jinoyatchilik xulqining kelib chiqishida oiladagi nosog'lom muhit asosiy omil sifatida namoyon bo'ladi.

Oilada tez-tez bo'lib turadigan janjallar, ota-onalarning kelishmovchiliklari, o'smirlarning jismoniy jazolanishi tabiiy ravishda ular xulqida o'zgarishlarni keltirib chiqaradi. Bunday muhitda tarbiyalangan bolalar va o'smirlar xulqida qo'zg'atuvchanlik, asabiylik, o'zini tuta olmaslik, badjahllik, boridan qanoatlanmaslik, dushmanlik, qo'rquv, ishonchning yo'qolishi, yolg'izlikni xush ko'ruvchanlik, beparvolik kabi xususiyatlar ko'zga tashlanadi. Bu sifatlarning har biri bola psixikasi va shaxsiy xususiyatlarining hamda irodaviy sifatlarining shakllanishiga va aqliy taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Oilada "qahr-g_ azab" asosidagi ota-ona munosabati bolalarni uydan bezdiradi. Uydan bezish, oila muhitini tan olmaslik o_ smirlarda oilaviy muhitga nisbatan deformatsiyalashuvni keltirib chiqaradi. Natijada, o_ smir oiladan tashqari ko_ cha muhitini o_ ziga ma'qul ko_ radi. Ko_ cha muhiti esa ba'zan kriminal mazmunga ega bo_ lishi mumkin. Natijada noaxloqiy va g_ ayri qonuniy xulq-atvor muhitiga tushib qolgan o_ smirda xulq og_ ishining kelib chiqishi uchun imkoniyat yaratiladi.

Ota-onalarning "qahr-g_ azab" asosidagi munosabati bolalar va o_ smirlarda salbiy xarakter xislatlarining xususan, qo_ r_ qoqlik, tobelik, asabiylik, hissiyotlarga beriluvchanlik va mustaqil tafakkurning sustligi kabilarning shakllanishiga olib keladi. Qo_ r_ qoq, tobe bolalar va o_ smirlar birovlarining qistovi, zo_ r_ lashi natijasida turli xil g_ ayriqonuniy guruhlariga qo_ shilib ketadilar. Ulardagi asabiylik, qo_ z_ g_ aluvchanlik va hissiyotlarga beriluvchanlik xususiyatlari tez-tez nizoli vaziyatlarga duch kelishga sabab bo_ ladi. Shuningdek, ulardagi mustaqil fikrlash layoqatining sustligi nizoli vaziyatlarning chigallashuviga, muammoli vaziyatlardan chiqib ketish yo_ llarini noto_ g_ ri qo_ l_ lashga olib keladi. Natijada bunday vaziyatlarda o_ smir o_ z_ ning yosh davri xususiyati va hayotiy tajribasizligi tufayli g_ ayriqonuniy harakatlarga qo_ l_ urishi mumkin.

Oilada ota-onalarning alkogolizmga berilishi, bola ko_ z_ o_ ngida ichish, chekish va nojo_ ya qiliqlarni qilishi bolaga ko_ r_ gazmali ta' sir ko_ rsatadi. «Qush uyasida ko_ r_ ganini qiladi» deganidek, o_ smir oilasida ota-onasidan ko_ r_ gan qiliqlariga taqlid qila boshlaydi. Avvaliga chekishni, ichishni o_ r_ ganib oladi, so_ n_ gra kuchliroq ta' sir etuvchi moddalarga o_ tadi. Pirovardida, oilasi va ota-onasida kuzatilgan holatlar bolada ham takrorlana boshlaydi.

O_ smirga ota-onalar va oilaning boshqa a' zolari tomonidan vasiylik ko_ rsataverish ham yaxshi natija bermaydi. Jumladan, ota-onalar ba'zan farzandlariga o_ ta darajada mehr qo_ yadilar. Ularni asrab-avaylaydilar, e' zozlaydilar. Ularga gard yuqtirmaslikka harakat qiladilar. Aytgan yoki istagan narsalarini muhayyo qilishga intiladilar. Bir qarashda ota-ona shunday qilsa nima qilibdi deysiz. Ammo ota-onalarning bolalarga bunday munosabati, aksariyat hollarda bolalarda salbiy xislatlarning shakllanishiga olib keladi. Ota-onasi tomonidan ko_ rsatilayotgan bunday munosabat natijasida bolada manmanlik, birovlarini mensimaslik, tayyorga-ayyorlik, mehnatning qadriga yetmaslik, sabr-toqatsizlik kabi salbiy xislatlarni paydo qiladi. Bunday xislatlarga ega bo_ lgan bolalarda o_ z_ bek xalqiga xos bo_ lgan mehnatsevarlik, olijanoblik, o_ z_ galarni hurmat va e' zozlash, mehnatning qadriga yetish xislatlari shakllanmaydi. Shuningdek, ularda maqtanchoqlik, birovlarining ustidan kulish, nochorligini yuziga solish odatlari ham

kuzatiladi. Bunday ruhda tarbiyalangan bolalar muammoli vaziyatlarda mustaqil fikr yuritish, muayyan qarorlarga kelish borasida ham qiyinchiliklarga uchraydilar. Bundaylar o_z tengqurlari bilan kelisha olmasliklari, do_{st}lari doirasining torligi tufayli ko_{pincha} tengdoshlaridan ajralib, yakkalanib qolishlari mumkin.

Ta'kidlash joizki, voyaga yetmaganlar orasida huquqbuzarlik va nazoratsizlikning kelib chiqishiga sabab bo_{luvchi} oilaviy omillarga ko_{ra}, ota-onalarning oilada farzandlariga nisbatan «qahr-g_{azab} asosida munosabat» yuritishlari, «erkinlik berish asosidagi tarbiya usulida», «tarbiyada izchillikning yo_{qligi}», «oilada nosog_{lom} psixologik muhitning mavjudligi», «oilada farzandlar tarbiyasiga e'tiborning susayish», «ota-onalarning jamiyat axloq normalariga zid bo_{lgan} xulqqa ega bo_{lishlari}», «oilada moddiy-maishiy shart-sharoitning yetarli emasligi» kabi omillar sabab bo_{ladi}. Shuningdek, oilaviy tarbiyada «eskirgan primitiv (siyqasi chiqqan) usullardan foydalanish», «bolalar tarbiyasiga qariyalarning jalb etilmasligi» va «tarbiyada milliy qadriyatlardan foydalanilmasligi» hollari ham bolalar va o_{smirlarda} xulq og_{ishining} kelib chiqishiga ta'sir ko_{rsatadi}. Ota-onalarning bilim saviyasi pastligi, dunyoqarashining torligi, pedagogik-psixologik bilimlarining yetishmasligi holatlari ham bolalar va o_{smirlarda} jinoyatchilik xulqining kelib chiqishiga ta'sir ko_{rsatadi}.

Tarbiyaning umumiy ijtimoiy vazifasi – yosh avlodda bilim, ko_{nikma}, ijtimoiy tajriba va axloq normalarini shakllantirishdan iborat. Shu maqsadda yosh avlodga tarbiya berish maqsadida yo_{naltirilgan} tarbiyaviy ta'sir, ijtimoiy hayotda munosabatga kirishish normalarini va shu asosida zarur shart-sharoit yaratishni nazarda tutadi.

Afsuski, bugungi kunda barcha ta'lim va tarbiya maskanlarida muomala odobi va madaniyati, o_{zidan} kattalarga hurmat odobi malakalarini tarkib toptirishga yetarli e'tibor berilmaydi. Voyaga yetmaganlarni qayta tarbiyalash koloniyalarida esa bu masalaga e'tibor yanada orqada. Bunday maskanlarda ko_{pincha} nima qilib bo_{lsa} ham tarbiyachilar, ishchi xodimlar kuni o_{tkazish}, urush-janjal chiqarmaslik maqsadida, tarbiyalanuvchilar bilan qo_{pol}, qattiqqo_{llik} asosida munosabatda bo_{ladilar}, natijada maxsus ta'lim-tarbiya maskanlaridan chiqqan o_{smir} diydasi qattiq, serzarda, bemehr, turli xil psixopatologik asoratlarga ega bo_{lib} qoladi. Ba'zan esa ularda xarakterning salbiy irodaviy xislatlari, xususan, mustaqillikning yo_{qligi}, qaramlik, qaysarlik, sabrsizlik va qat'iyatsizlik kabi xislatlarning shakllanishi ham kuzatiladi. Bu esa, o_z navbatida, maxsus ta'lim-tarbiya maskanlarida olib borilayotgan tarbiyaviy usullarni qayta ko_{rib} chiqish zarurligini taqozo qiladi.

Ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo'lgan voyaga yetmaganlar (tarbiyasi qiyin o'smirlar) tarbiya jarayonida pedagogik ta'sirlarga qarshilik ko'rsatadi, ularning xulqida o'zini biz xohlagandek tutmaslik holatlari kuzatiladi.

Tarbiyasi qiyin, injiq, xulqi salbiy bo'lgan bolalarning kelib chiqishining ijtimoiy sabablaridan tashqari, pedagogik va psixologik sabablari ham mavjud. Bunday o'smirlarning kelib chiqishiga turtki bo'luvchi omillardan biri ularda o'qishga nisbatan salbiy munosabatning paydo bo'lishidir. Odatda, bunday munosabatning paydo bo'lishiga boshqa sabablar ham ta'sir ko'rsatishi mumkin. Jumladan, o'quv faoliyati usuli, malakalari to'la tarkib topmaganligi sababli nisbiy bilim olish bilan qanoat hosil qilish, o'lashtirish qobiliyatning sust rivojlanganligi, muayyan vaziyatlarda hukm va xulosalar chiqarishda qiyinchilikka duch kelish, o'qituvchilar tomonidan o'quvchiga obyektiv baho bermaslik, o'qituvchining boladagi individual-psixologik va intellektual imkoniyatiga yetarlicha e'tibor bermaslik, o'qitish saviyasining pastligi, darslarni qiziqarsiz o'tilishi va boshqalar.

Tarbiyasi qiyinlikni kelib chiqishining yana bir sababi – ularning sinf jamoasi va turli xil jamoatchilik tashkilotlari bilan yaxshi aloqada bo'lmashligidir.

O'smirlar bilan jamoa fikrining mos kelmasligi uning jamoa ichida o'z o'rnini borgan sari yo'qotib borishiga sabab bo'ladi. O'smirning fikr-mulohazalari va qiziqishlarining jamoa a'zolari tomonidan qo'llab-quvvatlanmasligi yoki unga nisbatan beparvolik uni qonunbuzarlikka undaydi va xulq og'ishining kelib chiqishi uchun imkoniyat yaratadi. Natijada o'smir uchun kelajak rejalarining poymol bo'lish xavfi tug'iladi. O'qishdan va jamoadan yuz o'g'irgan o'smir o'z kelajagini, orzu-umidlarini maktab va jamoa faoliyatiga bog'lashdan ko'ra, yangi ulfatlari bilan aloqa qilishni afzal ko'radi va boshqa kishilardan najot izlaydi. Oqibatda o'smir nosog'lom xulqli bolalar to'lasiga tushib qoladi va ular xulq-atvoriga xos bo'lgan xarakterga ega bo'ladi.

Shu bilan birga, ota-onalarning farzandlari hayoti va faoliyati bilan qiziqmasliklari, ularni nazoratsiz qoldirishlari ko'pincha o'smirni g'ayriqonuniy xulq-atvoriga ega bo'lgan bolalar va o'smirlar safiga qo'shib ketishiga olib keladi.

Voyaga yetmagan huquqbuzarlarning oiladan tashqaridagi aloqalari asosan ko'chada maqsadsiz tentirash va jamoat joylarida vaqt o'tkazish, bu yerda spirtli ichimliklar yoki giyohvandlik vositalari iste'mol qilish shaklida ro'y berganligini ko'rsatadi. Hozirgi sharoitda ko'pgina o'smirlar ko'p vaqtini qimor o'ynash, mayda buyumlar, mahsulotlar bilan olib sotarlik

qilish, nafaqat giyohvandlik vositalari, balki psixotrop moddalarni ham iste'mol qilish bilan o'tkazmoqda¹. Bekorchilik, daydilik, maktabga bormaslik, uydan tez-tez chiqib ketish va kelmay qolish holatlari bolalar va o'smirlarning jinoyat ko'chasiga kirib ketishiga sabab bo'ladi.

O'smir uchun oila emas, balki tengqurlarining guruhi bevosita mikroijtimoiy muhit muhim bo'lib hisoblanadi va u ana shu muhitsuiz tura olmaydi. O'smirlar ijtimoiy jihatdan teng huquqli guruhda emotsional aloqa va o'zaro tushunish doirasini topadilar, chunki uning a'zolari bir xil masalalarga qiziqadilar. Ular bir-birlari bilan munosabatda o'zlari uchun kerakli axborotni bilib oladilar. Tengqurlari guruhidagi o'smirlarga o'zining shaxsiy sifatlarini, o'z faoliyatining samaradorligini mustahkamlash, o'zini o'ziga o'xshash o'smirlar bilan taqqoslash imkonini topadi.

Oilada yetarli tarbiya ko'magan bolalar turmush qiyinchiliklarida ba'zan qoqiladilar, turli xil nizoli vaziyatlarga duch keladilar. Natijada tarbiyasizlik o'smirni yaxshi o'itoqlaridan, davralardan ayiradi. Oqibatda, o'smir uchun birdan-bir yo'l nosog'lom xulqli o'smirlar davrasiga qo'shib ketish bo'lib qoladi va o'smirda jinoyatchilik xulqining kelib chiqishi uchun shart-sharoit yaratiladi.

Oilaviy tarbiyada qo'pollik, andishasizlik, haqorat, do'q-po'pisa va jismoniy jazolash singari usullardan foydalanish ko'pincha bolalar va o'smirlarning uydan qochishiga, biron ish qilib qo'yib ota-onasidan qo'rqqanidan ko'chalarda daydib yurishiga, qayerlardadir tunab qolishiga olib keladi. Bunday bolalar oila muhitiga nisbatan ijtimoiy psixologik dezadaptatsiyalanish jarayoniga duch keladilar. Oqibatda ular o'ziga ma'qul bo'lgan oiladan tashqari guruh yoki ko'cha muhitini qabul qiladi. Bu muhit o'zining xarakteriga ko'ra, bolaga salbiy yoki ijobiy ta'sir qilishi mumkin. Afsuski, nosog'lom muhit psixologiyasiga ega bo'lgan ko'cha muhiti bolalarga ko'p hollarda salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Bugungi o'smirlarning istak-ehtiyojlari oldingi o'smirlarga qaraganda ancha o'sgan. Ular yaxshi kiyinishini, dam olishni, turli joylarni ko'rishini, zamonaviy texnologiyalar yoki audio-videoapparatlarga, uyali telefonga ega bo'lishni xohlaydilar. Oilada esa bularga ega bo'lishga hammada ham to'liq imkoniyat mavjud emas. Natijada ushbu ehtiyojlarni qondirish yo'lida bolada g'ayriqonuniy xatti-harakatlarni bajarish istagi paydo bo'ladi. Bunday istaklar bolani o'z-o'zidan g'ayriqonuniy harakatlarni bajarishiga majbur qiladi.

Voyaga yetmagan huquqbuzarning oilasida vaziyat qanchalik noxush bo'lsa, uning jinoyatchilar va boshqa shaxslar bilan aloqasi shunchalik

¹ Qarang: *Абдурасулова К.Р.* Криминолгия: Дарслик. – Т., 2008. – Б.175.

yaqin bo__ladi. Jinoyatchining shaxsi – noxush ta‘sirlar majmuining o__ziga xos natijasidir. Shu sababli shaxs shakllanishining har xil nojo__ya manbalariga kompleks ta‘sir ko__rsatish zarur.

Yuqorida sanab o__tilgan omillarning barchasi voyaga yetmaganlarning xulq-atvorida o__ziga xos bo__lgan, ya‘ni «deviant hulq-atvor»ning paydo bo__lishiga zamin yaratadi. Ma‘lumki, kishining deviant axloqini jamiyatda qabul qilingan me‘yorlarga zidligi va ruhiy jarayonlarining muvozanatsizligi, moslashuvchan emasligi ko__inishida yoki uning shaxsiy axloqi ustidan axloqiy va estetik nazoratdan bo__yin tovlash ko__inishidagi o__zini faollashtirish jarayonining buzilishida namoyon bo__luvchi alohida qilmishlar yoki qilmishlar tizimi sifatida belgilash mumkin.

Og__uvchi xulq (deviant, lot. deviatio – og__ish) deb, kishining qilmishlari, faoliyati turi odatiy, umum e‘tirof etilgan me‘yorlardan farq qiladigan yoki u o__zi a‘zosi bo__lgan jamiyat tomonidan qabul qilingan me‘yorlarga mos kelmay, barqaror ravishda ularning ijtimoiy me‘yorlaridan og__ishida namoyon bo__ladigan axloqqa aytiladi¹. Demak, deviant xulq – ushbu muhitda qabul qilingan qoidalardan og__uvchi xulqdir.

Deviant axloqning asosiy turlariga jinoyatchilik, ichkilikbozlik, giyohvandlik, o__zini o__zi o__ldirish, daydilik, fohishalik va ruhiyat buzilishini kiritamiz. Og__uvchi axloq – axloq moslashuvini yo__qotishning turli shakllarda ifodalanuvchi salbiy ruhiy-ijtimoiy rivojlanishi va ijtimoiylashtirish jarayoni buzilishining natijasi hisoblanadi.

Adabiyotlarda ba‘zan deviant xulq delinkvent hamda destruktiv xulq sifatida ham ta‘riflanadi. «Delinkvent» atamasi lotin tilidan olingan bo__lib, qonunga xilof, jinoiy degan ma‘nolarni anglatadi. Delinkvent xulq – qonundan og__uvchi, g__ayriqonuniy, jinoiy xatti-harakat turidir². Bu atama ostida biz shaxsning qonunga zid axloqi – ushbu jamiyatda va ushbu vaqtda o__rnatilgan qonunlardan og__ib, boshqa odamlar yoki ijtimoiy tartibga, tinchlikka xavf soluvchi va o__zining oxirgi ko__inishlarida jinoiy jazolanadigan aniq shaxsning harakatini tushunamiz. Ya‘ni bunday axloq xizmatdoshlari va yaqinlariga nisbatan janjalli, tajovuzkor xatti-harakatlarda; spirtli ichimliklar, narkotik vositalar, kuchli ta‘sir etuvchi tibbiy vositalarni suiiste‘mol qilish, kashandalikda; tavakkalli xatti-harakat uslubi: transport vositalarini haydab qochish, ayniqsa mast holda boshqarishda; g__ayriijtimoiy xulq, huquqbuzarlik, hatto jinoiy qilmishlar sodir etishda; o__zini o__ldirishga urinishlarda namoyon bo__lishi mumkin.

¹ *Хакимова И.М. Девиант хулқ-атвор психологияси: Ўқув қўлланма. – Т., 2013. – Б.5.*

² *Большая психологическая энциклопедия. – М., 2007. – Б.127.*

Insonning deviant xulqini jamiyatda qabul qilingan qoidalarga zid keluvchi hamda muvozanatlashmagan ruhiy jarayonlar, noadaptivlik (moslasholmaslik), o'zini faollashtirish jarayonining buzilishi yoki o'z xulqini axloqiy va estetik nazorat qilishdan og'ish ko'rinishidagi xatti-harakatlar tizimi yoki alohida harakat sifatida ta'riflash mumkin¹. Biz bu ta'riflarni qo'llanilayotgan atamalarning ma'nosini tushunish uchun keltirdik va idrok etish qulay bo'lishi uchun bunday xatti-harakatni deviant xulq deb ham ataymiz.

Deviant xulqli o'smirlarda iroda zaifligi g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarni qilishlariga sabab bo'ladi. Bu kelgusida ularning axloqi va xulqida aksini topadi. O'smirlarning irodasizligi tufayli axloq normalariga zid xatti-harakatlar qilishlari huquqbuzarliklarni keltirib chiqaradi. Rus psixologi I.V.Leonovanning ta'kidlashicha, «bolalardagi deviant xulq-atvorning oldini olish uchun eng maqbul shart-sharoit yaratish – deviant xulq-atvorning yuzaga kelishiga ta'sir ko'rsatuvchi barcha obyektiv va subyektiv omillarni kompleks tahlil qilishga asoslangan profilaktik ishlar jarayoniga maqsadli yondashuv lozim»².

Xulosa o'rnida shuni alohida ta'kidlash joizki, voyaga o'tasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasini samarali amalga oshirish ushbu faoliyatni amalga oshiruvchi, ayniqsa ular bilan yakka tartibdagi profilaktikani tashkil etish uchun bevosita mas'ul bo'lgan ichki ishlar organlari, xususan profilaktika xizmati xodimlaridan voyaga yetmaganni va oilani ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolga olib keladigan barcha, xususan biologik, psixologik va ijtimoiy omillar haqida yetarli bilimlarga ega bo'lishini taqozo etadi.

3-§. Voyaga yetmaganlar o'rtaida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirishning metodik talablari

Sog'lom bola – avvalo, sog'lom va ahil oilaning mevasidir, degan hayotiy hikmatdan kelib chiqqan holda yil davomida oilada o'zaro hurmat muhitini, uning iqtisodiy va ma'naviy asoslarini mustahkamlash, yosh oilalarni qo'llab-quvvatlash, onalik va bolalikni himoyalash, opa-singillarimizning og'irini yengil qilish, ularning qobiliyat va imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish bo'yicha ham keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi³.

¹ Менделевич В.Д. Психология девиантного поведения. – М., 2001. – С.10.

² Леонова И.В. Роль СМИ в предупреждении девиантности подрастающего поколения // Электронный журнал «Знание. Понимание. Умение». № 2/2008.

³ Президент Ислон Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 22 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маърузаси // Халқ сўзи.– 2014.– 6 дек.

Tarbiyasi qiyin bolalar — jinoyatchiga xos boʻlgan sifatlar shakllanishining oldini olish maqsadida axloqan tuzatish va tarbiyalashga muhtoj voyaga yetmaganlar boʻlib, ularning jamiyat bilan normal aloqalarini tiklash, hayotiy faoliyatni shakllantirishga qaratilgan tarbiyaviy ishlar olib borilishi kerak.

Tarbiyasida turli koʻrinishdagi ogʻishlar mavjud boʻlgan har qaysi voyaga yetmaganni tarbiyalashga alohida yondashiladi, chunki bu ular shaxsining shakllanishidagi obyektiv va subyektiv omillar bilan bogʻliqdir. Demak, shu kabi har bir oʻsmirning tarbiyasiga yondashishda uning shakllangan muhiti va shakllanishiga taʼsir qilgan omillar hisobga olinadi.

Ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda boʻlgan voyaga yetmaganlarga nisbatan gʻoyat ustalik bilan yaxshi muomala qilish, ularning ishonchini qozonishning eng murakkab imkoniyatlaridan foydalanish kerak boʻladi.

Bola tarbiyasi bilan faqat tarbiya va oʻquv muassasalari shugʻullanishi kerak, degan fikr mutlaqo notoʻgʻidir, chunki tarbiya eng avvalo oiladan boshlanadi. Ammo oʻquv yurtlari ham tarbiya ishlaridan chetda qolmaydi. Maktab bilim oʻchogʻi boʻlish bilan bir qatorda pedagogik tarbiyaning ham markazi boʻlishi kerak. Chunki oiladan tashqaridagi taʼlimning eng muhim qismini shaxs maktabdan oladi, maktab orqali ijtimoiy hayotga kirib boradi.

Voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etiladigan huquqbuzarliklarning oldini olish uchun, avvalo ularning kelib chiqish sabablarini aniqlash va bartaraf etish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, joylarda umumiy profilaktikadan unumli foydalanish va ularni yuritishda yoshlar tarbiyasiga bevosita masʼul shaxslar va tashkilotlar bilan oʻzaro hamkorlikni yaxshi yoʻlga qoʻyilishi ijobiy natijalar beradi. Bundan tashqari, huquqbuzarlik yoki jinoyat sodir etgan voyaga yetmaganlar bilan yakka tartibda profilaktik tarbiyaviy ishlarni yuritishni ularning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olib tashkillashtirilishi maqsadga muvofiqdir.

Oʻzbekiston Respublikasining «Voyaga yetmaganlar oʻrtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi toʻgʻrisida»gi 2010-yil 29-sentabr qonunida «nazoratsiz» va «qarovsiz» tushunchalari berilgan. Unga koʻra, nazoratsiz — ota-ona yoki ota-ona oʻmini bosuvchi shaxslar tomonidan voyaga yetmaganni taʼminlash, tarbiyalash va unga taʼlim berish boʻyicha oʻz majburiyatlarini bajarishdan boʻyin tovlaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik oqibatida xulq-atvori nazoratsiz qolgan voyaga yetmagan, «qarovsiz» — aniq yashash joyi boʻlmagan nazoratsiz qolgan voyaga yetmagan» tushuniladi¹.

¹ Qarang: Ўзбекистон Республикасининг «Вояга етмаганлар ўртасида нazorат-сизлик ва хукуқбузарликлар профилактикаси тўғрисида»ги 2010 йил 29 сентябрь қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий мажлиси палаталарининг ахборотно-маси, 2010. – №9. –343-м.

Aksariyat voyaga yetmaganlar nazoratsizlik oqibatida jinoyat yo_liga kirishi ma'lum. Voyaga yetmaganlar nazoratsizligining oldini olish uchun avvalo, ular tomonidan sodir etiladigan huquqbuzarliklarning ijtimoiy va psixologik tomonlarini mukammal ravishda o_riganish lozim.

Ma'lumki, voyaga yetmaganlarning o_ziga xos xususiyatlari mavjud bo_lib, bunday xususiyatlar ularning ahloqida, xatti-harakatlarida va jamoa o_rtasidagi munosabatlarida yaqqol ko_zga tashlanadi. Voyaga yetmaganlar tomonidan turli ko_rinishdagi huquqbuzarliklarning sodir etilishida ularning psixologik tuzilishi ham asosiy o_rin egallaydi.

Voyaga yetmaganlar o_rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi – voyaga yetmaganlarning nazoratsizligi, qarovsizligiga, ular tomonidan huquqbuzarliklar yoki boshqa g_ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etilishiga imkon beradigan sabablar va shart-sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etishga qaratilgan, yakka tartibdagi profilaktika ishi bilan birgalikda amalga oshiriladigan ijtimoiy, huquqiy, tibbiy va boshqa chora-tadbirlar tizimi hisoblanadi¹.

O_zbekiston Respublikasining «Huquqbuzarliklar profilaktikasi to_g_risida»gi 2014-yil 14-may qonunining 6-moddasida huquqbuzarliklar profilaktikasining quyidagi to_rtta turi ko_rsatilgan:

- huquqbuzarliklarning umumiy profilaktikasi;
- huquqbuzarliklarning maxsus profilaktikasi;
- huquqbuzarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasi;
- huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasi.

Huquqbuzarliklarning umumiy profilaktikasi – huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar hamda muassasalarning huquqbuzarliklarning oldini olish, ularning sodir etilishi sabablari va ularga imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlash, bartaraf etish faoliyatidir.

Ushbu ta'rifdan kelib chiqqan holda, ichki ishlar organlari, xususan profilaktika xizmatlarining voyaga yetmaganlar o_rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar umumiy profilaktikasi faoliyati – bu voyaga yetmaganlar o_rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning oldini olish, ularning vujudga kelishi va sodir etilishi sabablarini hamda ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, bartaraf etish bo_yicha amaldagi qonunlarda belgilangan vakolat doirasida amalga oshiradigan ma'naviy-ma'rifiy, tarbiyaviy-profilaktik, tashkiliy-huquqiy va boshqa chora-tadbirlar tizimidir.

Ichki ishlar organlari, xususan uning profilaktika xizmati o_z vakolatlari doirasida voyaga yetmaganlar o_rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning umumiy profilaktikasini:

¹ Qarang: Osha joyda.

– huquqbuzarliklar, xususan voyaga yetmaganlar o_{rt}asida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasiga doir davlat, hududiy va sohaviy, dasturlarni ishlab chiqish hamda ijrosini ta‘minlash;

– aholi, ayniqsa voyaga yetmaganlar, shuningdek ota-onalar, bola o_{sib}-ulg_{ay}ishi va ta‘lim-tarbiyasi uchun mas‘ul bo_{lg}an shaxslar o_{rt}asida huquqiy targ_{ib}otni tashkil etish;

– voyaga yetmaganlar o_{rt}asida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablari hamda ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash va bartaraf etish;

– voyaga yetmaganlar o_{rt}asida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablari va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni bartaraf etish to_grisida taqdimnomalar kiritish, shuningdek qonun hujjatlariga muvofiq boshqa chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali ta‘minlaydi.

Ichki ishlar organlari profilaktika xizmatlarining voyaga yetmaganlar o_{rt}asida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasiga doir davlat, hududiy va sohaviy dasturlarni ishlab chiqish hamda ularning ijrosini ta‘minlashda quyidagi psixologik-pedagogik talab va qoidalarga rioya etishlari tavsiya etiladi:

- voyaga yetmaganlar o_{rt}asida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasiga doir chora-tadbirlar rejasi buyuk mutafakkir allomalari-mizning boy ma‘naviy, axloqiy, ruhiy hamda tarbiyaviy merosiga tayangan holda ishlab chiqilishi;

- milliy madaniyatimiz, voyaga yetmaganlarning etnopsixologok xususiyatlari inobatga olinishi;

- bolalar manfaati, ularning rivojlanish xususiyatiga asoslanishi;

- voyaga yetmaganning turmush tarzi, yaqin atrofidaqilar bilan aloqalari va kelgusidagi orzu, niyat-maqsadlari, uning shaxsiy fazilatlari, qiziqishlari, o_qishga bo_{lg}an munosabatini inobatga olinishi;

– har bir voyaga yetmaganning individual-psixologik xususiyati, ahloqiy qoidalar, bolaning nafsoniyati, shaxsiyati, uning qiziqish va imkoniyatlari hisobga olinishi.

Voyaga yetmaganlar va ularning ota-onalari o_{rt}asida huquqiy targ_{ib}otni tashkil etishda quyidagi psixologik-pedagogik talablarga rioya etish tavsiya etiladi:

– rejalashtirilayotgan har bir huquqiy targ_{ib}otni amalga oshirish jarayonida profilaktika inspektori mavzuni aniq tanlashi, mavzu pedagogik jihatda voyaga yetmaganlarga to_gri ta‘sir etishini inobatga olishi lozim;

– har bir huquqiy targ_{ib}ot va tashviqot ishlari ta‘lim muassasasining o_ziga xos xususiyatlari, ta‘lim yo_{nal}ishlaridan kelib chiqqan holda amalga oshirilishi kerak;

– huquqiy targ'ibotni ta'lim oluvchilarning yoshga oid psixologik xususiyatlari, mutaxassisligi va qiziqishlarini inobatga olgan holda tashkil etish;

– voyaga yetmaganlar, pedagogik jamoalar va jamoatchilik o'rtasida huquqiy targ'ibotni olib borishda ko'rgazmali qurollar, turli audio, video va bosma nashrlardan unumli foydalanish;

– voyaga yetmaganlarning ota-onalari yoki ota-ona o'rnini bosuvchi shaxslar bilan huquqbuzarliklarning salbiy oqibatlari, uning yoshlar ongi, hulq-atvori, kelajak haqidagi o'y-fikrlariga salbiy ta'siri haqida yakka va umumiy tartibda suhbatlar o'tkazish;

– voyaga yetmaganlar tarbiyasiga befarq, nosamimiy, insonparvarlik, odamiylik prinsiplariga rioya etmaydigan, voyaga yetmaganlar bilan qo'pol muomalada bo'layotgan ota-onalar yoki ota-ona o'rnini bosuvchi shaxslar bilan profilaktik suhbat olib borish va hokazo.

Profilaktika inspektorining voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablari va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni bartaraf etish to'g'risida taqdimnomalar kiritishda quyidagi psixologik-pedagogik talablarni inobatga olishi tavsiya etiladi:

– ta'lim muassasalarida o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabat, jamoada yuzaga kelgan ijtimoiy-psixologik muhitning o'ziga xosligini;

– ta'lim muassasalari pedagoglarining o'zaro munosabati, ta'lim oluvchining o'qishga bo'lgan qiziqishi, kelajak hayotdagi orzu-umidlari hamda maqsadlari;

– voyaga yetmaganning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishda pedagoglar va mahalla faollari bilan hamkorlik qilish, maqsadsiz yurishining oldini olish, turli zararli illatlarga berilmasligi haqida.

Profilaktika xizmatlarining voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar maxsus profilaktikasi faoliyati – bu huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organlar va muassasalarning ayrim turdagi huquqbuzarliklar profilaktikasiga, bu turdagi huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablari va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni bartaraf etish, ayrim toifadagi shaxslarni aniqlash va ularga profilaktik ta'sir ko'rsatishga qaratilgan maxsus tadbirlar ishlab chiqish hamda amalga oshirishga doir faoliyati.

Profilaktika xizmati o'z vakolati doirasida voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning maxsus profilaktikasini:

– voyaga yetmaganlar o'rtasida ayrim turdagi huquqbuzarliklarning (o'g'rilik, bezorilik, talonchilik, firibgarlik, giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar bilan bog'liq huquqbuzarliklar va hokazo) toifalarining kelib chiqish sabablarini aniqlash hamda ularni bartaraf etish;

– ta‘lim maskanlari, mahalla, ota-onalar va voyaga yetmaganlar o‘rtasidagi maxsus huquqiy targ‘ibotni tashkil etish orqali amalga oshiriladi.

Ta‘lim maskanlari, mahalla, ota-onalar va voyaga yetmaganlar o‘rtasida maxsus huquqiy targ‘ibotni tashkil etishda pedagogik va psixologik bilimlardan unumli foydalanishda quyidagilar tavsiya etiladi:

– voyaga yetmaganlar o‘rtasida huquqbuzarliklarning maxsus profilaktikasi chora-tadbirlarini IIVning va hududiy ichki ishlar boshqarma va bo‘limlarining normativ huquqiy hujjatlari asosida «O‘smir», «Oyna», «Turmush» «Oriyat», «G‘amxo‘r» va shu kabi boshqa profilaktik tadbirlarni amalga oshirishning psixologik xususiyatlaridan kelib chiqib va ta‘sir etish vositasini kuchaytirish maqsadida turli pedagogik texnikalardan foydalanish;

– yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, huquqiy savodxonligini oshirish, pedagog va o‘quvchilar orasida sog‘lom psixologik munosabatni shakllantirish, nizoli holatlar va mish-mish gaplarni tarqalmasligining oldini olish;

– voyaga yetmaganlar o‘rtasida huquqbuzarliklarning maxsus profilaktikasi har bir o‘smirning ijtimoiy ahvoli, uning xulq-atvoridagi og‘ishlarining psixologik tasnifi, xavflilik darajasini qarab amalga oshirish;

– voyaga yetmaganlar o‘rtasida sodir etilayotgan ayrim turdagi huquqbuzarliklarning salbiy oqibatlarini haqida ota-onalarga yetkazish hamda ularni ogohlantirish maqsadida targ‘ibot ishlarini tashkillashtirish, ular tomonidan farzand tarbiyasiga katta e‘tibor berish zarurligi haqida ular bilan psixologik suhbatlar o‘tkazish;

– ta‘lim muassasasining sohaviy yo‘nalishlari, voyaga yetmaganlarning yoshga oid psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda maxsus pedagogik-huquqiy targ‘ibotni amalga oshirish;

– yoshlarda vatanga muhabbat ruhini singdirish, insonparvarlik va mehribonlik, kattalarga hurmat, burchga sadoqat, o‘qishga mas‘uliyat bilan yondashish, adolatparvarlik g‘oyalari rioya qilish hamda boshqa axloqiy fazilatlarni shakllantirishga qaratilgan maxsus profilaktik ishlarni amalga oshirish va boshqalar.

Huquqbuzarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasi – voyaga yetmaganlar o‘rtasida g‘ayriijtimoiy xulq-atvorli, huquqbuzarliklar sodir etishga moyil bo‘lgan, huquqbuzarliklar sodir etgan shaxslarni aniqlash, ularning hisobini yuritish va ularga tarbiyaviy, pedagogik va psixologik ta‘sir ko‘rsatish doirasida amalga oshiriladigan ma‘naviy-ma‘rifiy, axloqiy-profilaktik faoliyat.

Profilaktika xizmati xodimi o‘z vakolati doirasida voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasini:

– ijtimoiy jihatdan xavfli, xulqida turli og_ishlar bo_lgan voyaga yetmagan bilan yakka tartibdagi profilaktik ishlarni tashkil etishda ijtimoiy-psixologik omillarni hisobga olish;

– psixologik va pedagogik bilimlardan unumli foydalanish, shuningdek qonun hujjatlariga muvofiq boshqa chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali ta‘minlaydi.

Profilaktika inspektorining voyaga yetmaganlar o_itasida ijtimoiy jihatdan xavfli, xulqida turli og_ishlar bo_lgan shaxslar bilan yakka tartibdagi profilaktika ishlarini tashkil etishda quyidagi psixologik-pedagogik talab va qoidalarga amal qilishi tavsiya etiladi:

– aqliy-ruhiy rivojlanish darajasini inobatga olish;

– oilaviy shart-sharoiti, ota-onasi, aka-uka va opa-singillari bilan munosabati, oiladagi psixologik muhitning holatini o_rganish;

– voyaga yetmaganlarning ota-onasi yoki ota-ona o__mini bosuvchi shaxslar bilan profilaktik suhbat o_tkazishda huquqbuzarlikning yuzaga kelish sabablari, uning psixologik omillarini hisobga olish;

– oilada farzandlarning ota-onaga bo_lgan psixologik munosabati, ya‘ni simpatiya (yoqtirish) va antipatiya (yoqtirmaslik) holatlarini psixologik tahlil qilish;

– voyaga yetmaganning yashash, o_qish (ish) joyiga borib ko_rish, uning tarbiyasiga mas‘ul bo_lgan shaxslar bilan bola xulqidagi og_ishlarni tavsiflovchi ma‘lumotlarni psixologik tahlil qilish;

– oila va ta‘lim muassasalaridan tashqarida voyaga yetmaganning ruhiyatiga ta‘sir etuvchi tengdoshlar, orttirilgan do__stlarining ta‘sir doirasini tahlil qilgan holda ularni inobatga olish orqali amalga oshirish;

– ta‘lim muassasalari, mahalla faollari bilan hamkorlikda voyaga yetmaganning hayot yo_li va uning psixologiyasini inobatga olgan holda tarbiyaviy ahamiyatga molik suhbatlar tashkil etish va boshqalar.

Profilaktika inspektori o_z faoliyatida voyaga yetmaganlar o_itasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasiga doir chora-tadbirlarni quyidagi psixologik va pedagogik bilimlarni e‘tiborga olgan holda amalga oshirishi tavsiya etiladi:

– voyaga yetmagan huquqbuzarlar bilan yakka tartibda profilaktik chora-tadbirlar jarayonida profilaktik suhbat, profilaktik hisobga olish, rasmiy ogohlantirish, ularni sport to_garaklariga jalb etish, kasbga o_rnatish, o_qishga, ishga joylashtirish kabi choralarni qo_llashda voyaga yetmaganlarning shaxsiy-psixologik hamda imkoniyatlarini, o_ziga xos psixologik fazilatlarini inobatga olish;

– voyaga yetmagan huquqbuzarlar bilan profilaktik ishlarni amalga oshirish jarayonida ularning psixologiyasi, ya‘ni yoshga oid xususiyatlarini,

xarakter va temperamentini, shaxsiy fazilatini, intellektual darajasini, jismoniy va ruhiy sog'lomligi, oilaviy sharoiti, ma'naviy qadriyatlarining shakllanganlik darajasini inobatga olishi;

– voyaga yetmaganning turmush tarzi, oila a'zolari, do'stlari, yaqinlari bilan aloqalari, uning kelajakdagi orzu-havasi, maqsadi, reja va niyatlarini o'rganish;

– voyaga yetmaganni o'rab turgan mikromuhitni uning ruhiyatiga salbiy ta'sirini bartaraf etishda psixologik omillarni hisobga olish;

– voyaga yetmaganlar bilan yakka tartibdagi profilaktik ishlarni (asosan profilaktik suhbat mobaynida) uni huquqiy, ma'naviy, axloqiy, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va voyaga yetmaganning ruhiyatida ijobiy his-tuyg'u hamda munosabatlarni shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlar orqali amalga oshiriladi.

Shu bilan birga, profilaktika inspektori voyaga yetmaganlar bilan yakka tartibda profilaktik suhbatni amalga oshirish jarayonida ularning psixologik o'ziga xosligini, ya'ni ko'ngli nozikligi, arzimagan narsaga xafa bo'lave-rishi, jizzakiligi, qo'rquv va tashvishga beriluvchanligi, tezda g'azablanishi, qasoskorligi, tajovuzkorligi, taqlidga moyilligi va boshqa xususiyatlarini hisobga olishi darkor.

Profilaktika inspektori o'smir bilan suhbatlashishda uning tashqi qiyofasi, umumiy jismoniy barkamolligiga, kiyinishidagi o'ziga xoslikka, boshqalar bilan muomalasiga, qanday vaziyatlarda savollarga javob berishdan bosh tortishiga, nutqi, fikr yuritishi, diqqati va xotirasiga e'tibor berishi kerak.

Voyaga yetmaganlar bilan ishlash jarayonida ularda ishonch hissini uyg'otish har bir profilaktika inspektoridan katta mas'uliyat talab etadi. Shu sababli, suhbatni rasmiy ohangda emas, balki do'stona munosabatlar orqali boshlash hamda suhbatning asosiy mazmuniga birdan berilmaslik tavsiya etiladi. Suhbat mobaynida ishonch hissini uyg'otish profilaktika inspektori-ning samimiy munosabati orqali boshlanadi, o'smirning bergan savollariga oddiy harakat va so'zlar yordamida munosabat bildirish unda yaxshi taassurot qoldiradi.

Profilaktika inspektori suhbat mobaynida o'smirning ota-onasi yoki sinf rahbarini taklif etsa, uning tarbiyaviy ahamiyati yanada ko'proq bo'ladi. Bunday holatda profilaktika inspektori ko'proq maslahatchi vazifasini bajaradi, ya'ni yaqinlariga farzandining o'qish yoki ishlashga xohish-istagi yo'qligini, jamiyatda qabul qilingan axloqiy normalarga zid bo'lgan harakatlarni amalga oshirayotganini hayotiy misollar bilan tushuntirib, izohlab beradi.

Huquqbuzarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasi chora-tadbirlari quyidagilardan iborat:

- profilaktik suhbat;
- rasmiy ogohlantirish;
- huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablari va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlar to'g'risida xabardor qilish;
- ijtimoiy rehabilitatsiya qilish va ijtimoiy moslashtirish;
- profilaktik hisobga olish;
- majburiy davolanishga yuborish;
- ma'muriy nazorat.

Yakka tartibdagi profilaktik chora-tadbirlarga oid profilaktik suhbat, rasmiy ogohlantirish, huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablari va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlar to'g'risida xabardor qilish kabi faoliyatni amalga oshirishda, asosan *ishontirish* usulidan samarali foydalaniladi.

Yakka tartibdagi profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirishda profilaktik suhbat, ijtimoiy rehabilitatsiya qilish va ijtimoiy moslashtirish kabi faoliyatni amalga oshirishda asosan *ragbatlantirish* usulidan samarali foydalaniladi.

Yakka tartibdagi profilaktik chora-tadbirlarning majburiy davolanishga yuborish va ma'muriy nazorat kabi turlarini amalga oshirishda asosan *majburlash* usulidan samarali foydalaniladi.

Umuman, yakka tartibdagi profilaktik ta'sir etish usullarining psixologik tavsifi quyidagicha:

Ishontirish – voyaga yetmaganlarga tarbiyaviy ta'sir o'tkazishning asosiy metodlaridan biri bo'lib, tarbiyalash-ishontirishdir. Ishontirish ish va so'z orqali amalga oshiriladi. Ishontirish usuli sof tarbiyaviy xususiyatga ega bo'lib, ular profilaktik ish olib borilayotgan shaxsning huquqlarini aslo cheklamaydi. Jinoyatlarning yakka tartibdagi profilaktikasida qo'llaniladigan odatdagi ishontirish choralariga suhbatlar, jamoat tashkilotlari va mehnat jamoalaridagi muhokamalar, jamoat tarbiyachilari, murabbiylar tomonidan amalga oshiriladigan turli xil ta'sir choralari kiradi.

Ragbatlantirish – profilaktik ta'sirning muhim metodlaridan bo'lib, shaxsning ijobiy qarashlari, xizmatlarini takomillashtirish va mustahkamlashga xizmat qiladi. Ragbatlantirish moddiy-ma'naviy bo'lishi mumkin. Ragbatlantirishdan ko'zlangan asosiy maqsad profilaktik ish olib borilayotgan shaxsning ijtimoiy muhit bilan munosabatini to'g'ri yo'lga qo'yish va jinoiy niyatlaridan qaytarishdan iborat.

Majburlash – voyaga yetmaganlarga tarbiyaviy ta'sirning yordamchi, istisno tariqasidagi usulidir. U faqat boshqa usullar samara bermagan taqdirda qo'llaniladi.

Viktimologik profilaktika – huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organ yoki muassasaning muayyan shaxsning huquqbuzarlikdan jabrlanuvchiga aylanishi xavfini kamaytirishga qaratilgan profilaktika chora-tadbirlarini qo'llashga doir faoliyatidir¹.

Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasi profilaktika inspektori tomonidan voyaga yetmaganlarning huquqbuzarliklardan jabrlanish ehtimolini kamaytirish maqsadida:

– huquqbuzarliklardan jabrlanuvchilarga nisbatan shaxsning individual va ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda profilaktik tadbirlarni o'tkazish;

– voyaga yetmaganga jabrlanish xavfini tug'dirayotgan omillar va huquqbuzarliklar haqida ma'lumotlar berish, bu borada ularni ogohlikka va hushyorlikka chaqirish hamda xavfsizlik qoidalariga rioya etishga qaratilgan targ'ibot-tashviqot ishlarini tashkil etish orqali amalga oshiriladi.

Profilaktika inspektori huquqbuzarliklardan jabrlanuvchilarga ko'maklashuvchi ixtisoslashtirilgan muassasalar bilan hamkorlikda ularga huquqiy, ijtimoiy, psixologik, tibbiy, pedagogik va boshqa turdagi yordam ko'rsatadi, chunonchi:

– voyaga yetmaganlar va yoshlar o'rtasida ma'naviy barkamollikka erishishning har tomonlama afzalliklarini targ'ib qilish, ularni fan, madaniyat, san'at to'garaklariga jalb etish;

– voyaga yetmaganlar va yoshlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ro'yobga chiqarishga ko'maklashish chora-tadbirlarini amalga oshirish;

– voyaga yetmaganlar va yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini keng targ'ib qilish, ularni jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishga keng jalb qilish, sportning ommaviy va milliy turlarini, xalq o'yinlarini rivojlantirishga qaratilgan ishlarni tashkil etish;

– voyaga yetmaganlar va yoshlar o'rtasida nazoratsizlik, qarovsizlik, huquqbuzarlik va boshqa g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarning, «ommaviy madaniyat»ning salbiy ta'sirlarining oldini olish hamda bunga imkon tug'diruvchi sabablar va sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etish.

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan asosiy profilaktik chora-tadbirlarga suyanagan holda profilaktika inspektori voyaga yetmaganlar orasida sodir etilgan huquqbuzarliklar bilan bog'liq holatlardagi vazifalari quyidagilardan iborat:

¹ Qarang: Ўзбекистон Республикаси Олий мажлисининг «Хукукбузарликлар профилактикаси тўғрисида»ги 2014 йил 14 май қонуни 43-моддаси // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. 2014.–№20.–221- м.

– xizmat faoliyati jarayonida huquqbuzarlik sodir etgan va sodir etishga moyil bo'lgan voyaga yetmaganlar va bolalar o'rtasida profilaktik ishlarni amalga oshirishda ularga hech qanday tazyiq o'tkazmasligi, ularni qo'rqitmasligi, haq-huquqlarini yerga urmasligi, va aksincha, Konstitutsion huquqlarini himoya qilishi;

– nosog'lom oilalarda tarbiya topayotgan bolalarni himoya qilish uchun avvalo profilaktika inspektorlari ularning ota-onalari yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslarning farzandlariga nisbatan muomalasi, ularning o'qish, yashash sharoitlarini tegishli ravishda yaratib berganligi bilan to'liq tanishishlari hamda bu borada ota-onalar, ularning o'rnini bosuvchi shaxslar bilan tarbiyaviy- profilaktik ishlarni tashkillashtirishlari, zarur hollarda, o'z majburiyatlarini to'liq bajarmagan shaxslarni ota-onalik va boshqa huquqlardan mahrum etish borasida tegishli organlarga taqdimnomalar kiritishlari kerak. Bu borada otaning ham onaning ham majburiyatlari bir xildir;

– profilaktika inspektori faoliyati jarayonida huquqbuzarligi uchun profilaktik hisobga olingan voyaga yetmaganlar va bolalarni o'qish, shuningdek boshqa huquqlardan foydalanishlariga to'sqinlik qilmasliklari va kamsitmasliklari, shuningdek, boshqalar tomonidan ham kamsitilishiga yo'l qo'yimasliklari lozim.

– profilaktika inspektorining voyaga yetmaganlar bilan ishlash va ularni tarbiyalash jarayonida faol ishtirok etishi talab etilar ekan, u voyaga yetmaganlarning tarbiyasiga salbiy ta'sir etuvchi ijtimoiy illatlarning oldini olishga ham alohida e'tibor qaratishi, aksincha ularga o'z vaqtida tarbiya bermayotgan, va ota-onalik burchiga sovuqqonlik bilan qarovchi, shuningdek bolalarni o'qitish borasidagi majburiyatlariga e'tibor bermaydigan ota-onalar va ularning o'rnini bosuvchi shaxslarni o'z vaqtida aniqlash va ularga ma'muriy ta'sir choralari qo'llash, yosh bolalarni spirtli ichimliklar ichishga majbur etish yoki tilamchilik qilishga majburlash kabi huquqbuzarlarda o'z vaqtida ma'muriy ta'sir choralari qo'llashlari zarur.

Profilaktika inspektori qarovsiz qoldirilgan bolalarni o'z vaqtida vasiylik va homiylik organlarining ijtimoiy muhofazasiga topshirish choralari ko'rishini, shuningdek agar bolalar o'z uylaridan majburiy ravishda chiqarib yuborilgan bo'lsa, ularga huquqiy yordam ko'rsatilishini ta'minlashi zarur.

Profilaktika inspektori shaxsi noaniq bolalarni «Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-xuquqiy yordam ko'rsatish markazi»ga joylashtirishlari va ularning ota-onalari, yaqinlarini topish choralari ko'rishlari hamda ularga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatilayotganligini nazorat qilishlari lozim.

4-§. Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktika bo'yicha psixologik-pedagogik tavsiyalar

O'smir hayotidagi har bir hodisa va uchrashuvlar, ayniqsa, u ikkilanib turganda, o'z izini qoldiradi. O'smiringa bo'lgan rasmiy munosabat, ishonchsizlik, tajovuzkorlik uni jarohatlashi, qandaydir g'ayriijtimoiy harakatga yo'naltirishi mumkin. Biroq, agar siz o'z vaqtida uni qo'llasangiz, muammo ko'proq ijobiy yechilishining asosligini ko'rsata olsangiz, o'ziga bo'lgan ishonchini oshishiga imkon bersangiz, bu uning o'zgarishiga turtki bo'lishi mumkin.

Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirishda profilaktika inspektori uchun quyidagi psixologik, pedagogik hamda tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan *metodik tavsiyalarni* keltirish mumkin:

Bolaning ehtiyojini o'rganish va qondirish. Qachonki bolaning ehtiyojlari qondirilsa, unda emotsional ehtiyoj va ta'sir rivojlanadi, o'z aqliy ehtiyojlarini qondirish uchun harakat qiladi. Bolalarga ijtimoiylashuv ko'nikmalari, mehr-muhabbat bera oladigan, sevish va do'stlashishni o'rgatadigan insonlar kerak. Ota-onalik bolaning nafaqat boshpana, oziq-ovqat, kiyimbosh va boshqa moddiy ehtiyojini, balki uning ma'naviy ehtiyojlarini qondirishni ham talab etadi. Ota-ona maqsadining samarasi muvaffaqiyatga erishish holati hisoblanadi, ya'ni bolaning barcha past darajadagi ehtiyojlari qondirilsa, u intellektual, emotsional, ijtimoiy rivojlanishi mumkin.

Psixolog *Abraham Maslou* ehtiyojlar iyerarxiyasiga asoslangan inson motivatsiya nazariyasini taklif etgan. Maslou odamlar yuqori nomzodga erishishni xohlasalar, qondirilishi shart bo'lgan ma'lum bir ehtiyojlar to'plamiga ega bo'lishlari zarurligini isbotlagan.

Inson avvalo yuqori darajadagi ehtiyojiga erishishdan oldin o'zining past darajadagi ehtiyojini qondirishi zarurligini taklif etadi. Bosh-pana, ovqat, uy-joy, havo, issiqlik, suv va uyqu kabi ehtiyojlari qondirilmaguncha, inson o'zi va o'z oilasi uchun xavfsizlik, himoya, barqarorlikni ta'minlay olmaydi¹.

Bolaning rivojlanishidagi ehtiyojlarni baholash parametrlari.

Bolalarning rivojlanishidagi ehtiyojlarini baholashning o'ziga xos tartibi Buyuk Britaniya bolalar departamenti tomonidan ishlab chiqilgan va bugungi kunda ko'pgina davlatlarda vasiylik va homiylik organlariga vakil bo'lgan muassasalar – bolalar uylarida, ta'lim muassasalarida tashkil etilayotgan ijtimoiy-psixologik yordam xizmatlarida qo'llanib kelinmoqda.

¹ОЎМТ-ТДМИ-РБИММ-ЮНИСЕФ. Ўзбекистонда «Ижтимоий иш бўйича қайта тайёрлаш дастурини ривожлантириш» лойиҳаси материаллари.– Т., 2008

Bola ehtiyojlarining qondirilishi. Sog_{liq} - bolaning sog_{lom} o_{sh}ga bo_{lgan} ehtiyojlari. Bolaning o_{sh} va rivojlanishi, jismoniy va aqliy holatini o_z ichiga oladi. Bundan tashqari, bolaning nasliy yoki turli xil boshqa ozor beruvchi omillarini ham inobatga olish zarur. Bola kasal bo_{lib} qolgan bo_{lsa}, zarur tibbiy muolajalarni olishi, mos va to_{laqonli} ovqatlanish tartibi, jismoniy talablar, zarur hollarda va yosh davrlarida oladigan vaksinatsiyalar, rivojlanishi mobaynida tibbiy ko_{rikdan} o_{tib} turishi, ko_z (okulist) va tish (dantist) shifokori ko_{rigida} bo_{lib} turishini baholashni o_z ichiga oladi. Yoshi kattaroq bo_{lgan} bolalarga sog_{ligiga} ta'sir etuvchi omillar haqida suhbat uyushtirish orqali maslahatlar va zarur ma'lumot berish, shuningdek jinsiy rivojlanish, jinsiy madaniyat va ma'lumot, turli xil zararli vositalardan foydalanishning zararlari haqida to_{xtalib} o_{tish} zarur.

Baholash doirasi

Ta'lim olish – bolaning kerakli bilimlarni o_{zlashtirishga} bo_{lgan} ehtiyojlari. Bolaning tug_{ilganidan} boshlab, aqliy rivojlanishi bilan bog_{liq} barcha sohalarni o_z ichiga oladi. Boshqa bolalar bilan o_{ynash} va muloqotga kirishish uchun zarur bo_{lgan} imkoniyatlarning mavjudligini ham inobatga oladi, bunda kitoblardan foydalana olish imkoniyati, boshqa yoshga xos bo_{lgan} egallanishi lozim bo_{lgan} ko_{nikma} va malakalarning egallanganligi, yutuq yoki erishilgan natijalar bilan bog_{liq} his-tuyg_{ularni} kechira olishi e'tiborga olinadi. Shuningdek, kattalarning bolaning ta'lim faoliyati, uning rivojlanishi va erishgan yutuqlariga nisbatan qiziqishlarini ham o_z tarkibiga oladi. Oilada shunday kishi bo_{lishi} kerakki, u bolaning hozirgi rivojlanish bosqichidan kelib chiqqan holda ta'lim olishi bilan bog_{liq} barcha ehtiyojlarining qondirilishiga e'tibor qarata olsin.

Bolaning hissiyotlari va xulqining rivojlanishi – bu bolaning hissiyotlarini va xulqini rivojlantirish borasidagi ehtiyojlari. His-tuyg_{ular} hamda xatti-harakatlar orqali bolaning namoyon etayotgan munosabati nazarda tutiladi. Dastlab, kattalar yoki ota-onaning, yaqin insonlarning ishtirokidagi holati, keyin esa bola katta bo_{lib} borgani sari notanish kishilarning oldida o_{zini} tuta olishiga e'tibor qaratiladi. Bu uning tabiati va fazilatlarini, temperamentining alohida tafsilotlarini, turli xil o_{zgaruvchan} sharoitlarga moslasha olish imkoniyatini, stressga nisbatan javob reaksiyasi va o_{zini} nazorat qila olish darajasini o_z ichiga oladi.

Shaxs xususiyatlari, identifikatsiya (mansublik) – bolaning shaxsiy va identifikatsion xususiyatlarga ega bo_{lish} ehtiyojlari, unda shakllanayotgan shaxsiy individuallikka xos bo_{lgan} va alohida bir butun sifatida qadrlı insonligini his qila olishini o_{rganadi}. U quyidagilarni o_z ichiga oladi:

bolaning o_ziga va qobiliyatiga nisbatan munosabatini, o_z obrazini qanday tasavvur qilishi va o_zini qanday baholashi, o_ziga nisbatan ijobiy bahoning mavjudligi. Bunga, shuningdek irqiy, diniy mansubligini, jinsi va seksualligi, yoshi, chegaralangan imkoniyatlarini ham kiritish mumkin. Oilaga mansublik hissi, tengdoshlari guruhi va jamiyat tomonidan qabul qilinishi (madaniy mansublik ham) bilan bog_liq his-tuyg_ular shaxs xususiyatlari va identifikatsiyasiga kiradi.

Oila va ijtimoiy o_zaro munosabatlar – bolaning oilaga va ijtimoiy munosabatlarga bo_lgan ehtiyoji. Empatiyaning (xayrixohlik, hamdardlik) hamda o_zini boshqa insonning o_rniga qo_ya olish imkoniyatining rivojlanishi. Ota-onalar yoki ular o_rnini bosuvchi kishilar, aka-ukalar, opa-singillar, yaqin qarindoshlar, qo_ni-qo_shnilar bilan muqim va hissiy iliq shaxslararo munosabatlarning yo_lga qo_yilganligi, tengdoshlar hamda bola uchun qadri bo_lgan boshqa insonlar bilan do_stona munosabatlarni o_rnatishining ahamiyatini, shuningdek o_sha insonlarning bolaga nisbatan munosabatini ham inobatga olish

Ijtimoiy o_zini namoyon qila olish – bolaning ijtimoiy jihatdan o_zini namoyon qila olishga bo_lgan ehtiyoji. Tashqi ko_rinish, xulq yoki kamchiliklar, tashqi olam tomonidan qanday qabul qilayotganligi hamda u haqidagi tasavvurlar qay tarzda hosil bo_layotganligiga e_tibor qaratiladi. Shuningdek, bolaning kiyim-boshi uning yoshi, jinsi, diniy e_tiqodiga mosligi, ozodalik va shaxsiy gigiyena, kattalar yoki ota-onalar (yo ular o_rnini bosuvchi kishilar) maslahatiga e_tibor berishi yoki «quloq solishi», turli sharoitlarda o_zini tuta bilishi kabilarni ham o_z ichiga oladi.

O_ziga xizmat ko_rsata olishi ko_nikmalari – bolaning o_ziga xizmat ko_rsatish uchun zarur bo_lgan malaka va tajribalarga ega bo_lish ehtiyoji. Bunda bolaning o_sib borayotgan mustaqillikka monand ravishda amaliy, emotsional va muloqot qilish ko_nikmalarini o_zlashtira olish qobiliyati va imkoniyatiga e_tibor qaratiladi. U kiyinish, ovqatni iste_mol qila olish kabi amaliy ko_nikmalarni bajara olishi, o_zida ishonch hosil qila olish imkoniyati, oiladan tashqarida, ya_ni ulardan alohida yashash davomida amaliy ko_nikmalaridan foydalana olishiga nisbatan ishonchi, katta bolalar uchun esa oilasidan alohida o_z hayotini qurib yashay olish imkoniyatini o_z ichiga oladi.

Vujudga kelishi mumkin bo_lgan ijtimoiy muammolarni hal qila olish ko_nikmalarini egallay olish imkoniyatiga ham e_tibor qaratiladi. Bolada jismoniy imkoniyatlarining chegaralanganligini unga ta_sir ko_rsatishi yoki o_ziga xizmat ko_rsatish ko_nikmalarining rivojlanishiga ta_sir ko_rsatishi mumkin bo_lgan boshqa ijtimoiy sharoitlarning yaratilganligiga asosiy e_tiborni qaratish lozim.

Ota-onalar bola ehtiyojlarini qondirish jarayonida quyidagilarni ta'minlashlari talab qilinadi:

– *asosiy e'tiborni bolaga qaratish* - bola to'g'risidagi asosiy e'tibor (asosiy ehtiyojlarining qondirilishi – ovqatlanish, yashash joyi, kiyim-kechak, tibbiy va stomatologik yordamning ko'rsatilishi);

– *xotirjamligini ta'minlash* - bolaning bexavotirligi, osoyishtaligini ta'minlash (bolaga xavf soluvchi omillar, oilaviy munosabatlardan xavotirlanish hamda bolaning himoyaga muhtojlik darajasi va h.k.);

– *hissiy iliqlik* - oilaviy munosabatlar tavsifi, ota-ona va farzand o'rtasidagi hissiy bog'langanlik, bolaning atrofdagi boshqa kishilar bilan hissiy bog'lanish olish imkoniyati va h.k.

– *hissiy bog'langanlik va uning bola hayotidagi ahamiyati* - *hissiy bog'langanlik* – bu masofadan va vaqtdan qat'i nazar, ikki inson o'rtasidagi iliq munosabat.

Hissiy bog'langanlik bizga tug'ilgan zahotiy oq, shuningdek ilk yoshlik davrida beriladi va katta bo'lgunimizcha ta'sir etadi. Agar ota-onalar bolalar tug'ildandan ularning ishonchlarini oqlamasalar, siz uni shundayligicha qabul qiling, bunda siz katta muammoni ko'rmaysiz, faqat o'zingiz boshqa odamlarga pand berib qo'ymasangiz bo'ldi.

Hissiy bog'langanlik bolani quyidagi rivojlanishi uchun kelgusida samarali asos bo'ladi:

intellektual – bola yangi narsani o'rganishda va izlanishda o'ziga nisbatan ishonchni his etadi;

emotsional – «men buni o'z zimda his etganman, agar ota-onamni tashlab ketсам, ular kelishadi va men bilan birga bo'lishadi. Ular menga vaqt ajratadilar, mehr-muhabbatlarini namoyon etadilar, men haqimda qayg'uradilar va barcha ishlarim bilan: men nima qilyapman, nima haqida gapiryapman qiziqadilar»;

jismoniy – ovqat, kiyim-bosh, bosh-pana, bolaning barcha asosiy ehtiyojlari. Jismoniy xavotirsizlik va ota-onalar tomonidan ishonchlilik, ya'ni doimiy jismoniy ehtiyojni ta'minlaydi. Yosh bolalar onasini vizual o'rganganiga qadar hidiga va ovoziga e'tibor qaratadi;

ijtimoiy – oilada, o'z uyida nimalarga o'rgangani jamiyatdagi xulqi va boshqalar bilan munosabatini anglatadi. Bolalar har kuni o'z oilasida nimani ko'rsa kuzatadi, taqlid qiladi va tahlil etadi. Jamoada o'zini qanday tutish, ijtimoiy me'yor oilada shakllanadi. Shunday ekan, bola boshlang'ich bilimlarni oilada egallaydi, keyinchalik bola bog'chada, maktabda, do'stlari va boshqa oilalar bilan muloqot qilganda bilimlar rivojlanadi:

– *rivojlanish* - bolaning bilimga bo'lgan qiziqishini qondirish va aqliy rivojlanishi uchun imkoniyatlar yarata olish;

– *hulqini boshqarish va me‘yoriy talablar* - bola xulqini boshqara olish va uning xatti-harakatlarini chegaralay olish;

– *bir maromlilik* - oilaviy munosabatlarning bir maromda kechishini ta‘minlay olish.

Oila va tashqi muhit omillari: Bola ehtiyojlarini qondirishda oila va tashqi muhit omillarini hisobga olish o‘ta muhim ahamiyatga ega.

Oilaviy tuzilma - oila tarixi (shajara, oilaviy qadriyatlar, odatlar, oila tarkibi, oiladagi shaxslarning o‘zaro munosabati tuzilishi va xususiyati va h.k).

Bolaning qarindoshlari va yaqinlari - qarindosh va yaqinlari hamda ularning bola ehtiyojini qondirishdagi o‘rni.

Uy-joy – oilaning yashash sharoiti, mulki, bola uchun alohida xonaning mavjudligi, shaxsiy buyumlari va h.k.

Ish – oila a‘zolarining ishlashi yoki bandligi haqidagi ma‘lumotlar, bola bilan shug‘ullana olish davomiyligi (kim ishlaydi, kun tartibi).

Daromad – oilaning daromadi, unda bolani kiyim-bosh, o‘yinchoqlar, o‘quv qurollari bilan ta‘minlash, qo‘shimcha ta‘limni tashkillashtirish uchun imkoniyatning mavjudligi.

Ijtimoiy integratsiya - oilaning ijtimoiy aloqasi (qo‘shnilar, tanishlar, bolaning muloqot doirasi va h.k).

Mahalliy resurslar - yashash joyidagi resurslar (ta‘lim, tibbiy, madaniy muassasalarning joylashuvi, transport va h.k).

Mazkur ma‘lumotlarni bir tizimga solish va ular asosida keyingi rejani tuzish bola bilan ishlovchi mutaxassisning mas‘ulligi ostida amalga oshiriladi. Vasiylik va homiylik organi bolaga ko‘rsatilishi lozim bo‘lgan yordam turi va huquqlarini himoyalashning shakli hamda aralashuv darajasini belgilashda yuqorida keltirilgan o‘rganish natijasidagi ma‘lumotlar to‘plami asosida tayyorlangan xulosaga tayanadi.

Bolalarni o‘rganish davomida inobatga olinishi lozim bo‘lgan tamoyillar:

- bolalar manfaati;
- bolaning rivojlanish xususiyatiga asoslanish;
- imkoniyatlar birligini ta‘minlash;
- bola va uning oila a‘zolarini faol ishtirok etishga jalb qilish;
- oilaning nafaqat kuchli tomonlari, balki kuchsiz tomonlarining ham inobatga olinishi;
- tashkilotlararo hamkorlik;
- alohida bir tadbir sifatida emas, balki uzoq davomiylikka ega bo‘lgan jarayon tarzida qarash;

– aniq ma‘lumotlarga suyanish.

Bolani samarali tarzda himoyalash uchun quyidagilar inobatga olinishi lozim:

- birlamchi baholashni juda tezkorlik bilan olib borish;
- bir yola ish rejasini belgilab olish;
- birlamchi baholash va toliq organishni boshlash;
- ish olib borish rejasi muhokama qilinganidan 15 kun otgach dastlabki yigilishni otkazish;
- birlamchi baholash yakunlari boyicha ishchi guruhning yigilishini birinchi yigilishdan keyin 10 kun otgach otkazish.

Birlamchi baholash yakunlari natijasida quyidagilar belgilanishi lozim:

- bolaning yordamga yoki vasiylikka, boshqa oilaga tarbiyaga berishga muhtojligi;
- asosiy muammolar;
- ehtiyojlar hamda oila va bolaning kuchli tomonlari;
- ota-onaning bola ehtiyojini qondira olishga qodirligi;
- qanday aralashuv va yordam turlari korsatilishi;
- yanada chuqurlashtirilgan va atroflicha baholashning zaruriyati.

Baholashning yakuniy natijasi quyidagilarda aks etishi lozim:

- bola ehtiyoji va bu ehtiyojlarning ota-ona tomonidan oz oilalarida qondira olish imkoniyatlari tahlili;
- bola huquqlarini himoyalash maqsadida aralashuv zaruriyati haqida xulosa;
- mas‘ul shaxs, tashkilotning tadbirlarni amalga oshirish (korsatiladigan aniq yordam turlari) davomiyligi korsatilgan aniq harakat rejasi.

Profilaktika inspektorining bola bilan muloqot qilish etikasi. Bola bilan muloqot qilish etikasi oziga xos xususiyatlarga ega. Jumladan:

– osmirning qay darajada ijtimoiylashganligini aniqlash uchun, u bilan faqat tabiiy, ishonchli munosabat ornatish zarur. Osmirning hayotida ushbu munosabatlarning paydo bolishi uning vaziyatining ozgarishiga, shu bilan birga, uning resotsializatsiyasi – tiklanishi va boshqa aloqalarini korsatishi mumkin;

– suhbat olib borilayotgan bolaning hissiy holatini his qila bilish. Masalan, bolaga jarohat yetkazishi mumkin bolgan shaklda ma‘lumotni qabul qilmaslik;

– bolalarga nisbatan chuqur qiziqish va buning oqibati sifatida ular bilan munosabatda chidamlilik;

– bolaning intilishlari va xulq-atvorini his qila bilish, o_zining bolalikdagi tajribasiga tayangan holda, uning o_zidek qabul qila olish qobiliyati;

– bolalar va o_{sm}irlar xulqi bilan bog_{liq} bilimlarga ega bo_{lish}: bolaning rivojlanish xususiyatlari va qonuniyatlarini bilish; xulq-atvorini, yosh va individual xususiyatlarini e_tiborga olish; mos ijtimoiy ta_{sir} orqali xarakterning turli qirralari va xulq-atvor modellarini taqqoslay olish mahorati;

– agar bolaning jamiyat bilan (oila, maktab va boshqalar) aloqalari buzilgan bo_{lsa}, u bilan aloqa o_{rnatish}ning birgina usuli – u yashayotgan muhit, ya_{ni} ko_{cha} bilan bog_{liq}.

Samarali muloqotni ta_{min}lovchi sifatlar. Ba_{zi} bir insoniy sifatlar samarali shaxslararo munosabatlarni qurishning zarur sharoitlaridan hisoblanadi. Zarur sifatlarning asosiy guruhini quyidagilar tashkil etadi:

- munosabatlardagi iliqlik;
- ochiqlilik;
- empatiya;
- o_{zga} kishilarga nisbatan ijobiy munosabat.

Bu shaxsiy sifatlar «malaka» bo_{lib} hisoblanmaydi, lekin malakalardan o_{rinli} va diqqat-e_tibor bilan unumli foydalanishni ta_{min}laydi. Ular kishilar orasidagi barcha munosabatlar zaminida mavjud va o_z samaradorligiga ega bo_{ladi}. Shaxslararo munosabat malakalariga o_{rgatish} ishini shu tushuncha bilan bog_{liq} bo_{lgan} ustanovka va shaxsiy sifatlar tushunchasini muhokama qilmay turib boshlab bo_{lmay}di.

Munosabatlardagi iliqlik. Keng yurak inson uchun o_{zga} kishilar bilan muloqotga kirishish sovuq munosabatli odamlarga qaraganda ancha osonroqdir. Keng yurak deganda, odatda voyaga yetmaganga nisbatan iliq munosabatda bo_{ladigan} va uning uchun ishonch uyg_{ota} oladigan qobiliyatli inson tushuniladi. «Munosabatlardagi iliqlik» tushunchasi keyingi tasdiqlarni ham o_z ichiga oladi:

- muloqotdagi har ikki tomon huquqlarining tengligi;
- ayblovlarning mavjud emasligi;
- o_{zini} himoyalovchi pozitsiyadan xolilik;
- yaqinlik.

Munosabatlardagi iliqlik — bu bir vaqtning o_{zida} alohida turdagi tafakkur hamda malakadir. Ehtimol, bu hatto o_{zining} oldida ham rostgo_y bo_{lish} hamda o_{zga} kishilar bilan ochiq muloqotga kirisha olishga tayyorlik qobiliyatida namoyon bo_{luvchi} malakadir. Shunday qilib, mazkur

tushunchaning asosiy tarkibi bu *o_zga kishiga nisbatan teng huquqli munosabatda bo_lishdir*.

Iliqlik doimo mutaxassisdan kelib chiqishi kerak. Biroq bu munosabat qarama-qarshi tomondan ham xuddi shunday tarzdagi munosabat asosidagi javobga ega bo_lishi kerak, degani emas. Agar biz biror-bir kishiga kasbiy yordamimizni ko_rsatayotgan bo_lsak, albatta ushbu insonga nisbatan doimo iliq munosabatni namoyon qilishimiz zarur. Biroq biz u odamdan ham shu tariqa munosabatni kutishimiz kerak emas. Do_stona munosabatlardan farqli ravishda kasbiy munosabatlarda bu unchalik ahamiyatga ega bo_lgan zaruriyatlardan emas.

Ochiqlik. Ochiqlik ham kasbiy munosabatlarning e'tiborga molik tomonidir. Masalan, biz ro_paramizda turgan odam bilan chin dildan qiziqishimiz yoki aksincha, qiziqmasligimiz mumkin. Kasbiy qiziqish doimo mutaxassisning shaxsiy qiziqishi doirasidan kelib chiqadi va uni yuzaki tarzda namoyon qilib bo_lmaydi. O_z kasbining haqiqiy ustasi har qanday vaqtda ham o_z mijozi haqida qayg_urib, unga qo_ldan kelganicha chin dildan yordam berishga harakat qiladi.

Bunday munosabatlar rivojlanishiga yordam beruvchi turli vositalarni qo_llab ko_rish maqsadga muvofiqdir. Hech narsa chin dildan munosabatda bo_lishga xalaqit bermaydi va u doimo insonning ongli tashabbusi hamda mas'uliyati ostida kechishi, shu bilan birga, bo_lib o_tayotgan hodisalar uchun javobgarlikni his etishi lozim.

Ehtimol, ba'zi insonlar uchun samimiy bo_lish u yoki bu kasbiy rolni yuqori darajadagi ustalik bilan bajarishdan iborat degan tushuncha bilan talqin etilishi mumkin. Boshqa tomondan, yaxshi mutaxassis har bir sohada samimiylik bilan o_z faoliyatini yurgizuvchi, lekin shu bilan birga, bu xususiyatni o_zga kishilar oldida ham samimiylik bilan namoyish qila biluvchi shaxs hamdir.

Xayrixohlik O_zgalarni tushuna bilish uchun boshqa kishilarga nisbatan xayrixohlik bilan munosabatda bo_la olish qobiliyatiga ega bo_lishimiz kerak. Xayrixohlik bu o_zga insonning idroki dunyosiga kira bilishdir, ya'ni uni o_zga kishilar qay tarzda ko_rayotgan bo_lsa, shu tarzda ko_ra olishdir. Kelish (Kalisch, 1971) empatiya – xayrixohlikni «o_zga kishi his-tuyg_usini xatosiz ko_ra bilish va his qila olish hamda shu insonga bu haqida tushuntirib bera bilish qobiliyatidir» deb izohlaydi.

Hamdardlik bu xayrixoh bo_lish degani emas. Hamdardlik o_zga kishiga nisbatan «rahm» uyg_onishini nazarda tutadi. Ehtimol, bu inson o_zi his etayotgan tuyg_ularni o_zga kishilarda ko_rishga qaratilgandir. Inson o_zga kishiga hamdard bo_lganda, u o_zini shu inson o_rniga qo_yishga harakat

qiladi. Xayrixohlik bildirib esa, biz o_zimizni shu inson o_rnida his qilishga va u his etayotgan tuyg_ularni tasavvur qila olishga harakat qilamiz.

Shartsiz ijobiy munosabat. Psixolog Karl Rodjers bu tushunchani «o_zga insonlarning qadriyatlarini tan olish» yoki shunchaki o_zga insonni «qabul qilish» sifatida tushuntiradi. Demak, taxmin etilishicha, voyaga yetmagan bu o_z qadriyatlariga ega bo_lgan va o_zining mavjudligi o_zicha qadrlil bo_lgan insondir. «Shartsiz» deganda, asosan, insonga nisbatan alohida motivatsiya talab etilmaydigan tabiiy munosabat tushuniladi. Rodjersning ta_kidlashicha, mutaxassisda voyaga yetmaganga nisbatan paydo bo_ladigan his-tuyg_u qutilish yoki qandaydir talablar bilan shartli bo_lib qolmasligi katta ahamiyatga ega.

Tabiiy munosabat xatar guruhidagi oila va bolalar bilan ishlovchi xodimlar uchun boshqa kasb egalariga qaraganda, shubhasiz katta ahamiyatga ega bo_lgan munosabatdir.

Shartsiz ijobiy munosabatga qanday qilib o_rnatish mumkin?

Gohida o_zga kishilarni muhokama qilmaslikda bizga o_zimizni aslida qanday bo_lsak, shu tarzda qabul qilishga nisbatan intilishimiz yordam bera-di. Hal qilinmagan ko_pgina muammolarga ega bo_lganimizda, hech qiyinchiliklarsiz va o_ta kuchli intilish bilan biz o_zga kishilarni muhoqama qila-miz. Shunisi aniqki, biz o_zimiz ega bo_lgan muammolarni anglamagan hol-larda ko_pincha o_zgalarni muhokama qilish va ayblashga intilamiz. Shuning uchun o_zgalarga nisbatan shartsiz ijobiy munosabatda bo_lishga o_rnatish-ning asosiy yo_l va vositalaridan biri bu o_zimizni anglay olish qobiliyatimizni rivojlantirishdir. Biz o_z muammolarimizni to_liq ravishda hal qila olmagan bir vaqtda mutaxassis sifatida o_z muammolarimiz ustida o_ylab ko_rishimiz va o_zimizga bu haqida hisob berib borishimiz ma_qul bo_lar edi.

Shartsiz ijobiy munosabat bu har qanday insonlarga xos bo_lgan qadriyatlar tizimi va uning shaxsi xususiyatlari yorqin namoyon bo_ladigan sifatlardandir. Tabiiyki, biz barcha insonlarga bir xil darajada iliq va shartsiz ijobiy munosabatda bo_la olmaymiz. Ba_zida shunday bo_ladiki, ba_zi odamlar shunchaki bizga yoqmaydilar. Gohida esa ijobiy munosabatni namoyon etish bilan samimiy bo_lishga intilish orasida ziddiyat paydo bo_lishi mumkin. Bir tomondan, o_zimizning mavjud fe'l-atvorimizdan voz kechib, o_zligimizni namoyon qila olish imkoniyatiga ega bo_lmasak, ikkinchi tomondan, biz barcha insonlarga ham bir xil munosabatda bo_la olmaymiz.

Eshita bilish, tinglash – suhbatdoshga shunchaki o_z e_tiborini qaratish emas, balki o_zini haqiqatan ham uni tinglab, to_g_ri tushunayotganingizga ishonch hosil qilishi uchun harakat qilish.

1. *Tinglayotgan bolaning ro_parasiga o_tiring.* Bolani haqiqatan ham to_liq tinglashingiz uchun, uni albatta ko_rib turishingiz kerak. Bundan tash-

qari, u ham sizni ko_{ri} turishi lozim. Shuning uchun hamsuhbatni tinglab turib, uning yonida emas, balki ro_{pa}rasida o_{ti}rish maqsadga muvofiqdir. Eng asosiysi – hamsuhbatlar bir-birining yuzini ko_{ri} turishi lozim.

2. *Ochiq bo_{li}ng.* Chalishtirib turilgan oyoq va qo_{ll}ar o_z o_rnida himoyalalanuvchi pozitsiyadan dalolatdir. Yaxshisi, qulayroq o_{ti}rib olib, qo_l va oyoqlarni chalishtirmay, o_zingizni erkin tutib o_{ti}rganingiz ma'qul.

3. *Tinglayotgan bolangiz tomoniga biroz og_{ib} o_{ti}rganingiz ma'qul.* Bunday harakat, odatda, suhbatdoshda sizning unga, uning muammolariga nisbatan chin dildan munosabatda bo_{lay}otganingizdan hamda bu masalaga nisbatan qiziqishingiz darajasidan dalolat beradi. Biroq bu o_rinda sizning harakatingiz suhbatdoshda noqulayliq hissining paydo bo_{li}shiga olib kelmasligiga ham e'tibor berish kerak.

4. *Nigohli aloqani saqlab qolishga harakat qiling.* Nigoh – bu shaxslararo muloqotning ahamiyatli vositalaridan. Shuning uchun doimo nigohingiz va qarashingizning suhbatdosh uchun yo_naltirilganligi va uning ko_{ri}shi uchun qulayligiga e'tibor berish lozim.

5. *Bolani tinglab turib, o_zingizni erkin tuting.* Tinglash – bu suhbatdoshingiz tomonidan aytilgan oxirgi so_{zl}arni qaytarish degani emas. Sizga kerakli bo_{lg}an eng asosiysi – bu faqatgina tinglash. O_zini erkin tutayotgan tinglovchi o_z o_rnida o_zga kishi nutqining haqiqatan ham tinglovchi tomonidan tinglanayotganini his etishi va bu bilan o_zini yanada erkin his etishiga yordam beradi.

Tinglay bilish doimo samarali maslahatlarning asosi bo_{li}b xizmat qiladi, shu jihatdan shaxslararo munosabatlarning ham. Agar mutaxassis o_zida tinglay olish qobiliyatini rivojlantira olsa, u taqdirda boshqa muloqotga oid malakalar rivojlanishi ham sodir bo_{la}di. Biroq suhbatdoshni tinglash voqea va hodisalarning mexanik ketma-ketligini talab etmaydi. Biz nafaqat tinglashimiz, shu bilan birga, o_zimizni shunday tutishimiz lozimki, suhbatdosh o_zini o_z ishini bajaruvchi profilaktika inspektori yoki mahalla maslahatchisi oldida emas, balki o_zining yaqin kishisi oldida o_{ti}rgandek his qila olishiga yordam berishimiz kerak.

Voyaga yetmaganlar bilan profilaktik ishlarni olib boradigan profilaktika inspektori quyidagi sifatlarga ega bo_{li}shi kerak:

1) insonlarning individual xususiyatlarini noto_gri baholamaslik munosabatida bo_{li}sh;

2) bolalarning emotsional holatiga sezgirlik bilan yondashish;

3) egiluvchanlik (egiluvchanlikka mos ko_{rs}atkich) – to_{si}qlardan yengil o_{ta} olish, bir mavzudan ikkinchi mavzuga yengil o_{ti}sh;

4) emotsional bosiqlik va sabrlilik – boladagi xavotirni bartaraf eta olish, tinchlantirish, emotsional bosiqlik va sabrlilik qobiliyatiga ega bo_{li}sh;

5) umumiy madaniyat xulqini qo_{ll}ab-quvvatlash;

6) oz xulqi yonalishini oxirigacha joylashtira olish – vaziyatning konstruktivligini bolaga yuklamasdan, uning shaxs sifatida oshiga tosiqlik qilmasdan, berilgan mavzu boyicha suhbatga qaytish;

7) osmir va bolalar xulqi sohasida bilimlarning mavjudligi – shaxs rivojlanishi va qonuniyatlari, yosh va individual xususiyatlari haqidagi bilimlarni egallash;

8) hayoti davomida shaxs bolib rivojlanishi uchun imkoniyatlarni tan olish. Bola hayotidagi yuqoridagi vaziyat uning tabiatdan yomonligi uchun emas, balki hayotiy vaziyatga mos kelmaydigan sharoitda osganligi sabablidir. Har qanday yoshda uning xulqi va xarakter qirralarini ijobiy shakllantirish, saqlash imkoniyati mavjud. Bolaga chuqur qiziqishni namoyon etish;

9) bola xulqi va tayyorgarlik darajasiga sezgirlik oz bolalik tajribasiga murojaat etgan xolda amalga oshirish;

10) bola huquqini hurmat qilish, oz muammolaridek hal etish va javobgarlikni oz zimmasiga olish qobiliyati;

11) oz tuygularini tahlil etishi, bilishi, belgilashi va salbiy tomonlarini kamsitmasdan balki ularni togrilash lozim. Faqat shunday hollardagina u oz xulqini nazorat qila oladi;

12) ozini ozi anglashni ostirish. Mutaxassis ozi haqida qancha kop bilsa, u kim bilan ishlayotganini yaxshi biladi;

13) kuchli oxshashlik – oz ichki pozitsiyasiga ega bolish, boshqa insonlarga nisbatan oddiy umidni aks ettirish.

Savollar. Shubhasiz, suhbat otkazayotganda bolaga savollar berish katta ahamiyatga ega, lekin savollarni tuzayotganda juda ehtiyotkor bolishimiz kerak. Savollar aniqlovchi xarakterga egadir. Biz esa ayni vaqtda bola jim bolib qolmasligi va ozini sorovga tutilayotgan sudlanuvchidek his qilmasligini istaymiz. Savollar u yoki bu darajada oydinlashtiruvchi bolishi mumkin. Bu uni qay tarzda berishimizga bogliq.

Ochiq savollar – keng va atroflicha javob berilishini nazarda tutadi.

Yopiq savollar esa «ha», «yoq» deyilishi yoki raqam korsatilishini nazarda tutuvchi savollardir.

Savollarning boshqa uchinchi turi ham mavjudki, bunda – «nima uchun?» kabi savol bilan murojaat etishimiz tushuniladi. Ochiq savollar bolani dialogni davom ettirishga yonaltiradi. Bolaga suhbatning boshlangich qismini nazorat qilish imkoniyatini berishimiz maqsadga muvofiqdir. Shu munosabat bilan, ochiq savollarni koproq berib, yopiq savollarni chegaralashimiz katta ahamiyatga ega.

Yopiq savollar: *Yopiq savol* – bu bir xil murakkablikka ega bolgan variant javoblarni taqozo etadigan savol turi («ha», «yoq» yoki boshqa turdagi javob). Yoki, bu shunday savolki, maslahatchining ozi savol bera

turib, oldindan javob mazmunini anglab turadi. Yopiq savollarga quyidagilarni misol tariqasida ko_rsatishimiz mumkin: Siz qayerda o_qiysiz? Ota-onangiz bormi? Ota-onangiz bilan bir uyda yashaysizmi?

Biroq suhbat davomida yopiq turdagi savollardan haddan ziyod ko_p foydalanish suhbatni so_roqqa aylantirib yuborishi mumkin! Yopiq savollar, odatda, bolaning shaxsiy tashabbuskorligi yo_qolishiga va buning natijasida o_zi haqida gapirib berish istagining so_nishiga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, barcha yuzaga kelayotgan munosabatlar yuzasidan mas'uliyat deyarli bola zimmasiga yuklatiladi.

Odatda, bunday savollarga javoblar bitta so_zdan iborat bo_ladi va orada jimlik hosil bo_ladi. Chunki bunda bola keyingi savolni kutadi. Bunday savollar «Sizchi...», «Siz.....misiz?», «Siz..... qilayapsizmi?», «Qancha?» so_zlaridan boshlanadi. Masalan, «Siz o_z ota-onangizga nimalar bo_lib o_tganini aytib berdingizmi?» yoki «Aka va singillaringiz nechta?».

Bu tarzdagi savollar bolaga yordam bera olmaydi. Aksincha, ular «suhbat eshigini» ochish o_rniga, yopib qo_yadi. Bola bilan suhbatlasha turib, biz uni o_zini o_rganishga undaymiz. Agar biz bolaning o_zini o_rgana olishiga ishonch hosil qila olsak, u o_z tanlovi va qarorini his qila olishi ham lozim. Natijada harakat qilish va qandaydir o_zgartirishlar kiritish haqidagi oxirgi qarorni o_zi chiqarishi kerak. Buni o_zi istashi lozim. Bolani bunday qaror chiqarishga olib keluvchi yo_lni bola ijodiy yondashgan tarzda, o_zigina bosib o_tishi kerak¹.

Ochiq savollar: *Ochiq savollar* – murakkablikka ega bo_lgan javob berilishini emas, balki mazmunli javobni nazarda tutuvchi savol turi. Suhbat olib boruvchiga bu vaziyatda biroz qiyin bo_lishi mumkin. Chunki u beriladigan javobni oldindan ko_ra bilmaydi. Masalan: «Bu voqea sodir bo_lgan vaqtda, siz nima bilan band edingiz? Shu paytda siz nimani his etdingiz? Hozir esa nima deb o_ylaysiz? Sizningcha, endi nima sodir bo_lishi mumkin?» Odatda, bunday savollar «Nima...», «...qilishim mumkinmi?», «...qila olmaysizmi...» yoki «Qanday qilib...» kabi so_zlar bilan boshlanadi.

Shuning uchun «Bo_sh vaqtingizni qanday o_tkazasiz?» yoki «O_zingizning oilangiz haqida gapirib bera olmaysizmi?» kabi savollar ochiq turdagi savollarga yaxshi misol bo_la oladi. Albatta, berilayotgan savol muhokama qilinayotgan mavzu doirasida bo_lishi kerak. Shuning uchun agar bola o_zini yolg_iz his qilayotgani, zerikayotgani yoki o_zini bosim ostidagidek his etayotganini aytsa, unday holda «Bo_sh vaqtingizni qanday o_tkazasiz?» kabi savolni berish o_rinlidir.

Biroq bola onasining o_limidan so_ng kechayotgan aziyati haqida gapirayotgan bo_lsa, bunday holda bu tariqa savolni berish o_rinli emas.

¹Qarang: Навыки общения для социальных работников: Руководство для тренера. ЮНИСЕФ. – Казахстан. 2006.

Ochiq savollar bolaga o_z fikrini aniqroq bayon etishga yoki davom ettirishga, shuningdek, u yoki bu muammoga kirishishiga yordam beradi. Suhbat davomida bu tarzda savollar yopiq turdagi savollardan ko_{ra} ancha foydalidir. Ular batafsil va har tomonlama tushintiruvchi javoblarni yuzaga keltiradi va yopiq turdagi savollardan farqli o_{laroq}, baholovchi va talqin etuvchi munosabatdagi javoblar sonini keskin kamaytiradi. Biroq mutaxassis ochiq savollar bera turib, intervensiya tavsifiga ham e'tibor berishi va rioya qilishi zarur. Masalan, u bolaning shaxsiyati yoki yoqimsiz xotiralarini qo_{zg}atuvchi savollar sonini juda ham ko_{paytirib} yuborishi mumkin. Har bir beriladigan savolning o_z o_{rni} va qulay vaziyati bor.

Bola bilan o_{zaro} muloqot davomida yuzaga keladigan savollar turli maqsadlarni o_z ichiga olishi mumkin. Asosiy savollar tarzida quyidagilarni alohida ajratib ko_{rsatish} mumkin:

Aniqlashtirish: «Kechirasiz, aytishingiz bo_{yicha}, siz uydan ketishingiz kerak, shundaymi, yoki hali oxirgi qarorga kelmadingizmi, ishonchingiz komil emasmi?»; «Keyin siz nima dedingiz?»

Bolani gapirib berayotganlarini davom ettirishga *rag_{batlantirish}*: «Bu haqda yana ham batafsilroq gapirib bera olmaysizmi?»; «Bunday vaziyatda sizda qanday hislar paydo bo_{ladi}?»

Qo_{shimcha} ma'lumot olish: «Oilada nechta farzandsiz?»; «Darslar tugagach nima bilan shug_{ullan}asiz?».

Tadqiq qilish: «Yana nima bo_{lib} o_{tdi}?».

Bola bilan ishlashda taqiqlangan usullar va xatolar. Suhbat vaqtida nimadan qochish kerak?

1. *Bolaga nisbatan shaxsiy murojaatning yo_{qligi}.* Bu juda katta masofani, emotsional sovuq aloqani talab etadi. Bolaga ismi bilan murojaat eting.

2. *Bolaga maxsus va tushunarsiz so_{zlarni} qo_{llash}.* Bola bilan suhbatda tushunarsiz so_{zlarni} izohlarsiz qo_{llash} ular orasidagi ishonchli muloqotni buzilishiga olib keladi. Bolaga tushunarli tilda gapiring!

3. *Kasbiy o_{zaro} ta'sirdan maishiyga o_{tish}.* Bola va mutaxassis o_{zaro} munosabatida inson sifatida emas, professional sifatida tahlil qilish. Aks holda, maslahat mohiyatiga ko_{ra} «oshxonadagi suhbatlarga» aylanadi. Kasbiy ta'sirlaning!

4. *Boshqa insonlar fikrini qayta ko_{rib} chiqish.* Maslahatli aloqaning maqsadi – inson fikrini, uning hal qilish yo_{llari} mantig_{ini} aniqlash. Bu haqda boshqa insonlar nima deb o_{ylashi} haqida boladan so_{ramang}, uning pozitsiyasini aniqlang.

5. *Muammoni haddan tashqari tez aniqlash. Sabrli bo_{lish}.*

6. *Bola qadriyatlarini qabul qilmaslik.* Qadriyatlarni qabul qilish ularni so_{zsiz} qo_{llab}-quvvatlashni anglatmaydi. Biroq mutaxassis bola hayotida

qadriyatlar asosiy o_{rin} egallashi va uning shaxsiy mohiyatini anglatishini tushunadi. Bolaga uning qadriyatlar tizimi xalaqit beradimi yo_{qmi}, uni o_{zi} hal etishi zarur.

7. *Yuqoridan qarash.* Mutaxassis o_{zini} «yuqori inson» sifatida tutayotgandek ko_{rinadi} – hamma narsani biladigan va barcha narsaga qodirdek. Bola bilan teng pozitsiyada bo_{ling}.

Quyidagi taqiqlangan usullarni farqlash:

Qaror qabul qilish – fikr bildirish.

Fikr bildirish suhbatdoshning o_{zini} o_{zi} baholashini pasaytiradi.

Fikr bildirish – inkor etish.

1. Qaror qabul qilish – fikr bildirish – qachonki mutaxassis bolaga nisbatan qaror qabul qilishda ishonchsizlik namoyon etsa va u uchun mustaqil o_{zi} qaror qabul qilishi. Bu quyidagi ko_{rinishda}:

Buyruq, farmonni ijro etish. Mutaxassis bolaga nima qilishi *haqida buyruq beradi.* U bola irodasini cho_{ktiradi}, uni mustaqil harakat qilish, tanlash imkoniyatidan mahrum etadi.

Tahdid, ogohlantirish, ishontirish. Mutaxassis bolani ogohlantirgan holda, uning harakatlari oqibati nima bo_{lishi} haqida o_z hukmini o_{tkazishni} qo_{llaydi}.

O_{rgatish}, axloqlashtirish. Mutaxassis bolaga qanday yo_l tutishni o_{rgatib}, o_z axloqiy prinsiplarini qo_{llashga} majburlaydi.

Qaror qabul qilishda takliflar, maslahatlar. Mutaxassis bolaning muammolarini hal qilish haqida unga gapiradi.

2. Suhbatdoshning o‘zini o‘zi baholashini pasaytiruvchi fikrlar:

Ayblash, tanqid, muhokama. Mutaxassisning bolani salbiy baholashi va qabul qilishi.

Haddan ziyod maqtash, ma‘qullash. Mutaxassis tomonidan rag_{batlan-}tirish yoki ikki yuzlamachilik bilan manipulatsiya qilish.

Uyaltirishga intilish, mazax qilish. Ajoyib vaziyatni yuritayotgandek ko_{rsatish} va uni «tasniflash» uchun bolani tentak qilib ko_{rsatishga} majbur etish.

Tashxis qo_{yish}. Mutaxassisning bolaga uning motivi nima ekanligini aytishi yoki bir qanchasini sanab o_{tishi}.

Ishontirish, tinchlantirish. Mutaxassis tomonidan bola holatini yaxshilash, biroq bu usullar bolaning faqat nomigagina «aytishi» mumkin bo_{lgan} qayg_{usi} va samimiy yoki haqiqiy tuyg_{usini} inkor etgan holda, uning holatini yaxshilashga harakat qilish.

So‘rash va izlanish. Mutaxassis ma‘lumotlarni yig_{ishda} bola gapirishni xohlamagan yoki gapirishga tayyor bo_{lmagan} holatlarda «tazyiq» o_{tkazish}; uni ma‘lumot yetkazishga majburlash; bolaga muammosini anglashiga

yordam berish yoki o'z qarorini qabul qilishni ishlab chiqishiga yordam berish o'rniga o'zi qaror qabul qilish¹.

Psixologik tavsiyalar. Shunday qilib, voyaga yetmagan jinoyatchilar shaxsi, ularning individual-psixologik va yosh xususiyatlari hamda voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining ijtimoiy-psixologik omillarini o'rganish natijalaridan olingan xulosalar bu muammoning oldini olish borasida quyidagi tavsiyalarning yaratilishiga asos bo'ldi. Ular quyidagilardir:

1. Jinoyatchilik xulqiga ega bo'lgan bolalar va o'smirlar shaxsida ruhiy beqarorlik, o'zgaruvchanlik, affektga moyillik xususiyatlarining yaqqol ifodalanganligidan kelib chiqib, ular shaxsini sog'lomlashtirishga harakat qilish maqsadga muvofiqdir. Bunda ular yashayotgan oila va ijtimoiy muhitni sog'lomlashtirish, shaxslararo sog'lom munosabatni vujudga keltirish ishlarini olib borish yaxshi natija beradi.

2. Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining asosiy sabablari sifatida "bolalar va o'smirlar faoliyatini nazorat qilmaslik", "oilada bola tarbiyasiga e'tiborning susayishi" kabilar namoyon bo'lganligidan kelib chiqib, oilada va oiladan tashqarida bolalar va o'smirlar faoliyatini, bo'sh vaqtlarida nima bilan shug'ullanayotganligini nazorat qilish va oilada bolalar tarbiyasiga e'tiborni kuchaytirish maqsadga muvofiqdir.

3. Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi ko'pincha o'zi yashayotgan yoki yashash joyidan unchalik uzoq bo'lmagan joylarda sodir etilayotganligi bolalar va o'smirlar yashovchi mahallalarda sog'lom muhitni yuzaga keltirish tadbirlarini olib borishni taqozo qiladi. Shuningdek, bunday mahallalarda mahalla profilaktika inspektori va mahalla faollari faoliyatini kuchaytirish voyaga yetmaganlar jinoyatchiligini oldini olishda muhim ekanligini unutmaslik kerak.

4. Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi asosan 14-17 yoshga to'g'ri kelayotganligidan kelib chiqib, aynan shu yoshdagi bolalar va o'smirlar o'rtasida hamda ular o'qiyotgan ta'lim maskanlarida profilaktik tadbirlarni kuchaytirish maqsadga muvofiqdir.

5. Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi asosan tungi kech soat 22-23 va undan keyingi vaqtlarda amalga oshirilayotganligini hisobga olib, aynan shu vaqtlar oralig'ida bolalar va o'smirlar faoliyatiga nazoratni kuchaytirish zarurdir.

6. Krimenogen xulqli oilalarni aniqlash, ularda tarbiyalanayotgan bolalar va o'smirlar ahvolidan xabardor bo'lib turish.

7. Bolalar va o'smirlarning maktabdan keyingi bo'sh vaqtlarini nazorat qilish va ulardan unumli foydalanishni tashkil etish;

¹ ОЎМТ-ТДМИ-РБИММ-ЮНИСЕФ. Ўзбекистонда «Ижтимоий иш бўйича қайта тайёрлаш дастурини ривожлантириш» лойиҳаси материаллари. – Т., 2008.

8. Ota-onalar, katta yoshdagi kishilar va o'qituvchilar tomonidan bolalar va o'smirlarga nisbatan qo'llanilayotgan qattiqo'l, qo'pol va adolatsiz munosabatlarni aniqlash va ularga barham berish.

9. Psixolog, sotsiolog, pedagog, psixiatr va huquqshunoslarning ommaviy axborot vositalarida voyaga yetmaganlar qonunbuzarliklari va ularning oldini olish, jinoyatchilik xulqi psixologiyasi, bolalar va o'smirlar psixologiyasi kabi mavzularda eshittirishlar, ko'rsatuvlar va maqolalar bilan chiqishlarini tashkil etish.

10. Voyaga yetmaganlar o'rtasidagi qonunbuzarliklarning oldini olish ishlariga qariyalarni va din vakillarini jalb etish.

11. Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining oldini olishda bolalar va o'smirlarning yosh va individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olish.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning oldini olishga qaratilgan profilaktik chora-tadbirlarni bolalar va o'smirlarning yosh, individual-psixologik va xarakter-xususiyatlarini, ijtimoiy muhit va oilaviy tarbiyaga, oilada yaratilgan ijtimoiy-psixologik muhit va munosabatlarni hisobga olgan holda amalga oshirish va bunday chora-tadbirlar psixologik-pedagogik jihatdan ilmiy asoslangan bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

Savol va topshiriqlar

1. Voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklar kelib chiqishining qanday psixologik sabablarini bilasiz?

2. Voyaga yetmaganlar o'rtasidagi nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning psixologik jihatlari haqida aytib bering.

3. Voyaga yetmaganlar o'rtasidagi nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning umumiy profilaktikasiga tavsif bering.

4. Voyaga yetmaganlar o'rtasidagi nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning maxsus profilaktikasiga tavsif bering.

5. Voyaga yetmaganlar o'rtasidagi nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasiga tavsif bering.

6. Voyaga yetmaganlar o'rtasidagi nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasiga tavsif bering.

7. Voyaga yetmaganlar o'rtasidagi nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasini tashkil etishda qanday psixologik jihatlarga e'tibor qaratish lozim?

8. Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirishning qanday metodik talablarini bilasiz?

9. Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'yicha qanday psixologik-pedagogik tavsiyalar taklif etiladi?

XI bob. MA“MURIY NAZORAT OSTIDAGI SHAXSLAR PSIXOLOGIYASI VA ULAR BILAN ISHLASHNING PSIXOLOGIK JIHATLARI

1-§. Profilaktika inspektorining ma“muriy nazoratda turuvchi shaxslar bilan ishlashida psixologik bilimlarning ahamiyati

O_zbekiston Respublikasi qonunlarini buzgan va ularga amal qilishni istamagan huquqbuzarlar, ularni buzishga ko_proq moyil bo_lgan shaxslar, shu jumladan ma“muriy nazoratda turuvchi ilgari sudlangan shaxslar orasida huquqiy tarbiyani yaxshilash borasida samarali ish olib borish davr talabidir.

Darhaqiqat, bugungi kunda og_ir, o_ta og_ir, va har qanday qasddan ikki yoki undan ortiq jinoyati uchun jazoni o_tab chiqqan shaxslarning kelgusida takror jinoyatlar sodir etishining oldini olish, ularda ijobiy ijtimoiy yo_lga kirib olishni shakllantirish maqsadida O_zbekiston Respublikasining 1992-yil 9-dekabrda qabul qilingan “Jazoni ijro etish muassasalaridan bo_shatilgan shaxslar ustidan ichki ishlar idoralarining ma“muriy nazorati to_g_risida”gi qonunida belgilangan tartibda sud tomonidan ma“muriy nazorat o_rnatiladi. Ichki ishlar organlarining ma“muriy nazorati tarbiyaviy oldini olish ta“sir choralarining majmuini ifodalab, nazorat ostidagilarga nisbatan quyidagilar (qonunda) ko_zda tutilgan: kunning ichki ishlar organlari belgilab qo_ygan vaqtda uy (xonadon)dan chiqib ketishini taqiqlash, tuman (shahar)ning muayyan joylarida bo_lishni taqiqlash, ichki ishlar organlarining ruxsatisiz tuman (shahar)dan tashqariga chiqib ketishni taqiqlash, ro_yxatdan o_tish uchun har oyda bir martadan to_rt martagacha ichki ishlar organlariga kelib uchrashish va shu kabilar.

Bugungi kunda ma“muriy nazoratni amalga oshirish vakolati ichki ishlar organlarining profilaktika xizmatlari, shu jumladan profilaktika inspektorlariga yuklatilgan bo_lib, ular tomonidan bir necha marta sudlangan, jazoni o_tash davrida tuzalish yo_ligakirmagan, jazoni ijro etish muassasalaridan bo_shab chiqqanidan keyin ham jinoiy faoliyatini davom ettirishni mo_ljallayotgan va jamiyatga zid turmush tarzini yurituvchi shaxslarga alohida e_tibor qaratish bilan bir qatorda ularning jinoyat sodir etishdagi o_zigaxos usullari, jinoiy aloqalari haqidagi ma“lumotlarni o_rganish, ular to_g_risidagi ma“lumotlar bo_yicha mutasaddi xizmatlar axborotlar almashib turadi. Bu esa profilaktika inspektoriga ma“muriy nazoratda turuvchi shaxslar tomonidan jinoiy faoliyatini takroran sodir etish holatlarining oldini olish va uning jamiyatga zid xulq-atvoriga chek qo_yish hamda

ularga nisbatan o_z vaqtida qonuniy choralar ko_rish imkoniyatini beradi. Shu maqsadda ma'muriy nazoratda turuvchi shaxslarning xulq-atvori, turmush tarzi, ularning yashash va ish joylarida nazorat qilish samara beradi.

Ta'kidlash joizki, ma'muriy nazoratda turuvchi ilgari sudlangan shaxslarning xulq-atvorining doimiy nazorat qilib borilishi, ularga nisbatan amalga oshirilayotgan tarbiyaviy- profilaktik mazmundagi chora-tadbirlarning amalga oshirilishiga qaramasdan, ushbu toifadagi shaxslar tomonidan qayta jinoyat sodir etish holatlari amaliyot jarayonida kuzatilmoqda. Har qanday jinoiy qilmish jinoyatchining psixologik xususiyatlaridan kelib chiqadi. Shuning uchun profilaktika inspektoridan ma'muriy nazorat ostidagi shaxslarning psixologik xususiyatlarini yuzaga keltiruvchi sharoitlar, umuman olganda, ushbu toifa shaxslarning psixologik jihatlari va psixologiyasi haqida bilimlarga ega bo_lish talab etiladi.

Ma'muriy nazorat ostidagi shaxsning jinoyatchi shaxsidan qaysi psixologik jihatlari bilan farq qiladi va qanday psixologik xususiyatlarga ega?

Jinoyatchi – jinoyat sodir etgan va sud ishlarini olib borish davomida aybdor deb topilgan shaxs.

Ma'muriy nazorat ostidagi shaxs – aynan og_ir, o_ta og_ir va har qanday qasddan ikki yoki undan ortiq jinoyati uchun jazoni o_tab chiqqan va sud qaroriga asosan ma'muriy nazorat o_matilgan shaxs.

Ma'muriy nazorat ostidagi shaxs to_g_risida so_z yuritilganda uning psixologik jihatlari e'tibor berish lozim. Bu jihatlardan nimalardan iborat? Shaxsni o_rganish davomida uni o_rab turgan muhiti bilan bog_liq ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy sharoitlar muhim ahamiyatga ega. Bu sharoitlar uning jinoyat yoki boshqa huquqbuzarlik sodir etishida katta rol o_ynaydi va uning mohiyatini oydinlashtirishda qo_lkeladi. Ijtimoiy sharoitlar jinoiy qilmishda o_z aksini topadi va ma'muriy nazorat ostidagi shaxsning xatti-harakatlari orqali namoyon bo_ladi.

Jinoyatchi shaxs va ma'muriy nazorat ostidagi shaxsni psixologik va ijtimoiy taqqoslash davomida quyidagi natijalar namoyon bo_ladi, ya'ni jinoyatchining:

- yuqori darajada notinchligi va o_z-o_ziga ishonmasligi, jahli tez, tajovuzkor, jamiyatning qadriyatlaridan uzoqligi;
- axloqiy va huquqiy normalarga oid talablarni yaxshi o_zlashtirmagan, kichik guruhlardan uzoqlashgan (oilalar, ishchi jamoalar va boshqalardan)ligi;

- kichik guruhlarga ijtimoiy foydasi tegmasligi kabi belgilari mavjud bo'ladi

Bunday belgilarga ega shaxslar bosqinchilik, o'g'rilik odam o'ldirish, badanga shikast yetkazish kabi jinoiy qilmishlarni sodir etishga moyil bo'ldilar. Jinoiyatchi shaxsini tahlil etish u sodir etgan qilmishni malakali baholashni, jumladan, individual bashorat qilishni ta'minlash uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Jinoiyatchi shaxs to'g'risida har tomonlama va chuqur tasavvurga ega bo'lish uchun tahlil nafaqat jinoiyat sodir etilgan vaqtni va uni tekshirish davrini, balki tekshiriluvchining rivojlanishini ham qamrab olishi kerak. Bunda jinoiyat sodir etilishining yashirin motivlarini ham, psixologik-psixiatrik xususiyatlarini ham baravar inobatga olish lozim.

Ma'muriy nazorat ostidagi shaxslarda ham xuddi jinoiyatchi shaxsidagi xususiyatlar mavjud bo'ladi. Biroq ma'muriy nazoratda turuvchi shaxs jinoiyatchi shaxsdan farqli ravishda o'ziga har doim jinoiyat sodir etishni faoliyat qilib olmaydi balki, uning hayotiy faoliyati va turmush tarzidagi hamda uni o'rab turgan ijtimoiy muhitdagi munosabatlar qayta jinoiyat sodir etishiga olib kelishi mumkin. Masalan, ma'muriy nazorat ostidagi shaxsning g'ayri-ijtimoiy xatti-harakat sodir etishiga ko'pgina xollarda uning shaxsiy turmushidagi, oilasidagi va qarindosh-urug'chilikdagi salbiy munosabatlar, oilada bir-biriga izzat-hurmatning yo'qligi, salbiy muhitning mavjudligi, janjalli vaziyatlarning tez-tez bo'lib turishi, qo'ni-qo'shilar bilan munosabatlarning yaxshi emasligi, ayniqsa salbiy xulq-atvordagi boshqa shaxslarning ta'siriga tushib qolishi, o'z ehtiyojlarini qondira olmasligi kabilar sabab bo'ladi.

Jinoiyatchi shaxsini o'rganish orqali ularning jinoiyat sodir etishdagi o'ziga xos usullarini tadqiq qilish mumkin va bu jinoiyatlarni ochishda identifikatsiya qilish uchun katta ahamiyatga ega.

Ma'muriy nazoratda turuvchi shaxs psixologiyasini o'rganish esa ushbu toifadagi shaxslarning xulq-atvorini to'g'rinazorat qilishni hamda bu orqali ularning jamiyatda o'rnatilgan tartib-qoidalariga amal qilishlarini ta'minlaydi, shuningdek, ular tomonidan takror jinoiyat sodir etilishining oldini olish chora-tadbirlarini amalga oshirish uchun zarurdir.

Ko'pgina huquqshunos olimlar ma'muriy nazoratda turuvchi shaxslarning jamiyatga zid qarashlari va yo'nalishlari jazoni o'tash davrida shakllanadi deb e'tirof etishadi. Bu esa ma'muriy nazoratda turuvchi shaxslarni boshqa odamlardan ajratib turadi va mazkur qarashlar jinoiy qilmishning sabab va sharoitlarini belgilab beradi.

Bunday qarash va yo_nalishlar o_z individual (shaxsiy) shakllariga ega va biologik tomonidan isbotlangan bo_lib hayot sharoiti va tarbiyaning ta'siri ostida o_z ma'no-mazmunini to_ldirib turadi.

Odam jinoyatchi bo_lib tug_ilmaydi, u jinoyatchi bo_lib shakllanishi mumkin. Ma'muriy nazorat ostidagi shaxslarning barchasi qayta jinoyat sodir etishi mumkin degan qarashlardan yiroq bo_lish lozim. Ularning shaxsi noqulay sharoitlar ta'siri ostida asta-sekinlik bilan o_z ifodasini topadi. Ammo bu sharoitlar jinoiy qilmishni keltirib chiqarmasligi ham mumkin, biroq shaxsning ichki dunyosi va psixologiyasini vujudga keltiradi. Inson o_z psixologik tabiatiga tegishli bo_lgan hayotiy sharoitlarni tanlaydi va qabul qiladi.

Har qanday individ shaxs sifatida mavjud munosabatlar, rivojlanish va ongning mahsulidir. Lekin bu munosabatlarning shaxs tomonidan qabul qilinishi har xil bo_lib, turli harakatlarga olib keladi. Shaxsning qadriyat, normalar, ijtimoiy institutlar va guruhlariga bo_lgan munosabati tashqi va ichki sharoitlarga bog_liq. Mavjud ushbu bog_liqlik ikki taraflama – psixologik va ijtimoiy nuqtai nazarlar orqali o_rganiladi. Shaxsni, shu jumladan jinoyatchi shaxsni ham psixologik, ham ijtimoiy jihatdan o_rganib chiqish zarur ekanligini qator olimlar tavsiya etganlar (A.R.Ratinov, K.Y.Igoshev, M.Antonyan, X.R.Glazyrin, A.V.Dulov, V.L.Vasilyev va boshq.). Biroq ushbu olimlar aynan ma'muriy nazorat ostidagi shaxslar psixologiyasi to_g_risida fikr bildirmaganlar.

Ma'muriy nazorat ostidagi shaxsning individual-tipologik jihatlarini o_rganishda uning uch ko_inishi namoyon bo_lishi mumkin:

- umumiyligi;
- alohidaligi;
- betakrorligi.

Bu ko_inishlar jinoyatchini uch guruhga bo_ladi:

- umumiy turdagi;
- aniq turdagi;
- aniq darajadagi.

Ijtimoiy nuqtai nazardan ma'muriy nazorat ostidagi shaxs ikki – ijtimoiy-tipologik va ijtimoiy-rolli yo_nalish orqali o_rganiladi.

Birinchi holatda, ma'muriy nazorat ostidagi shaxsning ijtimoiy mavqei (ya'ni, ijtimoiy normalarni qabul qilishi va ijro etishi), ikkinchi holatda ma'muriy nazorat ostidagi shaxsning faolligi (ya'ni, qonuniy normalarni buzganligi va buning natijasida huquqiy nizolarning kelib chiqish sabablari) o_rganiladi.

Kriminal psixologiyaning asosiy masalalaridan biri – shaxsning ichki moyilliklarini aniqlab chiqish va ular orqali uning motivatsion doirasining muhit bilan boglanganligi va o'zaro harakatda bo'lganligi ostida kriminogen vaziyatning vujudga kelganligini o'rganishdir.

Har bir xatti-harakatni amalga oshirishda obyektiv (tashqi vaziyat) va subyektiv (shaxsiy qarashlar) sabablar aloqador bo'ladi.

Jinoyatchilikka qarshi kurash sohasidagi eng muhim, samarali va insonparvar yo'nalishlardan biri huquqbuzarliklar profilaktikasi hisoblanadi. Ushbu faoliyat normativ-huquqiy hujjatlarga tayangan holda amalga oshiriladi. Huquqbuzarliklar profilaktikasi huquq-tartibotni saqlash hamda mustahkamlash, huquqbuzarliklarni aniqlash, ularga barham berish, shuningdek huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, ularni bartaraf etish maqsadida qo'llaniladigan huquqbuzarliklarning umumiy, maxsus, yakka tartibdagi va viktimologik profilaktikasining huquqiy, ijtimoiy, tashkiliy va boshqa chora-tadbirlarini amalga oshirishdan iborat jarayon.

Ma'muriy nazorat ostidagi shaxslar jinoyatchiligining sabab va sharoitlarini mazmuni bo'yicha tasniflash amaliy ahamiyatga ega. Mazmuni bo'yicha iqtisodiy (alohida turdagi iste'mol buyumlarining tanqisligi, pulning qadrsizlanishi), siyosiy (amaldagi konstitusion tuzumga dushmanlik munosabati, hokimiyatga qonunlarga xilof yo'llar bilan erishishga urinish), g'oyaviy (ommaviy axborot vositalarida, g'oyaviy-tarbiyaviy ishlardagi yo'l qo'yilgan kamchiliklar), ijtimoiy-ruhiy (ayrim jamiyat a'zolarida shaxsiyatparastlik, g'arazgo'ylik, manfaatparastlik qarashlarining mavjudligi), tashkiliy-boshqaruv (iqtisodni boshqarishdagi, xo'jalik yuritishdagi xatolar, nazoratni amalga oshiruvchi organlar, huquqni muhofaza etuvchi organlar faoliyatidagi xato va kamchiliklar, boshqaruv idoralari xodimlarining kishilar bilan bo'lgan rasmiy buyruqbozlik munosabati), huquqiy (qonunchilikdagi mavjud kamchiliklar, ayrim turdagi munosabatlarni tartibga soladigan qonunlarning yo'qligi) sabab va sharoitlarga ajratish mumkin.

Ta'kidlash joizki, jinoyatchilikning barcha sabab va sharoitlari kishilar psixologiyasida va ongida aks etib, ular jamiyatga zid yo'nalishni, qarashlarni, harakatlarni shakllantiradi yoki ularni kuchaytiradi, jonlantiradi. Shuning uchun ham jinoyatchilik sabab va sharoitlari hamma vaqt ijtimoiy-psixologik xususiyatga ega. Ijtimoiy-psixologik sabab va sharoitlar ijtimoiy sharoitlardan kelib chiqqan bo'lib, ma'lum bir darajada mustaqildir. Jamiyatda jinoyatchilikning ijtimoiy-psixologik sabab va sharoitlarini asosan ijtimoiy hayotning barcha sohalarida mavjud bo'lgan salbiy

hodisalar, voqealar, jarayonlar keltirib chiqaradi. Har qanday jamiyatda, uning rivojlanishining barcha bosqichlarida ham, ijtimoiy-psixologik sabab va sharoitlarni keltirib chiqaradigan obyektiv va subyektiv sabab va sharoitlar mavjud bo_ ladi, lekin ular turli darajada bo_ ladi. Hozirgi vaqtda sodir qilinayotgan jinoyatlarning asosida yotgan jamiyatga zid qarashlar, odatlar, niyatlar, ko_nikmalar asosan, o_tgan asrning 70-80-yillarida jamiyat ijtimoiy hayotining barcha sohalarida ommaviy ravishda keng tarqalgan salbiy hodisa, voqea va jarayonlar ta_sirida yana ham kuchaydi.

Ma'muriy nazorat ostidagi shaxslar jinoyatchiligining sabab va sharoitlarini bunday tasniflash zarur profilaktik chora-tadbirlar ishlab chiqish va ularni qayerlarda amalga oshirish kerakligini aniqlashga yordam beradi.

Ma'muriy nazoratda turuvchi shaxslarning aksariyatida ruhiy buzilishlar va anomaliyalar kuzatiladi. Ular ayrimlarining xulqi jinoyatchi shaxsga o_xshash yaqqol ko_inib turgan beboshlik, jizzakilik, beadablik, atrofdagi odamlarga nisbatan dushmanlik bilan ajralib turadi.

Profilaktika (katta) inspektori ma'muriy nazoratda turuvchi shaxslar huquqbuzarliklarining profilaktikasini amalga oshirishdan oldin yuqorida keltirilgan barcha toifadagi shaxslarning psixologik jihatlarini chuqur o_rganishi maqsadga muvofiqdir. Ma'muriy nazoratda turuvchi shaxsning psixologik jihatlarini o_rganish asosan shaxsdagi jinoiy xulqni keltirib chiqaradigan xususiyat va sifatlarni aniqlash, ularni baholash va shunga ko_ra ushbu toifadagi shaxslar tomonidan qayta jinoyat sodir etilishining oldini olish bo_yicha profilaktik chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etishni nazarda tutadi.

Profilaktika (katta) inspektorining ma'muriy nazorat ostidagi shaxslar bilan profilaktik ishlarni amalga oshirish bo_yicha kasbiy faoliyatida quyidagi asosiy jihatlar katta a_xamиятга эга:

- a) bilish faoliyati;
- b) konstruktiv faoliyat;
- d) tashkilotchilik faoliyati;
- e) kommunikativ faoliyat.

Albatta, xodimlarning amaldagi faoliyatida ushbu tarkibiy qismlarning har biri sof holda uchramaydi, balki ularning hammasi birgalikda keladi. Endi ularga batafsilroq to_xtalamiz.

Bilish faoliyatining profilaktika (katta) inspektori faoliyati uchun ahamiyati nihoyatda katta. Bilish faoliyatini amalga oshirmay turib ma'muriy nazorat ostidagi shaxslarni axloqan tuzatish maqsadiga erishib bo_maydi. Bilishsiz faoliyatni ham, yuqorida ko_rsatilgan hech bir tarkibiy qismni ham amalga oshirib bo_maydi. Profilaktika (katta) inspektorining

bilish jarayonlari asosida boshqa harakatlarni maqsadga muvofiq tarzda amalga oshirish uchun imkoniyat paydo bo_ladi

Ma'muriy nazoratda turuvchi shaxs psixologiyasi va uning ongidagi o_zgarishlarni bilish, bunday shaxslarni tarbiyalash, ularni sog_lom hayot tarziga qaytarish va sodir etilishi mumkin bo_lgan huquqbuzarliklarning oldini olishda juda katta ahamiyat kasb etadi. Ma'muriy nazorat ostidagilarga nisbatan cheklovlarni o_matishdan maqsad ularni jazolash emas, balki tarbiyaviy-profilaktik tushuntirish ishlarini olib borish, ularga nisbatan ta'sir choralari ko_rsatis orqali ijtimoiy hayotga qaytarishdan iboratdir. Shunday ekan, har bir profilaktika (katta) inspektori ma'muriy nazorat ostidagi shaxs psixologiyasi haqida chuqurroq tushunchaga ega bo_lgan holda ular bilan munosabatga kirishishi kerak. Zero, har bir profilaktika (katta) inspektoriga ma'muriy nazoratda turgan shaxslar bilan profilaktik ishlarni olib borish vazifasi yuklatilgan.

Faoliyatning konstruktivligi deganda, ma'muriy nazorat ostidagi shaxs tomonidan jinoyat sodir etilishining oldini olishga qaratilgan tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish hamda ular tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlarni ochish borasidagi tafakkur faoliyati tushuniladi. Agar tafakkur faoliyatida, asosan, hali nima noma'lum va muayyan vazifani bajarish uchun qo_shimcha tarzda yana nimani aniqlash va topish kerak, degan savollarga javob berishga harakat qilinsa, konstruktiv faoliyatda esa bilish faoliyatining bosqichlari rejalashtiriladi, ya'ni noma'lum narsani qanday ketma-ketlikda izlash kerakligi haqidagi savolga javob beriladi. Boshqacha aytganda, profilaktika (katta) inspektorining izlanish va konstruktiv faoliyati yaxlit bir fikrlash jarayonining turli bosqichlarini ifodalovchi ikki jihatidir.

Tashkilotchilik faoliyati profilaktika (katta) inspektori kasbiy faoliyatining qolgan barcha turlarini amalga oshirish uchun maqbul sharoitlarni ta'minlashga xizmat qiladi. Uning mazmuni ma'muriy nazorat ostidagi shaxslar bilan tarbiyaviy ish olib borish bunday toifadagi shaxslarni axloqan tuzatish, ularni qonun talablariga va jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor qoidalariga rioya etishga, shuningdek bilim va madaniy saviyasini oshirishga intilish ko_nikmasini shakllantirishdan iborat.

Kommunikativ faoliyat. Yuqorida ta'kidlanganidek, profilaktika (katta) inspektorining kasbiy faoliyati keng kommunikativligi (muloqot va muomalaga boyligi) bilan ajralib turadi. Uning kommunikativ faoliyati muloqot natijasida, ya'ni ma'muriy nazorat ostidagi shaxslarni axloqan tuzatish maqsadida atrofdagilar bilan bevosita nutqiy aloqa qilish orqali tarbiyaviy ta'sir o_tkaza olishida namoyon bo_ladi Muloqot jarayonida tarbiyaviy ta'sir qilish uchun profilaktika (katta) inspektorida yetarlicha

aql, bilim, kuchli iroda, shuningdek insoniylik jozibasini belgilovchi shaxsiy xislatlar mavjud bo'lishi va ular uyg'unlashishi kerak.

2-§. Profilaktika inspektorining ma'muriy nazorat ostidagi shaxslar bilan psixologik aloqa o'rnatish bosqichlari

Aksariyat mutaxassislarining fikricha, barcha amalga oshiriladigan ishlar orasida shaxslar bilan til topishish, ularga ta'sir ko'rsatish, ular faoliyatini to'g'ri tashkil etish va boshqarish murakkab ekanligi e'tirof qilinadi. To'g'ri muloqotga kirishish – ijtimoiylashuv jarayonida barcha sifatlardan oldinroq shakllanadigan qobiliyatdir. Bu, ayniqsa, profilaktika (katta) inspektori faoliyatining ajralmas qismi sifatida tan olinadi. Zero, profilaktika (katta) inspektorining ma'muriy nazorat ostidagi shaxs bilan dastlabki munosabati muomala orqali amalga oshiriladi. Profilaktika (katta) inspektorining mazkur jarayonda ishtirok etuvchi shaxslar, jumladan ma'muriy nazorat ostidagilar bilan munosabatini o'rnatish, amaliy faoliyat ishtirokchilarining psixik holatlarini, ularning mazkur jarayondan ko'nikmalarini aniqlay olmasligi, o'z nuqtai nazariga o'zgalarni professional tarzda ko'ndira olmasligi, ma'muriy nazorat ostidagi shaxsni uning ichki kechinmalari va o'z-o'ziga bo'lgan munosabatini aniq tasavvur qila olmasligi psixologiyada kommunikativ uquvsizlik yoki diskommunikatsiya holatini keltirib chiqaradi. Bunda profilaktika (katta) inspektori va ma'muriy nazoratda turuvchi shaxs bir-birini tushuna olmasligi oqibatida huquqbuzarliklar sodir etilishining oldi olinmay qoladi va huquqbuzarliklar sodir etiladi. Shuning uchun ham zamonaviy ijtimoiy psixologiya yo'nalishida, boshqaruv psixologiyasida, huquq psixologiyasida ichki ishlar organlari xodimlarini kommunikativ bilimdonlikka o'rnatish, ularda kommunikativlik hosil qilishga alohida ahamiyat berilmoqda. Umuman, hozirgi davrda har qanday mutaxassis kommunikativ malakalarga ega bo'lmaguncha, shaxslararo munosabatga kirishib, o'z professional mahoratini namoyon eta olmaydi.

Muloqot jarayonida profilaktika (katta) inspektori bilan ma'muriy nazorat ostidagi shaxs o'rtasida psixologik aloqa o'rnatiladi.

Psixologik aloqa – muloqotdagilarning, ya'ni profilaktika (katta) inspektori va ma'muriy nazorat ostidagi shaxslarning bir-biri bilan munosabat o'rnatish, rivojlantirish va qo'llash demakdir.

Ushbu aloqa 3 bosqichda rivojlanishi mumkin:

- 1) o'zaro baholash;
- 2) o'zaro qiziqish;
- 3) «ikkilik», «uchliklar»ga bo'linish.

Profilaktika (katta) inspektori ma'muriy nazoratda turuvchi shaxslar bilan psixologik aloqa o'rnatish va rivojlantirish jarayonida psixologik to'siq (baryer)ga duch keladi. Bu psixologik to'siq befarqlik, ishonmaslik, nafrat, xarakteri bir-biriga to'g'ri kelmaslikdan kelib chiqadi. Demak, psixologik to'siqlarning bor yoki yo'qligi odamlarning shaxsiy xususiyatlariga bog'liq.

Yuridik faoliyatda muloqot jarayoni qanday mazmun-mohiyatiga ega?

O'ziga inson bilan ilk bor tanishishda qo'llaniladigan kerakli so'zlarni tanlab olish katta ahamiyatga ega. Yuridik faoliyatda shaxslarni to'g'ridan to'g'ri muloqotga chaqirish psixologik noqulaylik holatini keltirib chiqaradi va birinchi taassurot effektini susaytirishga va uning salbiy bo'lishiga olib keladi.

Demak, profilaktika (katta) inspektorining tanishish uchun ishlatiladigan birinchi so'zlari qanchalik tabiiy va tushunarli bo'lsa, muloqot shunchalik tez o'rnatiladi va oson rivojlanadi. Buning uchun profilaktika (katta) inspektori sof, betakror, sezgir bo'lishi lozim. Qiziqtirayotgan shaxs bilan psixologik aloqa o'rnatishda birinchi navbatda, profilaktika (katta) inspektori o'zida ijobiy taassurot qoldirishi lozim. Bunda:

- 1) uning tashqi qiyofasi;
- 2) ekspressiv reaksiya (mimika, harakatlar, yurish-turish va h.k.);
- 3) ovoz ohangi, nutqi yuqori darajada bo'lishi lozim.

Profilaktika (katta) inspektori ma'muriy nazorat ostidagi shaxs bilan muloqot qilish jarayonida qiziqtirayotgan shaxsning nafaqat tashqi qiyofasi, balki uning subyektiv dunyosi, rejalari, qilmishlarini tushunishga harakat qilishi lozim. Shu bois, birinchi taassurotning yuzaga kelishida uch bosqichda ish olib borish kerak bo'ladi, ya'ni:

- 1) ma'muriy nazorat ostidagi shaxsning tashqi xususiyatlari (jinsi, bo'y, mimikasi, kiyimi, yurish-turishi, ahamiyatli jihatlari va h.k.)ni aniqlash;
- 2) ma'muriy nazorat ostidagi shaxsning emotsional va xulqiy va umumiy psixik holatlarini belgilash;
- 3) maqsadga muvofiq fikr yuritish va emotsional taassurotlar ostida hamkor obrazini tuzish (ijtimoiy-rolli va individual-shaxsiy tomonlarini nazarda tutgan holda) va hokazo.

Amaliyotda insonlarning psixik faoliyatidagi qonuniyatlarga asoslangan holda ulardan kerakli bo'lgan ma'lumotlarni olish turli xil usullar orqali amalga oshiriladi (masalan, ongga ta'sir o'tkazish va ong ostidagi doiraga ta'sir o'tkazishning maxsus usullari orqali).

Profilaktika (katta) inspektori faoliyatida kerakli bo‘lgan ma‘lumotlarni o‘rganish davomida ko‘proq ong ostida namoyon bo‘luvchi psixik jihatlarga ta‘sir o‘tkaziladi.

Qiziqtirayotgan shaxsga baho berishda formal va noformal usullardan foydalanish mumkin.

Formal usullarga maqsadga yo‘naltilgan kuzatuv va suhbat, hujjatlarni tahlil qilish, tarjimai holni o‘rganish, turli anketa ma‘lumotlarini qo‘llashkabi usullar kiradi (ong darajasida)

Noformal usullarga turli intuitiv imkoniyatlar yordamida qo‘lga kiritilgan ma‘lumotlar kiradi (ong osti darajasida).

Ma‘muriy nazorat ostidagi shaxslarning shaxsiy va ijtimoiy-psixologik omillari.

Qiziqtirayotgan shaxsni o‘rganish davomida qo‘yidagi maxsus sxemadan foydalaniladi.

1. *Umumiy ma‘lumotlar:* tug‘ilgan vaqti va joyi, millati, ma‘lumoti, mutaxassisligi, ish joyi, mansabi, oilaviy sharoiti, turar joyi, siyosiy partiyalarga aloqadorligi va h.k.

2. *Tashqi belgilari:*

- yuzi (qisqacha og‘zaki portreti, yuz tuzilishi);
- bo‘yi (past, o‘rta, baland, bo‘yidagi kamchiliklar);
- og‘iligi va badanining tuzilishi (oriq, oriqroq, to‘la, o‘rta to‘la va hokazo);

- tashqi qiyofasi, kiyinishi (toza yoki toza emasligi, modaga rioya qilgan yoki qilmaganligi va h.k.);

- xatti-harakatlari (yaxshi, yomon taassurot qoldiradi);

- ovozi (yoqimli, yoqimsiz, baland, dimog‘li va h.k.).

3. *Hayotiy yo‘li:*

- ota-onasi (tug‘ilgan joyi va vaqti, millati, turar joyi va h.q.);

- yoshlik damlari (oiladagi hayoti, oiladan tashqari hayoti, nechanchi farzand ekanligi, aka-singillari, ularning munosabatlari, hayotidagi voqealarning ta‘siri va h.k.);

- maktab (maktabning yo‘nalishi, qaysi maktabni tugatgan, yaxshi ko‘rgan fanlari, tengdoshlari bilan munosabati, maktabda intizomni buzganligi yoki buzmagani, yutuqlari, o‘qish faoliyatidagi baholari va h.k.);

- o‘quv yurtlar (kirishning sababi, yutuqlari, olgan bilim, qo‘nikma, malakalari, 16-19 yoshdagi ko‘zga ko‘ringan voqealari);

- mehnat faoliyati va harbiy xizmati (mehnat va harbiy xizmat-ning xarakteri, ularga munosabati, mehnat faoliyatining shaxsga bo_{lgan} ta'siri);

- oilaviy hayoti (bolalari, kim bilan turmushda).

4. Hayotiy tarmoqlari:

- oilasi (eri, xotini, ota-ona va bolalariga munosabati);

- kasbi va mutaxassisligi;

- siyosiy va jamiyatdagi faolligi;

- bo_{sh} vaqtini o_{tkazishi};

- sog_{lig}i.

5. Xulqi:

- doimiy qayfiyati (me'yorida, ko_{tarinki}, yomon, qiyinchiliklarga munosabati, o_{zini} yo_{qotib} qo_{yishi} yoki yo_{qotib} qo_{ymasligi}, befarq bo_{lishi});

- xissiyotlaridagi o_{zgarishlari} (tez, o_{ta}, oson jahli chiqishi, arzimas narsalarga kayfiyatining buzilishi);

- irodasining ko_{inishi} (mustaqil, mustaqil emas, intizomli, qat'iy, qo_{rqmas} va h.k.);

- murakkab vaziyatlardagi xulqi (tinchlikni saqlaydi, o_{zini} yo_{qotib} qo_{yishi}, nutqi va harakatlarining mantiqiyliigi yoki bunday emasligi);

- ichib olgan holatidagi xulqi (tinch, agressiv, nazoratni yo_{qotishi}, sergap, holi qolishni istashi va hokazo);

- axloqiy xulqi (axloq normalariga rioya qilishi, ayollar bilan munosabati, rostgo_{yligi}, murakkab vaziyatlarda jasurlik ko_{rsatishi} va hokazo).

6. Temperament va xarakteri:

Temperamenti:

- muomala qila olishi (suhbatdosh, suhbatdosh emas, kamgap, uyatchan, qat'iyatli, qat'iyatsiz, sardor bo_{lishga} moyil va h.k.);

- emotsional (bosiq, qiziqqon, vazmin, xafaqon, o_{zini} tuta oladi – tuta olmaydi, tushkun ko_{tarinki}).

Xarakteri:

- xarakterining jihatlari: odamlar bilan munosabatda bo_{lgan}-da xushmuomalali, talabchan, sinchkov, vijdonli, o_{zi} va o_{zgalarga} bo_{lgan} munosabati va h.k;

-xarakteridagi kamtarlik jihatining ustunliklari (birinchi, ikkinchi, keskin ko_{inishlari});

7. Xulqining motivatsiyasi:

- ehtiyojlarining ustuvorligi (fiziologik o_zini o_zi saqlab qolish, ijtimoiy guruhda munosib bo_lishi, o_zining shaxsiga hurmatda bo_lishi va o_zini ko_rsata olishi).

Qadriyatlar:

a) shaxsiy qadriyatlar (yuksalish, o_zgalarga yordam berish, aniq faoliyat va ehtiyojlarini qondirish yo_nalishlari);

b) ijtimoiy qadriyatlar (jamiyat qabul qilgan norma, an'analarga bo_lgan yo_nalishlari, huquqiy tartibni hurmat qilishi);

d) moddiy qadriyatlar (pul, buyum, mulk kabi tushunchalarga munosabati);

e) siyosiy qadriyatlar (demokratiyaga, siyosiy partiyalar, davlat-ning siyosiy hayotiga bo_lgan munosabati, shaxsiy, ilmiy qarashlari);

f) g_oyaviy qadriyatlar (dunyoqarashi, diniy qarashlari);

qiziqishlari;

ideallari.

8. *Ijtimoiy moslashuvi:*

- ijtimoiy atrof-muhitga munosabati (tanish odamlar va do_stlari bilan munosabatlari, o_zgalardan tomonidan uning tan olinishi, qarindosh-urug_lari bilan aloqalari);

- ijtimoiy vaziyatni qabul qilishi (aniq sharoitdan kelib chiqishi, mantiqli yoki mantiqsiz harakatlari, vaziyatga tez moslashuvi);

- o_zini o_zibaholashi.

9. *Qobiliyatlari:*

- umumiy qobiliyatlari (nutq tezligi - sekinligi, tez eslab qolishi, tasavvur boyligi, xulosalarining kengligi);

- maxsus qobiliyatlar (tashkilotchilik, pedagogik qobiliyati, tanishish, yaqinlashish, odamlarga ta'sir o_tkazish qobiliyati, odamlarni tushunish qobiliyati).

Ushbu «sxema» orqali muloqot jarayonida qiziqtirayotgan shaxs to_g_risida ma'lumot yig_iladi va unga baho berish amalga oshiriladi. Muloqot jarayonida turli usullardan (masalan: tarjimai hol usuli, test sinovlari, yozuv, xatlarni tahlil qilish va h.k.) foydalanish mumkin.

Ma'muriy nazorat ostidagi shaxslarning huquqbuzarlik sabablarini o_rganishda ularning individual xususiyatlaridan kelib chiqqan xolda alohida yondashish talab etildi.

Jumladan, odam o_ldirish jinoyatini sodir etgan shaxslar psixologiyasida boshqa shaxslarga nisbatan nihoyatda tobelikni kuzatish mumkin. Ular erkin hayotga moslashishi qiyin bo_lgan shaxslar toifasiga kiradi.

Odam o_ldirish jinoyatlarining kelib chiqishidagi asosiy omillardan biri – jinoyatchini boshqa shaxslarning rad etishi natijasida uning mustaqil bo_lish

qobiliyatining cheklanishi (bloklanishi)dir¹. Odam o'ldirish jinoyatlarining aksariyati to'g'ri qasd bilan sodir etiladi, tajribaning ko'rsatishicha, ularning 1/3 qismi avvaldan rejalashtiriladi.

Odam o'ldirish uchun jazoga hukm qilingan (500 nafar) shaxslarni o'rganish quyidagilarni ko'rsatdi: Ularning taxminan yarmi spirtli ichimliklarni yoshligidan iste'mol qila boshlaganlar. Alkogol tajovuzkorlikning namoyon bo'lishini bir necha baravar kuchaytirgan va og'irlashtirgan. Tajovuzkorlik harakatlari asosan qo'rqitish, do'pposlash, haqoratlash va to'pdonlarda namoyon bo'lgan, ya'ni shaxs va jamoat tartibiga qarshi qaratilgan. Odam o'ldirish jinoyatlarini asosan erkaklar sodir etadilar².

O'ta og'ir jinoyati uchun hukm qilinganlarning butun guruhiga shafqatsizlik xos bo'lib, bunday shafqatsizlik hayvonlar, bolalar, qariyalar, ayollar bilan muomalada namoyon bo'ladi.

Tarbiyalanish sharoitini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, qotillik jinoyatlari uchun hukm qilinganlar aksariyat hollarda nosog'lom sharoitlarda tarbiyalanganlar. Bolalikda ularning 20 %ga yaqini ota-onasiz, 1/3 qismi to'liqsiz oilada, ayni vaqtda 9 % onasiz, 75 % otasiz o'sgan. Har beshinchi holatda oilaning to'liqsizligi ota-onaning sudlanganligi bilan bog'liq bo'lgan. Eng kriminogen omil – bu onaning sudlanganligidir.

Materiallarni tahlil qilish jarayonida bolalikdagi tajovuzkor xulqning o'smirlik va yigitlik davrida g'ayriqonuniy va jinoiy xulqqa o'tishi aniqlangan. Tekshirilganlarning 1/3 qismi ilk bor 16–17 yoshlarida jazoga hukm qilinganlar. Bu shaxslar ishga vijdonan munosabatda bo'lmagan, mehnat intizomini qo'pol tarzda buzgan, ichkilikbozlik qilgan, doimo janjalli vaziyatni yuzaga keltirgan.

O'ta og'ir darajadagi qotilligi uchun jazolanganlar sud-psixiatriya ekspertizasidan o'tkazilganda ularda aqli rasolikni istisno etmaydigan turli nuqsonlar – surunkali alkogolizm, psixopatiya, bosh miyaning organik kasalliklari, shizofreniya kabilar kuzatilgan.

Odam o'ldirish uchun ilgari sudlangan shaxslar bilan psixologik aloqa o'rnatishda profilaktika inspektori bir qancha psixologik to'siqlarga duch keladi. Ushbu to'siqlar faoliyat samaradorligiga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatadi.

Agar ularning xatti-harakatlarini kuzatsak, ularda odatda kuchli asabiylashish, hissiyotlarini nazorat eta olmaslik, muloqotda jargonlardan

¹ Қаранг: Самовичев Е.Г. Убийство: психологические аспекты преступления и наказания. – М., 1998.

² Қаранг: Чуфаровский Ю.В. Психология оперативно-розыскной и следственной деятельности. – М., 2004.

foydalanish, xodimga psixologik tazyiq o'tkazishga harakat qiladilar. Shu sababli, profilaktika inspektori ushbu toifadagi shaxslar bilan aloqaga kirishganda ularning xarakterologik va fiziologik holatlarini inobatga olgan holda muloqotga kirishishlari, o'rtadagi ruhiy to'siqni bartaraf etishlari tavsiya etiladi. Shu bilan birga, ehtiyotsizlik yoki kuchli ruhiy zo'riqish ta'siri ostida qotillik qilgan shaxslar odatda qo'rqoq hamda egiluvchan bo'ladilar.

Firibgarlar bilan profilaktik ishlarni olish borishda profilaktika inspektori avvalo uning o'zini tutishini kuzatishi kerak. Ular ko'proq bashang, oliftalarcha kiyinishga, nutqida baland parvoz, manmanlik, yolg'on ishlatishga moyillik kuchli bo'ladi. Ular ishonarli qilib gapirishga, turli rollarga kira olish qobiliyatiga ega. Ayollar esa muloqotning boshida asabiy, o'rtalariga kelib ancha bo'shashgan, ohirida esa yana hujumkor pozitsiyada bo'ladilar.

Profilaktika inspektori ma'muriy nazorat ostidagi bezorilik uchun jazolangan shaxslar bilan profilaktik ishlarni amalga oshirganda jiddiy, qat'iy pozitsiya hamda masofa saqlagan holda muloqotga kirishi tavsiya etiladi. Sababi, bezorilik sodir etgan shaxsning psixologiyasida tajovuzkorlik, ruhiy zo'riqish, deviant xulq-atvor motivlari ko'proq mujassamlashgan bo'ladi. Ularda spirtli ichimliklar va giyohvandlik vositalarini iste'mol etishga moyillik kuchli bo'ladi, bunday hollarda yuqori bezovtalanish, jamiyatga o'zining salbiy fikr-mulohaza hamda harakatlarini oshkora namoyish etish hissi tug'iladi.

Profilaktika inspektori ma'muriy nazorat ostida o'g'irlk uchun jazoni o'tab chiqqan shaxslar bilan profilaktik ishlarni amalga oshirganda ularni ko'ziga tik qarashi, o'zini tutishi, ta'sirlarga va berilgan savollarga qay holatda javob berayotganligini tahlil qilgan holda munosabatga kirishishi tavsiya etiladi. Sababi, ularning psixologiyasida yolg'on gapirishga, o'zini mo'min-qobil tutishga, qilgan ishlaridan afsusda ekanligi, hozir tarbiyalanish yo'liga kirganligini vaj qilib ko'rsatishga intilish kuchli bo'ladi.

Profilaktika inspektorining ma'muriy nazoratda turuvchi har bir shaxsning avvalo psixologiyasini o'rganishi, uning o'ziga xos xususiyatlari, kuchli va zaif tomonlarini aniqlashi, ana undan so'ng esa muloqotga kirishishi tavsiya etiladi.

3-§. Profilaktika (katta) inspektorining ma'muriy nazorat ostidagi shaxslar bilan profilaktik suhbat o'tkazish jarayonida psixologik bilimlarni qo'llashi

Profilaktika (katta) inspektorining ma'muriy nazorat ostidagi shaxslar bilan profilaktik suhbatlari 1992-yil 9-dekabrda O'zbekiston Respublika-

sining –Ozodlikdan mahrum qilish joylaridan bo‘shatilgan shaxslar ustidan ichki ishlar organlarining ma‘muriy nazorati to‘g‘risida”gi qonuni hamda uning asosida qabul qilingan IIVning 2002-yil 26-fevral –Jazoni ijro etish muassasalaridan bo‘shatilgan shaxslar ustidan ichki ishlar idoralarida ma‘muriy nazorat o‘rnatish va uni amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi Yo‘riqnomani tasdiqlash haqida”gi normativ-huquqiy hujjatiga asosan amalga oshiradi. Mazkur normativ-huquqiy hujjatda profilaktika inspektori ma‘muriy nazoratda turuvchi shaxsning ish va o‘qish vaqtini hisobga olgan xolda uning yashash, ish va o‘qish joyida profilaktik suhbatni o‘tkazishi nazarda tutilgan. Bundan tashqari, profilaktika (katta) inspektori profilaktik suhbatni tegishli normativ-huquqiy hujjatlarga tayangan holda amalga oshiradi.

Profilaktika (katta) inspektorining profilaktik suhbatini ma‘muriy nazorat ostidagi shaxsni jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor normalari va qoidalariga rioya etishga ishontirishdan, g‘ayriijtimoiy xulq-atvorning ijtimoiy va huquqiy oqibatlarini hamda huquqbuzarlik sodir etganlik uchun qonunda belgilangan javobgarlikni tushuntirishdan iborat faoliyatidir.

Profilaktika (katta) inspektori ma‘muriy nazorat ostida turuvchi shaxs bilan profilaktik suhbatini militsiya tayanch punktida, shuningdek ma‘muriy nazoratdagi shaxsning yashash, o‘qish, ish joyida yoxud bevosita u tomonidan sodir etilgan g‘ayriijtimoiy xulq-atvor yoki huquqbuzarlik aniqlangan joyda o‘tkazadi.

Profilaktika (katta) inspektorining ma‘muriy nazorat ostidagi shaxs bilan profilaktik suhbatini amalga oshirishda psixologik bilimlarning ahamiyati kattadir. Chunki har bir profilaktik ta‘sir chorasi shaxsning psixologiyasi, uning xulq-atvori va boshqa psixologik jihatlarini e‘tiborga olgan xolda qo‘llanilishi ma‘muriy nazorat ostidagi shaxsning xulq-atvorini ijobiy tomonga o‘zgartirishga olib keladi.

Profilaktika (katta) inspektorining ma‘muriy nazoratda turuvchi shaxslar bilan amalga oshiradigan profilaktika suhbatini quyidagi tashkiliy bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

- profilaktika suhbatini amalga oshirishga tayyorgarlik ko‘rish;
- to‘g‘ridan-to‘g‘ri profilaktik suhbatini o‘tkazish;
- o‘tkazilgan profilaktika suhbatini natijalarini tahlil qilish va baholash.

1. Profilaktika (katta) inspektori profilaktik suhbatini amalga oshirishga tayyorgarlik ko‘rish bosqichida quyidagilarga e‘tibor qaratishi lozim;

- metodik jihatdan ta‘minlanganlik;
- texnik jihatdan ta‘minlanganlik;
- psixologik tayyorgarlik;
- pedagogik tayyorgarlik;

- tadbir o'tkaziladigan joydagi sharoit;
- obyektning individual xususiyatlarini o'rganish;
- sharoit va obyektga xos xususiyatlarni e'tiborga olib profilaktik ta'sir usul va shakllarini ishlab chiqish va asosiylarini belgilab olish.

2. *Profilatika (katta) inspektori to'g'ridan-to'g'ri profilaktik suhbatni o'tkazish bosqichida quyidagilarga e'tibor qaratishi lozim;*

- yakka tartibdagi profilaktik ta'sir etishning usul va shakllari obyektga nisbatan qanday ta'sir etayotganligi bo'yicha muntazam nazorat olib borish;

- obyektni yakka tartibdagi profilaktik tadbirlar uning manfaatlari yo'lida olib borilayotganligiga ishonitirish, aks holda imkon qadar profilaktik ta'sirning usul va shakllarini o'zgartirish;

- suhbat jarayonida obyektning qiziqishlari, muammolari hamda ehtiyojlarini o'rganish;

- obyektni qiziqtirgan savollariga javob berish, shuningdek mavjud muammolarini bartaraf etish hamda ehtiyojlarini qondirish yuzasidan huquqiy maslahatlar berish.

3. *Profilaktika (katta) inspektori o'tkazgan profilaktik suhbat natijalarini tahlil qilish va baholashda quyidagilarga e'tibor qaratishi lozim.*

- o'tkazilgan profilaktik suhbat o'z maqsadiga erishdimi, agarda erishmagan bo'lsa, unda yana qanday profilaktik ta'sir chora-tadbirlarni o'tkazilishni belgilash lozim;

- profilaktik suhbatni tashkillashtirish jarayonida yo'l qo'yilgan kamchilik va xatoliklarni aniqlab, kelgusida unga yo'l qo'ymaslik bo'yicha xulosalar qilish;

- o'tkazilgan profilaktik suhbat yetarlimi, agar yetarli bo'lmasa yana qanday qo'shimcha profilaktik suhbat o'tkazish lozim.

Profilaktika (katta) inspektorining ma'muriy nazora ostidagi shaxslar bilan o'tkaziladigan profilaktik suhbatni ushbu toifa shaxslarning turmush tarzi hamda xulq-atvorini kuzatish, ular tomonidan huquqbuzarlik sodir etilishining oldini olish nisbatan kelgusida boshqa g'ayri ijtimoiy harakat yoki huquqbuzarlik sodir etishini oldini olishga qaratilgan.

Profilaktika inspektori ma'muriy nazorat ostidagi shaxs bilan profilaktik suhbatini psixologik bilimlariga tayangan xolda quyidagi bosqichlarda amalga oshiradi:

Boshlang'ich bosqich - suhbatdosh bilan emotsional aloqa va munosabat o'rnatish.

Ushbu bosqichning asosiy vazifasi – ma'muriy nazorat ostidagi shaxsning emotsional «qabul qilinganligiga», uni tushunishga tayyor ekanligiga ishonitirish. Buni nafaqat so'z bilan, balki uning emosional taranglik

darajasini kamaytirib, noverbal empatiya bilan ham ifodalash kerak. Shunda ma'muriy nazorat ostida turgan shaxs o_z vaziyati, ijtimoiy-moddiy, oilaviy ahvoli va boshqa holatlari, shuningdek boshidan o_tkaza-yotgan kechinmalarini ochiq-oydin gapirish imkoniga ega bo_ladi. Emotsional qabul qilinish, tushunishga tayyorlik, g_ayriijtimoiy xulq-atvorni, huquqbuzarlik sodir etilishini pasaytiradi.

Dastlabki bosqichda foydalanuvchi psixologik usullar aloqa va kommunikatsiyani o_rnatishga yordam beruvchi usullardir:

«Mazmunini takrorlash». Ushbu usul bilan uni diqqat bilan tinglayotganligi va tushunayotganligini xabar qiladi.

«Emotsiyalarni aks ettirish». Biror emotsional komponent, fakti ajratish va uni suhbatdosh shaxsga yetkazish. Bu usul emotsiyalarni anchagina yorqinroq, ochiqroq ifodalashni rag_batlantiradi va ma'muriy nazoratdagi shaxsni har qanday holatda ham huquqbuzarlik sodir etmaslikka tavsiya etadi.

«Vaziyatni nomlash». Ma'muriy nazorat ostidagi shaxs bildirgan o_yfikrlaridan ularning asosiy ma'nosini ajratib olishi kerak.

«Voqea-hodisalar ketma-ketligini aniqlash». Unga xabar qilingan faktlarni sabab-oqibat bog_lanishlari yoki davriy-vaqt ketma-ketligida takrorlash lozim.

«Ishlanma». Mavzuda chuqurlashish. Siz muammoni tushunib olganingizdan so_ng, suhbatni eng muhim deb hisoblangan masalani muhokama etishga yo_naltirasiz. Ishlanma juda ziyraklik bilan odob doirasida amalga oshirilishi lozim, uni tergov qilishga aylantirib yubormaslik kerak! Agar muammo haqiqatan ham ma'muriy nazorat ostidagi shaxs uchun juda muhim bo_ls, u bunga u yoki bu shaklda yana qaytadi.

«Verballashtirish». Ma'muriy nazorat ostidagi shaxs nazarda tutayotganlarni aytish. Bu usul interpretatsiyaga yaqinlashadi. Verballashtirishning mazmuni faqat xodimning o_zi nazarda tutgan holatlardagina hisoblanishi kerak.

«Emotsiyalar manbaini izlash». Ma'muriy nazorat ostidagi shaxsga o_zining emotsional holati haqida o_ylab ko_ish va uning bevosita sabablarini aniqlash taklif etiladi. Ushbu usul ma'muriy nazorat ostidagi shaxsga uning xatti-harakatlari bilan boshqa odamlar xatti-harakatlari va unda yuzaga keluvchi emotsiyalar o_rtasidagi o_zaro aloqalarni anglashga yordam beradi.

Ikkinchi bosqich – huquqbuzarlik sodir etishga olib kelgan voqea-hodisalar ketma-ketligini aniqlash; ularni bartaraf etishga ko_maklashish.

Avvalambor, ma'muriy nazorat ostidagi shaxsni va huquqbuzarlik sodir etish vaziyatga jalb etilgan boshqa shaxslarni ijtimoiy-demografik

tavsiflari, ularning mikroijtimoiy guruhda egallagan o__mi aniqlanadi. Ma'muriy nazorat ostidagi shaxsning o__zi va ma'lumoti, oilaviy maqomi haqidagi hikoyalari uning ongida ma'lum bir guruhga tegishli ekanligi borasidagi tasavvurlarini faollashtirib, buzilgan shaxsiy identifikatsiyasini yengib o__tishga yordam beradi.

Keyin esa joriy qaltis vaziyat, yuzaga kelgan voqea-hodisalar ketma-ketligi aniqlanadi. Bunda ma'muriy nazorat ostidagi shaxs hikoyasida o__ziga xos alohida e'tiborni huquqbuzarlik sodir etishning huquqiy oqibatlarini tushuntirishga qaratadi.

Ko__p hollarda ma'muriy nazorat ostidagi shaxsning huquqbuzarlik sodir etishi uning shaxsiy kamchiligi, nuqsoni va yo__l qo__ygan xato xatti-harakatlari tufayligina sodir bo__lganidek tuyuladi. Bu yerda xuddi shunday vaziyatlar boshqa odamlar hayotida ham sodir bo__lishi mumkinligini odob doirasida ziyraklik bilan ta'kidlash zarur va bunday vaziyatlardan chiqib ketish choralarini tushuntirish kerak.

Shuningdek ma'muriy nazorat ostida turuvchi shaxs oila a'zolarining unga nisbatan munosabatlarini aniqlash muhimdir.

Suhbat to__g__riolib borilganida ma'muriy nazorat ostidagi shaxs o__z hayotiy muvaffaqiyatlari va yutuqlari, yengib o__tgan qiyinchiliklari haqida eslaydi, o__zini shaxs sifatida yaxshiroq anglaydi. («muvaffaqiyat va yutuqlar terapiyasi»).

Suhbat olib boruvchi profilaktika inspektori (psixolog, rahbar) ma'muriy nazorat ostidagi shaxs boshidan kechirayotgan psixologik jarayonlarni aniq shakl-tamoyilini berishi kerak. Bu ma'muriy nazorat ostidagi shaxs muammosi qanchalik murakkab va qiyin bo__lmasin, uni tushunish haqida tasavvur hosil qiladi. Natijada g__ayriijtimoiy harakat sodir etishga bo__lgan urinish kamayadi.

Yuqorida aytilganlarga xulosa qilib, suhbatning ikkinchi bosqichi mobaynida profilaktika inspektori tomonidan aloqa va kommunikatsiyani qo__llab-quvvatlovchi va chuqurlashtiruvchi usullar qo__llanilishi lozimligini aytish mumkin. Ular:

- «vaziyatni tizimlashtirish»;
- «vaziyatning faqat ungagina xosligini yengish»;
- «muvaffaqiyatlari bilan qo__llab-quvvatlash»;
- «kontekstga kiritish»;
- «keskinlikni bartaraf etish»;
- «muvaffakiyat va yutuqlar terapiyasi» va boshqalardan iborat.

Uchinchi bosqich – huquqbuzarlik va jamiyatga zid xatti-harakatni sodir etishga olib keluvchi vaziyatni bartaraf etish borasida hamkorlikdagi faoliyat. Profilaktika inspektorlari ma'muriy nazorat ostidagi shaxs uchun

yana nima pozitiv ahamiyatli bo'lib qolayotganligini aniqlashga harakat qiladi. Ma'muriy nazorat ostidagi shaxs yana nimani qadrlaydi? Hayotdagi muammolari haqida sozborganda emotsional jonlanish belgilarini aniqlab oladi. Shunda profilaktika inspektorida shaxsga avvallari huquqbuzarlik va jamiyatga zid bo'lgan hatti-harakatni sodir etishga olib keluvchi vaziyatlarni bartaraf qilishga yordam bergan usulni topish, inobatga olish, imkoniyatlari mavjud bo'ladi. Ular foydali va hozirgi muammoning yechimi bo'lishi mumkin.

Avvalo, vaziyatni intellektual nazoratga olishga asoslangan holda, ma'muriy nazorat ostidagi shaxsni huquqbuzarlik sodir etishga undovchi sabab va sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etishning eng mos va kulay yechimini anglab yetishiga erishish zarur.

Shundan keyin muammo ancha mayda potensial yechimli vazifalarga bo'lib tashlanadi. Muammoni hal etish uchun bir nechta birlamchi yechimlar ilgari suriladi. Bunday yechimlar profilaktika inspektori tomonidan (rahbar yoki psixolog) umumiy, yakunlanmagan ko'inishda taklif etiladi. Ularning yakunlanmaganligi ma'muriy nazorat ostidagi shaxsning shaxsiy faolligini oshiradi.

Birlamchi yechimlar tahlili natijasida g'ayriijtimoiy hatti-harakat yoki huquqbuzarlikni keltirib chiqaruvchi omillarni yengib o'tishga yo'naltirilgan xulq-atvorning konstruktiv rejasi ishlab chiqiladi. Xulq-atvorning adekvat usullarini psixolog bilan hamkorlikda qo'llash ma'muriy nazorat ostidagi shaxsga o'z kuchiga ishonch, pasayib ketgan o'zo'zini baholashning tiklanishi, o'z xulq-atvori uchun mas'uliyatining oshishiga yordam beradi. Quyidagilar uchinchi bosqichning yetakchi usullari bo'lib xizmat qiladi:

«*Interpretatsiya*». Huquqbuzarlikni keltirib chiqaruvchi vaziyatning ma'muriy nazorat ostidagi shaxs tomonidan inobatga olinmagan ma'lum bir tomoni mavjudligi va xuddi shunday vaziyatni yechish mumkin bo'lgan usullarni ko'rsatuvchi farazni ilgari surish.

«*Rejalashtirish*». Bo'lajak faoliyat rejalarini sozda ifodalashga undash. U asosan, ma'muriy nazorat ostidagi shaxsga uning uchun noxush vaziyatlardan qutulishda nima qilish mumkinligini o'ylab ko'rish taklifi ko'inishida ifodalanishi mumkin. Rejalashtirish nafaqat yechilishi talab etiluvchi muammolarni balki ma'muriy nazorat ostidagi shaxsning shaxsiy xulq-atvorlari elementlarini ham o'z ichiga oladi. Agar rejalashtirish ma'muriy nazorat ostidagi shaxs tomonidan amalga oshirilsa, bunda asosiy rol psixologda bo'lgan holatlardan farq ravishda, rejalashtirilayotgan sa'y-harakatlar amalga oshishining ehtimolligi yuqori bo'ladi.

«*Pauzani ushlab turish*». Mutaxassisning maqsadga yo_natirilgan holda sukut saqlashi bo_lib, u ma'muriy nazorat ostidagi shaxsga ishlab chiqilayotgan rejani gapirib berish imkoniyatini berish maqsadini ko_zda tutadi. Sukut saqlash xodimga psixolog uning so_zlarini kutayotganligini anglatishi kerak.

Yakunlovchi bosqich - Sa'y-harakatlar rejasi iloji boricha aniq, ravshan, ketma-ket, qisqa va lo_nda bo_lishi lozim. Bu bosqichda ma'muriy nazorat ostidagi shaxsga bir necha marotaba gapirish, o_z kuchi va imkoniyatlariga ishonishni singdirish, avvallari ham huquqbuzarligi uchun javobgarlikka tortilganligi oqibatlarini eslatib, xuddi shunday vaziyatga tushib qolishini oldini olishning yechimini topish uchun ma'muriy nazorat ostidagi shaxsni yuqori darajada irodali va maqsadga intiluvchan bo_lishga chaqirish.

Ushbu bosqichning yetakchi usullari:

- mantiqiy argumentlash;
- ishontirish;
- ogohlantirish;
- ishonchni ratsional singdirish hisoblanadi.

Suhbat yakunida sa'y-harakat rejasi yana bir bor takrorlanadi va takroriy uchrashuv taklif etiladi (aniq sanasi ko_rsatiladi).

Suhbat jarayonida sekin-astalik bilan empatik tinglash pozitsiyasidan vaziyatni bilishni o_zlashtirish, egallash va amaliy yechishda ishtirokchi pozitsiyasiga o_tiladi. Bu uning verbal faolligining o_zgarishida ifodalana-di. *Birinchi bosqichda* psixolog yoki rahbarning (suhbat o_tkazuvchining) verbal faolligi ma'muriy nazorat ostidagi shaxs holatiga bog_liq bo_ladi. *Ikkinchi bosqichda* faollik minimal darajada ortib boradi. *So_ngi bosqichda* suhbat olib boruvchining faolligi maksimal darajaga yetadi.

Tajribalarning ko_rsatishicha, profilaktik suhbat davomiyligi 1,5 soatdan 2 soatgacha bo_ladi

Ikkinchi suhbat odatda 2-3 kundan so_ng boshlanib, uning maqsadi vaziyatni aqlan idrok etish, anglashdan iborat bo_ladi

Ma'muriy nazorat ostidagi shaxslar bilan profilaktik ishlarni olib borishda quyidagi omillarni hisobga olish kerak:

- ilgari sudlanganlar shaxsini har tomonlama va sinchiklab o_rganish (shaxsning ijobiy sifatlarini aniqlash maqsadida);
- ilgari sudlangan shaxslar o_zini yaxshi tutishi uchun maxsus va pedagogik vaziyatlarni tashkil etgan holda ta'sir etishni amalga oshirish;
- ma'naviy-moddiy rag_batlantirish usulidan mehnat tarbiyasida foydalanish;

- ilgari sudlanganlarni to'g'riyo'lga solish usullarini tanlash;
- ilgari sudlangan shaxslarni mehnat faoliyatiga jalb etish orqali to'g'rihayotga yo'naltirish.

Profilaktika inspektorlari jazoni ijro etish muassasalaridan bo'shatilgan shaxslarning xulq-atvorini, yashash va ish joylarini muntazam nazorat qilib boradilar hamda ular tomonidan huquqbuzarliklar sodir etilsa, bu haqida o'z vaqtida tegishli chora ko'radilar. Ular to'g'risida ma'lumotga ega bo'lish uchun boshqa xizmat xodimlari va jamoatchilik vakillari bilan uzviy hamkorlik qilish talab etiladi. Bundan tashqari, profilaktika inspektorlari kundalik ish jarayonida sudlanganligiga ko'ra ma'muriy nazoratga olish kerak bo'lgan shaxslarni aniqlash choralarini ko'radilar, ular haqida tegishli ma'lumotlar to'plab, hujjatlar rasmiylashtiradilar. Jinoyat sodir etishga moyil bo'lgan xavfli shaxslarning o'z vaqtida nazoratga olinishi va tegishli profilaktik choralar ko'rilishi muhim ahamiyatga ega. O'z navbatida, profilaktika inspektori ma'muriy nazorat ostidagi shaxslarni ijtimoiy hayotga moslashishlarini ta'minlash maqsadida ijtimoiy ko'nikma markazlari bilan o'zaro hamkorlikni kuchaytirishi maqsadga muvofiqdir.

Savol va topshiriqlar

1. Ichki ishlar organlarning ma'muriy nazorat ostidagi shaxslarga psixologik tavsif bering.
2. Ma'muriy nazorat ostidagi shaxsning individual-tipologik tomonlari nimada namoyon bo'ladi?
3. Ma'muriy nazorat ostidagi shaxslar tomonidan huquqbuzarliklarning sodir etilishining psixologik jihatdan qanday sabab va shart-sharoitlari mavjud?
4. Profilaktika inspektorlarining ma'muriy nazorat ostidagi shaxslar bilan psixologik aloqa o'rnatish tartibi va bosqichlari haqida gapirib bering.
5. Profilaktika inspektori ma'muriy nazorat ostidagi shaxslar bilan profilaktika suhbatni o'tkazishda qanday psixologik omillarni inobatga olishi lozim?
6. Odam o'ldirish jinoyatini sodir etgan shaxslar bilan profilaktik ishlarni tashkil etishda qanday psixologik omillar hisobga olinadi?

XII bob. HUQUQBUZARLIKLARNING VIKTIMOLOGIK PROFILAKTASIGA PSIXOLOGIK TAVSIF

1-§. Huquqbuzarlikning viktimologik profilaktikasini amalga oshirishda psixologik bilimlarning ahamiyati

Jamiyatda inson huquqlarini himoya qilish, uning huquq va erkinligini turli ko__inishdagi xurujlardan himoya qilish hamda shaxslar o__itasidagi o__zaro munosabatlarni tartibga soluvchi hulq-atvor qoidalari mavjud. Bu qoidalarga amal qilish - ijtimoiy barqarorlik va huquqiy tartibot kafolatidir.

Davlat siyosatining yo__nalishlaridan biri bu xalqning farovon turmushini ta__minlash, fuqarolarning oliy qadriyat bo__lgan huquq va erkinliklarini himoya qilishdan iboratdir. Shu boisdan ham huquqni muhofaza qilish organlari sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar va qabul qilinayotgan me__yoriy-huquqiy hujjatlar huquqbuzarliklar profilaktikasini samarali tashkil etish, sodir etilishi mumkin bo__lgan huquqbuzarliklar va jinoyatlarning o__zvaqtida oldini olishga qaratilgandir.

Ichki ishlar organlari tomonidan fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta__minlash, ularni huquqbuzarlik yoki turli xil jinoyatlardan jabrlanishining oldini olish maqsadida maxsus profilaktik chora-tadbirlar olib boriladi.

Ko__pgina faylasuf olimlar «jinoyatchilikka qarshi kurashdan ko__ra uning oldini olish afzalroq» ekanligini e__tirof etishgan.

Hozirgi davrda ilm-fan taraqqiyoti tez sur__atlarda rivojlanib, jadalashib bormoqda. Bu esa, jamiyat hayotida yangi xilma-xil jinoyatlarning sodir etilishiga olib kelmoqda

Odamlarning jinoyatlar qurboni bo__lishining oldini olish maqsadida kriminologiya fanida viktimologiya, ya__ni shaxslarning jinoyat qurboni bo__lishining oldini olish yo__nalishi mavjud bo__lib, mazkur yo__nalishda ichki ishlar organlari tomonidan kompleks maxsus profilaktik chora-tadbirlar olib boriladi.

Ta__kidlash lozimki, jamiyat hayotida sodir etilishi mumkin bo__lgan huquqbuzarlik va jinoyatlarning qachon va qayerda bo__lishini oldindan bashorat qilish mumkin bo__lganida shaxslarning jinoyatlar qurboni bo__lishining o__z vaqtida oldini olishga erishgan bo__lardik.

Har bir profilaktika inspektori o__ziga biriktirilgan ma__muriy hududda fuqarolarning dardini eshitishi, tushunishi har jabhada ularga psixologik yordam berish bilan bir qatorda ularning huquq va erkinliklarini himoya qilishga mas__uldir. Shunday ekan, profilaktika inspektori doimiy ravishda huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasini amalga oshirishda psixologik bilimlarni amalga oshirishi, fuqarolar o__itasida turli mavzularda

targ'ibot-tashviqot, tushuntirish ishlarini olib borishi, sodir etilishi mumkin bo'lgan har qanday huquqbuzarlik yoki jinoyatlarning oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, ijtimoiy mavqei, fiziologik psixologik holati, xulq-atvori, hayot tarzi bilan bog'liq holda huquqbuzarlikdan jabrlanuvchiga aylanishi xavfi mavjud bo'lgan shaxslarni aniqlash va ularga nisbatan viktimologik profilaktika chora-tadbirlarini qo'llash lozim.

Profilaktika (katta) inspektorining viktimolik profilaktik faoliyatini samarali tashkil etishning huquqiy asosi yaratilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 14-maydagi «Huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida»¹gi qonunining 3-moddasiga asosan g'ayriijtimoiy xulq-atvorli, huquqbuzarlikdan jabrlanuvchi, huquqbuzarlik sodir etishga moyil bo'lgan shaxslar shuningdek, 6-43-moddasida huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasi tushunchasi, 44-moddasida esa huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasi chora-tadbirlari belgilab berildi hamda 45-moddasida huquqbuzarlikdan jabrlanganlarga yordam ko'rsatuvchi markazlar qonuniy asosga ega bo'ldi.

Kriminologiya fanida jinoyatdan jabrlanganlar, ya'ni jinoyat qurbonlari to'g'risidagi ta'limot «viktimologiya» (lotin tilida «victima» – jabrlangan, qurbon; «logos» – ta'limot) deb e'tirof etilgan.

«Viktimologiya» tushunchasi o'z ichiga jabrlanuvchilar haqidagi umumiy ta'limotni, ya'ni nafaqat jinoyatlardan jabrlanganlar haqidagi, balki har xil salbiy holatlar, baxtsiz hodisalar, tabiiy ofatlar, urushlar va hokazolardan jabrlanganlar haqidagi ta'limotni qamrab oladi.

Kriminal viktimologiya jinoyat qurbonlari to'g'risidagi ta'limotdir.

Jabrlanuvchisiz jinoyat bo'lishi mumkin emas. Hech shubha yo'qki, har qanday jinoyat jabrlanuvchiga moddiy, jismoniy yoki ma'naviy zarar yetkazadi. Muayyan shaxs, kishilar jamoasi, jamiyat, davlat va hatto xalqaro huquq-tartibot organlari ham jinoyat qurboni bo'lishi mumkin.

Jinoyat qurbonlarining jinoyat sodir etilishiga aloqadorligi xususidagi fikrlar hozirgi kunda yangilik emas. Ushbu g'oya ko'p sonli adabiy manbalarda va huquq ijodkorligi yodgorliklarida o'z aksini topgan.

Insonparvarlik, kechirimlilik, bag'rikenglik xalqimizga xos bo'lgan azaliy qadriyatlardandir. Shu bois jinoyat sodir etgan shaxs bilan jabrlanuvchining o'zaro kelishuvi davlatchiligimiz tarixida ham keng qo'llanilgan. Bunda jinoyat sodir etgan shaxs jabrdiydaga tovon to'lagani uchun jabr ko'rgan taraf uni kechirib, qozi (sud)dan aybdorni jazodan ozod

¹ Qarang: Ўзбекистон Республикасининг «Хуқуқбузурликлар тўғрисида»ги 2014 йил 14 май қонуни.– Т., 2014.

qilishni talab etishga haqli bo'lgan. Jumladan, Burhoniddin Marg'ibiyning «Hidoya» asarida tovon haqi jazo sifatida qo'llanilgandan so'ng uni aybdor uch yil mobaynida to'lashi lozim, deb ko'rsatilgan.

Jumladan, ingliz huquqshunosi Iyeremiya Bentam (1748–1832) jinoyat qonunchiligiga jabrlanuvchilarga yetkazilgan zararni qoplashni nazarda tutuvchi normalarni kiritish jinoyatchini jazolab, yanada og'irroq qo'rqitishi (muayyan jinoiy maqsadlarini amalga oshirishidan tiyish) imkonini beradi, deb hisoblagan.

Italiyalik kriminolog Raffael Garofalo (1852–1934) ham jabrlanuvchilarga yetkazilgan zararni qoplashga aholini jinoyatchilardan himoya qilishni yanada kuchaytirish vositasi sifatida qaragan.

Kriminologiya fanida huquqbuzarlikdan jabrlanuvchilarga nisbatan ularning jinoiy qilmish sodir etilishiga aloqadorligi haqidagi ilk fikrlar XVIII asrda vujudga kelganligi qayd etilgan.

Nemis kriminolog olimi Sara Morjori Freyning (1894–1958) huquqbuzar, jinoyatchi va jabrlanuvchilarni yarashtirish muammolari bilan shug'ullanganligi ham tarixdan yaxshi ma'lum. Huquqbuzarliklarning sodir etilishida ularning jabrlanuvchilariga aylangan shaxslar xatti-harakatining aloqadorligini alohida omil sifatida o'rganish XX asrning birinchi yarmida yanada rivojlandi. Nemis kriminologi Gans fon Genting (1888–1974)ning 1948 yilda nashr etilgan «Jinoyatchi va uning qurboni» asari bu borada e'tiborga sazovor. U o'z tadqiqotida jabrlanuvchiga jinoyat yuzaga kelishining omili sifatida qaragan. Shuningdek, u jinoyatchilikning jinoyatchi va uning qurboni o'rtasidagi o'ziga xos munosabat ekanligini ta'kidlagan. Gans fon Genting jabrlanuvchilar to'g'risida to'plagan ma'lumotlari asosida jinoyatchi va jabrlanuvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tiplarga ajratishni va bu holat jinoyatlar bilan uzviy bog'liqligini alohida ta'kidlagan. Shunga ko'ra, u nafaqat jinoyatning sodir etilishini tahlil qilishni, balki kelgusida qurbonlar kimlar bo'lishi mumkinligi va hatto latent jinoyatlar holatini ham bashorat qilish mumkinligini hisobga oladi.

Ta'kidlash joizki, jinoyatchilikning sabablarini o'rganishda jabrlanuvchi haqidagi ta'limot muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, jinoyatning sodir etilishida jabrlanuvchining tutgan o'rnini ilmiy jihatdan bilish jinoyatchilik profilaktikasining chora-tadbirlarini ishlab chiqishda katta ahamiyatga ega ekanligini aslo unutmaslik zarur.

O'zo'zidan ravshanki, kriminal viktimologiyani o'rganishdan ko'zlangan asosiy maqsad – jinoyat qurbonining ayrim jinoyatlarning yuzaga kelishida tutgan o'mi (roli) va ahamiyatini, jinoiy vaziyatning yuzaga kelishi va rivojlanishiga qo'shgan «hissasi»ni aniqlash va tadqiq etishdir.

Buning uchun jabrlanuvchining shaxsi, uning jinoyat sodir etilishidan oldingi xulq-atvori to'g'risida tegishli umumiy axborot olish zarur.

Shuning uchun birinchi navbatda jabrlanuvchining shaxsi to'g'risidagi zarur ma'lumotlar, ayniqsa jinoyatning yuzaga kelishiga sabab bo'luvchi xulq-atvori atroflicha o'rganilishi lozim.

Viktimologiya – jismoniy va yuridik shaxslarni jinoiy tajovuz obyektiga aylantiruvchi, jinoiy aloqadorlik tavsifi va darajasini belgilovchi ularga xos tipik xususiyatlar, shuningdek jinoyat qurbonlarining mustaqil o'z manfaatlarini jinoiy tajovuzlardan himoya qilish va bu qobiliyatini kuchaytirish vositalari haqidagi kriminologik ta'limotdir.

Jinoyat qurboni – bu jinoiy tajovuz qilingan jismoniy yoki yuridik shaxs. Ushbu kriminologik tushuncha, shuningdek jinoyat qurboni bo'lish ehtimoli yuqori bo'lganlarni ham o'z ichiga oladi. Jinoyat qurboni bo'lish ehtimoli yuqori bo'lganlar – bu o'zi bilan bir xil boshqa ijtimoiy subyektlarga qaraganda unga nisbatan jinoiy tajovuz ehtimoli yuqori bo'lishini kuchaytiruvchi xususiyatlarga ega bo'lgan shaxs.

Jinoiy tajovuz obyektining jinoiy aloqadorligini kuchaytiruvchi individual xususiyatlari *viktimlik*, bunday aloqadorlikni kamaytiruvchi qobiliyatni esa *viktimlikka qarshi* deb e'tirof etiladi.

Jinoyat qurboni har tomonlama jabrlanuvchi degan huquqiy tushunchadan keng. Kriminologiyada dastlab jinoyat qurbonini o'rganishda asosiy e'tibor jinoyat sodir etishga sharoit yaratib bergan yoki sodir etilishini ig'vo qiluvchi xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan. Viktimlik deganda, shaxsga nisbatan jinoiy qilmish sodir etilishini ig'vo qiluvchi yoki osonlashtiruvchi undagi o'ziga xos xususiyatlar tushuniladi. Bunda viktimlik shaxsning tavakkalchilik, o'ylamasdan, yengiltaklik bilan yo'l qo'ygan, shuningdek ig'vo qiluvchi, xavfli qilmishidir.

Keyinchalik viktimlik sifatida shaxsning nafaqat ma'naviy-ruhiy, psixologik holati, balki jamiyatda uning turli sohalaridagi ijtimoiy mavqei bilan bog'liq xususiyatlari ham o'rganila boshlandi. Shaxsning jamiyatdagi mavqei uning o'ziga xos xususiyatlarni hisobga olmagan holda ham unga nisbatan u yoki bu turdagi jinoiy qilmishlar sodir etilishini taqozo etishi aniqlandi (masalan, ichki ishlar organi xodimi, g'aznachi, qorovul va h.k.).

Shu bilan birga qatorda, jabrlanuvchining shaxsi va xatti-harakatlari jinoyatchilarning jinoiy qilmishni amalga oshirishga tayyorlanishdan oldin, jinoyatni amalga oshirish vaqtida va qayta jinoyat sodir etishlarida ham alohida o'rin tutadi.

Bundan tashqari, jinoyat qurbonlarini o'rganish ularga nisbatan sodir etilgan jinoyatlarning latent bo'lib qolishining sabablarini aniqlashga ham yordam beradi.

Bayon etilganlarga ko_r, kriminologiyada jinoyat qurbonlarining shaxsi va xulq-atvoriga doir quyidagi masalalar o_rganiladi:

a) jinoyat qurboni va jinoyatchi o_rtasidagi munosabat hamda ularning o_zaro aloqasi;

b) jabrlanuvchi shaxsi va xulq-atvorining jinoyatning sabab va shart-sharoitlari bilan bog_liqligi;

d) muayyan hayotiy vaziyatlarda jabrlanuvchining xulq-atvori oqibatida jinoyatning yuzaga kelishi;

e) jinoyat sodir etilganidan keyin jabrlanuvchining shaxsi va xulq-atvori (ayniqsa, retsdiv jinoyatchilikni o_rganishda);

f) jabrlanuvchi shaxsi va xulq-atvorining latent jinoyatchilik bilan o_zaro aloqasi.

Sanab o_tilganlarning e'tiborga olinishi kriminal viktimologiya muammolarini o_rganishga keng imkoniyat yaratadi.

Muxtasar aytganda, jinoyatlar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi subyektning muayyan shaxsning jinoyatlarning jabrlanuvchisiga aylanishi xavfini kamaytirishga qaratilgan profilaktika chora-tadbirlarini qo_llashga doir faoliyati jinoyatlarning viktimologik profilaktikasini tashkil etadi.

Jinoyatlarning viktimologik profilaktikasi chora-tadbirlari quyidagilardan iborat:

1) jinoyatlardan jabrlangan shaxslarga nisbatan ularning individual va ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda profilaktika tadbirlarini o_tkazish;

2) aholiga, shu jumladan jinoyatlardan jabrlanganlarga shaxslararo nizolarni hal etish usullarini o_rnatish;

3) jinoyatlardan jabrlangan shaxslarni aniqlash va himoya qilish bo_yicha chora-tadbirlar ko_rish;

4) jinoyatlardan jabrlangan shaxslarga yordam ko_rsatuvchi ixtisoslashtirilgan muassasalarni tashkil etish;

5) jinoyatdan jabrlangan shaxsning jismoniy va psixologik xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan maxsus kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish, uni qonunda nazarda tutilgan o_zini o_zi mudofaa qilish usullari va vositalari to_g_risida xabardor qilish;

6) jinoyat sodir etishga moyil shaxslar xulq-atvori nisbatan tez-tez kuzatiladigan yoki jinoyatlar tez-tez sodir bo_lib turadigan joylar (hududlar)ni muntazam ravishda nazorat qilish;

7) hujum qilingan taqdirda zaruriy mudofaa va oxirgi zarurat haqidagi ma'lumotlarni keng tarqatish yo_li bilan aholiga huquqiy ta'lim va tarbiya berish;

8) jinoyat sodir etishga moyil shaxslar xulq-atvori kuzatilayotgan yoki tayyorgarlik ko'rayotgan, jinoyatchi, u sodir etayotgan yoki sodir etilgan yoxud uning latent (yashirin)ligi to'g'risida axborot olish maqsadida, jinoyatlar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi subyekt huzurida ishonch va tezkor aloqa telefonlarini, qutqaruv xizmatlarini tashkil etish;

9) profilaktika dasturlari va tadbirlari loyihalarining ommaviy muhokamasini tashkil etish, ularni amalga oshirish jarayonida muammo va kamchiliklarni aniqlash hamda bartaraf etish maqsadida Internet jahon axborot tarmog'ida veb-saytlar, bloglar, chatlar tashkil qilish;

10) jinoyatlar profilaktikasining zamonaviy usullari to'g'risida bosma yoki elektron (publitsistik, yuridik, ilmiy-ommabop tusdagi) adabiyotlarni tarqatish.

Hozirgi kunga kelib viktimologiya nafaqat kriminologiyaning alohida yo'nalishi, balki undan alohida fan sifatida ajralib chiqish imkoniyatiga ega ta'limotga aylanmoqda. O'zbekistonda huquqbuzarlik va jinoyatlarning oldini olishda viktimologik profilaktikani amalga oshirishda psixologik bilimlarning o'rniga o'z o'rnini muhim bo'lib, uni o'rganishga alohida e'tibor berilmoqda.

Inson huquq va erkinliklarini himoya qilish bilan shug'ullanuvchi xalqaro tashkilotlar o'zlarining shartnoma, bitim va boshqa huquqiy hujjatlari-da ayollar, bolalar, nogironlar, qariyalarni yuqori viktimlikka ega bo'lganligi uchun oila-turmush sohasida sodir etiladigan jinoyatlardan himoya qilish maqsadida ularning ijtimoiy maqomini alohida ajratib ko'rsatishgan.

Kriminologiyada yollanma mehnat, maishiy dam olish, hordiq chiqarish kabi hayot sohalarida faoliyat yuritayotgan shaxslarning viktimligi ham alohida ajratib ko'rsatiladi.

Huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish maqsadida amalga oshiriladigan profilaktik faoliyat kimga qaratilganligiga ko'ra uni ikkiga, ya'ni *kriminologik va viktimologik profilaktikaga* ajratish mumkin.

Kriminologik profilaktika – bu jinoyat sabablarini aniqlash, bartaraf etish yoki uning kriminal xususiyatga ega bo'lgan ta'sirini yo'qtirish, kuchsizlantirish, shu jumladan jinoiy taqiqlarni buzgan yoxud shunday xatti-harakatni sodir qilishga moyil bo'lgan shaxslarga tarbiyaviy-ogohlantirish ta'sirin ko'rsatishdan iborat faoliyat.

Hozirgi vaqtda amalga oshirilayotgan profilaktik tadbirlar asosan jinoyat sodir etishga moyil g'ayriijtimoiy xulqli shaxslarga qaratilgan. Chunki jinoiy qilmish motivi, maqsadining paydo bo'lishi, rivojlanishi va uning amalga oshishida uni sodir etgan shaxs hal qiluvchi o'rnini egallaydi.

Ta'kidlash joizki, bugun hollarda ayrim turdagi jinoyatlarning sodir etilishidan, kriminogen omil sifatida ijtimoiy maqomi bo'yicha aholining ayrim toifasiga mansub bo'lgan shaxslar, shuningdek ayrim kasb egalari yoxud ayrim turdagi mehnat faoliyati bilan shugullanuvchilar jinoiy faoliyat qurboniga aylanmoqda. Shu bois endilikda o'zining salbiyligi oqibatida, balki xulq-atvori, turmush tarzi va yurish-turishi bilan birga ijtimoiy mavqei, jismoniy ahvoli, bajarayotgan mehnat faoliyati bilan bogliq holda jinoyat qurboniga aylanishi mumkin bo'lgan shaxslarga nisbatan amalga oshiriladigan profilaktik xususiyatga ega tadbirlar dolzarb ahamiyatga ega bo'lib bormoqda.

Huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasi chora-tadbirlarini ishlab chiqish maqsadida huquqbuzarliklardan jabrlaganlarni tadqiq etish ularning shaxsini, ularga xos xususiyatlarni aniqlashni hamda ushbu ma'lumotlarni atroflicha o'rganishni taqozo etadi.

Huquqbuzarliklardan jabrlanish xavfi aholi orasida teng taqsimlanmagan. Bu *birinchidan*, odamlarning axloqi, hayot tarzi, jismoniy qobiliyati; kasbiy faoliyati bilan bogliqdir.

Ayrim toifadagi shaxslar boshqalarga nisbatan ko'proq o'g'rilik talonchilik, firibgarlik, zo'ravonlik kabi huquqbuzarliklarning jabrlanuvchisiga aylanadilar. Kriminologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, hayotda bolalar, ayollar, qariyalar, jismoniy jihatdan zaif shaxslar, shuningdek, salbiy xulq-atvoriga ega bo'lgan, janjalkash kishilar ko'proq zo'ravonlik huquqbuzarliklarining jabrlanuvchisi bo'ladilar.

Bugungi kunda jamiyatdagi ijtimoiy-salbiy muammolardan biri bo'lgan firibgarlikdan odatda ochko'z, ishonuvchan yoki laqma kishilar ko'proq jabrlanadilar. Zo'ravonlikka asoslangan bosqinchilik, o'g'rilik, talon-torojlik kabi huquqbuzarliklar ko'pincha spirtli ichimlik iste'mol qilish natijasida mast bo'lgan shaxslarga, shuningdek turli qimmatbaho boyliklar egalariga yoki o'z kasbi bo'yicha bunday boyliklarni qo'niqlash vazifasi yuklatilgan shaxslarga nisbatan sodir etiladi.

Jamiyatda jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklarning oldini olish, aniqlash, shuningdek ularni sodir etgan shaxslarni javobgarlikka tortish vazifalari yuklatilgan kasb egalarida ham o'z xizmat vazifalarini bajarish jarayonida zo'ravonlik jinoyatlarining qurboniga aylanish ehtimoli yuqori bo'ladi.

Kriminologik adabiyotlarda viktimlikni *aybli* va *aybsiz* turlarga ajratishadi.

Aybli viktimlik huquqbuzarlik jabrlanuvchisini salbiy xulq-atvori, jamiyatga zid turmush tarzi, boshqalarning huquq va erkinliklarini buzishga qaratilgan qilmish, shuningdek ehtiyotsizlik, yengiltaklikdan iborat

bo_ lib u huquqbuzarlik sodir etilishini ig_ vo qiluvchi omildir. Bunda ta_kidlash kerakki, aybli viktimlikka nafaqat fuqaro xulqining g_ ayriqonuniyligi yoki axloqqa zidligi, balki uning turmushdagi oddiy ehtiyotsizlik, e_tiborsizligi, mulohazasizligi, yengiltaklik ham kiradi. Masalan, aybli viktimlik yo_ ltransport hodisalaridan jabrlanganlarning kattagina qismiga ham хосдир.

Aybsiz viktimlik ijtimoiy ma'qul axloqqa ega bo_ lgan, hayotda sog_ lom turmush tarzi yuritib kelayotgan, lekin o_ zining psixologik, fiziologik jihatlari (masalan: bola, qariya, ayol, nogiron va h.k.) yoki kasbiy va mehnat faoliyatining xususiyati bilan bog_ liq (masalan: ichki ishlar organi xodimi, inkassator, taksi haydovchisi, mahalla posboni) bo_ lgan holda shaxslarning u yoki bu turdagi jinoyatlar qurboniga aylanishini taqozo etuvchi omildir.

Ta_kidlaganimizdek, nazariy jihatdan har qanday fuqaro ham u yoki bu turdagi huquqbuzarliklarning jabrlanuvchisi bo_ lish ehtimoliga ega. Bugungi kunda tinch aholi, uning barcha toifalariga mansub a_zolari insoniyat uchun eng xavfli bo_ lganterrorizmning qurboniga aylanayotganligi hech kimga sir emas. Shu bois hozirgi kunda aholini turli jinoiy tajovuzlardan himoya qilish bilan bir qatorda ularning o_ z imkoniyatlaridan foydalangan holda jinoyatlar qurboni bo_ lish xavfini kamaytirish choralarini ko_rish va amalga oshirish lozim.

Viktimligi, ayniqsa, aybli viktimlik darajasi yuqori bo_ lgan shaxslar toifalari bilan olib boriladigan ishlarni yangi bir pog_ onaga ko_ taish, ularni nafaqat turli jinoiy tajovuzlardan himoya qilish, shu bilan birga, salbiy, hatto jinoiy yo_ lga kirib ketishdan ham saqlab qolishni ta_minlashga xizmat qiladi.

Huquqbuzarlik sodir etganlar va ular jabrlanuvchilarning xulqi, odobi, axloqi, ma'lumoti, ma'naviyati, ijtimoiy-ruhiy holati kabi shaxsini belgilovchi «ko_ rsatkichlari» ko_ pincha bir-biriga yaqin bo_ ladi. Salbiy xulq-atvorli, ma'lumoti past, ma'naviyatsiz, ijtimoiy-ruhiy buzilgan odamlar o_ z ehtiyojlarini qondirish yo_ lida jinoyat qurboni bo_ lish xavfi mavjud bo_ lgan holda ham o_ z qilmishlarini davom ettiraveradilar.

Tabiiyki, bunday kishilar turli xil huquqbuzarliklar, shu jumladan jinoyatlarni sodir etish bilan birga, aksariyat hollarda jinoiy qilmishning qurboni ham bo_ lib qoladilar. Qasddan odam o_ ldirish jinoyatlari qurbonlarining 48,9 foizi, qasddan badanga shikast yetkazilgan shaxslarning 50 foizidan ortig_ i va zo_ rlik ishlatib nomusiga tajovuz qilingan ayollarning 49 foizi o_ zlaining salbiy xulqlari (haqoratlash, tuhmat qilish, yengiltaklik, ichkilikbozlik va h.k.) bilan o_ zlariga nisbatan jinoiy tajovuzlar sodir

etilishiga sabab bo'lganlar yoki bunday qilmishning sodir etilishi uchun qulay sharoit yaratib berganlar.

Huquqbuzarliklardan jabrlanuvchi bo'lishga moyillikni taqozo etuvchi shaxsning xislatlari va xulqi bilan ijtimoiy qilmish natijasi o'rtasidagi sababiy aloqadorlik ehtimolli xususiyatga ega. Tamagirlik, laqmalik xislatlariga ega bo'lgan inson har doim ham firibgarlar bilan aloqaga kirishmaydi. Huquqbuzarliklardan jabrlanuvchi bo'lishga moyil shaxs xulqining salbiy yo'nalganligi uning ijtimoiy-ruhiy, psixofiziologik xislatlari (mayli, qiziqishi, temperamenti va boshq.) muayyan hayotiy vaziyat bilan aloqada bo'lgandagina vujudga keladi. Shuning uchun viktimologiya nafaqat shaxslarning viktimlik darajasini, balki viktimogen xususiyatga ega vaziyatni ham o'rganadi. *Viktimogen vaziyat* – huquqbuzarlikdan jabrlanuvchi bo'lishga moyil shaxsga xos muayyan xislatlar va xulq bilan bog'liq ravishda yuzaga keladigan aniq hayotiy vaziyat bo'lib, unda jabrlanuvchiga huquqbuzarlik yoki jinoiy yo'l bilan jismoniy, mulkiy yoki ma'naviy zarar yetkazilishi uchun imkoniyat paydo bo'ladi.

Huquqbuzarlik yoki jinoyat sodir qilish niyati paydo bo'lishi va amalga oshishiga jabrlanuvchilarning shaxsiy, psixik xislatlari, ularning xulqiga va huquqbuzarlar bilan o'zaro munosabatlariga xos xususiyatlar ko'maklashganligi sababli, bugungi kunda bunday toifadagi fuqarolar muayyan qismining viktimligini kamaytirish profilaktikaning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lishi lozim. Jamiyatda huquqbuzarliklardan jabrlanuvchi bo'lishga moyil odamlar qanchalik kam bo'lsa, shuningdek huquqbuzarliklardan jabrlanuvchi bo'lishga moyil bo'lgan shaxslardagi viktimlik darajasi qanchalik past bo'lsa, huquqbuzarliklar hamda jinoyatlar shunchalik kam sodir etiladi.

Shunday qilib, huquqbuzarliklardan jabrlanuvchi bo'lishga moyil shaxslar bilan muntazam ravishda profilaktik ish olib borish hozir ichki ishlar organlari faoliyatining dolzarb yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda. Huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirishda ichki ishlar organlarining ushbu yo'nalishdagi faoliyati *viktimologik profilaktika* deyiladi.

Viktimologik profilaktika – jamiyat va davlatning, aholining huquqbuzarlik yoki jinoiy tajovuzlar qurboni bo'lish xavfini, shuningdek o'zining salbiy xulqi, jismoniy-ruhiy zaifligi, bajarayotgan mehnat turi yoki faoliyati bilan bog'liq holda jinoiy qilmish qurboni bo'lishi mumkin shaxslardagi viktimlik darajasini kamaytirish orqali huquqbuzarliklarning oldini olishga qaratilgan faoliyat.

Psixologik bilimlar huquqbuzarlikning viktimologik profilaktikasini amalga oshirishda muhim bo'lib, ayniqsa ichki ishlar organlarining

profilaktika hamda sohaviy xizmatlariga huquqbuzarliklar profilaktikasini olib borishda, fuqarolarni huquqlari, huquqbuzarliklardan jabrlanishlarining oldini olishda ular bilan umumiy viktimologik profilaktika, maxsus viktimologik profilaktika, yakka tartibdagi viktimologik profilaktika chora-tadbirlarini olib borishda katta ahamiyat kasb etadi.

2-§. Huquqbuzarliklar viktimologik profilaktikasini amalga oshiruvchi subyektlarning psixologik tavsifi

Jabrlanuvchilar bilan profilaktik tadbirlarni amalga oshirish chog_ida ularning ko_rsatuv berishda xatoga yo_l qo_ymasliklari uchun doimo ularning jinoyat sodir etilayotgan paytdagi holati va jinoyatchi shaxsini idrok etish xususiyatlarini inobatga olish muhimdir. Ular his qilayotgan qo_rquv, g_azab, uyat, alam kabi hissiyotlar idrok etishning buzilishiga sharoit yaratishi mumkinligi tajribada isbotlangan. Bunday vaziyatda idrok etishning hajmi torayadi, ko_pincha bir qator faktlar, belgilar, tafsilotlar noto_g_ribaholanadi.

Adabiyotda viktimlikning bir qancha turlari ajratib ko_rsatilgan:

1) individual viktimlik – muayyan shaxsning ijtimoiy, biofizikologik yoki ruhiy xususiyatlariga ko_ra, ma'lum bir hayotiy vaziyatlarda jinoyat sodir etishi va o_ziga ma'lum miqdorda zarar yetkazilishi;

2) turdosh viktimlik – ayrim shaxslarning bir qator holatlar ta'sirida ma'lum jinoyat turlaridan (masalan, talonchilik, nomusga tegish va h.k.) jabrlanishga «moyilligi»;

3) guruhviy viktimlik – o_xshash ijtimoiy, demografik, psixologik, biofizik va boshqa xislatlarga ega bo_lgan odamlarning muayyan toifalariga (inkassatorlar, qorovullar, taksichilar va h.k.) xos bo_lgan jinoyatlardan jabrlanish qobiliyati;

4) ommaviy viktimlik – aholi ma'lum bir qismining o_zlaining subyektiv xususiyatlari tufayli obyektiv tarzda jinoyatlardan jabrlanishi.

Sanab o_tilgan viktimlik holatlarida asosiy omillardan biri sifatida, jabrlanuvchining muayyan xususiyatlari ko_rsatilgan. Ta'kidlash joizki, shaxsning viktimlik holatga tushib qolishiga nafaqat uning subyektiv xususiyatlari, balki boshqa omillar ham ta'sir etadi. Ya'ni kishi o_z shaxsiy xususiyatlariga ko_ra emas, balki ularning boshqa omillar bilan uyg_unlashuvi yoki bog_lanishi natijasida jinoyatdan jabrlanishi mumkin.

Adabiyotlarda viktimlikning quyidagi asosiy ikki turi ham ajratib ko_rsatilgan:

1) umumiy viktimlik – shaxsning yoshi, jinsi, kasbi, ijtimoiy holati va hokazolarga bog_liq bo_lgan viktimlik;

2) maxsus viktimlik – shaxsning ruhiyatidagi beqarorlik, alkogolli ichimliklarga moyilligi, irodasi va ehtirolari kabilar bilan bogʻliq boʻlgan viktimlik.

Oʻtkazilgan tadqiqotlar viktimlikning bu ikki turi uygʻun koʻinishda kelgan hollarda viktimlik darajasi ancha oshishini koʻrsatadi.

Kriminal viktimologiyani tadqiq etish jinoyatlarning turlari asosida olib borilsa, yanada samarali boʻladi. Bu kabi tadqiqotlar viktimlik holati xususida zarur maʼlumotlarga ega boʻlish, viktimlikni yuzaga keltiruvchi omillar, viktim xulq-atvorni jinoiy xulq-atvor bilan oʻzaro bogʻliqlikda oʻrganish va bilish hamda shular orqali jinoyatlar profilaktikasi boʻyicha chora-tadbirlar ishlab chiqishga imkon yaratadi.

Shu sababli, ayrim jinoyat turlarini hozirgi vaqtda ancha keng va har tomonlama oʻrganilmoqda. Shu nuqtai nazardan ikki asosiy masala koʻndalang boʻladi.

Birinchi masala jinoyatlardan kim jabrlanadi, degan savolga javob topish hisoblanadi. Bu masalani nafaqat bilimga boʻlgan ehtiyojni qondirish uchun, balki asosan eng «viktimogen» ijtimoiy guruhlarni aniqlash maqsadida oʻrganish lozim.

Tegishli tadqiqotlar natijasida ayollar firibgarlik, qiynash kabi jinoyatlarni, erkaklar – odam oʻldirish va badanga ogʻir shikast yetkazish kabi jinoyatlarni sodir etishda oshiqcha viktimlik namoyon boʻlishini koʻrsatadi. Ushbu holat formal va noformal sohalarida erkaklar va ayollar bajaradigan ijtimoiy vazifalarning xususiyati, ularning kundalik turmush tarzi bilan bogʻliq deyish mumkin.

Zoʻravonlik jinoyatlarining qariyb yarmida jinoyatchining qarindoshlari yoki tanishlari jabrlanadi. Bu, ayniqsa, bezorilik, odam oʻldirish, badanga ogʻir shikast yetkazish kabi jinoyatlarga xosdir. Nomusga tegish jinoyatiga kelsak, aksariyat hollarda u yaxshi tanish boʻlmagan odamlarga (tasodifiy tanishlarga) nisbatan sodir etiladi.

Ikkinchi muhim masala shaxsning jabrlanuvchi sifatida shakllanishiga nimalar imkoniyat yaratishini aniqlash? Bu har qanday viktimologik tadqiqotning bosh masalasidir, chunki unga javob topmasdan jinoyatlarning viktimologik oldini olish chora-tadbirlarini amalga oshirish mumkin emas. Qoʻyilgan savolga javoblardan biri shunday boʻlishi mumkin: jabrlanuvchilarni jinoyatchilarning oʻzi tanlaydi shuning uchun ham ular jabrlanadi. Jinoiy tajovuzdan jabrlanuvchini tanlash bosqichi barcha jinoyatlarni sodir etish holatlarida kuzatilmasa-da, qayd etilgan holat koʻpgina jinoyatlarga xosdir. Amaliy nuqtai nazardan, jinoyatchi jabrlanuvchini tanlashda koʻzda tutgan belgilarni oʻrganish jinoiy qilmishlarning oldini olish

va ularni fosh etish (masalan, jinoyatchini jinoyat ustida ushlab)ga yordam beruvchi chora-tadbirlarni ishlab chiqishga imkoniyat yaratadi.

Psixologik aloqa o_rnatish usullari juda ko_p va xilma-xildir. Ularning tanlanishi yuzaga kelgan tergov vaziyati, shaxs xususiyatlari, jabrlanuvchi va profilaktika inspektorining psixologiyasiga bog_liq Psixologik aloqa jabrlanuvchining ijtimoiy-psixologik xislatlariga ta_sir ko_rsatish orqali o_rnatilishi mumkin. Ba_zan profilaktika inspektorlari jabrlanuvchilar, guvohlarda o_ziga nisbatan ishonch, qiziqish uyg_otib, psixologik aloqa o_rnatilishiga erishadi.

Profilaktika inspektori guvoh, jabrlanuvchiga nima sababdan suhbatga chaqirtirilganliklarini tushuntirib, ular bilan erkin suhbat olib borishi kerak. Bu suhbat shaxsga fikrini jamlash, voqea- hodisalarni eslash, tergovchiga esa kuchli ta_sir ko_rsatadigan va javobga yo_naltiradigan savollar qo_yishdan qochish imkonini beradi. Jabrlanuvchilarning ko_rsatuvlarini hurmat qilish va ularga ishonish profilaktika inspektori uchun majburiy bo_lishi lozim. U shaxsga nisbatan qo_pollik qilish, uning ustidan kulish, unga nisbatan oshkora ishonchsizliklarga, e_tiborsizlik, shoshqaloqlik kabilarni namoyish etishiga yo_lqo_yilmaydi.

Ilmiy adabiyotlarda jabrlanuvchilar bilan psixoprofilaktik ishlarni amalga oshirish psixologiyasiga qadim zamonlardan boshlab katta e_tibor berilgan. Bunday qiziqish, avvalo, jabrlanuvchilarning ko_rsatuvlari jinoyat ishlari bo_yicha eng kerakli dalil ekani bilan izohlanadi.

Jabrlanuvchilar bilan profilaktik suhbat o_tkazishga tayyorlanishning psixologik jihatlari quyidagi asosiy tarkibiy qismlardan iborat:

- 1) ish materiallari hamda aniqlanishi kerak bo_lgan masalalar doirasini tahlil qilish;
- 2) profilaktik suhbat o_tkazilayotgan shaxsni o_rganish;
- 3) profilaktik jarayon muvaffaqiyatli o_tishi uchun zarur shart-sharoitni ta_minlash;
- 4) profilaktika inspektorining o_zini tutishi.

Jabrlanuvchi bilan profilaktik suhbat bir qarashda oson tuyulsa ham, bari-bir jiddiy va puxta tayyorgarlik ko_rishni talab qiladi. Suhbatning asosini reja tashkil qiladi. Unda aniqlanishi talab etilayotgan masalalar doirasi, ularning mazmuni va ketma-ketligi belgilanadi. Profilaktik suhbatdan avval ish hujjatlarini o_rganish, jabrlanuvchi bilan suhbat qilish chog_i da aniqlanishi lozim bo_lgan masalalar doirasiga oid bog_liq dalillarni tahlil qilish zarur. Agar profilaktika inspektori suhbat yaxshi tayyorlanmagan bolsa, uni ishonchsizlik bilan va maqsadga qaratilmagan holda o_tkazishi aniq. Profilaktika inspektorining profilaktik tadbirga tayyorgarlik ko_ma-

ganligini jabrlanuvchi shaxs sezmasligi mumkin emas, bu esa jabrlanuvchi shaxsning hayajonini kuchaytiradi, zarur ma'lumotlarni eslash jarayonini qiyinlashtiradi, umuman, suhbat natijalariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bila turib yolg'on ko'rsatuv berayotgan jabrlanuvchilarga kelganda, profilaktika inspektorining yaxshi tayyorgarlik ko'rmagani ularning ustunligini kuchaytiradi, xolos.

Profilaktik suhbatni boshlashdan avval jabrlanuvchilarning shaxsini o'rganish darkor. Bunga ularning tarjimai holi, kasbi, ma'lumoti, ish sharoiti, turmush tarzi, rivojlanish darajasi, qiziqishlari, eng muhim shaxsiy psixologik xislatlari, jinoyat hodisasini qanday qabul qilishi, jinoiy qilmishga, jinoyatchiga munosabati kabi ma'lumotlar kiradi.

Profilaktika inspektori suhbatning rasmiy qismidan avval bo'ladigan bevosita muloqotda kuzatish orqali guvoh, jabrlanuvchining tashqi qiyofasi, ularning madaniyat darajasi, nutqi, mimikasi, imo-ishoralari, o'ziga xos xususiyatlari, ko'zga tashlanadigan psixofiziologik reaksiyalari va holatlari (parishonligi, hayajonlanishi, qo'rqishi, xotirjamligi, befarqligi, adovati va h.k.), profilaktik jarayonga yordam ko'rsatish istagi, yoki aksincha, juda kam va muhim bo'lmagan ma'lumotlar bilan cheklanib qolishga intilishi kabilar haqida ma'lumot oladi. Jabrlanuvchining shaxsiga oid ma'lumotlar profilaktika inspektoriga ruhiy aloqa o'rnatishi, suhbatning eng oqilona taktikasini tanlashida katta yordam beradi.

Jabrlanuvchilar bilan profilaktik ishlarni amalga oshirish uchun ularni chaqirtirishning aniq vaqti va usuli, shuningdek, profilaktik harakatini o'tkazish sharoiti va joyi psixologik ahamiyatga ega. Odatda jabrlanuvchilar bilan iloji boricha samimiy suhbatlashish kerak. Biroq, bunda ham istisnoli holatlar mavjud. Agar jabrlanuvchi, ba'zan esa guvohlar ham sodir etilgan jinoyat natijasida ruhiy hayajon, zo'riqish, parishonlik holatida bo'lsalar, jarayonni kechiktirish lozim.

Shuningdek, psixologiyada ma'lum bo'lgan reminissensiya, ya'ni takroran xayolda tiklashni yaxshilash hodisasini inobatga olish kerak. Shu bois profilaktika inspektorlari ko'rsatuvlarni yetarlicha to'liq tushunish qiyin bo'lgan joylari ko'rsatuvlari bo'lmagan ish uchun juda muhim bo'lgan guvoh va jabrlanuvchilarni takroran so'roq qilgani ma'qul. Birinchi so'roq natijasida assotsiativ aloqalar yuzaga kelganidan so'ng o'z-o'zidan eslash jarayoni davom etishi hamda guvoh, jabrlanuvchi jinoyat yoki huquqbuzarlik hodisani huquqbuzar sha'ni bilan bog'liq muhim faktlar va holatlarni eslashi mumkin.

Psixologik nuqtai nazardan profilaktika inspektori tomonidan jabrlanuvchini chaqirtirish vaqtini belgilashda ish manfaatlarini chaqirtirilayot-

gan shaxslarning imkoniyatlari va manfaatlari bilan uyg'unlashtirishga harakat qilish kerak. Chaqiruv jabrlanuvchilarga ortiqcha qiyinchilik va noxush kechinmalar tug'dimasligi lozim. Zero, bu ularning profilaktika inspektori bilan bo'ladigan munosabatlarini qiyinlashtirishi mumkin. Masalan, chaqirilayotgan odamni o'z vaqtini rejalashtira olmaydigan tarzda chaqirtirish, profilaktika inspektorini uzoq vaqt kutishga majbur qilish, profilaktik ishlarni va suhbatni boshqa vaqtga ko'chirish kabilar bo'lmisligi kerak.

Agar chaqirtirilayotgan shaxslarning ko'rsatuvlari ish uchun juda muhim bo'lsa, ularni chaqirtirish uchun telefondan foydalangan ma'qul. Telefon qo'ng'irog'i nafaqat psixologik aloqa o'rnatishga yordam beradi, balki suhbatga chaqiriladigan odamlarga xos bo'lgan va kerakli faktlarni eslashga to'sqinlik qiladigan ortiqcha hayajonni yo'q qiladi. Profilaktika inspektori jabrlanuvchini huquqni muhofaza qilish organlariga taklif qilish faktini uning qarindoshlari, qo'shnilari, begona shaxslardan yashirish uchun ham telefon orqali chaqirtirishi mumkin. Ularni jabrlanuvchi uy manziliga yuboriladigan yelimlab yopishtirilgan va begona shaxslar tanishishiga yo'l qo'ymaydigan konvertidagi chaqiruv qog'ozi orqali ham suhbatga chaqirtirish mumkin.

Profilaktik suhbat joyini tanlashda axloqiy masalalarni ham unutmaslik kerak. Yoshi o'tgan yoki bemor shaxslarni profilaktika inspektorining huzuriga chaqirtirish tavsiya etilmaydi. Ushbu holda uning o'zi mazkur shaxslarning oldiga borib, ularni profilaktik suhbat o'tkazilgani ma'qul. Buning iloji bo'lmaganida tegishli profilaktika inspektori yoki mahalla faollari, posbon bu shaxsning turar joyida profilaktik yordam ko'rsatishi haqida alohida topshiriq yuborishi zarur. Bemor jabrlanuvchi bilan faqat shifokor ruxsati bilan va bemor davolanayotgan joyda (xonadon yoki shifoxonada) profilaktik suhbat qilish mumkin.

Huquqbuzarliklardan jabrlanuvchilarga yordam ko'rsatuvchi ixtisoslashtirilgan muassasalar. Davlat organlari va nodavlat notijorat tashkilotlari qonun hujjatlariga muvofiq huquqbuzarliklardan jabrlanuvchilarga yordam ko'rsatuvchi ixtisoslashtirilgan muassasalar tuzishi mumkin. Ixtisoslashtirilgan muassasalar huquqbuzarliklardan jabrlanuvchilarga huquqiy, ijtimoiy, psixologik, tibbiy, pedagogik va boshqa turdagi yordam ko'rsatadi.

Huquqbuzarliklardan jabrlanuvchilarga yordam ko'rsatuvchi ixtisoslashtirilgan muassasalarni tuzish va ularning ishini tashkil etish tartibi qonun hujjatlari orqali belgilanadi.

Huquqbuzarliklar viktimologik profilaktikasini amalga oshiruvchi subyektlarning huquqbuzarliklar viktimologik profilaktikasini amalga

oshirish faoliyati deganda fuqarolarni bugungi kunda jamiyat a'zolarini tobora tashvishga solayotgan diniy ekstremizm, terrorizm, separatizm, giyohvandlik, odam savdosi jinoyatlaridan, shuningdek ijtimoiy xavfi yuqori bo'lgan, boshqa ayrim turdagi jinoyatlardan jabrlanishi ehtimoli bo'lgan shaxslarga nisbatan viktimologik profilaktik faoliyati olib borishlari tushuniladi. Masalan, ichki ishlar organlarining profilaktika xizmati misolida ma'muriy hududidagi tadbirkorlarga yoki mol-mulkini ochiqda saqlovchi fuqarolarga kuzatuv kameralarini o'rnatish, ko'p qavatli uylarda yashovchi fuqarolar avtomashinalarini beparvolik bilan qarovsiz qoldirishi natijasida qarovsiz avtotransport vositasi ichidagi qimmatbaho buyumlarni o'g'irlab ketmasligining oldini olish uchun maxsus avtoturargohlarga avtotransport vositalarini qoldirishlari haqida tavsiya, maslahat berish ushbu fuqarolarni o'g'irlik jinoyatlarining qurboni bo'lishini oldini olishida xizmat qiladi.

Huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasini ma'muriy hududda ko'p sodir etilayotgan yoki ijtimoiy xavfi oshib borayotgan huquqbuzarliklardan jabrlanish ehtimoli yuqori bo'lgan ma'lum bir toifadagi shaxslar xususiyatidan kelib chiqib, targ'ibot-tashviqot yoki boshqa turdagi profilaktik chora-tadbirlar asosida fuqarolarni ogohlikka, hushyorlikka va xavfsizlik qoidalariga to'liq rioya etishga chorlash maqsadida amalga oshiriladi.

Profilaktika (katta) inspektori o'z vakolati doirasida viktimologik profilaktikani tashkil etishda quyidagi ishlarni amalga oshiradi:

– ma'muriy hududni profilaktik ko'zdan kechirib, kriminogen vaziyatni tahlil qilish hamda huquqbuzarliklarning umumiy, maxsus, yakka tartibdagi va viktimologik profilaktikasini tashkil etish va amalga oshirish;

– huquqbuzarlik yoki jinoyatlardan jabrlanishga moyilligi yuqori bo'lgan shaxslarni aniqlash va ularning jinoyatdan jabrlanish ehtimolini kamaytirish bo'yicha tegishli choralar ko'rish;

– sodir etilishi mumkin bo'lgan favqulodda hodisalar yoki ularning salbiy oqibatlari bo'yicha aholi o'rtasida tushuntirish ishlari olib borish;

– ma'muriy hududda terrorchilik va diniy-ekstremistik g'oyalarni targ'ib qiluvchi, ruxsatsiz diniy ta'lim beruvchi, missionerlik bilan, shuningdek boshqa taqiqlangan faoliyat bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar hamda diniy-ekstremistik guruhlariga aloqador bo'lgan shaxslarni aniqlash va ushbu guruhlar ta'siriga tushib qolishga moyil bo'lgan shaxslarga uning salbiy oqibatlarini tushuntirish;

– jamiyatda o'rnatilgan axloq-odob va qonun hujjatlari talablariga to'liq rioya etmaydigan fuqarolarni aniqlash hamda ularga ushbu salbiy

xatti-harakati oqibatida jinoyat qurboni bo_lishi mumkinligi haqida tushuntirish;

– ma‘muriy hududda yashovchi tadbirkor, mulkdor fuqarolarni, turar-joy, mulk daxlsizligini ta‘minlash hamda ularning mol-mulkiga tajovuz bo_lishi ehtimoli haqida tushuntirish va ularning ushbu o_g_rilikjinoyatlari qurboni bo_lishining oldini olish;

– ma‘muriy hududda g_ayriijtimoiy xulq-atvorli, huquqbuzarliklar sodir etishga moyil bo_lgan, huquqbuzarliklar sodir etgan shaxslarni aniqlash, ularning hisobini yuritish va ularga tarbiyaviy ta‘sir ko_rsatish;

– ijtimoiy mavqei, fiziologik holati, xulq-atvori, hayot tarzi bilan bog_liq holda huquqbuzarlikdan jabrlanuvchiga aylanishi xavfi bo_lgan shaxslarni aniqlash va ularga nisbatan viktimologik profilaktik chora-tadbirlarni qo_llash;

– huquqbuzarliklar sodir etilishida jabrlanuvchilarning tutgan o_mi hamda jabrlanishining sabablari va ularga imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlash va bartaraf etish;

– fuqarolarga alohida toifadagi jabrlanish xavfini tug_dirayotgan omillar va huquqbuzarliklar haqida ma‘lumotlar berish, bu borada ularni ogohlikka va hushyorlikka chaqirish hamda xavfsizlik qoidalariga rioya etishga qaratilgan targ_ibot-tashviqot ishlarini tashkil etish;

– ma‘muriy hududda ko_p sodir etilayotgan yoki ijtimoiy xavfi oshib borayotgan huquqbuzarliklar yoxud ma‘lum bir toifadagi shaxslarning jabrlanish ko_rsatkichining tobora oshayotganligi haqida xabardor bo_lish va unga nisbatan profilaktik chora-tadbirlar amalga oshirish;

– ma‘lum bir huquqbuzarliklar bo_yicha muayyan shaxsning jabrlanish ehtimoli yuqoriligini aniqlash asosida uni mavjud xavf-xatardan ogoh qilish, hushyorlikka chaqirish va xavfsizlik qoidalariga to_liq rioya etishini tashkil etish;

– huquqbuzarlik yoki jinoyatlar qurboni bo_lgan shaxslarning huquqbuzarlik sodir etilishidagi o_mi va roli, jabrlanishining sababi va unga imkon bergan shart-sharoitlarni hamda bartaraf etish chora-tadbirlarini ishlab chiqish.

Profilaktika (katta) inspektori huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasini amalga oshirish bo_yicha quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshiradi:

– huquqbuzarliklardan jabrlanishning sabablari va unga imkon bergan shart-sharoitlarni o_rganish, tahlil qilish hamda jabrlanish ehtimoli yuqori bo_lgan shaxslar toifasini aniqlash;

– huquqbuzarliklardan jabrlanganlarning individual va ijtimoiy-psixologik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda profilaktik tadbirlarni ishlab chiqish;

– huquqbuzarliklardan jabrlanuvchilarni o_z vaqtida aniqlash va himoya qilish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;

– huquqbuzarlikdan jabrlanuvchining jismoniy va psixologik xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan maxsus kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish, ularni takomillashtirib borish va amaliyotga joriy etish;

– g_ayriijtimoiy xulq-atvor nisbatan tez-tez kuzatiladigan yoki huquqbuzarliklar tez-tez sodir bo_lib turadigan joylarga patrol-post naryadlarini jalb etish;

– g_ayriijtimoiy xulq-atvor, tayyorlanayotgan, sodir etilayotgan yoki sodir etilgan huquqbuzarliklar to_g_risida tezkor axborot olish va ulardan profilaktik faoliyatda foydalanish;

– ichki ishlar organlarida tashkil etilgan jahon internet axborot tarmog_ida veb-saytlar, bloglar, chatlardagi ma'lumotlarni o_z vaqtida o_rganib chiqish, tahlil qilish hamda ular natijalaridan foydalangan holda ma'muriy hududda kriminogen vaziyat barqarorligini ta'minlash bo_yicha viktimologik chora-tadbirlari ishlab chiqish;

– jismoniy va yuridik shaxslarga o_z xavfsizligi hamda mulkini qo_iqlash bo_yicha texnika vositalari imkoniyatlaridan foydalanish bo_yicha tavsiyalar va huquqiy maslahatlar berish.

Profilaktika (katta) inspektori tomonidan huquqbuzarliklardan jabrlanuvchilarga yordam ko_rsatis O_zbekiston Respublikasining «Odam savdosiga qarshi kurashish to_g_risida»gi, «Voyaga yetmaganlar o_itasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasi to_g_risida»gi, «Huquqbuzarliklarning profilaktikasi to_g_risida»gi qonunlari va boshqa qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ichki ishlar organi sohaviy xizmatlari, huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organ va muassasalar, fuqarolarning o_zini o_zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari hamda «Huquqbuzarliklardan jabrlanuvchilarga yordam ko_rsatuvchi ixtisoslashtirilgan muassasalar», shuningdek qutqaruv xizmatlari bilan hamkorlikda amalga oshiradi.

Ta'kidlash joizki, hozirgi kunda mamlakatimizda odam savdosi jinoyatidan jabrlanayotgan shaxslar ko_pchilikni tashkil etmoqda. Hatto jabrlanganlar ichida voyaga yetmaganlar ham mavjud. Eng achinarlisi, odam savdosi jinoyati qurbonlarining asosiy qismini ayollar tashkil etadi. Mazkur jinoyatdan jabrlangan shaxslar o_zlaining hulq-atvori, yetarli huquqiy bilimga ega bo_lmaganligi hamda ishonuvchanligi oqibatida yo_l qo_ygan xatoliklari tufayli turli mamlakatlarda jinoiy guruhlar domiga tushib, sarson-sargardon bo_ladilar.

3-§. Huquqbuzarliklar viktimologik profilaktikasi obyektlarining psixologik jihatlari

Huquqbuzarlikdan jabrlanuvchi – jismoniy, ma‘naviy yoki mulkiy zarar yetkazilganligi oqibatida huquqbuzarlikdan jabrlangan shaxs.

Huquqbuzarlikdan jabrlangan shaxslarga qonun asosida ixtisoslashtirilgan muassasalarda yordam ko‘rsatiladi.

Huquqbuzarliklardan jabrlanuvchilarga yordam ko‘rsatuvchi ixtisoslashtirilgan muassasalar sifatida davlat organlari va nodavlat notijorat tashkilotlari qonun hujjatlariga muvofiq muassasalar tuzishi mumkin. Ixtisoslashtirilgan muassasalar huquqbuzarliklardan jabrlanuvchilarga huquqiy, ijtimoiy, psixologik, tibbiy, pedagogik va boshqa turdagi yordamlar ko‘rsatadi.

Huquqbuzarliklardan jabrlanuvchilarga yordam ko‘rsatuvchi ixtisoslashtirilgan muassasalarni tuzish va ularning ishini tashkil etish tartibi qonun hujjatlarida belgilangan.

Jabrlanuvchi shaxsga psixologik tavsif:

Har qanday jinoiy qilmish jinoyatchi hamda jabrlanuvchining psixologik xususiyatlaridan kelib chiqadi. Ushbu psixologik xususiyatlarni yuzaga keltiruvchi sabab va sharoitlarni o‘rganish jinoyat-protsessual qonunchiligida ham o‘rganiladi:

Jabrlanuvchi – jinoiy ishdan yoki huquqbuzarlikdan jabrlangan va surishtiruv, tergov harakatlarida va sud ishlari olib borilishi davomida jabrlanuvchi deb topilgan shaxs.

Jabrlanuvchi shaxs to‘g‘risida so‘z yuritganda uning psixologik jihatlari e‘tibor berish lozim. Bular nimalardan iborat? Shaxsni o‘rganish davomida uning atrof muhit bilan bog‘liq ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy sharoitlar muhim ahamiyatga ega. Bu sharoitlar shaxsni jabrlanuvchiga aylanishida katta rol o‘ynaydi va uning mohiyatini oydinlashtirishda qo‘l keladi. Bu sharoitlar uzoq muddat davomida to‘planib shaxsda muhrlanib qoladi va keyinchalik nafaqat alohida jinoiy hodisalar, balki huquqbuzarliklardan jabrlanishiga olib keladi.

Yuqoridagi holatlarda shaxs bosqinchilik, o‘g‘rilik odam o‘ldirish, odam savdosi, firibgarlik, bezorilik, nomusga tegish, qasdan badanga shikast yetkazish kabi jinoiy qilmishlarning jabrlanuvchisiga aylanishi ehtimoli yuzaga keladi.

Profilaktika (katta) inspektori o‘ziga birlashtirilgan ma‘muriy hududning ijtimoiy-iqtisodiy kriminogen vaziyatini tahlil qilish asosida mahalla fuqarolar yig‘ini, mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlari, yarashtirish komissiyalari, mahalla jamoat posboni hamda diniy ma‘rifat va ma‘naviy-

axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha maslahatchi bilan hamkorlikda aholi o'rtasida muntazam ravishda tashviqot-targ'ibot ishlarini amalga oshirsa jinoyat qurbonlarining soni kamayishiga erishishi mumkin. Masalan, diniy aqidaparastlikning mohiyati, giyohvandlik, fohishabozlik illatlari natijasida OITS kasalligiga chalingan shaxslar yoki hozirgi kunda odam savdosi jinoyatlarining ko'payib borayotgani, chet mamlakatlardan mayib-majruh bo'lib qaytib kelgan shaxslar xususida suhbatlar o'tkazish maqsadga muvofiqdir.

Ichki ishlar organlari viktimologik profilaktik faoliyatining asosiy obyektlariga quyidagilar kiradi:

- bilim saviyasi yuqori bo'lmagan shaxslar;
- ishonuvchan sodda odamlar;
- yolg'iz yashovchi qariyalar;
- tadbirkorlar;
- beparvo shaxslar;
- ruhiy xasta insonlar;
- maqtanchoq va o'zini ko'z-kuz qiluvchi insonlar;
- yengil-yelpi hayot kechiruvchilar;
- yengil tabiatli ayollar va erkaklar;
- jismoniy tan jarohati olgan shaxslar va boshqalar.

Yuqoridagi viktimologik profilaktikaning obyektlari boshqalarga nisbatan o'zining hulq-atvori, harakat yoki harakatsizligi tufayli jinoiy tajovuz jabrlanuvchisi bo'ladi. Lekin ushbu toifadagi shaxslarning viktimligini kamaytirish borasida tegishli tavsiyalar ishlab chiqish orqali ularning jinoyat qurboni bo'lishlarining oldini olish mumkin. Bunday viktimologik profilaktik choralarni amalga oshirish jarayonida jabrlanuvchilarning jinoyat sodir etilishidagi muayyan xulq-atvorini o'rganish orqali kriminologik kompleks chora-tadbirlarni belgilash muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, odam savdosi jinoyatidan jabrlangan shaxs o'zining ishonuvchanligi, soddaligi, ehtiyotsizligi tufayli majburiy va og'ir mehnatga jalb etilishi yoki tanasini sotish kabi jirkanch ishlarni qilishga majbur bo'lishi mumkin.

Ta'kidlash joizki, muayyan toifadagi shaxslarning jinoyatlardan jabrlanish ehtimoli sodir etilayotgan jinoyat turiga qarab har xil bo'ladi. Masalan, bezorilikdan jabrlanish nomusga tegishdan jabrlanishga qaraganda ko'proq tasodifiy sodir bo'ladi. Ayni vaqtda, firibgarlikdan jabrlanishning nomusga tegishdan jabrlanishga karaganda, tasodifiyligi kamroqdir. Tasodifiylik omili jinoyat sodir etish usuliga, jinoyatchining «professional» tayyorgarligi va boshqa holatlarga qarab namoyon bo'ladi.

Jinoyatchilar jabrlanuvchini tanlashda ularning emotsional va psixologik xususiyatlariga, ya'ni o'zini qanday tutishi, yurish-turishi, harakatlari alohida e'tibor qaratadi. Ayniqsa, jinoyatchilar o'z qurbonini tanlashda ko'pincha, moddiy boyliklarning mavjudligi, uni osonlik bilan qo'lga kiritishga, o'zining ushbu rejasini osonlik bilan amalga oshirishga qaratilgan rejalar tuzadi.

Biz quyida odam savdosi, bosqinchilik, talonchilik, nomusga tegish, o'g'rilik, firibgarlik kabi jinoyati qurbonlarining psixologik xususiyatlarini ko'rib chiqamiz.

Odam savdosi jinoyatidan jabrlangan shaxslarning psixologik xususiyatlari:

- ishonuvchan;
- sodda;
- boylikka o'chlik;
- laqma;
- huquqiy ongi yuqori emasligi;
- xayolparast.

Bosqinchilik jinoyatidan jabrlangan shaxslarning psixologik xususiyatlari:

- jismoniy zaiflik;
- asosan qiz va ayollardan iborat bo'ladi;
- ochiqdan-ochiq turli tilla taqinchoq va boshqa buyumlarni hammaga ko'z-ko'zqilib taqib yurish;
- mast holatda bo'lganlik yoki o'zini idora qila olmaganlik natijasida.

Talonchilik jinoyatidan jabrlangan shaxslarning psixologik xususiyatlari:

- jismoniy zaiflik;
- asosan qiz va ayollardan iborat bo'ladi;
- ochiqdan-ochiq turli tilla taqinchoq va boshqa buyumlarni hammaga ko'z-ko'zqilib taqib yurish;
- mast holatda bo'lganlik yoki o'zini idora qila olmaganlik;
- voyaga yetmagan bolalar (aldab telefoni yoki tilla taqinchoqlarini yechib ketish).

Nomusga tegish jinoyatidan jabrlangan shaxslarning psixologik xususiyatlari:

- ishonuvchan;
- sodda;
- molparast va boylikka o'ch;
- laqma;
- huquqiy ongi yuqori emas;

- yengil tabiatli (erkak va ayollar);
- ochiq-sochiq kiyinib yuruvchi;
- himoyasiz ayollar;
- yengil-yelpi hayot kechiruvchilar;
- ko_ngilchan ayollar;
- or-nomussiz hayo-ibosiz shaxslar.

O_g_rilik jinoyatidan jabrlangan shaxslarning psixologik xususiyatlari:

- o_ziga ehtiyokkor bo_lmagan;
- mol-mulkini ko_z-ko_zqiluvchi;
- maqtanchoq;
- huquqiy ongi yuqori bo_lmagan;
- yolg_iz yashovchi qariyalar;
- beparvo shaxslar;
- ruhiy xasta insonlar;
- mulkdor va tadbirkorlar.

Firibgarlik jinoyatidan jabrlangan shaxslarning psixologik xususiyatlari:

- ishonuvchan;
- sodda;
- laqma;
- huquqiy ongi yuqori bo_lmagan;
- o_zharakatining oqibatini anglab yetmaydigan.

Psixologik nuqtai nazardan aytish joizki, jinoyatchi shaxsi ko_p hollarda o_z qurbonini tanlaydi. Boshqa bir holat – jabrlanuvchining xulq-atvori ham viktimlikni aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, jabrlanuvchining jinoyat sodir etilishidan oldingi, jinoyat sodir etish vaqtidagi va jinoyat sodir etilganidan keyingi xulq-atvorini farqlash lozim.

Jinoyat qurboni bo_lgan shaxslarning quyidagi xulq-atvori va harakati jinoyat sodir etilishida sabab va sharoitlarni yaratib bergan:

a) muayyan hayotiy vaziyatlarda jabrlanuvchining salbiy xulq-atvori oqibatida;

b) ochko_zlik yoki harakatining oqibatini anglab yetmaslik;

d) jinoyat qurboni va jinoyatchi o_rtasidagi munosabat va ularning o_zaro aloqasi;

e) jinoyat sodir etilganidan so_ng jabrlanuvchining shaxsi va uning o_zini tutishi;

f) latent jinoyatchilikning yuzga kelishida jabrlanuvchi shaxsi va harakatlaridagi o_zaro bog_liqlik xususiyatlari;

g) jinoyatchi va jabrlanuvchining o_zaro aloqasi va munosabatlarining mavjudligi va.x.k.

Jabrlanuvchining jinoyat sodir etilishidan oldingi xulq-atvori:

– jinoyat sodir etishga turtki beruvchi (shaxs o_z harakatlari bilan kriminogen vaziyatni yuzaga keltiradi);

– faol (shaxs bevosita kriminogen vaziyatni yuzaga keltirmaydi, lekin o_z harakatlari bilan uning yuzaga kelishiga jiddiy ta'sir ko_{rs}atadi);

– passiv (kriminogen vaziyatning yuzaga kelishida shaxs umuman hech qanday rol o_{yn}amaydi) bo_lishi mumkin.

Jinoyat sodir etish vaqtida jabrlanuvchining harakatlaridan kelib chiqib:

– shaxsning huquqbuzar ko_zlagan jinoiy niyatini ro_yobga chiqarishiga imkoniyat yaratadigan xulq-atvorini;

– jabrlanuvchining jinoyatchiga jinoiy natijaga erishish imkoniyatini yengillashtiruvchi unsurlarsiz xulq-atvorini («neytral» xulq-atvorni);

– g_{ay}rihuquqiy qilmishning amalga oshishiga muayyan darajada to_sqinlik qiluvchi xulq-atvorni farqlash mumkin.

Ayblanuvchining nomusga tegish jinoyatini sodir etishga ayblanuvchida jinsiy hirsni qo_zg_{at}uvchi axloqqa zid yoki yengiltak xulq-atvori turtki beradi.

Bundan tashqari, jabrlanuvchining kuchsiz yoki ojiz holatini uning zo_rlikka qarshilik ko_{rs}atish qobiliyati cheklanganligini ifodalovchi holatlarga ham e'tibor berish lozim.

G_{az}zo_glik jinoyatlariga ko_pincha jabrlanuvchining yengiltak yoki axloqqa zid harakatlari, o_z mulkini asrashga sovuqqonlik bilan munosabatda bo_lishi, tanishlar orttirishda e'tiborsizligi, shubhali «do_stlar» va begona shaxslarga haddan tashqari ishonuvchanligi, jabrlanuvchining o_grilar bilan birgalikda araqxo_lik qilishi, qimor o_{yn}ashi, jinsiy maylga berilishi imkoniyat yaratadi.

Jinoyatdan jabrlanuvchilarning ro_y bergan hodisa haqida tegishli organlarga xabar bermasligi:

a) g_{ay}rihuquqiy (jinoyat haqida qonunga zid ravishda ongli tarzda xabar bermaslik);

b) axloqqa zid;

d) beparvo (shaxs jinoyatdan jabrlanganini anglamaydi) bo_ladi

Bu jabrlanuvchilarning jinoyat sodir etilganidan keyingi xulq-atvoriga nisbatan yondashuvni tabaqalashtirish zarurligini ko_{rs}atadi. Mazkur yondashuv jabrlanuvchilarning xulq-atvor motivlarini o_{rgan}ishga asoslanishi lozim. Zotan, jabrlanuvchilar xulq-atvor motivlarining rang-barangligi ularning jinoyat sodir etilganidan keyingi harakatlarini bir xilda baholash imkonini bermaydi.

Ma'lumki inson huquq va erkinliklarini himoya qilish bilan shug_{ulla}nuvchi xalqaro tashkilotlar o_zlarining shartnoma, bitim va boshqa huquqiy

hujjatlarida ayollar, bolalar, nogironlar, qariyalarni yuqori viktimlikka ega bo'lganligi uchun oila-turmush sohasida sodir etiladigan jinoyatlardan himoya qilish maqsadida ularning ijtimoiy maqomini alohida ajratib ko'rsatishgan.

Demak, ichki ishlar organlari tomonidan amalga oshirilayotgan profilaktik tadbirlar asosan huquqbuzarlik va jinoyatlarning oldini olish maqsadida targ'ibot-tushuntiruv ishlarini olib borish hamda g'ayriijtimoiy salbiy xulq-atvorga ega bo'lgan shaxslarni aniqlash va ularga nisbatan tarbiyaviy-profilaktik ishlarni tashkil etishga qaratilgan. Buning ahamiyati quyidagilarda namoyon bo'ladi:

– fuqarolarni turli ko'rinishdagi jinoyatlarning qurboni bo'lishining oldini olish (masalan, odam savdosi, diniy ekstremizm va terrorizm va boshqalar);

– jinoyat qurboni bo'lishi mumkin bo'lgan toifadagi (ishonuvchan, qiziquvchan, huquqiy darajasi yuqori bo'lmagan) shaxslarni aniqlash va ularning huquqiy ongi va madaniyati oshirish;

– kasbi jinoyat qurboniga aylanishiga olib keluvchi shaxslar (haydovchilar, inkasatorlar)ning hushyorligini oshirish bo'yicha maslahatlar berish;

– muayyan xatti-harakatlari bilan boshqalarning e'tiborini o'ziga jalb etuvchi (har xil turdagi taqinchoq va qimmatbaho buyumlarni yonida olib yuruvchi kriminogen xususiyatga ega bo'lgan shaxslar)ga viktimologik profilaktikaning mazmuni va mohiyatini tushuntirishdan iborat.

Savol va topshiriqlar

1. Huquqbuzarliklardan jabrlangan shaxslarning psixologik tavsifni aytib bering.

2. Shaxslarning huquqbuzarlik jabrlanuvchisiga aylanishiga sabab bo'lgan qanday psixologik omillarni bilasiz?

3. Viktimologik profilaktikani amalga oshirishda profilaktika inspektori qanday psixologik jihatlarni inobatga olishi lozim?

4. Profilaktika inspektori tomonidan viktimologik profilaktikani amalga oshirishga qanday psixologik muammolar to'sqinlik qilmoqda?

5. Viktimologik profilaktikani amalga oshirishda qanday psixologik jihatlarga e'tibor qaratish lozim?

6. Fuqarolarning huquqbuzarliklardan jabrlanishini oldini olish uchun qaysi omillarga e'tibor qaratish lozim?

7. Viktimologik profilaktikani amalga oshiruvchi subyektlarda qanday psixologik xususiyatlar bo'lmog'ilozim?

8. Jinoyatdan jabrlangan shaxs psixologiyasini o'rganishning ahamiyati nimada?

XIII bob. JINOYATLARNI FOSH ETISH VA TERGOVGA QADAR TEKSHIRUV HAMDA SURISHTIRUV O‘TKAZISH FAOLIYATINING PSIXOLOGIK TAVSIFI

1-§. Jinoyatlarni fosh etish faoliyatining psixologik asoslari

Yuridik psixologiya fanining kriminal psixologiya sohasi jinoyatlarni ochishda jinoyatchi shaxsning g_ayriijtimoiy xulqi sabablarini ikki guruhga – ijtimoiy va biologik sabablarga ajratgan holda o_rganadi. Shu nuqtai nazardan, uning ijtimoiylik yoki biologik omillariga «ruhiylik» nomli tizim hosil qiluvchi omilni kiritish hamda inson xulqining sababiy bog_lanishlari (determinatsiyasi) bilan bog_liq barcha muammolar majmuini ijtimoiy-psixologik-biologik sabablar deb atash to_g_ribo_ladi. Bunda «psixologik» jihatning o_tada joylashgani uning ham ijtimoiy, ham biologik omil uchun birlashtiruvchi funksiyaga egaligini anglatadi. Shu bois jinoyatlarni ochish jarayonida ichki ishlar organlari xodimi shaxsning «ijtimoiy-psixologik-biologik» tuzilishiga alohida e_tibor qaratishi zarur.

Jinoyatlarni fosh etish faoliyatida shaxsning xulqida namoyon bo_luvchi g_ayriijtimoiy xatti-harakatlarni hisobga olish muhimdir. Chunki g_ayriijtimoiy xulq, normadagi xulq kabi ko_p omilli bo_lib, u bir yoki bir qancha sabablarning oqibati emas, balki alohida olingan individual axloqiy ko_inishning ko_p omillar bilan bog_liqligi va ehtimolli xususiyati natijasidir. Bu o_inda shaxsning tipik individual-psixologik xususiyatlari va axloqiy qarashlarini aniqlash ustun ahamiyatga ega. Ijtimoiy va biologik omillar o_z-o_zicha emas, balki jinoyatchi shaxs xulqining o_ziga xosligini namoyon qiluvchi uning shaxsiy-psixologik xislatlari bilan birlashgan holda g_ayriijtimoiy xulqning aniqlovchilariga aylanadi.

Inson tomonidan jinoyat sodir etilishida shaxs xulqi, ehtiyojlari, anglangan va anglanmagan mayllari tizimi, qarashlari hamda qadriyatlari, oldiga qo_ygan maqsad va unga erishish istagi birinchi o_ringa chiqadi.

Aksariyat jinoyatchilarning xulqiga ijtimoiy qadriyatlarga moslasha olmaslik (dezadaptatsiya) va o_zini o_zi boshqarishdagi nuqsonlar xosdir. Individning o_zini o_zi boshqarish imkoniyatlarining past darajada bo_lishida, uning g_ayriijtimoiy mayllari, odatlari nafaqat nazorat qilinmaydi, balki ularning o_zlari xulqning maqsad hosil qiluvchi mexanizmlariga aylanadi. Ya'ni, g_ayriijtimoiy xulq individning o_z ijtimoiy mas'uliyatini himoya qilish (o_zini oqlash) motivatsiyasi, umum qabul qilingan ijtimoiy qadriyatlarning qadrsizlanishi asosida amalga oshiriladi. Inson xulqi uning ehtiyojlari va yo_ralganlik sohasi, qabul qilgan qadriyatlar tizimi, umum-insoniy madaniyatdan bahramandlik darajasi bilan bog_liqdir.

Inson xulqini aniq instinktiv (tug__ma) mayllari emas, balki ijtimoiylashuv darajasi yuzaga keltiradi. Inson xulqidagi tashqi holatlar tizimi unda shakllangan ichki ruhiy shart-sharoitlar tizimi orqali namoyon bo__ladi. Ushbu ichki ruhiy shart-sharoitlarga quyidagilar kiradi:

- qadriyatlar tizimi;
- axloqiy yo__nalganlik;
- xatti-harakatning umumlashgan usullari;
- o__zini o__zi tartibga solishning psixodinamik xususiyatlari.

Shaxs qancha kam ijtimoiylashgan bo__lsa (bu, odatda, jinoyatchi shaxsning o__ziga xos xususiyatidir) unda biologik omillarning ustun (dominanta) bo__lish ehtimoli shuncha yuqori bo__ladi. Inson ongining rivojlanishi qancha cheklangan bo__lsa, uning xulqida iyerarxik jihatdan quyi turadigan motivatsiya darajalari shuncha katta rol o__ynaydi.

Jinoyatchining xulqi ham qadriyatlar asosida yo__nalgan. Ammo jinoyatchining qadriyatlari buzilgan, ular ijtimoiy qadriyatlarning umum e'tirof etilgan tizimiga mos kelmaydi. Shu ma'noda jinoyatlarni ochish jarayonida sodir etilgan jinoyatning sababini aniqlash yaxshi samara beradi. Chunki ***jinoyat motivi*** jinoiy qilmish sodir etishga ahd qiluvchi anglab yetgan his-tuyg__udir.

Jinoyatlarni fosh etishda avvalo jinoyatchining intellektual-ma'naviy xislatlari, qadriyatlari, ruhiy va jismoniy holatini hisobga olish zarur. Shuningdek, jinoyatchi shaxsining ruhiy holatlarini mantiqiy tahlil etish, u sodir etgan jinoyatni malakali baholash, jumladan individual bashorat qilish hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Sodir etilgan jinoyatni fosh etishda jinoyatchi to__g__risida har tomonlama chuqur tasavvurga ega bo__lish uchun jinoiy harakatning vaqti, joyi va boshqa jihatlari to__liq psixologik tahlil etilishi, ya'ni jinoyat sodir etilishining yashirin motivlari va maqsadlarini inobatga olish zarur.

Jinoyat sodir qilgan shaxsning asosiy maqsadi:

- 1) o__zoldiga qo__ygan maqsadiga erishish;
- 2) qilgan jinoyatining izini yo__qtish.

Jinoyatchi shaxslarning ichki ruhiy olami va an'analaridan kelib chiqadigan bo__lsak, ular ko__p hollarda jinoyatni mahorat bilan (professional) sodir etadilar, shuningdek, boshqa shaxslarni qo__ritish, aldash yo__li bilan jinoyat sodir etishga majbur qiladilar.

Jinoyatchi shaxslar iloji boricha ichki ishlar organlari xodimlari bilan muloqotda bo__lishni xohlashmaydi, ulardan uzoqroq yurish, o__zlarini olib qochishga harakat qiladilar. Agar ular bilan muloqotga kirishiladigan bo__lsa, o__zlaining faqat ijobiy tomonlarini ko__rsatishga intiladilar, chunki

ijobiylik ularning har xil voqea-hodisalardan keyin gumon qilinmasligini ta'minlashi mumkin, degan farazni yuzaga keltirishi mumkin.

Jinoyatlarni fosh etish va surishtiruv o'tkazishda profilaktika inspektori tezkor qidiruv xizmati xodimi bilan hamkorlikda faoliyat olib boradi. Mazkur hamkorlik jinoyatlarni fosh etish va jinoyat sodir etgan shaxslarni topishda alohida o'rin egallaydi

Jinoyatlarni fosh etishda profilaktika inspektori faoliyatining alohida psixologik xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- jinoyatlarni fosh etish;
- jinoyatchining qarshi harakati va qarshilik ko'rsatishini yengish;
- muayyan rolga qirish va ayyorlikni qo'llash

Profilaktika inspektori jinoyatlarni fosh etishda tezkor yo'llar orqali quyidagilarni qo'lga kiritishi mumkin:

- jinoyatga aloqador ma'lumotlar, shuningdek o'zida isbotlash xususiyati mavjud ashyoviy dalillarni;
- dalillar yig'ishning taktik usullarini qo'llash imkoniyatini yaratuvchi ma'lumotlarni;
- dalillarni baholashda ko'mak beradigan ma'lumotlarni;
- gumon qilinayotgan shaxslar to'g'risida ma'lumotlarni.

Bildirilgan fikrlar asosida qasddan odam o'ldirish jinoyatini ochishning psixologik xususiyatlarini quyidagi tarkibdan iborat tartibda ko'rib chiqamiz.

1. Jinoyatchi shaxsning jinoyat sodir etguniga qadar shakllangan psixologiyasining tahlili:

– jinoyatchi shaxs jabrlanuvchi bilan jinoyat sodir etilguniga qadar bo'lgan aloqasini, shuningdek jabrlanuvchining xulq-atvori bilan bog'liq o'ziga xos xususiyatlarni bilishi va e'tiborga olishi, jabrlanuvchi bilan nizoli munosabatlarni rivojlantirishi, jinoyatning asosiy yo'naltiruvchi motiviatsiyalarini, jinoyatni amalga oshirishning dasturini belgilashi va amalga oshirish shartlarini aniqlab olishi;

– jinoyatchi shaxs jinoyat sodir etish quroli va vositalarini topish va egalik qilish choralari ko'rish yoki o'z qo'lib bilan yasashi (mutaxassislar bilan maslahat qilish, adabiyotlarni o'rganish);

– jinoyatchi shaxs jinoyatni hech qanday to'siqsiz yashirin tarzda amalga oshirish uchun sharoit yaratishi va kelgusida qotillikni yashirish imkoniyati va choralari hisobga olishi hamda belgilashi kabi psixologik xususiyatlarga ega bo'ladi

2. Jinoyat sodir etishning individual xususiyatlari mexanizmini tahlil qilish:

– jabrlanuvchi bilan jinoiy aloqaning xulq-atvorga bog'liq xususiyatlari (jinoiy o'zaro aloqada boshlang'ich bosqichining xususiyatlari);

– qotillikning turli usullarida tan jarohati yetkazish mexanizmining operatsional xususiyatlari: qarshidan, o'rta masofadan va uzoq masofadan turib o'qotish, pistirma yoki binodan turib o'quzish, qo'l sirtmoq bilan bo'g'ish turli moddalar va usullar bilan zaharlash, tepalikdan tashlab yuborish, mashinada bosish, yurib ketayotgan avtotransportdan uloqtirib yuborish, jabrlanuvchini yordamga muhtoj holatga keltirish va uni hayot uchun xavfli bo'lgan sharoitda qoldirish va hokazo.

3. Jinoyat izlarini tahlil qilish:

– murdadagi tan jarohatlari, kiyim-kechakdagi shikastlar;

– murda tanasida va kiyimida kuyish alomatlarining borligi;

– jabrlanuvchi tanasida tirnoq va tish izlari, shuningdek biologik kelib chiqishga ega boshqa izlarning borligi (tupuk, qon, sperma, soch, shuningdek tirnoq ostidagi moddalarning biologik komponentlari);

– voqea sodir bo'lgan joyda kurashish izlari (jinoiyatchi tana a'zolari qismlari (tizzalar, bilaklar, kaftlar), shuningdek jinoiyatchi poyafzalining izlari);

– jinoiyatchi tomonidan foydalanilgan transport izlari, uning tanasi, poyafzali va kiyimidagi izlar, mikroizlar, (kiyim tolalari, qo'llanilgan qurollar mikrozarralarining borligi);

– gumonlanuvchi yashash joyida mikroizlarning mavjudligi, jinoyatni yashirish alomatlari.

4. Jinoyatchining shaxsiy xususiyatlari tahlili va jinoyat sodir etish sabablarini o'rganish:

– jinoiyatchining anatomik-fiziologik va shaxsiy xususiyatlari to'g'risida ehtimolli xulosalar (kriminlashish darajasi, xulq-atvorning jinoiy usullarini bilishi, jinoiy maqsad qo'yish va unga erishishda individual-operatsional afzalliklar);

– jinoyat sodir etishning ehtimolli motivlari (qasd, o'ch, rashk, affektiv zo'ravonlik va hokazo.);

– shaxsga oid aksentuatsiyalar va psixik anomaliyalar (muayyan vaziyatga mos kelmaydigan to'satdan yuzaga keladigan, noadekvat xulq-atvor, xatti-harakatlar, bema'ni shafqatsizlik, sadizm, jinsiy patologiya, harakatlarning tor yo'nalishda tanlanganligi va hokazo).

Profilaktika inspektori jinoiyatchi shaxslarni tekshirish yuzasidan jinoyat-qidiruv xodimlariga tavsiyalar berishi mumkin. Ko'pinch hollarda jinoiyatchi shaxslar ichki ishlar organlari xodimi, ya'ni profilaktika inspektori bilan yaxshi muomala qilishga harakat qilishadi, o'zini ijobiy tomondan ko'rsatib yuradi va bundan foydalanib, jinoyat sodir etadi.

Jinoyatchi shaxs o'zi haqida biror-bir yomon fikrni yuzaga keltirmaslikka harakat qiladi, asosan o'zini boy qilib ko'rsatmaydi. Agar jinoyat (masalan, o'g'rilik) sodir qilgan bo'lsa ham tanishlaridan hammaning oldida pul qarz so'raydi.

Profilaktika inspektori profilaktik hisobda turuvchi muqaddam sudlangan shaxslarning psixologik xususiyatlariga, ular tomonidan sodir etilgan jinoyatning turiga qarab sodir etilgan jinoyatning asosiy maqsadi va motivlari nimalardan iborat bo'lishi mumkinligini mukammal bilishi, jinoyatchi shaxs va sodir etilgan jinoyatning ijtimoiy xavflilik xususiyatidan kelib chiqib, zudlik bilan ehtiyot choralarini ko'rish lozim.

Sodir etilgan jinoyatlarni tez va to'la ochish hamda aybdorlarni fosh etish jinoyat-protsessual qonun hujjatlarining asosiy vazifalaridan biri hisoblanib, ushbu vazifalarning samarali bajarilishida jinoyatchi shaxslarning psixologik xususiyatlarini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganlaridek, «hech kim onadan jinoyatchi bo'lib tug'ilmaydi. Jinoyatchilik nomaqbul, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-axloqiy muhitdagina ildiz otishi mumkin»¹.

Darhaqiqat, nomaqbul, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-axloqiy muhitda yashagan insonlarda jamiyatga, ijtimoiy munosabatlarga nisbatan g'ayriijtimoiy xulq-atvor shakllanadi. Bunday xollarda shaxsda «normadan chetga chiqish» kuzatiladi. Buning mohiyatiga yetish esa profilaktika inspektoridan shaxsda g'ayriijtimoiy xulqning shakllanish mexanizmini chuqur o'rganishni talab etadi.

Shuning uchun ham, profilaktika inspektorlari shaxs salbiy xulq-atvorining ma'lum bir kriminogen vaziyat ta'siri ostida harakatlanishiga doir bilimlarga ham ega bo'lishlari lozim. Zero, bu bilimlar jinoyatlarni sodir etish mexanizmini anglashda va shu orqali jinoyatni ochishda o'z samarasini beradi.

Kriminogen vaziyat – bu mazmun bo'yicha jinoiy niyatning, jinoyat sodir qilish maqsadining shakllanishiga sharoit yaratuvchi va jinoiy natijaga erishish uchun qulay hisoblangan, ya'ni jinoyat sodir etishga ko'maklashuvchi vaziyat. Shuni qayd etish lozimki, har qanday kriminogen vaziyat o'z holicha mustaqil holda shaxsni jinoyat sodir etishga olib kelmaydi.

Chunki, jinoyatlar birdan yuzaga kelgan kriminogen vaziyatlar tufayli emas, balki insonning muayyan barqaror shaxsiy xislatlari va qadriyatlarini sababli sodir etiladi.

¹ Каримов И.А. Бунёдкорлик йўлидан. Т.4 // Истиклол имкониятларидан оқилона фойдаланаёлик. – Т., 1995. –Б.117-129.

Profilaktika inspektori belgilangan ma'muriy hududda nafaqat jamoat tartibini saqlash va fuqarolar xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklarning oldini olish, aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirish borasida, balki jinoyatlarni o_z vaqtida tez va to_la ochishda ham hamkorlikda faoliyatni amalga oshiradi.

Hamkorlik haqida so_z yuritilganida, yuridik adabiyotlarda uning ikki turi, ya'ni ichki va tashqi hamkorlik alohida ajratib ko_rsatiladi. Mazkur guruhlashdan kelib chiqib, hamkorlikning ichki turi bo_yicha profilaktika inspektorlari jinoyatlarni ochishda ichki ishlar idoralarining boshqa xizmat xodimlari bilan, tashqi turi bo_yicha esa jamoat tuzilmalari va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlik qilishadi.

Jinoyatlarni fosh etishda profilaktika inspektori ichki ishlar organlarining asosan quyidagi xizmatlari bilan hamkorlik qiladi:

– jinoyat qidiruv va uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash xizmati xodimlari;

– tergovchilar;

– voyaga yetmaganlar o_rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi inspektorlari;

– patrul-post xizmati naryadlari va jamoat tartibini saqlash bo_limlari xodimlari;

– ozodlikdan mahrum qilish bilan bog_liq bo_lmagan jazolar ijrosini ta'minlash xizmati xodimlari;

– ekspert-kriminalistika xizmati xodimlari.

Ma'lumki, profilaktika inspektori hududdagi operativ vaziyatni, aholi tarkibini chuqur va har tomonlama o_rganish, profilaktik hisobda turgan shaxslarning turmush tarzi va xulq-atvorini, hududning xususiyatlarini, transport vositalarining harakatini, dam olish va ko_ngilochar maskanlarni, diniy va ommaviy marosimlar o_tkaziladigan joylarni, savdo va maishiy xizmat ko_rsatish korxonalarining tovar-moddiy boyliklari saqlanadigan omborlarini, g_aznalarning joylashishi, texnik jihatdan himoyalanganligi va qo_riqlanish tartibini va mazkur hududni ta'riflovchi boshqa barcha ma'lumotlarni bilishi talab etiladi.

Profilaktika inspektorining aynan shu jihati ma'muriy hududda sodir etilgan jinoyatni ochishda uning boshqa xizmat xodimlariga nisbatan ustunlikka ega ekanligini namoyon etadi.

Umuman olganda, jinoyatchilikka qarshi kurashda profilaktika inspektorlarining hamkorligi joylardagi militsiya tayanch punktlari negizida kecha-yu kunduz uzluksiz ravishda tashkil etiladi. Bu esa sodir etilgan jinoyatlarni «issiq izdan» tez va to_la ochishda, qolaversa, ochilmay

qolgan jinoyatlarni ochish yuzasidan ham muntazam ravishda tezkor hamda tergov choralari ko'rishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Binobarin, hamkorlikka kirishishda profilaktika (katta) inspektori xizmatga jalb qilingan xodimlar bilan yo'riqnoma o'tkazish jarayonida ma'muriy hududda sodir etilib, ochilmay kelayotgan jinoyatlar tafsilotlari, xususan talon-toroj qilingan narsa-buyumlarning xususiyatlari va ularni sotish yoki o'tkazish mumkin bo'lgan joylar, jinoyat sodir etilgan joy va vaqti, shuningdek ichki ishlar organlarini qiziqtiruvchi barcha shaxslar aniq ma'lumot berib, yo'l-yo'riq ko'rsatadi.

Masalan, qotillik jinoyatini sodir etgan shaxsning psixologik xususiyatidan kelib chiqilsa, aksariyat hollarda ularning qoldirilgan izlarni yo'qotish kabi maqsadlarda jinoyat sodir etilgan joyga, asosan tungi paytlarda yana qaytib kelishi kuzatiladi. Profilaktika inspektorlari jinoyatchi shaxslarning aynan shu kabi psixologik xususiyatlarini inobatga olib, jamoat tartibini saqlash hamda patrul-post xizmati xodimlariga ko'rsatmalar berishi kerak bo'ladi. Bunda, jinoyatchi shaxs o'zini qay holatda tutishi mumkinligi, jinoyatchi shaxsning ijtimoiy xavfliligi (xavfli yoki o'ta xavfli retsivist ekanligi, qurollanganligi kabilar) haqida ham ma'lumot berish talab etiladi. Bu esa profilaktika inspektorlarining jinoyatchi shaxs psixologiyasini qanchalik bilishiga bog'liq bo'ladi. Chunki, har qanday holatda jinoyatchi shaxs sodir etgan jinoyatida o'zining xulq-atvorini, psixologik xususiyatlarini ma'lum darajada ifodalaydi. Buni u jinoyatni qachon, qayerda, qaysi vaziyatda, qaysi usul va vositalardan foydalanib sodir etganligida, jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasida yoki jinoyat izlarini mohirlik bilan yo'qotganligi kabilarda kuzatish mumkin.

Ma'lumki, ma'muriy hududda tayyorgarlik ko'rilayotgan yoki davomli jinoyatlarni aniqlash, ularni bartaraf etish, shuningdek sodir etilgan jinoyatlarni tez va «issiq izidan» ochish, qolaversa, ko'p yillardan beri ochilmay kelayotgan jinoyatlar va ularni sodir etgan aybdorlarni fosh etish profilaktika inspektorining jinoyatchilikka qarshi kurashish faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Profilaktika inspektorining jinoyatlarni ochish faoliyatiga oid psixologik muammolar ham mavjud va ularni bir qator yo'nalishlarda ko'rib chiqish mumkin:

birinchisi, jinoyatlarni fosh etishda profilaktika inspektorlarida jinoyatchi shaxsning psixologik xususiyatlariga oid bilimlarning yetishmasligi;

ikkinchisi, profilaktika inspektorlarining jinoyatlarni ochish faoliyatida jinoyatchi shaxslarga xos psixologik xususiyatlarni e'tiborga olgan holda militsiya tayanch punktiga xizmatga kelgan xodimlarning kuch va imkoniyatlaridan foydalanish bilan bog'liq kamchiliklarning mavjudligi;

uchinchisi, jinoyatlarni ochish faoliyatida profilaktika inspektorlarining psixologik tayyorgarlikka ega emasliklari.

Binobarin, jinoyatchilikka qarshi kurashishda shaxs xulq-atvorini, xususan uning jinoyatlarni «issiq izdan» tez va to'la ochishda jinoyat sodir etgan shaxsning psixologik xususiyatlarini e'tiborga olish lozimligiga hamma vaqt katta ahamiyat beriladi.

Darhaqiqat, jinoyatlarni ochish faoliyatida shaxsning xulqida namoyon bo'luvchi g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarni hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki g'ayriijtimoiy xulq, normadagi xulq kabi ko'p omilli bo'lib, u bir yoki bir qancha sabablarning oqibati emas, balki alohida olingan individual axloqiy ko'inishning ko'pomillar bilan bog'liqligi va ehtimolli xususiyati natijasidir. Shuning uchun ham jinoyatlarni ochishda profilaktika inspektori tomonidan jinoyatchi shaxsning tipik individual-psixologik xususiyatlari va axloqiy qarashlarini aniqlash katta ahamiyatga ega.

Bu borada profilaktika inspektori profilaktik hisobga olingan barcha toifadagi shaxslarning individual-psixologik xususiyatlari va axloqiy qarashlarini o'rganishi lozim. Buning uchun ushbu toifadagi shaxslarga nisbatan tipologik yondashish yuqori samara beradi. Biroq shaxslardagi bu psixologik xususiyat va axloqiy qarashlarni o'rganish, tahlil qilish va ular bo'yicha xulosalar yasash uchun albatta profilaktika inspektoridan psixologik bilimlarni talab etadi.

Zero, profilaktik hisobga olingan, qolaversa g'ayriijtimoiy xulq-atvorga ega va huquqbuzarlik sodir etishga moyil shaxslarning individual-psixologik xususiyatlari hamda axloqiy qarashlarini o'rganish ularning kelajakdagi xatti-harakatlari yuzasidan kriminologik bashorat qilish imkoniyatini yaratadi. Va bu ma'muriy xududda sodir etilgan jinoyatlarni ochish yuzasidan tasmollar tuzish, ularni tekshiruvdan o'tkazish va natijada jinoyatni ochishda ham alohida ahamiyat kasb etadi.

2-§. Jinoyat haqidagi xabarlar yuzasidan tergovga qadar tekshiruv va jinoyat ishlari bo'yicha surishtiruv o'tkazishning psixologik asoslari

Jinoyatchilikka qarshi kurashish va uning oldini olishda xalqimizning ijtimoiy va etnopsixologik xususiyatlarini hisobga olish muhimdir. Biz o'rganayotgan jinoyatlarni tergov qilish faoliyatining o'ziga xos jihatlari ko'pgina fanlar tomonidan o'rganiladi va ularning obyektini hisoblanadi. Masalan, kriminalistika, tezkor-qidiruv huquqi, pedagogika, jinoyat protsessi kabi fanlar ushbu muammoga o'z nuqtai nazaridan qaraydi va ilmiy

asosda tadqiq etadi. Jinoyatlarni tergov qilish profilaktika inspektori va jinoyatchi o'rtasidagi o'zaro psixologik qarama-qarshilikdir.

Yuridik psixologiya fani tergov harakatlarini o'tkazish, xususan, hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish, tintuv o'tkazish kabi tergov harakatlarining psixologik jihatlarini boshqa fanlar bilan uzviy aloqadorlikda tadqiq etadi. Bu borada bir qator psixolog olimlar (A. V. Dulov, A. R. Ratinov, V. V. Romanov, N. Selivanov, M. I. Yenikeyev, V. L. Vasilyev va boshq.) ilmiy ishlarida o'z qarashlarini bayon etishgan.

Surishtiruv organi boshlig'ining topshirig'iga binoan va uning rahbarligida ishlayotgan profilaktika inspektori ish bo'yicha JPKning 339-moddasida nazarda tutilgan vazifalarni bajarish uchun zarur, kechiktirib bo'lmaydigan barcha tergov harakatlarini amalga oshirishi mumkin.

Profilaktika inspektori jinoyat-protsessual qonunga asosan sodir etilgan jinoyat bo'yicha surishtiruvchi sifatida kechiktirib bo'lmaydigan tergov harakatlarini tergovga qadar tekshiruv hamda surishtiruv bosqichlarida o'tkazish vakolatiga ega. Bundan tashqari, profilaktika inspektori tergovchining yozma topshirig'iga asosan ma'lum bir tergov harakatlarini o'tkazishi mumkin.

Surishtiruvni amalga oshirayotganda, xuddi shuningdek tergovchining topshirig'ini bajarayotganda profilaktika inspektori JPKda belgilangan qoidalarga amal qilib, tergov harakatlari olib boradi va qarorlar chiqaradi.

Demak, yuqorida ko'rsatilgan uch holatda profilaktika inspektori jinoyat ishlari bo'yicha jinoyat protsessining ishtirokchisi sifatida faoliyat yuritadi.

O'zbekiston Respublikasi JPKning 329-moddasi mazmunidan kelib chiqqan holda jinoyat haqidagi ariza va xabarlarni ko'rib chiqish ish yuritishning tergovga qadar tekshiruv bosqichini o'z ichiga oladi.

Profilaktika inspektori bu bosqichda jinoyat haqidagi ariza va xabarlarni tekshirish faoliyatini amalga oshirib, bu jarayonda qo'shimcha hujjatlar, tushuntirishlar talab qilib olishi, shuningdek shaxsni ushlab turishi, hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirishi va ekspertiza o'tkazishi mumkin. Zero JPK talablariga ko'ra tergovga qadar tekshiruv vaqtida boshqa tergov harakatini o'tkazishi man qilinadi.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, profilaktika inspektorining tergov faoliyati tergov organlarining tergov faoliyatidan o'ziga xos jihatlari bilan farqlanadi.

Profilaktika inspektorlarining tergovga qadar tekshiruv jarayonida zarur ma'lumotlarni to'plamasligi, ayrim hollarda ularning noto'g'ri qarorlar qabul qilishiga olib keladi. Ish mobaynida profilaktika inspektorining

tafakkuri faqat o_z faoliyatini aks ettirib va yo_naltiribgina qolmay, ishning barcha ishtirokchilari va ishga daxldor shaxslarning aqliy (intellektual) darajasi, ruhiy holatlarini hisobga olishi, uni qiyoslashi, muvofiqlashtirib borishi lozim. U nafaqat o_zi, balki o_zgalar uchun ham fikr yuritishi, qaror va xatti-harakatlarni oldindan ko_ra olishi, ularni yo_naltirib turishi hamda ana shu barcha omillardan kelib chiqib, o_z xulq-atvorini idora etishi zarur. Ushbu jarayonda manfaatlari turli-tuman, bir-biriga mos kelmaydigan, ba‘zan butunlay qarama-qarshi bo_lgan shaxslar: profilaktika inspektori va jinoyat sodir etgan shaxs, so_roq qiluvchi va so_roq berayotgan hamda hokazolar to_qnash keladilar.

Tergov jarayonida turli-tuman manfaatlararo ziddiyatlar hamda ularning to_qnashuvi tergov taktikasiga nisbatan ehtiyojni keltirib chiqaradi.

Psixologik nuqtai nazarda yondashilganida, ushbu jarayon ma‘lum darajada profilaktika inspektori va ishda ishtirok etayotgan boshqa shaxslar aql-idroki, irodasi, xarakteri va axloqiy tamoyillarining o_zaro kurashi tarzida namoyon bo_ladi

Jinoyat haqidagi ariza yoki xabar yuzasidan jinoyat ishini qo_zg_atish va zudlikda zarur, kechiktirib bo_lmas tergov harakatlarini o_tkazish talab qilinadigan vaziyatlar profilaktika inspektori uchun psixologik jihatdan o_ta murakkab jarayon hisoblanadi. Chunki, profilaktika inspektori aksariyat hollarda hodisa sodir bo_lgan joyga birinchi bo_lib yetib keladi va shu bois zudlik bilan hodisa tafsilotlari haqida birlamchi ma‘lumotlarga ega bo_lishi, jinoyat sodir etgan shaxs haqida ma‘lumotlar to_plash choralari ko_ishi lozim hisoblanadi. Tergov-tezkor guruhi zudlik bilan yetib borolmaydigan olis qishloq va ovullarda jinoyat sodir etilishi esa ushbu masalani yanada dolzarblashtiradi.

Qolaversa, amaliyotda ko_pchilik holatlarda tergovga qadar tekshiruv profilaktika inspektorlari tomonidan amalga oshiriladi. Shu bois, profilaktika inspektorining tergovga qadar tekshiruv, shuningdek surishtiruv bosqichlaridagi tergov faoliyatining psixologik jihatlarini yoritish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jinoyat ishlari bo_yicha profilaktika inspektorining tergov-tezkor guruhisiz hodisa sodir bo_lgan joyga chiqishi, u yerni ko_zdan kechirishi va boshqa harakatlarni bir o_zi amalga oshirishi eng qiyin vaziyat deb hisoblash mumkin. Bunday vaziyatlarda to_g_ri qarorlar qabul qilish bir qator bilim, qobiliyat, fazilat, malaka va ko_nikmalar: ishlar bo_yicha samarali reja tuzish, his-tuyg_ularni jilovlash, psixologlar tili bilan aytganda, ruhiy tetiklik, hissiy barqarorlik va o_zini uyushtira bilish kabi sifatlarni talab etadi.

Profilaktika inspektori tergovga qadar tekshiruv va surishtiruv jarayonida talab qilinadigan o'ziga xos jihatlarni hech qachon diqqat-e'tibordan chetda qoldirmasligi zarur. Jumladan, tergov harakatlari mobaynida hissiyotlarga berilmaslik va shoshma-shosharlikka yo'l qo'ymasligi, o'zining irodaviy sifatlarini namoyon qilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Kasbiy vazifani muvaffaqiyatli ado etish, jinoyatni tezroq ochish, ishda aybdor shaxslarni fosh etish uchun yo'l yo'riq va vositalarni tanlash, surishtiruv yo'nalishlarini belgilashga har tomonlama, atroflicha fikr-mulohaza qilgan holda yondashish muhimdir.

Ma'lumki, profilaktika inspektori davlat nomidan faoliyat olib borar ekan, hokimiyatining obro'si va hukmron kuchi unga ruhiy madad beradi, uning qo'lida turli sanksiyalarni qo'llash imkoniyati mavjud bo'ladi. Bu vakolatdan oqilona va qonun doirasida foydalanish profilaktika inspektoriga qo'yiladigan asosiy kasbiy talablardan biridir.

Tergov harakatlariga xalaqit berish maqsadida, jinoyat sodir etgan shaxs hamda uning sheriklari har doim tergov harakatining yo'nalishi, tergovchining niyatlari va qarashlari haqida imkon boricha ko'proq ma'lumotlarni bilib olishdan manfaatdor bo'ladi. Profilaktika inspektori tomonidan daliliy materiallar, o'z maqsadi va yo'nalishlarini bevaqt oshkor etib qo'yilishi tergovni muvaffaqiyatli olib borishga to'sqinlik qiladi va jinoyatni fosh etishda yordam bergan shaxslar hayotini xavf ostida qoldiradi.

Profilaktika inspektorining tergov faoliyatida mavjud axborotni tushunishi, yetishmayotganlarini izlashi, zarur ma'lumotlarni to'g'ri tanlashi uchun sharoit yaratadigan kriminalistik bilim va amaliy tajriba ham katta ahamiyat kasb etadi. Bu bilim va tajriba sodir etilgan jinoiy hodisani xayolda qayta tiklashda ham zarur hisoblanadi.

O'tmishdagi voqeani idrok qilish, xotirada tiklash va bilish doimo ayni paytdagi faktlarga asoslanadi. Shu sababli, mavjud faktlar va hodisalarning bo'lib o'tgan voqea bilan o'zaro aloqalarining fikriy modellarini qurish zarurati yuzaga keladi. Bilish jarayonlari (diqqat, xotira, tafakkur, sezgi, idrok, xayol) o'rganilayotgan faktlar, hodisalarni tekshirish va baholashga qaratilgan amaliy faoliyatni ham qamrab oladi. Ushbu faoliyat jarayonida aniqlangan obyektlar bilan keng miqyosdagi eksperimentlar o'tkaziladi¹.

Umuman olganda, profilaktika inspektorining tergov faoliyati nazariy bilish faoliyati emas, balki jinoyat-protsessual qonun hujjatlari bilan tartibga solinadigan amaliy faoliyatdir. Qonun nafaqat tergov harakatlarining

¹ Qarang: *Селиванов Н.* Критерии допустимости применения тактических приемов при расследовании // *Законность.* – 1999. – №. 3. – С. 23–28.

ayrimlarini tartibga soladi, balki butun tergovning muayyan tartibini belgilaydi.

Odillik, xolislik, ayblovga yon bosishdan qochish, qonunni og_ishmay amalga oshirish – tergov faoliyatining asosiy talablari hisoblanadi.

Profilaktika inspektorining kasbiga xos xislatlar orasida aqliy, irodaviy va kommunikativ xislatlar birinchi darajali ahamiyatga egadir.

Profilaktika inspektorining asosiy vazifalaridan biri mavjud nizoli vaziyatni to_g_ri baholash, yuzaga kelishi mumkin bo_lgan psixologik (motivatsion, aqliy, tarbiyaviy, emotsional va boshq.) to_siq_larni hushyorlik bilan bartaraf etish hisoblanadi va bu juda muhimdir. Bunda esa unga vaziyatni tizimli tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish va aniqlashtirish ijobiy yordam berishi mumkin. Profilaktika inspektori o_zigako_ishatilayotgan psixologik qarshiliklarni inobatga olishi va unga tayyor turishi lozim, chunki ular xolisona tergov qilishga xalal beradi. Profilaktika inspektori muayyan usulni tanlar ekan, uning harakat strategiyasi ushbu vaziyatda eng yaxshi strategiya ekanligini ko_ishatadigan asosga ega bo_lishi, o_z tanlovini mustahkamlashga, uni miqdorga oid ma_lumotlar bilan asoslashga harakat qilishi kerak.

Yuridik adabiyotlarda tergovda «psixologik reagent»dan foydalanish bilan bog_liq taktik usullar qo_llashga yo_lqo_yilishi ko_ishatilgan. Bunday reagentlar vazifasini narsa, inson, fakt, hodisa, xabar bajarishi mumkin. Psixologik reagentlar ulardan foydalanishning asl maqsadiga ko_ra muayyan tarzda tizimlashtiriladi (misol uchun tergov qiluvchi shaxsning «bexoslik» omilini ishga solishi gumon qilinayotgan shaxsda xuddi uning sherigi fosh etilgandek taassurot uyg_otishi mumkin). Bunda aybsiz odamga u farqsiz bo_ladi, aybdor ongida esa u jinoyat bilan bog_lanadi va tegishli shartsiz reaksiyalarni keltirib chiqaradi. Ushbu reaksiya ko_pincha tashqaridan, masalan, shaxs qo_llaining qaltirashi, yuz mimikalari va ovoz tembrlarining o_zgarishi va hokazolarda ko_inib turadi¹. So_roq qilinuvchining har bir ko_ishatuvini diqqat bilan tekshirib ko_ish, o_z faoliyatini qonun va axloq normalari doirasida yuritish tergovni olib boruvchi shaxsga nisbatan qo_yiladigan asosiy talablardan biridir.

Tergov harakatlarini olib borishda ko_pgina holatlarda voqeadagi mujmallik va har xil subyektiv sabablar kriminalistikadan, sud tibbiyotidan mutaxassislarni jalb qilishni taqozo etadi, ikkinchi tomondan mutaxassisning fikri shartdir. Bunday shaxslar shu sohada maxsus bilim, ko_nikma va tajribaga ega bo_ladilar.

¹ Qarang: *Селиванов Н. Этико-тактические вопросы расследования.* – М., 1999. – С. 55.

Psixologik tahlil obyekti sifatda surishtiruv jarayoni quyidagilarga bo'lib o'rganiladi.

Umumiy surishtiruv jarayoni. Bunda surishtiruvchi (profilaktika inspektori) turli umumiy shakl va usullar, faoliyat orqali maqsadga erishadi. Buning uchun turli tasmollar, operatsiyalar o'ylanadi va ko'pgina shaxslar yordamida amalga oshiriladi. Guvoh va gumon qilinayotgan shaxslar bilan muloqotga kirishish orqali ma'lumotlarni yig'ishda ichki va tashqi bir-biriga mantiqiy bog'liqlik yuzaga keladi, uning ehtimollik darajasi ham har xil bo'ladi.

Alohida tergov harakati. Bu ma'lum bir vaqtda bir nechta subyektlar bilan bog'liq bo'ladi. Ushbu surishtiruv jarayoniga ochiq rivojlanuvchi tizim sifatida qarash mumkin, bunda har bir shaxs alohida vazifani bajaradi.

Tergov harakatini olib borishda profilaktika inspektorining ruhiy holati ham ko'p marsani belgilaydi. Jumladan:

- jinoyat sodir bo'lganidan keyin jabrlanuvchilarning hissiy-emotsional holati tergovchida ruhiy o'zgarishlarni yuzaga keltirishi;
- jinoyat sodir bo'lganidan keyin shaxsni aniqlashdagi holatlar;
- yomon holatni yuzaga keltiruvchi obyektlar (masalan, murda).

Surishtiruv faoliyatida voqealarning xayoliy modelini tiklashda profilaktika inspektoriga quyidagi ikkita yo'l-tavsiya etiladi:

- obyektiv borliqni qabul qilish (ya'ni xonalarni, narsalarni ko'rish va hujjatlarni tekshirish);

- og'zaki, yozma xabar va dalillarni qabul qilish.

Surishtiruv faoliyatini olib borishda profilaktika inspektoridan quyidagi xususiyatlarning mavjud bo'lishi talab etiladi:

- o'z-hissiyotini boshqara olishi;
- tergov davomida gumon qilinayotgan shaxsning ruhiy-emotsional holatini tushunishi;
- shaxsning to'liq gapirishi uchun sharoit yaratib berishi va uni eshitib bilishi.

Surishtiruv faoliyatida har xil soha kishilarini tergov qilish jarayonida kerakli va zarur ma'lumotlar olinadi, lekin bu ma'lumotlar hamma vaqt ham aniq va ravshan bo'lavermaydi. Shuning uchun ham turli voqea-hodisalar bilan taqqoslash, umumlashtirish, tajribali xodimlardan maslahat so'rash muhim ahamiyatga ega bo'lib, ishning samarali bo'lishi hamda muvaffaqiyatli yakun topishida katta rol o'ynaydi.

Yuridik psixologiyada hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish ma'lumot to'plash jarayoni bo'lib, ularni analiz va sintez qilish, taqqoslash va umumlashtirish orqali zarur ma'lumotlarni yig'ish, demakdir.

Yurisprudensiyada esa hodisa sodir bo'lgan joy – jinoyat, baxtsiz hodisa, tabiiy ofat yoki hodisa alomatlari bor deb qaraladigan joy. Hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish, ba'zi bir o'xshashliklar mavjud bo'lishiga qaramay, shaxsni tanib olish uchun ko'rsatish, tergov eksperimenti kabi tergov harakatlaridan mohiyati jihatidan farq qiladi.

Hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish alohida tergov harakati bo'lib, jinoyat izlarini, boshqa daliliy ashyolarni izlab topish, voqea tafsilotini hamda ushbu jinoiy ishga aloqador boshqa tafsilotlarni aniqlashga qaratilgan bo'ladi. Ayni chog'da ko'zdan kechirish boshqa tergov harakatlari: ushlab turish, narsa va hujjatlarni taqdim etish, tergov eksperimenti, ko'rsatuvlarni hodisa sodir bo'lgan joyda tekshirish kabi tergov harakatlarini o'tkazish jarayonlarining tarkibiy qismi hamdir. Chunki, ushbu tergov harakatlarini o'tkazishning ma'lum bir bosqichi hodisa joyi yoki ko'zdan kechirish jarayoni bilan uzviy bog'liq bo'ladi.

Hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish tergov harakatining eng muhim, asosiy shartlaridan biri aynan shu paytda olinadigan taassurotlar, ma'lumotlarning o'zini boshqa tergov harakatlari yordamida to'ldirib bo'lmazligidir. Jinoyatchining qo'l va oyoq izlari, foydalangan quroli haqidagi ma'lumotlar bunga misol bo'la oladi. Voqea joyidagi taassurotlar tergovchilarga tafsilotlarni to'g'ritasavvur qilish imkonini beradi.

Hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish harakati zudlik bilan o'tkazilishi shart. Chunki, ushbu harakatni kechiktirish yoki ortga surish shart-sharoitning o'zgarishi, izlar va daliliy ashyolarning g'oyib bo'lishi, hodisani ko'rgan va guvohlarning muhim holatlarni unutib qo'yishlari ehtimolini keltirib chiqaradi. Bunda profilaktika inspektoridan hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish, daliliy ashyolarni topish va olish, ularni bayonnomada qayd etish, izlarni topish va olish, kerak bo'lsa, nusxa ko'chirishi talab etiladi.

Ko'zdan kechirish mobaynida ma'lumotlarning kamligi yoki tanqisligi sharoitida qiyin masalalarni fikran hal etishga to'g'ri keladi. Profilaktika inspektori bunday vaziyatda qo'lga kiritilgan faktlar, ayrim tafsilotlarga tayanadi, o'z bilimlari, professional va hayotiy tajribasidan ko'pincha hissiy (intuitiv) ehtimollik va taxminlar darajasida foydalanadi. Ayniqsa, guvohlarsiz sodir etilgan tan jarohati yetkazish jinoyatlarini ochishda profilaktika inspektorining ijodiy tasavvuri va sezish qobiliyatining foydasi kattadir.

Hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish jarayonida o'tkaziladigan psixologik tahlil sodir etilgan jinoyat motivi xususida xulosa chiqarish imkonini tug'diradi. Jinoyat xarakter chizgilari (ochko'zlik, shafqatsizlik),

irodaviy xususiyatlar (janggarilik, qo_rqoqlik)ni aks ettirishi mumkin. Voqea joyidagi tafsilotlar ba'zan subyekt tomonidan jinoyat sodir etilayotgan paytdagi uning ayrim psixologik, xususan hissiy (emotsional) holatini ham namoyon etadi.

Shuningdek, tergov harakatida jinoyat izining qalbaki ekanligini ko__yidagi holatlarda kuzatish mumkin:

- jinoyat izining ochiq-oydin qoldirib ketilishi;
- jinoyat sodir bo__lgan joyda har xil izlarni qoldirish;
- jinoyat sodir etilgan joyda jinoyat izlari yashirilganligining aniq ko__inib turishi bilan izohlash mumkin.

Hodisa sodir bo__lgan joyni ko__zdan kechirish tergov harakatini ishlab chiqishning taxminiy 7 ta holati mavjud:

- 1) hodisa sodir bo__lgan joyni umumiy holda ko__zdan kechirish;
- 2) yon-atrofdagi joylarni ko__zdan kechirish;
- 3) xonalarni ko__zdan kechirish;
- 4) predmetlarni ko__zdan kechirish;
- 5) xonadagi hujjatlarni ko__zdan kechirish;
- 6) agar shaxs o__lgan bo__lsa, jasadni ko__zdan kechirish;
- 7) pochta, telegraf, xatlarni ko__zdan kechirish.

Shunday ekan, hodisa sodir bo__lgan joyni ko__zdan kechirish – bu, tergovda katta ahamiyatga ega bo__lgan hodisa sodir etilgan joydagi moddiy obyektlar, ularning belgilari hamda jinoyat izlarining o__za__ aloqalarini aniqlash hamda bevosita tadqiq etishdir.

Boshqacha aytganda, hodisa sodir bo__lgan joyni ko__zdan kechirish - jinoyat ishini ko__rib chiqish uchun ahamiyatga ega masalalarni hal qilishda yuz bergan jinoiy hodisani tavsiflovchi ma'lumotlarni faol, maqsadli idrok etish, olingan axborotni tahlil qilish va sintezlash sifatida ta'riflanadi.

Hodisa joyidagi holatni idrok etish profilaktika inspektoriga hodisa-ning manzarasini tasavvur qilish imkonini beradi, tasmollarni ilgari surish, boshqa tergov harakatlarini o__tkazish uchun zarur empirik baza yaratadi. Albatta, hech qanday hujjat tahlili, bayonnomalar, chizmalar, fotosuratlar bevosita ko__rishning o__mini bosa olmaydi, aynan shuning uchun ham avvalgi yillarda sodir etilgan va ochilmagan jinoyatlarni tergov qilish jara-yonida va hatto vaziyat katta o__zgarishlarga uchragan hollarda ham voqea joyida bo__lish va u bilan tanishish maqsadga muvofiq bo__ladi.

Juda ko__p hollarda hodisa sodir bo__lgan joyni ko__zdan kechirish tergovning boshlang__ich bosqichiga xos bo__lgan noaniq tergov vaziyati sharoitida o__tkaziladi. Bunda nima yuz bergani, ya'ni hodisada jinoyat tarkibining bor yoki yo__qligi yoxud baxtsiz hodisa ekanligi, jinoyat

ehtiyotsizlik yoki qasddan sodir etilgan bo_lishi, jinoyatning turi, uni kim va nima uchun sodir etgan bo_lishi mumkinligi kabilar aniqlanadi.

Profilaktika inspektori jinoiy hodisa haqida xabarni olgach, hodisa joyiga chiqishda ruhiy, tashkiliy va texnik jihatdan tayyorgarlikka ega bo_lishi lozim.

Profilaktika inspektorlari odatda, aksariyat hollarda, tan jarohati yetkazish hamda maishiy turmush sohasidagi nizolar bilan bog_liq jinoiy hodisalar yuzasidan hodisa sodir bo_lgan joyga chiqishlariga va u yerni ko_zdan kechirishlariga to_g_ri keladi. Ushbu holatda janjalli vaziyat tugallanmagan yoki tugab jabrlanuvchi ma'lum darajada tan jarohatlari olgan, qilmishni sodir etgan shaxs (shaxslar)ning kimligi aniq yoki aniq emas bo_lishi ham mumkin. Berilgan xabar mazmunidan kelib chiqib, profilaktika inspektori aynan shu kabi vaziyatlarda qanday harakatlanish va o_zini qanday tutish kerakligi, o_zini yo_qotib qo_ymasligi yuzasidan o_zini o_zi ruhiy jihatdan tayyorlashi talab etiladi.

Boshqacha aytganda, profilaktika inspektori voqeaning xususiyatiga qarab o_z harakatlarining umumiy tartibini modellashtirishi va yuzaga kelishi mumkin bo_lgan to_siqarni bartaraf etish yo_nalishlarini shakllantirishi lozim.

Hodisa sodir bo_lgan joyni ko_zdan kechirish ishtirokchilarining qarashlari psixologik jihatdan mos kelishi ham alohida ahamiyatga ega. Profilaktika inspektori hokimiyat vakolatiga ega bo_lsa-da, shaxslararo munosabatlarning psixologik jihatlarini ham e'tibordan chetda qoldirmasligi kerak. Uning ko_zdan kechirish ishtirokchilari bilan ish yuzasidan xushmuomala munosabatda bo_lishi bir guruh shaxslar ishtirok etadigan hodisa sodir bo_lgan joyni ko_zdan kechirishni muvaffaqiyatli o_tkazishning muhim shartidir.

Puxta ishlangan dastlabki ruhiy, tashkiliy va texnikaviy tayyorgarlik hodisa sodir bo_lgan joyni ko_zdan kechirish muvaffaqiyatli o_tishining garovidir.

Guvoh, jabrlanuvchi, gumon qilinuvchilarni so_roq qilishning psixologik xususiyatlari. Ilmiy adabiyotlarda guvohlar va jabrlanuvchilarning so_roq qilish psixologiyasiga ilgaridan katta e'tibor berilgan. Bunday qiziqish, avvalo, guvohlar va jabrlanuvchilarning ko_satuvlari jinoyat ishlari bo_yicha eng kerakli dalil manbai ekanligi bilan izohlanadi.

Umuman olganda, profilaktika inspektori jinoyatga oid ariza va xabarlarni ko_rib chiqishda protsessual talab yoki o_zining tashabbusi bilan guvoh, jabrlanuvchi, gumon qilinuvchi va gumon qilinuvchilarni so_roq qilishi mumkin sanaladi.

Boshqacha aytganda, profilaktika inspektori guvoh, jabrlanuvchi, gumon qilinuvchilarni surishtiruv davrida o'z tashabbusi bilan, dastlabki tergov davrida esa, tergovchi yoki prokurorning topshirig'iga asosan so'roq qilishi mumkin.

Profilaktika inspektori tergovga qadar tekshiruvni olib borish jarayonida jinoyat ishi qo'zg'atilmaganligi bois so'roq qilish tergov harakatini o'tkazmasa-da, biroq hodisa shohidlari va ishtirokchilaridan tushuntirishlar olishi talab etiladi. Garchi mazkur tushuntirishlar olishning protsessual mexanizmi jinoyat-protsessual qonunda bayon etilmagan va o'tkazish tartibi belgilanmagan bo'lsa-da, ushbu jarayonga nisbatan ham so'roq qilishdagi kabi psixologik jihatlarga e'tibor qaratishi lozim hisoblanadi.

Guvohlar va jabrlanuvchilarni so'roq qilishga tayyorlashning psixologik jihatlari quyidagi asosiy tarkibiy qismlardan iborat:

1) ish materiallari hamda aniqlanishi kerak bo'lgan masalalar doirasini tahlil qilish;

2) so'roq qilinayotgan shaxsni o'rganish;

3) so'roq qilish muvaffaqiyatli o'tishi uchun zarur shart-sharoitni ta'minlash;

4) profilaktika inspektorining o'zini tutishi.

Kutilayotgan guvoh yoki jabrlanuvchini so'roq qilish bir qarashda oson tuylsa ham, bari bir jiddiy va puxta tayyorgarlik ko'rishni talab qiladi. So'roq qilishning asosini reja tashkil qiladi. Unda aniqlanishi talab etilayotgan masalalar doirasi, ularning mazmuni va ketma-ketligi belgilanadi. So'roqdan avval ish hujjatlarini o'rganish, guvoh, jabrlanuvchini so'roq qilish chog'ida aniqlanishi lozim bo'lgan masalalar doirasi bilan bog'liq dalillarni tahlil qilish zarur. Agar profilaktika inspektori so'roq qilishga yaxshi tayyorlanmagan bo'lsa, uni ishonchsizlik bilan va maqsadga qaratilmagan holda o'tkazadi.

So'roqni boshlashdan avval profilaktika inspektori guvoh va jabrlanuvchilarning shaxsini o'rganishi zarur hisoblanadi. Bunga ularning tarjimai holi, kasbi, ma'lumoti, ish sharoiti, turmush tarzi, tibbiy-fiziologik rivojlanish darajasi, qiziqishlari, eng muhim shaxsiy psixologik xislatlari, jinoyat hodisasini qanday qabul qilishi, jinoiy qilmishga, jinoyatchiga munosabati kabi ma'lumotlar kiradi.

Profilaktika inspektori so'roqning rasmiy qismidan avval bo'ladigan bevosita muloqotda kuzatish orqali guvoh, jabrlanuvchining tashqi qiyofasi, ularning madaniyat darajasi, nutqi, mimikasi, imo-ishoralari, o'ziga xos xususiyatlari, ko'zga tashlanadigan psixofiziologik reaksiyalari va holatlari (parishonligi, hayajonlanishi, qo'rqishi, xotirjamligi, befarq-

ligi, adovati va h.k.), tergovga yordam ko'rsatish istagi, yoki aksincha, juda kam va muhim bo'lmagan ma'lumotlar bilan cheklanib qolishga intilishi kabilar haqida ma'lumot oladi. Guvoh, jabrlanuvchining shaxsiga oid ma'lumotlar tergovchiga ruhiy aloqa o'rnatishi, so'roqning eng oqilona taktikasini tanlashida katta yordam beradi.

Guvohlar va jabrlanuvchilarni chaqirtirishning aniq vaqti va usuli, shuningdek, tergov harakatini o'tkazish sharoiti va joyi psixologik ahamiyatga ega. Umumiy qoidaga ko'ra, guvoh va jabrlanuvchilar iloji boricha so'roq qilinishlari kerak. Biroq, bunda ham istisnoli holatlar mavjud. Agar jabrlanuvchi, ba'zan esa guvohlar ham sodir etilgan jinoyat natijasida ruhiy hayajon, zo'riqish, parishonlik holatida bo'lsalar, so'roqni kechiktirish lozim.

Shuningdek, psixologiyada ma'lum bo'lgan reminissensiya (lotincha *reminiscor* — esga olmoq, uylab chiqmoq), ya'ni takroran xayolda tiklashni yaxshilash hodisasini inobatga olish kerak. Bunda profilaktika inspektori yetarlicha to'liq bo'lmagan, tushunish qiyin holatlarga ega ko'rsatuv bergan va ko'rsatuvchi ish uchun juda muhim bo'lgan guvoh va jabrlanuvchilarni takroran so'roq qilishi tavsiya etiladi.

Odatda, birinchi so'roq natijasida assotsiativ aloqalar yuzaga kelgandan so'ng o'z-o'zidan eslash jarayoni davom etishi hamda guvoh, jabrlanuvchi jinoyat voqeasi huquqbuzar sha'ni bilan bog'liq muhim faktlar va holatlarni eslashi ham mumkin.

Psixologik nuqtai nazardan guvoh yoki jabrlanuvchini chaqirtirish vaqtini belgilashda ish manfaatlarini chaqirtirilayotgan shaxslarning imkoniyatlari va manfaatlari bilan uyg'unlashtirishga harakat qilish kerak. Chaqiruv so'roq qilina yotganlarga ortiqcha qiyinchilik va noxush kechinmalar tug'dimasligi lozim. Aks holda bu ularning profilaktika inspektorlari bilan bo'ladigan munosabatlarini qiyinlashtirishi mumkin. Masalan, chaqirilayotgan odamni o'z vaqtini rejalashtira olmaydigan tarzda chaqirtirish, qabulxonada uzoq vaqt kutishga majbur qilish, so'roqni boshqa vaqtga ko'chirish kabilar bo'lmashligi maqsadga muvofiq. Yaxshisi, guvoh va jabrlanuvchini ishdan tashqari vaqtda, o'quvchilarni esa mashg'ultdan oldin yoki keyin so'roq qilish tavsiya etiladi.

Agar chaqirtirilayotgan shaxslarning ko'rsatuvlari ish uchun ahamiyatga ega bo'lsa, unda ularni chaqirtirish uchun telefondan foydalangan ma'qul. Telefon qo'ng'irog'ina faqat psixologik aloqa o'rnatishga yordamlashadi, balki so'roqqa chaqiriladigan odamlarga xos bo'lgan va kerakli faktlarni eslashga to'siqlik qiladigan ortiqcha hayajonni yo'q qilishga imkon beradi.

Guvoh yoki jabrlanuvchini uning uyida yoki militsiya tayanch punktida soʻroq qilinishi ham psixologik jihatdan maʼqul hisoblanadi. Bunda tezkor-taktik mulohazalarga koʻra jabrlanuvchi, guvohni chaqirtirish faktini oshkor etmaslik nazarda tutiladi.

Soʻroq qilish joyini tanlashda axloqiy masalalarni ham unutmaslik kerak. Yoshi oʻtgan yoki bemor shaxslarni militsiya tayanch punktiga chaqirtirish tavsiya etilmaydi. Ushbu holda uning oʻzi mazkur shaxslarning oldiga borib, ularni soʻroq qilgani maʼqul. Bu borada profilaktika inspektori aksariyat hollarda tergovchining yozma topshirigʻi asosida guvoh yoki jabrlanuvchini uning turar joyiga borib soʻroq qiladi. Bemor jabrlanuvchi yoki guvohni faqat shifokor ruxsati bilan u davolanayotgan joyda (kvartira yoki shifoxonada) soʻroq qilish mumkinligi holatiga ham alohida eʼtibor qaratish taqozo etiladi.

Soʻroqning muvaffaqiyati koʻp jihatdan u oʻtkazilayotgan joydagi sharoitga bogʻliq. Guvohlarni soʻroq qilish tartibining psixologik asoslari qonun normasida keltirilgan. Xususan, aynan bir ish boʻyicha chaqirtirilgan guvohlar alohida-alohida va boshqa guvohlar yoʻqligida soʻroq qilinadilar, bunda tergovchi aynan bir ish boʻyicha guvohlar oʻzaro muloqot qila olmasliklari chorasini koʻrishi kerak. Bundan tashqari, voyaga yetmaganni soʻroq qilishning protsessual tartibi hamda soʻroq qilish muddati kabilarni ham aynan shaxsning psixologik xususiyatlari asosida shakllantirilgan protsessual norma tariqasida eʼtirof etish mumkin.

«Koʻz koʻzga tushib», begona shaxslarsiz soʻroq qilish eng muhim psixologik qoida hisoblanib, profilaktika inspektori odatda, guvoh va jabrlanuvchilarni militsiya tayanch punktida soʻroq qiladi. Aynan shuning uchun ham militsiya tayanch punktidagi xizmat xonasining sharoiti muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Chunki, oddiylik, ishga oid va qatʼiy uslub koʻpincha ishonchli va jiddiy suhbatga sharoit yaratadi. Bu borada soʻroq davomida profilaktika inspektori hamda jabrlanuvchi yoki guvohning diqqatini hech narsa chalgʻitmasligi, soʻroq paytida telefon qoʻngʻinlari-ning boʻlmasligi, xonaga boshqa xodimlar va begona shaxslarning kirib xalal bermasligi talab etiladi.

Profilaktika inspektori guvoh va jabrlanuvchilar bilan bir qatorda tergov qilish faoliyati davomida gumon qilinuvchilarni ham soʻroq qilishi mumkin. Biroq gumon qilinuvchilarni soʻroq qilish masʼuliyat va ehtiyotkorlik bilan yondashishni talab etadi.

Odatda, aybdorlar javobgarlikdan boʻyin tovlash va jinoyatda ishtirokini yashirishga intilib, atrofdagilardan jinoyat bilan bogʻliq kechinmalarini yashirishga harakat qiladi. U oʻz xotiralarini tashqi koʻinish-

lardan asraydi va bu bilan ularga doimo jonli tus beradi, kechinmalarini yashirar ekan, ularni yanada keskinlashtiradi. Pirovard natijada o_z hissiyotlari va fikrlarini yashirishga qaratilgan harakatlar uning ruhiy jarayonlarida kuchli buzilishlar hosil qiladi.

Gumon qilinuvchining protsessual maqomi yuridik jihatdan jiddiy farq qilsa-da, psixologik jihatdan bu farq unchalik muhim hisoblanmaydi. Chunki, gumon qilinuvchining ruhiy holati tez-tez o_zgarib turadi, goh o_ziga nisbatan ishonch paydo bo_lib, faol qarshilik ko_rsatishga intilsa yoki profilaktika inspektorining imkoniyatlarini yetarlicha baholamasligi kuzatilsa, ba'zida esa aksincha, unda g_anginlik, depressiv holat, parishonlik, irodasizlik kabi ruhiy kechinmalar namoyon bo_lishi mumkin.

Gumon qilinuvchi ko_pincha ishning holati, mavjud dalillarning mazmuni haqida ko_proq ma'lumotga ega bo_ladi. Biroq gumon qilinuvchida bir-biriga o_xshash ko_pgna psixologik holatlar, ya'ni maqsadlar va motivatsiyalar kuzatilib, bu ularning xatti-harakatlarida ham ko_inadi.

Shuni yodda tutish kerakki, so_rog qilinayotgan shaxsning ruhiy holati, harakat motivlari, shaxsiy xislatlari uning tergovdagi xatti-harakatlarini belgilab olishga va shundan kelib chiqib, ularga nisbatan qay tarzda psixologik yondashish lozimligiga, bu borada eng samarali taktik va psixologik usullarning tanlanishini aniqlab olishga asos yaratadi.

So_rogda gumon qilinuvchi turli-tuman hissiyotlarni boshdan kechirishi mumkin. Aksariyat hollarda, jinoyat sodir etgan shaxs fosh bo_lishdan va, albatta, jazolanishdan qo_rqadi. Bu holat, odatda, uning ruhiyatiga og_ri ta'sir ko_rsatadi, irodasiga muayyan darajada bosim o_tkazadi, yuzaga kelgan holatlarni to_g_ri baholash imkoniyatini pasaytiradi, o_zini nazorat qilishini yomonlashtiradi, uni ruhan siqilgan, depressiv holatga solib qo_yadi.

Qo_rquv, odatda jinoyat sodir etgan shaxsda uni jinoiy javobgarlikka tortishdan ancha avval paydo bo_ladi. Bunday psixologik holatlar so_rog qilinayotgan shaxs bilan psixologik aloqa o_matishni qiyinlashtiradi, so_rog samaradorligini pasaytiradi.

Ba'zida gumon qilinuvchi so_rog paytida yuz bergan voqeadan qarindoshlari va yaqinlari, do_stlari, xizmatdoshlari, qo_shnilari xabardor bo_lishi mumkinligidan xavotirlanib, uyalishi natijasida qattiq ruhiy larzaga duch kelishi mumkin. Nega deganda, har qanday shaxs, hatto qat'iy shakllangan g_ayriijtimoiy qarashlarga ega bo_lgan shaxs ham atrofdagilarning bahosi va fikrlariga befarq bo_lmaydi.

Bu borada oshkor bo_lishni istamaslik juda kuchli motiv bo_lib, ko_p jihatdan gumon qilinuvchining xatti-harakatini belgilab beradi. Profilak-

tika inspektori so_rog vaqtida gumon qilinuvchida shunday motiv borligini payqab qolsa, unda u so_rog qilinayotgan shaxsni to_g_ri va to_liq ko_satuv berish zarurligiga ishontirishi zarur hisoblanadi. Faqat shugina, biroz bo_sa-da, yaqin odamlarning xayrixohligini saqlab qolishga yordam beradi.

Aksariyat hollarda, birinchi marta jinoyat sodir etgan hamda ilgari ehtiyotsizlik orqasidan jinoyat sodir etgani uchun jinoiy javobgarlikka tortilgan gumon qilinuvchining harakat motivlarini shakllantiradigan kuchli psixologik holatlardan birini ozodlikdan, odatdagi turmush tarzidan mahrum bo_lish, jinoyatchilar orasida bo_lib qolishdan qo_rqish tashkil qiladi.

Ushbu vaziyatda gumon qilinuvchi faqat gumonni rad etish, yolg_on ko_satuv berish orqaligina ushlab turish, hibsdan saqlash, qamoqqa olish, ozodlikdan mahrum qilish bilan bog_liq hukm chiqarilishidan qutulib qolish mumkin deb hisoblaydi. Natijada unda tegishli psixologik holat yuzaga kelib, profilaktika inspektori yengishi zarur bo_lgan qarash shakllanadi. Buning uchun gumon qilinuvchining aybini isbotlash uning iqrori bilan bog_liq emasligiga, uning aybini isbotlash uchun yetarli dalillar bazasi shakllantirilganligiga ishontirish talab qilinadi. Bu o_rinda chin ko_ngildan pushaymon bo_lish hamda jinoyatni ochishga faol ko_maklashish sud uchun javobgarlikni yengillashtiruvchi holat hisoblanishini tushuntirish ham talab qilinadi.

Gumon qilinuvchi, ham aybsiz kishi boshidan kechirayotgan psixologik holat alohida o_rin tutadi. Shubhasiz, u o_zida g_azab, jahl, alam hislarini sezadi, asoslanmagan shubhalardan tezroq qutulishga, aybsizligini isbotlashga intiladi, shuningdek, chorasizlik, o_ziga qarshi dalillarni rad eta olmaslik, atrofdagilarning o_zi haqidagi noto_g_ri fikrlarini yengish hislarini sezishi mumkin.

So_roqning samaradorligi ko_p jihatdan so_roq qilinayotgan shaxsning psixologik holatiga, gumon qilinuvchining o_z aybini anglashiga, to_g_ri ko_satuvlar berishga tayyor ekanligiga bog_liq. Aks holda profilaktika inspektori salbiy psixologik holatlarni taktik jihatdan mohirlik bilan susaytirishi, zararsizlantirishi yoki ijobiy tomonlarni kuchaytirishi yoxud qo_llab-quvvatlashi kerak.

3-§. Profilaktika inspektori tomonidan jinoyatlarni tergov qilishning psixologik muammolari

Bugungi kunda profilaktika inspektorlari huquqbuzarliklarning oldini olish faoliyati bilan bir qatorda, amaldagi jinoyat-protsessual qonuni

talablari asosida surishtiruvchi tariqasida surishtiruvni ham amalga oshiradilar.

Ma'lumki, surishtiruv jarayoni jinoyat-protsessual, kriminalistik taktik va psixologik jihatlarga ega tuzilishdan iborat. Surishtiruv faoliyatining bu har uch elementi bir-birini taqozo etadi va biri ikkinchisiga daxldor hisoblanadi. Jinoyat-protsessual tartibning buzilishi to'g'ridan-to'g'ri qonun buzilishini keltirib chiqarsa, kriminalistik taktik va psixologik yondashuvdagi xatolik bilvosita qonun buzilishiga sabab bo'ladi. Chunki, kriminalistik taktik yoki psixologik yondashuvdagi xatolik natijasida jinoyat o'z vaqtida ochilmasligi va uni sodir etgan shaxsning aybi fosh etilmasligi, bu esa jinoyat va jinoyat-protsessual qonun hujjatlarining vazifalarini bajarmaslik va uning prinsiplariga to'liq amal qilmaslikni keltirib chiqarishi mumkin.

Chunonchi, amaldagi Jinoyat kodeksining 2-moddasida «shaxsni, uning huquq va erkinliklarini, jamiyat va davlat manfaatlarini, mulkni, tabiiy muhitni, tinchlikni, insoniyat xavfsizligini jinoiy tajovuzlardan qo'riqlash» mazkur qonunning vazifasi sifatida belgilangan bo'lsa, qonunning 9 va 10-moddalarida esa, «Ayb uchun javobgarlik prinsipi» va «Javobgarlikning muqarrarligi prinsipi» o'z ifodasini topgan. Amaldagi Jinoyat-protsessual qonuniga murojaat etsak, uning 2-moddasida Jinoyat-protsessual qonun hujjatlarining vazifalari jinoyatlarni tez va to'la ochishdan, jinoyat sodir etgan har bir shaxsга adolatli jazo berilishi hamda aybi bo'lmagan hech bir shaxs javobgarlikka tortilmasligi va hukm qilinmasligi uchun aybdorlarni fosh etishdan hamda qonunning to'g'ri tatbiq etilishini ta'minlashdan iborat deb belgilanganligiga, shuningdek 22-moddasida «Haqiqatni aniqlash» prinsipining mavjudligiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Aynan ushbu belgilangan vazifalarning bajarilishi va prinsiplarga o'g'ishmay to'liq amal qilinishi asosan tergov faoliyatining samarali tashkil etilishiga bog'liq bo'ladi.

Profilaktika inspektorining surishtiruv faoliyatida yuzaga keladigan psixologik muammolarni quyidagi yo'nalishlarda ko'rib chiqish mumkin:

– tergov harakatlarini o'tkazishga psixologik tayyorgarlik ko'rish bilan bog'liq muammolar;

– tergov harakatlarini o'tkazish jarayonida psixologik bilimlarni qo'llash bilan bog'liq muammolar;

– surishtiruv davomida o'tkazilgan tergov harakatlarining natijalarini baholashda psixologik yondashuvdagi xatoliklar bilan bog'liq muammolar.

Tergov harakatlarini o'tkazishga psixologik tayyorgarlik ko'rish bilan bog'liq muammolar, avvalambor, profilaktika inspektorining psixologik bilimlarga ega bo'lmaganligidan, qolaversa, bu borada ayrim psixologik

bilimlar mavjud bo'lsa-da, uni kasbiy ko'nikma darajasida shakllantirilmaganligidan dalolat beradi.

Yuqorida biz bevosita profilaktika inspektorining tergov harakatlarini o'tkazishdagi psixologik tayyorgarligiga, tergov harakatlarini o'tkazish jarayonida psixologik qonuniyatlardan foydalanishiga va psixologik ta'sir ko'rsatishiga to'xtalib o'tgan edik.

Yuqorida ta'kidlanganidek, jinoyat ishlari bo'yicha profilaktika inspektorining tergov-tezkor guruhisiz hodisa sodir bo'lgan joyga chiqishi, u yerni ko'zdan kechirishi va boshqa harakatlarni bir o'zi amalga oshirishi eng qiyin vaziyat hisoblanadi. Chunki, bu yerda u yordamchi emas, balki tergov harakatining o'tkazilishiga to'g'ridan-to'g'ri mas'ul bo'lgan shaxs sifatida namoyon bo'ladi. Biroq shunga qaramay, amaliyotda aksariyat profilaktika inspektorlari tomonidan o'tkaziladigan hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish tergov harakati yetarli darajada sifat ko'rsatkichiga ega bo'lmaydi.

Bu holni profilaktika inspektorining jabrlangan, guvoh (shohid) bo'lgan va huquqbuzarlik sodir etgan shaxslardan olgan tushuntirishlarida ham kuzatish mumkin. Ushbu tushuntirishlar asosan jinoyat ishi qo'zg'atilguncha, ya'ni tergovga qadar bosqichda amalga oshiriladigan protsessual harakat tariqasida e'tirof etiladi.

Zotan, tergovga qadar tekshiruv – surishtiruv va dastlabki tergov organlarining jinoyat ishini qo'zg'atish masalasini hal etish yuzasidan JPKning qoidalari va belgilangan tartibda amalga oshiriladigan faoliyat hisoblanadi.

Profilaktika inspektori tomonidan olingan ba'zi tushuntirish xatlarida aynan oldingi paragraflarimizda ko'rib chiqilgan so'roq qilishning psixologik xususiyatlari va qoidalariga amal qilinmaslikka yo'l qo'yiladi. Natijada surishtiruv va dastlabki tergovning boshlang'ich bosqichida murakkab vaziyat yuzaga keladi. Bu murakkablik jabrlangan, guvoh (shohid) bo'lgan yoki huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarning sodir etilgan qilmishga nisbatan turlicha yondashuvi va har xil tushuntirishlar berishida namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham ko'pchilik hollarda bu tushuntirishlardan jabrlangan va huquqbuzarlik sodir etgan shaxsni bir-biridan farqlab olishda qiyinchiliklar kelib chiqadi.

Shu bois profilaktika inspektorining surishtiruv faoliyatini samarali tashkil etishi uchun uning ta'lim olish va malaka oshirishi davrida tergovga qadar tekshiruv bosqichida faoliyat olib borishga doir protsessual tartib, kriminalistik taktik hamda psixologik bilimlarni chuqur o'zlashtirishi maqsadga muvofiqdir.

Bu borada profilaktika inspektoridan ushbu vaziyatlarda to_g_ri qarorlar qabul qilish bilan bir qatorda bilim, qobiliyat, fazilat, malaka va ko_nikmalar: ishlar bo_yicha samarali reja tuzish, his-tuyg_ularni jilovlash, psixolog tili bilan aytganda, ruhiy tetiklik, hissiy barqarorlik va o_zini uyushtira bilish kabi sifatlarni shakllantirish talab etiladi.

Savol va topshiriqlar

1. Jinoyatlarni fosh etishda profilaktika inspektori faoliyatining alohida psixologik xususiyatlari haqida aytib bering.
2. Jinoyatchi shaxsning jinoyat sodir etguniga qadar shakllangan psixologiyasini qanday tahlil qilish mumkin?
3. Jinoyatlarni fosh etishda jinoyatchining shaxsiy xususiyatlari tahlili va jinoyat sodir etish sabablarini o_rganishning ahamiyati nimadan iborat?
4. Profilaktika inspektorlarining jinoyatlarni fosh etish faoliyatiga oid qanday psixologik muammolarni bilasiz?
5. Jinoyat haqidagi ariza va xabarlar yuzasidan tergovga qadar tekshiruv o_kazishning psixologik asoslarini aytib bering.
6. Guvoh, jabrlanuvchi, gumon qilinuvchilarni so_roq qilishning qanday psixologik xususiyatlarini bilasiz?

MUNDARIJA

SO,,ZBOSHI.....3

I bob. HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASI FAOLIYATI PSIXOLOGIYASI VA KRIMINOGEN VAZIYATNING PSIXOLOGIK TAHLILI

1-§. Huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyati psixologiyasi tushunchasi 6
2-§. Kriminogen vaziyat tushunchasi va uning ijtimoiy psixologik tavsifi 18

II bob. PROFILAKTIKA XIZMATI XODIMI SHAXSINING PSIXOLOGIK TAVSIFI VA KASBIY MAHORATINI SHAKLLANTIRISH

1-§. Profilaktika xizmati xodimi shaxsiga psixologik tavsif..... 23
2-§. Profilaktika xizmati xodimlari faoliyati samaradorligini oshirishda hissiy-irodaviy va shaxsiy fazilatlarining o_rni..... 41
3-§. Profilaktika inspektori shaxsining axloqiy-psixologik va kasbiy sifatlari..... 50
4-§. Profilaktika xizmati xodimlarining ish uslublari va usullarini tizimlashtirishning psixologik jihatlari..... 58

III bob. PROFILAKTIKA INSPEKTORLARI MULOQOTINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

1-§. Profilaktika inspektori faoliyatida muloqot tushunchasi va uning psixologik o_ziga xosligi 65
2-§. Profilaktika inspektori tomonidan „profilaktik hisob toifasidagi” shaxslar bilan muloqot qilishning psixologik tavsifi..... 72
3-§. Profilaktika inspektorining fuqarolar bilan psixologik aloqa o_rnatishi va ularga ta’sir etish usullari 82

IV bob. PROFAYLING XIZMATI – INSON XULQ-ATVORI VA XATTI- HARAKATINI PSIXOLOGIK BAHOLASH USULI

1-§. Profayling metodi tushunchasi va mohiyati..... 100
2-§. Profayling xizmatining ichki ishlar organlari tizimida joriy etilishi va ahamiyati..... 104
3-§. Yolg_on nazariyasi, uning kelib chiqish sabablari va shakllari 119

V bob. JAMOAT TARTIBINI SAQLASHDA PSIXOLOGIK BILIMLARDAN FOYDALANISH

1-§. Jamoadan tashqari axloq tushunchasi va uning psixologik o_ziga xosligini belgilovchi omillar..... 127
2-§ Jamoadan tashqari xulq-atvorni yuzaga keltiruvchi ijtimoiy-psixologik hodisalar 132

3-§. Jamoat tartibini saqlash va jinoyatchilikka qarshi kurash faoliyatini amalga oshirishda psixologik bilimlarning o_ri 137

VI bob. HUQUQBUZARLIK SODIR ETISHGA MOYIL SHAXSLAR VA ULARGA PSIXOLOGIK TA‘SIR ETISH USULLARI

1-§. Profilaktik hisob toifasidagi shaxslarning psixologik tavsifi..... 148
2-§. Profilaktika inspektorining profilaktik hisobda turadigan shaxslarga psixologik ta‘sir etish usullari 162

VII bob. PROFILAKTIKA INSPEKTORINING DINIY EKSTREMIZM VA TERRORIZMGA QARSHI KURASHISHDA PSIXOLOGIK BILIMLARDAN FOYDALANISHI

1-§. Diniy ekstremizm va terrorizmning vujudga kelishi sabablari va ularni oldini olish faoliyatining psixologik asoslari 179
2-§. Diniy-ekstremistik harakatlarning yoshlarga ko_rsatayotgan psixologik ta‘siri 185
3-§. Diniy-ekstremistik oqim a‘zolarining oilasi bilan profilaktika inspektorining psixologik suhbat olib borish usullari 189
4-§. Terrorizm va diniy ekstremizmning oldini olishning psixologik chora-tadbirlari 195

VIII bob. ICHKILIKBOZLIK VA GIYOHVANDLIKNI OLDINI OLISH FAOLIYATINING PSIXOLOGIK TAVSIFI

1§. Ichkilikbozlik, giyohvandlik va zaharvandlikning inson ruhiyati va xulq-atvorining kriminallashuviga ta‘siri 201
2-§. Ichkilikbozlik, giyohvandlik va zaharvandlikning oldini olish faoliyatida psixologik bilimlarning ahamiyati 206
3-§. Profilaktika inspektorlarining ichkilikbozlik va giyohvandlik hamda zaharvandlikning oldini olishda psixologik bilimlardan foydalanishi 210

IX bob. NOTINCH OILALAR BILAN PROFILAKTIK FAOLIYAT OLIB BORISHNING PSIXOLOGIK JIHLTLARI

1-§. Notinch oilalarda sodir etiladigan jinoyatlarning oldini olishda psixologik bilimlarning ahamiyati 220
2-§. Oila-turmush doirasida jinoyat sodir etgan shaxslarning psixologik tavsifi 228
3-§. Profilaktika inspektorining oila-turmush sohasidagi jinoyatlarni oldini olishda jamoat tashkilotlari bilan o_zaro hamkorligining psixologik jihatlari..... 235

X bob. VOYAGA YETMAGANLAR HUQUQBUZARLIKLARI PROFILAKTIKASI FAOLIYATINING PSIXOLOGIK ASOSLARI

1-§. Voyaga yetmaganlar nazoratsizligi va huquqbuzarliklari profilaktikasi psixologiyasining huquqiy asoslari 243
2-§. Voyaga yetmaganlar o_rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning psixologik omillari..... 257

**XI bob. MA“MURIY NAZORAT OSTIDAGI SHAXSLAR PSIXOLOGIYASI
VA ULAR BILAN ISHLASHNING PSIXOLOGIK JIHATLARI**

1-§. Profilaktika inspektorining ma‘muriy nazoratda turuvchi shaxslar bilan ishlashida psixologik bilimlarning ahamiyati	298
2-§. Profilaktika inspektorining ma‘muriy nazorat ostidagi shaxslar bilan psixologik aloqa o_rnatish bosqichlari	305
3-§. Profilaktika (katta) inspektorining ma‘muriy nazorat ostidagi shaxslar bilan profilaktik suhbat o_tkazish jarayonida psixologik bilimlarni qo_llashi	311

**XII bob. HUQUQBUZARLIKLARNING VIKTIMOLOGIK
PROFILAKTIKASIGA PSIXOLOGIK TAVSIF**

1-§. Huquqbuzarlikning viktimologik profilaktikasini amalga oshirishda psixologik bilimlarning ahamiyati	319
2-§. Huquqbuzarliklar viktimologik profilaktikasini amalga oshiruvchi subyektlarning psixologik tavsifi	328
3-§. Huquqbuzarliklar viktimologik profilaktikasi obyektlarining psixologik jihatlari.....	336

**XIII bob. JINOYATLARNI FOSH ETISH VA TERGOVGA QADAR
TEKSHIRUV HAMDA SURISHTIRUV O„TKAZISH FAOLIYATINING
PSIXOLOGIK TAVSIFI**

1-§. Jinoyatlarni fosh etish faoliyatining psixologik asoslari	342
2-§. Jinoyat haqidagi xabarlar yuzasidan tergovga qadar tekshiruv va jinoyat ishlari bo_yicha surishtiruv o_tkazishning psixologik asoslari.....	349

HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASI FAOLIYATI PSIXOLOGIYASI

O_zbekiston Respublikasi IIV oliy ta'lim
muassasalari uchun darslik

Muharrirlar: I. I. Huvaytov,
Texnik muharrir: D.R. Djalilov

Bosishga ruxsat etildi 25.05.2015 y. Nashr. hisob tabag_i 20,0.
Adadi 50 nusxa. Bosma № . Bahosi kelishilgan narxda

O_zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi,
100197, Toshkent sh., Intizor ko_chasi, 68.